



**INVESTITSIYA  
FAOLIYATINING  
XALQARO HUQUQIY  
KAFOLATLARI**

**2023**

**XALQARO ILMIY-AMALIY  
KONFERENSIYASI  
MATERIALLARI**

**“INVESTITSIYA FAOLIYATINING  
XALQARO HUQUQIY KAFOLATLARI”**

**“МЕЖДУНАРОДНО-ПРАВОВЫЕ  
ГАРАНТИИ ИНВЕСТИЦИОННОЙ  
ДЕЯТЕЛЬНОСТИ”**

**“INTERNATIONAL LEGAL GUARANTEES  
OF INVESTMENT ACTIVITY”**

***XALQARO ILMIY-AMALIY  
KONFERENSIYASI MATERIALLARI***

UO'K: 330.322(092)(575.1)

**Tahrir hay'ati:**

R. Abdullayeva, Z. Oripov, Y. Eshqulov, D. Axmedova, A. Fayzullayev, N. Baxromova, S. Amirov

**Taqrizchilar:**

**G.P. Erkayeva** – Qarshi davlat universiteti Masofaviy ta'lim kafedrasi mudiri i.f.n., dotsent;

**A. Jumagulov** – TDYU, Biznes huquq kafedrasi katta o'qituvchisi, PhD.

Investitsiya faoliyatining xalqaro huquqiy kafolatlari / ekspertlar ishtirokida  
(videokonferensiya shaklida)

**“INVESTITSIYA FAOLIYATINING XALQARO HUQUQIY  
KAFOLATLARI” / “МЕЖДУНАРОДНО-ПРАВОВЫЕ ГАРАНТИИ  
ИНВЕСТИЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ” / “INTERNATIONAL  
LEGAL GUARANTEES OF INVESTMENT ACTIVITY”** [Matn]: Xalqaro  
ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – T.: TDYU nashriyoti, 2023.  
– 248 b.

Toshkent davlat yuridik universiteti bilan hamkorlikda Qashqadaryo viloyati yuridik texnikumi tomonidan 2023-yil 30-mart kuni “Investitsiya faoliyatining xalqaro huquqiy kafolatlari” mavzusida xorijiy mamlakatlar ekspertlari, yetakchi olimlar, TDYU professor-o'qituvchilari, OTM professorlari, ilmiy izlanuvchilar, doktorantlar, magistrleri, yuridik texnikumi rahbarlari va pedagog xodimlari, talabalar ishtirokida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya o'tkazilgan.

Mazkur konferensiya materiallari to'plam holida tayyorlangan bo'lib, unda investitsiya muammolari tahlili, yoshlarda investitsiya tushunchasini shakllantirish masalalari, investitsiya faoliyatida eng dolzarb vazifalar hamda ularning huquqiy yechimlariga qaratilgan chora-tadbirlar ilmiy-amaliy jihatdan muhokama etilib, mavjud muammolar va ularning yechimlariga qaratilgan takliflar va dolzarb mavzulardan iborat maqola va tezislar o'rin olgan.

Konferensiya materiallari barcha mutaxassislar, talabalar va keng omma uchun mo'ljallangan.

*Maqolalarda keltirilgan ma'lumotlarning mazmuni va to'g'riligiga muallif o'zi javobgar hisoblanadi.*

*To'plam Toshkent davlat yuridik universiteti Tadqiqot etikasi kengashining 2023-yil 29-maydagi 8-sonli qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.*

## MUNDARIJA

<b>KIRISH</b> .....	8
<b>INTRODUCTION</b> .....	10
<b>1-YO‘NALISH. INVESTITSIYA FAOLIYATINING XALQARO HUQUQIY KAFOLATLARI, XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB QILISH</b>	
<b>A.Джуманов</b> Общая характеристика и актуальные проблемы развития хозяйственного товарищества в Узбекистане .....	12
<b>S.Butunov</b> Korxonalar investitsiya faoliyati auditining usullarini takomillashtirish .....	15
<b>F.Umarov</b> Investitsiya faoliyatining xalqaro huquqiy kafolatlari, xorijiy investitsiyalarni jalb etishning huquqiy asoslari .....	18
<b>S.Egamberdiyeva, B.Faxriddinov</b> Uzoq muddatli aktivlarga investitsiyalar auditini takomillashtirish .....	23
<b>K.Muzaffarova, S.Eshmurodova</b> The importance of tourism in attracting foreign investments .....	26
<b>K.Muzaffarova, X.Abdukarimov</b> Investitsion muhitni yaxshilashning huquqiy asoslari .....	28
<b>Z.Oripov</b> Investitsiyalar iqtisodiyot rivojida muhim omil .....	31
<b>S.Quryozov, M.Adamov</b> Investitsiya faoliyatining xalqaro huquqiy kafolatlari, xorijiy investitsiyalarni jalb etishning huquqiy asoslari .....	33
<b>S.Masharifov</b> Investitsion faoliyat tushunchasining huquqiy tasnifi .....	36
<b>U.O‘rinboyev</b> Investitsiyalarning iqtisodiy mazmuni va mohiyati .....	39
<b>S.Isakjanova</b> Investitsion faoliyat tushunchasining huquqiy tahlili .....	43
<b>O.Poyonov</b> O‘zbekistonning investitsion jozibadorligiga ijobiy va salbiy ta‘sir etuvchi omillar .....	46
<b>M.Oripova</b> To‘g‘ridan to‘g‘ri investitsiyalarni investitsion bozordagi roli .....	50

**I.Qandimov**

O'zbekistonda mahalliy va chet el investorlari faoliyatini yanada rivojlantirish  
maqsadida yaratilgan imtiyozlar ..... 52

**Sh.Ahmadjonova**

Iqtisodiy faoliyatni rivojlantirishda investitsiya faoliyatini muhim ahamiyati ..... 55

**Sh.Sadikova**

Investitsiyalarning milliy qonunchilikka muvofiqligi ..... 57

**S.Usmonqulova**

Investitsiya faoliyatining xalqaro huquqiy kafolatlari, xorijiy investitsiyalarni  
jalb etishning huquqiy asoslari ..... 59

**A.Allaberdiyeva**

Investitsiya tushunchasi va tasnifi ..... 61

**B.Rahimova**

Xalqaro investitsiya huquqining kelajakdagi rivojlanishi ..... 64

**S.Meyliyeva**

Investitsiya faoliyatining xalqaro huquqiy kafolatlari, xorijiy investitsiyalarni  
jalb etishning huquqiy asoslari ..... 68

**M.Mansurova**

Investitsiya faoliyatining xalqaro huquqiy kafolatlari ..... 72

**M.Erkabayev**

Investitsiya tushunchalari va investitsiya faoliyatining huquqiy  
asoslari va kafolatlari ..... 75

**S.Botirova**

O'zbekistonning investitsiya faoliyati sohasida xalqaro hamkorlik masalalarini  
rivojlantirish ..... 78

**Sh.Mamatqulova**

Xalqaro doirada investitsiya faoliyatini tartibga soluvchi normativ huquqiy hujjatlar ..... 81

**D.Bobomurodova**

Investitsiya faoliyatining jahon hamjamiyatidagi kafolatlari ..... 83

**A.Shonazarov**

International legal guarantees of investment activity, legal framework for attracting  
Foreign investment ..... 90

**M.Berdimurodova**

Investitsiya faoliyatining xalqaro huquqiy kafolatlari ..... 95

**O.Abdujabborov**

Investitsiya faoliyatining xalqaro huquqiy kafolatlari ..... 98

**Sh. Xalilov**

Xalqaro investitsion nizolarni hal etishning huquqiy asoslar ..... 101

## 2-YO'NALISH. INVESTITSIYA FAOLIYATINING XALQARO HUQUQIY KAFOLATLARI, XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB ETISHNING HUQUQIY ASOSLARI

### **U. Shukurov**

Sanoat ishlab chiqarish faolligini oshirish orqali hududlarga investitsiyalarni  
jalb qilish imkoniyatlari ..... 106

### **U. Xudoyorov**

Respublikamizda investitsiyaning qurilishdagi o'rni ..... 109

### **J. Xolbayev, D. Lapasov**

O'zbekiston Respublikasining to'g'ridan to'g'ri investitsiyalar jamg'armasi faoliyati  
to'g'risida ..... 111

### **A. Adilbekova**

Prospects and challenges for local and foreign investors in Uzbekistan:  
legal framework and investment climate ..... 114

### **J. Baxtiyorov**

O'zbekiston jahon investitsiya muhitidagi o'rni ..... 117

### **B. Jumayev**

Yangi O'zbekistonda investitsiya faoliyatining xalqaro huquqiy kafolatlari  
hamda ularga doir kibermakondagi kiberxavfsizlik masalalari ..... 121

### **A. Ismoilov**

Investitsiya faoliyatining xalqaro huquqiy kafolatlari ..... 125

### **B. To'yev**

Tadbirkorlar faoliyatini mamlakatimizda yanada rivojlantirish istiqbollari ..... 128

### **Sh. Shoyimova**

Mahalliy investorlar va chet el investorlari faoliyatini mamlakatimizda yanada  
rivojlantirish istiqbollari ..... 131

### **M. Poyonova**

Investitsiya faoliyatining xalqaro huquqiy kafolatlari ..... 134

### **F. Qudratova**

Yurtimizda investitsiya faoliyatining xalqaro huquqiy kafolati ..... 137

### **Z. Ro'ziboyeva**

O'zbekistonda chet el investorlarining huquqlari ..... 140

### **D. Fayziyeva**

Investitsiya faoliyatining xalqaro-huquqiy asoslari va milliy huquq bilan tartibga solinishi ..... 146

### **P. Qurbonova, S. Payzullayeva**

Investitsiya faoliyatining xalqaro huquqiy kafolatlari ..... 149

**R. G'aniyeva**

Mahalliy investorlar va chet el investorlari faoliyatini mamlakatimizda yanada rivojlantirish istiqbollari ..... 153

**D. Panjiyeva**

O'zbekistonning jahon hamjamiyatidagi rivojlangan davlatlarning investorlari bilan hamkorlik masalalarini mustahkamlash ..... 156

**S.Rustamova**

O'zbekistonimizda xorijiy investitsiyalarni jalb etish, mahalliy investorlar va chet el investorlari faoliyatini yanada rivojlantirishimizning istiqbollari ..... 160

**D.Haydarova**

Mamlakatimizda investitsiya faoliyatining huquqiy asoslari va investitsiyaning mamlakat taraqqiyotidagi o'рни ..... 163

**I.Xajiboyev, S.Olimov**

Investitsiya faoliyatining subyektlari va ularning huquqiy holati ..... 166

**N.Zamanov**

Investitsiya faoliyatining xalqaro huquqiy kafolatlari ..... 169

**3-YO'NALISH. MAHALLIY INVESTORLAR VA CHET EL INVESTORLARI FAOLIYATINI  
MAMLAKATIMIZDA YANADA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI**

**I.Nuratdinova**

O'zbekiston Respublikasiga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning huquqiy asoslari va O'zbekiston Respublikasida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar uchun imtiyozlar ..... 174

**T.Prekeyeva**

Mahalliy investorlar va chet el investorlari faoliyatini mamlakatimizda yanada rivojlantirish istiqbollari ..... 178

**M.Dustova, Z.Khalilova**

Increasing the attractiveness of the investment environment in the country ..... 181

**M.Yarashev, A.Rakhmatullayeva**

Development of activities of foreign investors in the country ..... 184

**I.Akramov**

Kichik biznes subyektlarini investitsiyalash tartibi va xorij tajribalari ..... 187

**A.O'ralova**

Investitsiya faoliyatining xalqaro huquqiy kafolati ..... 191

**A.Fayzullayev, M.Nurmatov**

Yevropa ittifoqi va Xitoyning investitsiyaviy munosabatlari ..... 194

**F.Umitova**

Investitsiya faoliyatining xalqaro huquqiy kafolatlari ..... 199

**S.Qahhor-Zoda**

Xalqaro va mahalliy doirada investitsiya faoliyatining kafolatlari .....202

**Dj. Erniyazov**

Investitsion faoliyatining mohiyati va uning davlatimiz iqtisodiyotidagi oʻrni .....206

**I.Murodullayev**

Yaponiya-Oʻzbekiston munosabatlari istiqbollari .....211

**B.Choriyev**

Mamlakatimizda faol investitsiyalar jalb etish tizimini takomillashtirishning ayrim  
masalalari .....221

**S.Amirov**

Investitsiya huquqi va uni huquq tizimidagi oʻrni .....226

**T.Rasulova**

Investitsiya faoliyatining xalqaro huquqiy kafolatlari .....230

**Sh.Qoʻldoshev**

Oʻzbekiston Respublikasida qulay investitsiya muhitini yaratish masalalari .....233

**S.Akromova**

Mahalliy investorlar va chet el investorlari faoliyatini mamlakatimizda yanada  
rivojlantirish asoslari .....236

**D. Ubaydullayev**

Investitsion faoliyat: aksiyadorlik jamiyatida investitsiya .....241

**J. Buronov**

Qimmatli qogʻozlar va ularning turlari.....244



## KIRISH

O‘zbekiston iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni faol jalb etish hamda investitsiyalar to‘g‘risidagi qonunchilikni yanada takomillashtirish, shuningdek, hududlarda investitsiya muhitini izchil yaxshilab borish, xorijiy mamlakatlarning ushbu faoliyat bo‘yicha huquqiy tartibotlari, ular amal qilishiga asos bo‘lgan institutsional normalar va mexanizmlarni bilishni talab etadi.

Ma‘lumki, jahondagi biron-bir mamlakat xorijiy sarmoyalarni jalb qilmasdan turib taraqqiyotga hamda iqtisodiyot rivojiga erisha olmaydi. Shu bois ham bu ish mamlakatimizning iqtisodiy - huquqiy siyosatida ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylangan.

Mamlakatimizdagi mavjud qonunchilik bu borada xorijiy sarmoyadorlarga bir qator kafolat va imtiyozlar berishini ta‘minlashini ham alohida aytib o‘tishimiz lozim.

Shu o‘rinda xorijiy investitsiyalarni iqtisodiyotimizda naqadar zarurligini e‘tirof etgan holda: xorijiy sarmoyadorlarning O‘zbekiston Respublikasida olib borilayotgan investitsion siyosatiga, qonun ustuvorligiga, eng asosiysi to‘lov qobiliyatiga qodir bo‘lgan kuchli sherik sifatida ishonchlarini qozonish lozim.

Buning uchun iqtisodiyotimizga xorijiy investitsiyalarni asosan to‘g‘ridan to‘g‘ri kapital sarmoyalar ko‘rinishida keng jalb qilinishi uchun huquqiy, ijtimoiy iqtisodiy va boshqa zarur shart-sharoitlarni yaratish, qo‘shma korxonalar tashkil etilishiga ko‘maklashish, shuningdek, investorlar manfaatlari himoya qilinishini takomillashtirish zarur. Bularning barchasi bu boradagi qonunlarni va qonunosti hujjatlarini puxta bilishni talab etadi. Aynan mana shular borasida konferensiya davomida keltirib o‘tilgan qimmatli ma‘lumotlar to‘plamda jamlangan.

Shu bilan birga Prezidentimizning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasida ham Oltinchi yo‘nalish - bevosita investitsiyalar bilan bog‘liq ekanligini aytib o‘tishimiz lozim.

Prezidentimiz murojaatnomada iqtisodiyotga mahalliy va xorijiy xususiy investitsiyalarni ko‘paytirish uchun sharoitlarni yanada yaxshilash lozirligini, so‘nggi olti yilda investitsiyalar hajmini yalpi ichki mahsulotning 30 foizidan oshirishga erishilganligini kelgusi yili qariyb 30 milliard dollar sarmoya jalb qilinishi, shundan 25 milliard dollar xususiy investitsiyalar bo‘lishi, jumladan, umumiy qiymati 8 milliard dollarlik 300 dan ziyod loyihani ishga tushirilishini va yana 40 ta yangi yirik loyiha boshlanishini ma‘lum qildilar.

Ushbu yo‘nalishda keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilayotganligidan kelib chiqib, aholining, jumladan o‘quvchilarning bu boradagi bilimlarini oshirib borish yangi qonunchilik hujjatlaridan xabardorligini va ularni amaliyotda qo‘llay olish ko‘nikmalarini rivojlantirib borish asosiy vazifalarimizdan biri hisoblanadi.

O‘ylaymanki, bu kelajakda o‘quvchilarimizning taraqqiyotimizga hissa qo‘sha oladigan raqobatbardosh kadrlar bo‘lib yetishishida ham ahamiyatga ega.

Mazkur konferensiyada bugungi kunda O‘zbekistonning investitsiya faoliyatidagi munosabatlarining huquqiy asoslarini ilmiy-amaliy jihatdan muhokama etish ko‘zda tutilgan edi.

Konferensiyada xorijiy mamlakatlar ekspertlari, yetakchi olimlar, mahalliy huquqshunoslar, oliy ta‘lim muassasalari professor-o‘qituvchilari, doktorantlari, magistrantlari, mustaqil izlanuvchilar, viloyatlardagi yuridik texnikum o‘quvchilari hamda o‘qituvchilari faol ishtirok etishdi.

**Konferensiyadan ko‘zlangan maqsad** – O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tizimidagi yuridik texnikum o‘quvchilariga **Xalqaro doirada investitsiya faoliyatini**

**tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar tasnifi va mohiyati bilan tanishtirish,** investitsiya sohasida rivojlangan davlatlar bilan hamkorlikning huquqiy asoslarini hamda huquqiy kafolatlarini tahlil qilish, muammo-yechimlarni aniqlashdan iborat qilib belgilab olingandi. Konferensiya davomida mana shu maqsadlarga erishdik.

Umid qilamizki, mazkur to‘plamda keltirib o‘tilgan qimmatli ma’lumotlar barchamiz uchun foydali bo‘ladi.

## INTRODUCTION

In order to actively attract foreign investments into the economy of Uzbekistan and further improve investment legislation, as well as consistently improve the investment climate in the regions, knowledge of the legal procedures of foreign countries, institutional norms and mechanisms on which they are based is required.

It is known that no country in the world can achieve the development of the economy without attracting foreign investment. Therefore, this case has become one of the priorities in the economic and legal policy of our country.

It should also be noted separately that the current legislation in our country provides foreign investors with a number of guarantees and benefits.

At the moment, recognizing how necessary foreign investment is in our economy: it is necessary to gain the trust of foreign investors as a strong partner capable of paying, as well as the most important thing in investment policy - the rule of law, which is carried out in the Republic of Uzbekistan.

To do this, it is necessary to create legal, socio-economic and other necessary conditions for the broad attraction of foreign investments into our economy, mainly in the form of direct capital investments, to promote the creation of joint ventures, as well as to improve the protection of investors' interests. All this indicates a thorough knowledge of the laws and regulations in this area. These valuable information given during the conference and in the collection.

At the same time, the President's message to the Supreme Assembly and the People of Uzbekistan that the sixth direction is directly related to investments.

The presidential speech of the need to further improve the conditions for increasing domestic and foreign private investment. The volume of investments have been increasing by 30% of gross domestic product over the past six ears. They said that almost \$30 billion will be invested next ear, of which \$25 billion will be private investments, including more than 300 projects worth \$8 billion will be launched, and 40 new major projects will be launched.

Due to the fact that large-scale work is being carried out in this direction, one of our main tasks is to develop awareness of the population, including students, about new legislative acts and skills that allow them to be applied in practice.

I am glad that it is also important for the development of competitive personnel who can contribute to the progress of our students in the future.

At this conference, it is supposed to discuss the legal framework of Uzbekistan's relations in the field of investment activity in a scientific and practical way today.


Experts from foreign countries, leading scientists, lawyers, professors and teachers of higher educational institutions, Phd, undergraduates, independent researchers, students and teachers of the law colleges took an active part in the conference.

The purpose of the conference was to familiarize students of the law college of the Ministry of Justice of the Republic of Uzbekistan with the classification and essence of regulatory legal acts regulating investment activities in the international sphere, analysis of the legal framework and legal guarantees of cooperation with developed countries in this area. investments to identify ways to solve problems. This is what we achieved during the conference.

We hope that the valuable information mentioned in this collection will be useful to all of us.

**O'ral Ostanov**

Qashqadaryo viloyat adliya boshqarmasi boshlig'i  
Head of the Department of Justice of the Kashkadarya region



**1-YO'NALISH:**  
**INVESTITSIYA FAOLIYATINING**  
**XALQARO HUQUQIY**  
**KAFOLATLARI,**  
**XORIJIY INVESTITSIYALARNI**  
**JALB QILISH**

## ОБЩАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА И АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ РАЗВИТИЯ ХОЗЯЙСТВЕННОГО ТОВАРИЩЕСТВА В УЗБЕКИСТАНЕ

**Аскар Джуманов**

Старший преподаватель кафедры Бизнес права ТГЮУ

Email: askar.djumanov@gmail.com

В законодательстве Республики Узбекистан правовое регулирование деятельности хозяйственного товарищества нашло своё отражение в Гражданском кодексе Республики Узбекистан. Нужно отметить, что кодекс содержит декларативные нормы, не регулируют детально. Отдельно от кодекса, законодатель принял специальный закон о хозяйственных товариществах.

Порядок создания, деятельности, реорганизаций и ликвидаций хозяйственных товариществ регулируется Законом Республики Узбекистан «О хозяйственных товариществах» №308-II от 06.12.2001 года (далее «Закон»).

Согласно Закона хозяйственные товарищества могут существовать в двух формах: полное товарищество и коммандитное товарищество.

Само понятие хозяйственное товарищество включает в себя следующее:

1. Коммерческая организация (обязательно юридическое лицо);
2. Уставный фонд разделен на доли;
3. Уставный фонд не менее 50ти БРВ (базовой расчётной величины);
4. Участники или некоторые из них принимают личное участие в деятельности;
5. Полные товарищи: только индивидуальные предприниматели и коммерческие организации;
6. Не менее 2-х участников

### **Полное товарищество**

В случае учреждения полного товарищества, участники несут субсидиарную ответственность своим имуществом по обязательствам товарищества. Данная норма означает, что в случае недостаточности имущества товарищества, учредитель (участник) товарищества должен нести ответственность своим личным имуществом. Кредитор обязан обратиться сначала к хозяйственному товариществу с требованием, только в случае невозможности удовлетворения долгов, можно будет привлечь к ответственности его участников (полных товарищей).

Учредителем в полном товариществе могут быть только индивидуальные предприниматели без образования юридического лица и коммерческие организации. Следовательно, физическое лицо (не прошедшее регистрацию в качестве индивидуального предпринимателя) и некоммерческая организация не имеют право быть участниками в полном товариществе, а также не могут выступать в роли полных товарищей в коммандитном товариществе.

### **Коммандитное товарищество**

В случае коммандитного товарищества, структура похожа на полное товарищество, но дополнительно участниками могут быть и вкладчики. Такие вкладчики отвечают по обязательствам товарищества только в пределах внесённого вклада. Нужно отметить, что в качестве вкладчика могут выступать любые юридические и физические лица. Вкладчики в коммандитном товариществе похожи по правовому статусу участникам общества с ограниченной ответственностью, но установлено возможное ограниченное право управление товариществом.

## Сравнение и недостатки

В современном законодательстве Узбекистана *размывается понятие юридическое лицо* и все организационно-правовые формы коммерческих организаций регулируются едиными правилами и требованиями, что делают отдельные формы как хозяйственное товарищество непопулярным.

Учитывая специфику хозяйственного товарищества согласно действующему законодательству Узбекистана, предприниматели неохотно выбирают данную форму по следующим причинам:

1. Обязательная государственная регистрация в качестве юридического лица;
2. Дополнительная (субсидиарная) ответственность учредителей;
3. Отсутствие определённых преференций согласно налоговому и банковскому законодательству (никаких льгот несмотря на неограниченную ответственность);
4. Ограниченный круг лиц полных товарищей (прямое ограничение предпринимательской активности).

Учреждение хозяйственного товарищества непосредственно связана с обязательной государственной регистрацией по причине юридической личности. Несмотря на свою особенность по сравнению с другими юридическими лицами, хозяйственное товарищество обязано пройти все единые процедуры.

Основное преимущество «общества с ограниченной ответственностью» (далее «ООО») по сравнению с хозяйственным товариществом является то, что учредители (участники) ООО несут ограниченную ответственность в пределах внесённого вклада.

Конечно предпринимателю при выборе из двух вариантов привлекательней будет конструкция ООО, где предусмотрена ограниченная ответственность учредителя.

Можно смело утверждать, что конструкция ООО намного привлекательнее чем хозяйственное товарищество по уже названной причине. Данный факт подтверждается и статистическими данными. Немаловажным преимуществом ООО является то, что оно может быть учреждено одним лицом (любое физическое и юридическое лицо). Для мелкого бизнеса, с конструкцией, где одно физическое лицо является учредителем, директором и несёт ограниченную ответственность, лучше ООО вряд ли можно найти.

Отсутствие кардинальных изменений в корпоративных конструкциях приведёт к тому, что в один день законодательство о хозяйственных товариществах будет исключено.

Вышеуказанные недостатки по сравнению с ООО, конечно не являются самыми определяющими, так как целью хозяйственного товарищества является именно объединить людей для достижения определённой цели, а основной целью ООО является объединение капитала.

Конечно все кроется в понимании такого явления как «юридическое лицо» как было указано выше. Согласно доктрине, явление как юридическое лицо было изобретено для ограничения ответственности собственника. Юридическое лицо должно было выступать в роли корпоративного щита для защиты личной собственности его создателя. Напротив, хозяйственное товарищество никак не может служить в роли корпоративного щита, соответственно не отвечает главному элементу юридического лица.

В большинстве стран Западной Европы и США хозяйственные товарищества являются не инкорпорированными или не имеют статус юридического лица. Товарищество в зарубежных странах привлекает своей простотой в управлении, создании и ликвидации.

Понимание хозяйственного товарищества базируется на таких принципах: «теория объединения» и «теория юридической личности» [3, С.35]. От применения одной из теорий зависит и законодательное закрепление. В случае применения теории

объединения, товарищество должно рассматриваться исключительно как союз лиц, а не отдельная личность. В случае применения теории юридической личности, то хозяйственное товарищество рассматривается как отдельное юридическое лицо. В случае применения второй теории, хозяйственное товарищество должно будет уплачивать корпоративный налог, а его учредители – налог с дивидендов. В случае применения теории совокупности, как в некоторых зарубежных странах, хозяйственное товарищество не будет уплачивать корпоративный налог.

Юридическое лицо является самостоятельным субъектом гражданско-правовых отношений, и по сути должен существовать даже в случае выхода его учредителей. В случае с ООО, если все даже участники выйдут из компании, такое ООО может продолжить свою деятельность. Однако хозяйственное товарищество не может существовать с одним даже участником [4, С.240].

### Список использованной литературы

1. Закон Республики Узбекистан «О хозяйственных товариществах» № 308-II от 6 декабря 2001 г. // URL: <https://lex.uz/acts/2457>
2. Закон Республики Узбекистан «Об обществах с ограниченной и дополнительной ответственностью» № 310-II от 6 декабря 2001 года // URL: <https://lex.uz/docs/18793>
3. Angela Schneeman, The Law of Corporations and other business organizations, fifth edition, 2010.
4. Джуманов, Аскар. «Учреждение общества с ограниченной ответственностью в Германии и Узбекистане.» *Общество и инновации* 2.11/S (2021): 238-248. URL: <https://inscience.uz/index.php/socinov/index>

## KORXONALAR INVESTITSIYA FAOLIYATI AUDITINING USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH

**Shaymardon Butunov**

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti  
Buxgalteriya hisobi va audit kafedrası katta o'qituvchisi

**Annotatsiya:** *Iqtisodiyotni rivojlantirish, yangi bosqichga ko'tarish, investitsiyaga keng jalb qilishi muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun korxonalariga kiritilgan investitsiya to'g'ri hisobga olingan va audit tekshiruvlaridan o'tkazilgan bo'lishi kerak. Korxonalarda investitsiyalarning samaradorligini oshirishda va korxonalar foydasini maksimallashtirishda investitsiyalarni buxgalteriya hisobida to'g'ri yuritilishini audit qilish alohida ahamiyat kasb etadi.*

**Kalit so'zlar:** *investitsiya, aksiya, obligatsiya, foiz, dividend, diskontlash, auditorlik tekshiruvi.*

**Аннотация:** *Важно развивать экономику, поднимать ее на новый уровень, привлекать широкий спектр инвестиций. Поэтому инвестиции в предприятия должны надлежащим образом учитываться и проверяться. В целях повышения эффективности инвестиций в предприятия и максимизации прибыли предприятий особое значение имеет проверка правильности управления инвестициями в бухгалтерском учете.*

**Ключевые слова:** *инвестиции, акции, облигации, проценты, дивиденды, дисконтирование, аудит*

Subyektlar dividendlar yoki foizlar ko'rinishida qo'shimcha daromad olish maqsadida, o'zlarini erkin mablag'larini moliyaviy qo'yilmalar sifatida boshqa subyektlarga berishlari mumkin, bu boshqacha qilib aytganda – moliyaviy investitsiya hisoblanadi. Auditorlik tekshiruvi jarayonida subyekt tomonidan uzoq va qisqa muddatli moliyaviy investitsiyalarni iqtisodiy samaradorligiga katta e'tibor qaratish lozim. Hozirgi rivojlanayotgan bozor sharoitida ushbu masala amaliyotda ba'zi bir jihatlari sekin-asta o'z ifodasini topmoqda, chunonchi, boshqa subyektlar ustav kapitaliga investitsiyalar kiritish, subyektlardan qimmatli qog'ozlarni sotib olish, ularga qarz berish va investor-subyektlar bergan qarzlari bo'yicha foizlar va kiritgan investitsiyalari bo'yicha dividendlar ko'rinishida daromad olishlari haqiqiy ifodasini topdi.

Bu holat, zarar keltiradigan ishlab chiqarishga mablag' qo'ymaslik va qo'yilgan uzoq va qisqa muddatli investitsiyalarni yo'qotmaslik yoki ushbu qo'yilmalardan tegishli iqtisodiy samara olish uchun investitsiya kiritilayotgan subyektning moliyaviy-xo'jalik faoliyati va moliyaviy ahvoli yaxshi o'rganilishi kerakligini keltirib chiqaradi.

Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi auditning vazifalarini belgilandi:

1. Subyekt aktivlarini moliyaviy investitsiyalar tarkibiga kiritilganligi to'g'riligini tekshirish.
2. Hisobda moliyaviy investitsiyalarni tegishli belgilari bo'yicha ularni turkumlanishini chegaralash to'g'riligini tekshirish.
3. Moliyaviy investitsiyalarni hisobga olishda ularni qiymati to'g'ri shakllanganligini tekshirish.
4. Moliyaviy investitsiyalar bilan bog'liq muomalalar hisobini to'g'riligini tekshirish.
5. Moliyaviy investitsiyalar sintetik va analitik hisobi holatini baholash.
6. Moliyaviy investitsiyalarni inventarizatsiyadan o'tkazish tartibi va ularni natijalarini hisobda to'g'ri aks ettirilganligini tekshirish.
7. Moliyaviy investitsiyalar bilan bog'liq muomalalar bo'yicha soliq qonunchiligiga rioya etilayotganligini tekshirish.

Auditorning oldida turgan maqsad va vazifalardan kelib chiqib, auditning obyektlarini belgilab olamiz:



1-jadval

Moliyaviy investitsiyalar auditing obyektlari

Ko'rsatkichlar	Ko'rsatkichlar keltirilgan moliyaviy hisobot shakllari			
	Schyotlar	1-shakl	2-shakl	4-shakl
Nomi		Satr	Satr	Satr
Uzoq muddatli investitsiyalarni hisobga oluvchi schyotlar	0600	030	110, 170	100
Qimmatli qog'ozlar	0610	040		
Shuba subyektlarga investitsiyalar	0620	050		
Qaram subyektlarga investitsiyalar	0630	060		
Chet el kapitali mavjud subyektlarga investitsiyalar	0640	070		
Boshqa uzoq muddatli investitsiyalar	0690	080		
Qisqa muddatli investitsiyalarni hisobga oluvchi schyotlar:	5800	370	110, 170	100
Qimmatli qog'ozlar	5810	370		
Qisqa muddatga berilgan qarzlilar	5830	370		
Boshqa joriy investitsiyalar	5890	370		

Moliyaviy investitsiyalar bo'yicha operatsiyalarning tekshiruvini bizning fikrimizcha, quyidagi yo'nalishlar bo'yicha olib borilishi kerak: mavjudligi va to'liqligi, baholash, huquqlar va majburiyatlar, taqdim etish va yoritish. Moliyaviy investitsiyalarning audit yo'nalishlari:

1. Mavjudligi va to'liqligi
2. Baholash
3. Huquq va majburiyatlar
4. Taqdim etish va yoritish

Xulosa qilib aytganda, tekshiriladigan masalalar bo'yicha yetarli dalillarga ega bo'lish, aniqlangan xatoliklarni mustaqil baholash, yo'l qo'yilgan kamchiliklarni hamda amaldagi me'yoriy hujjatlar, shuningdek, qonunchilikdan chetga chiqishlarni aniqlashga imkon beradi.

Subyektning moliyaviy investitsiyalardan oladigan daromadlari 9520- «Dividend ko'rinishidagi daromadlar», 9530 - «Foiz ko'rinishidagi daromadlar» va 9560 - «Qimmatli qog'ozlarni qayta baholashdan olinadigan daromadlar» schyotlarida hisobga olinadi va «Mahsulot (ish, xizmat)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida»gi nizomga muvofiq moliyaviy faoliyatdan olingan daromadlar qatoriga kiritiladi. Ushbu nizomda «Sarflangan (qimmatli qog'ozlarga, shuba subyektlarga va h.k.larga) mablag'larni qayta baholashdan olingan daromadlar»ni qayta baholashdan ko'rilgan zararlar qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalar va shu'ba subyektlarga berilgan mablag'larni har chorakda (yilda) qayta baholash, ya'ni ularni balansda bozor bahosi bo'yicha aks ettirish tavsiya etiladi. Ammo, bunday hisob yuritish siyosatiga qimmatli qog'ozlar bozori keng rivojlanganda erishilib, bozor qiymati haqida muntazam axborotlar mavjud sharoitda bo'lishi mumkin.

Auditor sotib olingan qimmatli qog'ozlardan tashqari subyektning o'zida chiqarilgan qimmatli qog'ozlar saqlanishi ham mumkinligini bilishi zarur. Bunday qimmatli qog'ozlar o'z jamoasi a'zolariga sotilguncha yoki birjaga berilgunga qadar 006-«qat'iy hisobot blankalari» degan balansdan tashqari schyotda hisobga olinadi.

Qo‘shimcha daromad olish maqsadida ikkilamchi sotish uchun birjada sotib olingan yoki jismoniy shaxslardan (masalan, subyekt xodimi ishdan bo‘shab ketayotganida) sotib olingan subyekt aksiyalari quyidagi buxgalteriya yozuvi bilan rasmiylashtiriladi, qimmatli qog‘ozlarning xarid qiymatiga:

Debet 8620 - «Sotib olingan xususiy aksiyalar - imtiyozli»,

Kredit 5000 - «Kassadagi pul mablag‘larini hisobga oluvchi schyotlar».

Subyekt aksiyalarini ikkilamchi sotish quyidagicha aks ettiriladi, ikkilamchi sotish qiymatiga:

Debet 5000 - «Kassadagi pul mablag‘larini hisobga oluvchi schyotlar»,

Debet 5100 - «Hisob-kitob schyotidagi pul mablag‘larini hisobga oluvchi schyotlar»,

Debet 5200 - «Chet el valutasidagi pul mablag‘larini hisobga oluvchi schyotlar»,

Kredit 9220 - «Boshqa aktivlarning chiqib ketishi». – qimmatli qog‘ozlarning xarid bahosiga:

Debet 9220 - «Boshqa aktivlarning chiqib ketishi»,

Kredit 5610 - «Pul ekvivalentlari» (turlari bo‘yicha).

- ikkilamchi sotish qiymatining xarid bahosidan oshgan qismiga:

Debet 9220 - «Boshqa aktivlarning chiqib ketishi»,

Kredit 9590 - «Moliyaviy faoliyatning boshqa daromadlari».

Agar harid qiymati ikkilamchi sotish qiymatidan yuqori bo‘lsa, u holda:

Debet 9690 - «Moliyaviy faoliyat bo‘yicha boshqa xarajatlar»,

Kredit 9220 - «Boshqa aktivlarning chiqib ketishi».

Moliyaviy investitsiyalar boshqa subyektlar faoliyatida hissa qo‘shib ishtirok etish, aksiyalar bo‘yicha dividendlar va obligatsiyalar bo‘yicha daromadlar olish maqsadida amalga oshirilib, hisobda quyidagicha aks ettiriladi, olingan dividendlar (foizlar) summasiga:

Debet 5100 - «Hisob-kitob schyotidagi pul mablag‘larini hisobga oluvchi schyotlar»,

Debet 5200 - «Chet el valutasidagi schyotlarni hisobga oluvchi schyotlar»,

Kredit 9520 - «Dividendlar ko‘rinishidagi daromadlar» yoki,

Kredit 9530 - «Foizlar ko‘rinishidagi daromadlar».

Daromadlarning to‘liq aks ettirilganligini tekshirishda, ularning miqdori buxgalteriyada hisobga olish maqsadida quyidagi shart-sharoitlar mavjud bo‘lganda tan olinadi:

- subyekt ushbu daromadlarni olish huquqiga ega;

- daromadlar summasi aniqlangan bo‘lishi mumkin;

- muayyan muomala natijasida subyekt iqtisodiy manfaatining ko‘payishiga ishonch bo‘lganida.

Subyektning moliyaviy investitsiyalardan olgan barcha daromadlari soliqqa tortish maqsadida ikkita guruhga bo‘linadi:

- umum qabul qilingan tartibda realizatsiyadan tashqari daromadlar tarkibida soliqqa tortiladigan daromadlar (hamkorlikdagi faoliyatdan olingan daromadlar);

- maxsus tartibda soliqqa tortiladigan daromadlar.

Bularga aksiyador - subyektga tegishli va bu qimmatli qog‘ozlar egasining emitent - subyekt foydasini taqsimlashda ishtirok etish huquqini tasdiqlovchi aksiyalar bo‘yicha olingan daromadlar;

O‘zbekiston Respublikasi davlat qimmatli qog‘ozlari va mahalliy organlar qimmatli qog‘ozlari; O‘zbekiston Respublikasi hududida tashkil qilingan boshqa subyektlar ustav kapitalida hissa qo‘shib ishtirok etishdan olingan daromadlar.

Bunday daromadlar belgilangan foiz stavka bo‘yicha soliqqa tortiladi va daromadlarni to‘lash manbalaridan to‘lanadi.

Qimmatli qog‘ozlar bozori rivojlangan davlatlarda dividend daromadining 15-25 % bo‘lishi normal holat bo‘lib hisoblanadi. Inflatsiya kuzatilayotgan sharoitda esa bu ko‘rsatkich birdan katta (ya‘ni 100 % va undan yuqori) bo‘lishi mumkin.

## INVESTITSIYA FAOLIYATINING XALQARO HUQUQIY KAFOLATLARI, XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB ETISHNING HUQUQIY ASOSLARI

**Furqat Umarov**

Amaliyotchi huquqshunos,  
Viloyat investitsiyalar va tashqi  
savdo boshqarmasi xodimi

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada xorijiy investitsiyalar haqida soʻz borgan boʻlib, ularni mamalakatga jalb etishning huquqiy asoslari hamda ushbu soha faoliyatining xalqaro huquqiy kafolatlari keng yoritilgan. Ushbu masala doirasida chuqur yondashuvlar, tahlil, qiyoslash va hisoblash metodlari orqali fikr-mulohazalar borasida ham qisqacha maʼlumot berilgan.*

**Kalit soʻzlar:** *investitsiya, xorijiy, iqtisodiyot, daromad, huquqiy asos, investitsion iqlim, iqtisodiy muhit*

Rivojlangan mamlakatlar tajribasi ularning iqtisodiy yuksalishida faol investitsiya siyosati markaziy oʻrinni egallashini tasdiqlaydi. Shu bois Oʻzbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish maqsadlari uning investitsiya siyosatida toʻliq aks ettirilishini taqozo etadi.

Oʻzbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim vazifalaridan biri iqtisodiy oʻsishni jonlantirish va aholining turmush darajasini oshirish uchun qulay sharoitlarni yaratish hisoblanadi. Mazkur vazifani amalga oshirish va taʼminlashning zarur sharti respublika hududlarining investitsion salohiyatini oshirish va ushbu jarayonni muvaffaqiyatli olib borishga hududlarning geografik joylashuvi, tabiiy resurslarning mavjudligi, uning zahirasi, mehnat resurslarining soni, yoshi va malakasi, shuningdek, hududlarda bir necha yillardan beri saqlanib kelinayotgan ixtisoslashuv darajasi, infratuzilmalarning holati kabi bir qancha omillarni inobatga olish asosiy shartlardan hisoblanadi.

Oʻzbekistonda xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va tartibga solishda Oʻzbekiston Respublikasining “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati toʻgrisida”gi Qonun (09.12.2019) va boshqa qonun hujjatlari uning huquqiy asosi boʻlib xizmat qiladi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasida: “Jahon tajribasi shuni koʻrsatadiki, qaysi davlat faol investitsiya siyosatini yuritgan boʻlsa, oʻz iqtisodiyotining barqaror oʻsishiga erishgan.

Iqtisodiyotdagi ijobiy natijalar esa ijtimoiy sohada toʻplanib qolgan muammolarni tizimli hal etish imkonini yaratadi. Buni hammamiz chuqur tushunib olishimiz va ishimizni shu asosda tashkil etishimiz shart. Xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilish uchun mamlakatimizning investitsiya salohiyatini toʻla namoyon etish choralari koʻrishimiz kundalik hayotimizdan joy olgan eng dolzarb masalalardan biri boʻlmogʻi lozim, deb taʼkidlab, xorijiy investitsiyalarning iqtisodiyotni rivojlantirishdagi gʻoyat muhim ahamiyatini va uni jalb qilishning dolzarbligini eʼtirof etadi.<sup>1</sup>

Mamlakatning iqtisodiy rivojlanish darajasi, investitsiya faolligining oʻsish suratlari investitsiya muhitiga koʻp jihatdan bogʻliqdir. Xorijiy investitsiyalarni respublika iqtisodiyotiga jalb etish uchun zaruriy shart-sharoitlar yaratilishi muhimdir, u, qachonki, qaysi mamlakatda iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va huquqiy shart-sharoitlar mavjud (ijobiy) boʻlsagina oʻsha davlat iqtisodiyotiga qoʻyilishi mumkin.<sup>2</sup>

<sup>1</sup> Zayniddinov Ruhiddin Xusniddin oʻgʻli “Oʻzbekistonda investitsion muhit jozibadorligini oshirish borasida ilgʻor xorijiy tajribalardan foydalanish yoʻllari” “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 5, sentabr-oktabr, 2020-yil 91-b

<sup>2</sup> Gʻozibekov D.Gʻ., Nosirov E.I. Oʻzbekiston iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish: risola. – T.: Iqtisod-moliya, 2007. – 92 b

Iqtisodchi-olimlardan A. Vaxabov, Sh. Xajibakiyev, N. Muminovlar investitsiya muhiti va uning moliyaviy asoslari masalasida quyidagilarni ta'kidlab o'tadilar: “Investitsiya muhiti – bu xorijiy kapital qo'yilmalarining qaltislik darajasini va ulardan mamlakatda samarali foydalanish imkoniyatlarini oldindan belgilaydigan iqtisodiy, siyosiy, yuridik va ijtimoiy omillar yig'indisidir.”<sup>3</sup>

“Investitsiya muhiti” va “investitsiya iqlimi” sinonim tushunchalar sifatida ishlatiladi. Bu xususan iqtisodchi-olimlardan D. G'ozibekov va T. Qoraliyevlar tomonidan quyidagi fikrlar bildirilgan: “Investitsiya iqlimi juda keng ma'noda ishlatiladigan tushuncha bo'lib, investor tomonidan hisobga olinadigan barcha muammo va masalalarni mujassamlashtiradi.”<sup>2</sup>

### **Tahlil va natijalar:**

Respublikada qulay investitsiya muhitini shakllantirish bo'yicha ishlarni yanada kuchaytirish uzoq muddatga mo'ljallangan strategik vazifa hisoblanadi. Ichki kredit manbalarini safarbar etish chora-tadbirlari bilan birgalikda xorijiy investitsiyalarni rag'batlantirishga xizmat qiladigan qulay muhit yaratish masalasi biz uchun o'ta muhim strategik ahamiyatga ega.

Mamlakatdagi siyosiy va makroiqtisodiy barqarorlik, xorijiy investorlar huquqlarini himoya qilishning kuchli kafolati va keng imtiyozlar tizimi kabi omillar tadbirkorlar uchun eng qulay shart-sharoit yaratmoqda. Bundan tashqari, ishlab chiqarish uchun muhim ahamiyat kasb etuvchi xom ashyo, materiallar, energiya resurslari va yuqori malakali ishchi kuchi bahosi qo'shni mamlakatlarga nisbatan arzon bo'lishi xorijiy investitsiyalarni mamlakatimizga jalb qilmoqda.

O'zbekiston Respublikasida xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni jadallashtirishga yo'naltirilgan faol siyosat olib borilmoqda. Milliy valyutaning joriy operatsiyalar bo'yicha konvertatsiyasining ta'minlanishi va islohotlarni amalga oshirish strategiyasi O'zbekistonda iqtisodiyotni yanada erkinlashtirish va xorijiy kapital ishtirokidagi loyihalarni amalga oshirish uchun qulay asosni shakllantiradi.

Respublikamizda xorijiy investorlar uchun huquqiy kafolatlar va imtiyozlarning keng qamrovli tizimi shakllantirilgan. Bu tizim “Xorijiy investitsiyalar va kreditlarni jalb etish hamda o'zlashtirish jarayonini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi, “Investitsiyalar va investitsiya faoliyat to'g'risida”gi, va “Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risidagi” qonunlarga asoslangan. Ushbu qonunlar xorijiy investorlarning teng huquqli va adolatli shart-sharoitda faoliyat olib borishini ta'minlaydi. Bundan tashqari, xorijiy investitsiyali korxonalar faoliyatini rag'batlantirish maqsadida soliq imtiyozlari va preferensiyalarni o'z ichiga oluvchi qo'shimcha chora-tadbirlar tizimi ishlab chiqilgan.


Chet el investorlari, asosan, daromad (foyda) olish maqsadida tadbirkorlik faoliyati va qonun hujjatlarida ta'qiqlanmagan boshqa turdagi faoliyat obyektlariga qo'shadigan barcha turdagi moddiy va nomoddiy boyliklar va ularga doir huquqlar, shu jumladan, intellektual mulkka doir huquqlar, chet el investitsiyalaridan olingan har qanday daromad O'zbekiston Respublikasi hududida chet el investitsiyalari deb e'tirof etiladi.<sup>4</sup>

Xorijiy investitsiyalarni jalb etishdagi asosiy muammolar sifatida quyidagilarni keltirish mumkin: investitsiya infratuzilmasining yetarli darajada rivojlanmaganligi; tijorat banklari, investitsiya fondlari, sug'urta va lizing kompaniyalarining investitsiya loyihalarini amalga oshirishda ularning ishtirokini samarali yo'lga qo'yilmaganligi; sifatli va talab darajasidagi malakali ishchi kuchining yetishmasligi va shulardan iborat.

2017–2020-yillarda rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarga jalb qilingan to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimini ko'rib chiqadigan bo'lsak, uni quyidagi 1-rasm orqali ifodalab chiqamiz.

<sup>3</sup> Vahabov A.V., Tadjibayeva D.A., Xajibakiyev Sh.X. Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar: darslik. -T.: Baktria press, 2015. - 584 b

<sup>4</sup> A.V.Vaxabov, Sh.X.Xajibakiyev, N.G.Muminov. XORIJIY INVESTITSIYALAR. O'quv qo'llanma. TOSHKENT – 2010 \_ «Moliya». 103-b



**1-rasm. 2017–2022-yillarda rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarga jalb qilingan xorijiy investitsiyalar oqimi**

Yuqoridagi rasm ma’lumotlarini tahlil qilib chiqadigan bo’lsak, 2020-yil yakuniga kelib, rivojlangan mamlakatlarda xorijiy investitsiyalar oqimi 58 foizga qisqargan, ammo rivojlanayotgan mamlakatlarda ushbu ko’rsatkich 8 foizga tushgan. Ko’rinib turibdiki asosan rivojlangan mamlakatlarda to’g’ridan to’g’ri xorijiy investitsiyalar oqimi sezilari darajada tushib ketgan.

2020-yilda to’g’ridan to’g’ri xorijiy investitsiyalarning 22,1 foizi tabiiy gaz ishlab chiqarish sohasidagi loyihalarni amalga oshirishga, 22,5 foizi boshqa metall bo’lmagan mineral mahsulotlarni ishlab chiqarish, 9,3 foizi qurilish ishlariga yo’naltirilgan.

O’zbekiston Respublikasida iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarini rivojlantirish uchun xorijiy investitsiyalarni jalb qilish siyosati mavjud mablag’lardan, vaqtdan va imkoniyatlardan samarali foydalanishga, mavjud shart-sharoitlardan kelib chiqib boyliklarni samarali joylashtirishga va shu yo’l bilan respublika iqtisodiyotini ko’tarishga, uning jahon iqtisodiy tizimiga qo’shilishiga, rag’batlantirish yo’li bilan investitsiyalarni iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlariga jalb qilishga hamda ulardan samarali foydalanishga qaratilgan.


Bugungi kunda xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning bir qancha shakllari mavjud. Ular quyidagi chizmada aks ettirilgan.

Chizmada aks ettirilgan xorijiy investitsiyalarni jalb qilish shakllarini quyida alohida ko’rib chiqish maqsadga muvofiqdir.

Qo’shma korxonalar tashkil etish orqali xorijiy investitsiyalarni jalb qilish keng tarqalgan shakllaridan biri hamkorlikda qo’shma korxonalarni tashkil etishdir. O’zbekiston Respublikasida qo’shma korxonaga deganda, nizom kapitalining kamida 30 % xorijiy investorlarga tegishli bo’lgan va xorijiy investor faqat yuridik shaxs bo’lgan, nizom kapitalining eng kam miqdori 150 ming AQSh dollariga teng bo’lgan ekvivalent summani tashkil etgan korxonalariga aytiladi. Xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar nizom jamg’armasining 150 ming AQSh dollaridan kam bo’lmasligi sifatsiz mahsulotlarining oldi-sotdisi va ularni respublikaga import qilish ishlari bilan shug’ullanishga ixtisoslashgan kichik qo’shma korxonalarining keragidan ortiqcha kirib kelishining oldini olish maqsadida belgilangan.

Xorijiy korxonalarini tashkil etish orqali chet el investitsiyalarini jalb qilish bugungi kunda kengayib bormoqda. O’zbekistonda xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar iqtisodiyotning turli sohalarida tashkil etilishi mumkin. Yirik xorijiy kompaniya va korxonalar o’z mol-mulkleri

bir qismini ajratib, shu'ba korxonalar ochishi mumkin. Bunday shu'ba korxonalariga ham qo'shma korxonalariga qo'yilgan talablar belgilangan.



**1-chizma. Xorijiy investitsiyalarni jalb etish shakllari**

#### XULOSA:

Fikrimizcha, xorijiy investitsiyalarni jalb etishning samarali tizimini yaratish uchun birinchidan, rivojlanish strategiyani ishlab chiqish, ikkinchidan, “yo'l xaritalari” yaratish, uchinchidan, uzoq yillarga mo'ljallangan konsepsiya ishlab chiqish zarurligi asoslandi. Investitsiyalarni kiritish qarorini qabul qilishga ta'sir ko'rsatuvchi omillar to'plami investorning qaysi tarmoqqa mansubligiga qarab farqlanadi, lekin barcha turdagi va guruhdagi investorlarni jalb qilishda hududning investitsion muhitini tavsiflovchi va unga xizmat qiluvchi indikatorlar mavjud bo'lishi maqsadga muvofiqligi ilmiy jihatdan asoslandi.

Xorijiy investitsiyalarni jalb etish tizimini takomillashtirish quyidagi vazifalarni amaliy ijrosini ta'minlash o'rinli:

- xorijiy investitsiyalarga oid milliy qonunchilikni xalqaro va mintaqaviy standartlarga uyg'unlashtirish, xalqaro tajribada investitsiya faoliyatini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash bo'yicha turli modeli huquqiy tartibga solish usullaridan foydalanish;

- innovatsion loyihalarni ishlab chiqayotgan va uni joriy etayotgan yuqori texnologik tarmoqlarga va korxonalariga qo'shimcha rag'bat va imtiyozlar berish;

- xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar bilan kooperatsiya aloqalarini rivojlantirish, xususan ularning ishlab chiqarish zanjiriga kirish orqali mahalliy iqtisodiyotni jahon bozoriga integratsiyalashuvini ta'minlash zarur deb hisoblaymiz.

Xulosa qiladigan bo'lsak, xorijiy investitsiyalarni mamlakat iqtisodiyotiga jalb etish bo'yicha turlicha yondoshuvlar bo'lib, ularning asosiy maqsadi mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish imkonini berishi zarur.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Zayniddinov Ruhiddin Xusniddin o'g'li “O'zbekistonda investitsion muhit jozibadorligini oshirish borasida ilg'or xorijiy tajribalardan foydalanish yo'llari” “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 5, sentabr-oktabr, 2020-yil 91-b.
2. G'ozibekov D.G., Nosirov E.I. O'zbekiston iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish: risola. – T.: Iqtisod-moliya, 2007. – 92 b.
3. Vahabov A.V., Tadjibayeva D.A., Xajibakiyev Sh.X. Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar: darslik. - T.: Baktria press, 2015. - 584 b.
4. Vaxabov A.V., Xajibakiyev Sh.X., Muminov N.G. Xorijiy investitsiyalar: o'quv qo'llanma. – T.: Moliya, 2010. – 103-b.
5. Azizov A.S. To'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar jalb qilishda moliyaviy-iqtisodiy va mamlakat xatarlarini kamaytirish / Iqt. fan. bo'y. fals. dokt. (PhD) diss. Avtoref. – T., 2021. – 11 b.
6. Bekmurodov A.Sh. Xorijiy investitsiyalar: o'quv qo'llanma. – T.: Iqtisodiyot, 2017.

## UZOQ MUDDATLI AKTIVLARGA INVESTITSIYALAR AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH

**Egamberdiyeva Salima Rayimovna**  
QarMII dorsenti

**Faxriddinov Bahriddin Faxriddin o'g'li**  
QarMII magistranti

**Annotatsiya:** *Maqolada asosiy vositalarga investitsiyalar auditining zaruriyati, maqsadi, ahamiyati va vazifalari ochib berilgan.*

**Kalit so'zlar:** *asosiy vositalar, investitsiya, kapital investitsiya.*

Har bir mamlakatda iqtisodiyotni yuksaltirish, zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan jihozlangan yangi korxonalarni barpo etish va rekonstruksiya qilish uchun xorijiy sarmoyalarni jalb qilish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, xizmat ko'rsatish sohasi va kasanachilikni rivojlantirish nechog'li katta, hal qiluvchi ahamiyatga ega. Makroiqtisodiy barqarorlik, ishlab chiqarishning izchil va mutanosib o'sish sur'atlarini ta'minlash, jalb etilayotgan investitsiyalarni ko'paytirish hisobidan tarkibiy o'zgarishlarni qat'iy davom ettirish, iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya qilish va yangilash — milliy iqtisodiyot uchun bosh vazifa bo'lib qolmoqda.

Modernizatsiya deyilganda, ko'p qirrali iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy hayotni zamon talabidan kelib chiqqan holda zamonaviylashtirish maqsadida yangilashga erishish tushiniladi<sup>5</sup>.

Korxonalar aktivlarini korxonalar ishlatish yoki foydalanish muddatiga qarab ikkita guruhga ajratish mumkin:

- bir yildan kam muddat mobaynida foydalaniladigan aktivlar;
- bir yildan ortiq muddat mobaynida foydalaniladigan aktivlar.

Bir yildan ortiq muddat mobaynida foydalaniladigan aktivlarni «uzoq muddatli aktivlar» deb aytiladi va ular tarkibiga moddiy va nomoddiy aktivlar kiradi.

Moddiy (asosiy vositalar) va nomoddiy aktivlar bu bir yildan ko'proq foydali xizmat qilish muddatiga ega bo'lgan ishlab chiqarish, ma'muriy maqsadlar uchun foydalanadigan va qayta sotish uchun mo'ljallanmagan aktivlardir.

Asosiy vositalar yangi kapital investitsiyalarni kiritish, ularni bepul kelib tushishi, ta'sis badali sifatida kiritilishi evaziga ko'payishi, shuningdek ularning boshlang'ich qiymati qayta baholash hisobidan oshishi mumkin.

Kapital investitsiyalar – yangi obyektlarni qurishga, eski obyektlarni kengaytirish, rekonstruksiya va modernizatsiya qilishga, shuningdek yangi asosiy vositalarni sotib olishga sarflangan mablag'lar majmuasi. O'zbek tili lug'atida bu so'zning «kapital qo'yilmalar» nomli sinonimi ham mavjud.

Xalqaro standartlarda va O'zbekiston Respublikasining milliy standartlarida (5-son BHMS) bu xarakterdagi xarajatlar asosiy vositalarning boshlang'ich qiymatini ko'paytiradigan xarajatlar deb tan olinadi.

Kapital investitsiyalar xarakteriga ko'ra ichki investitsiya hisoblanadi, ular bevosita korxonaning qudratini oshirishga yo'naltirilgan mablag'lardir.

Asosiy vositalarga investitsiyalarni auditdan o'tkazish muhim masalalardan biri bo'lib hisoblanadi.

<sup>5</sup> Urazov K. B. "Buxgalteriya hisobi va audit" Samarqand -2014



Asosiy vositalarga investitsiyalar auditining bosh maqsadi – korxonaga egaligida bo'lgan, korxonaga faoliyatida bir yildan ortiq foydalaniladigan va qayta sotish uchun mo'ljallanmagan moddiy aktivlarga sotib olishga, modernizatsiya qilishga, ta'mirlashga, rekonstruksiya qilishga qilingan xarajatlarni to'g'ri hisoblanganiga va balans, hamda moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotlarda BHMS talablariga mos aks ettirilganiga ishonch hosil qilishdan iborat.

Asosiy vositalarga investitsiya bo'yicha audit tekshiruvini o'tkazish jarayonida auditorning vazifalari quyidagilardan iborat:

- asosiy vositalar harakatiga nisbatan samarali ichki nazorat tizimining tashkil etilganligini tekshirish va uning sifatini baholash;
- buxgalteriya tizimi ma'lumotlari va moliyaviy hisobotlarda aks ettirilgan asosiy vositalar va haqiqatan ham mavjud va ular bo'yicha hisoblashlar haqiqatan ham ro'y berganligiga ishonch hosil qilish;
- asosiy vositalarga qilingan investitsiyalarning barchasi to'liq hisobga olinganligini tekshirish;
- asosiy vositalarga qilingan investitsiyalarni hisoblashda arifmetik amallarni to'g'ri bajarganligini tekshirish;
- balans hisobotida asosiy vositalar haqiqiy qiymatida aks ettirilganligini baholash.

Yuqoridagi vazifalarning amalga oshirilishi yakunida ichki nazorat tizimi yetarli darajada sifatli deb topilsa auditor tekshiruv ko'lamini qisqartirishi va mos ravishda audit rejasi va dasturining batafsilligi ham qisqartirilishi mumkin. Umumiy ko'rinishdagi audit rejasi va dasturining namunasi 1 va 2-jadvallarda keltirilgan.

1-jadval

### Asosiy vositalarga investitsiyalar auditining umumiy rejasi

Tekshirilayotgan korxonaga "Yuksalish" AJ;				
Audit o'tkaziladigan davr 2020.01.01.dan 2020.31.12.gacha;				
Kishi-soat miqdori 240;				
Auditorlik guruhi rahbari Baxriyev K;				
Auditorlik guruhi tarkibi Kamolov S. Norov K, Salomov L., Ashurov K.;				
Rejalashtirilayotgan auditorlik tavakkalchiligi 4%;				
Rejalashtirilayotgan ahamiyatlilik darajasi 1%.				
T/R	Olib boriladigan ishlar rejasi (vazifalar majmui)	O'tkazish muddati	Ijrochilar	Izoh
1	2	3	4	5
1.	Asosiy vositalar mavjudligi va saqlanishining auditi	Hisobot yili bo'yicha	Norov K., Salomov L.	Iqtisodiy subyekt auditining yig'ma umumiy rejasiga
2.	Asosiy vositalarga qilingan investitsiyalar	-"	Norov K., Salomov L.	
3.	Asosiy vositalar qabulqilinishi va barpo etilishining auditi		Norov K., Salomov L.	
4	Asosiy vositalarni ta'mirlash bo'yicha hisobni tekshirish		Norov K., Salomov L.	
	Auditorlik tashkiloti rahbari Auditorlik guruhi rahbari	Baxriyev K. Kamolov S.		

Audit rejasini tayyorlagach auditor audit dasturini tuzadi (2-jadval). Dasturda audit rejasida

keltirilgan vazifalarga erishish uchun amalga oshirilishi lozim bo'lgan audit amallarining batafsil tavsifi yoritiladi.

2-jadval

### Asosiy vositalar auditining dasturi

T.r.	Auditorlik tadbirlari (muolajalari)ning ro'yxati	O'tkazish davri	Ijrochilar	Auditorning ishchi hujjatlari
1	2	3	4	5
1.	Asosiy vositalar mavjudligi va aqlanishining auditi	Yil davomida	Norov K., Salomov L.	
1.1.	Asosiy vositalarni qabul qilish bo'yicha komissiyalar tuzilganligini tekshirish	Har chorakda	Norov K., Salomov L.	Buyruqlar, farmoyishlar
1.2.	Asosiy vositalarni sotib olish-sotish shartnomalari rasmiylashtirilganligini	Har chorakda	Norov K., Salomov L.	Shartnomalar, kelishuvlar
1.3.	Kelishuv narxlari bo'yicha bayonnomalar rasmiylashtirilganligini tekshirish	Har chorakda	Norov K., Salomov L.	Bayonnomalar, kelishuvlar, buyruqlar
1.4	Asosiy vositalarni qabul qilish-topshirish dalolatnomalarida ularning dastlabki qiymati to'g'ri aks ettirilganligini	Har chorakda	Norov K., Salomov L.	Qabul qilish-topshirish dalolatnomalari, inventar varaqalar, ro'yxatga olish daftarlari
1.5	Obyektlar qurib bitkazilgani va jihozlangani yoki tiklash va qisman tugatilganidan keyin ularning dastlabki qiymati to'g'ri aks ettirilganligini	Har chorakda	Norov K., Salomov L.	Loyiha-smeta hujjatlari, buyruqlar, inventarizatsiya dalolatnomalari
1.6.	Korxonada buxgalteriyasida asosiy vositalarning sintetik va tahliliy hisobi va ulardan foydalaniladigan joylarda moddiy javobgar shaxslarning ishlari qanday tashkil etilgani	Har chorakda	Norov K., Salomov L.	Dastlabki hujjatlar, hisob registrlari, hisob siyosati
1.7.	Korxonada asosiy vositalarni ta'mirlash xarajatlari hisobi bo'yicha amal qilinayotgan tartibni tekshirish va baholash	Har chorakda	Norov K., Salomov L.	Hisob siyosati, buyruqlar, smetalar, hisobotlar
1.8	Korxonada buxgalteriyasi amaldagi meyoriy hujjatlar bilan ta'minlanganligini	Har chorakda	Norov K., Salomov L.	Buyruqlar, farmoyishlar
1.9	Mavjud asosiy vositalar hisobotda aks ettirilganligini tekshirish	Har chorakda	Norov K., Salomov L.	Hisobot shakllari
	Auditorlik tashkiloti rahbari Auditorlik guruhi rahbari		Baxriyev K. Kamolov S.	

Ushbu dasturga qo'shimcha ravishda katta auditor tomonidan asosiy vositalar hisobining tekshiruviga oid savolnoma ham tuziladi. Buning natijasida audit tekshiruvini yanada tartibli o'tkazish asosiy vositalarning barcha elementlarini tekshirish imkoni yuzaga keladi.

## THE IMPORTANCE OF TOURISM IN ATTRACTING FOREIGN INVESTMENTS

**Muzaffarova Kamola Zoyirovna**  
senior teacher of QarMII

**Eshmurodova Sevinch**  
student of QarMII

**Annotation:** *This article provides conclusions and suggestions about the importance of the tourism sector in attracting foreign investments to the economy, the conditions for its development.*

**Key words:** *investment, foreign investment, investor, export, import, tourism, tourism potential, gastronomic tourism*

Today, the tourism sector is the main strategic branch of the economy of the developed countries of the world. The role of the tourism sector in the country's gross domestic product is increasing day by day. Therefore, in Uzbekistan, which has chosen the path of economic development, the development of the tourism sector should be one of the priority tasks.

We know that where there is peace and tranquility, that area is more interesting to both foreign investors and tourists who come for a trip. Uzbekistan has always been in the spotlight in this regard.

Taking into account the touristic potential of the country, the large flow of tourists, and the need to pay special attention to them, a safe tourism system was formed in our country a few years ago.

In the national economic development program, tourism was defined as the driver of the economy of Uzbekistan.

Article 3 of the Law of the Republic of Uzbekistan “On Tourism” defines tourism as follows: “Tourism is the departure (travel) of a natural person from the place of permanent residence without engaging in activities related to earning income from sources in the country (place) of temporary stay.”<sup>6</sup>

Today, rapid socio-economic development is one of the strategic tasks of regional economic development.

In order to increase the standard of living and income of the people, it is envisaged to ensure comprehensive and effective use of the natural, mineral and raw materials, industrial, agricultural, tourism and labor potential of each region. Therefore, the development of tourism is one of the main factors that lead to the development of the economy of the regions, the increase of the income of the population, and the improvement of the standard of living of the population.

Uzbekistan has a huge potential for tourism and recreation, it has a total of 8,200 cultural heritage sites, 209 of which are located in the territory of Samarkand, about four museum cities - Ichan Castle in Khiva, the historical center of Bukhara, Shahrisabz, and UNESCO World Heritage Site. included in the heritage list.<sup>7</sup>

In Kashkadarya region, a number of activities were carried out in the field of tourism development. On March 1, 2021, the Resolution of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan “On measures to further support and develop the tourism industry in Kashkadarya region” was adopted. Therefore, the importance of the tourism sector for the development of the regional economy and the attraction of investments is considered high.

<sup>6</sup> Law of the Republic of Uzbekistan “On Tourism”, Article 3 July 18, 2019

<sup>7</sup> Sh.M. Mirziyoev. New Uzbekistan strategy. Tashkent., “Uzbekistan” publishing house, page 173

It is important to implement the following strategic tasks for the development of tourism in Kashkadarya region:

- simplifying the procedures of the system of issuing visas, issuing licenses and obtaining permits in the field of tourism;
- creation of new tourism destinations in the region, development of modern types of tourism, increasing their attractiveness.

Uzbekistan and its Kashkadarya region have a great potential in the development of tourism, which has a total of 1,321 material and cultural heritage sites with ancient history, of which historical sites in the city of Shakhrisabz have been included in the list of UNESCO World Cultural Heritage Sites. In particular, there are 1043 archaeological, 208 architectural, 27 attractions, and 43 monumental art monuments of historical and cultural heritage.

The tourism sector has its place for the development of the regional economy. To develop tourism in the region, it is necessary to pay attention to the following:

- creating a website that informs tourists about historical monuments, historical figures, territorial and administrative structure of the region, as well as customs and traditions;
- to create a special software system for the training of guides working in the field of tourism in our region and to evaluate their knowledge and skills, to develop and implement a separate project aimed at limiting the participation of the human factor as much as possible in conducting exams and training guides;
- it is necessary to take into account the national and religious affiliation, traditions, and lifestyle of tourists, and to organize special kitchens for them. Most of the tourists coming to our country are vegetarians. Most of our national dishes are meaty and very fatty;
- formation of a list of objects where it is possible to organize gastronomic tourism in the region;
- adjustment of service services in places of pilgrimage, hotels, recreation centers to the religion, mentality and lifestyle of potential guests;
- in order to further encourage the introduction of foreign currencies to Uzbekistan by tourist organizations, to give them tax benefits, that is, to exempt a certain part of their income in foreign currency from taxes, etc. This causes entrepreneurs to invest more in the industry.

In conclusion, it can be said that the tourism industry is a low-cost and high-profit industry. Through the development of tourism, it is possible to increase the scale of attracting investments by foreign investors to the economy of the region.

## INVESTITSION MUHITNI YAXSHILASHNING HUQUQIY ASOSLARI

**Muzaffarova Kamola Zoyirovna**  
QarMII katta o'qituvchisi

**Abdukarimov Xasan Rustam o'g'li**  
QarMII talabasi  
kamolayorqin84@mail.ru

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada investitsion muhitni yaxshilash bo'yicha qabul qilingan me'yoriy-huquqiy asoslar va ularning mohiyati haqida keltirib o'tilgan. Shuningdek, xorijiy investitsiyalarni Qashqadaryo viloyatiga faol jalb qilish va ulardan foydalanish samaradorligini oshirish yo'llari bo'yicha xulosa va takliflar keltirilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Investitsion muhit, xorijiy investitsiya, xorijiy investor, investitsion tavakkalchilik, investitsion jozibadorlik, investitsiya salohiyati, investitsiya faoliyati, maxsus iqtisodiy zonalar.*

Investitsion muhitga mintaqaning ma'lum malaka va ta'lim darajasiga ega bo'lgan mehnat resurslari, ishlab chiqarish, moliyaviy va innovatsion salohiyati, institutsional muhiti va mintaqaning infratuzilmasi bilan ta'minlanganligiga bog'liq. Uchinchi guruhga investitsion tavakkalchilik bilan bog'liq omillar bo'lib investitsion jozibadorlikka nisbatan qisqa va o'rta muddatda, katta ta'sir etish imkoniyatlariga ega. Mintaqani investitsion jozibadorligini baholash uchun uning iqtisodiy, ijtimoiy, moliyaviy, boshqaruv, ekologik, krimogan, va siyosiy tavakkalchiliklarini ham hisobga olish maqsadga muvofiq. Xuddi ana shu omillar xorijlik investorlarga uzoq muddatli shartnomalar asosida boshqa mamlakatga o'z resurslarini kiritish imkonini beradi. Bunday muhit uzoq muddatli investitsiya rejalarini amalga oshirishda juda muhimdir<sup>8</sup>.

Demak, investitsiya muhiti investitsiya munosabatlarini amalga oshirish mumkin bo'lgan imkoniyatlar va qulayliklar majmuasini o'zida aks ettiradigan voqealardir. Investitsiya muhitini yaxshilashdan maqsad investitsiya salohiyatini oshirish uchun zarur va maqbul shart-sharoitlarni yaratish, investitsiya faoliyatini jadallashtirish va pirovardida, iqtisodiyotni yuksaltirish, ijtimoiy muammolarni hal etish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish imkoniyatlarini yaratishdan iboratdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yilning 5-oktabrida PF-4848 sonli "Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta'minlashga, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatdan yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni<sup>9</sup> va 2018-yil 1-avgustdagi "O'zbekiston Respublikasida investitsiya muhitini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5495-son Farmoni<sup>10</sup>, 2019-yil 8-yanvardagi "Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va iqtisodiy siyosat samaradorligini oshirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5614 son Farmonlaridan<sup>11</sup> qonun hujjatlariga mos kelib chiqarilgan vazifalarni amalga oshirish maqsadida tadbirkorlik faoliyatini jadal rivojlantirish, xususiy mulkchilikni har tomonlama himoya qilish va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatdan yaxshilash borasida beshta eng

<sup>8</sup> Mamatov B., Yakubova S. Qulay investitsiya muxiti iqtisodiyot taraqqiyotining garovidir. – T.: Jurnal. Bozor, pul va kredit. 2015. №8. -B. 45.

<sup>9</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yilning 5 oktabrida PF-4848 sonli "Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta'minlashga, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatdan yaxshilashga doir qo'shimcha chora – tadbirlar to'g'risidagi" Farmoni

<sup>10</sup> Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 02.08.2018 yil, 06/18/5495/1611-son.

<sup>11</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 yanvardagi "Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va iqtisodiy siyosat samaradorligini oshirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5614 son Farmoni qonun hujjatiga mos

ustuvor soha bo'yicha 42 ta aniq chora-tadbir amalga oshirilishini nazarda tutuvchi Kompleks chora-tadbirlar dasturi tasdiqlangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-yanvardagi "Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va iqtisodiy siyosat samaradorligini oshirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5614 son Farmoniga ko'ra yaqin istiqbolda qulay investitsiya muhitini shakllantirish chora-tadbirlar etib quyidagilar belgilangan:

- investitsiya muhitini yaxshilash bo'yicha "Yo'l xaritasi"ni ishlab chiqish;
- jahonning ilg'or amaliyotini inobatga olgan holda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar strategiyasi va Investitsiya kodeksini qabul qilish;
- xorijiy investitsiyalarni, avvalom bor, to'g'ridan to'g'ri investitsiyalarni jalb qilishga to'sqinlik qiluvchi tizimli masalalarni aniqlash bo'yicha choralar ko'rish;
- xorijiy investorlar bilan ishlashning institutsional bazasini yanada takomillashtirish;
- maxsus iqtisodiy zonalar faoliyati samaradorligini oshirish<sup>12</sup>.

O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Taraqqiyot strategiyasida investitsiya muhitini takomillashtirish strategiyasidan maqsad, mamlakat iqtisodiyoti tarmoqlari va hududlariga xorijiy, eng avvalo, to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarni faol jalb qilish asosida iqtisodiyotni raqobatbardoshligini oshirish, sanoat salohiyatini mustahkamlash, hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga erishish orqali iqtisodiyotni barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashdan iboratdir. Bunda investitsion siyosatda fan sig'imkorligi yuqori bo'lgan texnologik tarmoqlarga, raqamli iqtisodiyotga ustuvorlik beriladi. Biroq bugungi kunda mamlakatimizga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda milliy iqtisodiyotda bozor infratuzilmasining yetarli darajada rivojlanmaganligi (banklar, investitsiya (venchur) fondlari, sug'urta va lizing kompaniyalari faoliyatini rag'batlantirish) va investitsiya loyihalarini amalga oshirishda ularning ishtirokini samarali yo'lga qo'yish hamda tadbirkorlarda investitsiya loyihalari bilan ishlash tajribasi va huquqiy bilimlari yetarli emasligi bilan bog'liq bir qator muammolar mavjud.

Qashqadaryo viloyatida investitsiya jozibadorligini oshirishda "Harakatlar strategiyasi"ning xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish, jumladan, yetakchi xalqaro va xorijiy moliyaviy institutlar bilan aloqalarni kengaytirish, puxta o'ylangan tashqi qarzlarni siyosatini amalga oshirishni davom ettirish, jalb qilingan xorijiy investitsiya va kreditlardan samarali foydalanish bo'yicha belgilab olingan vazifalardan kelib chiqib "Qashqadaryo viloyatining investitsion portali"<sup>13</sup> **tashkil etildi**. Qashqadaryo viloyatida investitsiya muhitini yanada yaxshilash maqsadida potensial investorlar uchun portal sakkiz tilda berilgan bo'lib, unda investorlar mamlakatimizning va uning mintaqalarining investitsion salohiyati, xom-ashyo resurslari, eksport va import imkoniyatlari, infratuzilmasi, xom-ashyo narxlari, kommunal xizmatlar, demografik ko'rsatkichlar va investitsion qarorlar qabul qilish uchun kerakli qo'shimcha ma'lumotlarni olishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 1-avgustdagi "O'zbekiston Respublikasida investitsiya muhitini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5495-son Farmoniga muvofiq respublikamizda chet el investorlariga quyidagi imtiyozlar yaratildi:

- chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar ustav fondidagi xorijiy investitsiyalar ulushining eng kam miqdorini 30 foizdan 15 foizgacha kamaytirish;
- chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonaning ishtirokchisi sifatida xorijiy yuridik shaxs qatnashishi shartligi to'g'risidagi talabni bekor qilish;
- chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar ustav fondining eng kam miqdorini 600 million so'mdan 400 million so'mgacha kamaytirish;

<sup>12</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 yanvardagi "Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va iqtisodiy siyosat samaradorligini oshirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5614 son Farmoni

<sup>13</sup> [http://lex.uz/law\\_collection/3232](http://lex.uz/law_collection/3232).

- chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalarni davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun davlat boji miqdorini uch baravarga kamaytirish;
- aksiyadorlik jamiyatlari ustav fondining eng kam miqdorini 400 million so'm miqdorida belgilash ma'qullandi<sup>14</sup>.

Investitsiya kiritish vaqtida O'zbekiston Respublikasida o'rnatilgan eng kam oylik ish haqining 8 500 baravaridan kam bo'lmagan miqdorda xo'jalik jamiyatlarining aksiyalari va ulushlarini sotib olish, shuningdek, xorijiy korxonalar tashkil etish shaklida O'zbekiston Respublikasiga investitsiya kiritgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga ko'p martalik uch yillik viza olish va uning amal qilish muddatini O'zbekiston Respublikasi hududidan chiqish zaruratisiz cheklanmagan miqdorda uzaytirish huquqi berildi<sup>15</sup>.

Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 25-fevraldagi “O'zbekiston Respublikasining xalqaro reytinglar va indekslardagi o'rnini yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-4210-sonli qarori qonun hujjatiga mos ravishda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarni baholashning yaxlit va mustaqil tizimini shakllantirish, shuningdek, respublikaning xalqaro reytinglardagi o'rnini yaxshilashni ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi va Adliya vazirligining O'zbekiston Respublikasining xalqaro reytinglardagi o'rnini monitoring qilish va baholash milliy tizimi joriy etildi.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, xorijiy investitsiyalarni Qashqadaryo viloyatiga faol jalb qilish va ulardan foydalanish samaradorligini oshirish uchun hududning o'z nisbiy ustunliklari, foydalanilmayotgan imkoniyatlari, o'sish zaxiralari va salohiyatidan oqilona foydalanish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Chunki ishlab chiqarish quvvatlarini hududlarning nisbiy afzalliklarini, ulardagi mavjud resurslar, infratuzilma, ishchi kuchi kabi omillar imkoniyatlarini hisobga olgan holda joylashtirish kapitaldan foydalanish samaradorligini oshiradi va oxir-oqibatda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning raqobatbardosh bo'lishini ta'minlaydi.

Qashqadaryo viloyatiga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda ularni alohida tanlab olingan tarmoqlarga emas, balki bozor tan oladigan va qiyosiy ustunliklarga ega tarmoqlar rivojiga qaratish, mintaqada bo'yicha oqilona joylashtirish, investitsiya loyihalari amalga oshirilishini soddalashtirish, axborotlashtirishni kuchaytirish, infratuzilmani rivojlantirish kabilar muhim hisoblanadi<sup>16</sup>.

Mintaqa iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish – nafaqat xorijiy sheriklar bilan hamkorlikda yangi istiqbolli loyihalarni amalga oshirish ayni paytda – avvalo yangi zamonaviy texnika dastgoh va uskunalari texnologiya va nou-xaularni joriy etish shu asosda ishlab chiqaradigan mahsulotlarimizning yuksak sifatini ta'minlashga qaratilgan. Shunday qilib, eng muhimi chetdan imtiyozli sarmoyalarni olib kirish – bu pirovard natijada mintaqada favqulodda yuzaga kelgan iqtisodiy inqirozning salbiy jihatlarini yumshatishga raqobatga bardoshli kuchli iqtisodiyotni barpo etish va jahon bozorida o'z munosib o'rnimizni yanada mustahkamlanishiga olib keladi.

<sup>14</sup> <http://lex.uz/docs/3845273>

<sup>15</sup> <http://invest.gov.uz/uz/investor/sez-i-mpz/>

<sup>16</sup> Rustamova D.D. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida xorijiy investitsiyalarni jalb etishning nazariy asoslari va ustuvor yo'nalishlari, iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya, 2006 y., 112-bet

## INVESTITSIYALAR IQTISODIYOT RIVOJIDA MUHIM OMIL

**Oripov Zafar Meliyevich**

Qashqadaryo viloyati yuridik texnikumi  
O'quv ishlari bo'yicha birinchi o'rinbosari

**Annotatsiya:** Respublikamizda iqtisodiy rivojlanishni jadal sur'atlarini ta'minlash va makroiqtisodiy barqarorlikni saqlab qolishda puxta o'ylangan investitsiya siyosatini muhim ahamiyat kasb etishi, investitsiyalar iqtisodiyot taraqqiyotning muhim omili sifatida ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texnik va texnologik yangilanishlar va innovatsiyalarni rag'batlantirish, yangi ish o'rinlarini yaratish hamda korxonalar daromadini oshirishni va iqtisodiy o'sishni ta'minlashi bayon qilingan.

**Kalit so'zlar:** investitsion jozibadorlik, investitsion faoliyat, investorlar, investitsiya salohiyat, investitsion hamkorlik, modernizatsiya.

Iqtisodiyotni rivojlantirishda investitsiyalarni jalb qilish muhim omillardan biri sanaladi. Investitsiya rivojlanishga ta'sir etuvchi muhim omil sifatida iqtisodiyotni modernizatsiyalash va keng ko'lamli ishlarni amalga oshirish imkonini beradi.

Investitsiya lotincha invest so'zidan olingan bo'lib, iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadida o'z mamlakatida yoki chet ellarda turli tarmoqlarga, ijtimoiy iqtisodiy dasturlarga, innovatsiya, tadbirkorlik loyihalariga uzoq muddatli kapital kiritishdir.

Keyingi davrda xalqaro iqtisodiy munosabatlarda investitsion hamkorlik rivoj topdi. Bunday hamkorlikning real, moliyaviy, intellektual ko'rinishlari bor.

Mamlakatimizda iqtisodiyotga investitsiyalarni jalb etish borasida Prezidentimiz tashabbuskorligi ostida keng qamrovli, samarali ishlar olib borilmoqda. Keyingi yillarda davlatimiz tomonidan oqilona iqtisodiy diplomatiya yuritilayotgani natijasida eksport va investitsiya miqdori izchil oshib bormoqda. Xususan, so'nggi besh yilda xorijiy investitsiyalar hajmi 3 barobar o'sgan. Buning evaziga yuzlab ishlab chiqarish korxonalari ishga tushirilib, mahsulot va xizmatlar ko'paydi, yangi inshootlar qurildi va aholi bandligi darajasi oshdi.

Bunday ishlar har bir tarmoq va hududda amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida: "Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, qaysi davlat faol investitsiya siyosatini yuritgan bo'lsa, o'z iqtisodiyotining barqaror o'sishiga erishgan. Shu sababli ham investitsiya - iqtisodiyot drayveri, o'zbekcha aytganda, iqtisodiyotning yuragi, desak, mubolag'a bo'lmaydi. Biz faqat investitsiyalarni faol jalb qilish, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini ishga tushirish hisobidan iqtisodiyotimizni jadal rivojlantirishga erishamiz. Iqtisodiyotdagi ijobiy natijalar esa ijtimoiy sohada to'planib qolgan muammolarni tizimli hal etish imkonini yaratadi. Buni hammamiz chuqur tushunib olishimiz va ishimizni shu asosda tashkil etishimiz shart. Xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilish uchun mamlakatimizning investitsiya salohiyatini to'la namoyon etish choralari ko'rishimiz kundalik hayotimizdan joy olgan eng dolzarb masalalardan biri bo'lmog'i lozim" deb ta'kidlab, xorijiy investitsiyalarning iqtisodiyotni rivojlantirishdagi g'oyat muhim ahamiyatini va uni jalb qilishning dolzarbligini e'tirof etadi. Mamlakatimiz iqtisodiyotining investitsion jozibadorligini oshirish davr talabidir.

So'nggi yillarda O'zbekistonda investitsiya faoliyatini tartibga soluvchi huquqiy me'yorlarni tizimlashtirish bo'yicha katta ishlar olib borildi. Mamlakatimizda O'zbekiston Respublikasining "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi Qonuni qabul qilindi.

Bu investitsiyalar jozibadorligini oshirish bo'yicha qonunchilikdagi muhim qadam bo'lib xalqaro hamkorlik aloqalariga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.



Mazkur qonunning qabul qilinishi bilan investitsiyalar va investitsiya faoliyati sohasidagi o‘zaro munosabatlarni tartibga soluvchi bir qator qonunosti hujjatlarni muvofiqlashtirish maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 30-apreldagi 264-son “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “To‘g‘ridan to‘g‘ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb etishni rag‘batlantirish borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmonini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida” 2005-yil 2-avgustdagi 180-son qaroriga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida”gi qarorining qabul qilinishi ushbu yo‘nalishda erishilgan katta yutuq bo‘ldi.

Qaror bilan O‘zbekiston Respublikasi hukumati bilan chet ellik investor o‘rtasida investitsiya shartnomalarini tuzish, o‘zgartirish kiritish, tugatish va amalga oshirish tartibi to‘g‘risidagi nizom yangi tahrirda tasdiqlandi.

Mamlakatimiz iqtisodiyotining investitsion jozibadorligini oshirish, mavjud investitsion salohiyatdan samarali foydalanish tizimini takomillashtirishga yo‘naltirilgan qator chora tadbirlar O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “Respublika iqtisodiyotiga to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish mexanizmlarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4300-sonli qarorida alohida e‘tibor qaratilgan bo‘lib, bu borada respublika iqtisodiyotiga to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish faoliyati samaradorligini oshirish, xorijiy investorlarni mamlakatimiz imkoniyatlari va salohiyati to‘g‘risida xabardor qilish bilan bog‘liq vazifalarga ustuvorlik berilgan.

Ushbu hujjatlarning qabul qilinishi investorlar faoliyatini sezilarli darajada soddalashtiradi va osonlashtiradi, respublikaning xalqaro huquqiy sohadagi imidjini yuksaltiradi va xorijiy ishbilarmon doiralarda investitsion jozibadorligini oshiradi.

Prezidentimiz tomonidan saylov oldidan xalq bilan uchrashuvlarda investitsiya loyihalarini amalga oshirish bo‘yicha yangi tizim joriy etilishi aytib o‘tilgan edi. Buning uchun har bir hududda “tuman loyiha guruhlari” va xolding kompaniyalari tashkil etilishi va ushbu yangi tuzilmalar tadbirkorlarning biznes hamkoriga aylanishi hamda tadbirkorlarning yonida turib, g‘oyadan boshlab, investorlarni jalb qilish va loyihalarni to‘liq quvvatda ishlashigacha har kuni yordam berishga mas‘ul bo‘lishi ta‘kidlangan.

Xorijiy investitsiya va eksport hajmini oshirishda mamlakatimizning chet davlatlardagi elchilari faoliyati ham muhimligi ta‘kidlanmoqda. Hudud va tarmoq rahbarlari istiqbolli loyihalar topib, elchilar bilan birgalikda ularni amalga oshirish amaliyoti ham yo‘lga qo‘yilmoqda.

Jahon hamjamiyati va yetakchi moliya tadqiqot institutlari tomonidan O‘zbekistondagi ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlarning ko‘lami, sur‘ati va izchilligi, iqtisodiyotga xorijiy sarmoyalarni jalb etilishi va samarali loyihalarning amalga oshirilishi yuqori baholanmoqda.

O‘zbekiston investitsiyalarni jalb qilish bo‘yicha Markaziy Osiyo mamlakatlari orasida yetakchi o‘rinda bormoqda.

Respublikamizda iqtisodiy rivojlanishni jadal sur‘atlarini ta‘minlash va makroiqtisodiy barqarorlikni saqlab qolishda puxta o‘ylangan investitsiya siyosati muhim ahamiyat kasb etadi. Investitsiyalar iqtisodiyot taraqqiyotning muhim omili sifatida ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texnik va texnologik yangilanishlar va innovatsiyalarni rag‘batlantirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish hamda korxonalar daromadini oshirishni ta‘minlaydi.

## INVESTITSIYA FAOLIYATINING XALQARO HUQUQIY KAFOLATLARI, XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB ETISHNING HUQUQIY ASOSLARI

**Quryozov Sanjarbek Sobirjonovich**  
Xorazm viloyati yuridik texnikumi  
o'quv ishlari bo'yicha birinchi o'rinbosari

**Adamov Muzaffar Ramatovich**  
Xorazm viloyati yuridik texnikumi o'qituvchisi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada investitsiya faoliyatining xalqaro huquqiy kafolatlari, xorijiy investitsiyalarni jalb etishning huquqiy asoslari yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** Investitsiya, investor, kapital, investitsiya imkoniyatlari, imtiyozlar, preferensiyalar, investitsiya qilish uchun ustuvor tarmoqlar, turizm, transport va muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasi.

Investitsiya bu iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadida o'z mamlakatida yoki chet ellarda turli tarmoqlarga, ijtimoiy-iqtisodiy dasturlarga, innovatsiya, tadbirkorlik loyihalariga uzoq, muddatli kapital kiritish, ya'ni investitsiya kelajakda naf olish maqsadida mablag'lar qo'yishdir.

Dunyodagi mustaqil davlatlar borki barchasining rivojlanish jarayonida investitsiyaviy faoliyat natijalariga guvoh bo'lishimiz mumkin.

Investitsiya turli faoliyatlarga safarbar etilgan moddiy, nomoddiy boyliklar va ularga bo'lgan huquqlarni aks ettiradi. Investitsiya sifatida pul, qimmatli qog'ozlar, yer, bino, inshoot kabi boyliklar, intellektual mulk bo'lgan ilmiy kashfiyotlar, ixtirolar kabilar va boshqalar ishlatilishi mumkin. Bunda mablag' kirituvchi shaxs investor sifatida davlat, kompaniya, korxonalar, chet ellik fuqarolar bo'lishi mumkin.

Mustaqillikka erishganimizdan so'ng jamiyatimiz va davlatimiz oldida mamlakatni ham iqtisodiy, ham ijtimoiy jihatdan rivojlantirish masalasi turar edi. Davlatni har taraflama rivojlanishi uchun uning iqtisodiyotini rivojlantirish lozim. Shu maqsadda mamlakatimiz iqtisodiyot tarmoqlarida, bozor mexanizmi va tamoyillariga mos mulkchilik va xo'jalik yuritishning turli shakllari paydo bo'ldi, davlat mulki ulushining salmog'i kamayib, yalpi ichki mahsulot qiymatida nodavlat muassasalar hissasining oshish darajasi ta'minlandi. Buning davomi sifatida davlat budjetining daromad qismida ham moliyaviy tushum manbalari tarkibi o'zgarib, kapital mablag'larning markazlashgan taqsimotidan investitsiyalashning markazlashmagan manba va bozor subyektlarini shakllantirish mexanizmlarini rivojlantirishga asosiy e'tibor qaratildi.

Investitsiya faoliyatining davlat tomonidan boshqarilishi hozirgi kunda asosan moliya resurslarini davlat maqsadli dasturlari va O'zbekiston Respublikasi qonunlari bilan belgilangan tartibda aniqlanadigan boshqa davlat ehtiyojlariga yo'llash orqali amalga oshiriladi. Umuman, davlat investitsiyalari samarasi kamroq deb hisoblanadi, chunki ular aksariyat hollarda noishlab chiqarish sohalarini rivojlantirishga yo'llanadi.

Mamlakatimizda investitsiyalarni faol jalb qilish maqsadida bir qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 25-oktyabrdagi "Erkin iqtisodiy zonalar va kichik sanoat zonalarini faoliyati samaradorligini oshirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3356-son qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 1-avgustdagi "O'zbekiston Respublikasida investitsiya muhitini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5495-son Farmoni, Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 24-iyuldagi "O'zbekiston Respublikasi investitsiyalar va tashqi

savdo vazirligi huzuridagi xorijiy investitsiyalarni jalb etish agentligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi 621-sonli qarori, O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 25-dekabrda “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni, 2020-yil 17-fevralda “Maxsus iqtisodiy zonalar to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 17-avgustda “Xorazm viloyatida tadbirkorlikni rivojlantirish va uning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4810-son qarori, O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 16-fevralda “Xalqaro tijorat arbitraji to‘g‘risida”gi Qonuni qabul qilindi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 1-avgustda PF-5495-son Farmoni bilan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar ustav fondidagi xorijiy investitsiyalar ulushining eng kam miqdorini 30 foizdan 15 foizgacha kamaytirish, chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonaning ishtirokchisi sifatida xorijiy yuridik shaxs qatnashishi shartligi to‘g‘risidagi talabni bekor qilish, chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar ustav fondining eng kam miqdorini 600 million so‘mdan 400 million so‘mgacha kamaytirish, chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish uchun davlat boji miqdorini uch baravarga kamaytirish kabi bir qator amaliy ishlar yo‘lga qo‘yildi. Bu esa chet el investorlarining ishonch bilan mamlakatimiz iqtisodiyotiga investitsiya kiritishiga zamin hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida” 2019-yil 28-yanvarda PQ-4135-son qarorini ijro etish yuzasidan qabul qilingan Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 24-iyulda “O‘zbekiston Respublikasi investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi huzuridagi xorijiy investitsiyalarni jalb etish agentligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi 621-sonli qarori qonun hujjatiga mos asosida O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi huzuridagi Xorijiy investitsiyalarni jalb etish agentligining asosiy vazifalari sifatida mamlakatning iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik manfaatlarini hisobga olgan holda respublika iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni jalb etishga, xorijiy investorlar uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan yagona davlat investitsiya siyosatini amalga oshirishda ishtirok etish, xorijiy investorlarni axborot bilan, huquqiy va boshqa tomondan qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, davlat organlari va tashkilotlari, mahalliy tadbirkorlar bilan investitsiya faoliyati sohasida o‘zaro hamkorlikni tashkil etishda ularga ko‘maklashish, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi istiqbolli va amalga oshirilayotgan investitsiya loyihalari ma‘lumotlarining axborot bazasini shakllantirish va yuritish, ularning amalga oshirilish holati ustidan doimiy monitoring olib borish, respublikaning iqtisodiy, resurs va investitsion salohiyatini keng targ‘ib qilish va ilgari surishni, yaratilgan qulay shart-sharoitlar, xorijiy investorlarga beriladigan imtiyozlar, afzalliklar haqida chet el ishbilarmon doiralari orasida, shu jumladan, ommaviy axborot vositalari orqali tushuntirish ishlari olib borishni tashkil etish, O‘zbekiston Respublikasining xalqaro ijobiy imijini shakllantirish va yuqori darajada ushlab turishga har tomonlama ko‘maklashish kabilar belgilandi.

Ushbu qaror asosida “O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi huzuridagi Xorijiy investitsiyalarni jalb etish agentligi to‘g‘risida”gi nizom tasdiqlab o‘tildi. Ushbu nizomga ko‘ra mamlakatning iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik manfaatlarini hisobga olgan holda respublika iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni jalb etishga, xorijiy investorlar uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan yagona davlat investitsiya siyosatini amalga oshirishda ishtirok etish sohasida davlat, hududiy va sohaviy investitsiya dasturlarini shakllantirish va amalga oshirishda to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb etgan holda amalga oshirilayotgan investitsiya loyihalari qismi bo‘yicha ishtirok etish, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish uchun iqtisodiyotning ustuvor sektorlari va sanoatning eng muhim tarmoqlari ro‘yxatini aniqlash yuzasidan takliflar kiritish, davlat organlari va tashkilotlariga istiqbolli investitsiya takliflari va loyihalarini ishlab chiqishda hamda ularni amalga oshirish

uchun salohiyatli xorijiy investorlarni topishda ko'maklashish, xorijiy investorlarda ular tomonidan respublika hududida faoliyatini amalga oshirishda yuzaga kelayotgan muammolar haqidagi ma'lumotlarni tahlil qiladi va tizimlashtiradi, shu asosida investitsiya faoliyatini tashkil etish samaradorligini oshirish bo'yicha takliflarni ishlab chiqish, xorijiy investitsiyalarni jalb etish sohasida qonun hujjatlarini takomillashtirish bo'yicha takliflar tayyorlashda, xorijiy investorlarni yanada qo'llab-quvvatlash, huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishda qatnashish funksiyalari yuklatilgan bo'lsa, xorijiy investorlarni axborot bilan, huquqiy va boshqa tomondan qo'llab-quvvatlash, shuningdek, davlat organlari va tashkilotlari, mahalliy tadbirkorlar bilan investitsiya faoliyati sohasida o'zaro hamkorlikni tashkil etishda ularga ko'maklashish sohasida xorijiy investorlarni investitsiya faoliyatining normativ-huquqiy asoslari va investitsiya imkoniyatlari, shu jumladan, imtiyozlar, preferensiyalar, investitsiya qilish uchun ustuvor tarmoqlar, turizm, transport va muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasi, tabiiy xomashyo resurslari haqidagi ma'lumotlar, shuningdek, qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa ma'lumotlar bilan ta'minlash, xorijiy investorlarni butun investitsiya faoliyatini amalga oshirish davomida, jumladan, boshlang'ich va investitsiya kiritilgandan keyingi davrlarda maslahat-huquqiy jihatdan qo'llab-quvvatlashni amalga oshirish, xorijiy investorlarga, ular tomonidan investitsiya faoliyatini amalga oshirishda zarur hujjatlarni ishlab chiqish va rasmiylashtirish, jumladan investitsiya takliflari, investitsiya loyihalari pasportlari, loyihaoldi va loyiha hujjatlari, investitsiya shartnomalari va boshqa hujjatlarni ishlab chiqish bo'yicha xizmatlar, shu jumladan, pulli xizmatlar ko'rsatish, xorijiy investorlarga investitsiya loyihalarini amalga oshirish uchun yer uchastkalari, bo'sh turgan va foydalanilmayotgan ko'chmas mulk obyektlarini topish, aniqlash va sotib olishda, shuningdek, davlat xizmatlaridan foydalanish uchun hujjatlarni tayyorlashda ko'maklashish, kredit tashkilotlari bilan birgalikda, birinchi navbatda xalqaro moliya institutlari va chet el tijorat banklari kredit liniyalari mablag'lari hisobiga investitsiya loyihalarini moliyalashtirish uchun kredit mablag'lari ajratish imkoniyatlarini ishlab chiqish, xorijiy investorlarning murojaatlari, belgilangan tartibda tezkor ravishda, zarurat tug'ilganda, investorlarning o'zlarining bevosita ishtirokida va manfaatdor davlat organlari va tashkilotlari vakillarini jalb etgan holda ko'rib chiqilishini ta'minlash, xorijiy investorlarning davlat organlari va tashkilotlari vakillari, shuningdek, mahalliy tadbirkorlar bilan istiqbolli investitsiya takliflari va loyihalarini amalga oshirish masalalarini muhokama qilish uchun uchrashuvlari va muzokaralarini belgilangan tartibda tashkil etish, xorijiy investorlarning O'zbekiston Respublikasiga va ularning mahalliy hamkorlarining xorijiy mamlakatlarga o'zaro tashriflarini tashkil etishda ko'maklashish kabi funksiyalar ham yuklatildi. Bu kabi amaliy ishlar mamlakatimiz iqtisodiyotiga investitsiyalar jalb qilinishiga asos hisoblanadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – T.: O'zbekiston, 2017.
2. Кантилон Р. Основы предпринимательской деятельности.- М., 1994.
3. Rahmonqulov H. O'zbekistonda xalqaro xususiy huquqning ahamiyati va vazifalari // Davlat va huquq. – 2000. – № 2.
4. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining birinchi qismiga umumiy tavsif va sharhlar. – T.: Iqtisodiyot va huquq dunyosi. 2007.
5. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy protsessual kodeksi. – T.: Adolat, 2018.

## INVESTITSION FAOLIYAT TUSHUNCHASINING HUQUQIY TASNIFI

**Masharifov Sirojbek Bahodirovich**

Xorazm viloyati yuridik texnikumi dekani

Toshkent davlat yuridik universiteti

mustaqil izlanuvchisi

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada investitsiya va investitsiya faoliyati tushunchasining mazmun mohiyati, Investitsiya va investitsiya faoliyati turlarining xalqaro va milliy huquqiy hujjatlar asosidagi tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** Investitsiya, investitsion faoliyat, investitsion faoliyat subyektlari, moliyaviy investitsiya, real investitsiya.

Yaqin yillar davomida investitsion faoliyat har bir davlat iqtisodiyotida muhim ahamiyatga ega elementga aylanib ulgurdi. Boisi mazkur faoliyat mamlakatda sanoat ishlab chiqarish darajasini kengaytirishga va rivojlantirishga, iqtisodiyotning barqaror hamda progressiv o'sishiga xizmat qiladi.

Shu bois investitsion faoliyatni qo'llab-quvvatlovchi har bir davlat o'zining bu boradagi aniq maqsadlarini belgilab olgan va uni davomli ravishda takomillashtirib bormoqda. O'zbekiston respublikasida ham investitsiyalarni turli sohalarga jalb etish, ularning oqimini kengaytirish, investitsion faoliyatni rag'batlantirish bo'yicha davlat darajasidagi turli reja va dasturlar ishlab chiqildi.

Jumladan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yil-larga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi PF-60-son Farmonini qonun hujjatiga mos ta'kidlab o'tish joiz. Mazkur farmonda mamlakatimizda investitsiya jozibadorligini oshirishni, biznes muhitini yaxshilashni nazarda tutuvchi aniq rejalar o'z ifodasini topgan. Bundan tashqari mahalliy va xorijiy investorlarga O'zbekistonning investitsiyaviy salohiyatini namoyon etishga hamda mahalliy va xorijiy investorlar bilan o'zaro muloqotni yo'lga qo'yishga qaratilgan “Toshkent xalqaro investitsiya forumi”ni har yili o'tkazilishi ham muhim ahamiyatga ega. Investitsion faoliyatning rivojlanishini ko'zlovchi mazkur harakatlar uning mazmun-mohiyati va ahamiyatini to'liq tushunish hamda yoritib berishni taqozo etadi. Investitsion faoliyat tushunchasi investitsiya hamda investor kabi tushunchalarga asoslangan bo'lib, bu bo'yicha to'liq tasavvurga ega bo'lish uchun dastlab mazkur tushunchalar haqida so'z yuritish maqsadga muvofiq hisoblanadi. “Investitsiya” atamasi lotincha so'zdan olingan bo'lib, “invest”, ya'ni “qo'yilma” degan ma'noni anglatadi. Umuman olganda, investitsiya deganda foyda olish yoki boshqa foydali maqsadga erishish uchun tadbirkorlik yoki boshqa faoliyatga jalb qilinadigan pul mablag'lari, qimmatli qog'ozlar, moddiy va nomoddiy boyliklar, shu jumladan, mol-mulkka bo'lgan huquqlar nazarda tutiladi. Investitsiya tushunchasiga ko'plab xorijiy adabiyotlarda turlicha ta'rif berib o'tilgan. Xususan, ba'zi iqtisodiy adabiyotlarda investitsiyaga nisbatan foyda olish maqsadida muayyan sohaga joylashtirilgan kapital sifatida qaraladi<sup>17</sup>. Bu yerda kapital aslida barcha daromad keltiruvchi vosita sifatida qaralishi lozim.

Y. Mitskevichning fikricha, investitsiya bu daromad olish yoki ijtimoiy samaraga erishish maqsadida moddiy va moliyaviy vositalarni, shuningdek, mol-mulkka hamda intellektual mulkka bo'lgan huquqlarni turli faoliyat obyektlariga qo'yilma sifatida jalb qilishdir<sup>17</sup>. Bunda biz muayyan daromad keltirishga xizmat qiluvchi vosita sifatida ko'rishimiz mumkin

<sup>17</sup> Ендовицкий Д. А. Комплексный анализ и контроль инвестиционной деятельности: методология и практика / Д. А. Ендовицкий; под ред. Л.Т. Гиляровой. М: Финансы и статистика, 2011, изд.№2, 400с.

investitsiyani. Ammo ikkala ta’rif ham bizning fikrimizcha mukammal va tugal emas. A. Neshitoy investitsiya tushunchasiga nisbatan quyidagicha qarashni ilgari suradi: “Investitsiya bu foyda olish yoki boshqa samaralarga erishish maqsadida o’z yoki o’zga mamlakatning turli tarmoqlariga, tadbirkorlik loyihalari, ijtimoiy-iqtisodiy dasturlar ham innovatsiya loyihalarini amalga oshirishga yo’naltirilgan pul mablag’larini (kapitalni) uzoq muddatga joylashtirishdir”<sup>18</sup>. Ushbu yondashuvda investitsiyani muayyan muddatga kiritiladigan sarmoya sifatidagi talqinini ko’rishimiz mumkin. Bir qancha o’zbek iqtisodchi olimlari xususan, A. Vahabov, Sh. Xajibakiyev, N. Muminovlar investitsiyaning mazmun-mohiyati bo’yicha quyidagi fikrlarni ilgari suradi: “Investitsiyalar – foyda olish yoki ijobiy ijtimoiy samaraga erishish maqsadida tadbirkorlik obyektlariga va boshqa faoliyat turlariga qo’yiladigan pul mablag’lari, banklarning maqsadli omonatlari, aksiyalar, boshqa qimmatli qog’ozlar, texnologiyalar, mashinalar, uskunalar, litsenziyalar, kreditlar, har qanday boshqa mol-mulk yoki mulkiy huquqlar, intellektual boyliklardir”<sup>19</sup>. Bu fikrlar esa investitsiyani asosan yuridik shaxsga xos tushuncha sifatida xarakterlaydi. G’arb olimlari jumladan, U. Sharp, G. Aleksander, J. Beylilar investitsiya tushunchasiga “bu kelajakda daromad olish uchun bugun o’zingdan ajratilishi kerak bo’lgan kapitaldir” - deya izoh beradilar<sup>20</sup>. Ushbu yondashuv umumiy xarakterlidir va alohida yondashuvga ega emas va keng ma’nodagi talqin deyishimiz mumkin. Investitsiya tushunchasiga ba’zi bir xalqaro ko’p tomonlama shartnomalarda ham ta’rif berib o’tilgan bo’lib, xususan, 1997-yilda qabul qilingan Investorlar huquqlarini himoya qilish to’g’risidagi Moskva konvensiyasining 1-moddasiga muvofiq investitsiya bu investorlar tomonidan foyda olish yoki ijtimoiy samaraga erishish maqsadida moliyaviy va moddiy vositalarni shuningdek, mol-mulkka hamda intellektual mulkka bo’lgan huquqlarni agar ular mazkur shartnomaga a’zo davlatlarning milliy qonunchiligiga ko’ra muomaladan chiqarilmagan yoki muomalada bo’lishi cheklanmagan bo’lsa, turli faoliyat obyektlariga jalb qilishdir<sup>21</sup>. Shuningdek, Investitsiyalarni rag’batlantirish va himoya qilish bo’yicha Janubiy-sharqiy Osiyo mamlakatlari assotsiatsiyasi (ASEAN) kelishuviga muvofiq investitsiya quyidagicha ta’riflanadi: Investor tomonidan egalik qilinadigan hamda boshqariladigan har qanday mol-mulk va boshqa aktivlar, xususan:

- a) ko’char va ko’chmas mulklar, shuningdek ipoteka, garov yoki chegirib qolish huquqi kabi boshqa mulkiy huquqlar;
- b) paylar, aksiyalar, obligatsiyalar va kompaniyalarda ishtirok etishning boshqa shakllari;
- d) pul talabnomalari yoki qonunga yoxud iqtisodiy qiymatga ega bo’lgan kontraktga muvofiq har qanday majburiyatlarning bajarilishi xususidagi talabnomalar;
- e) intellektual mulkka bo’lgan huquqlar, shu jumladan mualliflik huquqi va turdosh huquqlar, patentlar, sanoat namunalari, savdo markalari, savdo sirlari, nou-xau va gud vill;
- f) qonunchilikka muvofiq, kontraktga yoki vakolatli davlat organining ma’muriy hujjati asosidagi tabiat resurslarini tadqiq qilish, qayta ishlash, qazib olish yoki ekspluatatsiya qilish uchun konsessiyalar asosida berilgan har qanday biznes konsessiyalar investitsiya deb baholanishi ko’rsatilgan<sup>22</sup>. O’zbekiston Respublikasi va Turkiya Respublikasi o’rtasidagi investitsiyalarni o’zaro rag’batlantirish va himoya qilish to’g’risidagi ikki tomonlama shartnomada “Investitsiya” atamasi Ahdlashuvchi tomon davlati hududida davomiy iqtisodiy aloqalar o’rnatish maqsadida uning qonunchiligiga muvofiq qo’lga kiritilgan va investitsiya xususiyatlariga ega bo’lgan tadbirkorlik faoliyati bilan bog’liq har qanday turdagi aktivni anglatishi nazarda tutilgan. Va nihoyat, O’zbekiston Respublikasining “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to’g’risida”gi 2019-yil 25-dekabridagi Qonuni 3-moddasiga muvofiq

<sup>18</sup> Швандар В. А. Базилевич А. И. Управление инвестиционными проектами - М.: ЮНИТИ, 2017. - 444 с

<sup>19</sup> Нешитой А.С. Инвестиции: Учебник. 4-е изд. М.: Дашков и К°, 2006. С. 13

<sup>20</sup> Вахобов А.В., Хайибакйев Ш.Х, Муминов Н.Г. Хоржий investitsiyalar: o’quv qo’llanma. – Т.: Moliya.

<sup>21</sup> Шарп У., Александер Г., Бэйли Дж. Инвестиции. М.: ИНФРА-М, 2001. С. 1.

<sup>22</sup> ASEAN Agreement for the Promotion and Protection of Investments, Article 1(3), from UNCTAD, 1996a, Volume II, p. 294.

investitsiyalar – investor tomonidan foyda olish maqsadida ijtimoiy soha, tadbirkorlik, ilmiy va boshqa faoliyat turlari obyektlariga tavakkalchiliklar asosida kiritiladigan moddiy va nomoddiy boyliklar hamda ularga bo'lgan huquqlar, shu jumladan intellektual mulk obyektlariga bo'lgan huquqlar, shuningdek reinvestitsiyalar – deb bayon etilgan. Bizning fikrimizcha, investitsiya o'z iste'moldan tashqari bo'lgan moliyaviy vositalar, ashyolar yoki qonun bilan ta'qiqlanmagan xizmatlar, ishchi kuchini foydali maqsadga erishish uchun qonun bilan ta'qiqlanmagan har qanday faoliyatga jalb qilishdir. Muayyan sohaga investitsiya kiritish bevosita investitsion faoliyat natijasida amalga oshiriladi. Xulosa qilib aytganda, investitsiya faoliyati bu har qanday jismoniy va yuridik shaxslar, shuningdek, xorijiy davlat fuqarolari va yuridik shaxslari kabi investitsiya subyektlari tomonidan daromad olish, mavjud kapitallarni ko'paytirish yoki boshqa foydali natijalarga erishish maqsadida turli faoliyat sohalariga kapitallarni joylashtirish va ularni boshqarish yuzasidan amalga oshiriladigan amaliy harakatlar majmuidir. Shu nuqtayi nazardan aytish joizki, investitsiya faoliyat tushunchasining mazmunida investitsiyalash maqsadi, obyekt va uning yo'nalishlari, investitsiyalash bilan bog'liq tashkiliy-huquqiy harakatlar va nihoyat, muayyan ijobiy samara (foyda) olish motivi yotadi. Investitsiya faoliyatining tasniflanishi esa investorlar tomonidan kapital qo'yilmalarning maqsadini hamda obyektini aniqlashda, kapital qo'yilayotgan soha yuzasidan aniq tasavvurga ega bo'lishga, ular xususida kengroq obyektiv ma'lumotlar olishga imkon beradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Ендовицкий Д.А. Комплексный анализ и контроль инвестиционной деятельности: методология и практика / Д.А. Ендовицкий; подред. Л.Т. Гиляровской. – М: Финансы и статистика, 2011, изд.№2, 400с.
2. Швандар В. А. Базилевич А. И. Управление инвестиционными проектами - М.: ЮНИТИ, 2017. - 444 с.
3. Нешитой А.С. Инвестиции: учебник. 4-е изд. – М.: Дашков и К, 2006. – С. 372.
5. Вахабов А.В., Хажибакйев Ш.Х, Муминов Н.Г. Хорijiy investitsiyalar: o'quv qo'llanma. – Т.: Moliya, 303 b.
6. Henkin L. International Law: Cases and Materials. – Saint Paul, Minnesota, U.S.A.: West Publishing Co., 1993. – P. 525–538.
7. Балабанов В.С., Дмитриева Е.В. Основные понятия и сущность инвестиционной деятельности предприятия. Научно-практический журнал. – Москва, 2012.

## INVESTITSIYALARNING IQTISODIY MAZMUNI VA MOHIYATI

**O‘rinboyev Ulug‘bek O‘rolboy o‘g‘li**

Sirdaryo Viloyati Yuridik texnikumi

Mutaxassislik fanlari o‘qituvchisi

3-darajali yurist

**Annotatsiya:** Ushbu maqola investitsiya tarixi uning turlari va mohiyati haqida yozilgan. Yangi O‘zbekistonda qurishda investitsion jozibadorlikning ahamiyati, uning dolzarbligi to‘g‘risida. Mamlakatimizga kiritilayotgan investitsiyalarning turlari moliyaviy manbalari haqida so‘z boradi. Qolaversa milliy qonunchiligimizda ichki va tashqi investitsiyalarni boshqarish va tartibga solishning huquqiy asoslari haqida ma‘lumotlar keltirib o‘tilgan.

**Kalit so‘zlar:** Davlat, jamiyat, iqtisodiyot, milliy investitsiya, xorijiy investitsiya, kapital, investor, investitsion faoliyat turlari, mahalliy lashtirish.

Investitsiya bu kelajakka ishonch, ishonchli hamkorlik, faol iqtisodiy va moliyaviy hamkorlik demakdir. Har qanday davlat o‘z istiqbolini investitsiyalar jalb etmay turib, xalqaro moliyaviy institutlar bilan mustahkam aloqalar o‘rnatmasdan qura olmaydi, albatta. Davlatning ustunlaridan biri bu iqtisodiyot bo‘lib iqtisodiyotni investitsiyalarsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Shu o‘rinda investitsiya o‘zi nima ekanligiga to‘xtalib o‘tsak.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2020-yil 29-dekabrda Oliy Majlisga murojaatnomasida “iqtisodiy o‘sishga, avvalo, raqobatdosh sanoat zanjirlarini yaratish hamda bunday loyihalarga investitsiyalarni ko‘paytirish orqali erishiladi” deb ta‘kidlab o‘tgan edi. Milliy iqtisodiyotda iqtisodiy resurslar unumdorligi va tejamkorligini oshirish, qulay investitsion va ishbilarmonlik muhitini shakllantirish, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni keng jalb etish, iqtisodiyotni texnik-texnologik jihatdan yangilash orqali modernizatsiya qilish, investitsion jarayonlarni raqobatbardosh yuqori texnologik bilimlar iqtisodiyotiga yo‘naltirish asosida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish bo‘yicha ilmiy izlanishlarni yanada chuqurlashtirish maqsadga muvofiq. Xorijiy investitsiyalarni respublika iqtisodiyotiga jalb etish uchun zaruriy shart-sharoitlar yaratilishi muhimdir, u, qachonki, qaysi mamlakatda iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va huquqiy shart-sharoitlar mavjud (ijobiy) bo‘lsagina o‘sha davlat iqtisodiyotiga qo‘yilishi mumkin<sup>23</sup>.

Ma‘lumki, prezidentning 2021-yil 19-iyuldagi Farmoniga muvofiq, Strategik rivojlanish agentligi tashkil etilgan edi. Bu agentlikka investitsiyalarni jalb etish va loyihalarni amalga oshirishning strategik masalalarini o‘rganish, investitsiya faoliyatining istiqbolli yo‘nalishlarini aniqlash, xalqaro tajriba asosida iqtisodiyot tarmoqlarini isloh qilish va hududlarning investitsiya salohiyatini oshirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish kabi ko‘plab vazifalar yuklatilgan. Aytilishicha, bugungi kunda agentlik boshqarmalari shakllantirilgan, ularga yetakchi xorijiy universitetlarda o‘qigan, tashabbuskor va bilimli mutaxassislar jamlangan. Agentlikning bu yilgi rejasi 18 ta muhim tadbirdan iborat. Investitsiya loyihalarini ilgari surishning yangi mexanizmini joriy etish, yashirin iqtisodiyotni qisqartirish orqali investitsiya muhitini yaxshilash, investitsiya muhiti bo‘yicha hududlar reytingini yo‘lga qo‘yish, tadbirkorlarning tizimli muammolarini aniqlash va hal qilish bo‘yicha onlayn platformani ishga tushirish, Jahon banki bilan birgalikda to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish strategiyasini ishlab chiqish shular jumlasidan<sup>24</sup>.

<sup>23</sup> INVESTITSION MUHIT VA INVESTITSION JOZIBADORLIKNI OSHIRISH MASALALARI: ilmiy maqola.Lazizjon Aziz o‘g‘li Ermatov Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy Universiteti Iqtisodiyot fakulteti 2-kurs magistranti


<sup>24</sup> <https://kun.uz/>



O‘zbekistonda 2021-yilda jami 10 milliard dollardan ortiq, jumladan, 8,1 milliard dollar to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiya o‘zlashtirilgan. Buning natijasida 318 ta yirik va 15 mingdan ziyod hududiy loyiha amalga oshirilib, 273 mingdan ortiq ish o‘rni tashkil etilgan. Yangi korxonalar jami 1 milliard dollardan ziyod eksport va 530 million dollarlik import o‘rnini to‘ldirish imkoniyatiga ega. Xususan, 2020-yilda mamlakatda eksport miqdori 9 milliard dollardan oshgan bo‘lsa, 2021-yilda 12 milliard dollarni tashkil etgan. E‘tiborlisi, bunda tayyor va yarim tayyor mahsulotlar ulushi sezilarli ko‘paygan<sup>25</sup>.

### Tadqiqot natijalari:

2022-yilning yanvar-mart oylarida O‘zbekiston Respublikasida iqtisodiy va ijtimoiy sohalarini rivojlantirish uchun jami moliyalashtirish manbalari hisobidan 50,1 trln. so‘m o‘zlashtirildi. Dollar ekvivalentida 4,6 mlrd. AQSH doll. o‘zlashtirilgan bo‘lib, 2021-yilning mos davriga nisbatan 126,3 %ni tashkil etdi. 2022-yilning yanvar-mart oylarida asosiy kapitalga investitsiyalarning 61,1 %i yoki 30,6 trln. so‘mi jalb etilgan mablag‘lar hisobidan moliyalashtirilgan bo‘lsa, korxonalar, tashkilot va aholining o‘z mablag‘lari hisobidan 38,9 % yoki 19,5 trln. so‘m moliyalashtirildi. Jami investitsiyalar hajmida, markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalarning ulushi, 2021-yilning mos davridagi ulushiga nisbatan 5,1 % punktga kamayib, 6,9 %ni yoki 3,5 trln. so‘mni tashkil etdi. Mos ravishda, markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan 46,6 trln. so‘m yoki jami investitsiyalarning 93,1 % investitsiyalari o‘zlashtirilib, 2021-yilning mos davridagi ko‘rsatkichiga nisbatan 5,1 % punktga ko‘paydi<sup>26</sup>.



### Tadqiqot natijalari tahlili:

2022-yilning yanvar-martida Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan amalga oshirilgan yirik investitsiya loyihalari:

- Quyuv-prokat majmuasini qurish;

<sup>25</sup> <https://kun.uz/>

<sup>26</sup> <https://stat.uz/O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati:-124-bet>

- Shovot-Qorao'zak yangi temir yo'l liniyasini hamda Amudaryo ustidan o'tuvchi temir yo'l va avtomobil yo'li qo'shma ko'prigini qurish.

Respublika budjetidan moliyalashtiriladigan asosan iqtisodiy va ijtimoiy soha infratuzilmasini rivojlantirishga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi 2021-yilning mos davriga nisbatan 95,1 %ni yoki 1,5 trln, so'mni tashkil etdi. Shuningdek, Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobidan investitsiyalar 2021-yilning mos davriga nisbatan 2,2 martaga oshib, 0,3 trln. so'mni tashkil etdi. Respublika budjeti hisobidan investitsiyalar ulushi qisqardi va Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimini rivojlantirish jamg'armasi hisobidan investitsiyalar ulushi esa ko'payib, mos ravishda 3,0 va 0,6 %ni tashkil etdi. Davlat budjeti mablag'lari hisobidan asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalar hududiy tarkibida eng yuqori ko'rsatkichlar Toshkent shahrida – hududdagi jami investitsiyalarning 5,3 %ini, Surxondaryo viloyatida – 4,9 % va Qoraqalpog'iston Respublikasida – 4,0 % kuzatildi. Korxonalar va tashkilotlarning o'z mablag'lari hisobidan investitsiyalar bo'yicha eng yuqori ulush Toshkent shahrida kuzatilib, bu hududda o'zlashtirilgan investitsiyalarning 60,5 %ini tashkil etdi. Shuningdek, Jizzax viloyatida 41,7 % va Toshkent viloyatida 39,9 %ni tashkil etdi<sup>27</sup>.

#### **Statistik ko'rsatkichlarga izohlar:**

**Nomoliyaviy aktivlarga kiritilgan investitsiyalar** – real mablag'larni yaratishga yo'naltirilgan investitsiyalar bo'lib, quyidagilarni o'z ichiga oladi: asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar, kapital ta'mirlashga xarajatlar, nomoddiy aktivlarga kiritilgan investitsiyalar (patentlar, litsenziyalar, dasturiy mahsulotlar, yer maydonlaridan va tabiiy resurslardan foydalanish huquqlari va boshqalar).

**Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarga** barcha turdagi qurilish ishlariga qilingan xarajatlar; asbob-uskunalarini montaj qilish bo'yicha xarajatlar; mashina, asbob-uskunalar (montaj talab etiladigan va talab etilmaydigan), transport vositalari, jihoz va xo'jalik inventarini sotib olish; boshqa kapital ishlar va xarajatlar kiradi. Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmlari to'g'risidagi ma'lumotlar, ilgari boshqa tashkilotlarning asosiy fondlarida hisobga olingan asbob-uskunalar, binolar va inshootlar (yoki ularning ehtiyot qismlari)ni sotib olishga qilingan xarajatlarsiz keltirilgan.

**Chet el investitsiyalari** – asosan kelgusida foyda olish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi hududidagi korxonalar va tashkilotlarga kiritilgan chet el kapitali. Investorlar – yuridik va jismoniy shaxslar bo'lib, qarorlarni qabul qiluvchi va o'z mablag'lari, qarz mablag'lari yoki jalb qilingan mablag'larni investitsiya ko'rinishida investitsion loyihalarga kiritishni amalga oshiruvchi hamda ulardan maqsadli foydalanilishini ta'minlab beruvchi investitsion faoliyat subyektlari hisoblanadi.

**To'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar** – korxonaga to'liq egalik qiluvchi yoki korxonalar aksionerlik kapitalining 10 foizidan kam bo'lmagan qismini nazorat qiluvchi, ya'ni korxonani boshqarishda ishtirok etish huquqiga ega bo'lgan, to'g'ridan to'g'ri xorijiy investor yuridik yoki jismoniy shaxs tomonidan kiritilgan investitsiyalar.

**Buyurtmachilar** – investitsion jarayonning qatnashchilari. Buyurtmachi sifatida investorning o'zi, shuningdek, investor tomonidan amaldagi korxonalarni, binolarni, inshootlarni yangi qurilishi, qayta ta'mirlash, kengaytirish va texnik qayta qurollantirishni amalga oshirishlari uchun vakil etib tayinlangan jismoniy va yuridik shaxslar faoliyat ko'rsatishlari mumkin. Shu bilan birga buyurtmachi investitsion jarayon qatnashchilarining tadbirkorlik va boshqa faoliyatiga, agarda ular orasidagi shartnomada nazarda tutilmagan bo'lsa, aralashmasliklari lozim. **Pudratchi** – kapital qurilish uchun pudrat shartnomasi asosida bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish-montaj, qayta ta'mirlash, kapital

<sup>27</sup> <https://stat.uz/O'zbekiston-Respublikasining-ijtimoiy-iqtisodiy-holati-128-bet>

ta'mirlash hamda texnologik va boshqa uskunalarni montaj qilish, sozlash va boshqa pudrat ishlarini bajarish bilan shug'ullanadi<sup>28</sup>.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston Respublikasining investitsiya muhitini rivojlantirish borasida tegishli huquqiy asoslar yaratilgan bo'lib, kafolat va imtiyozlarni o'zida aks ettiruvchi bir qancha me'yoriy hujjatlar qabul qilindi. Ularda xususiy mulkning davlat tomonidan himoyalanihi va raqobat muhitiga sharoit hamda zarur investitsiyaviy infratuzilmaning yaratilishini nazarda tutuvchi normalar belgilab qo'yilgan. Shuningdek, mamlakatimizda hukm surayotgan siyosiy barqarorlik hamda boy tabiiy mineral resurslarning mavjudligi investitsiya muhitini rivojlantirish uchun imkoniyatlar eshigini keng ochadi. Biroq zamon bilan hamnafas ravishda taraqqiy etish uchun bularning o'zi kifoya qilmaydi. Chunki shiddat bilan rivojlanayotgan dunyo hamjamiyati reytinglarida munosib o'rinlarni egallash uchun yangi zamonaviy g'oyalarni o'ylab topish zarurati yuzaga kelmoqda. Xorij investitsiyalarini keng miqyosda jalb qilish — iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, mamlakatning eksport salohiyatini mustahkamlash, yuqori texnologik raqobatdosh tarmoqlarni yaratish, ilg'or xorij texnologiyalari, nou-xau va boshqaruv tajribalarini tatbiq etish imkonini beradi.

Investitsiya faoliyati bu har qanday jismoniy va yuridik shaxslar, shuningdek xorijiy davlat fuqarolari va yuridik shaxslari kabi investitsiya subyektlari tomonidan daromad olish, mavjud kapitallarni ko'paytirish yoki boshqa foydali natijalarga erishish maqsadida turli faoliyat sohalariga kapitallarni joylashtirish va ularni boshqarish yuzasidan amalga oshiriladigan amaliy harakatlar majmuidir. Shu nuqtayi nazardan aytish joizki, investitsiya faoliyat tushunchasining mazmunida investitsiyalash maqsadi, obyekt va uning yo'nalishlari, investitsiyalash bilan bog'liq tashkiliy-huquqiy harakatlar va nihoyat, muayyan ijobiy samara (foйда) olish motivi yotadi. Investitsiya faoliyatining tasniflanishi esa investorlar tomonidan kapital qo'yilmalarning maqsadini hamda obyektini aniqlashda, kapital qo'yilayotgan soha yuzasidan aniq tasavvurga ega bo'lishga, ular xususida kengroq obyektiv ma'lumotlar olishga imkon beradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2020-yil 29-dekabrdagi O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisga murojaatnomasi. [www.president.uz](http://www.president.uz)
2. Mustafakulov Sh.I. (2017). Investitsion muhit jozibadorligi: ilmiy-amaliy qo'llanma. – T.: Baktria press. – 320 b.
3. Investitsion muhit va investitsion jozibadorlikni oshirish masalalari: ilmiy maqola. Lazizjon Aziz o'g'li Ermatov Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti Iqtisodiyot fakulteti 2-kurs magistranti
4. <https://stat.uz/> O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati

<sup>28</sup> <https://stat.uz/> O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati.-148-bet

## INVESTITSION FAOLIYAT TUSHUNCHASINING HUQUQIY TAHLILI

**Isakjanova Saboxat Muhamedovna**  
Xorazm viloyat yuridik texnikumi o'qituvchisi

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada investitsion faoliyati tushunchasining mazmun-mohiyati, Investitsiya va investitsiya faoliyati turlarining xalqaro va milliy huquqiy hujjatlar asosidagi tahlil qilingan.*

**Kalit so'zlar:** *Investitsion faoliyat, investitsion faoliyat subyektlari, moliyaviy investitsiya, real investitsiya.*

Investitsion faoliyat investitsiyaga nisbatan keng tushuncha bo'lib, u o'z ichiga investitsiya loyihalarini amalga oshirish bilan bog'liq jarayonlarni qamrab oladi. Investitsion faoliyat haqida turli iqtisodiy va yuridik adabiyotlarda xilma-xil fikrlar keltirib o'tiladi. Jumladan, A.N.Alekseyev investitsion faoliyatni investorning daromad olish yoki boshqa foydali natijaga erishish maqsadida investitsiya qo'yilmalari bilan bog'liq harakatlari sifatida tavsiflaydi<sup>29</sup>. A.B. Mayfat investitsiya faoliyatini ikki omil: muayyan sohaga investitsiya kiritish hamda investitsiya vositalaridan foydalanish bilan bog'liq harakatlar sifatida izohlaydi<sup>30</sup>. S.P. Moroz esa mazkur ikki omilni kapitalni qo'yilma tariqasida jalb etish va investitsiyani amalga oshirish jarayoni deb ataydi<sup>31</sup>. A.M. Lapteyevaning fikricha, investitsion faoliyatning mohiyati doimo investitsiya bilan bog'liq harakatlar to'plami orqali tushuniladi<sup>32</sup>. N.I. Kleyn esa investitsion faoliyat bu avvalo, foyda olish maqsadida pul vositalarini hamda boshqa mol-mulklarni joylashtirishni amalga oshirish ekanligini ko'rsatadi<sup>33</sup>. D.S. Ratnikova o'z ilmiy ishlarida investitsiya faoliyatiga ta'rif berar ekan, mazkur faoliyat foyda olish yoki boshqa foydali natijaga erishish uchun mol-mulkni yoki mol-mulkka bo'lgan huquqni qonunda nazarda tutilgan faoliyat turiga tavakkalchilik asosida jalb etish va uni amalga oshirish bosqichlari majmui hisoblanishini keltirib o'tadi<sup>34</sup>. A.V. Belitskoyning fikricha, investitsion faoliyat tushunchasi o'zining asosiy belgilari bilan tadbirkorlik faoliyati tushunchasiga yaqin turadi. Biroq, ayrim investitsion faoliyat turlari doimiy subyektlar tomonidan, qonunga muvofiq ro'yxatdan o'tgan holda amalga oshirilmasligi bois bularni tadbirkorlik faoliyati sifatida e'tirof etish noto'g'ri hisoblanadi<sup>35</sup>. V.V. Gushin va A.A. Ovchinnikovlar investitsion faoliyatga nisbatan investorning o'ziga mulk huquqi asosida tegishli bo'lgan mol-mulk xususida farmoyish berish kabi harakatlari ekanligini ta'kidlaydi<sup>36</sup>. Investitsion faoliyat tushunchasiga xalqaro shartnomalarda aniq ta'rif berilmagan, biroq davlatlarning milliy qonunchiligida bu borada muayyan izohlar mavjud. Xususan, Rossiya Federatsiyasining 1998-yilda qabul qilingan “Rossiya Federatsiyasida kapital qo'yilmalar shaklida investitsiya faoliyatini amalga oshirish to'g'risida”gi Qonuniga muvofiq investitsiya faoliyati bu foyda olish yoki boshqa ijobiy samaraga erishish maqsadida investitsiya kiritish hamda amaliy harakatlarni amalga oshirish ekanligi belgilangan. Investitsion faoliyat tushunchasi yuzasidan milliy qonunchiligimizda muayyan ta'rif keltirilgan bo'lsada, fikrimizcha bu

<sup>29</sup> <https://stat.uz/O'zbekiston-Respublikasining-ijtimoiy-iqtisodiy-holati:-128-bet>

<sup>30</sup> <https://stat.uz/O'zbekiston-Respublikasining-ijtimoiy-iqtisodiy-holati:-148-bet>

<sup>31</sup> Мелкумов Я. С. Экономическая оценка эффективности инвестиций и финансирование инвестиционных проектов. - М.: ДИС, 2016. - 344 с.

<sup>32</sup> Майфат А.В. Гражданско-правовые конструкции инвестирования: Моногр. М., 2006. С. 105

<sup>33</sup> См.: Мороз С.П. Инвестиционное право: Курс лекций. Алматы, 2008. 168 с

<sup>34</sup> См.: Лаптева А.М. Понятие инвестиционной деятельности // Современное право. 2012. N 12. С. 102 - 106.

<sup>35</sup> Предпринимательское право: курс лекций / Под ред. Н.И. Клейн. М. 1993. С. 143.

<sup>36</sup> См.: Ратникова Д.С. Правовое регулирование инвестиционной деятельности в Российской Федерации: дис. ... канд. юрид. наук. М., 2011. 214 с.

mazkur faoliyatining asl mazmuni to‘la yoritishda yetarli hisoblanmaydi. “Investitsiya va investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi 2019-yil 25-dekabrda qonun hujjatiga mos qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 3-moddasiga ko‘ra, investitsiya faoliyati investitsiya faoliyati subyektlarining investitsiyalarni amalga oshirish bilan bog‘liq harakatlari majmuidir. Qozog‘iston Respublikasining 2015-yilda qabul qilingan Tadbirkorlik kodeksi 274-moddasida investitsion faoliyat tushunchasi nisbatan kengroq bayon qilinib, unga ko‘ra jismoniy va yuridik shaxslarning tijorat tashkilotlarining ustav kapitalida ishtirok etish yoki tadbirkorlik faoliyati uchun foydalaniladigan asosiy vositalarni ishlab chiqarish yoki ko‘paytirish, shuningdek, davlat-xususiy sherikchilik loyihasini, shu jumladan konsessiya loyihasini amalga oshirish bo‘yicha faoliyati investitsiya faoliyati deb e‘tirof etiladi. Investitsiya va investitsion faoliyat tushunchalari bir-biri bilan mustahkam bog‘liq bo‘lib, mazkur faoliyat tor va keng ma‘noda talqin qilinadi. Investitsion faoliyat tor ma‘noda investitsiya qo‘yilmalarini biror bir sohaga yo‘naltirish va shu orqali kapital hajmini o‘zgartirish jarayonini ifodalasa, keng ma‘noda foyda olish maqsadida sarmoyalarni investitsiya obyektiga joylashtirish bilan bog‘liq harakatlar yig‘indisini ifodalaydi. Ba‘zi bir mualliflar investitsiya faoliyatini shartli ravishda ikki bosqichga ajratilgan harakatlar turi sifatida tushunishni taklif qilishadi. Birinchi bosqich bo‘sh turgan mablag‘larni investitsiya sifatida kiritish haqida qaror qabul qilishdan boshlanadi. Daromad olish nuqtayi nazaridan samarali kapital kiritish obyekti qidirilgandan so‘ng, investitsiya shartnomasi tuziladi, ya‘ni muayyan qidirish va mablag‘larni kiritish fakti mustahkamlanadi<sup>37</sup>. Shunday qilib, moddiy va nomoddiy mablag‘ga investitsiya maqomi beriladi. Ikkinchi bosqich o‘z ichiga investitsiya shartnomasiga muvofiq investitsiyalarni amalga oshirishga doir amaliy harakatlarni qamrab oladi. Bu jarayonda investitsiya faoliyati har bir ishtirokchisining funksiyasi va o‘z vakolatlarini amalga oshirish shakllari aniqlanadi. Yana bir guruh olimlar investitsiya faoliyatini uch bosqichga ajratgan holda talqin etadilar. Birinchi bosqichda investor tomonidan investitsiyaning maqsadi aniqlab olinib, uni amalga oshirish yo‘nalishi hamda usullari belgilab olinadi. Mazkur bosqichga kiritilishi kutilayotgan investitsiyaning miqdori va muddatlarini, shuningdek, taraflarning huquq va majburiyatlarini hamda foydani taqsimlashni aniqlash kabi harakatlar kiradi. Ikkinchi bosqich investitsiya loyihasini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan barcha amaliy harakatlarni, xususan, huquqiy to‘siqlarni bartaraf etish, zarur shartnomalarni imzolash, faoliyat bo‘yicha ruxsatnoma va litsenziya olish kabilarni o‘z ichiga oladi. Uchinchi bosqichga esa investitsiya vositalarini boshqarish, ular yuzasidan qarorlar qabul qilish, loyihani amalga oshirishda to‘siq bo‘luvchi holatlarni bartaraf etish, daromadlarni taqsimlash, reinvestitsiya qilish kabi harakatlar kiradi. Boshqa har qanday faoliyat kabi investitsiya faoliyati ham muayyan maqsad, vosita va natijani o‘z ichiga oladi. Investitsion faoliyatning maqsadi jamiyatning ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishining yuqori darajasiga erishish bo‘lsa, uning vositalari bo‘lib investitsiya, investitsion salohiyat hamda investitsiya jarayonlari hisoblanadi. Investitsion qo‘yilmalardan daromad olish, mavjud kapitalni hamda investitsion resurslarni ko‘paytirish va ulardan samarali foydalanish shart-sharoitlarini yaratish investitsion faoliyatning natijasi sifatida baholanadi. Shuningdek, investitsiya faoliyati: 1) mustaqil faoliyat; 2) mol-mulk hamda mulkiy huquqlarni investitsiya qilish; 3) tavakkalchilikka muvofiq; 4) foyda olish yoki boshqa ijobiy samaraga erishishga yo‘naltirilgan; 5) muayyan huquqiy shaklda amalga oshiriladigan; 6) investitsiya vositalaridan maqsadli foydalanishni ifodalovchi; 7) bir necha bosqichlarda amalga oshirilishi kabi o‘ziga xos belgilari bilan boshqa faoliyat turlaridan ajralib turadi. Boshqa faoliyat turlari kabi investitsiya faoliyati ham muayyan

<sup>37</sup> См.: Белицкая А.В. Основы инвестиционного права Российской Федерации (лекция в рамках учебного курса «Предпринимательское право») // Предпринимательское право. Приложение «Бизнес и право в России и за рубежом». 2012. N 1. С. 12 - 22.

shaxslar doirasi tomonidan amalga oshiriladi. Mazkur shaxslar doirasi investitsiya faoliyati subyektlarini tashki etadi. Umuman olganda ushbu tushuncha investitsiyani harakatga keltirish bilan bog'liq tushunchadir.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Мелкумов Я. С. Экономическая оценка эффективности инвестиций и финансирование инвестиционных проектов. - М.: ДИС, 2016. - 344 с.
2. Майфат А.В. Гражданско-правовые конструкции инвестирования: моногр. – М., 2006. С. 105
3. Мороз С.П. Инвестиционное право: курс лекций. – Алматы, 2008. 168 с
4. Лаптева А.М. Понятие инвестиционной деятельности // Современное право. 2012. N 12. С. 102 - 106.
5. Предпринимательское право: курс лекций / Под ред. Н.И. Клейн. М. 1993. С. 143.
6. Ратникова Д.С. Правовое регулирование инвестиционной деятельности в Российской Федерации: дис. ... канд. юрид. наук. М., 2011. 214 с.

## O'ZBEKISTONNING INVESTITSION JOZIBADORLIGIGA IJOBIV VA SALBIY TA'SIR ETUVCHI OMILLAR

**Poyonov Otabek Sayitovich**

Qashqadaryo viloyati  
yuridik texnikumi o'qituvchisi

**Annotatsiya:** ushbu maqolada O'zbekistonning investitsion jozibadorligiga salbiy ta'sir etuvchi omillarning G'arbiy Yevropa, AQSh ekspertlari tomonidan o'rganib chiqilgan jihatlariga ilmiy nazariy tomonlama baho berilgan.

**Kalit so'zlar:** iqtisodiy o'sish, xususiy sektor, davlat-xususiy sheriklik loyihalarini, soliq imtiyozlari, Amerika Savdo palatasi.

O'zbekiston hukumati (“hukumat” yoki “GOV”) to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarni (TJI) jalb etishni o'zining asosiy siyosati ustuvor yo'nalishlaridan biri deb e'lon qildi va iqtisodiy o'sish va nisbatan yuqori investitsiyalar natijasida yuzaga kelgan ijtimoiy muammolarni hal etishda xususiy sektorning kengroq ishtiroki muhim ekanligini tan oldi. Ishsizlik va qashshoqlik darajasi. 2020-yilda O'zbekiston hukumati pandemiyadan jabr ko'rgan korxonalar uchun qo'shimcha soliq imtiyozlarini yaratish, davlatning iqtisodiyotdagi ishtirokini qisqartirish, davlat-xususiy sheriklik loyihalarini ilgari surish, davlat korxonalarini qayta tashkil etish va xususiylashtirish rejalarini e'lon qilish hamda korrupsiyaga qarshi qo'shimcha chora-tadbirlarni amalga oshirish orqali biznes muhitini yaxshiladi. 2020-yil 1-yanvardan kuchga kirgan yangi Soliq kodeksi yuridik shaxslar va jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini qariyb 50 foizga pasaytirdi va xususiy tadbirkorlar uchun soliqqa tortish tartiblarini sezilarli darajada soddalashtirdi. Prezident Sh. Mirziyoyev barcha mintaqaviy hukumatlarga o'z hududlarining xorijiy investorlar uchun jozibadorligini oshirish va har chorakda to'g'ridan to'g'ri investitsiyalar bo'yicha hisobot taqdim etishni talab qildi. 2020-yil 27-yanvardan kuchga kirgan “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida”gi Qonun mablag'larni O'zbekistondan cheklovsiz olib chiqish va investitsiyalarni milliy lashtirishdan himoya qilishni kafolatladi. 2019-yil noyabr oyida tashkil etilgan Prezident huzuridagi Xorijiy investorlar kengashi xorijiy investorlar, ekspertlar va ishbilarmon doiralar bilan yangi kengaytirilgan muloqot platformasiga aylandi, ammo pandemiya cheklovlari uning prezident bilan rejalashtirilgan yalpi majlisini keyinga surishga majbur qildi. O'zbekiston hukumati (“hukumat” yoki “GOV”) to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarni (TJI) jalb etishni o'zining asosiy siyosati ustuvor yo'nalishlaridan biri deb e'lon qildi va iqtisodiy o'sish va nisbatan yuqori investitsiyalar natijasida yuzaga kelgan ijtimoiy muammolarni hal etishda xususiy sektorning kengroq ishtiroki muhim ekanligini tan oldi. 2020-yilda O'zbekiston hukumati pandemiyadan jabr ko'rgan korxonalar uchun qo'shimcha soliq imtiyozlarini yaratish, davlatning iqtisodiyotdagi ishtirokini qisqartirish, davlat-xususiy sheriklik loyihalarini ilgari surish, davlat korxonalarini qayta tashkil etish va xususiylashtirish rejalarini e'lon qilish hamda korrupsiyaga qarshi qo'shimcha chora-tadbirlarni amalga oshirish orqali biznes muhitini yaxshiladi. 2020-yil 1-yanvardan kuchga kirgan yangi Soliq kodeksi yuridik shaxslar va jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini qariyb 50 foizga pasaytirdi va xususiy tadbirkorlar uchun soliqqa tortish tartiblarini sezilarli darajada soddalashtirdi. Prezident Mirziyoyev barcha mintaqaviy hukumatlarga o'z hududlarining xorijiy investorlar uchun jozibadorligini oshirish va har chorakda to'g'ridan to'g'ri investitsiyalar bo'yicha hisobot taqdim etishni talab qildi. 2020-yil 27-yanvardan kuchga kirgan “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida”gi Qonun mablag'larni O'zbekistondan cheklovsiz olib chiqish va investitsiyalarni milliy lashtirishdan himoya qilishni kafolatladi. 2019-yil noyabr oyida

tashkil etilgan Prezident huzuridagi Xorijiy investorlar kengashi xorijiy investorlar, ekspertlar va ishbiarmon doiralar bilan yangi kengaytirilgan muloqot platformasiga aylandi, ammo pandemiya cheklovlari uning prezident bilan rejalashtirilgan yalpi majlisini keyinga surishga majbur qildi.

Hukumat tadbirkorlar va investorlar tomonidan bildirilgan davlat xaridlari shaffofligining yo'qligi, davlat-xususiy shartnomalar ijrosi bo'yicha sifatsizligi, xususiy mulk huquqlarining yomon himoyalaniishi va intellektual mulk huquqlarining yetarli darajada ta'minlanmagani kabi bir qancha fundamental muammolarni hal qilmadi. O'zbekiston Transparency International tashkilotining Korrupsiyani qabul qilish indeksida 179-o'rinni egalladi va 2020-yilda biznes yuritishning qulayligi (MB) reytingida 69,9 ball (100 – mukammallik standarti) ko'rsatkichi bilan 69-o'rinni egalladi.

Qonunga ko'ra, O'zbekiston iqtisodiyotining barcha sohalarida xorijiy investorlar qabul qilinadi va hukumat chet ellik investorlarni millati, yashash joyi yoki kelib chiqishi mamlakatiga qarab kamsitishi mumkin emas. Biroq, hukumatning asosiy tarmoqlar, jumladan, energetika, telekommunikatsiya, transport va tog'-kon sanoati ustidan nazorati xorijiy investorlarga kamsituvchi ta'sir ko'rsatadi. Hukumat asosiy tarmoqlarda kapital oqimini nazorat qilish istagini davom ettirib, import o'rnini bosuvchi va eksportga yo'naltirilgan loyihalarning oldindan tasdiqlangan ro'yxatiga investitsiyalarni rag'batlantirmoqda, importni iste'mol qiluvchi loyihalarga sarmoya kiritish esa odatda juda kam qo'llab-quvvatlashni kutishi mumkin.

Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi (<https://mft.uz/en/>, <http://www.invest.gov.uz/en/>) xorijiy investorlarga konsalting xizmatlari, axborot-tahlil, tadbirkorlik faoliyatini ro'yxatdan o'tkazish va boshqa xizmatlarni taqdim etadi. O'zbekiston Savdo-sanoat palatasi (<http://www.chamber.uz/en/index>) singari shartnoma asosida yuridik yordam ko'rsatish.

GOV muntazam ravishda ommaviy axborot vositalari va hukumat-biznes forumlarini tashkil qiladi va ishtirok etadi hamda bu tadbirlarda rasmiylar O'zbekistonda yangi kompaniyalar faoliyatini yo'lga qo'yishdan manfaatdor ekanliklarini ta'kidlaydilar. O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy tadbirkorlar, xalqaro moliya institutlari, banklar va boshqa tuzilmalar bilan to'g'ridan to'g'ri muloqotni yaxshilash maqsadida O'zbekiston Respublikasi hukumatida xorijiy investorlar kengashi tashkil etilgan bo'lib, u institutsional maslahat organi sifatida faoliyat yuritadi. 2017-yilda biznes-ombudsman instituti tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish va huquqiy qo'llab-quvvatlash maqsadida GOV tomonidan tashkil etilgan. 2020-yil 27-yanvardan kuchga kirgan “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida”gi Qonun O'zbekiston davlat organlari, xorijdagi diplomatik vakolatxonalar va konsullik muassasalariga investorlarga maslahat va axborot yordamini ko'rsatish majburiyatini yuklaydi. Qonun, shuningdek, IBOni chet ellik tadbirkorlarga yuzaga keladigan nizolarni suddan tashqari va sudgacha bo'lgan tartib-qoidalar orqali hal qilishda yordam berishga majbur qiladi.

Hisobot davrida GOVning turli rasmiylari AQSh kompaniyalari, biznesga ko'maklashish agentliklari, AQSh Xalqaro Taraqqiyot Moliya Korporatsiyasi (DFC) va Amerikaning boshqa tashkilotlari vakillari bilan o'nlab yuzma-yuz va virtual uchrashuvlarda qatnashdilar. Avvalroq, 2019-yilda O'zbekiston O'zbekistondagi Amerika Savdo palatasi tomonidan qo'llab-quvvatlangan birinchi AQSh Savdo vazirligining sertifikatlangan savdo missiyasiga mezbonlik qilgan edi. Tadbir AQShning 13 kompaniyasining 35 nafar vakiliga GOV yuqori mansabdor shaxslari va ularning o'zbekistonlik biznes hamkasblari bilan uchrashish imkoniyatini berdi.

Qonunga ko'ra, O'zbekiston xorijiy va mahalliy xususiy tadbirkorlik subyektlarining tadbirkorlik korxonalarini tashkil etish va ularga egalik qilish, haq to'lanadigan faoliyatning aksariyat shakllari bilan shug'ullanish huquqini kafolatlaydi. Biroq, bir qancha tarmoqlarda davlat monopoliyalari keng tarqalganligi sababli, haqiqatda ham ayrim tarmoqlarda tadbirkorlik korxonalarini tashkil etish huquqi cheklangan. GOV yirik davlat monopoliyalarining, ayniqsa



transport, bank, energetika va paxta sohasidagi rolini qayta ko'rib chiqish jarayonini boshladi. Prezident Mirziyoyev 2020-yilda davlatning iqtisodiyotdagi ishtirokini qisqartirish bo'yicha chora-tadbirlar, jumladan, davlat korxonalarini faoliyatida monopoliyaga qarshi muvofiqlik tizimini joriy etish, 39 ta davlat xo'jaligini optimallashtirilgan korporativ boshqaruv tizimini qayta tashkil etish, 548 ta davlat korxonasi va davlat mulkini xususiy lashtirish bo'yicha ko'rsatmalar berdi. Davlat korxonalarini qayta tashkil etishning ushbu ulkan dasturi yirik davlat monopoliyalarini, jumladan, eng yirik tog'-kon kompaniyasini, energetika sohasidagi milliy monopoliyalarni, axborot, texnologiya va aloqa sektorini va pochta operatorlarini, kimyo zavodlarini, milliy havo va temir yo'l kompaniyalarini, avtomobilsozlik kompaniyalarini, banklarni, sug'urta firmalari va boshqa davlat aktivlari. Prezident Mirziyoyev "O'z paxtasanoat" davlat aksiyadorlik jamiyatining paxta xomashyosi savdosi bo'yicha monopoliyasini rasman tugatdi va xususiy investorlarga paxta sohasida klasterlar deb ataladigan yaxlit qiymat zanjiri tizimini yaratish huquqini berdi. Klasterlar korxonalariga paxta yetishtirish, terib olish, qayta ishlash va eksportni davlat korxonalarini tomonidan boshqariladigan ta'minot zanjirlaridan mustaqil ravishda boshqarish imkonini beradi. Davlat hali ham rangli metallar va minerallar kabi ba'zi tovarlarni eksport qilishning mutlaq huquqini saqlab qoladi. Nazariy jihatdan, xususiy korxonalar xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushlarini erkin tashkil etishi, sotib olishi va tasarruf etishi mumkin, ammo amalda buni amalga oshirish qiyin, chunki O'zbekistonda qimmatli qog'ozlar bozori hali ham rivojlanmagan.

Ayrim sanoat va korxonalarda xususiy kapitalga ruxsat berilmaydi. "Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiy lashtirish to'g'risida"gi Qonunda (1991-yilda qabul qilingan, oxirgi marta 2020-yilda o'zgartirilgan) sotilishi yoki boshqa yo'l bilan xususiy lashtirilishi mumkin bo'lmagan davlat aktivlari, jumladan, mineral va suv resurslari, havo havzasi (O'zbekiston havo hududidagi atmosfera resurslari), o'simlik dunyosi sanab o'tilgan. Hayvonot va hayvonot dunyosi, madaniy meros obyektlari va aktivlari, davlat budjeti mablag'lari, xorijiy kapital va oltin zaxiralari, davlat maqsadli jamg'armalari, Markaziy bank, pul muomalasiga ko'maklashuvchi korxonalar, harbiy va xavfsizlik bilan bog'liq aktivlar va korxonalar, o'qotar qurol va o'q-dorilar ishlab chiqaruvchilar, yadroviy tadqiqotlar va rivojlantirish korxonalarini, ayrim ixtisoslashtirilgan dori vositalari va zaharli kimyoviy moddalar ishlab chiqaruvchilari, favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish organlari, fuqaro muhofazasi va safarbarlik obyektlari, umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llari va qabristonlar.

Aviakompaniyalar, temir yo'llar, elektr energiyasi ishlab chiqarish, shaharlararo telekommunikatsiya tarmoqlari va milliy xavfsizlik bilan bog'liq deb hisoblangan boshqa tarmoqlarga xorijiy egalik qilish va nazorat qilish GOUning maxsus ruxsatini talab qiladi, ammo hozircha bu sektorlarda xorijliklar qabul qilinmagan. Qonunga ko'ra, chet el fuqarolari O'zbekistonda yakka tartibdagi tadbirkorlik faoliyati uchun litsenziya yoki soliq ruxsatnomasini ololmaydilar. Shuning uchun amalda ular o'z-o'zini ish bilan ta'minlay olmaydilar va ular qonuniy ravishda tan olingan shaxs tomonidan ish bilan ta'minlanishi kerak.

O'zbekiston qonunchiligiga ko'ra, kamida 15 foiz xorij ulushiga ega bo'lgan mahalliy kompaniyalar xorijiy investitsiyalar ishtirokchisi sifatida tasniflanishi mumkin. Chet el investitsiyalari ishtirokidagi kompaniya uchun belgilangan nizomni moliyalashtirishning minimal talabi 400 million so'mni tashkil etadi (1 dollar 2021 yil mart holatiga ko'ra 10 600 so'mga teng). Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyatida ro'yxatdan o'tgan korxonalar uchun ham xuddi shunday talab 200 million so'mni tashkil etadi. Litsenziyalanishi kerak bo'lgan tadbirkorlik faoliyati uchun ustav mablag'larining minimal talablari boshqacha bo'lishi mumkin. Masalan, bank faoliyati uchun talab 100 mlrd so'm; mikroredit tashkilotlari faoliyati uchun - 2 milliard so'm; lombardlar uchun - 500 million so'm; etil spirti va alkogolli ichimliklar ishlab chiqarish uchun - 10 000 Bazaviy hisoblash stavkalari (BCR) (bir BCR 245 000 so'm yoki

taxminan 23 AQSh dollariga teng, 2021-yil mart holatiga ko‘ra); lotereyalar - 200 million so‘m; turizm operatorlari uchun esa 400 BCR. OAV korxonalariga xorijiy investitsiyalar 30% bilan cheklangan.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi
2. O‘zbekiston Respublikasining qonuni, 25.12.2019 yildagi O‘RQ-598-son (Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 26.12.2019-y., 03/19/598/4221-son; Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son, 07.06.2022-y., 03/22/775/0477-son; 31.12.2022-y., 03/22/812/1145-son)

## TO'G'RIDAN TO'G'RI INVESTITSİYALARNI INVESTITSION BOZORDAGI ROLI

**Oripova Mexriniso Murodjonovna**

Buxoro viloyati yuridik texnikumi o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu tezisda to'g'ridan to'g'ri investitsiyalarni investitsion bozordagi ahamiyati va roli yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** Investitsiya, aksiya, obligatsiya, bank, korxonalar, milliy iqtisodiyot.

Korxonalar yoki kompaniyalar qancha ekanligini aniqlash uchun imkon qadar uzoq muddatda o'z faoliyatini amalga oshiradi ularning rivojlanishining yuqori sur'atlari va raqobatbardoshlik darajasi zarur investitsiya faoliyati darajasi va doirasini aniqlash. Investor o'z hisobidan va o'z mablag'lari hisobidan jismoniy yoki yuridik shaxsni nazarda tutadi nomi investitsiyalarni amalga oshiradi. Keng nuqtayi nazardan, investitsiyalar kapitalning shunday investitsiyasidir, yanada oshirishni maqsad qilgan, va buning manbai kapitalni oshirish va investitsiya jarayoni uchun motivatsiya hisoblanadi ya'ni foyda. Ko'pincha ilmiy adabiyotlarda konsepsiya mavjud «investitsiya» «kapital qo'yilmalar» tushunchasiga mos keladi. U bog'langan investitsiyalar takror ishlab chiqarishga investitsiya sifatida qaralishi bilan binolar, inshootlar, ya'ni asosiy vositalarga aylantiriladi. Ammo investitsiyalar bo'lishi mumkin joriy aktivlar, har qanday moliyaviy vositalarga, masalan, aksiyalarga yoki obligatsiyalar, shuningdek, shakldagi nomoddiy aktivlarni sotib olish patentlar yoki litsenziyalar. Shunga asoslanib, konsepsiyani aytish mumkin kapital qo'yilmalar torroq tushuncha bo'lib, shunday deb qaralishi mumkin bo'lgan shakllardan biri, lekin investitsiya analogi sifatida emas.

Barcha investitsiyalarni shartli ravishda ikki guruhga bo'lish mumkin: bular moliyaviy va haqiqiy, ya'ni kapital qo'yilmalar. Haqiqiy investitsiyalar bevosita ishlab chiqarish vositalariga investitsiya qilinadi va qoida tariqasida bu uzoq muddatli kapital qo'yilmalar. Shuning uchun real investitsiyalar kiritiladi odatda aniq va uzoq muddatli loyihada. Ushbu loyiha bilan bog'liq real aktivlar sotib olinadi. Investitsiyalar uchun foydalanish mumkin va o'z va qarz kapitali. Qarz olingan kapital sifatida u bo'lishi mumkin bank krediti kabi. Bunday holda, bank investorga aylanadi, haqiqiy investitsiyalarni kim amalga oshiradi.

Tadqiqotlar ko'rsatishicha, iqtisodiyotning to'g'ridan to'g'ri investitsiyalarni jalb qilish va ulardan samarali foydalanish holati ichki bozor hamda eksportning hajmi, tabiiy va mineral ishchi kuchi mavjudligi, bozor islohotlarini amalga oshirish sur'atlari, iqtisodiy barqarorlik omillari bilan bog'liqdir. 47 % to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar xorij kapitalining uzoq muddatga joylashtirilishini, investor tashkil qilayotgan firma aksiyalari yoki aksiyadorlik kapitaliga to'la ega bo'lishi yoki kamida 10 foizi xo'jalik faoliyatining ta'sirchan nazorat qilinishi ta'minlashini anglatadi. To'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar:

- investorga investitsiya kiritilayotgan obyekt ustidan nazorat qilish huquqini beruvchi ishlab chiqarishga sarflangan uzoq muddatli xorijiy qo'yilmalarni;
- pirovard maqsadi foyda ko'rinishida daromad olishga qaratilgan tadbirkorlik kapitalining ustuvor shaklini;
- xususiy kapitalga asoslangan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni;
- xorijiy investorning investitsiya kiritilayotgan obyekt ustidan to'liq egalik qilishini;
- xorijiy investor tomonidan investitsiya kiritilayotgan obyekt ustav kapitalining 10 %dan kam bo'lmagan qismi ustidan nazorat o'rnatishini;
- xorijiy investorning investitsiya kiritayotgan obyektlarni boshqarishda samarali qatnashishini;
- mustahkam iqtisodiy munosabatlarni o'rnatish hamda korxonalar ustidan nazorat huquqini

qo'lg'a kiritish maqsadida kapital va resurslarning transchegaraviy harakatini qamrab oladi va namoyon etadi.

To'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarning O'zbekistonga kirib kelishi qisqa vaqt ichida mulkchilikning turli shakllari tashkil topishiga ko'maklashdi, iqtisodiyotda tarkibiy qayta qurish, nufuzli tarmoqlarning barpo etilishini ta'minladi. Eng muhimi, iqtisodiyotning baynalmilalashuvini va xalqaro bozorga o'z mahsulotlarini olib chiqishini va u yerda o'z o'rniga ega bo'lishini ta'minladi. Buning oqibatida eksport hajmi va salohiyati o'sishi va respublikamizning to'lov balansining tobora ijobiylashib borishiga erishildi.

Investitsion bozorning bozor konyukturasini o'rganish investorlar uchun katta ahamiyatga ega bo'lib, investitsiyalar bo'yicha noaniq yechimlarni qabul qilish asosida daromadning kamayishiga yoki kapitalni yo'qotishga olib kelishi mumkin. Investitsion bozorni o'rganish, odatda, quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi:

– investitsion bozor makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning rivojlanishini bashorat qilish va baholash (investitsion iqlimni baholash);

– hududlarning investitsion holatini bashorat qilish va baholash;

– iqtisodiy tarmoqlarning investitsion jozibadorligini bashorat qilish va baholash;

– alohida investitsion loyihalarni baholash va investitsion bozorning bo'g'inlarini o'rganish;

– korxonalar investitsion strategiyasini qayta ishlash;

– korxonalarda samarali investitsion portfelni shakllantirish, real kapital qo'yimalarni va moliyaviy hamda innovatsion investitsiyalarni qamrab olgan holda;

– korxonalar investitsion portfelini boshqarish (diversifikatsiya, kapitalni qayta investitsiyalash va boshqalar). Investor doimo investitsion bozorni makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni tahlil qilishdan boshlaydi.

U mamlakatdagi investitsion jarayonga yo'naltirilgan bo'lib, quyidagi taxminlarni o'z ichiga qamrab oladi:

– yalpi milliy mahsulot o'sishi, milliy daromad va mahsulot ishlab chiqarishning hajmi;

– milliy daromadni taqsimlashning o'sishi;

– investitsion faoliyatni huquqiy tartibga solish;

– soliq va bank tizimi holati;

– alohida investitsion bozor, ya'ni fond va pul bozorlarining rivojlanishi.

Shuni alohida aytib o'tish mumkinki, bozor munosabatlariga o'tayotgan davlatlar milliy iqtisodiyotini tashkil etish va rivojlantirishda tashqi investitsiyalarning o'rni yuksakdir. Ayniqsa, iqtisodiyotni modernizatsiyalashning muqarrar yo'llaridan biri, yuqori darajadagi zamonaviy texnologiyalarga asoslangan xorijiy investitsiyalarni jalb qilish hisoblanadi.

## O'ZBEKISTONDA MAHALLIY VA CHET EL INVESTORLARI FAOLIYATINI YANADA RIVOJLANTIRISH MAQSADIDA YARATILGAN IMTIYOZLAR

**Qandimov Ilyos Qalandar o'g'li**

Buxoro viloyati yuridik texnikumi o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanilgan holda, mamlakatimizda mahalliy va xorijiy investorlar faoliyatini yanada rivojlantirish va kiritilayotgan sarmoya hajmini oshirish maqsadida yaratilgan keng imkoniyatlar va imtiyozlar haqida fikr va mulohaza yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** Investitsiya, investor, preferensiya, qo'shilgan qiymat solig'i, realizatsiya, ijtimoiy infratuzilma, yagona ijtimoiy to'lov, yagona soliq to'lovi, muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari.

Mamlakatimizda xorijiy investorlarni jalb qilish uchun juda katta imkoniyat va salohiyat mavjud. Yer osti va yer usti boyliklariga ega mamlakatimizda sarmoya kiritish istagida bo'lgan barcha xorijlik investorlar uchun eshigimiz ochiq. Eng quvonarlisi esa O'zbekistonda tinchlik hukmron bo'lib, bu investorlar uchun eng birinchi navbatdagi imkoniyatdir. Shuningdek, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida investorlar uchun bir qator huquq va imtiyozlar kengaytirilmoqda.

**O'zbekiston Respublikasi “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida”gi Qonunining 34-moddasiga** ko'ra investitsiyalarni va investitsiya faoliyatini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash uchun qo'llaniladigan imtiyoz hamda preferensiyalar quyidagilarni o'z ichiga olishi mumkin:

- Davlat mulki bo'lgan obyektlarni yoki ularga bo'lgan mulkiy huquqlarni imtiyozli yoki nolga teng xarid qiymati bo'yicha investorga berish;
- Soliqlar va to'lovlar bo'yicha imtiyozlar berish;
- Investitsiya loyihasini amalga oshirish uchun investor tomonidan olinadigan kreditlar bo'yicha foiz stavkalarini subsidiyalash.

### **Imtiyozlar va preferensiyalar quyidagilarga qarab beriladi:**

- Investitsiyalar hajmiga;
- Investitsiya loyihasi amalga oshiriladigan joyning shart-sharoitlariga;
- Kutilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy samaraga va yangi ish o'rinlarini yaratishga;
- Investitsiya loyihasini amalga oshirish sohalari va tarmoqlariga.

Soliqlar va to'lovlar bo'yicha imtiyozlar qonunda belgilangan tartibda beriladi.

Ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan investitsiyalarni va investitsiya faoliyatini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash uchun qo'llanadigan preferensiyalar tegishincha Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlarining qarorlari bilan, shu jumladan munitsipal obyektlarga nisbatan Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlari mablag'lari hisobidan berilishi mumkin. Imtiyozlar va preferensiyalar tegishli hududga investitsiyalar kiritishni nazarda tutuvchi investorlarga mazkur hudud infratuzilmasining rivojlanish darajasidan kelib chiqqan holda beriladi. To'g'ridan-to'g'ri chet el investitsiyalarini jalb qilgan holda tashkil etilgan va qonun hujjatlari bilan tasdiqlanadigan ro'yxat bo'yicha iqtisodiyot tarmoqlarida mahsulot ishlab chiqarishga (xizmatlar ko'rsatishga) ixtisoslashgan korxonalariga O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksida belgilangan tartibda alohida soliqlar yuzasidan imtiyozlar qo'llashning o'ziga xos xususiyatlari nazarda tutiladi.

## **O‘zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksiga muvofiq:**

**Bojxona bojidan ozod etish tarzidagi tarif imtiyozlari quyidagilarga nisbatan beriladi, jumladan:**

- ustav fondida (ustav kapitalida) chet el investitsiyalarining ulushi kamida o‘ttiz uch foiz bo‘lgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar tomonidan ular davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan paytdan e‘tiboran ikki yil davomida o‘z ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun bojxona hududiga olib kiriladigan mol-mulkka;

- chet ellik investorlar, chet ellik investorlar bilan tuzilgan mehnat shartnomalariga muvofiq O‘zbekiston Respublikasida turgan chet davlatlar fuqarolari va O‘zbekiston Respublikasidan tashqarida doimiy ravishda yashaydigan fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning shaxsiy ehtiyojlari uchun bojxona hududiga olib kiriladigan mol-mulkka;

- O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotiga umumiy summasi ellik million AQSh dollari ekvivalentidan ortiq bo‘lgan to‘g‘ridan to‘g‘ri investitsiyani amalga oshirgan chet ellik yuridik shaxslar tomonidan bojxona hududiga olib kiriladigan tovarlarga, basharti olib kirilayotgan tovarlar ularning o‘z ishlab chiqarish mahsuloti bo‘lsa;

- mahsulot taqsimotiga oid bitim bo‘yicha ishlar olib borish uchun mo‘ljallangan va loyiha hujjatlariga muvofiq mahsulot taqsimotiga oid bitim bo‘yicha ishlarni bajarishda ishtirok etayotgan chet ellik investor yoki boshqa shaxslar tomonidan bojxona hududiga olib kiriladigan tovarlarga, shuningdek investor tomonidan bojxona hududidan olib chiqiladigan, mahsulot taqsimotiga oid bitimga muvofiq investorga tegishli bo‘lgan mahsulotga;

- bojxona hududiga qonun hujjatlariga muvofiq tasdiqlanadigan ro‘yxat bo‘yicha olib kirilayotgan texnologik asbob-uskunalar, shuningdek, butlovchi buyumlar va ehtiyot qismlar, agar ularni yetkazib berish kontrakti (shartnomasi, kelishuvi) shartlarida nazarda tutilgan bo‘lsa. Olib kirilgan texnologik asbob-uskunalar olib kirilgan paytdan e‘tiboran uch yil mobaynida eksportga realizatsiya qilingan yoki tekin berilgan taqdirda, mazkur imtiyozning amal qilishi bojxona bojlarini to‘lash majburiyatlari tiklangan holda bekor qilinadi;

- xorijiy investorning pul shaklidagi ulushi 5 million AQSh dollaridan kam bo‘lmagan yangidan tashkil etilayotgan xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar davlat ro‘yxatidan o‘tgan sanadan boshlab 10 yil mobaynida soliq qonunchiligida o‘zgarishlar yuz bergan hollarda, yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i, qo‘shilgan qiymat solig‘i (tovarlar, ishlar, xizmatlarni realizatsiya qilish aylanmasi), mol-mulk solig‘i, obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig‘i, yagona ijtimoiy to‘lov, yagona soliq to‘lovi, shuningdek, Respublika yo‘l jamg‘armasiga hamda Budjetdan tashqari O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi ta‘lim va tibbiyot muassasalarining moddiy-texnika bazasini rivojlantirish jamg‘armasiga majburiy ajratmalar to‘lashning mazkur korxonalar davlat ro‘yxatidan o‘tish sanasida amal qilgan me‘yorlari va qoidalarini qo‘llashga haqlidirlar;

- qiymati 50 million AQSh dollaridan oshadigan va xorijiy investorning ulushi kamida 50 foiz bo‘lgan investitsiya loyihalari doirasida, ishlab chiqarish maydonidan tashqaridagi zarur tashqi muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlarini qurish budjet mablag‘lari hamda boshqa ichki moliyalashtirish manbalari hisobidan amalga oshiriladi;

- vazirliklar, idoralar, mahalliy davlat organlari, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat idoralari, tijorat banklari tomonidan xorijiy investorlar hamda xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarining faoliyati bilan bog‘liq qo‘shimcha talablar va cheklovlar o‘rnatilishi qat‘iyan taqiqlangan va bu hol qonunga xilof deb hisoblanadi;

- investitsiya loyihalarini amalga oshirishda ishtirok etuvchi xorijiy kompaniyalar ishchilari uchun viza tartibini soddalashtirish (kirish va ko‘p martalik vizalarni 12 oy muddatga rasmiylashtirish)

- xorijiy investorlarga o'zlarining investitsiya faoliyatini amalga oshirishlari uchun Davlat budjeti va uning ijrosi, pul-kredit siyosati, tashqi savdo hamda boshqa ko'rsatkichlarni hisobga olgan holda zarur bo'lgan iqtisodiy axborotlardan tizimli asosda belgilangan tartibda keng foydalanish imkoniyatlari.

**O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 10.04.2012 yildagi PF-4434-sonli Farmoniga muvofiq:**

**O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.04.2005 yildagi PF-3594-sonli Farmoniga muvofiq:**

To'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etgan holda tashkil etilgan va ilovaga muvofiq ro'yxat bo'yicha iqtisodiyot tarmoqlarida mahsulotlarni ishlab chiqarishga (xizmatlar ko'rsatishga) ixtisoslashtirilgan korxonalariga quyidagi to'g'ridan to'g'ri xususiy xorijiy investitsiya hajmlarida O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan tartibda alohida soliqlar bo'yicha imtiyozlarni qo'llashning o'ziga xos xususiyatlari nazarda tutiladi:

**300 ming AQSh dollaridan 3 million AQSh dollarigacha — 3 yil muddatga;**

**3 million AQSh dollaridan ortiq va 10 million AQSh dollarigacha — 5 yil muddatga;**

**10 million AQSh dollaridan ortiq bo'lganda — 7 yil muddatga.**

**O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 17.01.2017 yildagi PF-4933-sonli Farmoniga muvofiq:**

Umumiy belgilangan soliqlar to'lovchi davlat mulki obyektlarining sotib oluvchilari — tashkilotlar oldi-sotdi shartnomasi imzolangan paytdan boshlab 12 oy muddatga yangi sotib olinayotgan davlat mulki obyektlari bo'yicha mol-mulk solig'i va yer solig'i to'lashdan ozod qilinadi, bo'shagan mablag'lar xususiylashtirilgan obyektlarni modernizatsiyalash, texnik va texnologik qayta jihozlash hamda ularni rivojlantirishga maqsadli tarzda yo'naltiriladi.

Mamlakatimizda sarmoyalar hajmini kelgusi 5 yilda 120 milliard dollarga yetkazish, jumladan, kamida 70 milliard dollar xorijiy investitsiyalar jalb etish mo'ljallanmoqda. Ushbu investitsiyalar eng avvalo, sanoat tarmoqlarini modernizatsiya va transformatsiya qilish, ishlab chiqarish, kommunal va transport infratuzilmasini jadal rivojlantirishga yo'naltirish uchun aniq loyiha va dasturlar ishlab chiqilgan. Yangi O'zbekistonda investorlar o'zini erkin his etishi, ertangi kunga katta ishonch bilan qarab barqaror ishlashi uchun barcha imkoniyatlar yaratib berilayotganidan mamnun ekanini izhor etishdi. Eng muhimi esa O'zbekiston Prezidenti huzurida xorijiy investorlar Kengashi tuzilgani va unda investorlar muammolari ochiq-oydin hal etilishi chet ellik sarmoyadorlarda katta ishonch uyg'otmoqda.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T., 1992.
2. O'zbekiston Respublikasi “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida”gi Qonuni, 25.12.2019 y. qonun hujjatiga mos
3. lex.uz sayti

## IQTISODIY FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISHDA INVESTITSIYA FAOLIYATINI MUHIM AHAMIYATI

**Shahnozaxon Ahmadjonova Yarkinovna**  
Andijon viloyati yuridik texnikumi o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada investitsiya faoliyatini moliyalashtirish, uning manbalarini shakllantirish, qulay investitsiya muhitini yaratish, investitsiya faoliyatiga ta'sir etuvchi omillarni o'rganish, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar faoliyatini takomillashtirish singari qator masalalar to'g'risida fikrlar yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** Investitsiya, investitsiya siyosati, valyuta bozori, davlat budjeti, investitsiya muhiti, investitsiya faoliyati, investitsion faollik, ijtimoiy daromad.

Mamlakatni ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy rivojlanishida investitsiyalarning ahamiyati kattadir. Ma'lumki, har qanday davlat dunyoning yetakchi davlatlari ilm, fan va texnika sohasida erishgan yutuqlarini qabul qilmasdan rivojlanishi mumkin emas. O'zbekiston iqtisodiyotida chuqur iqtisodiy islohotlar, tarkibiy o'zgarishlar amalga oshirilar ekan, xorijiy investitsiyalar rivojisiz tasavvur etib bo'lmaydi. O'zbekiston ulkan xorijiy investitsiyalar yo'naltirayotgan mamlakatlar guruhiga kirish uchun barcha sharoitlarga, xorijiy investitsiyalarni jalb etish uchun bir qator afzalliklarga ega. O'zbekiston jahon hamjamiyati oldida o'zining ijtimoiy iqtisodiy rivojlanish darajasi, dunyo xaritasida geografik joylashishi, tabiiy resurslarni tarkibi va zaxirasi, hukumat olib borayotgan iqtisodiy siyosat va boshqalar bilan muhim rol o'ynaydi.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasida asosan xorijiy investitsiyalar mamlakat iqtisodiyotining barqaror va samarali rivojlanishini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan investitsiya siyosatining o'ziga xos xususiyati mahalliy xom-ashyo resurslarini chuqur qayta ishlashga hamda energiya tejankor va yuqori texnologiyalarga asoslangan yangi ishlab chiqarishlarni tashkil etishga yo'naltirilgan investitsiya loyihalarini amalga oshirishga ustuvor ahamiyat berilayotganida namoyon bo'lmoqda, iqtisodiyotni erkinlashtirish va mulk huquqini himoya qilishni mustahkamlashga qaratilgan chora-tadbirlarning amalga oshirilishi mamlakatimizda investitsiya muhitini yaxshilash hamda hajmi tobora ortib borayotgan xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Xorijiy investitsiyalar ijtimoiy qatlamda mehnat unumdorligining oshishiga olib keladi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi kompaniyalar tashkil etish orqali o'rtacha mehnat unumdorligini oshirish imkoniyati yaratiladi. Bunday kompaniyalar har bir mehnat birligiga yuqori darajada kapital kiritishga qodir bo'ladilar, bu esa mehnat unumdorligining o'sishiga bevosita ta'sir etadi. Shu bilan birga, ular vositasida aholi bandligini ta'minlash va ishsizlikni bartaraf etish mumkin. Aholini ish bilan bandligini oshirish va turmush darajasini yaxshilash iqtisodiy o'sishni ta'minlashning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Hozirgi kunda mamlakatimizda xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar faoliyat yuritayotgan korxonalar yildan yilga ortib bormoqda. Xorijiy investitsiyalar o'zi bilan, birinchi navbatda, ilg'or texnologiyalarni jalb etilishiga turtki bo'ladi. Aynan, xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar rivojlangan raqobatbardosh firmalar hisoblanib, ular xarajatlarning katta qismini fan-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlari uchun sarflashga hamda ishlab chiqarish faoliyati uchun yangi fan-texnika yutuqlarini joriy etishga qodir bo'ladilar.

Hozirgi kunda barcha mamlakatlarda xorijiy valyutalarni jalb etish va valyuta tushumini ko'paytirish, milliy valyuta qadrini oshirish eng dolzarb muammolardan biri sifatida ko'rilmogda. Xorijiy investitsiyalar mamlakatga xorijiy valyutalarni jalb etish va mamlakatda valyuta barqarorligini ta'minlashda asosiy dastaklardan biri hisoblanadi. Bu borada



Prezidentimiz “Valyuta bozorini isloh qilishga qarshi bo‘lgan ayrim “ekspertlar”ning ikkilanishi va “maslahat”lariga qaramasdan, biz qisqa muddatda xalqaro standartlar asosida valyutani liberallashtirish jarayonini boshladik. Lekin biz yaxshi tushunamizki, bu ish ushbu sohadagi islohotlarning boshlanishi, xolos. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida “Valyuta siyosati biznes va iqtisodiyotni rivojlantirish manfaatlariga to‘liq xizmat qilishi, investitsiya faoliyatiga ijobiy turtki berishi lozim” deb alohida ta’kidlab o‘tgan. Mamlakat iqtisodiyotiga chet el valyutalarini jalb etishda aksariyat davlatlar eksport salohiyatini oshirishga katta urg‘u beradilar, aslida xorijiy investitsiyalarni jalb etish orqali ham katta miqdorda valyuta tushumini ta’minlash mumkin bo‘ladi. Valyuta tushumini ta’minlashda xorijiy investitsiyalarning eksportdan afzallik tomoni shundaki, eksport qilish orqali valyuta tushumiga ega bo‘linadi, biroq ushbu valyuta ekvivalentidagi mahsulotlar chetga olib chiqib ketiladi. Xorijiy investitsiyalarni jalb etish orqali esa chet el valyutasi yoki valyutaga keltiriladigan asbob-uskuna va mahsulotlar milliy iqtisodiyotga kiritiladi. Bu esa mamlakatda iqtisodiy o‘rishni rag‘batlantiradi.

Xulosa qilib aytganda, xorijiy investitsiyalarni kirib kelishi mamlakatimiz iqtisodiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Xorijiy investitsiyalar ijtimoiy qatlamda mehnat unumdorligining oshishiga olib keladi. Aholini ish bilan bandligini oshirish va turmush darajasini yaxshilashga xizmat ko‘rsatadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 25-dekabrda “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni. <http://www.lex.uz> (normativ-huquqiy hujjatlar tizimi).
2. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar ilmiy elektron jurnali. № 1, yanvar-fevral, 2021-yil 107 1/2021 (№ 00051) <http://iqtisodiyot.tsue.uz>
3. Darslik. – T.: TDIU, 2011. – 90 bet.
4. Mustafaqulov Sh.I. Investitsion muhit jozibadorligi.
5. Tuxliev B.K. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish: o‘quv qo‘llanma. – T.: TDIU, 2007. - 109 b.

## INVESTITSIYALARNING MILLIY QONUNCHILIKKA MUVOFIQLIGI

**Sadikova Shaxnozahon Muhammadsobirovna**  
Andijon viloyati yuridik texnikumi o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Maqolada investitsiyalarning bugungi kundagi ahamiyati, investitsiya tushunchasi, ushbu sohaning amalga oshirilishi va rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar, investitsiyalarning milliy qonunchilikka muvofiqligi qanday amalga oshiriladi, investitsiyalarning milliy qonunchilikka muvofiqligini ta'minlash sohasidagi asosiy vazifalar haqida ma'lumotlar beriladi.

**Kalit so'zlar:** Investitsiya, investitsiya muhiti, xorijiy investitsiyalar, xorijiy investitsiya shartnomasi, investitsiyalarning milliy qonunchilikka muvofiqligi tushunchasi.

Bugungi kunda har bir mamlakat iqtisodiyotining kelgusi taraqqiyoti, asosan investitsiyalarga bog'liq bo'lmoqda. Ayniqsa, mamlakatlarning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy rivojlanishida investitsiyalar alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Shu sababli, mamlakatimizda ham investitsiya faoliyatini rivojlantirish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28-yanvar 2022-yilda qabul qilingan, 2022–2026-yil-larga mo'ljallangan “Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'grisida”gi Farmonida belgilangan 100 ta maqsadning 26-maqsadida “Mamlakatda investitsiya muhitini yanada yaxshilash va uning jozibadorligini oshirish, kelgusi besh yilda 120 milliard AQSh dollari, jumladan 70 milliard dollar xorijiy investitsiyalarni jalb etish choralarini ko'rish” belgilab qo'yilgan.

O'zbekistonda tadbirkorlik uchun qulay ishbilarmonlik muhiti, keng huquqiy kafolat va imtiyozlar tizimi hamda xorijiy investorlar uchun qulay investitsiya muhitining va ular kiritgan mablag'larning yuqori iqtisodiy samaradorligiga erishishini ta'minlaydigan tegishli huquqiy bazaning yaratilganligi investitsiya faolligining sezilarli darajada kuchayishi va iqtisodiyotimizga yo'naltirilayotgan kapital qo'yilmalar hajmining o'sishi uchun imkon bermoqda.

“Investitsiya” atamasi lotin tilidagi “invest” so'zidan olingan bo'lib “qo'yish”, “mablag'ni safarbar etish”, “kapital qo'yilmasi” ma'nosini beradi. Keng ma'noda investitsiya mablag'ni ko'paytirib va qaytarib olish maqsadida kapitalni safarbar etishni bildiradi.

Har qanday davlatga investitsiyalarning kirib kelishi mazkur mamlakatdagi investitsiya muhitiga ta'sir etuvchi omillarga bevosita bog'liq. Investitsiya muhiti investitsiya resurslarini joylashtirish uchun umumiy mezon bo'lib, birinchi navbatda, kapital mablag'lar daromadligini ta'minlab beradi. Sodda qilib aytganda, investitsiya muhiti investitsiya munosabatlarini amalga oshirish mumkin bo'lgan imkoniyatlar va qulayliklar majmuasini o'zida aks ettirgan voqelikdir.

Har bir mamlakatdagi investitsiya muhiti, birinchi navbatda, uning siyosiy barqarorligidir. Xuddi ana shu omil xorijlik investorlarning boshqa mamlakatga uzoq muddatli shartnomalar asosida resurslarni kiritish imkoniyatini beradi. Bunday muhit uzoq muddatli investitsiya rejalarini amalga oshirishda juda muhimdir.

Investitsiya faoliyatining amalga oshishi va rivojlanishi uchun investitsiyalarning milliy qonunchilikka muvofiqligi ta'minlanishi juda muhim.

Investitsiyalarning milliy qonunchilikka muvofiqligi barcha manfaatdor tomonlar uchun katta ahamiyatga ega. Zero, odatda, shartnomalar faqat “qonunga muvofiq qabul qilingan investitsiyalarni himoya qiladi. Ko'pgina shartnomalar, agar investitsiyalar ular kirib kelishida qabul qiluvchi davlatning ichki qonunchiligiga muvofiq bo'lmasa, shartnoma bo'yicha ularga hech qanday himoya taqdim etilmasligini belgilab qo'yadi. Ushbu qoida asosan investitsiya ta'rifi berilgan qismda o'z yoki kelishuv doirasini belgilaydigan shartnoma holatlarida keltiriladi.

Bunday tartib investitsiyalarni davlat tomonidan qabul qilinishi yoki tasdiqlanishiga bo'lgan talabni rag'batlantiradi. Natijada bu talab qabul qiluvchi davlatga kengroq imkoniyatlar yaratib beradi, zero, ular barcha investitsiyalarni qabul qilish majburiyatini o'z zimmasiga olmagan va investitsiyalarni qabul qilish ustidan nazoratni saqlab qoladi. Aksariyat shartnomalar investorlarga o'zi xohlaganicha mustaqil ravishda qabul qiluvchi davlatga kirib kelib, investitsiya faoliyatini boshlash imkonini bermaydi. Faqat Kanada, AQSh va Yaponiya tomonidan tuzilgan ayrim shartnomalar cheklangan darajada bunday huquqni belgilab qo'ygan.

Investitsiyalarning milliy qonunchilikka muvofiqligi talabi ularni qabul qiluvchi davlatga kirib kelishi jarayoniga nisbatan amal qiladi, ya'ni bu qoida investitsiyalarni himoya qilish uchun ularni butun investitsiya davri mobaynida milliy qonunchilikka muvofiq bo'lishini talab etmaydi. Milliy qonun hujjatlari talablariga muvofiq kiritilgan investitsiya keyinchalik u bilan bog'liq investitsiya faoliyatida qonuncilik talablari buzilishiga yo'l qo'yilgan bo'lsa ham, xalqaro investitsiya shartnomasi bilan himoya qilinadi. Amalda bu qoida investitsiya kiritilganidan so'ng qabul qiluvchi davlat siyosatining o'zgarishi yuz berganda investor huquqlarini himoya qilish uchun kerak.

Shu bilan birga yolg'on ma'lumotlar yoki pora berish kabi jiddiy qonun buzilishi asosida kiritilgan bo'lsa, bunday investitsiya shartnomalar bilan himoya qilinmasligi mumkin. Va nihoyat, milliy qonunga muvofqlik talabi ichki qonunchilikda belgilab qo'yilgan investitsiya ta'rifini uning xalqaro investitsiya shartnomasida keltirilgan ta'rifdan ustunligini anglatmaydi. Zero shartnoma bilan himoyalangan investitsiya ta'rifi milliy qonunchilik asosida emas, balki, tegishli xalqaro shartnomada belgilab qo'yiladi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, Investitsiya munosabatlarining huquqiy sharoitlar yaratish, ushbu faoliyatni yuritish uchun kafolatlar berish, bu faoliyat subyektlarini sug'urtalash va boshqa vositalar orqali ijtimoiy yoki davlat manfaatlarini amalga oshirish yo'lida tashkil etiladi, investitsiya faoliyati doimiy rivojlanishlar va o'zgarishlar bo'ladigan, shu bilan birgalikda murakkab xalqaro munosabatlar hisoblanadi, ushbu munosabatlarni tartibga solishda milliy qonunchiligimizda xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va tartibga solishda yetarlicha huquqiy asoslar yaratilib kelinmoqda. Bunga misol qilib, “Investitsiyalar va Investitsiya faoliyati to'g'risida”gi Qonuni va boshqa ushbu sohani huquqiy jihatdan tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni keltirish mumkin. Aynan milliy va xalqaro huquqiy hujjatlar asosida investitsiya faoliyati huquqiy jihatdan kafolatlanadi va muvofiqlashtirib boriladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida”gi Qonuni. <http://www.iex.uz>.
2. “2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi. 2022-y. Toshkent. qonun hujjatiga mos
3. Mustafaqulov Sh.I. Investitsion muhit jozibadorligi: ilmiy-amaliy qo'llanma. – Toshkent, 2017. 33 – 34 betlar.
4. “Investor va davlat o'rtasida nizolarni hal qilish asoslari” Trening materiallari. Ma'ruzachi: Rodrigo Polanko. 2021-yil.

## INVESTITSIYA FAOLIYATINING XALQARO HUQUQIY KAFOLATLARI, XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB ETISHNING HUQUQIY ASOSLARI

**Usmonqulova Sitora Dilruzovna**

Qashqadaryo viloyat yuridik  
texnikumining 1-bosqich o'quvchisi

**Annotatsiya:** *Investitsiyalar, investitsiyalarning mohiyati, investitsiyalarning iqtisodiy kategoriyasi, moliyaviy va real investitsiyalar, andarrayting, investitsiya faoliyatining me'yoriy – huquqiy asoslari. Xorijiy investitsiyalarni jalb etishning vazifasi va zaruriy sharoitlari istiqboldagi ustuvor yo'nalishlari haqida so'z boradi.*

**Kalit so'zlar:** *Investitsiyalar, investitsiyalarning iqtisodiy kategoriyalari, moliyaviy investitsiyalar, real investitsiyalar, mulk shakliga ko'ra investitsiyalar, xalqaro investitsiyalar, milliy rejim, eng qulay shartlar rejimi, mahalliy va xorijiy investorlar.*

Investitsiya jarayoni tabiatini o'rganish uchun “investitsiya” atamasining mohiyatini tushunib olishimiz lozim. U lotin tilidagi “invest” so'zidan kelib chiqib “mablag' kiritish”, “mablag'larni joylashtirish” ma'nosini bildiradi. Milliy iqtisodiyotning real sektorida qiymatning investitsiya faolligini kuchaytirish, sanoat, qishloq xo'jaligi, transport, qurilish va boshqa o'zak tarmoqlarning ishlab chiqarish salohiyatini yangilashda muhim rol o'ynaydi.

Investitsiyalar – foyda (daromad) olish va ijobiy ijtimoiy samaraga erishish maqsadida tadbirkorlik obyektlari va boshqa faoliyat turlariga kiritilgan pul mablag'lari, maqsadli bank qo'yilmalari, aksiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlar, texnologiyalar, mashinalar, uskunalar, litsenziyalar, shu jumladan tovar belgisi, kreditlar, boshqa har qanday mulk yoki mulkiy huquq, intellektual boyliklardir.

Iqtisodiy kategoriya sifatida investitsiyalar birinchidan, dastlab avans shaklida kiritilgan qiymatning qo'shimcha o'sishini ta'minlash, ikkinchidan turli loyihalarni amalga oshirish jarayonida investitsiya faoliyati qatnashchilari o'rtasida yuzaga kelgan pul munosabatlarini ifodalaydi.

Mablag'larni kiritish obyektiga ko'ra investitsiyalar ikki turga ajratiladi: moliyaviy va real investitsiyalar.

Moliyaviy investitsiyalar – mablag'larni moliyaviy aktivlarga kiritishdir. Ular aksiyalar, obligatsiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlarga mablag' kiritishni o'zida mujassam etadi.

Real investitsiyalar deganda barcha turdagi moddiy va nomoddiy aktivlarni sotib olishga kiritilgan mablag'lar tushuniladi. Moddiy investitsiyalar asosiy kapital elementlarni barpo etish va sotib olishga sarflanadi.

Nomoddiy investitsiyalar nomoddiy ne'matlar yaratish bilan bog'liq bo'lib unda kapital mablag'lar kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash, ilmiy tadqiqot va tajriba konstruktorlik ishlari, yangi mahsulotlarning sanoat namunasining yaratishga kiritiladi.

Anderreyting – moliyaviy vositachi tomonidan yangi emission qimmatli qog'ozlarni keyinchalik kichik partiyalar bilan investorlarga sotish maqsadida sotib olinishidir.

Xorijiy investitsiyalar daromad olish maqsadida tadbirkorlik va boshqa faoliyat turlariga xorijiy investorlar tomonidan kiritiladigan barcha turdagi mulkiy va intellektual boyliklar majmuasi bo'lib, xorijiy yuridik va jismoniy shaxslar, davlatlar va xalqaro tashkilotlar, xorijiy investorlar sifatida qatnashishi mumkin.

Xalqaro investitsiya huquqi subyektlari faoliyatida barqarorlikni, halol va erkin raqobatni ta'minlash, proteksionizm hamda diskriminatsiyani oldini olishda xalqaro investitsiya huquqining mazkur ikki rejimi muhim rol o'ynaydi. Bunda milli rejimni joriy etishdan xorijiy

va mahalliy investitsiyalar o'rtasida salbiy diskriminatsiyani, davlatlarning proteksionizm siyosatini oldini olish, xorijiy va mahalliy investitsiyalar uchun teng raqobat muhitini yaratish, xorijiy investorlar manfaatlarini himoya qilish kabi maqsadlarni yaratish, xorijiy investorlar manfaatlarini himoya qilish kabi maqsadlar ko'zlangan bo'lsa, eng qulay shartlar rejimi asosida qabul qiluvchi davlat shartnoma tarafi bo'lgan boshqa davlat investorlari yoki ularning investitsiyalariga muayyan sohada uchinchi davlat investorlari va ularning investitsiyalari uchun nazarda tutilganidan kam bo'lmagan qulay shartlar taqdim etish majburiyatini oladi. Ushbu rejim doirasida investorlar uchun teng raqobat muhitini yaratish, diskriminatsiyani oldini olish, investorlar huquqlarini kafolatlash maqsadlari qabul qiluvchi davlatning mahalliy investorlariga tatbiqan emas, balki xorijiy davlatlar investorlariga nisbatan amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 10-apreldagi farmoniga muvofiq to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etishni rag'batlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar qabul qilindi. 2013-yil 15-mart kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "To'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etishni rag'batlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi 2012-yil 10-apreldagi farmoniga o'zgartirish kiritildi.

Ko'rinib turibdiki, O'zbekistonda investorlarga aniq maqsadni ko'zlab, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar mantig'idan kelib chiqqan holda imtiyozlar taqdim etilmoqda. Bu esa amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning samarali bo'lishini ta'minlamoqda.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. –O'zbekiston, 2017
2. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliya tining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – T.: O'zbekiston. 2017
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "To'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etishni rag'batlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni. – Toshkent, 2012-yil 10-aprel
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "To'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etishni rag'batlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2012-yil 10-apreldagi farmoniga o'zgartirish kiritish. – Toshkent, 2013-yil 15-mart
5. "Investitsiyalar va Investitsiya faoliyati to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Qonuni. Toshkent 2019 y.
6. N. To'xliyev, N. Xolmatov, Sh. Ermamatov, Q. Haqberdiyev "O'zbekiston iqtisodiyoti" – Toshkent, 2018.

## INVESTITSIYA TUSHUNCHASI VA TASNIFI

**Aziza Allaberdiyeva Olimjon qizi**

Sirdaryo viloyati yuridik texnikumi o'quvchisi

**Annotatsiya:** Mazkur maqola investitsiya va investitsiya faoliyati tushunchasining mazmun-mohiyati, uning subyektlari hamda investitsiya va investitsiya faoliyati turlarining xalqaro va milliy huquqiy hujjatlar asosidagi tahlilini o'z ichiga oladi.

**Kalit so'zlar:** Investitsiya, investitsion faoliyat, investitsion faoliyat subyektlari, kapital investitsiya, moliyaviy investitsiya, real investitsiya.

«Investitsiya» atamasi lotin tilidagi «invest» so'zidan kelib chiqqan bo'lib «qo'yish», «mablag'ni safarbar etish», «kapital qo'yilmasi» ma'nosini beradi. Keng ma'noda investitsiya mablag'ni ko'paytirib va qaytarib olish maqsadida kapitalni safarbar etishni bildiradi. Ko'pgina hollarda «investitsiya» tushunchasi iqtisodiy va boshqa faoliyat obyektlariga kiritiladigan moddiy va nomoddiy ne'matlar hamda ularga doir huquqlar tarzida ta'riflanadi. Investitsiya deganda barcha turdagi milliy va intellektual boyliklar tushunilib, ular tadbirkorlik faoliyati obyektlariga yo'naltirilib daromad keltirishi yoki biror-bir ijobiy samaraga erishishi zarur. Investitsiya kiritishdan asosiy maqsad daromad olish va ijobiy ijtimoiy samaraga erishishdir.

O'zbekiston Respublikasida investitsiya xususida qonuniy hujjatlar 1991 yildan boshlab qabul qilindi va o'tgan vaqt ichida ular ancha takomillashtirildi. Investitsiya to'g'risida O'zbekiston Respublikasida qabul qilingan qonunda ko'rsatilishicha, investitsiya bu iqtisodiy samara (foyda, daromad) olish yoki ijobiy ijtimoiy natijaga erishish uchun sarflanadigan pul mablag'lari, banklarga qo'yilgan omonatlar, paylar, qimmatli qog'ozlar (aksiya, obligatsiyalar), texnologiyalar, mashinalar asbob-uskunalar, litsenziyalar va samara beradigan boshqa har qanday boyliklardir. Bu iqtisodiy ta'rif investitsiyaning bozor iqtisodiyoti sharoitida to'laligicha faoliyat ko'rsatishini aniq tasdiqlaydi. Jumladan, unda, birinchidan, investitsiyaning o'ziga va investitsiya faoliyatining obyektlariga keng ta'rif berilgan; ikkinchidan, investitsiyaning bevosita iqtisodiy va ijtimoiy samara olishga muqarrar bog'liqligi ta'kidlab o'tilgan. Demak, investitsiyaga bozor munosabatlaridan kelib chiqib berilgan ta'rifning o'zidayoq investitsion jarayonning hajmi, asosiy bosqichlari, ya'ni jamg'armalar (resurslar), qo'yilma mablag'lar (sarf-xarajatlar), samara (daromad, foyda) aniq, va ravshan ko'rsatib o'tilgan. Xuddi shu kabi yondashuv investitsion faoliyatning bozor munosabatlariga o'tishi uchun zamin yaratadi, bu esa, moliyaviy moddiy va aqliy boyliklarni qayta taqsimlashning vertikal va gorizontaal usullaridan bir xilda foydalanishni ta'minlab beradi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida har bir investitsiya turining o'ziga xos o'rni bo'ladi. Moliyaviy investitsiyalar tarkibiga mahalliy va xorijiy mamlakatlarning pul birliklari, banklardagi omonatlar, depozit sertifikatlar, aksiyalar, obligatsiyalar, veksellar va boshqa qimmatli qog'ozlar hamda tenglashtirilgan boyliklar kiradi.

Moddiy investitsiyalar tarkibiga asosiy fondlar, ya'ni binolar, asbob-uskunalar, inshootlar, kommunikatsiyalar va boshqa turdagi asosiy ishlab chiqarish fondlarining aktiv va passiv qismlari kiradi.

Aqliy (intellektual) investitsiyalar miqdori juda rang-barangdir, ya'ni ular mulkiy huquqlar shaklidagi investitsiyalar aqliy mehnatga oid shaklidagi investitsiyalar va tabiiy resurslardan foydalanish shaklidagi investitsiyalardan iborat.

Mulkiy huquqlar guruhiga kiradigan investitsiyalarning xillari bozor munosabatlarining nechog'lik rivojlanganligiga, milliy bozorlarning o'ziga xos tomonlariga qarab har xil bo'ladi. Aqliy mehnatga oid haq-huquqlar shaklidagi investitsiyalar tarkibiga mualliflik huquqlari,

“nou-xau”, kashfiyotlar, tovar belgilariga beriladigan litsenziyalar va boshqa xil egalik huquqlari kiradi.

Investitsiyalar – bu hali buyumlashmagan, lekin ishlab chiqarish vositalariga qo'yilgan kapital. O'zining moliyaviy shakliga ko'ra, ular foyda olish maqsadida xo'jalik faoliyatiga qo'yilgan aktivlar hisoblansa, iqtisodiy xususiyatiga ko'ra, u yangi korxonalar qurishga, uzoq muddatli xizmat ko'rsatuvchi mashina va asbob uskunalarga hamda shu bilan bog'liq bo'lgan aylanma kapitalning o'zgarishiga ketgan xarajatlardir.

Investitsiyalar xususiy sektor va davlat tomonidan mamlakat ichkarisida va uning tashqarisida turli ishlab chiqarishlarga va qimmatbaho qog'ozlarga (aksiyalar, obligatsiyalar) qo'yilishi mumkin. Investitsiyalar yalpi va sof investitsiyalarga ajratiladi. Yalpi investitsiyalar – bu ishlab chiqarish vositalarining iste'mol qilingan qismini qoplash hamda ularni qo'shimcha o'sishi maqsadida ishlab chiqarish jamg'armalari va aholi mablag'lari qo'yilmalaridir. Boshqacha so'z bilan aytganda, yalpi investitsiyalar o'z ichiga amortizatsiya va sof investitsiyalarni qo'shadi. Sof investitsiyalarni aniqlash uchun yalpi investitsiyalardan amortizatsiya ajratiladi.

Yalpi investitsiyalar va amortizatsiya o'rtasidagi nisbatga qarab iqtisodiyotning ahvoli qanday ekanligini, ya'ni yuksalish, yo turg'unlik yoki pasayish davrini boshidan kechirayotganligini aniqlash mumkin. Agarda, yalpi investitsiyalar amortizatsiyadan ortiq, ya'ni sof investitsiya yuqori bo'lsa, iqtisodiyot yuksalishda bo'ladi, chunki uning ishlab chiqarish quvvatlari o'sadi.

Yalpi investitsiya va amortizatsiya bir-biriga teng bo'lgan chog'da iqtisodiyot turg'unlik holatida bo'ladi. Bu vaziyatda sof investitsiyalar nolga barobar va iqtisod shu yilda qancha kapital iste'mol qilgan bo'lsa, uni qoplash uchun shuncha ishlab chiqaradi.

Ishchan faollik pasayib borayotgan iqtisodiyot uchun (asegnatsiya holati) yalpi investitsiyalar amortizatsiyadan kam bo'lgan holdagi vaziyat xosdir, ya'ni iqtisodiyotda yil davomida kapital ishlab chiqarilganiga nisbatan ko'proq iste'mol qilinadi. Bunday holatda sof investitsiyalar ishorasi manfiy bo'lib, uning mutlaq qisqarishini bildiradi. Natijada, yil oxirida kapital hajmi yil boshidagiga qaraganda kam bo'ladi.

Islohotlar dastlabki bosqichida iqtisodiyotning stagnatsiya holati deyarli barcha hamdo'stlik mamlakatlarida kuzatildi. Korxonalarining ichki investitsiyalash imkoniyatlarini pasayishi bilan bir vaqtda markazlashgan kapital qo'yilmalarning qisqarishi, ishlab chiqarishni tushib ketishiga, milliy mahsulot hajmini mutlaq kamayishiga olib keldi.

Investitsiyalar – bu yangi korxonalar qurilishiga, mashina va asbob-uskunalar sotib olishga, ya'ni yangi kapitalni barpo etishga ketgan xarajatlardir. Investitsiyaga ketgan xarajatning miqdori ikki omilga bog'liq: birinchisi – sof foydaning kutilayotgan me'yori, qaysiki uni tadbirkorlar investitsiyaga ketgan xarajatlaridan olishni mo'ljallaydi; ikkinchisi – foiz stavkasi yoki tadbirkor real kapitalni sotib olishga zarur bo'lgan pulga ega bo'lishi uchun to'lashi lozim bo'lgan baho. Agarda, kutilayotgan foyda me'yori foiz stavkasidan yuqori bo'lsa, investitsiyalash foydali va aksincha, foiz stavkasi kutilayotgan foyda me'yoridan yuqori bo'lsa, investitsiyalash foydali bo'lmay qoladi.

Investitsiya xarajatlari foyda keltirishini aniqlashda nominal foiz stavkasi emas, balki real foiz stavkasi hisobga olinadi. Real foiz stavka narxlar darajasini o'zgarishini aks ettirib, nominal stavkadan inflyatsiya darajasini ayirmasi ko'rinishida aniqlanadi. Masalan, nominal foiz stavkasi 16%ga teng bo'lsa, inflyatsiya darajasi yiliga 12 % tashkil etsa, unda real foiz stavkasi 4 % (16 %-12 %) tashkil etadi. Agarda, bu miqdor kutilayotgan sof foyda me'yoridan past bo'lsa, investitsiya xarajatlari o'sib boradi.

Investitsiya talabining egri chizig'i istalgan investitsiya hajmi (I) va real foiz stavkasi miqdori (r) o'rtasidagi bog'liqlikni o'rnatadi. Real foiz stavkasi, ya'ni pul kapitalini qarzga olish bahosi qanchalik yuqori bo'lsa, investitsiyalashni xohlovchilar shuncha kam bo'ladi va aksincha real

foiz stavkasi qanchalik past bo'lsa, foyda keltiradigan investitsiya loyihalari shuncha ko'p bo'ladi. Shuning uchun ham investitsiya funksiyasi grafigi quyiga qarab og'ma bo'ladi.

**Xulosa qilib aytganda**, investitsiya faoliyati bu har qanday jismoniy va yuridik shaxslar, shuningdek, xorijiy davlat fuqarolari va yuridik shaxslari kabi investitsiya subyektlari tomonidan daromad olish, mavjud kapitallarni ko'paytirish yoki boshqa foydali natijalarga erishish maqsadida turli faoliyat sohalariga kapitallarni joylashtirish va ularni boshqarish yuzasidan amalga oshiriladigan amaliy harakatlar majmuidir. Shu nuqtai nazardan aytish joizki, investitsiya faoliyat tushunchasining mazmunida investitsiyalash maqsadi, obykti va uning yo'nalishlari, investitsiyalash bilan bog'liq tashkiliy-huquqiy harakatlar va nihoyat, muayyan ijobiy samara (foйда) olish motivi yotadi. Investitsiya faoliyatining tasniflanishi esa investorlar tomonidan kapital qo'yilamalarning maqsadini hamda obyektini aniqlashda, kapital qo'yilayotgan soha yuzasidan aniq tasavvurga ega bo'lishga, ular xususida kengroq obyektiv ma'lumotlar olishga imkon beradi.



## XALQARO INVESTITSIYA HUQUQINING KELAJAKDAGI RIVOJLANISHI

**Rahimova Bonu odil qizi**

Qashqadaryo viloyati yuridik texnikumi o'quvchisi

**Annotatsiya:** mazkur mavzu orqali investitsiya bu o'zi nima ekanligi, uning kelib chiqishi, evolutsiyasi, investitsiya faoliyatining subyekti, obykti, ushbu faoliyatning maqsadi, bir qator davlatlarning investitsiya qonunchiligi bilan qiyosiy tahlillari, bahosi hamda ushbu huquqning kelajakdagi o'rni haqida fikr-mulohazalar, amaliyot materiallari tahlili berilgan.

**Tayanch so'zlar:** investitsiyalar, reinvestitsiya, investitsiya faoliyati, investor, investitsiya turlari, investitsiyalash manbalari, investitsiya obykti.

*Maqola obykti Xalqaro investitsiya huquqidir.*

Ushbu ishning maqsadi xalqaro investitsiya huquqining kelib chiqish evolutsiyasi, xususiyatlari va muammolarini o'rganish, xalqaro konvensiya va bitimlarning xalqaro investitsiya huquqining manbalari sifatidagi rolini aniqlash hamda uning kelajakda qay darajada rivojlanishini tahlil qilishdan iborat.

Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalarni hal qilishimiz kerak:

- Xalqaro investitsiya huquqining evolutsiyasini tahlil qilish;
- Xalqaro investitsiya huquqi tushunchasi va xususiyatlarini ochib berish;
- Xalqaro investitsiya huquqi muammolarini tahlil qilish;
- Xalqaro investitsiyalarning rivojlanish jarayonini ko'rib chiqish.

Avvalambor, investitsiya huquqi tushunchasiga to'xtaladigan bo'lsak, **investitsiya** bu — foyda (daromad) olish yoki ijtimoiy samaraga erishish maqsadida, davlat, yuridik va jismoniy shaxslar (investorlar) tomonidan cheklangan imkoniyatlardan samarali foydalanib, cheklanmagan ehtiyojni qondirish uchun iqtisodiyotning turli sohalariga ma'lum muddatga sarflangan barcha turdagi boyliklardir. Ko'pchilik iqtisodiyotni tushunmaydiganlar esa investitsiyani qarz sifatida tushunishadi. Davlat qarzi hisoblab chiqilganda esa investitsiyalar hisobga olinmaydi. Hozirgi kunda xalqaro investitsiya huquqi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu huquqning dolzarbligini bir qator holatlarga bog'liq holda tahlil qiladigan bo'lsak, **birinchidan**, xalqaro investitsiya huquqi iqtisodiy huquqning bir kichik tarmog'i sifatida yaqinda shakllana boshladi. Xalqaro investitsiya huquqining shakllanib borishi bir necha murakkab bosqichlarda kechdi va ularni o'rganish biz uchun prinsipial ahamiyatga ega deb o'ylayman, chunki har bir bunday bosqich xalqaro shartnoma va bitimlarning ma'lum bazasini shakllantirish orqali vujudga keladi. **Ikkinchidan**, bugungi kunda xalqaro investitsiya huquqida ko'plab muammolar mavjud bo'lib, ulardan **biri xorijiy investitsiyalarning huquqiy himoyasini ta'minlashdir**.

Ana endi, investitsiya huquqining evolutsiyasi jarayoniga to'xtalsak, qadim zamonlardan beri odamlar chet elga sarmoya kiritish va tadbirkorlik bilan shug'ullanish uchun ketishgan. Yevropalik savdogarlar mahalliy jamoalar bilan savdo qilish uchun Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasiga bora boshlaganlarida, mahalliy qonunlar ularga nisbatan qo'llanilmagan, chunki ular o'z davlatlarining qonunlariga bo'ysungan holda harakat qilishgan. **Grotius** va **Vattel** kabi ilk olimlar bunday pozitsiyani qo'llab-quvvatlaganlar. Ushbu dalil, bu tadbirkorlar qayerga bormasinlar, o'z millati bo'lgan mamlakat qonunini o'zlari bilan olib yurishgan va shuning uchun mahalliy qonunlarga bo'ysunmagan degan taxminga asoslanishadi. Shuningdek, mahalliy qonun past darajada bo'lganligi sababli, u o'z mamlakatining yuqori qonunchiligiga bo'ysunadigan chet elliklarga nisbatan qo'llanilmagan. Yana bir olim **Sutton** ta'kidlaganidek, Yevropa davlatlarining Osiyo va Afrika davlatlari bilan tuzgan ko'plab shartnomalarida yevropaliklar o'z davlatlarining

yurisdiksiyasi ostida qolishlari va ularning konsullari o‘z vatandoshlari ustidan yurisdiksiyani amalga oshirishlari shart edi. Shunday qilib, xalqaro investitsiyalar huquqi rivojlanishining dastlabki yillarida hech bir davlat chet el aktivlarini ekspropriatsiya qilishi yoki milliy lashtirishi mumkin emasligini tushunishgan edi. Davlatlar xalqaro minimal standart tushunchasidan kelib chiqadigan xalqaro majburiyatlaridan qochish uchun sabab sifatida milliy qonunlarga murojaat qila olmadilar. Rivojlanishning keyingi bosqichidagina mustaqil davlatlar soni ortib borgach, davlatlar chet elliklarning mol-mulkini tor shartlarda va tovon to‘lash sharti bilan ekspropriatsiya qilishlari mumkinligi qabul qilindi.

Xalqaro investitsiya huquqini xalqaro huquqiy tartibga solish hamda rivojlanish evolutsiyasining uchta davri mavjud. Bular:

**Birinchi davr** XX asrning birinchi yarmiga to‘g‘ri keladi. Sotsialistik mamlakatlarning paydo bo‘lishi xususiy mulkning to‘liq milliy lashtirilishiga olib keldi. Shu bilan birga, nizolar xorijiy investorlar va ularning davlatlari tomonidan qo‘zg‘atildi, ular milliy lashtirish aktlarini noqonuniy deb topdilar va tovon to‘lashni talab qildilar. Ekspropriatsiya qiluvchi davlatlar, o‘z navbatida, tovon to‘lashdan bosh tortdilar. Milliy lashtirish paytida xorijda joylashgan mulkning sobiq egalari tomonidan tortib olinishi munosabati bilan boshqa nizolar yuzaga keldi. Ichki doktrinada davlat bir tomonlama suveren choralarni amalga oshirgan taqdirda qabul qiluvchi davlat va xorijiy investorning huquqiy munosabatlariga oid pozitsiya ishlab chiqildi. *“Davlat suvereniteti prinsipidan kelib chiqib, davlat mulkka egalik qilish bilan bog‘liq barcha masalalarni, jumladan, mulkni milliy lashtirish masalasini tartibga solishning mutlaq huquqiga ega bo‘ldi.”*

**Ikkinchi davr “Davlat va xorijiy investor”** deb nomlandi. Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi mamlakatlari iqtisodiy mustaqilligini mustahkamlash munosabati bilan 1950–1970-yillar davomida kapital import qiluvchi davlatlarda investitsiya kodekslari va qonunlari qabul qilindi. Nizolar kapital qo‘yilmalarni milliy lashtirish munosabati bilan ham, davlat tomonidan investitsiya shartnomalarini bir tomonlama o‘zgartirish yoki bekor qilish natijasida ham yuzaga keldi. Xorijiy investorlar va ularning davlatlari investitsiya shartnomasini qabul qiluvchi davlat tomonidan bir tomonlama bekor qilinishini xalqaro huquq normalarining buzilishi deb baholadilar va qabul qiluvchi davlatning xalqaro javobgarligini ta’kidladilar. Bu davrda quyidagi konseptual qoidalar belgilandi:

- *qabul qiluvchi davlat va xorijiy investor o‘rtasidagi investitsiya nizosi xususiy huquq nizolariga kiradi;*

- *shaxsning xalqaro jamoat javobgarligi nazariyasi rad etildi;*

- *davlatning tabiiy resurslar ustidan suverenitetini tan oldi.*

Shuningdek, ekspropriatsiyaning umumiy tamoyillari ham ishlab chiqilgan:

- *davlat ekspropriatsiyani qonuniy asosda, jamiyat manfaatlarini ko‘zlab, tovon to‘lagan holda, kamsitmasdan amalga oshirish huquqiga ega; davlatning investitsiya shartnomasini jamiyat manfaatlarini ko‘zlab, tovon to‘lagan holda bir tomonlama tartibda bekor qilish va bekor qilish huquqini tan oldi.*

80-yillarning birinchi yarmidan boshlab, **uchinchi davr** Sharqiy Yevropa bozorining ochilishi munosabati bilan qabul qiluvchi davlat va xorijiy investor o‘rtasidagi munosabatlarni huquqiy tartibga solish mavzusi yangi ahamiyat kasb etayotgan davrga to‘g‘ri keldi. Bu holat kapital eksport qiluvchi davlatlar tomonidan siyosiy risklarni kamaytirish kafolatlari orqali investitsiyalarni sug‘urtalash bo‘yicha milliy dasturlarni yaratishga olib keldi. Xalqaro miqyosda muhim voqea 1988-yil 11-oktabrda **investitsiyalarni kafolatlash bo‘yicha ko‘p tomonlama agentlikni** tashkil etish to‘g‘risidagi konvensiyaning imzolanishi bo‘ldi.

Ana endi Xalqaro investitsiya huquqining o‘ziga xos xususiyatlariga hamda uning bahosiga e‘tiborimizni qaratsak, maqsadga muvofiq bo‘ladi. Mohiyatan, investitsiya huquqi bu keng ma‘noda mulk huquqining timsoli, hamda amalga oshirilishidir.

Xalqaro investitsiya huquqining o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat:

**Birinchidan**, bu qonunda biz faqat chet el mulkining rejimi va himoyasi, bundan tashqari, xalqaro-huquqiy vositalar bilan ham gaplashamiz. Ayrim davlatlarning milliy huquqida xorijiy mulkchilik rejimi bir chetda qolmoqda, biroq bu rejim asosiy va albatta, xalqaro munosabatlardan befarq emas. **Ikkinchidan**, xalqaro investitsiya huquqi doirasida chet el xususiy mulkning rejimi va himoyasi izohlanadi. Chet el davlat mulkiga kelsak, u xalqaro huquqda davlat institutlari, diplomatik immunitetlar tomonidan himoya qilinadi, garchi uslubiy jihatdan xalqaro mulk huquqi doirasida chet davlat mulkining huquqiy rejimini uzrli sabablarga ko'ra ko'rib chiqish mumkin bo'ladi. **Uchinchidan**, xalqaro investitsiya huquqi umuman chet el mulki haqida emas, balki xorijiy investitsiyalar haqidadir. Shu sababli, ushbu tushunchaning ta'rifi haqida savol tug'iladi. Investitsiyalarni rag'batlantirish va himoya qilish bo'yicha ikki tomonlama xalqaro shartnomalarda investitsiyalar odatda juda keng tushuniladi, mohiyatan har qanday mulkiy manfaatlar, har qanday turdagi narsalar, huquqlar va manfaatlar va h.k. Mulkiy manfaatlar, birinchi navbatda, moddiy qadriyatlar bo'lishi mumkin, ya'ni har qanday ko'char va ko'chmas mulk, shu jumladan qimmatli qog'ozlar va hokazo. Ikkinchidan, nomoddiy tovarlar haqida gap ketsa, birinchi navbatda, intellektual mulkka bo'lgan huquq va shu singarilarni tushunishimiz kerak bo'ladi. Xalqaro investitsiya huquqi bu haqiqatdan ham keng soha bo'lib, hozirgi kunda jadal rivojlanib bormoqda. Buni O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi bilan bog'laydigan bo'lsak, davlatimiz iqtisodiyotining taraqqiyoti bevosita investitsiyalar oqimiga bog'liq. Davlatimiz rahbari Sh. Mirziyoyev ta'biri bilan aytganda *“Qaysi davlat faol investitsiya siyosatini yuritgan bo'lsa, o'z iqtisodiyotining barqaror o'sishiga erishgan. Shu sababli ham investitsiya – bu iqtisodiyot drayveri, o'zbekcha aytganda, iqtisodiyotning yuragi, desak, mubolag'a bo'lmaydi”*.

Xalqaro investitsiya huquqi hozirgi kunda misli ko'rilmagan darajadagi jamoatchilik nazoratiga duch kelmoqda. So'nggi yillarda investitsiyalarni tartibga solishga investitsion muzokarachilar, amaliyotchilar va akademiklarning kichik guruhi doirasidan tashqarida ham e'tibor qaratilmoqda. Buning sababi shundaki, xorijiy investitsiyalar to'g'risidagi qonun o'zgaruvchan holatda va investor-davlat nizolarini hal qilish (ISDS) mexanizmi huquqshunoslikda nomuvofiqlik va chalkashliklarni keltirib chiqargani uchun tanqid qilindi va natijada ISDSga qarshi jamoatchilikning noroziligiga sabab bo'ldi. Ushbu mexanizm dastlab **xususiy huquq** xarakteriga ega tor tijorat huquqiga oid nizolarni hal qilish uchun ishlab chiqilgan bo'lsa-da, endi u ko'pincha ko'plab mamlakatlardagi jamoatchilik huquqlariga daxldor bo'lgan **ommaviy huquq masalalarini** ko'rib chiqish uchun chiqarila boshladi. Xorijiy investitsiyalarni tartibga solish bo'yicha muhim qoidalarni ifodalovchi keng qamrovli xalqaro shartnomaning yo'qligi muammoni yanada kuchaytirmoqda. Xalqaro savdo huquqi yoki xalqaro inson huquqlari huquqidan farqli ravishda, xorij investitsiyalarni tartibga soluvchi, qonun nima ekanligini va qonunni qo'llash mexanizmi qanday bo'lishini ko'rsatadigan yagona keng qamrovli xalqaro shartnoma hali ham mavjud emas. Binobarin, ko'pgina ekspertlar amaldagi tizim shunchaki ishlamayapti degan fikrda, bunga bir qator davlatlar o'zlarining ikki tomonlama investitsiya shartnomalarini (BIT) bekor qilishlari va boshqalarning investitsiya arbitrajidan ommaviy ravishda chekinishlarini sabab sifatida keltirmoqdalar. Misol uchun, Janubiy Afrika o'z hududidagi xorijiy investorlarga nisbatan munosabatni tartibga soluvchi ichki qonunchilikni joriy etishdan ko'ra o'zining barcha BITlarini muntazam ravishda to'xtatmoqda. Indoneziya esa allaqachon to'xtatib qo'ygan. Nikaragua va Venesuela ham xuddi shunday niyatdan xoli emas. Shuningdek, yana bir qator davlatlar xalqaro investitsiya kelishuvlaridan 17 tasini kelgusi yillarda to'xtatish niyatida ekanligini ma'lum qilishgan. Bunday voqealarni qisqacha tahlil qiladigan bo'lsak, investitsiya faoliyati va chet el investorlari huquqlarini himoya qilish bilan bog'liq aksariyat tartib- taomillar tarqoq holda faqatgina bir nechta qonunlar bilan tartibga

solinganligi, **aksariyat qoidalarining takrorlanishi**, shuningdek ayrim muhim masalalar qonun darajasida emas, **balki nizom va yo'riqnomalar** bilan belgilanganligi ular o'rtasida ba'zi nomuvofiqlik va qarama-qarshiliklarni vujudga keltirmoqda.

Ana endi yakunda xalqaro investitsiya huquqining kelajakdagi rivojlanishi haqida mushohada yuritimiz. Ikkinchi jahon urushidan keyin kapital eksportining, shu jumladan investitsiyalar shaklida keng rivojlanishi uni xalqaro huquqiy tartibga solishni taqozo etdi. Shunga ko'ra, xalqaro investitsiya shartnomalari nisbatan yangi jarayon bo'lib shakllandi. Bunday shartnomalarni ikki tomonlama asosda tuzish amaliyotining boshlanishini rivojlanayotgan mamlakatlarga kapital eksport qilish yo'liga o'tgan sanoati rivojlangan mamlakatlar yo'lga qo'ydi. Rivojlangan mamlakatlarning o'z investorlarini ekspropriatsiya qilish imkoniyati, valyuta o'tkazmalarini taqiqlash, urushlardan zarar ko'rish va hokazolar bilan bog'liq siyosiy xavflardan himoya qilishni ta'minlash istagi shartnomalar tuzishda namoyon bo'ldi. Rivojlanayotgan mamlakatlar, o'z navbatida, kapitalni jalb qilishdan manfaatdor bo'lib, ko'pincha xorijiy investorlarga xalqaro shartnomalar bilan bog'liq holda yoki ichki qonunchilik asosida bir tomonlama, soliq imtiyozlari, qo'shimcha kredit imkoniyatlari, konsalting xizmatlari va boshqalarni taqdim etdilar.

Xullas, biz ushbu maqolada xalqaro investitsiya huquqining evolutsiyasi, asosiy muammolari va uning kelajakdagi rivojlanishini ochib berishga harakat qildik. Kirish qismida biz xalqaro investitsiya huquqi tushunchasiga hamda uning rivojlanish evolutsiyasi qay darajada ekanligini ko'rib chiqdik.

Asosiy qismda esa biz xalqaro investitsiya huquqining konsepsiyasi va xususiyatlari, investitsiyalarni sug'urtalash muammolari, jahonda investitsiyalarning rivojlanish jarayonini ko'rib chiqdik.

Yuqoridagilarni umumlashtirib, xulosa qiladigan bo'lsak, bugungi kunda xorijiy investitsiyalarning xalqaro huquqiy rejimi aslida aniq shartnomalarning an'anaviy asoslariga asoslanadi. Xalqaro investitsiya huquqida ham huquqning har qanday sohasi (sub-tarmoqlari) kabi, albatta, o'ziga xos xususiyatlar mavjud. Ko'rinib turibdiki, ideal holda, sug'urta va investitsiyalarni himoya qilish mexanizmlari bo'yicha global (va mahalliy) me'yoriy-huquqiy baza hozirgidan ancha kengroq bo'lishi kerak. Ushbu mavzuning dolzarbligini yana bir bor ta'kidlab, uning qo'shimcha izlanishlarga muhtojligini ta'kidlamoqchiman, chunki zamonaviy sharoitda xalqaro kafolatlar va investitsiyalarni sug'urtalashga oid normativ-huquqiy hujjatlarni takomillashtirish masalasi tobora ko'proq qo'yilmoqda. Shuningdek, Bu hech bo'lmaganda ko'rib chiqilishi mumkin bo'lgan islohot variantidir. Bu, shubhasiz, mintaqani isloh qilish bo'yicha eng radikal taklif bo'lib, bunga erishish, shubhasiz, qiyin.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Богатырев А.Г. Инвестиционное право. – М., 1992.
2. Богуславский М.М. Иностранные инвестиции: правовое регулирование. – М., 1996.
3. Вельяминов Г.М. Международное экономическое право и процесс. – М., Волтерс Клувер - 2004.
4. Вознесенская Н.Н. Иностранные инвестиции: Россия и мировой опыт. – М., Инфра-М., 2002 г.
5. Доронина Н.Г., Семилютин Н.Г. Российское законодательство об иностранных инвестициях и проблема страхования некоммерческих рисков. В кн. «Правовое регулирование иностранных инвестиций в России». Отв. ред. Светланов А.Г. – М., 1995 г.

## INVESTITSIYA FAOLIYATINING XALQARO HUQUQIY KAFOLATLARI, XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB ETISHNING HUQUQIY ASOSLARI

**Meyliyeva Sevinch Alisher qizi**

Qashqadaryo viloyati yuridik  
texnikumining o'quvchisi

**Annotatsiya:** *O'zbekiston Respublikasi investitsiya muhitini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi prezidentining farmonlari, xalqaro shartnomalardan kelib chiqadigan majburiyatlar, xususiy investitsiyalarni faollashtirish, investitsiyani jalb qilish usullari, milliy iqtisodiyotga investitsiyalarni jalb qilish va ularni boshqarishning me'yoriy-huquqiy asoslari.*

**Kalit so'zlar:** *xalqaro munosabatlar, investitsiyalar jalb qilish usullari, harakatlar strategiyasi, liberallashtirish, obligatsiya, rekonstruksiya.*

O'zbekiston mustaqil davlat maqomiga erishgandan so'ng mamlakat iqtisodiyotini shakllantirish va rivojlanishning turli xil xususiyatlarini hisobga olib o'zining yo'nalishini belgilab oldi hamda ushbu yo'l bo'ylab o'zining iqtisodiy rivojida davom etmoqda. Hozirgi kunda rivojlangan va takomillashtirilayotgan investitsion faoliyatining yo'lga qo'yilishida davlatimiz olib borayotgan oqilona investitsiya siyosatining natijalaridan biri yurtboshimiz ta'kidlab o'tganlaridek, 2016-yilga mo'ljallangan investitsiya dasturining hayotga tatbiq etilishi o'ta muhim o'rin tutadi. Nega deganda, bu davlat sanoatda, butun iqtisodiyotimizda tarkibiy o'zgarishlarning eng muhim vositasi bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi 1998-yil 24-dekabrda qabul qilingan “Investitsiya faoliyati to'g'risidagi” qayta tahrirdagi qonunda investitsiya tushunchasiga quyidagicha ta'rif berib o'tgan ya'ni: Investitsiya-iqtisodiy va boshqa faoliyat obyektlariga kiritilgan moddiy va nomoddiy ne'matlar hamda ularga doir huquqdir deyiladi. Shunday qilib “Investitsiya” deyilganda kelajakda samarali natija olish yoki ijtimoiy foydaga erishish uchun qonuniy tartibda iqtisodiyotning turli tarmoqlariga sarmoyadorlar yoki davlat tomonidan kiritiladigan barcha turdagi mulkiy, moliyaviy va intelluktual boyliklar tushunilishi mumkin. Ushbu boyliklarning barchasi investitsiyalarni shakllantirishda muhim hisoblanib, ularning holatiga o'z ta'sirini o'tkazib turadi. Boyliklarni shakllanishi esa mamlakatda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlarning samarasini ko'rsatib turadi va ularning natijalarini yanada yaxshilashga xizmat qiladi.

G'arb adabiyotlarida investitsiya termini haqida so'z borganda birinchi e'tibor fond bozorlari va birjalarga qaratiladi, chunki yetakchi rivojlangan mamlakatlarda investitsiyalar, asosan, qimmatli qog'ozlar ko'rinishida bo'lib asosan shu shaklda amalga oshiriladi. Investitsiyalar - aynan bir belgilangan davrda iste'mol qilinmagan va kelajakda aniq iste'mol qilinadigan iqtisodiyotdagi kapital qo'yilmalarning ko'payishini ta'minlashga ko'maklashuvchi yalpi ichki mahsulotning bir qismi hisoblanadi.

Investitsiya keng ma'noda yuritilib, bu investitsiyon jarayondagi hudud, region yoki mamlakatdagi moliya tizimini evolutsion jarayonning hozirgi holati bilan izohlanadi. Investitsiya so'zi Yevropaning rivojlangan mamlakatlari (AQSh, Kanada, Buyuk Britaniya, Yaponiya) da fond bozorlariga e'tibor qaratilib, investitsiyalash qimmatli qog'ozlar yordamida amalga oshiriladi degan tushunchalar mavjud. Boshqacha so'z bilan aytilganda portfel investitsiyasi so'zi bilan yuritiladi. Investitsiyalar hajmiga inflatsiya sur'atlari ham jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Bu ko'rsatkich yuqori bo'lsa investorning kelajakdagi daromadi qadrsizlanadi va investitsiyalarni rag'batlantiruvchi omillar ham kamayib ketishga olib keladi. Investitsiyalar turli xil shaklda amalga oshirilib, ularni tahlil qilish, rejalashtirish alohida xususiyatlarini inobatga olgan holda yo'nalishlarga ajratish mumkin bo'ladi.

Investitsiyalarni jalb etishga quyidagi omillar ta’sir ko’rsatadi:

1. Ijtimoiy omillar:

- ishchilar qatlamining ijtimoiy faolligi;
- jamiyatdagi demokratik ongning yaxlitlik darajasi;
- umuman barcha qatlamdagi aholining intelluktual salohiyati;

2. Iqtisodiy omillar:

- iqtisodiyotning umumiy va barqaror holati;
- inflatsiya darajasining bir maromda belgilangan parametrlarda bo’lishi;
- valyuta kursining belgilangan me’yorda saqlanib turish;
- bojxonadagi imtiyozlar;

3. Siyosiy omillar;

- siyosiy barqarorlik, ya’ni, har bir mamlakatda hukm surayotgan tinchlik va osoyishtalik darajasi;
- xalqaro kelishuvlarga rioya qilish va ularga amal qilish darajasi;
- investitsiyalarga nisbatan davlatning investitsion siyosati;
- davlatning turli xalqaro birjalarda ishtirok etishi va bitimlarga ega bo’lishlilik darajasi.

**Investitsion resurslarga quyidagilar kiradi:**

- pul hamda boshqa moliyaviy mablag’lar, shu jumladan, kreditlar, paylar, aksiyalar va boshqa qimmatli qog’ozlar;
- ko’char va ko’chmas mol-mulk (binolar, inshootlar, uskunalar va boshqa moddiy qimmatliklar) hamda ularga bo’lgan huquqlar;
- yerga va boshqa tabiiy resurslarga, binolarga inshootlarga uskunalariga egalik qilish va ulardan foydalanish huquqi, shuningdek mulk huquqidan kelib chiquvchi boshqa ashyoviy huquqlar.

Investitsiyalarni jalb qilishda asosiy ishlardan biri bu investorga kafolatlar bera olish hisoblanadi. Ya’ni investorning xavfsizligini ta’minlashdir. Shu asosda qonun bilan belgilangan tartibda investitsion faoliyat ishtirokchisi o’ziga xos majburiyatlarni o’z bo’yniga oladi.

O’zbekiston Respublikasi investitsiyalarni jalb qilish va ularni boshqarishda eng yetakchi hamda muhim vazifani O’zbekiston Respublikasining investitsiya dasturi bajaradi. Unga ko’ra mamlakatdagi deyarli barcha investitsiyalarning jalb qilinishi, joriy qilinishi, boshqarilishi hamda keyingi yillar uchun istiqbolli loyihalarning ko’rsatishi ahamiyatga molikdir. Ushbu dasturda deyarli barcha vazirliklar, qo’mita va boshqa davlat organlari hamda chet el tashkilotlarining loyihalari o’z o’rnini topgan. Investitsion dastur haqida O’zbekiston Respublikasining “Investitsiya faoliyati to’g’risidagi” qonunda aniq ta’rif berilgan va u quyidagicha ko’rinishda, O’zbekiston Respublikasining investitsiya dasturi bu O’zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanadigan mamlakat iqtisodiyotini barqaror va izchil rivojlanishga erishishga, mavjud tabiiy, mineral xom-ashyo, moliyaviy, moddiy va mehnat resurslaridan oqilona foydalanish yo’li bilan mamlakatning ayrim tarmoqlari va mintaqalarini tuzilmaviy qayta tashkil etish bo’yicha asosiy ustuvor yo’nalishlar hamda strategik vazifalarni ro’yobga chiqarishga qaratilgan, mamlakatni iqtisodiy-ijtimoiy rivojlantirishning ustuvor yo’nalishlarida amalga oshiriladigan investitsiya loyihalarni o’z ichiga olgan, o’zaro bir-biri bilan bog’liq bo’lgan choralar majmuidir. O’zbekiston Respublikasining dasturiga kiritilgan investitsiya loyihalarining amalga oshirilishi monitoringi ham olib boriladi. Shu sababli xorijiy investitsiyali korxonalar faoliyatini jonlantirish va bevosita xorijiy investitsiyalar oqimini ko’paytirish maqsadida quyidagi qo’shimcha tadbirlarni amalga oshirishi kerak deb hisoblaymiz. Bu tadbirlarni amalga oshirish orqali biz kelajakda samarali natijalarga erishishimiz mumkin bo’ladi.

Bozor iqtisodiyotini modernizatsiya va diversifikatsiyalash sharoitida iqtisodiyotimizga investitsiyalarni jalb etish va ulardan samarali foydalanish ham ijtimoiy ham iqtisodiy ahamiyat kasb etadi. Investitsiyalar iqtisodiyotda qayta yoki takror ishlab chiqarish sur’atlari

va hajmiga ta'sir qiladi, ilmiy-texnik rivojlanishni va aholining aholining asosiy qismining band bo'lishini ta'minlaydi. Buning asosiy sabablaridan biri sifatida iqtisodiyotimizdagi tub takroriy o'zgarishlar, mehnat resurslarining ratsional hamda optimal joylashtirilishi va rivojlanishi ko'p hollarda investitsion faoliyatiga bog'liq.

Investitsiya siyosati davlatning ijtimoiy-iqtisodiy yuksalishi borasidagi aniq bir maqsadga yo'naltirilgan bo'lib, ushbu faoliyatning muhim vositalaridan biri deyishimiz mumkin. Bu siyosat mamlakatning siyosiy sohadagi asosini tashkil etadi yoki mamlakatning o'zagi sifatida xizmat qiladi. Investitsion siyosati davlatning moddiy ne'matlar ishlab chiqarishni tashkil etishda investitsiyalarni to'g'ri yo'naltirib turuvchi vazifani bajaruvchi mexanizmdir. Davlat siyosatining bu sohasi tashkiliy-huquqiy tomondan qaralganda, tegishli boshqaruv organlarning investitsion siyosatdagi maqsadlari va vazifalarini belgilab berib ularni amalga oshirish uchun mablag'larni qidirish faoliyatidan tashkil topgan. Respublikamiz Prezidenti investitsiya siyosatining quyidagi asosiy tamoyillaridan asoslab berganlar;

- tashqi iqtisodiy faoliyatni yanada erkinlashtirish bo'yicha aniq maqsadga qaratilgan siyosat yuritish;

- respublika iqtisodiyotiga bevosita kapital mablag'ni keng jalb qilish uchun zamin yaratadigan ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va boshqa sharoitlarni takomillashtirish;

- respublikamizga jahon talabiga mos xalqaro darajadagi texnologiyalarni olib kirayotgan, xalq xo'jaligini zamonaviy va innovatsion tarkibini vujudga keltirish yordamlashayotgan xorijiy investorlarga nisbatan eshiklarni ochib quyish siyosatini o'tkazish;

Xorijiy investorlarning barcha uchun manfaatli jalb etishda ularning sarmoyalarini himoyalanganligi va davlat tomonidan nazorat qilinishi to'g'risidagi kafolatlar muhim hisoblanadi. Aks holda ular o'z investitsiyalarini milliy iqtisodiyotimizga kiritishda iqtisodiy va moliyaviy jihatdan cho'chidilar. Shu sabablik, chet ellik sarmoyadorlarning investitsiyalarni ixtiyoriy sug'urta qilish, huquqlarning kafolatlanganligi, ularning mulklarini xavflardan muhofaza qilinishi ta'minlanadi. Xorijiy investorlar o'z faoliyatlari natijasida olgan foydalarini hech qanday cheklovlarisiz chetga o'tkazishlari, ularni respublika hududida qayta investitsiyalashlari, yoki, ulardan o'z istaklariga ko'ra boshqa turli xil qonuniy maqsadlarda foydalanishlari kafolatlanadi. Investitsion jozibadorlikni oshirish borasida iqtisodchi olimlar quyidagi fikrlarni keltirganlar. Xususan, V.A. Babushkin, D.A. Ednovitskiylar investitsion jozibadorlikni tavakkalchilik bilan bog'laydilar. Ular investitsion jozibadorlik deganda Tashkilotning shunday holati tushunadiki, bunda "kapital egasida tavakkalchilikka borish, shuningdek, pul ko'rinishida va asosiy vositalar shaklidagi investitsiyalar oqimini ta'minlash istagi paydo bo'ladi. Bu vaziyatda kapital ta'minlovchi va ma'lumot oluvchilarning ishonchi tashkilotning investitsion jozibadorlik darajasining asosiy va juda sezuvchan hosilasi hisoblanadi".

Biroq mamlakatimizda investitsiyalarni jalb qilish va boshqarish usullarini takomillashtirish, shu bilan birga, uni moliyalashtirish manbalarini optimallashtirish kabi hali o'z yechimini topmagan muammolar mavjud.

Ushbu muammolarni hal etish uchun quyidagi takliflarimni keltirib o'tmoqchiman:

- kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning innovatsion jozibadorligini oshirishda investitsiya fondlarini shakllantirish;

- barcha turdagi innovatsion loyihalarni moliyalashtirishga qaratilgan ixtisoslashgan fondlarni shakllantirish;

- tijorat banklari tomonidan subyektlarning boshlang'ich kapitalini shakllantirish va ularning innovatsion loyihalarini qo'llab-quvvatlash maqsadida uzoq muddatli kreditlar hajmini oshirish orqali mamlakatimizdagi investitsiyani boshqarish muammolarni hal qilishga erishish imkoniyatiga ega bo'lamiz.

Yuqoridagilarni joriy etish orqali mamlakatimizning innovatsion jozibadorligini oshirishga imkon yaratadi. Shu bilan birga yetarli darajada rivojlantirish va sohalarga innovatsion muhitni olib kirish bilan quyidagi ijobiy natijalarga erishishimiz mumkin:

- Innovatsion jozibadorlikni oshirish va hududlarga investitsiya jalb qilishni yaxshilash uchun kuchli vosita bo'ladi;

- Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni moliyaviy qo'llash, investitsiya maqsadlari, boshlang'ich kapitalni shakllantirish uchun uzoq muddatli kreditlar ajratish hajmini oshiradi;

- Raqobat muhitini rivojlanishi mamlakatda ijtimoiy – iqtisodiy sharoitning sifatini yaxshilash uchun kuchli vosita bo'ladi.

Hozirgi kunda mamlakatning eng og'riqli nuqtalaridan biri bu investitsiyalarni moliyalashtirishdagi muammolarning mavjudligi. Bu muammolarni yechish uchun hukumatimiz tomonidan bir qator chora-tadbirlar ishlab chiqilmoqda. Buning natijasida investitsiyalar moliyaviy manbalari tarkibida sezilarli o'zgarishlar ro'y bermoqda. Innovatsion sharoit investitsiyalarni samarali kiritish uchun yangi imkoniyatlarni shakllantirib beradi.



## INVESTITSIYA FAOLIYATINING XALQARO HUQUQIY KAFOLATLARI

**Mansurova Muattarbonu Fayzulla qizi**

Qashqadaryo viloyati  
yuridik texnikumi o'quvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada investitsiya faoliyati, investitsiya faoliyatini tartibi, investitsiya loyihalari, xalqaro doiradagi investitsiya faoliyati, investitsiya faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar, O'zbekiston hududida investitsiyaga ega bo'lgan loyihalar tasnifi va mohiyati bayon qilingan.

**Kalit so'zlar:** Investitsiya, normativ-huquqiy-hujjatlar, investitsiya pul mablag'lari, investitsiya loyihalarini kiritish bo'yicha takliflar.

Investitsiya faoliyatining xalqaro huquqiy kafolatlari mamlakatimiz hududida jadallik bilan rivojlanib bormoqda. Xususan, investitsiya loyihalari turli zamonaviy texnologiyalar bilan amalga oshirilmoqda. Misol qilib, yurtimizdagi IT va dasturlash sohasiga investitsiya kiritish va bu sohalarni rivojlantirish eng oliy maqsadlardan biriga aylanmoqda. Hattoki, investitsiya faoliyati bo'yicha ham bir qancha qonun va qarorlar qabul qilinib kelinmoqda. Xususan, investitsiya bo'yicha O'zbekiston Respublikasining investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risidagi qonuni Qonunchilik palatasi tomonidan 2019-yil 9-dekabrda qabul qilingan va Senat tomonidan 2019-yil 14-dekabrda ma'qullangan. Ushbu qonunda tasdiqlangan normalar investitsiya faoliyati kafolatlarini qonunan yoritib beradi. O'zbekiston hududida investitsiya faoliyati yuzasidan faqat IT va dasturlash sohalari bilan cheklanib qolmasdan, kimyo sanoati, elektrotexnika tarmog'i, neft-gaz, qishloq va suv xo'jaligi, ta'lim, transport logistikasi va boshqa shu kabi sohalar bo'yicha ham investitsiya faoliyati yuritilmoqda. Darhaqiqat, joriy yil yanvar-sentabr oylarida bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasida chet el investitsiyalarining umumiy o'zlashtirilgan hajmi 7,2 milliard dollarni, (shundan asosiy kapitalga – 5,7 milliard dollar) shu jumladan, to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar 4,8 milliard dollar, xalqaro moliya institutlari va xorijiy hukumat moliyaviy tashkilotlarining mablag'lari – 2,3 milliard dollarni tashkil etdi. To'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar bo'yicha tarmoq korxonalarini tomonidan 1,8 milliard dollarlik investitsiyalar o'zlashtirildi, shundan asosiy kapitalga 1,3 milliard dollar, (o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan — 126 %), hududiy investitsiya dasturlari doirasida esa 3,1 milliard dollar, shundan asosiy kapitalga 2,5 milliard dollar o'zlashtirildi (o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan — 93 %).

Hisobot davri yakunlari bo'yicha xorijiy investorlar uchun eng jozibador elektrotexnika tarmog'i, AKT sohasi (o'sish — 3,6 barobar) va kimyo sanoati (o'sish — 1,2 barobar) bo'ldi. Hududlar kesimidagi ko'rsatkichlar ko'rib chiqilganda, Surxondaryo (1,1 barobar), Navoiy (1,7 barobar) va Namangan viloyatlariga (1,3 barobar) to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar o'sishining yuqori dinamikasi kuzatildi. Investitsiya faoliyati ko'rsatkichlarining sezilarli o'sishi xalqaro moliya institutlari va xorijiy hukumat moliya tashkilotlari tomonidan O'zbekistonga ajratiladigan mablag'lar oqimining ko'payishi bilan ham bog'liq bo'lib, ularning asosiy qismi Yaponiya hukumatining moliya tashkilotlari — JICA, JBIC (umumiy hajmga nisbatan 20 % yoki 470,8 million dollar), Osiyo taraqqiyot banki (16,6 % yoki 380,0 million dollar), Jahon banki (11,2% yoki 256,8 million dollar), Islom taraqqiyot banki (3,6% yoki 81,2 million dollar) va boshqalarga to'g'ri keladi.

Ushbu mablag'lar neft-gaz sanoati (884,3 million dollar), qishloq va suv xo'jaligi (461,9 million dollar), kimyo sanoati (272 million dollar), energetika (205,7 million dollar), transport-

logistika sektorlari (171 million dollar), sog'liqni saqlash (70,0 million dollar) va ta'lim sohasidagi (32,4 million dollar) loyihalarni amalga oshirishga yo'naltirildi.

Hisobot davrida jami 3,3 milliard dollarlik 65 ta yirik investitsiya loyihalarining amalga oshirilishi yakunlandi, buning hisobiga 13 mingdan ortiq yangi ish o'rinlari yaratildi. Xususan, Qoraqalpog'iston Respublikasida “Taxiatosh IESda 230 — 280 MVt quvvatga ega ikkita parogaz qurilmalarini qurish” loyihasi, Navoiy viloyatida “Navoyiazot” AJ negizida azot kislotasi ishlab chiqarilishi, Toshkent shahrida “Texnopark” MChJ va uning sho'ba korxonalarida 62,1 million dollarga maishiy muzlatgichlar ishlab chiqarish, 466,1 million dollar miqdorida yer usti metro qurilishi (1-Faza), 103,8 million dollarlik Toshkent metropoliteni Yunusobod liniyasi ikkinchi bosqichining qurilishi, Jizzax viloyatida esa 150 million dollarlik “Xuasin Sement Djizak” MChJda sement ishlab chiqarilishi bo'yicha loyihalar amalga oshmoqda.

Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va o'zlashtirish maqsadida eksport va investitsiyalarni rivojlantirish masalalari bo'yicha Hukumat komissiyasi tomonidan joylarga chiqqan holda tadbirkorlar va investitsiya loyihalari tashabbuskorlari muammolarini o'rganish va hal etish bo'yicha tizimli ishlar davom ettirilyapti. Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi tarmoq vazirliklar, idoralar va mahalliy hokimiyat organlari bilan birgalikda joriy yilda foydalanishga topshirilishi rejalashtirilgan umumiy qiymati 10,1 milliard dollarlik 206 ta yirik investitsiya loyihalarining amalga oshirilishi bo'yicha maxsus monitoring olib boryapti, ularni ishga tushirilishi 30 mingdan ortiq ish o'rinlari yaratishga imkon beradi. Ushbu loyihalar qatoriga qiymati 359,4 million dollarlik Toshkent metallurgiya zavodini qurish (672 ta ish joyi), 985,7 million dollarlik “Navoyiazot” AK bazasida ammiak va karbamid ishlab chiqarishni tashkil etish (491ta ish joyi), 25,0 million dollarlik “Djizak Kenteks” MChJda to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishni tashkil etish (400 ta ish o'rni) va boshqalar kiradi, deb xabar beradi tashqi savdo vazirligi matbuot xizmati.

Jahon banki Ijrochi direktorlar kengashi “O'zbekistonda milliy innovatsion tizimni modernizatsiya qilish” loyahasini amalga oshirish uchun 50 mln dollar miqdorida mablag' ajratishni ma'qulladi. Bu haqida bankning O'zbekistondagi vakolatxonasi ma'lum qildi.

Ta'kidlanishicha, loyiha davlat ilmiy-tadqiqot institutlari (ITI) va universitetlarda xalqaro darajadagi tadqiqotlarni o'tkazishga hissa qo'shadi va ularning ish natijalarini tijoratlashtirishga imkon beradi.

Bundan tashqari, mahalliy firma va kompaniyalar mahalliy hamda xalqaro bozorlarda talabga javob beradigan yangi yoki mavjud innovatsion mahsulotlar va xizmatlarning startap va ilmiy-tadqiqot ishlariga sarmoya kiritish uchun 30 ga yaqin grant olishlari mumkin. Masalan, ular tibbiyot, farmatsevtika va biotexnologik mahsulotlar va xizmatlarni ishlab chiqarishda, shuningdek ilm-fan va texnologiyaning boshqa istiqbolli yo'nalishlarida loyihalarni moliyalashtirishga ariza topshirishlari mumkin bo'ladi.

Loyiha doirasida alohida ilmiy-tadqiqot institutlari infratuzilmasi va laboratoriyalarini modernizatsiya qilishga mablag'lar ajratiladi, ularning ro'yxati tegishli tashkilotlarning ehtiyojlarini har tomonlama baholagandan so'ng “Innovatsion rivojlanish vazirligi” tomonidan tasdiqlanadi. Shuningdek, loyiha mablag'lari O'zbekistonda ilmiy-tadqiqot va innovatsiyalarni tijoratlashtirishni tartibga solish uchun zarur bo'lgan qonunchilik bazasini tayyorlashga hamda ushbu sohalarda tegishli institutsional islohotlarni o'tkazishga sarflanadi. O'zbekistonga xalqaro doiradagi investitsiya kirituvchi rivojlangan davlatlardan biri Rossiyadir. Shuningdek, Rossiya yaqin istiqbolda O'zbekiston iqtisodiyotiga 21 milliard dollarga teng investitsiyalarni kiritishni rejalashtirmoqda. Bu haqida Rossiya-O'zbekiston mintaqalari forumi doirasida aytilgan edi. Bundan ko'rinib turibdiki, O'zbekistonning rivojlanishi uchun faqatgina Rossiya davlati emas, balki ko'plab rivojlangan davlatlar investitsiya kiritadi.

Xulosa qilib aytganda, investitsiya faoliyatining xalqaro huquqiy kafolatlari qonunda belgilangan tartibda amalga oshiriladi. O‘zbekistonda xalqaro doiradagi investitsiyalar IT, dasturlash sohalari va zamonaviy texnologiyalar bo‘yicha kiritish va amalda qo‘llash juda ahamiyatlidir. Negaki dasturlash sohasi har bir zamonaviy texnologiya uchun muhim vosita sanaladi. Investitsiya faoliyatining xalqaro huquqiy kafolatlari qonunlarimizda mustahkamlangan normalar asosida kafolatlanadi. Xalqaro davlatlar bilan samarali hamkorlik olib borish yo‘lida yanada ko‘proq ish o‘rinlarini yaratish istiqbolini kuchaytirish kerak. Zamonaviy O‘zbekistonda xalqaro doiradagi investitsiya faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar tasnifi va mohiyatini, investitsiya faoliyatining xalqaro huquqiy kafolatlari, xorijiy investitsiyalarni jalb etishning huquqiy asoslari hamda mahalliy investorlar va chet el investorlari faoliyatini mamlakatimizda yanada rivojlantirish istiqbollari o‘rganish, izlanish, yaratish va zamonaviylik sari qadam tashlash har bir yosh avlodning buyuk maqsadlaridan biridir. Ishonch bilan ayta olamanki, bizning yurtimiz ma‘nan, jismonan va ruhan olg‘a istiqbol sari yuksalib bormoqda.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O‘zbekiston Respublikasining qonuni, 25.12.2019 yildagi O‘RQ-598-son
2. <http://www.lex.uz>

## INVESTITSIYA TUSHUNCHASI VA INVESTITSIYA FAOLIYATINING HUQUQIY ASOSLARI VA KAFOLATLARI

**Erkabayev Muxiddin Nizamaddin o'g'li**  
Toshkent viloyat yuridik texnikumi o'quvchisi

**Annotatsiya:** mazkur maqolada investitsiya faoliyati va uning kafolatlari, investor uchun yaratilgan imkoniyatlar, ularning huquq va majburiyatlar xususida so'z yuritiladi

**Kalit so'zlar:** Investitsiya, kafolat, tadbirkorlik, iqtisodiyot, moliya, budjet. Investitsiya faoliyatining huquqiy kafolatlari deganda biz avallo investitsiya faoliyati qanday tushuncha ekanligini va uni prinsip qoidalari nimalardan iborat ekanligini bilib olamiz.

Investitsiya (loticha: investio - “o'rash”) iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadida o'z mamlakatida yoki chet ellarda turli tarmoqlarga, ijtimoiy-iqtisodiy dasturlarga, innovatsiya, tadbirkorlik loyihalariga uzoq, muddatli kapital kiritish (qo'yish).

**Investitsiyalar** - investor tomonidan foyda olish maqsadida ijtimoiy soha, tadbirkorlik, ilmiy va boshqa faoliyat turlari obyektlariga tavakkalchiliklar asosida kiritiladigan moddiy va nomoddiy boyliklar hamda ularga bo'lgan huquqlar hisoblanadi<sup>38</sup>.

Investitsiya tushunchasiga ko'plab xorijiy adabiyotlarda turlicha ta'rif berib o'tilgan. Xususan, ba'zi iqtisodiy adabiyotlarda investitsiyaga nisbatan foyda olish maqsadida muayyan sohaga joylashtirilgan kapital sifatida qaralsa, boshqalarida investitsiya bu asosiy kapitalni ko'paytirish maqsadida xo'jalik faoliyatiga kiritiladigan har qanday aktivlar deb ta'riflanadi<sup>39</sup>.

Y. Mitskevichning fikricha, investitsiya bu daromad olish yoki ijtimoiy samaraga erishish maqsadida moddiy va moliyaviy vositalarni, shuningdek, mol-mulkka hamda intellektual mulkka bo'lgan huquqlarni turli faoliyat obyektlariga qo'yilma sifatida jalb qilishdir<sup>40</sup>.

P. Vaxrin ham investitsiya tushunchasiga ta'rif berar ekan, unga kapitalni joylashtirish usuli sifatida qarab, bu orqali kapitalni saqlash yoki uning asl qiymatini oshirish hamda ijobiy hajmdagi daromadga ega bo'lish ekanligini ta'kidlaydi<sup>41</sup>.

Bir qancha o'zbek iqtisodchi olimlari xususan, A. Vahabov, Sh. Xajibakiyev, N. Muminovlar investitsiyaning mazmun-mohiyati bo'yicha quyidagi fikrlarni ilgari suradi: “Investitsiyalar - foyda olish yoki ijobiy ijtimoiy samaraga erishish maqsadida tadbirkorlik obyektlariga va boshqa faoliyat turlariga qo'yiladigan pul mablag'lari, banklarning maqsadli omonatlari, aksiyalar, boshqa qimmatli qog'ozlar, texnologiyalar, mashinalar, uskunalar, litsenziyalar, kreditlar, har qanday boshqa mol-mulk yoki mulkiy huquqlar, intellektual boyliklardir”. G'arb olimlari jumladan, U. Sharp, G. Aleksander, J. Beylilar investitsiya tushunchasiga “bu kelajakda daromad olish uchun bugun o'zingdan ajratilishi kerak bo'lgan kapitaldir” - deya izoh beradilar<sup>42</sup>.

**Investor** - foyda olish maqsadida investitsiya faoliyati obyektlariga o'zining mablag'larini va (yoki) qarz mablag'larini yoxud jalb qilingan boshqa investitsiya resurslarini investitsiya qilishni amalga oshiruvchi investitsiya faoliyati subyekti hisoblanadi<sup>43</sup>.

Investitsiyalar keng ma'noda o'zini mablag'lar va resurslarning kelgusida ko'payishi va iqtisodiy samara yoki boshqa rejalashtirilgan natijalar olish (ijtimoiy, ekologik va boshqa samaralar) maqsadida ularning safarbar etilishi sifatida namoyon etadi.

<sup>38</sup> O'zbekiston Respublikasining “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida”gi qonuni 3-modda

<sup>39</sup> Ендовицкий Д. А. Комплексный анализ и контроль инвестиционной деятельности: методология и практика Д. А. Ендовицкий; под ред. Л.Т. Гиляровой. М: Финансы и статистика, 2011, изд.№2, 400с.

<sup>40</sup> Швандар В. А. Базилевич А. И. Управление инвестиционными проектами - М.: ЮНИТИ, 2017. - 444 с.

<sup>41</sup> Вахрин П. И. Инвестиции. М.: Дашков и К°, 2002. С. 17.

<sup>42</sup> Шарп У., Александер Г., Бэйли Дж. Инвестиции. М.: ИНФРА-М, 2001. С. 1.

<sup>43</sup> O'zbekiston Respublikasining “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida”gi qonuni 3-modda qonun hujjatiga mos

1994-yildagi Energetika xartiyasi to‘g‘risidagi shartnomada ham investitsiya tushunchasiga ta‘rif keltirilgan bo‘lib, uning 1-moddasi 6-bangiga ko‘ra investitsiya bu investorning mulk huquqi ostidagi hamda u tomonidan bevosita va bilvosita nazorat qilinadigan barcha aktivlar bo‘lib, bularga quyidagilar kiradi:

a) moddiy va nomoddiy, shuningdek, ko‘char va ko‘chmas mulklar va har qanday mulkiy huquqlar, xususan, ijara, ipoteka, mol-mulkni ushlab qolish huquqi va garov;

b) kompaniya yoki tadbirkorlik korxonasi yoxud aksiyalar, ulushlar yoki kompaniya va tadbirkorlik faoliyatida ishtirok etishning boshqa shakllari,

shuningdek, kompaniya va tadbirkorlik korxonasining obligatsiyalari va boshqa qarz majburiyatlari;

d) pul mablag‘larini talab qilish huquqi hamda iqtisodiy qiymatga ega bo‘lgan va investitsiya bilan bog‘liq bo‘lgan shartnomalar bo‘yicha majburiyatlarning bajarilishini talab qilish huquqi;

e) intellektual mol-mulk;

f) daromadlar;

g) energetika sohasida har qanday iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish uchun qonun yoki shartnomaga muvofiq berilgan litsenziya yoxud ruxsatnoma bo‘yicha huquqlar hisoblanadi<sup>44</sup>.

O‘zbekiston Respublikasi va Turkiya Respublikasi o‘rtasidagi investitsiyalarni o‘zaro rag‘batlantirish va himoya qilish to‘g‘risidagi ikki tomonlama shartnomada “Investitsiya” atamasi Ahdlashuvchi tomon davlati hududida davomiy iqtisodiy aloqalar o‘rnatish maqsadida uning qonunchiligiga muvofiq qo‘lga kiritilgan va investitsiya xususiyatlariga ega bo‘lgan tadbirkorlik faoliyati bilan bog‘liq har qanday turdagi aktivni anglatishi nazarda tutilgan<sup>45</sup>.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2018-yil 28-dekabrda Oliy Majlis deputatlariga yo‘llagan murojaatnomasida ushbu masalaga alohida urg‘u berildi. Jumladan, o‘tgan yilda Jahon banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Islom va Osiyo taraqqiyot banklari, boshqa xalqaro moliya institutlari bilan olib borilgan hamkorlik natijalariga ko‘ra, mamlakatimizda investitsiyalar hajmi 8,5 milliard dollarni tashkil etgani, shuningdek, chet el investitsiyalari hisobidan 23 milliard dollarni tashkil etuvchi 456 ta loyiha amalga oshirilayotgani ta‘kidlandi. Prezidentimiz ushbu ko‘rsatkichlarga ahamiyat qaratar ekan, keng miqyosli investitsiyalar yurtimiz iqtisodiyotini mustahkamlovchi omil bo‘lishini alohida ta‘kidlab, shunday dedi: “Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, qaysi davlat faol investitsiya siyosatini yuritgan bo‘lsa, o‘z iqtisodiyotining barqaror o‘shishiga erishgan. Shu sababli ham investitsiya bu iqtisodiyot drayveri, o‘zbekcha aytganda, iqtisodiyotning yuragi, desak, mubolag‘a bo‘lmaydi”<sup>46</sup>.

Mamlakatimizda investitsiya muhiti barqarorligini ta‘minlashda me‘yoriy-huquqiy, ekologik shart-sharoitlar va boshqalar muhim o‘rin tutadi.

Ta‘kidlash lozimki, mamlakatda investitsiyalarni jalb etish uchun eng qulay investitsiya muhitini shakllantirish maqsadida iqtisodiyotni liberallashtirish, davlat boshqaruvini isloh qilish, tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga aralashuvni cheklash, litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillarini qisqartirish va soddalashtirish, tovarlar (ishlar va xizmatlar)dan erkin foydalanishni ta‘minlash, shuningdek, hududlarda zarur infratuzilmani yaratish borasida keng ko‘lamli chora-tadbirlar amalga oshirildi, jumladan huquqiy asoslar yaratildi.

<sup>44</sup> Energetika Xartiyasi to‘g‘risidagi shartnoma. 17 декабря 1994 у. [Elektron manbaa]. URL:

<https://www.energycharter.org/fileadmin/DocumentsMedia/Legal/ECT-ru.pdf>.

<sup>45</sup> Investitsion faoliyat tushunchasi va uning tasniflanishi, B.Fozilbekov. <https://cyberleninka.ru/article/n/investitsion-faoliyat-tushunchasi-va-uning-tasniflanishi/viewer>

<sup>46</sup> <https://xs.uz/uz/post/investitsiya-iqtisodiyotning-yuragi>

O‘zbekiston Respublikasida mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab qonunchilik sohasida chuqur o‘zgarishlar amalga oshirilib, xususan investitsiya faoliyati jabhasida qator yangi qonun va qonun osti hujjatlar ishlab chiqilgan.

Yuqoridagilarga ko‘ra ta’kidlash lozimki, mamlakatimizda investitsiya faoliyatini mustahkamlovchi hujjatlarning qabul qilinishi va ijrosini ta’minlanishi investitsiya faoliyatini amalga oshirish erkinligini ta’minlaydi, investitsiya faoliyati subyektlarining tengligini belgilaydi, investorlarga nisbatan kamsitishga yo‘l qo‘yilmadi, investitsiya hajmlarini oshirishga, turlarini, shakllarini, sohasini va yo‘nalishlarini mustaqil ravishda belgilashga ko‘maklashadi, investitsiya faoliyatini amalga oshirish uchun yuridik va jismoniy shaxslar bilan shartnomalar tuzishda huquq va majburiyatlarini kafolatlaydi, o‘z investitsiyalariga va investitsiya faoliyati natijalariga egalik qilishga, ulardan foydalanishga hamda ularni tasarruf etishga, o‘zi qabul qilgan barcha turdagi majburiyatlarning, shu jumladan qarz mablag‘larini jalb etishga qaratilgan majburiyatlarning ta’minoti sifatida o‘ziga mulk huquqi asosida tegishli bo‘lgan mol-mulk va har qanday mulkiy huquqlardan foydalanishga asos bo‘ladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O‘zbekiston Respublikasining “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.04.2005 yildagi “To‘g‘ridan to‘g‘ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb etishni rag‘batlantirish borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-3594-son Farmoni.
3. Ендовицкий Д.А.Комплексный анализ и контроль инвестиционной деятельности: методология и практика / Д.А. Ендовицкий; подред. Л.Т. Гиляровской. М: Финансы и статистика, 2011, изд.№2, 400с.
4. Швандар В. А. Базилевич А. И. Управление инвестиционными проектами. - М.: ЮНИТИ, 2017. - 444 с.
5. Шарп У.Ф., Александр Г.Д., Бейли Д.В. Указ. соч. – С. 1035.

## O‘ZBEKISTONNING INVESTITSIYA FAOLIYATI SOHASIDA XALQARO HAMKORLIK MASALALARINI RIVOJLANTIRISH

**Botirova Sabrina Farhodovna**

Surxondaryo viloyati yuridik texnikumi 2-bosqich o‘quvchisi

**Annotatsiya:** *ushbu maqolada investitsiya davlat iqtisodiyotini rivojlantirib borishi kerakligi, yosh avlodlar investitsiya faoliyatini qanday tartibda olib borishlari kerakligi haqida batafsil tushuntirilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *daromad, davlat daromadlari, moliya munosabatlari, investitsiya.*

Hozirgi kunda rivojlanib borayotgan mustaqil O‘zbekiston davlati investitsiya faoliyati keng qamrovli masalalardan biri bo‘lib kelmoqda. Investitsiya davlat iqtisodiyotini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Aniqroq aytganda, investitsiyalar kapital qiymatining rivojlanishini, o‘shirishini va daromad keltirishini ta‘minlab beradigan mexanizm hisoblanadi. Investitsiyada resurslar jamg‘ariladi, so‘ngra ular foyda yoki ijtimoiy samara olish maqsadida qo‘yiladi. Resurslar qanday turda bo‘lishidan qat‘iy nazar ulardan foydalanish natijasini baholovchi mezon iqtisodiyotni samaradorligini oshirib borilishiga xizmat qiladi. Moliyaviy resurslar investitsiyalarning birinchi elementi hisoblanib ularni qo‘yish va bu jarayonda foyda olish bir-biri bilan uzviy bog‘langan. Investitsiya lotin tilidagi “invest” so‘zidan olingan bo‘lib “*mablag‘ni safarbar etish*” degan ma‘noni anglatadi, investitsiya tushunchasi ko‘plab ma‘nolarga ega bo‘lib, foyda olish maqsadini anglatadi.

### **ASOSIY QISM:**

Investitsiya faoliyatining dolzarbligi shundaki, investitsiyalar har qanday vositasi bo‘lib, pulning qiymatini saqlaydi yoki uning qiymatini ko‘paytiradi va ijobiy daromadlarni olishga yordam beradi. Ya‘ni investitsiya bozori-investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish uchun sharoit yaratib beradi. Asosiy elementlari talab, taklif, raqobat va baho hisoblanadi. Shu bois ham mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish va taraqqiy etishda investitsiya va moliya huquqi alohida o‘rin tutadi. Shu sababli ham jamiyatda demokratik, huquqiy davlat va kuchli fuqarolik jamiyatini shakllantirish sharoitlarini hamda tadbirkorlik subyektlariga huquqiy-iqtisodiy imkoniyatlar yaratishda bir qancha hissa qo‘shib kelmoqda.

Hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasida 21 ta erkin iqtisodiy zonalar (EIZ) mavjud bo‘lib, ulardan 19 tasi sanoat, 1 tasi qishloq xo‘jaligi va 1 tasi turizm sohasiga ixtisoslashgan.

2008-yildan 2021-yilgacha bo‘lgan davrda erkin iqtisodiy zonalar hududlarida 2,4 milliard dollarlik jami 448 ta loyihalar amalga oshirildi. Umumiy summadan 764,6 mln dollarni to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar tashkil etadi. Loyihalar hisobiga 34 mingga yaqin yangi ish o‘rinlari yaratildi. Ushbu loyihalarning eng yirigi Angren EIZ (730,7 mln dollarlik 73 ta loyiha), “Urgut” EIZ (312,9 mln dollarlik 55 ta loyiha), “Navoiy” EIZ (282,8 mln dollarlik 53 ta loyiha) va “Buhoro-agro” EIZda (325,1 mln dollarlik 112 ta loyiha) amalga oshirildi.

2020-yil yakuniga qadar faoliyat ko‘rsatayotgan EIZ hududlarida umumiy qiymati 487,4 mln dollarga teng bo‘lgan 128 ta loyiha amalga oshirildi. Shundan 162,1 mln dollarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar tashkil etadi. Loyihalar zamonaviy issiqxonalar qurish (204,7 mln dollarlik 62 ta loyiha), qurilish materiallari ishlab chiqarish (140 mln dollarlik 18 ta loyiha), kimyo va neft-kimyo sanoati (50,6 mln dollarlik 13 ta loyiha), oziq-ovqat sanoati (15,9 mln dollarlik 10 ta loyiha), to‘qimachilik sanoati (20,1 mln dollarlik 8 ta loyiha), mashinasozlik (6 mln dollarlik 2 ta loyiha), charm-poyabzal sanoati (14,9 mln dollarlik 5 ta loyiha), elektrotexnika sanoati (13,7

mln dollarlik 3 ta loyiha), farmatsevtika sanoati (56,3 mln dollarlik 6 ta loyiha), mebel va qog'oz ishlab chiqarish (1,1 mln dollarlik 1 ta loyiha) kabi sohalarni qamrab oldi.

Aslida moliya huquqi - boshqa huquqiy fanlardan farqli ravishda o'z mohiyatiga ko'ra imperativ (buyuruvchi) xususiyatga ega va moliyaviy munosabat ishtirokchisi bo'lgan shaxslar xatti-harakati qoidalarini belgilab beradi, bu munosabatlar bir tomonning ikkinchi tomonga bo'ysunishiga asoslangan hokimiyat munosabatlaridir. Respublikasi moliya munosabatlarini tartibga solishda moliya huquqi normalari o'zining tartibga solish xususiyatidan kelib chiqib, o'z navbatida majburiyat yuklovchi, vakolat beruvchi, rag'batlantiruvchi, qo'riqlovchi va man qiluvchi (taqiqlovchi) normalarga bo'linadi:

-Moliya huquqi fani - davlatning markazlashtirilgan va boshqa markazlashtirilgan pul fondlarini rejali ravishda shakllantirish, taqsimlash va foydalanish bilan bog'liq bo'lgan o'z vazifalarni bajarish jarayonida vujudga keladigan ijtimoiy munosabatlardan iborat. O'zbekiston Respublikasida davlat mustaqilligini iqtisodiy jihatdan mustahkamlash masalalarini samarali hal etish, mamlakatning iqtisodiy mustaqilligini ta'minlashda moliya huquqi muhim ahamiyat kasb etadi. Moliyaning moddiy asosini pul aylanishi tashkil qiladi. Pul aylanishining 2 xil turi mavjud: 1-naqd pul aylanmasi, 2-naqd pulsiz aylanmalar. O'zbekiston Respublikasi Davlatining iqtisodiy roli; mulkchilik munosabatlarini isloh qilish; institutsional tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, iqtisodiy munosabatlarni huquq ta'sirida rivojlantirish asosida iqtisodiy samaradorlik va ijtimoiy tenglik me'yorlarini ta'minlash.

-Moliya huquqi muayyan davlat tomonidan qabul qilingan moliyaviy-huquqiy mezonlar yig'indisi va tizimi, muayyan moliyaviy tartib-qoidalarini belgilovchi qoidalar tarzida qadimgi davrlarda (qadimgi Misrda) paydo bo'lgan bo'lsa-da, moliya huquqi fan sohasi sifatida nisbatan yaqinda paydo bo'lgan. XIX asr boshlariga kelib, burjua jamiyati shaklanib bo'lgan paytda pul qudratli kuch sifatida ishlay boshladi, moliyaviy qonunlar soni keskin ko'paydi va ularni ma'lum tizimga solish, o'rganish dolzarb vazifaga aylandi. O'sha paytdan boshlab moliya huquqi fan sifatida yuzaga keldi va o'quv yurtlarida o'qitila boshlandi.

Moliya huquqi fanining mazmuni moliyaviy huquqi tarmog'i va davlat moliya faoliyatini tartibga soluvchi boshqaruvchi masalalaridagi huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy bilimlar tizimidan iborat.

O'zbekistonning moliyaviy mustaqilligi yildan yilga mustahkamlanib borayotganligi mamlakatimiz jahonning yirik davlatlari bilan hamkorlik loyihalarini amalga oshirilishida hamda chet el investitsiyalaridan samarali foydalanayotganligida ko'rinadi. "Xitoy ma'lumotlariga ko'ra, 2015-yilda Xitoy bilan O'zbekistonning o'zaro savdo hajmi 3,5 milliard AQSh dollarini tashkil qiladi. Bu ko'rsatgich diplomatik munosabatlar o'rnatilgan dastlabki yillarga nisbatan 70 barobardan ko'proq o'sgan. 3 yildirki, Xitoy O'zbekistonning eng yirik investori va savdo sherigi bo'lib kelmoqda. Shuningdek, Xitoyning yirik kompaniyasi bo'lgan «Huawei» O'zbekistonda faoliyat boshlaganiga 14 yildan oshdi. U o'z biznesini O'zbekistonda shtatlar jadvalida 10 kishidan iborat bo'lgan kichik vakolatxona ochib boshlagan. Bugun «Huawei» ni 150 ishchisi bo'lgan sho'ba korxonasi bor. Ularning 80 foizini O'zbekiston fuqarolari tashkil qiladi. Undan tashqari, 2012-yildan boshlab Toshkent mintaqaviy shtab-kvartira sifatida belgilangan, bu yerdan markaziy Osiyo va Kavkaz mamlakatlari nazorat qilinadi.

Davlat daromadlarining turli davlat daromadlari turli asoslariga ko'ra bir necha guruhlarga tasniflanadi.

1. Ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatiga ko'ra davlat daromadlari;
2. Davlat daromadlari hududiylik xususiyatiga ko'ra;
3. Davlat daromadlari yuridik xususiyati va shakliga ko'ra;
4. Davlat daromadlarini to'plash usuliga qarab;
5. Mulk kerak bo'lgan munosabatni hisobga olgan holda;



#### 6. Davlat daromadlarini tashkil topish va foydalanish tartibiga ko‘ra.

Moliya munosabatlarning huquqiy jihatdan tartibga solishning ahamiyati shundan iboratki, jamiyatni ijtimoiy-iqtisodiy hayotni faravonlashtirishga qaratilgan qonunchilikni takomillashtirish va uning amaliy jihatlarini o‘rganish asosida moliya qonunchiligi talablarini anglash, unga rioya qilish bugungi rivojlanish davrida muhim ahamiyatga ega.

O‘zbekiston suveren davlat sifatida xalqaro miqyosda e‘tiborining oshishiga, jahon xo‘jalik aloqalarining rivojlanishiga keng huquqiy-iqtisodiy imkoniyatlarni yaratadi va shu asosida jamiyatni iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishiga asos soladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Rashidov O.Y, Qurbonov X.A., Karlibayeva. R.X. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish: o‘quv qo‘llanma. – T.: O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, 2005. – 128 b.
2. Umarov U.A. Moliya huquqi: darslik. – T.: Tafakkur bo‘stoni, 2017 – 8 b.
3. Mualliflar jamoasi // Investitsiya huquqi. – T.: TDYU, 2019.

## XALQARO DOIRADA INVESTITSIYA FAOLIYATINI TARTIBGA SOLUVCHI NORMATIV-HUQUQIY HUJJATLAR

**Mamatqulova Shaxnoza Rahimnazar qizi**  
Surxondaryo viloyati yuridik texnikumi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada investitsiya dasturi, xalqaro shartnomalar, xorijiy investorlar, huquqiy yordam, tashqi savdo haqidagi fikrlar bayon etilgan.

**Kalit soʻzlar:** investitsiya, investitsiya dasturi, xalqaro shartnomalar.

### **Adabiyotlar tahlili va metodlari:**

Ushbu maqolani yozishda Oʻzbekiston Respublikasi “Investitsiyalar va investitsiya toʻgʻrisida”gi, shuningdek, “Investitsiya va tashqi savdo sohasida boshqaruv tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi Qonundan foydalanildi.

### **Muhokama va natijalar:**

Mamlakatimizda soʻnggi yillarda davlatlar bilan oʻzaro aloqalarni va hamkorlikni mustahkamlash maqsadida turli kelishuv va shartnomalar tuzilmoqda. Shu jumladan, Oʻzbekistonga koʻplab rivojlangan davlatlar eʼtibor qaratmoqda. Faqatgina eʼtibor qaratib qoʻymasdan turli sohalarni rivojlantirish uchun zarur investitsiya loyihalarini amalga oshirilayotganini alohida taʼkidlash joiz. Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan ishlab chiqilgan loyihalarda investitsiya dasturi doirasida investorlarga koʻplab imkoniyatlar yaratib berilmoqda. Masalan, xorijiy investorlar davlat hududida erkin harakatlanish huquqiga ega. Ularning majburiyatlarini bajarish kerak boʻlgan shart-sharoitlar yaratishdan maqsad xorijiy investorlarni jalb qilish, davlat iqtisodiyotini yanada rivojlantirish, maʼlum sohalarni tubdan yaxshilash, aholi uchun yangi ish oʻrinlarini tashkil etish, kambagʻallikni kamaytirish, aholining turmush tarzini yanada yaxshilash uchun qaratilgan. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev aytganlaridek “Investitsiya-iqtisodiyotning yuragi” hisoblanadi. Xorijiy investorlarni jalb qilish iqtisodiyotning rivojlantirishiga keng yoʻl ochadi. Shu bilan birga investorlar uchun huquqiy tomonlama qulaylik yaratish maqsadida normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilingan 2019-yilning 28-yanvardagi “Investitsiya va tashqi savdo sohasida boshqaruv tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi PF-5643-son Farmoni ijrosini taʼminlash borasida xorijiy investorlar jalb qilinib, bir qator imtiyozlar va imkoniyatlar berilmoqda:

- Xorijiy investorlarni maʼlumotlar bilan taʼminlash;
- Huquqiy yordam koʻrsatish;
- Yuzaga kelishi mumkin boʻlgan masalalarni hal qilish.

Ular uchun muhim ahamiyat kasb etadigan hujjatlarni rasmiylashtirish va boshqa shu kabilarni misol keltirish mumkin.

Bundan tashqari, Oʻzbekiston Respublikasida 2019-yilning 9-dekabrida “Investitsiyalar va investitsiyalar faoliyati toʻgʻrisida”gi Qonuni qabul qilingan. Ushbu qonun doirasida chet eldagi diplomatik vakolatxonalar shuningdek tijorat banklari boshliqlari va oʻrinbosarlaridan tarkib topgan davlat hokimiyati organlari hamkorligida toʻrt bosqichdan iborat boʻlgan mexanizmi yoʻlga qoʻyildi. Bu mexanizm orqali bir qator muvaffaqiyatlarga yoʻl ochdi, jumladan, xorijiy investorlarning qiziqish va soʻrovlariga tezkorlik bilan javob berish va qonuniy tartibda, qonunda nazarda tutilgan harakatlarning amalda qoʻllashning samaradorligini kerakli tarzda nazorat oʻrnatish imkonini yaratdi.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, O‘zbekiston Respublikasida investitsiya va tashqi savdo faoliyati uchun zarur bo‘lgan normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinishi jamiyat va davlat rivoji uchun muhim ahamiyat kasb etishini qayd etish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

### **Foydalangan adabiyotlar**

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni (yangi tahriri) 2020-yil 23-sentabr.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29-apreldagi PF-5987-son “O‘zbekiston Respublikasida yuridik ta’lim va fanni tubdan takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni.
3. O‘zbekiston Respublikasining Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5349-son Farmoni.

## INVESTITSIYA FAOLIYATINING JAHON HAMJAMIYATIDAGI KAFOLATLARI

**Bobomurodova Dilfuza Kamol qizi**  
Surxondaryo viloyati yuridik texnikumi  
2-bosqich o'quvchisi

**Annotatsiya:** *Mazkur maqola investitsiya va investitsiya faoliyati tushunchasining mazmun-mohiyati, uning subyektlari hamda Investitsiya va investitsiya faoliyati turlarining xalqaro va milliy huquqiy hujjatlar asosidagi tahlilini hamda investitsiya faoliyatining xalqaro huquqiy kafolatlarini o'z ichiga oladi.*

**Kalit so'zlar:** *Investitsiya, investitsion faoliyat, investitsion faoliyat subyektlari, kapital investitsiya, moliyaviy investitsiya, real investitsiya, kafolat, xalqaro huquqiy kafolat.*

Bugungi iqtisodiy globallashtirish jarayonida investitsion faoliyat har bir davlat iqtisodiyotida muhim ahamiyatga ega element hisoblanadi. Boisi mazkur faoliyat mamlakatda sanoat ishlab chiqarish darajasini kengaytirishga va rivojlantirishga, iqtisodiyotning barqaror hamda progressiv o'sishiga xizmat qiladi. Shu bois investitsion faoliyatni qo'llab-quvvatlovchi har bir davlat o'zining bu boradagi aniq maqsadlarini ifodalovchi yo'l xaritasini ishlab chiqadi. Xususan, mamlakatimizda ham investitsiyalarni turli sohalarga jalb etish, ularning oqimini kengaytirish, investitsion faoliyatni rag'batlantirish bo'yicha turli reja va dasturlar ishlab chiqildi. Bu o'rinda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida” gi PF-60-son Farmonini ta'kidlab o'tish joiz.

Mazkur farmonda mamlakatimizda investitsiya jozibadorligini oshirishni, biznes muhitini yaxshilashni nazarda tutuvchi aniq rejalar o'z ifodasini topgan Investitsion faoliyatning rivojlanishini ko'zlovchi mazkur harakatlar uning mazmun-mohiyati va ahamiyatini to'liq tushunish hamda yoritib berishni taqozo etadi. Investitsion faoliyat tushunchasi investitsiya hamda investor kabi tushunchalarga asoslangan bo'lib, bu bo'yicha to'liq tasavvurga ega bo'lish uchun dastlab mazkur tushunchalar haqida so'z yuritish maqsadga muvofiq hisoblanadi. “Investitsiya” atamasi lotincha so'zdan olingan bo'lib, “invest”, ya'ni “qo'yilma” degan ma'noni anglatadi. Umuman olganda, investitsiya deganda foyda olish yoki boshqa foydali maqsadga erishish uchun tadbirkorlik yoki boshqa faoliyatga jalb qilinadigan pul mablag'lari, qimmatli qog'ozlar, moddiy va nomoddiy boyliklar, shu jumladan, mol-mulkka bo'lgan huquqlar nazarda tutiladi

### **Muhokama va natijalar:**

Investitsiya tushunchasiga ko'plab xorijiy adabiyotlarda turlicha ta'rif berib o'tilgan. Xususan, ba'zi iqtisodiy adabiyotlarda investitsiyaga nisbatan foyda olish maqsadida muayyan sohaga joylashtirilgan kapital sifatida qaralsa, boshqalarida investitsiya bu asosiy kapitalni ko'paytirish maqsadida xo'jalik faoliyatiga kiritiladigan har qanday aktivlar deb ta'riflanadi. Y. Mitskevichning fikricha, investitsiya bu daromad olish yoki ijtimoiy samaraga erishish maqsadida moddiy va moliyaviy vositalarni, shuningdek, mol-mulkka hamda intellektual mulkka bo'lgan huquqlarni turli faoliyat obyektlariga qo'yilma sifatida jalb qilishdir. P. Vaxrin ham investitsiya tushunchasiga ta'rif berar ekan, unga kapitalni joylashtirish usuli sifatida qarab, bu orqali kapitalni saqlash yoki uning asl qiymatini oshirish hamda ijobiy hajmdagi daramodga ega bo'lish ekanligini ta'kidlaydi. A. Neshitoy investitsiya tushunchasiga nisbatan quyidagicha qarashni ilgari suradi: “Investitsiya bu foyda olish yoki boshqa samaralarga erishish maqsadida o'z yoki o'zga mamlakatning turli tarmoqlariga, tadbirkorlik loyihalari, ijtimoiy-iqtisodiy dasturlar ham innovatsiya loyihalarini amalga oshirishga yo'naltirilgan

pul mablag'larini (kapitalni) uzoq muddatga joylashtirishdir”. Bir qancha o'zbek iqtisodchi olimlari xususan, A. Vahabov, Sh. Xajibakiyev, N. Muminovlar investitsiyaning mazmun-mohiyati bo'yicha quyidagi fikrlarni ilgari suradi: “Investitsiyalar – foyda olish yoki ijobiy ijtimoiy samaraga erishish maqsadida tadbirkorlik obyektlariga va boshqa faoliyat turlariga qo'yiladigan pul mablag'lari, banklarning maqsadli omonatlari, aksiyalar, boshqa qimmatli qog'ozlar, texnologiyalar, mashinalar, uskunalar, litsenziyalar, kreditlar, har qanday boshqa mol-mulk yoki mulkiy huquqlar, intellektual boyliklardir”. G'arb olimlari jumladan, U. Sharp, G. Aleksander, J. Beylilar investitsiya tushunchasiga “bu kelajakda daromad olish uchun bugun o'zingdan ajratilishi kerak bo'lgan kapitaldir” - deya izoh beradilar. Investitsiya tushunchasiga ba'zi bir xalqaro ko'p tomonlama shartnomalarda ham ta'rif berib o'tilgan bo'lib, xususan, 1997-yilda qabul qilingan Investorlar huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi Moskva konvensiyasining 1-moddasiga muvofiq investitsiya bu investorlar tomonidan foyda olish yoki ijtimoiy samaraga erishish maqsadida moliyaviy va moddiy vositalarni, shuningdek, mol-mulkka hamda intellektual mulkka bo'lgan huquqlarni agar ular mazkur shartnomaga a'zo davlatlarning milliy qonunchiligiga ko'ra muomaladan chiqarilmagan yoki muomalada bo'lishi cheklanmagan bo'lsa, turli faoliyat obyektlariga jalb qilishdir. “Ko'p tomonlama investitsiya kafolatlari agentligini tashkil etish to'g'risida”gi 1985-yildagi Seul konvensiyasida investitsiya tushunchasiga izoh berilmagan bo'lsada, investitsiyalarning uch asosiy belgisi ko'rsatib o'tilgan. Bunda avvalo, konvensiya a'zolari investitsiyalarni pul qo'yilmasi tarzida yoki natura shaklida amalga oshirilishi lozimligidan kelib chiqib harakat qiladilar. Demak, mazkur Konvensiya bo'yicha xizmat ko'rsatish investitsiya sifatida e'tirof etilmaydi. Investitsiyalarning keyingi belgisi shundan iboratki, Konvensiya investitsiyalarni o'rta muddatli yoki uzoq muddatli shuningdek, uzoq muddat davomida amalga oshirilishi lozimligini ko'zlaydi. Uchinchi belgi esa kapital qo'yilmalarini amalga oshirish jarayonida tadbirkorlik riskining mavjud ekanligi, ya'ni investitsiya kiritishda foyda olish bilan bir qatorda moliyaviy zarar ko'rish xavfining ham mavjudligidir. 1994-yildagi Energetika xartiyasi to'g'risidagi shartnomada ham investitsiya tushunchasiga ta'rif keltirilgan bo'lib, uning 1-moddasi 6-bangiga ko'ra investitsiya bu investorning mulk huquqi ostidagi hamda u tomonidan bevosita va bilvosita nazorat qilinadigan barcha aktivlar bo'lib, bularga quyidagilar kiradi:

a) moddiy va nomoddiy, shuningdek, ko'char va ko'chmas mulklar va har qanday mulkiy huquqlar, xususan, ijara, ipoteka, mol-mulkni ushlab qolish huquqi va garov;

b) kompaniya yoki tadbirkorlik korxonasi yoxud aksiyalar, ulushlar yoki kompaniya va tadbirkorlik faoliyatida ishtirok etishning boshqa shakllari, shuningdek, kompaniya va tadbirkorlik korxonasining obligatsiyalari va boshqa qarz majburiyatlari;

d) pul mablag'larini talab qilish huquqi hamda iqtisodiy qiymatga ega bo'lgan va investitsiya bilan bog'liq bo'lgan shartnomalar bo'yicha majburiyatlarning bajarilishini talab qilish huquqi;

e) intellektual mol-mulk;

f) daromadlar;

g) energetika sohasida har qanday iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish uchun qonun yoki shartnomaga muvofiq berilgan litsenziya yoxud ruxsatnoma bo'yicha huquqlar. Shuningdek, Investitsiyalarni rag'batlantirish va himoya qilish bo'yicha Janubiy-sharqiy Osiyo mamlakatlari assotsiatsiyasi (ASEAN) kelishuviga muvofiq investitsiya quyidagicha ta'riflanadi: Investor tomonidan egalik qilinadigan hamda boshqariladigan har qanday mol-mulk va boshqa aktivlar, xususan:

a) ko'char va ko'chmas mulklar, shuningdek ipoteka, garov yoki chegirib qolish huquqi kabi boshqa mulkiy huquqlar;

b) paylar, aksiyalar, obligatsiyalar va kompaniyalarda ishtirok etishning boshqa shakllari; Energetika Xartiyasi to'g'risidagi shartnoma.

d) pul talabnomalari yoki qonunga yoxud iqtisodiy qiymatga ega bo'lgan kontraktga muvofiq har qanday majburiyatlarning bajarilishi xususidagi talabnomalar;

e) intellektual mulkka bo'lgan huquqlar, shu jumladan mualliflik huquqi va turdosh huquqlar, patentlar, sanoat namunalari, savdo markalari, savdo sirlari, nou-xau va gud vill;

f) qonunchilikka muvofiq, kontraktga yoki vakolatli davlat organining ma'muriy hujjati asosidagi tabiat resurslarini tadqiq qilish, qayta ishlash, qazib olish yoki ekspluatatsiya qilish uchun konsessiyalar asosida berilgan har qanday biznes konsessiyalar investitsiya deb baholanishi ko'rsatilgan.

O'zbekiston Respublikasi va Turkiya Respublikasi o'rtasidagi investitsiyalarni o'zaro rag'batlantirish va himoya qilish to'g'risidagi ikki tomonlama shartnomada “Investitsiya” atamasi Ahdlashuvchi tomon davlati hududida davomiy iqtisodiy aloqalar o'rnatish maqsadida uning qonunchiligiga muvofiq qo'lga kiritilgan va investitsiya xususiyatlariga ega bo'lgan tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq har qanday turdagi aktivni anglatishi nazarda tutilgan. Va nihoyat, O'zbekiston Respublikasining “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida”gi 2019-yil 25-dekabrda qabul qilingan Qonuni 3-moddasiga muvofiq investitsiyalar – investor tomonidan foyda olish maqsadida ijtimoiy soha, tadbirkorlik, ilmiy va boshqa faoliyat turlari obyektlariga tavakkalchiliklar asosida kiritiladigan moddiy va nomoddiy boyliklar hamda ularga bo'lgan huquqlar, shu jumladan intellektual mulk obyektlariga bo'lgan huquqlar, shuningdek reinvestitsiyalar – deb bayon etilgan. Bizning fikrimizcha, investitsiya deganda avvalo, iste'moldan ortgan moliyaviy vositalar hamda boshqa mol-mulklarni foydali natijaga erishish uchun qonun bilan ta'qiqlanmagan har qanday faoliyatga jalb qilish, harakatga keltirishdir. Muayyan sohaga investitsiya kiritish bevosita investitsion faoliyat natijasida amalga oshiriladi. Investitsion faoliyat investitsiyaga nisbatan keng tushuncha bo'lib, u o'z ichiga investitsiya loyihalarini amalga oshirish bilan bog'liq jarayonlarni qamrab oladi. Investitsion faoliyat haqida turli iqtisodiy va yuridik adabiyotlarda xilma-xil fikrlar keltirib o'tiladi. Jumladan, A.N.Alekseyev investitsion faoliyatni investorning daromad olish yoki boshqa foydali natijaga erishish maqsadida investitsiya qo'yilmalari bilan bog'liq harakatlari sifatida tavsiflaydi. Investitsiya faoliyatini ikki omil: muayyan sohaga investitsiya kiritish hamda investitsiya vositalaridan foydalanish bilan bog'liq harakatlar sifatida izohlaydi

S.P. Moroz esa mazkur ikki omilni kapitalni qo'yilma tariqasida jalb etish va investitsiyani amalga oshirish jarayoni deb ataydi.

A.M. Lapteyevaning fikricha investitsion faoliyatning mohiyati doimo investitsiya bilan bog'liq harakatlar to'plami orqali tushuniladi.

N.I. Kleyn esa investitsion faoliyat bu avvalo, foyda olish maqsadida pul vositalarini hamda boshqa mol-mulklarni joylashtirishni amalga oshirish ekanligini ko'rsatadi.

D.S. Ratnikova o'z ilmiy ishlarida investitsiya faoliyatiga ta'rif berar ekan, mazkur faoliyat foyda olish yoki boshqa foydali natijaga erishish uchun mol-mulkni yoki mol-mulkka bo'lgan huquqni qonunda nazarda tutilgan faoliyat turiga tavakkalchilik asosida jalb etish va uni amalga oshirish bosqichlari majmui hisoblanishini keltirib o'tadi.

A.V. Belitskoyning fikricha, investitsion faoliyat tushunchasi o'zining asosiy belgilari bilan tadbirkorlik faoliyati tushunchasiga yaqin turadi. Biroq, ayrim investitsion faoliyat turlari doimiy subyektlar tomonidan, qonunga muvofiq ro'yxatdan o'tgan holda amalga oshirilmaligi bois bularni tadbirkorlik faoliyati sifatida e'tirof etish noto'g'ri hisoblanadi.

V.V. Gushin va A.A. Ovchinnikovlar investitsion faoliyatga nisbatan investorning o'ziga mulk huquqi asosida tegishli bo'lgan mol-mulk xususida farmoyish berish kabi harakatlari ekanligini ta'kidlaydi.

Investitsion faoliyat tushunchasiga xalqaro shartnomalarda aniq ta'rif berilmagan, biroq davlatlarning milliy qonunchiligida bu borada muayyan izohlar mavjud. Xususan, Rossiya

Federatsiyasining 1998-yilda qabul qilingan “Rossiya Federatsiyasida kapital qo’yilmalar shaklida investitsiya faoliyatini amalga oshirish to’g’risida”gi Qonuniga muvofiq investitsiya faoliyati bu foyda olish yoki boshqa ijobiy samaraga erishish maqsadida investitsiya kiritish hamda amaliy harakatlarni amalga oshirish ekanligi belgilangan. Investitsion faoliyat tushunchasi yuzasidan milliy qonunchiligimizda muayyan ta’rif keltirilgan bo’lsada, fikrimizcha bu mazkur faoliyatning asl mazmuni to’la yoritishda yetarli hisoblanmaydi. “Investitsiya va investitsiya faoliyati to’g’risida”gi 2019-yil 25-dekabrda qabul qilingan O’zbekiston Respublikasi qonunining 3-moddasiga ko’ra, investitsiya faoliyati investitsiya faoliyati subyektlarining investitsiyalarni amalga oshirish bilan bog’liq harakatlari majmuidir. Qozog’iston Respublikasining 2015-yilda qabul qilingan Tadbirkorlik kodeksi 274-moddasida investitsion faoliyat tushunchasi nisbatan kengroq bayon qilinib, unga ko’ra jismoniy va yuridik shaxslarning tijorat tashkilotlarining ustav kapitalida ishtirok etish yoki tadbirkorlik faoliyati uchun foydalaniladigan asosiy vositalarni ishlab chiqarish yoki ko’paytirish, shuningdek, davlat-xususiy sherikchilik loyihasini, shu jumladan konsessiya loyihasini amalga oshirish bo’yicha faoliyati investitsiya faoliyati deb e’tirof etiladi. Investitsiya va investitsion faoliyat tushunchalari bir-biri bilan mustahkam bog’liq bo’lib, mazkur faoliyat tor va keng ma’noda talqin qilinadi. Investitsion faoliyat tor ma’noda investitsiya qo’yilmalarini biror bir sohaga yo’naltirish va shu orqali kapital hajmini o’zgartirish jarayonini ifodalasa, keng ma’noda foyda olish maqsadida sarmoyalarni investitsiya obyektiga joylashtirish bilan bog’liq harakatlar yig’indisini ifodalaydi. Ba’zi bir mualliflar investitsiya faoliyatini shartli ravishda ikki bosqichga ajratilgan harakatlar turi sifatida tushunishni taklif qilishadi. Birinchi bosqich bo’sh turgan mablag’larni investitsiya sifatida kiritish haqida qaror qabul qilishdan boshlanadi. Daromad olish nuqtai nazaridan samarali kapital kiritish obyekti qidirilgandan so’ng, investitsiya shartnomasi tuziladi, ya’ni muayyan qidirish va mablag’larni kiritish fakti mustahkamlanadi.

Shunday qilib moddiy va nomoddiy mablag’ga investitsiya maqomi beriladi. Ikkinchi bosqich o’z ichiga investitsiya shartnomasiga muvofiq investitsiyalarni amalga oshirishga doir amaliy harakatlarni qamrab oladi. Bu jarayonda investitsiya faoliyati har bir ishtirokchisining funksiyasi va o’z vakolatlarini amalga oshirish shakllari aniqlanadi. Yana bir guruh olimlar investitsiya faoliyatini uch bosqichga ajratgan holda talqin etadilar. Birinchi bosqichda investor tomonidan investitsiyaning maqsadi aniqlab olinib, uni amalga oshirish yo’nalishi hamda usullari belgilab olinadi. Mazkur bosqichga kiritilishi kutilayotgan investitsiyaning miqdori va muddatlarini, shuningdek, taraflarning huquq va majburiyatlarini hamda foydani taqsimlashni aniqlash kabi harakatlar kiradi. Ikkinchi bosqich investitsiya loyihasini amalga oshirish uchun zarur bo’lgan barcha amaliy harakatlarni, xususan, huquqiy to’siqlarni bartaraf etish, zarur shartnomalarni imzolash, faoliyat bo’yicha ruxsatnoma va litsenziya olish kabilarni o’z ichiga oladi. Uchinchi bosqichga esa investitsiya vositalarini boshqarish, ular yuzasidan qarorlar qabul qilish, loyihani amalga oshirishda to’siq bo’luvchi holatlarni bartaraf etish, daromadlarni taqsimlash, reinvestitsiya qilish kabi harakatlar kiradi. Boshqa har qanday faoliyat kabi investitsiya faoliyati ham muayyan maqsad, vosita va natijani o’z ichiga oladi. Investitsion faoliyatning maqsadi jamiyatning ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishining yuqori darajasiga erishish bo’lsa, uning vositalari bo’lib investitsiya, investitsion salohiyat hamda investitsiya jarayonlari hisoblanadi. Investitsion qo’yilmalardan daromad olish, mavjud kapitalni hamda investitsion resurslarni ko’paytirish va ulardan samarali foydalanish shart-sharoitlarini yaratish investitsion faoliyatning natijasi sifatida baholanadi. Shuningdek, investitsiya faoliyati:

- 1) mustaqil faoliyat;
- 2) mol-mulk hamda mulkiy huquqlarni investitsiya qilish;
- 3) tavakkalchilikka muvofiq;
- 4) foyda olish yoki boshqa ijobiy samaraga erishishga yo’naltirilgan;
- 5) muayyan huquqiy shaklda amalga oshiriladigan;
- 6) investitsiya vositalaridan maqsadli foydalanishni ifodalovchi;
- 7) bir necha bosqichlarda amalga oshirilishi kabi o’ziga xos

belgilari bilan boshqa faoliyat turlaridan ajralib turadi. Boshqa faoliyat turlari kabi investitsiya faoliyati ham muayyan shaxslar doirasi tomonidan amalga oshiriladi. Mazkur shaxslar doirasi investitsiya faoliyati subyektlarini tashki etadi. Investitsiya faoliyati subyektlarini turli darajadagi investorlar sifatida ta'riflashimiz mumkin bo'lib, bularga ushbu faoliyatni amalga oshiruvchi jismoniy va yuridik shaxslar, tadbirkorlik subyektlari, davlat boshqaruv hamda mahalliy davlat hokimiyati organlari, xorijiy davlatlar, ularning ma'muriy organlari, xalqaro tashkilotlar, xorijiy davlatlarning jismoniy va yuridik shaxslari, shuningdek fuqaroligi bo'lmagan yuridik shaxslarni kiritish mumkin. Bugungi kunda investorlar tomonidan investitsiya loyihalari turli faoliyat sohalarida amalga oshiriladi. Shu jihatdan bir qator iqtisodiy va yuridik adabiyotlarda investitsiya faoliyatining tasniflanishi alohida o'rganish obyekti sifatida qaraladi. Bunda umumiy fikr shundaki, investitsiya faoliyatining tasniflanishi bevosita investitsiyaning qanday turga xos ekanligi bilan bog'liq holda izohlanadi. Xorijiy adabiyotlarda investitsiyalarning turli mezonlar bo'yicha tasniflanishi bo'yicha bir qator fikrlar keltirilgan. I.V. Soshnikovning fikriga ko'ra, investitsiyalarning tuzilishi hamda tasniflanishi nafaqat ularni to'g'ri hisobga olish, balki ulardan foydalanish darajasini har tomonlama tahlil qilish va investitsion faoliyatda samarali investitsiyalarni ishlab chiqish hamda amalga oshirish bo'yicha obyektiv ma'lumotlar. U. Sharp hamda G. Beyli investitsiyalarni real hamda moliyaviy turlarga bo'linishini ta'kidlab, real investitsiyalarni asosan, moddiy aktivlarga jumladan, ko'chmas mulk, qurilish, uskunlar va shu kabi moddiy xususiyatga ega bo'lgan vositalarga qilingan investitsiyalar ekanligini, moliyaviy investitsiyalar esa qog'ozda aks etgan shartnomalar xususan, qimmatli qog'ozlar, aksiyalar va obligatsiyalar ekanligini izohlaydi. Shuningdek, rivojlanayotgan iqtisodiyotda investitsiyalarning aksariyat qismi real investitsiyalarni, rivojlangan iqtisodiyotda esa investitsiyalarning eng ko'p qismi moliyaviy investitsiyalarni tashkil etib, moliyaviy investitsiyalarning rivojlanishi real investitsiyalarni o'sishiga xizmat qiladi. Investitsiyalarning mazkur shakllari bir-biri bilan raqobatlashuvchi emas, balki bir-birini to'ldiruvchi hisoblanadi.

Nemis olim Vaynrixom esa investitsiyalarni yo'naltirish obyektiga ko'ra: a) ko'chmas mulkka kiritiladigan investitsiyalar (bularga moddiy investitsiyalar xususan, bino-inshootlar, asbob-uskunalar va boshqa turdagi asosiy vositalar kiradi); b) moliyaviy investitsiyalar (bularga aksiya, obligatsiya, veksellar, shuningdek, boshqa turdagi qimmatli qog'ozlarni sotib olish kiradi); d) nomoddiy investitsiyalar (bularga inson resurslariga, ilmiy tadqiqot ishlariga kiritiladigan investitsiyalar kiradi). Adabiyotlarda investitsiyalar quyidagicha tasniflanadi: 1. Investitsiya vositalarini qo'yish obyektiga ko'ra: - real investitsiyalar (moddiy hamda nomoddiy aktivlarga qaratilgan qo'yilmalar; - moliyaviy investitsiyalar (moliyaviy vositalarga, asosan, qimmatli qog'ozlarga yo'naltirilgan qo'yilmalar. Real investitsiyalar deganda real aktivlarga (moddiy va nomoddiy aktivlar) joylashtiriladigan investitsiya vositalari nazarda tutiladi. Bunda moddiy investitsiyalar ishlab chiqarish vositalarini yaratish, moddiy xususiyatga ega ashyolarni sotib olish orqali kiritiladi. Nomoddiy investitsiyalar inson salohiyatini rivojlantirish, kadrlarning malakasini oshirish, ilmiy-texnik va innovatsionlikka qaratilganligi bilan xarakterlanadi. Nomoddiy investitsiyalar patentlar, litsenziyalar, kadrlarni o'qitish, qayta tayyorlash, reklamalar, ilmiy tadqiqot ishlarini rivojlantirish uchun kiritiladigan kapitallardir. 2. Investitsiyalashda ishtirok etish xarakteriga ko'ra: - to'g'ri investitsiyalar; - portfel investitsiyalar. To'g'ri investitsiyalar investor tomonidan investitsiyalash jarayonidan investitsiya obyektlarini izlash va tanlashda hamda investitsiya vositalarini qo'yishda bevosita o'zi ishtirok etishini nazarda tutadi. To'g'ri investitsiyalash investordan muayyan bilim va malaka talab etib, bu investitsiya obyekti yuzasidan aniq ma'lumotga ega hamda investitsiyalash mexanizmini tushunadigan investorlar tomonidan amalga oshiriladi. To'g'ri investitsiyalar investitsiya faoliyatini uzoq muddat davomida amalga oshirilishi hamda jiddiy tijoriy va siyosiy risklarga egaligi bilan xarakterlanadi. Investitsiya vositachilari, tijorat banklari, fondlar va boshqa moliyaviy



vositachilar orqali amalga oshiriladigan investitsiyalash portfel investitsiyalar hisoblanadi. Bugungi kunda global iqtisodiyotda investitsiyalashning muayyan qismini portfel investitsiyalar tashkil etadi. Boisi barcha investorlar ham investitsiyalashni qanday amalga oshirish bo'yicha chuqur bilimga ega bo'lmaydilar va bu investitsiya hamda moliyaviy vositachilar yordamidan foydalanishni taqozo qiladi. Portfel investitsiyalarning to'g'ri investitsiyalardan farqi shundaki, ularni sotish va boshqa usullarda qaytarib olish osondir, shuningdek mazkur investitsiyalar nisbatan qisqa muddatlarda amalga oshirilishi bilan ajralib turadi. 3. Investitsiya faoliyatni amalga oshirish muddatiga ko'ra qisqa o'rta va uzoq muddatli investitsiyalarga bo'linadi. Qisqa muddatli investitsiyalarga aksariyat hollarda bir yil muddatga qo'yiladigan kapitallar kiradi. Bir yildan uch yilgacha bo'lgan muddatda faoliyat ko'rsatadigan investitsiyalar o'rta muddatli investitsiyalar hisoblanadi. Uzoq muddatli investitsiyalarga esa uch yilda ko'p bo'lgan muddatga qo'yiladigan investitsiyalar mansub bo'ladi. Ba'zi olimlar mazkur muddatlardan tashqari o'ta qisqa muddatli (bir necha soatda bir necha kungacha joylashtiriladigan investitsiyalar, bular asosan moliyaviy investitsion faoliyatda amalga oshiriladi) hamda o'ta uzoq muddatli (o'ttiz yildan ortiq muddatda amal qiladigan investitsiyalar) investitsiyalarni ham ajratib ko'rsatadilar. Investorlarning qaysi mulk shakliga tegishliligiga ko'ra investitsiya faoliyati quyidagi shakllarda amalga oshiriladi: davlat organlari orqali, xususan, davlat tashkilotlari va korxonalari, shuningdek, boshqa ma'muriy muassasalar tomonidan amalga oshiriladigan investitsiya faoliyati; - davlat aktivlariga asoslanmagan holda jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan o'z xususiy mulkchiligi asosida amalga oshiriladigan investitsiya faoliyati; - xorijiy davlatlar va ularning tashkilotlari, shuningdek xorijiy jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan amalga oshiriladigan investitsiya faoliyati; - bir davlat hukumati hamda uning jismoniy va yuridik shaxslari bilan xorijiy davlatlar, ularning jismoniy va yuridik shaxslari tomonidan birgalikda amalga oshiriladigan investitsiya faoliyati. “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 5-moddasida investitsiyalarning mo'ljallangan obyektiga ko'ra turlari ko'rsatilgan bo'lib, unga ko'ra O'zbekiston Respublikasida investitsiyalar mo'ljallangan obyektiga ko'ra kapital, moliyaviy va ijtimoiy turlarga bo'linadi. Kapital investitsiyalar jumlasiga asosiy fondlarni yaratish va takror ko'paytirishga, shu jumladan yangi qurilishga, modernizatsiya qilishga, rekonstruksiya qilishga, texnik jihatdan qayta jihozlashga, shuningdek, moddiy ishlab chiqarishning boshqa shakllarini rivojlantirishga kiritiladigan investitsiyalar kiradi. Aksiyalar, korporativ, infratuzilmaviy va davlat obligatsiyalariga, shuningdek, qimmatli qog'ozlarning boshqa turlariga kiritiladigan investitsiyalar moliyaviy investitsiyalar jumlasiga kiradi. Ijtimoiy investitsiyalar esa inson salohiyatini, ko'nikmalarini va ishlab chiqarish tajribasini rivojlantirishga, shuningdek, nomoddiy boyliklarning boshqa shakllarini rivojlantirishga kiritiladigan investitsiyalarni o'z ichiga oladi. Kapital investitsiyalar asosan, moddiy ishlab chiqarishga, asosiy fondlarni vujudga keltirish va qayta yaratishga hamda moddiy ishlab chiqarishning boshqa shakllarini rivojlantirishga yo'naltirilgan investitsiyalarni nazarda tutadi. Moliyaviy investitsiyalar bugunga kunda keng ommalashgan investitsiya turi hisoblanib, mazkur turdagi investitsiya faoliyati asosan, qimmatli qog'ozlar bozorida amalga oshiriladi. Bunda moliyaviy investitsiyalar daromad olish hamda asosiy kapitalni ko'paytirish maqsadida investor tasarrufidagi vositalarni aksiya, obligatsiya, veksell, zayom va boshqa qimmatli qog'ozlarga, bir so'z bilan aytganda, moliyaviy aktivlarga joylashtirishni anglatadi. Moliyaviy investitsiyalar spekulyativ xususiyatga ega bo'lgan yoki kapitalni uzoq muddatga qo'yishga qaratilgan bo'ladi. Yuqorida keltirilgan investitsiyalar orasida ijtimoiy investitsiyalari o'ziga xos ahamiyatga ega hisoblanadi. Boisi ijtimoiy investitsiyalar insonning bilimi, ko'nikmasi va iqtidorini oshirishga, yuksak salohiyatga ega kadrlarni yetishtirishga, yangi innovatsion ishlab chiqarish tajribalarini, ilmiy-tadqiqot va loyiha-konstruktorlik ishlarini rivojlantirishga yo'naltiriladi. Ayrim adabiyotlarda investitsiya faoliyati u qaysi sohada amalga oshirilishiga

ko'ra quyidagi turlarga ajratilgan: - ishlab chiqarish sohasida (sanoat, qishloq xo'jaligi, uy-joy qurilishi); - xizmat ko'rsatish sohasida (savdo, vositachilik, xizmat ko'rsatish); - ijtimoiy sohada (fan, sog'liqni saqlash, maorif, ta'lim); - boshqa sohalarda (intelektual mulk yaratish, nou-xau).

Xulosa qilib aytganda, investitsiya faoliyati bu har qanday jismoniy va yuridik shaxslar, shuningdek xorijiy davlat fuqarolari va yuridik shaxslari kabi investitsiya subyektlari tomonidan daromad olish, mavjud kapitallarni ko'paytirish yoki boshqa foydali natijalarga erishish maqsadida turli faoliyat sohalariga kapitallarni joylashtirish va ularni boshqarish yuzasidan amalga oshiriladigan amaliy harakatlar majmuidir. Shu nuqtai nazardan aytish joizki, investitsiya faoliyat tushunchasining mazmunida investitsiyalash maqsadi, obykti va uning yo'nalishlari, investitsiyalash bilan bog'liq tashkiliy-huquqiy harakatlar va nihoyat, muayyan ijobiy samara (foйда) olish motivi yotadi. Investitsiya faoliyatining tasniflanishi esa investorlar tomonidan kapital qo'yilamalarning maqsadini hamda obyektini aniqlashda, kapital qo'yilayotgan soha yuzasidan aniq tasavvurga ega bo'lishga, ular xususida kengroq obyektiv ma'lumotlar olishga imkon beradi.

### **Foydalangan adabiyotlar**

1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning tarraqiyot strategiyasi to'g'risida”gi PF-60-son Farmoni.

2.O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 25-dekabragi “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida”gi Qonuni O'RQ-598-son.

3. Vaxabov A.V., Xajibakiyev Sh.X, Muminov N.G. Xorijiy investitsiyalar: o'quv qo'llanma. – T.: Moliya. – 303 b.

4. Henkin L. International Law: Cases and Materials. – Saint Paul, Minnesota, U.S.A.: West Publishing Co., 1993. – P. 525–538.

## INTERNATIONAL LEGAL GUARANTEES OF INVESTMENT ACTIVITY, LEGAL FRAMEWORK FOR ATTRACTING FOREIGN INVESTMENT

**Shonazarov Abduvali Shonazarovich**

Qashqadaryo viloyati yuridik texnikumi o'qituvchisi

**Abstract.** *This article is written about the legal framework and guarantees of international investment activities. The influence of international organizations on investment activity was also studied. Local state authorities within the limits of their powers and together with territorial divisions of the authorized state body in the field of state regulation of investments and investment activities carry out: implementation of investment policy at the local level, including attraction of investments, aimed at stimulating the expansion of investment volumes in the relevant territory of the country, further improvement of the investment climate in the territory, support for the development of enterprises in the relevant territory; study and identification of promising projects that require investment, as well as empty state property and land plots based on the needs and potential (resource, natural-climatic, labor, etc.) territories; dealing with issues directly related to the activities of investors, as well as, if necessary, proposals for the implementation of promising business initiatives and projects by attracting direct investment; identification of factors impeding the timely and effective implementation of investment projects, including those involving foreign investment in the relevant territory, with the adoption of operational measures to address them; improving the efficiency of the use of investments attracted to the economy of the corresponding territory on the basis of the analysis of the activities of foreign capital enterprises, as well as the implementation of investment obligations by investors;*

**Keywords:** WTO, FCN, FDI, OECD, EFTA, NAFTA.

**Introduction.** Why are capital flows among nations intended to secure the establishment of a business enterprise widely considered the principal engine of economic globalization? There are two reasons: quantitative and qualitative. Although the WORLD TRADE ORGANIZATION (WTO) regime governing the sale of goods has received the bulk of scholarly attention, the amount of trade in goods (export and import) not connected to FDI as such. Foreign investors around the

The first reference to “equitable” treatment is found in the 1948 Havana Charter for an International Trade Organisation. Its contemplated that foreign investments should be assured “just and equitable treatment”. The Article provided that the International Trade Organisation (ITO) could: 1. make recommendations for and promote bilateral or multilateral agreements on measures designed... 2. ... to assure just and equitable treatment for the enterprise, skills, capital, arts and technology brought from one member country to another. 3. “Draft Convention on the Protection of Foreign Property and Resolution of the Council of the OECD on the Draft Convention”, OECD (1967), pp. 13-15. 4. “Intergovernmental Agreements Relating to Investment in Developing Countries” OECD, 1984. 5. In 1967 and 1984, the OECD countries based their work essentially on state practice and literature.

The organisation was to be authorised, inter alia, to promote arrangements which would facilitate “an equitable distribution” of skills, arts, technology, materials and equipment, with due regard to the needs of all member States. Also, the member States were to recognise the right of each State to determine the terms of admission of foreign investors on its territory, to give effect to “just terms” on ownership of investment, and to apply “other reasonable requirements” with respect to existing and future investments.<sup>6</sup> Because of a number of unresolved issues, some major developed countries did not ratify the Charter, bringing the first post-war multilateral

effort on trade and investment to an unsuccessful conclusion. At the regional level, in 1948, the Ninth International Conference of American States adopted the Economic Agreement of Bogotá, 7 an agreement covering among other things, the provision of adequate safeguards for foreign investors. of the agreement included the following language: “Foreign capital shall receive equitable treatment. The States therefore agree not to take unjustified, unreasonable or discriminatory measures that would impair the legally acquired rights or interests of nationals of other countries in the enterprises, capital, skills, arts or technology they have supplied.”<sup>8</sup> Like the Havana Charter, the Bogotá Agreement failed to come into force due to lack of support. At the bilateral level, the US treaties on Friendship, Commerce and Navigation (FCN), developed after the First World War, contained a standard reference to international law in connection with protection of the persons and property of aliens. In the period following the preparation of the Havana Charter, the terms “equitable” and “fair and equitable treatment” started to appear in certain of the US FCN treaties.<sup>9</sup> The proponents of the standard considered it as a safeguard against state action that violated internationally accepted norms.<sup>10</sup> In 1959, the Draft Convention on Investments Abroad, developed under the leadership of Herman Abs, the Director-General of the Deutsche Bank and Lord Shawcross, the UK Attorney General, in its Article 1 stipulated that “each Party shall at all times ensure fair and equitable treatment to the property of the nationals of the other Parties”.<sup>11</sup> This effort led to the German proposal to the OECD that it develop a convention on the international protection of private property. Intensive discussions started in the OECD in the early 60’s and culminated in the adoption of the Draft Convention on the Protection of Foreign Property by the OECD Council on 12 October 1967.<sup>12</sup> Under the Article 1(a) “Treatment of Foreign Property: “Each Party shall at all times ensure fair and equitable treatment to the property of the nationals of the other Parties...” The Draft Convention, although never opened for signature, represented the collective view and dominant trend of OECD countries on investment issues and influenced the pattern of deliberations on foreign investment in that period. The requirement to “ensure fair and equitable treatment” in the Draft Convention placed greater emphasis on the standard than earlier instruments.

Although most of the above issues had not reached consensus in the last version of the text (1986), the negotiating States agreed that the Code should provide for “equitable” treatment of transnational corporations. The 1985 Convention establishing the Multilateral Investment Guarantee Agency (MIGA) specifies in Article 12(d) that in order to guarantee an investment, MIGA must satisfy itself that fair and equitable treatment and legal protection for the investment exist in the host country concerned.<sup>25</sup> This would appear to be not only a prudent standard for lowering the risk for guaranteed investments, but also one of the means by which MIGA carries out its mission under Articles 2 and 23 to promote investment flows to and among developing countries, which include promotion of investment protection. The 1992 World Bank Guidelines on Treatment of Foreign Direct Investment<sup>26</sup> stipulate in their article III(2) that: “each State will extend to investments established in its territory by nationals of any other State fair and equitable treatment according to the standards recommended in the Guidelines.” It then in II(3) indicates the standards of treatment which are to be accorded to foreign investors in matters such as security of person and property rights, the granting of permits and licenses, the transfer of incomes and profits, the repatriation of capital. The approach suggested is that fair and equitable treatment is an over-arching requirement. The standard can also be found in 1990 Lomé IV, <sup>27</sup> the Fourth Convention of the African, Caribbean and Pacific Group of States and the European Economic Community (EEC) and in the 1987 ASEAN Treaty for the Promotion and Protection of Investments.

The Colonia Protocol on Reciprocal Promotion and Protection of Investments signed by MERCOSUR member States<sup>29</sup> in January 1994, expressly grants to investors from each

MERCOSUR country “at any moment, fair and equitable treatment”. An additional Protocol on the Promotion and Protection of Investments from non-member States extends the same treatment to these investments.<sup>30</sup> Article 159 of the 1994 Treaty establishing the Common Market for Eastern and Southern Africa (COMESA) also requires COMESA member States to “accord fair and equitable treatment to private investors”. Article 1105(1) of the NAFTA, which entered into force on 1 January 1994, stipulates under the rubric “Minimum Standard of Treatment” that: “Each Party shall accord to investments of investors of another Party treatment in accordance with international law, including fair and equitable treatment and full protection and security.” The Draft OECD Multilateral Agreement on Investment (1998) in its preamble indicated that “fair, transparent and predictable investment regimes complement and benefit the world trading system”, while under the “General Treatment” Article it stipulated that: “Each contracting Party shall accord fair and equitable treatment and full and constant protection and security to foreign investments in their territories. In no case shall a contracting Party accord treatment less favourable than that required by international law.” The Energy Charter Treaty (1995) provides also that fair and equitable treatment shall be accorded at “all times”. Although the Treaty is limited to one sector, it is significant in this context because it includes among its Parties several economies in transition<sup>31</sup> which embrace the standard. Finally, the June 2002 Agreement between Singapore and EFTA establishing a free-trade area among the Parties stipulates in its Article 39 that each Party shall “accord at all times to investments of investors of another Party “fair and equitable treatment”.

Schemes for the coverage of such risks may be national, bilateral, regional or multilateral in concept and scope. While the bilateral schemes have become well-established since the 1950s, and a regional insurance agency was established in the 1970s, only in 1988 did we witness an operational multilateral insurance agency. Early initiatives to create such an international investment guarantee entity emerged in the 1950s, and the idea was discussed in the early 1960s in various international forums including the World Bank, the Organization for Economic Cooperation and Development, the Inter-American Development Bank, the United Nations Conference on Trade and Development, and the European Economic Community. However, none of these earlier initiatives materialized. In the 1980s, the concept was reintroduced in the form of the Convention Establishing the Multilateral Investment Guarantee Agency (“MIGA”), which became effective in April 1988.<sup>14</sup> Since MIGA has just become operational, the main emphasis in this article will be with the bilateral schemes,<sup>15</sup> even though in the appropriate areas of the discussion, comparisons with and references to the MIGA scheme as represented in its Convention are made.

Yet, historically, access to justice has remained problematic for aliens. Even before the formation of the modern nation state, the need for a minimum degree of protection of the life, security, and property of aliens established in or visiting a foreign land had emerged in the late Middle Ages, especially in the context of the flourishing trade between the Italian maritime Republics – such as Venice and Genoa – and the Mediterranean areas under Muslim dominion. In these areas, foreign merchants coming from the Christian world could not expect the protection of the universal system of Roman law which had guaranteed the political and legal unity of the ancient Mediterranean world. On the contrary, they encountered diffidence and marginalization by local authorities and, more fundamentally, they had to deal with the difficulty of reconciling their need for personal and economic security with the rigid system of the personality of the law in the Islamic world. This system, informed by the close interpenetration of Islamic law and religion, was a powerful obstacle to the application of legal guarantees of contractual and property rights of non-Muslims under the. The pragmatic response to this normative and jurisdictional mismatch was the development of special extraterritorial legal regimes

for commercial establishments, trade centres, and warehouses maintained in Muslim lands (FONDACI) by foreign merchants and the gradual recognition of a system of IN SITU protection of foreign merchants by agents of the foreign power of which they were nationals. This practice constitutes a predecessor to the modern idea of ‘free zones’ and, more importantly, formed the basis of the early development of consular relations and of the later emergence of that special branch of customary international law that goes under the name of ‘minimum standard of treatment of aliens’.

History tells us also that this early model of international protection of foreign economic interests later degenerated into forms of sheer economic dominance and of colonialism by the European Powers. The most radical manifestation of this development was the system of ‘capitulations’, an extreme form of extraterritorial imposition of foreign law and jurisdiction in the receiving state, which served to exempt their citizens from the sovereignty of the host state. Capitulations were gradually eliminated in the first part of the 20th century and became incompatible with the principle of de-colonization later implemented within the framework of the UN Charter.

But the institution of consular protection remains. Thus there also remains the principle of the ‘minimum standard of justice’ to be reserved to aliens and their economic interests under customary international law. An integral part of this standard is the principle of ‘access to justice’. This principle presupposes that the individual who has suffered an injury in a foreign country at the hands of public authorities or of private entities must be afforded the opportunity to obtain redress before a court of law or appropriate administrative agency. Only when ‘justice’ is not delivered, either because judicial remedies are not available or the administration of justice is so inadequate, deficient, or deceptively manipulated as to deprive the injured alien of effective remedial process, can the alien invoke ‘denial of justice’: a wrongful act for which international responsibility may arise and in relation to which an interstate claim and diplomatic protection may be made by the national state of the victim.

So, in its historical evolution, access to justice is inseparable from the ‘minimum standard of treatment of aliens’. This is confirmed by the customary rule requiring prior exhaustion of local remedies as a precondition of diplomatic protection. This rule presupposes the international obligation of every state to ensure access to courts to aliens and to administer justice in accordance with minimum standards of fairness and due process.

However, the principle of access to justice, as an integral part of customary international law on the treatment of aliens, guarantees only access to remedial process within the territory and under the law of the host state. Customary international law does not provide for an individual right of access to justice before international tribunals. Nor, by the same token, does it provide a right of access to the courts of a third state, for which, in principle, the alleged mistreatment of an alien in another state remains RES INTER ALIOS ACTA.

The major leap forward in the field of foreign investment law is represented by the recognition and consolidation of an indisputable right of access to international justice by private investors and by the extension of this right to the courts of third states to the extent that their cooperation is necessary in order to enforce international investment awards. Following the phenomenal development in the past 25 years of bilateral investment treaties, regional trade agreements, such as NAFTA, and, more importantly, investment arbitration, the right of access to justice for the investor has shifted from inter-state claims to the private-to-state arbitration where private actors have direct access to ‘international’ remedial proceedings without the traditional need for the interposition of their national state in diplomatic protection. This shift of focus has important consequences. First, it undermines the traditional dogma of international law under which only states have international rights and the state intervening to protect its

nationals injured abroad asserts its own right rather than the right of the injured person, with the consequence that the claimant state may at its own discretion make use of such right and of the eventual compensation it has been able to obtain. Secondly, and more relevantly for the general theme of this article, the ‘internationalization’ of the right of access to justice of private actors tends to blur the traditional boundary between aliens’ rights and human rights. This is so because the private actors in which this right is recognized free themselves from the traditional guardianship of their national state and become empowered to assert their individual rights and interests before an international dispute settlement body. This focus on the individual as the title holder of rights is the hallmark of the international law of human rights.

This potential convergence of traditional aliens’ rights with human rights in the field of access to justice is the conceptual point of departure for the following analysis, which will focus on three distinct but inter-linked aspects of the operation of the right of access to justice in the field of foreign investment law. The first aspect concerns the extent to which human rights considerations may influence the assessment of the international legality of the host state’s interference with the investor’s rights and on his ability to obtain judicial or arbitral protection for his investment. The second aspect relates to the emerging claim of access to justice for the host state’s population when the operation of the foreign investment is deemed adversely to affect their environment or other societal goods. The third aspect concerns the way in which access to justice may be reconciled with the traditional rule of sovereign immunity when the state of the investment adopts measures with extra-territorial effect that adversely impacts on property rights of foreign investors especially in the field of financial instruments with worldwide circulation. I will examine these three aspects in light of recent arbitral practice.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. On the evolution of International law in the context of the mutual contamination and cultural exchange between the Christian World and Islam see the magisterial analysis by Ago, ‘Pluralism and the Origin of the International Community’, *ITALIAN YBK INT’L L* (1977) 3.
2. L. Ferrari Bravo, *LEZIONI DI DIRITTO INTERNAZIONALE* (1993), at 25.
3. See Art. 54 of the 1965 Convention on the Settlement of Investment Disputes between States and Nationals of Other States, 575 UNTS 159. Para. 1 of this Art. provides that ‘each Contracting State shall recognize an award rendered pursuant to this Convention as binding and enforce the pecuniary obligations imposed by that award within its territories as if it were a final judgment of a court in that State’.
4. North American Free Trade Agreement between Canada, the United States, and Mexico, entered into force on 1 Jan. 1994, 32 *ILM* (1993) 289.
5. *MAVROMMATIS PALESTINE CONCESSIONS*, PCIJ Rep Series A No. 2, 30 Aug. 1924, at 12.

## INVESTITSIYA FAOLIYATINING XALQARO HUQUQIY KAFOLATLARI

**Berdimurodova Marjona**  
Qashqadaryo viloyati  
yuridik texnikumi o'quvchisi

**Annotatsiya:** *Maqolada investitsiya tushunchasi, investitsiya shakllari, xorijiy investitsiyalar foydalari, investitsiya bo'yicha olimlar fikri.*

**Kalit so'zlar:** *Investitsiya, xorijiy investitsiyalar, sarmoya, iqtisodiy investitsiyalar.*

Bugungi iqtisodiy globallashtirish jarayonida investitsion faoliyat har bir davlat iqtisodiyotida muhim ahamiyatga ega element hisoblanadi. Shu bois investitsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash har bir davlat o'zining bu boradagi aniq maqsadlarini ishlab chiqadi. Xususan mamlakatimizda ham investitsiyalarini turli sohalarga jalb etish ularning oqimini kengaytirish investitsion faoliyatni rag'batlantirish bo'yicha turli reja va dasturlar ishlab chiqildi. O'zbekiston Respublikasida bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida respublika iqtisodiyotida tuzilmaviy o'zgarishlar amalga oshirishda investitsiyadan samarali foydalanilmoqda.

O'zbekiston Respublikasida 1996-yildan boshlab respublika hukumati har yili davlat budjeti va budjetdan tashqari fondlar mablag'lari hisobidan kapital qo'yilmalar limitlari, chet el investitsiyalari va hukumat kafolati bilan olingan kreditlar hisobiga aniq qurilishlar dasturi, shuningdek bevosita chet el investitsiya va kreditlari hisobiga qurilishlar dasturidan iborat bo'lgan Davlat investitsiya dasturini qabul qiladi.

Bu o'rinda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillariga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi 60-son Farmonini ta'kidlab o'tish joiz. Mazkur farmonda mamlakatimizda investitsiya loyihalarini amalga oshirishni, biznes muhitini shakllantirishni namoyon etishda hamda mahalliy va xorijiy investorlar bilan o'zaro muloqotni yo'lga qo'yishga qaratilgan " Toshkent xalqaro investitsiya forumi"ni har yili o'tkazishni yo'lga qo'yish alohida e'tirofga ega. Investitsion faoliyatning rivojlanishini ko'zlovchi mazkur harakatlar uning mazmun-mohiyati va ahamiyatini to'liq tushunish hamda yoritib berishni taqozo etadi. Investitsion hamkorlik umumjahon va milliy muammolarni hal qilishga xizmat qiladi.

Investitsiya atamasi lotin so'zidan kelib chiqib, sarmoya kiritishni anglatadi. Xalqaro investitsiyalar eng keng talqinda investitsiyalar bo'lib ularni amalga oshirish turli davlatlarga tegishli bo'lgan ishtirokchilarning o'zaro aloqasini o'z ichiga oladi. Tor ma'noda xalqaro sarmoyalar bu - chet elga sarmoya yoki chet el sarmoyasidir. Investitsiya bu kapitalni keyinchalik uni ko'payishini hisobga olgan holda sarmoyadir. Shu bilan birga kapitalning o'sishi investorga joriy davrda mavjud mablag'larni iste'mol qilish uchun uni qoplash, tavakkal qilish uchun mukofotlanishi kelgusi davrda inflyatsiyadan zararni qoplashi uchun yetarli bo'lishi kerak.

Sarmoyalarni jalb qilishning asosiy manbai va sarmoyalarni jalb qilishning asosiy sababi ulardan olingan foyda hisoblanadi. Bu ikkita jarayon - kapital qo'yish va foyda olish turli vaqt ketma-ketliklarida sodir bo'lishi mumkin. Mamlakatlarni jahon iqtisodiyoti tizimiga qo'shilish va xalqaro investitsiya faoliyatini rivojlantirishning istiqbolli yo'nalishi maxsus zonalar tashkil etishdir. Bu xorijiy investorlarning qiziqish uyg'otadigan eng jozibali tomonlaridan biri bo'lib, bu tadbirkorlikni faollashtirish, eksport salohiyatini oshirish, shakllantirish va iqtisodiyotning alohida mintaqalari va tarmoqlarini shakllantirishni jadallashtirishga imkon beradi. Chetdan jalb etiladigan xorijiy investitsiyalar bilan chetdan kiritiladigan kreditlarning o'ziga xos farqlari mavjuddir. Chet el investitsiyalari ichki investitsiyadan farqli holda tashqi moliyalashtirish



manbalari kiradi. Ular milliy iqtisodiyotga chetdan ularning kelishini rag‘batlantirgan holda jalb qilinadi.

**Investitsiyaning quyidagi turlari mavjud:**

Davlat investitsiya - davlat budjeti va moliya manbalari hisobidan kiritiladi;

Chet el investitsiyasi - xorijiy davlatlar, banklar, kompaniyalar, tadbirkorlar tomonidan kiritiladi;

Xususiy investitsiya - xususiy, korporativ xo‘jalik va tashkilotlar, fuqarolar mablag‘lari, shu jumladan, shaxsiy va jalb qilingan mablag‘lar hisobidan qo‘yiladi.

Investitsiya qo‘yilish shakliga qarab moliyaviy va real investitsiyalarga bo‘linadi. Moliyaviy investitsiya - aksiya, qimmatli qog‘ozlarni sotib olishga qo‘yiladigan Real investitsiya - moddiy ishlab chiqarish sohasiga, moddiy-ashyoviy faoliyat turlariga uzoq, muddatli mablag‘lar qo‘yish shakllarida amalga oshiriladi.

Investitsion qo‘yilmalardan daromad olish, mavjud kapitallarni hamda investitsion resurslarni ko‘paytirish va ulardan samarali foydalanish shart-sharoitlarini yaratish investitsion faoliyatning natijasi sifatida baholanadi. Shuningdek, investitsiya faoliyati:

- mustaqil faoliyat
- mol - mulk hamda mulkiy huquqlarni investitsiya qilish
- tavakkalchilikka muvofiq
- foyda olish yoki ijobiy erishishga yo‘naltirilgan
- muayyan huquqiy shaklda amalga oshadigan
- investitsiya vositalaridan foydalanishni ifodalovchi bir necha bosqichlarga amalga oshirilishi kabi o‘ziga xos xususiyatlari bilan boshqa faoliyat turlaridan ajralib turadi .

Umuman olganda investitsiya deganda, foyda olish yoki boshqa foydali maqsadga erishish uchun tadbirkorlik yoki boshqa faoliyatiga jalb qilinadigan pul mablag‘lari, qimmatli qog‘ozlar, moddiy va nomoddiy boyliklar shu jumladan, mol-mulkka bo‘lgan huquqlar nazarda tutadi. Investitsiya faoliyatini amalga oshirish muddatiga ko‘ra qisqa, o‘rta yoki uzoq muddatli investitsiyalarga bo‘linadi. Qisqa muddatli investitsiyalarga bir yil muddatga beriladi. Bir yildan uch yilgacha bo‘lgan muddatga faoliyat ko‘rsatadigan investitsiyalar o‘rta investitsiyalarga kiradi. Uzoq muddatli investitsiyalarga uch yildan ko‘p bo‘lgan muddatga qo‘yiladigan investitsiyalarga bo‘linadi.

Investitsiya tushunchasiga ko‘plab xorijiy adabiyotlarda turlicha ta‘riflar berib o‘tilgan. Xususan ba‘zi iqtisodiy adabiyotlarda investitsiyaga nisbatan foyda olish maqsadida muayyan sohaga joylashtirilgan kapital sifatida qaralsa, boshqalarida investitsiya bu asosiy kapitalni ko‘paytirish maqsadida xo‘jalik faoliyatiga kiritiladigan har qanday aktivlar deb ta‘riflanadi. Mitskevichning fikricha investitsiya bu daromad olish yoki ijobiy samaraga erishish maqsadida moddiy va moliyaviy vositalarni shuningdek, mol-mulkka hamda intellektual mulkka bo‘lgan huquqlarni turli faoliyat obyektlariga qo‘yilma sifatida jalb qilishdir deb ta‘riflagan. Shuningdek, bir qancha o‘zbek iqtisodchi olimlar A. Vahabov, Sh. Xajbakiyev, Muminovlar investitsiyaning mazmun-mohiyati bo‘yicha fikrlarni ilgari suradilar: Investitsiyalar - foyda olish yoki ijobiy samaraga erishish maqsadida tadbirkorlik obyektlariga va boshqa faoliyat turlari qo‘yiladigan pul mablag‘lari, banklarning maqsadli omonatlari, aksiyalar, boshqa qimmatli qog‘ozlar, texnologiyalar, kreditlar har qanday boshqa mol-mulk yoki mulkiy huquqlar intellektual boyliklardir. Bundan tashqari G‘arb olimlari ham investitsiya tushunchasiga “bu kelajakda daromad olish uchun bugun o‘zingdan ajralishi kerak bo‘ladi kapitaldir” - deya ta‘rif berganlar.

Muayyan sohaga investitsiya kiritish bevosita investitsion faoliyat natijasida amalga oshiriladi. Investitsion faoliyat investitsiyaga nisbatan keng tushuncha bo‘lib, u o‘z ichiga investitsiya loyihalarini amalga oshirish bilan bog‘liq jarayonlarni qamrab oladi. Investitsiya va investitsion faoliyat bir-biri bilan mustahkam bog‘liq bo‘lib, mazkur faoliyat tor va keng

ma'noda talqin qilinadi. Investitsion faoliyat tor ma'noda investitsiya qo'yilmalaridan biror bir sohaga yo'naltirish va shu orqali kapital hajmini o'zgartirish jarayonini ifodalasa, keng ma'noda foyda olish maqsadida sarmoyalarni investitsiya obyektiga joylashtirish bilan bog'liq harakatlar yig'indisini ifodalaydi. Boshqa faoliyat turlari kabi investitsiya faoliyati ham muayyan shaxslar doirasi tomonidan amalga oshiriladi. Mazkur shaxslar doirasi investitsiya faoliyati subyektlarini tashkil etadi. Davlat hokimiyati organlari xorijiy davlatlarning ularning ma'muriy organlari xalqaro tashkiliy xorijiy davlatlarning jismoniy va yuridik shaxslarni kiritish mumkin. Bugungi kunda investorlar tomonidan investitsiya loyihalari turli faoliyat sohalariga amalga oshiriladi. Shu jihatdan bir qator iqtisodiy va yuridik adabiyotlarda investitsion faoliyatning tavsiflanishi alohida o'rganish obyekti sifatida baholanadi. Bunda umumiy fikr shundaki investitsiya faoliyati tavsiflanishi bevosita investitsiyalarning qanday turga xos ekanligi bilan bog'liq holda izohlanadi.

Xulosa qilib aytganda, investitsiya faoliyati har qanday jismoniy va yuridik shaxslar, shuningdek, xorijiy davlat fuqarolari va yuridik shaxslar kabi investitsiya subyektlari tomonidan daromad olish mavjud subyektlari ko'paytirish yoki boshqa foydali natijalarga erishish maqsadida turli faoliyat sohalariga kapitallarni joylashtirish va ularni boshqarish yuzasidan amalga oshirilayotgan amaliy harakatlar majmuidir. Shu nuqtayi nazardan aytish kerakki, investitsiya foydali tushunchalar mazmunidan investitsiyalash maqsadi, obyekti va uning yo'nalishlari, investitsiyalash bilan bog'liq tashkiliy huquqiy harakatlari va nihoyat muayyan ijobiy samara olish motivi yotadi. Investitsiya faoliyatining tavsiflanishi esa investorlar tomonidan kapitalni qo'yilmalarning maqsadini hamda obyektlarni aniqlash, kapital qo'yiladigan soha yuzasidan aniq tasavvurga ega bo'lishga ular xususida kengroq obyektiv ma'lumot olishga imkon beradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Chet el investitsiyalari to'g'risida qonun
2. Investitsiyalar to'g'risidagi Qonun
3. Vahabov A., Xajibekov Sh., Muminov N. Xorijiy investitsiyalar: o'quv qo'llanma. – T., Moliya.
4. Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi

## INVESTITSIYA FAOLIYATINING XALQARO HUQUQIY KAFOLATLARI

**Abdujabborov Otabek Ulug'bek o'g'li**

Sirdaryo viloyati yuridik texnikumi 2-bosqich o'quvchisi

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada investitsiya va investitsiya faoliyati tushunchasi, investitsiya faoliyatining iqtisodiy mazmun-mohiyati, xalqaro investitsion pozitsiya haqida tushuncha, xorijiy investitsiyalar foydalari, ularning turlari, sarmoyalarni jalb qilishning asosiy manbai va sarmoyalarni jalb qilishning asosiy sababi, ulardan olingan foyda haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** Investitsiya, investitsion faoliyat, xalqaro investitsion pozitsiya, xorijiy investitsiya, sarmoya, iqtisodiy zonalar, investitsiya shakllari.

Bugungi iqtisodiy globallashuv jarayonida investitsion faoliyat har bir davlat iqtisodiyotida muhim ahamiyatga ega element hisoblanadi. Boisi, mazkur faoliyat mamlakatda sanoat ishlab chiqarish darajasini kengaytirishga va rivojlantirishga, iqtisodiyotning barqaror hamda progressiv o'sishiga xizmat qiladi. Alohida xo'jalik yurituvchi subyektlarning va umuman mamlakatning iqtisodiy faoliyati asosan investitsiyalar hajmi va shakllari bilan tavsiflanadi. “Investitsiya” atamasi lotin tilidagi “invest” so'zidan kelib chiqqan bo'lib “qo'yish”, “mablag'ni safarbar etish”, “kapital qo'yilmasi” ma'nosini beradi. Investitsiya tushunchasiga ba'zi bir xalqaro ko'p tomonlama shartnomalarda ham ta'rif berib o'tilgan bo'lib, xususan, 1997-yilda qabul qilingan Investorlar huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi Moskva konvensiyasining 1-moddasiga muvofiq investitsiya bu investorlar tomonidan foyda olish yoki ijtimoiy samaraga erishish maqsadida moliyaviy va moddiy vositalarni shuningdek, mol-mulkka hamda intellektual mulkka bo'lgan huquqlarni agar ular mazkur shartnomaga a'zo davlatlarning milliy qonunchiligiga ko'ra muomaladan chiqarilmagan yoki muomalada bo'lishi cheklanmagan bo'lsa, turli faoliyat obyektlariga jalb qilishdir. Keng ma'noda investitsiya mablag'ni ko'paytirib va qaytarib olish maqsadida kapitalni safarbar etishni bildiradi. Ko'pgina hollarda “investitsiya” tushunchasi iqtisodiy va boshqa faoliyat obyektlariga kiritiladigan moddiy va nomoddiy ne'matlar hamda ularga doir huquqlar tarzida ta'riflanadi. Investitsiya deganda barcha turdagi milliy va intellektual boyliklar tushunilib, ular tadbirkorlik faoliyati obyektlariga yo'naltirilib daromad keltirishi yoki biror-bir ijobiy samaraga erishishi zarur. Investitsiya kiritishdan asosiy maqsad-daromad olish va ijobiy ijtimoiy samaraga erishishdir.

Kapital investitsiyalar jumlasiga asosiy fondlarni yaratish va takror ko'paytirishga, shu jumladan yangi qurilishga, modernizatsiya qilishga, rekonstruksiya qilishga, texnik jihatdan qayta jihozlashga, shuningdek moddiy ishlab chiqarishning boshqa shakllarini rivojlantirishga kiritiladigan investitsiyalar kiradi.

Aksiyalar, korporativ, infratuzilmaviy va davlat obligatsiyalariga, shuningdek qimmatli qog'ozlarning boshqa turlariga kiritiladigan investitsiyalar moliyaviy investitsiyalar jumlasiga kiradi.

Ijtimoiy investitsiyalar esa inson salohiyatini, ko'nikmalarini va ishlab chiqarish tajribasini rivojlantirishga, shuningdek nomoddiy boyliklarning boshqa shakllarini rivojlantirishga kiritiladigan investitsiyalarni o'z ichiga oladi.

Xalqaro investitsiyalar eng keng talqinda investitsiyalar bo'lib, ularni amalga oshirish turli davlatlarga tegishli bo'lgan ishtirokchilarning (rezident va nerezidentlarning ma'lum bir mamlakatga nisbatan) o'zaro aloqasini o'z ichiga oladi. Tor ma'noda xalqaro sarmoyalar - bu chet elga sarmoya yoki chet el sarmoyasi. Qanday bo'lmasin, investitsiya bu kapitalni keyinchalik uni ko'payishini hisobga olgan holda sarmoyadir. Shu bilan birga, kapitalning o'sishi investorga

joriy davrda mavjud mablag'larni iste'mol qilish uchun ishlatishdan bosh tortganligi uchun uni qoplashi, uni tavakkal qilish uchun mukofotlashi, kelgusi davrda inflyatsiyadan zararni qoplashi uchun yetarli bo'lishi kerak.

Xalqaro investitsion pozitsiya - mamlakatni dunyoning boshqa mamlakatlariga nisbatan moliyaviy holatini belgilovchi muhim ko'rsatkich bo'lib, xorijiy aktivlari (chet eldagi pul mablag'lari, mol-mulklar, berilgan qarzarlar, bankdagi omonatlar va boshqalar) va boshqa davlatlar oldidagi majburiyatlarini (xorijliklarning mamlakatdagi pul mablag'lari, ularning mol-mulkari, olingan qarzarlar, bankdagi omonatlar va boshqalar) o'z ichiga oladi. Mamlakat xalqaro investitsion pozitsiyasi turli sektorlarining (davlat, xususiy va boshqa sektorlarning) aktiv va majburiyatlarga bo'linib, to'g'ridan to'g'ri investitsiyalar, portfel investitsiyalari, boshqa investitsiyalar bo'yicha qoldiqlarni o'zida aks ettiradi. O'z navbatida, rezerv aktivlari bo'yicha qoldiqlari (majburiyatlar qismida muqobiliga ega bo'lmagani uchun) faqatgina aktivlar qismida ko'rsatiladi. Sof xalqaro investitsion pozitsiya (SXIP) – tashqi aktivlar va majburiyatlarni solishtirgan holda, mamlakatni “sof kreditor” yoki “sof qarzdor” ekanligini ko'rsatadi. Misol uchun, manfiy SXIP, davlatni “sof qarzdor”ligini bildirib, xorijiy davlatlarning mahalliy davlatdagi aktivlari, mahalliy mamlakatning xorijiy aktivlaridan ko'pligini anglatadi. Aksincha, ijobiy SXIP mahalliy davlatni “sof kreditor”ligini bildirib, mahalliy davlatning xorijiy aktivlari, xorijiy davlatlarning mahalliy mamlakatdagi aktivlaridan ziyodligini ko'rsatadi.

Xorijiy investitsiyalar O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, tayyor mahsulot ishlab chiqarish ko'lamini kengaytirish, eksport hajmini oshirishga imkon yaratayotganligiga amin bo'lish mumkin. To'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar oqimi kengayib va ortib borayotganligi mamlakatimizda amalga oshirilayotgan bozor islohotlarining to'g'riligi hamda samaradorligidan dalolatdir.

Xorijiy investorlar bilan qo'shma korxonalar tashkil qilish mamlakatimizga:

- yangi, zamonaviy texnika va texnologiyalarni respublika iqtisodiyotiga jalb qilish, ularni ishlab chiqarishga joriy qilish esa necha yillar davomida sifatsiz, xaridor talabiga javob bera olmaydigan mahsulotlar ishlab chiqaruvchi eski texnikalardan tezroq qutilish imkonini beradi;

- yangi ish joylari tashkil qilish va aholining ishsiz qismini ish bilan ta'minlash, shu bilan birga, xorijning ilg'or boshqaruv tajribasini joriy qilish imkonini beradi va shu orqali mehnat unumdorligi oshiriladi;

- jahon bozorida raqobatlasha oladigan sifatli mahsulotlarni ishlab chiqarish va ularni eksport qilish evaziga mamlakatga erkin konvertatsiya qilinadigan valyutalarning ko'proq kirib kelishini ta'minlaydi.

Davlat investitsiya siyosati hududlar, tarmoq va korxonalar investitsiya siyosatidan tarkib topib, ular o'zaro bog'liqdir. Hududlar investitsiya siyosati investitsiyani sarflashda aholi, hudud va investor manfaatlarini hisobga olgan holda samarali ishlatishga imkon beruvchi hududda olib boriladigan chora-tadbirlar majmui. Tarmoq investitsiya siyosati esa bu mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishini ta'minlovchi tarmoqlar, sanoat mahsulotlarini eksport qilish, import o'rnini bosuvchi ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish, ilmiy-texnika taraqqiyotini investitsiya yo'li bilan qo'llab-quvvatlash hisoblanadi.

Mamlakatlarni jahon iqtisodiyoti tizimiga qo'shilish va xalqaro investitsiya faoliyatini rivojlantirishning istiqbolli yo'nalishi maxsus zonalar tashkil etishdir. Bu xorijiy investorlarning qiziqish uyg'otadigan eng jozibali shakllardan biri bo'lib, bu tadbirkorlikni faollashtirish, eksport salohiyatini oshirish, bozor infratuzilmasini shakllantirish va iqtisodiyotning alohida mintaqalari va tarmoqlarini rivojlantirishni jadallashtirishga imkon beradi.

Kioto Protokolining Musaffo rivojlanish mexanizmi O'zbekiston Respublikasi hududida, mulkchilik shakllaridan qat'i nazar, yuridik shaxslar tomonidan xorijiy investorlarni jalb etgan holda jahon bozorida chiqindilar chiqarishning sertifikatlangan qisqartirishlarini sotib olishni

nazarda tutuvchi investitsiya loyihalarini tayyorlash va amalga oshirish uchun asos yaratadi.

Turli mamlakatlarda iqtisodiy zonalarni yaratish motivlari juda boshqacha. Ular sof erkin savdo zonasi yoki iqtisodiy faoliyatning barcha jihatlarini tartibga solinmaydigan maxsus zonalar sifatida yaratilishi mumkin. Siyosatlarini ichki bozorga yo'naltirilgan mamlakatlarda iqtisodiy zonalar qat'iy tartibga solinadi, investitsiya sohasida erkinlikka ega emas va kam faollik bilan rivojlanadi; agar mamlakat iqtisodiy siyosati tashqi iqtisodiyotga yo'naltirilgan bo'lsa va iqtisodiy zonani boshqarishga imkon qadar kam aralashishga urinishlar qilinsa, xorijiy investitsiyalar oqimi uchun qulay sharoitlar yaratiladi.

Biz uchun Xitoy tajribasi juda dolzarb bo'lib, bu yerda iqtisodiyotga bozor elementlarini joriy etish va chet ellik sheriklarga nisbatan ochiqlik XRX hukumatining eng muhim maqsadlariga aylandi. 80-yillarning boshlarida 4 ta iqtisodiy zona - Shenchjen, Juxay, Shantszhou va Xianmenlar tashkil etildi. Xitoyning eng yirik provinsiyasi: Guandun, Fujian, Tszansu provinsiyalari yirik eksperimental iqtisodiy zonalardan biriga aylantirildi, shu bilan birga iqtisodiyotning ochiqligini yanada kengaytirish maqsadida qirg'oq mintaqalarini rivojlantirish strategiyasi qayta ishlab chiqildi. Shunday qilib, 100 milliondan ortiq aholisi bo'lgan eksperimental iqtisodiy mintaqa yaratildi, bu Xitoyda obrazli ravishda “ochiq oyna” deb nomlanadi. Uni yaratishdan maqsad chet el kapitali va zamonaviy xorij texnologiyalaridan foydalanish, shu asosda iqtisodiyotning yirik eksport sektorini yaratishdir. Mutaxassislar fikriga ko'ra, Xitoyda iqtisodiy zonalarni yaratish tajribasini juda muvaffaqiyatli deb hisoblash mumkin, chunki ularni tashkil etish to'g'risida qaror qabul qilinganidan beri (1979 yil) o'tgan 10 yil ichida iqtisodiy zonalarga xorijiy investitsiyalar 2,5 mlrdni tashkil etgan. Bu belgilangan muddat davomida Xitoydagi barcha xorijiy investitsiyalarning jamiga to'g'ri keladi.

Chet elda investitsiya faolligining sabablaridan biri shundan iboratki, Janubi Sharqiy Osiyoda 30 million xitoyliklar o'z mamlakatlaridan tashqarida yashaydilar va ko'pincha biznesda muvaffaqiyatli bo'lishadi yoki Gongkong uchun odatiy hol sifatida Xitoy materigini boshqaradilar.

Darhaqiqat, birinchi bosqichda Janubiy-Sharqiy Osiyodan kelgan korxonalar Xitoyning iqtisodiy zonalarga pul qo'yadigan korxonalar orasida ustunlik qildi, faqat keyinchalik Amerika, Yevropa va Yaponiya korxonalari paydo bo'ldi.

Jahon sanoati yetakchilari mamlakatlarida iqtisodiy zonalarni tashkil etishning yetakchi maqsadi - bu milliy konsernlarning tashqi bozorga kirishini soddalashtirish, bu erkin savdo zonalarini shakllantirishda o'z aksini topmoqda. Ularning maksimal soni (130 dan ortiq) Amerika Qo'shma Shtatlarida qayd etilgan. O'z hududida eksport mahsulotlari boj olinmaydigan import birliklari bilan to'ldiriladi, ular marketing va muhandislik xizmatlarini oladi va faktoringni amalga oshiradi.

So'nggi o'n yillikda ilmiy va texnikaviy iqtisodiy zonalar juda jadal rivojlanmoqda, shu jumladan Kaliforniyadagi (AQSh) Silikon vodiysi kabi texnopolislar, bu ilmiy va ishlab chiqarish salohiyatining o'sishini va kashfiyotlarni ishlab chiqarishga joriy etish davrining qisqarishini ta'minlaydi.

So'nggi paytlarda, ayniqsa MDH mamlakatlarida qo'shma korxonalar yaratish va ularning ishlashi kabi xorijiy investitsiyalarning shakli keng tarqalmoqda. Qo'shma korxonalar - bu bir nechta mamlakatlardagi sheriklar o'rtasidagi hamkorlik shakli, ularning kapitalini qo'shma ishlab chiqarish-xo'jalik faoliyatini amalga oshirish, boshqarish va foydani investitsiya qilingan kapitalga mutanosib ravishda amalga oshirish uchun birlashtiradi. Qo'shma korxonani yaratish iste'mol bozorini to'ldirish, ilm-fan va texnikaning ilg'or yutuqlarini, ilg'or texnologiyalarni, boshqaruv tajribasini joriy etish, qo'shimcha moddiy va moliyaviy resurslarni jalb qilish, yutuqlarini rivojlantirishni jadallashtirish maqsadida mahsulot ishlab chiqarishga qaratilgan mahalliy fan va texnologiyalar, eksport bazasini kengaytirish va import ta'minotini optimallashtirish.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, rivojlangan mamlakatlar tajribasidan ma'lumki, xorij kapitali, xususan, to'g'ridan to'g'ri xorijiy investisiyalarni jalb etish investisiyalashda eng samarali vosita hisoblanadi. Aynan xorijiy investisiyalar mamlakatda iqtisodiy va texnologik jarayonini harakatlantiruvchi omili bo'lib xizmat qiladi. Jahon amaliyoti va tajribasidan kelib chiqib, biznesning investitsiya va innovatsion faoliyatiga to'sqinlik qilayotgan muammolarni endi oddiy vositalar bilan, ya'ni imtiyozlar berish yoki yangi deklarativ me'yorlarni nashr etish bilan hal qilishning imkoni yo'q. Xususiy investitsiyalarni faollashtirish uchun tadbirkorlik faoliyatini erkinlashtirish talab etiladi. Biznes bilan doimiy muloqot, muayyan sektorlarning rivojlanishiga to'sqinlik qiladigan to'siqlarni aniqlash va yengib o'tish bo'yicha astoydil ish olib borish kerak. Shu munosabat bilan quyidagi ikki yo'nalishlar bo'yicha faol ish olib borish orqali xorijiy investitsiyalar oqimini ko'paytirish mumkin. Birinchidan, iqtisodiy o'sishning bir maromdagi yuqori va barqaror sur'atlarini saqlab qolish uchun mamlakat iqtisodiyotining barqaror va raqobatbardosh, bank tizimi aktivlarining katta qismi xususiy investorlar qo'lida bo'lgan modelini shakllantirish zarur. Ikkinchidan, investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish va barqaror iqtisodiy o'sishning asosiy omillaridan biri bo'lgan infratuzilmaga yo'naltirilgan investitsiyalarining jadal o'sishini ta'minlash maqsadida davlat-xususiy sheriklik va loyihalarni moliyalashtirish vositalarini rivojlantirish orqali investitsiyaviy faoliyatni rag'batlantirish ham faol tarzda olib borish.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Odyagailo B.M. Xalqaro iqtisodiyot: Navch.posib. - K.: Znannya, 2006-yil. - 407 p.
2. Zubchenko, L.A. Chet el investitsiyalari: o'quv qo'llanma - Moskva: Knigodel.
3. Ivashenko A.G. Xorijiy investitsiyalar: darslik
4. Ivashenko A.G., Nikonov Y.I. - M.: Knorus, International Financial Markets: Textbook. manual / edit.
5. Internet ma'lumotlari.

## XALQARO INVESTITSION NIZOLARNI HAL ETISHNING HUQUQIY ASOSLARI

**Xalilov Shaxzod Majid o'g'li**

Toshkent viloyati yuridik texnikumi o'quvchisi

**Annotatsiya:** mazkur maqola xalqaro insvesimiyalarga oid yuzaga kegan nizolarni hal etishning huquqiy asoslari va tomonlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning nizolarini hal etish masalalarining o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilinadi

**Kalit so'zlar:** investitsiya, reinvestitsiyalar, xalqaro investitsiya, arbitraj, xalqaro investitsion nizo, investitsiya faoliyati.

Ma'lumki har bir davlat iqtisodiyotini mustahkamlashda yaratilgan investitsion sharoit muhim rol o'ynaydi.

Bozor iqtisodiyotini boshidan kechirayotgan davlatlarga iqtisodiyotini mustahkamlashda, shuningdek, mamlakat ichida o'rta va kichik biznesni, raqobat bozorini keng yo'lga qo'yishda moliyaviy jihatdan baquvvat xorijiy korxonalar, tashkilotlar, shirkatlar tomonidan kiritilayotgan turli mulk shaklidagi investitsiyalarga katta ehtiyoj sezadi.

Aynan davlat iqtisodiyotiga kiritilayotgan investitsiyalar bir necha yillar ichida davlat iqtisodiyotini tiklab olish kafolatini berishi mumkin, qachonki, investitsiyani keng jalb etgan davlat ichida investorlarga xalqaro standartlar sharoitiga mos keladigan sharoitlar yaratilgan bo'lsagina albatta.

Xorijiy investitsiyalar - bu chet el investorlari tomonidan yuqori darajada daromad olish, samaraga erishish maqsadida mutlaq boshqa davlat iqtisodiyotining, tadbirkorlik va boshqa faoliyatlariga safarbar etadigan barcha mulkiy, moliyaviy, intellektual boyliklardir.

“Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida”<sup>47</sup> O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 29-dekabr-aprelda qabul qilingan Qonunining 3-moddasida “investitsiyalar - investor tomonidan foyda olish maqsadida ijtimoiy soha, tadbirkorlik, ilmiy va boshqa faoliyat turlari obyektlariga tavakkalchiliklar asosida kiritiladigan moddiy va nomoddiy boyliklar hamda ularga bo'lgan huquqlar, shu jumladan intellektual mulk obyektlariga bo'lgan huquqlar, shuningdek reinvestitsiyalar hisoblanadi”.

Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, reinvestitsiyalar - investitsiyalardan olingan, tadbirkorlik faoliyati va boshqa faoliyat turlari obyektlariga kiritiladigan har qanday daromad, shu jumladan foyda, foizlar, dividendlar, royalti, litsenziya va vositachilik haqlari, texnik yordam, texnik xizmatlar uchun to'lovlar va haqlarning boshqa turlaridir.

Xorijiy investitsiyalarining umumiy ta'rifi F.Xeniusning 1947-yil AQShda chop etilgan tashqi savdo lug'atining 2-nashrida quyidagicha berilgan: “Xorijiy investitsiyalar – bu bir mamlakat hududidan ikkinchi mamlakat hududiga kiritilgan, eksport qilingan investitsiyalar”<sup>48</sup> hisoblanadi.

Ta'kidlash lozimki, ushbu sohada turli darajadagi nizolar vujudga kelishi mumkin. Xalqaro investitsiyalarga oid nizolar va ularni bartaraf etish yo'llarini tahlil etishda ikki va ko'p tomonlama shartnomalar, xalqaro konvensiyalar, xalqaro tashkilotlar hujjatlarini o'rganish ahamiyatli hisoblanadi. Investitsion nizolar tushunchasini ilmiy termin sifatida tahlil etish 1965-yilgi Vashington Konvensiyasining<sup>49</sup> qabul qilinishi va uning imzolanishidan keyin boshlangan desak, xato bo'lmaydi.

<sup>47</sup> O'zbekiston Respublikasining “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida”gi Qonuni, O'RQ-598-son.

<sup>48</sup> Самархужаев Б.Б. Инвестиции в Республике Узбекистан. Ташкент, 2003г. С.16. Dictionary of Foreign Trade. by F.Henus Sec/ Ed. N4.,1947, P.387.

<sup>49</sup> Республика Узбекистан присоединилась к настоящей Конвенции в соответствии с Постановлением Верховного Совета РУз от 7 мая 1993 года N 881-XII, Ратифицирована Постановлением ВС РУз от 6 мая 1994 г. N 1077-XII.

Chunki bu konvensiyaning mohiyati, uning asosiy mazmuni investitsion nizolarni hal etish, investitsion munosabatlarning ishtirokchilari – subyektlarining huquqini himoya qilish hamda ular o‘rtasidagi kelishmovchiliklarni bartaraf etishdan iborat.

Investitsiyaga oid nizolar savdo munosabatlarga oid nizo turlaridan bo‘lib, investitsiya faoliyatida o‘zaro munosabatlarga kirishuvchi tomonlar o‘rtasidagi turli ko‘rinishdagi kelishmovchiliklar yoki boshqa shaxslarning, davlatning noqonuniy aralashuvi natijasida yuzaga keladigan muammoli vaziyatlar tushuniladi.

Shuningdek, investitsiyaga oid nizolar xorijiy investorlarning mulklari o‘zlashtirish jarayonlari vujudga kelganda, tomonlardan birining, ya‘ni davlat, davlat tashkilotlari, vakolatli organlar, jismoniy shaxslar yoki xorijiy investorlar tomonidan asossiz to‘xtatilishi natijasida vujudga keladi.

Investitsion nizolar yoki kelishmovchiliklar investitsion faoliyatning turli bosqichlarida vujudga kelishi mumkin. Bunday nizolarning vujudga kelishi uzoq muddatli xalqaro iqtisodiy munosabatlarning tabiiy komponenti, ya‘ni shu munosabatlarda uchrab turadigan tabiiy holatlardan biri hisoblanadi. Ba‘zi kelishuvlarda majburiyatlar doirasida yoki kelishuvlar buzilganda nizoli holatlar vujudga kelishi mumkin. Bunday vaziyatlarda investorlar o‘zlari tanlagan yoki nizoni hal etishni boshqa usullaridan foydalanib, muammoni hal etadilar.

Xalqaro investitsiyaga oid munosabatlarda yuzaga kelgan nizolarni hal etish tartiblari xalqaro xususiy va ommaviy huquq normalar asosida, shuningdek, xalqaro normalar implementatsiya qilingan milliy qonunchilik normalari, kollizion normalar asosida amalga oshiriladi.

Ko‘p tomonlama xalqaro-huquqiy tartibga solish ko‘p tomonlama universal shartnoma-kelishuvlar asosida amalga oshiriladi. Xorijiy investitsiyalarga oid nizoli munosabatlarni hal etish masalalari bo‘yicha eng mashhur ko‘p tomonlama universal konvensiyalar doirasida 1965-yil “Davlatlar va xorijiy shaxslar o‘rtasida investitsion nizolarni hal qilish to‘g‘risidagi” Vashington konvensiyasi muhim ahamiyat kasb etadi.

Ushbu Konvensiya 1965-yil 18-martda Vashingtonda imzolash uchun ochib qo‘yilgan. Bunda shartlashuvchi ikkala davlat ushbu konvensiyaning ishtirokchisi bo‘lishi shart. “Davlatlar va xorijiy shaxslar o‘rtasidagi investitsiya nizolarini hal qilish tartibi to‘g‘risida”gi konvensiyani 1965-yil 18-martda Vashingtonda Xalqaro tiklanish va taraqqiyot bankining a‘zolari bo‘lgan davlatlar imzoladi va u 1966-yil 14-oktabrdan boshlab kuchga kirdi.

Mazkur Konvensiya Xalqaro tiklanish banki sa‘y-harakatlarining samarasi bo‘lib, davlatlar bilan xususiy investorlar o‘rtasida yuzaga keladigan har qanday shartnoma qoidalarini buzishni xolisona ko‘rib chiqishning amaliy mexanizmini yaratish maqsadida imzolangan. Konvensiyada investitsiya nizolarini hal qilish mexanizmi Investitsiya nizolarini hal qilish bo‘yicha xalqaro markazning faoliyati orqali amalga oshirilishi nazarda tutilgan.

Bu konvensiyaga binoan unga qo‘shilgan davlatlar va shu davlatlar investorlari nizolarni hal qilish uchun Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki (XTTB) qoshida investitsion nizolarni muvofiqlashtirish bo‘yicha Investitsion nizolarni hal etuvchi Xalqaro markazga murojaat qilishi mumkin. Bu muassasaga murojaat etishning o‘ziga xos shartlari bo‘lib, ulardan biri nizoni o‘zaro Markazning Kelishtiruv yoki Arbitraj sudi yordamida hal qilishga yozma roziligi hisoblanadi.

Investitsiyalarga oid nizolarni hal etuvchi xalqaro markaz kotibiyati bosh kotib, bosh kotibning bir yoki bir nechta o‘rinbosarlari hamda kotibiyat shtatidan iborat. Ta‘kidlash kerakki, xalqaro markaz to‘liq xalqaro huquq subyekti hisoblanadi. Markaz shartnomalar tuzish, turar va noturar mulk sotib olishi va egalik qilish, protsessual harakatlarni amalga oshirish tartibini o‘rnatish huquqlarga ega.

Ahdlashayotgan davlatlar va Ahdlashayotgan davlat shaxslari o‘rtasida nizolarni Markazda hal etish bo‘yicha yozma kelishuv bo‘lgan taqdirda, ularning munosabatlari doirasida yuzaga



keladigan investitsion nizolarni hal qilish Markaz vakolatlari hisoblanadi. O‘zaro kelishuvga asoslangan taraflarning bir tomonlama bekor qilish huquqi mavjud emas.

Ushbu Konvensiyaga asosan Arbitrajda muhokama qilish bo‘yicha Markazga yuborish to‘g‘risidagi rozilik shundayki, nizolarni boshqa usullar bilan hal etish bekor qilinib, boshqa usullar nazarda tutilmaganligidan iborat. Ahdlashayotgan davlatlarning har biri ushbu Konvensiyaga asosan nizolarni Arbitrajda muhokama etish bo‘yicha Rozilikni dastlabki ma‘muriy yoki sud hisoblanadi.

Har bir ahdlashuvchi davlat ushbu Konvensiyaga asosan chiqarilgan Arbitraj qarorlarini tan oladilar, majburiyatlarni, shuningdek pul majburiyatlarini o‘zining hududidagi sud organlari chiqargan qarorlarini bajargani kabi amalga oshiradilar.


**Arbitraj qarorining ijrosini qaysi davlat hududida ta‘minlanishi lozim bo‘lsa shu davlatda sud qarorlarining ijrosini ta‘minlash to‘g‘risidagi qonunchilik asosida amalga oshiriladi.**

E‘tibor berish kerakki, tomonlar o‘rtasida nizoni arbitrajda ko‘rish to‘g‘risida bitim bo‘lmasa, u arbitrajda ko‘rilmaydi. Bu asosiy fundamental tushunchadir. Bu bitim asosiy shartnomada, alohida badda arbitraj haqidagi shartlar shaklida yoki asosiy shartnomaga qo‘shimcha tarzda tuzilgan arbitraj haqidagi shartnoma shaklida tuzilgan bo‘lishi mumkin. Arbitraj haqidagi alohida shartnoma aksariyat hollarda nizo vujudga kelgandan so‘ng tuziladi. Tomonlarning bitimi arbitrlarning huquqiy vakolatlarini belgilaydi hamda arbitrning ushbu vakolatlardan chetga chiqishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

Ta‘kidlash lozimki, nizolarni oldini olishda investorlar uchun yaratilgan huquqiy asoslar va sharoitlar muhim hisoblanadi. Hozirgi kunda O‘zbekistonda qulay investitsiya muhiti, samarali imtiyozlar va preferensiyalar tizimi yaratilgan. Mamlakatimizda shu o‘rinda xalqaro investitsiya huquqi, jumladan, xorijiy investorlar huquqlarining kafolatlari, investorlarga muayyan preferensiyalar berish to‘g‘risidagi qoidalar va boshqa jihatlarni o‘zida mujassam etgan ilg‘or investitsiya qonunchiligi amal qilmoqda.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni.
3. O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi.
4. Вашингтонская конвенция о порядке разрешения инвестиционных споров между государствами и иностранными литсами от 18.03.1965 г.



**2-YO'NALISH:**  
**INVESTITSIYA FAOLIYATINING**  
**XALQARO HUQUQIY**  
**KAFOLATLARI,**  
**XORIJIY INVESTITSIYALARNI**  
**JALB ETISHNING HUQUQIY**  
**ASOSLARI**

## SANOAT ISHLAB CHIQRISH FAOLLIGINI OSHIRISH ORQALI HUDUDLARGA INVESTITSIYALARNI JALB QILISH IMKONIYATLARI

**Shukurov Ulug'bek Shokirovich**

Qarshi davlat universiteti tayanch doktoranti

**Annotatsiya:** Maqolada mamlakat iqtisodiyotiga investitsiyalarni jalb etishda sanoat tarmog'ining o'rnini va hududlarda bu tarmoqning rivojlanish tendensiyalari tahlil qilingan. Natijalar asosida yaqin istiqbolda O'zbekiston hududlarini sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda yuqori salohiyatli hududlarga aylantirish imkoniyatlari asoslangan.

**Kalit so'zlar:** investitsiya, investitsion faoliyat, sanoat, hudud, fizik hajm, faollik.

Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi 26-maqсадida mamlakatda investitsiya muhitini yanada yaxshilash va uning jozibadorligini oshirish, kelgusi besh yilda 120 milliard AQSH dollari, jumladan 70 milliard dollar xorijiy investitsiyalarni jalb etish choralari ko'rish nazarda tutilgan [1]. Ushbu maqsadni amalga oshirishda hududlar sanoat salohiyati va faolligini oshirish zarurati tug'ilib, bunda to'g'ridan to'g'ri (bevosita) mahalliy va xorijiy investitsiyalarni jalb etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bevosita investitsiyalar odatda ko'plab xalqaro tashkilotlar, siyosatchilar va iqtisodchilar tomonidan iqtisodiy o'sishni ta'minlash, shuningdek, rivojlanayotgan mamlakatlarning iqtisodiy muammolarini hal qilish omili sifatida ko'rib chiqiladi. Mavjud tadqiqotlarga ko'ra, bevosita investitsiyalar samarali ravishda joylashtirilganda mamlakat va hududlarning iqtisodiy o'sishini yuzaga keltiradi. Ba'zi ilmiy manbalarda esa bevosita investitsiyalar iqtisodiy o'sishga erishishning eng samarali usuli deb hisoblanadi.

O'zbekistonda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish faolligini aniqlashda (1) tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, (2) ishlab chiqaradigan sanoat, (3) elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash, (4) suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish tarmoqlarining ko'rsatkichlaridan foydalanish maqsadga muvofiq.

So'nggi besh yillikka nazar tashlansa, O'zbekiston iqtisodiyotida sezilarli tarkibiy o'zgarishlar amalga oshirildi. YAIM tarkibida mahsulotlarga sof soliqlarning ulushi 3,8 foiz bandiga kamayib, tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati 92,8 foizga yetdi. Bu esa mamlakatda ishlab chiqarish jarayonini rag'batlantirishga qaratilgan iqtisodiy siyosat yuritilayotganidan dalolat beradi.

YAIM (tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati) tarkibida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining ulushi 5,3 foiz bandiga qisqardi. E'tiborlisi shuki, bu tarmoqning ulushi 2012–2016-yillarda (avvalgi besh yillik) 0,5 bandga qisqargan. Bu o'zgarishlar tarkibiy o'zgarishlarning so'ngi yillardagi jadal sur'atini ko'rsatadi. Bu davrda sanoat (qurilishni qo'shgan holda)ning ulushi 7,9 bandga ortib (avvalgi besh yillikda 2,1 foiz bandi), 34,5 foizni tashkil etdi. Bu o'sishda qurilish tarmog'ining ulushi 1,3 foiz bandini tashkil etdi. Xizmatlar sohasida esa 2014-yildan buyon ulushning qisqarish tendensiyasi davom etib kelmoqda. Tahlil davrida bu tarmoqning ulushi 2,8 bandga qisqargan.

Tadqiqotda O'zbekiston hududlarining sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish faolligi sanoat mahsuloti hajmi va ishlab chiqarishning o'sish sur'atlari asosida baholandi (jadval).

O'sish subindeksi bo'yicha tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, Namangan, Qashqadaryo, Samarqand va Sirdaryo viloyatlarida tadqiq qilinayotgan davrda jadal sur'atlarda o'sish kuzatilgan. Pandemiya davrida subindeksning qiymatlari 7 ta hududda o'tgan yilga nisbatan kamaygan. Xususan, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish bo'yicha yetakchi hududlarning 2 tasi (Toshkent shahri va Toshkent viloyati)da ham pasayish kuzatilgan.

### O'zbekiston hududlarining sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish faolligi<sup>50</sup>

Ko'rsatkichlar	O'sish subindeksi			Hajm subindeksi			Faollik indeksi		
	Yillar								
Hududlar	2019	2020	2021	2019	2020	2021	2019	2020	2021
Qoraqalpog'iston Respublikasi	0,20	0,19	0,37	0,12	0,11	0,12	0,15	0,14	0,21
Andijon	<b>0,56</b>	0,21	0,35	0,20	0,18	0,13	0,33	0,19	0,21
Buxoro	0,28	0,36	0,25	0,13	0,09	0,08	0,18	0,18	0,14
Farg'ona	<b>0,50</b>	0,20	0,32	0,15	0,16	0,15	0,27	0,17	0,21
Jizzax	0,21	<b>0,49</b>	0,46	0,01	0,01	0,02	0,08	0,18	0,17
Namangan	0,28	<b>0,43</b>	<b>0,55</b>	0,07	0,10	0,12	0,14	0,22	0,27
Navoiy	0,23	<b>0,52</b>	0,20	<b>0,47</b>	<b>0,57</b>	<b>0,51</b>	<b>0,38</b>	<b>0,56</b>	<b>0,40</b>
Qashqadaryo	0,02	0,29	<b>0,60</b>	0,42	0,18	0,25	0,28	0,22	0,37
Samarqand	0,21	0,32	0,44	0,10	0,10	0,10	0,14	0,18	0,22
Sirdaryo	0,29	0,32	0,53	0,16	0,15	0,16	0,21	0,21	0,29
Surxondaryo	0,35	0,28	0,46	0,02	0,02	0,01	0,14	0,11	0,17
Toshkent	0,30	0,26	0,47	<b>0,61</b>	<b>0,59</b>	<b>0,61</b>	<b>0,50</b>	<b>0,47</b>	<b>0,56</b>
Toshkent sh.	0,32	0,18	0,49	<b>0,75</b>	<b>0,89</b>	<b>0,87</b>	<b>0,60</b>	<b>0,64</b>	<b>0,74</b>
Xorazm	<b>0,47</b>	0,24	<b>0,64</b>	0,03	0,04	0,04	0,19	0,11	0,25

O'sish subindeksi bo'yicha tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, Namangan, Qashqadaryo, Samarqand va Sirdaryo viloyatlarida tadqiq qilinayotgan davrda jadal sur'atlarda o'sish kuzatilgan. Pandemiya davrida subindeksning qiymatlari 7 ta hududda o'tgan yilga nisbatan kamaygan. Xususan, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish bo'yicha yetakchi hududlarning 2 tasi (Toshkent shahri va Toshkent viloyati)da ham pasayish kuzatilgan. 2021-yilga kelib Xorazm, Qashqadaryo va Namangan viloyatlari bu ko'rsatkich bo'yicha yetakchi hududlarga aylanishgan. Tadqiqot natijasida aniqlangan faollik indeksi tahliliga ko'ra, Toshkent shahri, Toshkent va Navoiy viloyatlari sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish bo'yicha eng faol hududlar hisoblanadi. Shuningdek, tahlil davrida Qashqadaryo, Sirdaryo, Xorazm va Namangan viloyatlarida sanoat faolligi ortib, reytingda yuqoriroq pog'onalariga ko'tarilgan. Eng katta o'zgarish Namangan viloyatida sodir bo'lib, hudud faollik bo'yicha reytingda 5 pog'onaga (6-o'rin) yuqorilagan. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, yaqin istiqbolda mazkur hududlarni mamlakatning sanoat tarmog'idagi yuqori salohiyatga ega hududlarga aylantirish imkoniyati yuqori. Mazkur uslub yordamida nafaqat sanoat ishlab chiqarish bo'yicha yetakchi hududlar, balki kelajakda mamlakat sanoatiga yuqori hissa qo'shishi mumkin bo'lgan potensial hududlarni ham aniqlash mumkin. Bizningcha, bu yo'nalishdagi tahlillar natijasi mintaqaviy siyosat va hududiy investitsiya dasturlarining ustuvor yo'nalishlari, hududlar sanoatining barqaror rivojlanayotgan sohalarini aniqlash va ularni iqtisodiyotning drayveri sifatida belgilash maqsadlariga xizmat qiladi.

Shunday qilib, hududlarda to'g'ridan to'g'ri investitsiyalarni jalb qilishni yanada kuchaytirishda quyidagi ustuvor vazifalarga e'tibor qaratish lozim:

- hududlarda iqtisodiy o'sishni ta'minlaydigan, xorijiy va ichki investitsiyalarni jalb qilishning "drayver" sohalarini bo'yicha puxta iqtisodiy asoslangan investitsion loyihalarni ishlab chiqishni tashkil etish, ularni monitoring qilish, investorlarga huquqiy ko'mak berish ishlarini amalga

<sup>50</sup> Muallif ishlanmasi

oshirish maqsadida viloyat markazlarida malakali mutaxassislarni jalb etgan holda “Loyihalar markazi”ni tashkil etish;

- hududlarda istiqbolli, dolzarb investitsion loyihalarni tezkor moliyalashtirish uchun viloyatlarda mahalliy byudjetning orttirib bajarilgan qismidan ustav kapitali 10,0 mln AQSH dollaridan kam bo'lmagan maxsus investitsion fond tashkil qilish;

- kredit foizlarini pasaytirish, kreditlash tizimini takomillashtirish, ishlab chiqarish infratuzilmasiga ulanishning osonlashtirish, bino va yer ajratish mexanizmini takomillashtirish, ishonchli, moliyaviy barqaror hamkorlarni jalb etishga ko'maklashish orqali investorlar faolligini kuchaytirishga olib keladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022-yildagi “2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi PF-60 sonli Farmoni.
2. Lewis W.A. Economic development with unlimited supplies of labor //Journal of the Manchester school of economics and social studies. – 1954. № 22(2), P. 139–191.
3. Fei J.C.H., Ranis G. A theory of economic development. // The American Economic Review. – 1961. № 51(4), P. 533-565.
4. Baumol W. Macroeconomics of unbalanced growth: the anatomy of urban crisis // American Economic Review. – 1967. № 57(3), P. 415-426.
5. Kovaleva Ye.B., Рыткина S.A. Промышленное производство как приоритетное направление развития региональных пространственно-отраслевых структур в рыночной среде // Вопросы инновационной экономики. – 2021. – Том 11. – № 2. – S. 613-626. doi: 10.18334/vinec.11.2.112108

## RESPUBLIKAMIZDA INVESTITSIYANING QURILISHDAGI O‘RNI

**Xudoyorov Umidjon Dagarovich**

Sirdaryo viloyati Yuridik texnikumi o‘qituvchisi  
3-darajali adliya maslahatchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasida investitsiyalar sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar, sohalarga jalb qilinayotgan xorijiy, to‘g‘ridan to‘g‘ri investitsiyalar shu qatorda qurilish sohasiga jalb qilinayotgan investitsiyalar yuzasidan tahliliy ma‘lumotlar hamda muallif takliflari keltirib o‘tilgan.

**Kalit so‘zlar:** xorijiy investitsiyalar, qurilish, investitsion muhit.

Butun dunyoda har qanday zamonda iqtisodiyotga yangi texnologiyalarni jalb qilish, sohalarga investitsiyalarni jalb qilish, iqtisodiyotni modernizatsiya qilish asosiy yo‘nalishlaridan hisoblangan.

Ayni shu sababli mamlakatning turizm sohasida, ijtimoiy-iqtisodiy sohasida, asosiy yo‘nalishlaridan hisoblangan qurilish sohasiga ham albatta keng qamrovli kapital jalb qilish lozim.

Yurtimizda ham jahon miqyosidagi talablarga javob beradigan investitsion muhit yaratilgan. Hukumat tomonidan investorlar uchun barcha qulayliklar yaratib berilgan. Shu sababli ham, yurtimizda 2017–2021-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasini kompleks rivojlantirish dasturi bo‘lmish “Harakatlar strategiyasi”ni birinchi yo‘nalishi ham aynan ushbu sohaga yo‘naltirilgan bo‘lib, davlat va jamiyat qurilishiga keng imkoniyatlar yaratishga e‘tibor qaratilishi ko‘zda tutilgan edi. 2019-yilning yanvar-aprel oylarida O‘zbekiston Respublikasida jami 21240,8 mlrd. so‘m qurilish ishlari bajarilgan bo‘lib, o‘sish sur‘ati o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 107,9 %ni tashkil etdi.

Joriy davrda jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 5723,8 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

O‘tgan yilning mos davri bilan solishtirganda 4,8 %ga ko‘p ishlar bajarilgan bo‘lib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi o‘tgan yildagi ko‘rsatkich darajasidan 0,9 %ga kamaygan.

Jami qurilish ishlari hajmi - 21240,8 mlrd. so‘m O‘tgan yilning mos davriga nisbatan - 107,9 %, Nodavlat mulkchiligidagi tashkilotlar - 20208,7 mlrd. so‘m. Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar - 1032,1 mlrd. so‘m 2019-yilning yanvar-aprel oylarida qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 6 578,0 mlrd. so‘mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2019-yil oylariga nisbatan 100,8 hajmidagi ulushi 2,9 % punktga ko‘paydi. O‘zbekiston Respublikasida qurilish ishlari ko‘p ulushi Toshkent shahar 25,6 %i yoki 2019%), Navoiy (hududdagi jami qurilish ishlari o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 138,9 marta ko‘p)ga aprel oylarida, jami qurilish ishlari hajmi 2019-yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan 8 %ga ko‘p bajarilgan bo‘lib, jami qurilish ishlari 2019-yilning mos davridagi ko‘rsatkich darajasidan 28,2 %ni tashkil etdi.

Yuqoridagi raqamlardan ham ko‘rishimiz mumkinki yildan yilga yurtimizdagi investitsion muhit yaxshilangani hamda aholining daromadlari oshganini xulosa qilib olishimiz mumkin.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida investitsiya jarayonlarini tartibga solish, yo‘nalishi va taqsimlanishini to‘g‘ri aniqlashning iqtisodiy asoslarini yaratish, ishlab chiqilgan siyosatni amalga oshirishga imkon tug‘diruvchi shart-sharoitni ta‘minlash investitsiya siyosatining muhim vazifalaridan biri bo‘lib, iqtisodiy o‘sishga aynan shu yo‘l bilan erishish mumkin.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi joriy davrda qurilish ishlarini bajargan boshqa tashkilotlarga nisbatan keskin oshganligi kuzatildi.

Ular hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 55,2 %i to‘g‘ri kelib, o‘tgan yilning mos davridagi ko‘rsatkichga nisbatan 0,2 % punktga kamaydi.

Shuningdek, ular hissasiga to‘g‘ri kelgan qurilish ishlari hajmi o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 108,1 %ni tashkil etgan holda 11727,6 mlrd. so‘m miqdorida qayd etildi.

Norasmiy sektor hissasiga to‘g‘ri kelgan qurilish ishlari ulushi o‘tgan yildagi ko‘rsatkichga nisbatan 1,0 % punktga ko‘payib, 17,8 %ni tashkil etdi va 3789,4 mlrd. so‘m miqdorida qayd etildi. O‘tgan yilning mos davridagi hajm bilan solishtirganda 112,5 %ni tashkil etgani kuzatildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish loyihalarini ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo‘ljallangan binolar qurish hamda yashash uchun mo‘ljallanmagan binolarni qurish bo‘yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.

Binolar va inshootlarni qurish bo‘yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi ulushi 27,3 %ni tashkil etib, o‘tgan yildagi ko‘rsatkichga nisbatan 1,9% punktga kamaydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to‘g‘ri kelgan ulush o‘tgan yildagi ko‘rsatkichga nisbatan 0,2% punktga kamayib, 49,2%ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa o‘tgan yildagi ko‘rsatkichga nisbatan 2,1% punktga ko‘payib, 23,5% ni tashkil etdi.

*Xulosa.* Bugungi kunda 37 mingdan ortiq qurilish tashkilotlari mavjud bo‘lib, koronavirus pandemiyasi paytida o‘tkazilgan monitoring kuzatuvlariga ko‘ra qurilish ishlari vaqtincha to‘xtaganligi aniqlandi, natijada mavjud vaziyat mamlakatdagi qurilish ishlari hajmiga salbiy ta‘sir ko‘rsatdi.

Natijada, qurilish ishlari umumiy hajmining asosiy qismini, ya‘ni 54,3 %ini tashkil etuvchi kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan ishlar o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 15,6 %ga kamaydi.

Pandemiya natijasida yuzaga kelgan moliyaviy qiyinchiliklar tufayli “Obod qishloq” va “Obod mahalla” kabi davlat dasturlari, shuningdek, 2020-yil uchun investitsiya dasturiga kiritilgan ijtimoiy obyektlar qurilishi to‘xtatildi. Bu, o‘z navbatida, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan mamlakatimizda amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmining pasayishiga salbiy ta‘sir ko‘rsatdi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasining 2017 yilgi Investitsiya dasturi to‘g‘risida”gi qarori
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil uchun mo‘ljallangan Oliy Majlisga Murojaatnomasi
3. Investitsiya va Lizing asoslari - K.Z. Homitov, A.N. Mahmudov

## O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING TO‘G‘RIDAN TO‘G‘RI INVESTITSIYALAR JAMG‘ARMASI FAOLIYATI TO‘G‘RISIDA

**Jahongir Xolbayev O‘ktamovich**

Sirdaryo viloyati yuridik texnikumi direktori  
ikkinchi darajali yurist

**Lapasov Dilshod Abdusaid o‘g‘li**

Sirdaryo viloyati yuridik texnikumi o‘qituvchisi  
uchinchi darajali yurist

***Annotatsiya:** O‘zbekiston Respublikasining to‘g‘ridan to‘g‘ri investitsiyalar jamg‘armasi tashkil etilganligi. Respublika iqtisodiyotining ishlab chiqarish salohiyatini kengaytirishga, shuningdek, uning raqobatbardoshligini yanada oshirishga to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar va innovatsion texnologiyalarni jalb qilish. Xususi mahalliy va xorijiy investorlar bilan uzoq muddatli o‘zaro foydali sheriklik munosabatlarini yo‘lga qo‘yish orqali investitsiya faoliyatini rag‘batlantirish va rivojlantirish.*

***Kalit so‘zlar:** Kapital, AQSh, Muassis, Kompaniya, Shartnoma, Investitsiya, Deklaratsiya.*

O‘zbekiston Respublikasining to‘g‘ridan to‘g‘ri investitsiyalar jamg‘armasi faoliyatini samarali tashkil etish maqsadida. Kapitali 1 milliard AQSh dollari miqdorida bo‘lgan va quyidagi asosiy vazifalar yuklangan O‘zbekiston Respublikasining to‘g‘ridan to‘g‘ri investitsiyalar jamg‘armasi tashkil etilganligi.

Respublika iqtisodiyotining ishlab chiqarish salohiyatini kengaytirishga, shuningdek, uning raqobatbardoshligini yanada oshirishga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar va innovatsion texnologiyalarni jalb qilish. Xususi mahalliy va xorijiy investorlar bilan uzoq muddatli o‘zaro foydali sheriklik munosabatlarini yo‘lga qo‘yish orqali investitsiya faoliyatini rag‘batlantirish va rivojlantirish.

Investitsiya takliflarini baholash, investitsiya loyihalarini ishlab chiqish va amalga oshirish. Investitsiya muhitini yaxshilashga, shuningdek, respublikaning investitsiya salohiyati va imkoniyatlarini xorijda keng targ‘ib qilishga ko‘maklashish.

**Jamg‘armaning muassisi** — O‘zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi;

**boshqaruvchi kompaniya** — Jamg‘armaning muassisi bilan tuzilgan investitsiya deklaratsiyasini o‘z ichiga oluvchi ishonchli boshqarish shartnomasiga muvofiq Jamg‘armani boshqaruvchi yuridik shaxs;

**ishonchli boshqarish shartnomasi** — boshqaruvchi kompaniya va Jamg‘arma muassisi o‘rtasida tuziladigan ishonchli boshqarishda cheklashlarni, taqdirlash va xarajatlarni qoplash tartibini, shartnomaning asoslari va uni to‘xtatish shartlarini, tomonlarning javobgarligini va O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa qoidalarni nazarda tutuvchi shartnoma;

**investitsiya deklaratsiyasi** — investitsiyalarning maqsadlarini, investitsiya siyosati yo‘nalishlarini, boshqaruvchi kompaniyaning investitsiya faoliyatidagi cheklashlarni, deklaratsiyaning amal qilish muddatini va O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlarida belgilanadigan boshqa qoidalarni tavsiflovchi hujjat;

**alohida bank hisob raqami** — Jamg‘armani ishonchli boshqarish jarayonida olingan pul mablag‘lari hamda daromadlar hisobi yuritiladigan boshqaruvchi kompaniyaning alohida bank hisob raqami.

Jamg‘arma yuridik shaxs tashkil etmagan holda tashkil etiladi.



Quyidagilar Jamg'armaning asosiy vazifalari hisoblanadi:

respublika iqtisodiyotining ishlab chiqarish salohiyatini kengaytirishga, shuningdek, uning raqobatbardoshligini yanada oshirishga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va innovatsion texnologiyalarni jalb qilish;

xususiy mahalliy va xorijiy investorlar bilan uzoq muddatli o'zaro foydali sheriklik munosabatlarini yo'lga qo'yish orqali investitsiya faoliyatini rag'batlantirish va rivojlantirish;

investitsiya takliflarini baholash, investitsiya loyihalarini ishlab chiqish va amalga oshirish;

investitsiya muhitini yaxshilashga, shuningdek, respublikaning investitsiya salohiyati va imkoniyatlarini xorijda keng targ'ib qilishga ko'maklashish.

O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi Jamg'armaning yagona muassisi hisoblanadi hamda investorlar tomonidan Jamg'arma bilan birgalikda loyihalarga investitsiya kiritish to'g'risida qaror qabul qilingandan so'ng boshqaruvchi kompaniyaning so'rovi bo'yicha Jamg'arma kapitalini shakllantiradi.

Jamg'arma faoliyati muddati 15 yilni tashkil etadi, ushbu muddat boshqaruvchi kompaniyaning faoliyati natijalari asosida Jamg'arma muassisining qarori bilan uzaytirilishi mumkin.

Jamg'armaning pul mablag'lari ishonchli boshqarish shartnomasiga asosan boshqaruvchi kompaniyaga ishonchli boshqarish uchun beriladi.

Boshqaruvchi kompaniya Jamg'armaning mol-mulki hisobiga O'zbekiston Respublikasida, shu jumladan, xorijiy shaxslar bilan birgalikda investitsiya loyihalarini moliyalashtirib, Jamg'armaning ishonchli boshqaruvchisi sifatida ish ko'radi.

Boshqaruvchi kompaniya:

foйда keltiradigan investitsiyalarni amalga oshirish;

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotiga xorijiy va mahalliy investitsiyalarni, shuningdek, yuqori malakali kadrlar va innovatsion texnologiyalarni jalb etish;

xorijiy investorlar bilan o'zaro munosabatlarni rivojlantirish orqali investitsiya faoliyatini rag'batlantirish;

qulay investitsiya muhitini yaratish va yoyish, O'zbekiston Respublikasining investitsiya imkoniyatlari ijobiy idrok etilishi maqsadida ish ko'radi.

Jamg'arma va boshqaruvchi kompaniyaning faoliyati O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi tomonidan muvofiqlashtiriladi. Boshqaruvchi kompaniya aksiyadorlik jamiyati shaklida tashkil etiladi. O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi boshqaruvchi kompaniyaning yagona aksiyadori hisoblanadi. Boshqaruvchi kompaniyaning Jamg'armani ishonchli boshqarish bo'yicha faoliyati O'zbekiston Respublikasining vakolatli organi tomonidan belgilangan tartibda beriladigan litsenziya asosida amalga oshiriladi.

Boshqaruvchi kompaniya aksiyadorlarning majburiyatlari bo'yicha javob bermaydi. Aksiyadorlar boshqaruvchi kompaniyaning majburiyatlari bo'yicha javob bermaydi. Boshqaruvchi kompaniyaning aktivlari ustav kapitaliga kiritilgan ulushlar, boshqaruvchi kompaniya faoliyatidan olinadigan daromadlar, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa mablag'lar hisobiga amalga oshiriladi.

Boshqaruvchi kompaniyaning mol-mulki Jamg'arma mol-mulkidan, shuningdek, boshqaruvchi kompaniyada ishonchli boshqaruvdagi boshqa mol-mulkdan alohida bo'ladi.

Mol-mulknı ishonchli boshqarishdan olingan daromadlar Jamg'armaning mulki tarkibiga kiritiladi va Jamg'armaning investitsiya deklaratsiyasiga muvofiq ishlatiladi. Boshqaruvchi kompaniyaning xarajatlari boshqaruvchi kompaniyaning boshqarish uchun taqdirlash puli sifatida oladigan daromadlari va uning ustav kapitali, shuningdek, qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa mablag'lar hisobiga qoplanadi.

Quyidagilar boshqaruvchi kompaniyaning asosiy vazifalari hisoblanadi:

mahalliy hamda xorijiy investorlar va moliyaviy institutlar bilan birgalikda foyda keltiradigan investitsiyalarni O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyoti tarmoqlarida amalga oshirish;

ishlab chiqarish salohiyatini kengaytirish uchun to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar va innovatsion texnologiyalarni jalb qilish, shuningdek, respublika iqtisodiyotining raqobatbardoshligini yanada oshirish;

xususi mahalliy va xorijiy investorlar bilan uzoq muddatli o‘zaro manfaatli sheriklik munosabatlarini shakllantirish orqali investitsiya faoliyatini rag‘batlantirish va rivojlantirish;

investitsiya takliflarini baholash, investitsiya loyihalarini ishlab chiqish va amalga oshirish;

investitsiya muhiti yaxshilanishiga ko‘maklashish, shuningdek, respublikaning investitsiya salohiyati va imkoniyatlarini chet elda keng targ‘ib qilish.

Yuklangan vazifalarga muvofiq boshqaruvchi kompaniya quyidagi funksiyalarni bajaradi:

investitsiya kiritish uchun ustuvor yo‘nalishlarni hisobga olgan holda investitsiya loyihalarini tanlab oladi, moliyaviy qoplashni, tijorat jozibadorligi va ularni amalga oshirish samaradorligini belgilaydi;

yirik institutsional va strategik xorijiy investorlar bilan hamkorlikni tashkil qiladi;

xorijiy investorlar bilan birgalikda xavf-xatarni teng taqsimlash prinsipi asosida kapital qaytarilishining zarur darajasini ta‘minlaydigan investitsiya loyihalarini izlash, tahlil qilish va baholashni, tizimlashtirish, moliyalashtirishni amalga oshiradi va monitoring olib boradi;

Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi, kuzatuv kengashi va bosh direktor boshqaruvchi kompaniyaning boshqaruv organlari hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi investitsiyalar va tashqi savdo vaziri boshqaruvchi kompaniyaning kuzatuv kengashi raisi hisoblanadi. Kuzatuv kengashi tarkibiga mustaqil a‘zolar (direktorlar), shu jumladan, xorijiy a‘zolar kiradi.

Boshqaruvchi kompaniyaning boshqaruv kengashi, agar uning majlisida uning a‘zolari umumiy sonining uchdan ikki qismi ishtirok etsa, qaror qabul qilishga vakolatlidir. Qarorlar O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlariga yoxud boshqaruvchi kompaniyaning ustaviga muvofiq boshqa ovozlar talab qilinmasa, majlisda ishtirok etayotgan kuzatuv kengashi a‘zolarining oddiy ko‘pchilik ovozi bilan qabul qilinadi.

Bosh direktor boshqaruvchi kompaniyaning umumiy faoliyatiga rahbarlik qiladi, kuzatuv kengashi va aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi vakolatiga taalluqli bo‘lgan masalalarni hal etish bundan mustasno.

Xulosa. Jamg‘armani va boshqaruv kompaniyasini qayta tashkil etish va tugatish O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 4-apreldagi 153-sonli qarori.
2. Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 18-maydagi 420-son qarori.
3. O‘zbekiston Respublikasining 2014-yil 9-dekabrda O‘RQ-380-sonli «Investitsiya faoliyati to‘g‘risida» qonuni.
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 28-oktabrdagi 239-sonli «Tovarlar (ishlar, xizmatlar)ga tartibga solinadigan narxlar (tariflar)ni deklaratsiya qilish (tasdiqlash) va belgilash tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori

## PROSPECTS AND CHALLENGES FOR LOCAL AND FOREIGN INVESTORS IN UZBEKISTAN: LEGAL FRAMEWORK AND INVESTMENT CLIMATE

**Adilbekova Aziza Vladimirovna**

English language teacher in  
Qashqadarya Law college

**Abstract:** *This article discusses the prospects and challenges for the development of local and foreign investors in Uzbekistan. The government of Uzbekistan has introduced various measures to promote investment in the country, including policies to encourage small and medium-sized enterprises and investment incentives for foreign investors. However, the development of local and foreign investors still faces challenges, such as limited access to finance and a poorly developed legal framework. To address these challenges, the government needs to improve access to finance for local investors, improve the legal framework for investors. The article emphasizes the importance of a stable legal framework that protects investors' rights, transparency and accountability in investment regulations, and effective dispute resolution mechanisms.*

**Key words:** *Uzbekistan, local investors, foreign investors, legal framework, investment incentives, access to finance, economic growth, regional integration, dispute resolution, transparency, accountability.*

**Introduction:** The development of local and foreign investors in any country is crucial for its economic growth and progress. Local investors play a critical role in the development of the domestic economy, while foreign investors bring in the much-needed foreign capital and knowledge. Uzbekistan, a Central Asian country, has been actively encouraging foreign investment in recent years, as part of its overall economic reforms. The government of Uzbekistan has introduced several measures to attract foreign investors while also promoting the development of local investors. This article aims to provide an overview of the prospects for further development of local and foreign investors in Uzbekistan.

**Prospects for the Development of Local Investors in Uzbekistan:**

The development of local investors is essential for any country's economic growth and stability. In Uzbekistan, the government has been implementing various measures to promote the growth of local investors. The government has introduced several policies to encourage the development of small and medium-sized enterprises (SMEs) in the country, which are an essential source of local investment. The government has also taken steps to improve the investment climate in the country, such as reducing bureaucracy and simplifying regulations. These measures are expected to attract more local investors, leading to the development of the domestic economy.

However, the development of local investors in Uzbekistan still faces several challenges. One of the primary challenges is the lack of access to finance. Many local investors face difficulties in accessing finance from banks, which limits their ability to invest in new projects. Additionally, the legal framework for local investors in Uzbekistan is not well developed, and there is a lack of protection for investors' rights. These challenges need to be addressed to further develop local investors in Uzbekistan.

**Prospects for the Development of Foreign Investors in Uzbekistan:**

Foreign investors play a crucial role in the economic development of any country. Uzbekistan has been actively promoting foreign investment in recent years, with the government introducing several measures to attract foreign investors. The government has introduced several investment incentives, such as tax exemptions, customs duty exemptions, and streamlined

procedures for obtaining permits and licenses. These incentives are expected to attract more foreign investors to Uzbekistan, leading to increased foreign investment and economic growth. Additionally, Uzbekistan has been actively pursuing regional integration, which is expected to increase foreign investment in the country. Uzbekistan is a member of the Central Asia Regional Economic Cooperation (CAREC) program, which aims to promote regional economic cooperation and integration. The country is also a member of the Shanghai Cooperation Organization (SCO), which aims to promote economic, political, and security cooperation among its member countries. These regional integration efforts are expected to increase foreign investment in Uzbekistan, leading to increased economic growth and development.

#### Challenges Faced by Foreign Investors in Uzbekistan:

While the government of Uzbekistan has been actively promoting foreign investment in the country, foreign investors still face several challenges. One of the primary challenges is the legal framework for foreign investors in Uzbekistan. The legal framework is not well developed, and there is a lack of protection for foreign investors' rights. These challenges need to be addressed to further develop foreign investment in Uzbekistan.

The prospects for the development of local and foreign investors in Uzbekistan are promising, but several challenges need to be addressed to fully realize their potential. The government of Uzbekistan has been actively promoting investment in the country, with several measures introduced to encourage local and foreign investment. However, the legal framework for investors in Uzbekistan is not well developed. Addressing these challenges is crucial for the further development of local and foreign investors in Uzbekistan, leading to increased economic growth and development in the country.

To address the challenges facing local investors, the government of Uzbekistan needs to improve access to finance for local investors. The government can do this by introducing policies that promote access to finance, such as providing loan guarantees and reducing collateral requirements. The government also needs to improve the legal framework for local investors, including ensuring the protection of investors' rights and enforcing regulations to prevent fraud and corruption.

Similarly, to address the challenges facing foreign investors, the government needs to improve the legal framework for foreign investment. The government can do this by introducing policies that protect foreign investors' rights, including the right to repatriate profits and investments. In addition to these measures, the government of Uzbekistan needs to continue promoting investment in the country through regional integration efforts. Uzbekistan's membership in CAREC and the SCO provides opportunities for increased investment and economic growth. The government should continue to actively participate in these organizations and promote regional economic cooperation and integration.

S. Sornarajah's book, "The International Law on Foreign Investment," provides a useful framework for understanding the legal aspects of foreign investment. The book emphasizes the need for a stable legal framework that protects foreign investors' rights and encourages investment. It also emphasizes the importance of transparency and accountability in investment regulations and highlights the need for effective dispute resolution mechanisms.

The law of Uzbekistan also plays a critical role in promoting investment in the country. The government has introduced several laws to encourage investment, such as the Law on Investment and the Law on Foreign Investment. These laws provide the legal framework for investment in Uzbekistan and include provisions that protect investors' rights and ensure transparency and accountability in investment regulations.

In conclusion, the prospects for the further development of local and foreign investors in Uzbekistan are promising, but several challenges need to be addressed to fully realize their

potential. The government of Uzbekistan needs to continue promoting investment in the country through policies that improve access to finance, improve the legal framework for investors, and address corruption and bureaucracy. Additionally, the government needs to continue promoting regional integration efforts to increase foreign investment in the country. By addressing these challenges, Uzbekistan can further develop local and foreign investment, leading to increased economic growth and development.

### Used literature

1. Sornarajah, M. (2010). The international law on foreign investment. Cambridge University Press.
2. Law of the Republic of Uzbekistan on Investments (1998).
3. Law of the Republic of Uzbekistan on Foreign Investments (1998).
4. World Bank. (2021). Doing Business 2021: Uzbekistan.
5. United Nations Conference on Trade and Development. (2021). World Investment Report 2021.
6. Ministry of Investments and Foreign Trade of Uzbekistan. (2021). Investment Guide to Uzbekistan.
7. Organization for Security and Cooperation in Europe. (2019). Investment Climate in Uzbekistan

## O‘ZBEKISTONNING JAHON INVESTITSIYA MUHITIDAGI O‘RNI

**Baxtiyorov Jamoliddin Baxtiyor o‘g‘li**

Qashqadaryo viloyati yuridik texnikumi o‘qituvchisi

**Annotatsiya:** *Pandemiya va undan keyin jahon iqtisodiyotidagi turg‘unlik va O‘zbekistonda biznes yuritish muvaffaqiyatining asosiy omillari va O‘zbekiston iqtisodiyoti jahonda mutlaq energetika mustaqilligi, Qishloq xo‘jaligi sanoat ishlab chiqarishi, O‘zbekiston eng boy qishloq xo‘jaligi salohiyati, xalqaro hamjamiyatning mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida tutgan o‘rni, xalqaro munosabatning huquqiy jarayoni, ushbu sohani tartibga soluvchi normalar, xorijiy mamlakatlar qonunchiligi tahlili hamda bu o‘rganish va tahlillar asosida taklif va ilmiy tavsiyalar bayon qilingan.*

**Kalit so‘zlar:** *Xalqaro munosabatlar, o‘zaro hamkorlik, xalqaro normalar, xalqaro tashkilotlar, o‘zaro manfaatli hamkorlik, harakatlar strategiyasi, Bosh Assambleya, o‘zgartirishlar.*

Pandemiya va undan keyin jahon iqtisodiyotidagi turg‘unlik O‘zbekiston iqtisodiyotiga va 2016-yilda boshlangan bozor islohotlari dinamikasiga o‘z ta‘sirini ko‘rsatdi. Aholi salomatligini saqlash va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash masalalarini hal etish ustuvor vazifaga aylandi va katta resurslarni safarbar qilishni talab qildi. Karantin choralari, ichki blokirovkalar va sayohat cheklovlari, ayniqsa, yilning birinchi yarmida ko‘plab xususiy korxonalarining bankrot bo‘lishiga va ishsizlikning oshishiga olib keldi. Tog‘-kon sanoati, xizmat ko‘rsatish, transport va turizm sohalari eng ko‘p zarar ko‘rdi. Yilning ikkinchi yarmida esa karantin cheklovlari yumshatilgach, tadbirkorlik faolligi tiklana boshladi. Hukumat pandemiyaning biznesga ta‘sirini yumshatish, jumladan, vaqtinchalik soliq ta‘tillari, imtiyozli kreditlar berish va boshqa imtiyozlarni joriy etish choralari ko‘rdi.

Umuman olganda, O‘zbekiston iqtisodiyoti 2020-yilda yalpi ichki mahsulotning 1,6 foizga o‘sishi bilan nisbatan barqarorlikni namoyish etdi. 2020-yildagi qiyinchiliklarga qaramay, to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar oqimi davom etdi – 2020-yilda 6,6 milliard dollarga yaqin bo‘lgan bo‘lsa, 2019-yildagi 9,3 milliard dollar – bu, shubhasiz, pandemiyadan oldingi islohotlar natijasidir. O‘zbekistonda 2021-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra 11780dan ortiq xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar faoliyat ko‘rsatmoqda, shundan 2020-yilda 1399 tasi tashkil etilgan. Hukumat import o‘rnini bosuvchi va eksportni diversifikatsiya qilish siyosatini qo‘llab-quvvatlash maqsadida investorlarni qayta ishlash va ishlab chiqarish tarmoqlarini rivojlantirishga rag‘batlantirgan bo‘lsa-da, bu borada e‘tiborga sazovor bo‘ldi. Xizmat ko‘rsatish, chakana savdo va bank sohalari to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalarning ko‘payishi. Noyabr oyida O‘zbekiston London fond birjasiga AQSh dollari va O‘zbekiston so‘midagi ikki transhli suveren xalqaro obligatsiyalarni muvaffaqiyatli joylashtirdi.

Zamonaviy O‘zbekiston – Markaziy Osiyoning markazida joylashgan, butun mintaqa barqarorligi va iqtisodiy rivojlanishini ta‘minlovchi yetakchi sanoat davlatidir.

O‘zbekistonning zamonaviy iqtisodiyoti xorijiy kompaniyalar uchun taqdim etayotgan afzalliklari qatorida siyosiy va makroiqtisodiy barqarorlik, qulay iqlim sharoiti, mehmondo‘st va mehnatkash xalqi va boshqalarni alohida ta‘kidlash mumkin.

Afzalliklar qatorida O‘zbekistonda biznes yuritish muvaffaqiyatining asosiy omillari quyidagilardan iborat: boy resurs bazasi, yirik mintaqaviy bozorlar markazida qulay geografik joylashuv, O‘zbekistonning quruqlik va havo kommunikatsiyalari tarmog‘iga integratsiyalashgan transport-logistika tizimi, respublikaning ko‘p tarmoqli ishlab chiqarish bazasi va ilmiy-intellektual, kadrlar salohiyati xalqaro ahamiyatga ega,

Xomashyoning keng assortimentidan foydalanish xomashyo va materiallarni tashish xarajatlarini sezilarli darajada kamaytirish hisobiga mahsulot tannarxini maksimal darajada

optimallashtiradi, yuqori qo‘shimcha qiymatga ega va mahalliyashtirish darajasidan yuqori bo‘lgan mahsulotlarni ishlab chiqarish bilan chuqur qayta ishlash imkoniyatini beradi.

Respublikada 2800dan ortiq foydali qazilma konlari va istiqbolli ko‘rinishlari aniqlangan bo‘lib, mamlakatimizning umumiy mineral-xom ashyo salohiyati qariyb 3,5 trillion AQSh dollarini tashkil etadi. O‘zbekiston ko‘plab pozitsiyalar, jumladan, metall bo‘lmagan va metall minerallar, qishloq xo‘jaligi xom ashyosi bo‘yicha dunyoda yetakchi o‘rinlardan birini egallaydi. Xususan, mis zaxiralari – 11-o‘rin, oltin qazib olish bo‘yicha – 9-o‘rin, uran – 8-o‘rin, paxta tolasi – 5-o‘rin.

O‘zbekiston iqtisodiyoti jahonda mutlaq energetika mustaqilligi bilan ajralib turadigan kam sonli iqtisodiyotlardan biridir. Respublika sanoati tabiiy gaz, neft va neft mahsulotlari, ko‘mir va elektr energiyasi bilan to‘liq ta‘minlangan. Bu yerda 188 ta neft, gaz va kondensat, 3 ta ko‘mir konlari o‘rganilgan.

O‘zbekiston uran zaxiralari va qazib olish bo‘yicha yetakchi o‘nta davlat qatoriga kiradi. O‘zbekistonning jami energiya zaxiralari iqtisodiyotning kamida 100 yillik ehtiyojlarini qoplash uchun yetarli.

Mamlakatda ishlab chiqarilayotgan elektr energiyasi respublikaning o‘sib borayotgan ehtiyojlarini to‘liq qoplaydi va rivojlangan mamlakatlar sanoat iste‘molchilari tomonidan to‘lanadigan o‘rtacha narxdan 4,5 barobar arzon narxda.

Muqobil energiya manbalari, jumladan, qattiq maishiy chiqindilarni qayta ishlash natijasida olinadigan quyosh, shamol, har yili 51 milliard tonnadan ortiq neft ekvivalentida energiya ishlab chiqarish imkonini beruvchi cheksiz imkoniyatlar tufayli qo‘shimcha imkoniyatlar yaratilmoqda.

Qishloq xo‘jaligi sanoat ishlab chiqarishi uchun muhim xom ashyo yetkazib beruvchi hisoblanadi. Qulay iqlim sharoiti tufayli O‘zbekiston eng boy qishloq xo‘jaligi salohiyatiga ega: mamlakat to‘qimachilik sanoatida paxta tolasi ishlab chiqarish bo‘yicha beshinchi o‘rinda turadi, yiliga 10 million tonnadan ortiq meva va sabzavot yetishtirish salohiyatiga ega, har yili 10 ming tonnagacha havoda quritilgan ipak qurti pillasini bozorga chiqaradi.

O‘zbekistonning keng savdo bozorlariga yaqinligi va Yevro Osiyo multimodal kommunikatsiya tizimiga integratsiyalashgan rivojlangan transport infratuzilmasi ham sarmoyaviy va savdo-iqtisodiy hamkorlik istiqbollari belgilab beradi. Xorijiy kompaniyalar O‘zbekistonga sarmoya kiritish orqali 5 ta eng yirik va tez rivojlanayotgan bozorga chiqish imkoniyatiga ega bo‘ladilar – bular Markaziy va Sharqiy Yevropa, Janubiy va Janubi-Sharqiy Osiyo, Yaqin Sharqda 300 milliondan ortiq aholiga ega bo‘lgan MDH davlatlari.

Shu bilan birga, O‘zbekistondan tovarlarni yetkazib berish va mamlakatimiz hududi orqali tranzit tashish vaqtini va xarajatlarini sezilarli darajada qisqartiruvchi rivojlangan multimodal tarmoq, shuningdek, dunyoning 44 ta davlati bilan eng qulay davlat rejimini o‘rnatish to‘g‘risidagi kelishuvlar hamda Erkin MDHning 12 davlati o‘rtasida tashkil etilgan savdo hududi O‘zbekistonda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning tashqi bozorlarda raqobatbardoshligini sezilarli darajada oshiradi.

Ma‘lumki, xorijiy investorlar uchun mehnat resurslari ham muhim ahamiyatga ega. G‘arb va Sharq chorrahasida joylashgan dunyoning eng zich joylashgan va ko‘pmillatli davlatlaridan biri bo‘lgan O‘zbekiston tarixan mamlakatimizni yuksak ilmiy-tadqiqot markazlari “qo‘rg‘oniga” aylantirgan yetakchi ilmiy-ta‘lim muassasalari to‘plangan maskan bo‘lib kelgan malakali, professional kadrlarni yetishtirib bergan.

Bugungi kunda O‘zbekistonda 91 ta oliy ta‘lim muassasasi, jumladan, Buyuk Britaniya, Singapur, Italiya, Rossiyaning yetakchi universitetlari filiallari faoliyat ko‘rsatmoqda. Universitetlarimizning yarmi texnik, maxsus sanoat yo‘nalishlari bo‘yicha mutaxassislar tayyorlashga ixtisoslashgan.

O‘zbekistonning tarixan shakllangan boy ilmiy madaniyati, ko‘p tarmoqli ilmiy va amaliy tashkilotlarning keng tarmog‘i iqtisodiyotni rivojlantirishning ilg‘or innovatsion mexanizmlarini rivojlantirish uchun obyektiv shart-sharoitlar yaratadi. 1943-yildan buyon dunyoning yetakchi ilmiy bazalaridan biri – 18 ta ilmiy-tadqiqot institutini birlashtirgan O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi faoliyat yuritayotgan O‘zbekiston mintaqadagi “innovatsiyalar markazi” hisoblanadi.

O‘zbekistonning ishlab chiqarish va eksport salohiyatini yuksaltirish zarurati shundan dalolat beradiki, O‘zbekiston dunyoning 5 ta eng yirik va jadal rivojlanayotgan bozorlari – MDH, Sharqiy va Janubi-Sharqiy Osiyo bozorlari markazida joylashgan. Janubiy Osiyo, jumladan Afg‘oniston, Yaqin Sharq, Markaziy va Sharqiy Yevropa.

Bu bozorlardagi raqobat, bugungi sharoitda xorijiy kompaniyalar, jumladan, ispan kompaniyalari O‘zbekistonning mutlaq va qiyosiy afzalliklaridan foydalangan holdagina g‘alaba qozonishi mumkin.

Avvalo, bu respublikaning yuqoridagi mintaqalar o‘rtasidagi barcha savdo yo‘llari chorrahasida joylashgan qulay geografik joylashuvi, O‘rta Osiyo, jumladan, Sharqiy Yaqin Sharq, Shimoliy Hindiston va G‘arbiy mintaqalar chegaralaridan ancha uzoqda joylashgan bozorlarni qamrab olgan rivojlangan multimodal tarmoqdir.

Markaziy Osiyo va MDHda jadal o‘rib borayotgan va ko‘p jihatdan qoplanmagan bozorlarni rivojlantirish uchun misli ko‘rilmagan shart-sharoitlar ham O‘zbekiston ishlab chiqaruvchilarining aholisi bo‘lgan Markaziy Osiyo bozorlariga bojsiz kirish imkoniyatlari bilan bog‘liq. 60 million va 300 million aholiga ega MDH.

Qonunga ko‘ra, O‘zbekiston xorijiy va mahalliy xususiy tadbirkorlik subyektlarining tadbirkorlik korxonalarini tashkil etish va ularga egalik qilish, haq to‘lanadigan faoliyatning aksariyat shakllari bilan shug‘ullanish huquqini kafolatlaydi. Biroq, bir qancha tarmoqlarda davlat monopoliyalari keng tarqalganligi sababli, haqiqatda ham ayrim tarmoqlarda tadbirkorlik korxonalarini tashkil etish huquqi cheklangan. GOU yirik davlat monopoliyalarining, ayniqsa transport, bank, energetika va paxta sohasidagi rolini qayta ko‘rib chiqish jarayonini boshladi. Prezident Mirziyoyev 2020-yilda davlatning iqtisodiyotdagi ishtirokini qisqartirish bo‘yicha chora-tadbirlar, jumladan, davlat korxonalari faoliyatida monopoliyaga qarshi muvofiqlik tizimini joriy etish, 39 ta davlat xo‘jaligini optimallashtirilgan korporativ boshqaruv tizimini qayta tashkil etish, 548 ta davlat korxonasi va davlat mulkini xususiyashtirish bo‘yicha ko‘rsatmalar berdi. Davlat korxonalarini qayta tashkil etishning ushbu ulkan dasturi yirik davlat monopoliyalarini, jumladan, eng yirik tog‘-kon kompaniyasini, energetika sohasidagi milliy monopoliyalarni, axborot, texnologiya va aloqa sektorini va pochta operatorlarini, kimyo zavodlarini, milliy havo va temir yo‘l kompaniyalarini, avtomobilsozlik kompaniyalarini, banklarni, sug‘urta firmalari va boshqa ilgari stoldan tashqari davlat aktivlari. Prezident Sh.M.Mirziyoyev “O‘zpxtasanoat” davlat aksiyadorlik jamiyatining paxta xomashyosi savdosi bo‘yicha monopoliyasini rasman tugatdi va xususiy investorlarga paxta sohasida klasterlar deb ataladigan yaxlit qiymat zanjiri tizimini yaratish huquqini berdi. Klasterlar korxonalarga paxta yetishtirish, terib olish, qayta ishlash va eksportni davlat korxonalari tomonidan boshqariladigan ta‘minot zanjirlaridan mustaqil ravishda boshqarish imkonini beradi. Davlat hali ham rangli metallar va minerallar kabi ba‘zi tovarlarni eksport qilishning mutlaq huquqini saqlab qoladi. Nazariy jihatdan, xususiy korxonalar xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushlarini erkin tashkil etishi, sotib olishi va tasarruf etishi mumkin, ammo amalda buni amalga oshirish qiyin, chunki O‘zbekistonda qimmatli qog‘ozlar bozori hali ham rivojlanmagan.



### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Luenberger, DG (1998). Investment Science. Oxford University Press. pp. 1–2. ISBN 978-0195108095. Retrieved 1 March 2023.
2. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 25.12.2019 yildagi O‘RQ-598-son. (Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 26.12.2019-y., 03/19/598/4221-son; Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son, 07.06.2022-y., 03/22/775/0477-son; 31.12.2022-y., 03/22/812/1145-son)
3. Robert H. Hillman, “Limited Liability in Historical Perspective”, (Washington and Lee Law Review, Spring 1997), Benedikt Koehler, “Islamic Finance as a Progenitor of Venture Capital”, (Economic Affairs, December 2009).
4. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.

## YANGI O‘ZBEKISTONDA INVESTITSIYA FAOLIYATINING XALQARO HUQUQIY KAFOLATLARI HAMDA ULARGA DOIR KIBERMAKONDAGI KIBERXAVFSIZLIK MASALALARI

**Jumayev Bekzod Baxtiyor o‘g‘li**

Buxoro viloyat yuridik texnikumi

“Xususiy huquqiy fanlar” kafedrası o‘qituvchisi

**Annotatsiya:** *O‘zbekiston Respublikasining 1992-yil 2-mart kuni Birlashgan Millatlar Tashkiloti a‘zolicigiga qabul qilinishi, tashqi siyosiy faoliyat hamda mamlakatimizning yaqin qo‘shni va boshqa hamkor davlatlar bilan strategik sheriklik munosabatlari yoritilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *tashqi siyosat, konsepsiya, investitsiya, xalqaro huquq, kibermakon, kafolat, konvensiya, kibexavfsizlik.*

“O‘zbekiston Respublikasining 1992-yil 2-mart kuni Birlashgan Millatlar Tashkiloti a‘zolicigiga qabul qilinishi davlatimizni xalqaro huquqning teng huquqli subyekti sifatida maqomini belgiladi. Bu xalqaro maqom mamlakat Konstitutsiyasida belgilangan respublika tashqi siyosatining fundamental prinsiplarini mustaqil amalga oshirishga mustahkam asos yaratdi. Xususan, O‘zbekiston xalqaro maydonda ko‘plab suveren davlatlarning mustaqilligini tan oldi, - deb davom etdi ekspert. - Mazkur jarayon avval Oliy Majlis qarorlari asosida amalga oshirildi. Respublika BMT a‘zolicigiga qabul qilingach va 1992-yil 8-dekabr kuni Konstitutsiya qabul qilinganidan so‘ng esa xorijiy mamlakatlar bilan diplomatik munosabatlar o‘rnatish masalasi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari asosida tasdiqlanmoqda. Shu paytgacha qadar O‘zbekiston 137 ta davlat bilan diplomatik aloqalar o‘rnatdi. Mustaqillik yillarida mamlakatimiz tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy munosabatlarning to‘la huquqli a‘zosi sifatida xorijiy sheriklar bilan o‘zaro manfaatli hamkorlikning shartnomaviy–huquqiy bazasini shakllantirdi va uni o‘zaro manfaatli sohalarida rivojlantirmoqda. Binobarin, xalqaro shartnomalar xalqaro huquqning asosiy manbalari bo‘lib, davlatlararo munosabatlarning huquqiy asoslarini shakllantiradi hamda tomonlar majburiyatlarining barqarorligi uchun kafolat hisoblanadi.<sup>51</sup>

Mustaqillikning dastlabki yillarida O‘zbekistonning ko‘plab davlatlar bilan ikki tomonlama xalqaro shartnomalari, shuningdek, BMT va boshqa xalqaro tashkilotlarning universal konvensiyalari ratifikatsiyalari Oliy Majlis va Prezident qarorlari asosida amalga oshirildi. Buning negizida xalqaro huquqning va mustaqil davlatning umum e‘tirof etilgan qoidalari O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, xususan, uning tashqi siyosat bobida, Oliy Majlis va Prezidentning tashqi siyosiy faoliyat sohasidagi konstitutsiyaviy vakolatlarida mustahkamlandi.

O‘zbekistonda xalqaro shartnomalar sohasini tartibga soluvchi ilk normativ-huquqiy hujjat 1993-yil 7-may kuni qabul qilingan qonun bo‘lib, u O‘zbekiston Respublikasi bilan xalqaro moliya institutlari o‘rtasidagi xalqaro zayom va kafolatli shartnomalar hamda bitimlar tuzish va denonsatsiya qilishni tartibini belgiladi. Keyinchalik 1995-yil 22-dekabr kuni “O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari to‘g‘risida”gi Qonuni qabul qilindi. Mazkur qonunning ijrosini ta‘minlash doirasida Vazirlar Mahkamasining bir necha qarorlari qabul qilindi. Biroq O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari to‘g‘risidagi avvalgi qonunchilik hujjatlarida xalqaro shartnomalarni huquqiy va boshqa ekspertizadan o‘tkazishning predmeti belgilanmagan, xalqaro shartnomalarni bajarilishini ta‘minlash va bu jarayon ustidan kuzatuv olib borish mexanizmi yetarli shakllantirilmagan hamda xalqaro hamkorlikning shartnomaviy-huquqiy bazasini inventarizatsiya qilish kabi masalalarga e‘tibor qaratilmagan edi. Ushbu

<sup>51</sup> [https://dunyo.info/uz/site/inner?slug=yangi\\_o%E2%80%98zbekiston\\_zamonaviy\\_tashqi\\_siyosatining\\_xalqaro-huquqiy\\_asoslari\\_mustahkamlanmoqda-VD0](https://dunyo.info/uz/site/inner?slug=yangi_o%E2%80%98zbekiston_zamonaviy_tashqi_siyosatining_xalqaro-huquqiy_asoslari_mustahkamlanmoqda-VD0)

masalalarni huquqiy jihatdan tartibga solish hamda mustaqil O‘zbekistonning shartnomaviy-huquqiy amaliyotida to‘plangan tajribani inobatga olib, 2019-yil 6-fevral kuni “O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari to‘g‘risida”gi yangi Qonun qabul qilindi.<sup>52</sup>

Mazkur hujjat O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlangan mamlakatni yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi doirasida ishlab chiqilgan bo‘lib, uning asosiy maqsadi respublikada amalga oshirilayotgan keng qamrovli ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarga mos tashqi siyosatning shartnomaviy-huquqiy asoslarini shakllantirishdan iborat edi. Qonunning «to‘g‘ridan to‘g‘ri amal qilishi»ni ta‘minlash maqsadida avval amalda bo‘lgan 5 ta normativ-huquqiy hujjat – 2 ta qonun va 3 ta qonunchilik hujjati unga birlashtirildi. Qabul qilingan yangi qonun o‘z xususiyatiga ko‘ra dunyoning 116 davlati ishtirokchi hisoblangan 1969 yildagi “Xalqaro shartnomalar huquqi to‘g‘risida”gi Vena konvensiyasining implementatsiya qilingan akti sifatida namoyon bo‘ladi. 2012 yil 10 sentabr kuni qabul qilingan

O‘zbekistonning tashqi siyosiy faoliyat konsepsiyasida xalqaro hamkorlikning shartnomaviy-huquqiy bazasini kuchaytirish va takomillashtirish, ikki va ko‘p tomonlama istiqbolli bitimlar tuzish yagona davlat siyosati yuritishning siyosiy-diplomatik vositalaridan biri sifatida belgilangan. 2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi asosida davlatimiz tomonidan yaqin va uzoq xorijiy davlatlar hamda xalqaro tashkilotlar bilan aloqalarni yanada mustahkamlash va kengaytirishga qaratilgan tashqi siyosiy faoliyat dunyo hamjamiyati tomonidan alohida e‘tirof etilib, xalqaro maydonda O‘zbekiston tomonidan bildirilgan tashabbuslar qo‘llab-quvvatlanmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan mintaqaviy va global muammolar yechimi bo‘yicha xalqaro tashabbuslar asosida BMT Bosh Assambleyasining 4 ta maxsus rezolyutsiyasi qabul qilindi. Bugungi kunda mamlakatning xalqaro-huquqiy hujjatlari doirasi sezilarli darajada kengayib, yildan yilga salmog‘i ham tobora ortib bormoqda. O‘zbekiston Respublikasining shartnomaviy-huquqiy bazasini 4 ming 200 dan ortiq hujjat tashkil qilib, ulardan 500ga yaqini universal va mintaqaviy xarakterga ega ko‘p tomonlama xalqaro shartnomalardir. 3 ming 700 dan ortig‘i esa ikki tomonlama xalqaro hujjatlar hisoblanadi. Xususan oxirgi besh yil davomida xorijiy hamkorlar bilan 781 ta xalqaro hujjatlar imzolandi, shuningdek, O‘zbekiston 26 ta universal xalqaro shartnomalarning a‘zosiga aylandi.<sup>53</sup> Ushbu xalqaro shartnomalar asosan investitsiyalarni rag‘batlantirish va o‘zaro himoya qilish, savdo-iqtisodiy, harbiy-texnikaviy, moliyaviy, madaniy-gumanitar, ilmiy-texnikaviy hamkorlik, soliq, mehnat, transport, energetika, atrof-muhitni muhofaza qilish, huquqiy yordam ko‘rsatish, jinoyatchilikka qarshi kurashish kabi sohalarga oid.

Shu o‘rinda mamlakatimizning yaqin qo‘shni va boshqa hamkor davlatlar bilan strategik sheriklik munosabatlari aynan ikki tomonlama hujjatlar bilan tartibga solinishini alohida ta‘kidlash joiz. Xususan, so‘nggi yillarda Turkmaniston (2017), Qirg‘iziston (2017), Turkiya (2017), Tojikiston (2018), Vengriya (2021), Pokiston (2021) bilan munosabatlar strategik sheriklik darajasiga ko‘tarildi va avval strategik sheriklik munosabatlari o‘rnatilgan AQSH, Yaponiya, Ozarbayjon, Rossiya, Janubiy Koreya, Hindiston, Xitoy, Qozog‘iston davlatlari bilan bunday munosabatlarning yanada mustahkamlanishida xalqaro hujjatlar huquqiy tayanch vazifasini bajarib kelmoqda.

Mustaqillikning ilk yillarida mazkur sohadagi asosiy e‘tibor xorijiy davlatlar bilan hamkorlikning shartnomaviy-huquqiy bazasini shakllantirishga qaratilgan bo‘lsa, bugungi kundagi dolzarb vazifa “Harakatlar strategiyasi” va “Yil dasturlari”da belgilangan vazifalar yechimiga qaratilgan xalqaro hamkorlikni yanada huquqiy jihatdan takomillashtirish va xalqaro norma ijodkorligida faol ishtirok etish hisoblanadi. O‘tgan davr mobaynida

<sup>52</sup> <http://invest-in-uzbekistan.org/uz/novoe-v-zakonodatelstve/ob-investitsiyah-i-investitsionnoj-deyatelnosti/>

<sup>53</sup> <https://miit.uz/oz/menu/pravovye-osnovy-vneshneekonomicheskoy-brdeyatelnosti-i-deyatelnosti-ministerstva>

“O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari to‘g‘risida”gi Qonunga muvofiq xalqaro shartnomalarni Tashqi ishlar vazirligi bilan kelishishning ikki bosqichli tizimi joriy etilishi ancha dolzarb va muhim amaliyotni hayotga tatbiq etdi. Jumladan, qonunda birinchi marta xalqaro shartnomalarning amaliy ahamiyatini o‘rganish, ular matnlarini huquqiy, iqtisodiy, tilshunoslik nuqtai nazaridan va boshqa turdagi ekspertizadan o‘tkazish bo‘yicha qoidalar belgilangani ularning sifatiga bo‘lgan talabning kuchaytirilishiga xizmat qilmoqda. Yana bir yangilik, qonunda xalqaro aktlarning (deklaratsiya, qo‘shma bayonot, anglashuv memorandumlari va boshqalar) huquqiy holatiga ham aniqlik kiritildi, ularni qabul qilish tartibi soddalashtirildi. Bu turdagi hujjatlar hozirgi davrda mamlakatning xalqaro aloqalari faollashuvi sharoitida tezkorlik va moslashuvchanlikni ta‘minlashga, davlatlar bilan dastlabki kelishuvlarga kechiktirmasdan erishishga imkon bermoqda. Mamlakatimizning yangi tashqi siyosiy faoliyati sharoitida xalqaro shartnomalarni tuzish va imzolashni rejalashtirish bo‘yicha hamda kuchga kirgan xalqaro shartnomalarni bajarish yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va hukumati tomonidan tasdiqlangan “Yo‘l xaritalari”ni qabul qilish amaliyoti keng tatbiq etildi. Bu esa, o‘z navbatida, hujjatlar loyihalarini hamda xalqaro shartnomaga qo‘shilish masalasini ekspertlar darajasida puxta o‘rganishga, xalqaro shartnomalar normalarini milliy qonunchilikka implementatsiya qilinishi va bajarilishini ta‘minlashga, ushbu masalalarda vakolatli davlat organlari o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikni kuchaytirishga xizmat qilmoqda. Zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish, ularni samarali qo‘llay olish bugungi kunda, ayniqsa pandemiya sharoitida davr talabiga aylandi. Jumladan, hozirda videokonferensaloqa rejimida xorijiy hamkorlar bilan xalqaro shartnoma va hujjatlar loyihalari bo‘yicha muzokaralarni onlayn o‘tkazish va hujjatlarni diplomatik kanallar orqali imzolash amaliyoti keng tus oldi. Qolaversa, imzolangan, kuchga kirgan xalqaro shartnomalar to‘g‘risida aholi xabardorligini oshirish maqsadida Tashqi ishlar vazirligi tomonidan ijtimoiy tarmoqlarda doimiy ravishda axborot berib borilmoqda.<sup>54</sup>

Tashqi ishlar vazirligi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi bilan hamkorlikda respublika xalqaro shartnomalarini hisobga olish, inventarizatsiya qilish hamda ularning ijrosini monitoring qilish bo‘yicha ishlarni takomillashtirish uchun zamonaviy informatsion texnologiyalari joriy etilmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarini yagona tarzda hisobga olishning, inventarizatsiya qilishning va ularning amalga oshirilishi yuzasidan monitoring qilishning elektron ma‘lumotlar bazasi yaratiladi. Mazkur elektron ma‘lumotlar bazasining ishga tushirilishi nafaqat xalqaro shartnomalarni ijro etilishi bo‘yicha vazirlik va idoralar o‘rtasida o‘zaro faoliyatni muvofiqlashtirish va yaxshilashga, balki samarali, qulay va fuqarolarga yo‘naltirilgan davlat xizmatlarini ko‘rsatish tizimini yaratishga, shuningdek, jamoatchilikka O‘zbekiston Respublikasining ikki va ko‘p tomonlama xalqaro shartnomalari haqida to‘liq axborot berishga xizmat qiladi. So‘nggi yillarda mamlakatimizda xalqaro institutsional hamkorlikka, xususan, BMT va uning ixtisoslashgan tashkilotlari, Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi, Shanxay hamkorlik tashkiloti, Islom hamkorlik tashkiloti, Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashi va boshqa xalqaro tuzilmalar doirasida ko‘p tomonlama aloqalarni mustahkamlashga ham ustuvor ahamiyat berilmoqda.

O‘zbekiston mazkur xalqaro institutlar doirasida qabul qilingan transport va logistika, intellektual mulk huquqi, mehnat huquqi, atrof-muhitni muhofaza qilish, huquqiy yordam ko‘rsatish, madaniyat sohalarida universal va mintaqaviy ahamiyatdagi ko‘p tomonlama xalqaro shartnomalarning ishtirokchisiga aylandi. Xususan, Iqlim o‘zgarishi bo‘yicha Parij bitimi, Butunjahon intellektual mulk tashkilotining Mualliflik huquqi bo‘yicha konvensiyasi, Xalqaro mehnat tashkilotining Xalqaro mehnat normalari qo‘llanilishiga ko‘maklashish uchun uch tomonlama maslahatlashuvlar to‘g‘risidagi 144-sonli konvensiyasi, Turg‘un organik ifloslantiruvchi moddalar haqidagi Stokgolm konvensiyasi, O‘simliklar karantini va himoyasi

<sup>54</sup> <https://iiv.uz/news/toshkent-xalqaro-investitsiya-forumi-istiqbolli-loyihalarning-taqdimot-maydoni-boladi>

bo'yicha xalqaro konvensiya, YUNESKOning Madaniy ifodalarining turli xil shakllarini muhofaza qilish va qo'llab-quvvatlash to'g'risidagi konvensiyasi, Vaqtincha olib kirish to'g'risidagi Istanbul konvensiyasi, Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiya kabi muhim shartnomalar shular jumlasidan. 2019-yilda O'zbekiston turkiy tilli davlatlar bilan munosabatlarini yanada kengaytirish, ular bilan integratsiyalashuvni chuqurlashtirish maqsadida “Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashini tuzish to'g'risida”gi Naxichevan bitimiga qo'shildi va Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashi a'zosiga aylandi. O'zbekiston 2020-yilning 4-martidan boshlab Xalqaro xususiy huquq bo'yicha Gaaga konferensiyasining teng huquqli a'zosi bo'ldi. O'z tarkibiga 84 ta davlat va Yevropa Ittifoqini birlashtirgan ushbu tashkilot xalqaro xususiy huquqni unifikatsiya qilish masalalari bilan shug'ullanadi. O'zbekistonning mazkur tashkilotga a'zo bo'lishi xalqaro fuqarolik, oilaviy va xususiy huquqning unifikatsiyasi jarayonida mamlakatimizning ishtirokini ta'minlashga xizmat qilib, kelajakda qabul qilinadigan xalqaro hujjatlarda milliy manfaatlarimizni ham aks ettirish imkonini yaratadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida (2020-yil 29-dekabr) davlatimiz olib borayotgan ochiq, pragmatik va amaliy tashqi siyosatni inobatga olib hamda uzoq muddatli strategik maqsadlarimizdan kelib chiqqan holda, O'zbekiston Respublikasining Tashqi siyosiy faoliyat konsepsiyasi takomillashtirilishi nazarda tutilgan. O'zbekiston Respublikasining Tashqi siyosiy faoliyati konsepsiyasini takomillashtirish yuzasidan Tashqi ishlar vazirligi tomonidan takliflar ishlab chiqilgan. Hozirda uning tahriri vakolatli davlat organlarining kelishuv jarayonidan o'tmoqda. Ta'kidlash lozimki, Konsepsiya takomillashtirilishi jarayonida mamlakat tashqi siyosatining fundamental va konstitutsiyaviy prinsiplariga, shuningdek, “Harakatlar strategiyasi”, 2018-yil 9-yanvardagi O'RQ-458-sonli Qonun bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasining Mudofaa doktrinasida mustahkamlangan asosiy prinsiplarning o'zgarmasligiga urg'u berildi. Yana bir dolzarb masalalardan bo'lgan O'zbekistonning Jahon savdo tashkilotiga qo'shilishi hamda Yevropa Ittifoqi bilan Kengaytirilgan sheriklik va hamkorlik to'g'risidagi bitimni imzolash bo'yicha faol muzokaralar olib borilmoqda.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, Harakatlar strategiyasi va uni yangi O'zbekiston tashqi siyosiy faoliyatida namoyon bo'lishini hayotning o'zi tasdiqladi, xalqimiz tomonidan ma'qullandi va xalqaro hamjamiyat, eng avvalo, Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan keng e'tirof etilmoqda.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Principles of International Investment Law, R. Dolzer and Ch. Schreuer, 1st ed.– 2008. – 179 p.
2. Norfadhilah Mohamad Ali, Appropriate Comparator in National Treatment under International Investment Law: Relevance of GATT/WTO, EU and International Human Rights Jurisprudences. – 2014. – 162 p.
3. OECD(2004) “Most-Favoured-Nation Treatment in International Investment Law”, OECD Working Papers on International Investment, 2004/02. – 2
4. Л.П Ануфриева, А.А Спектор, Принцип национального режима в регулировании международной торговли // Журнал российского права. – №10. –2007. – 78 с.

## INVESTITSIYA FAOLIYATINING XALQARO HUQUQIY KAFOLATLARI

**Adham Bahodirovich Ismoilov**

Jizzax viloyati yuridik texnikumi

“Ommaviy-huquqiy fanlar” kafedrasida o‘qituvchisi

**Annotatsiya.** *Maqolada O‘zbekistonda investitsiya muhitini va jozibadorligini oshirish hamda mohiyati, xorijiy investitsiyalarni iqtisodiyotdagi o‘rni hamda o‘zlashtirilgan investitsiyalarning tarkibi va investitsion loyihalar tahlil etilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *investitsiya, investitsiya muhiti, investitsiya jozibadorligi, erkin iqtisodiy zona.*

Ta’kidlash joizki, keyingi yillarda O‘zbekiston Respublikasida ishbilarmonlik va investitsiya muhitini tubdan yaxshilash, biznes yuritish shartlarini baholashning jahon amaliyotida umum e’tirof etilgan mezonlar tizimini joriy etish va tadbirkorlik faoliyatini ta’minlash bo‘yicha keng ko‘lamli chora-tadbirlar amalga oshirildi. Shu asosda mamlakatning xalqaro reytingini yanada oshirish. Tadbirkorlik subyektlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish, kredit berish, xo‘jalik nizolarini ko‘rib chiqish, tadbirkorlikni tugatish tartib-taomillari sezilarli darajada soddalashtirildi va xarajatlari arzonlashtirildi. Mulkni ro‘yxatga olish, yer uchastkalarini ajratish, qurilishga ruxsatnomalar berish, elektr tarmoqlariga ulashda “bir darcha” tamoyilini keng joriy etish bo‘yicha faol ishlar amalga oshirilmoqda.

Xorijiy investitsiyalarni respublika iqtisodiyotiga jalb etish uchun zaruriy shart-sharoitlar yaratilishi muhimdir, u, qachonki, qaysi mamlakatda iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va huquqiy shart-sharoitlar mavjud (ijobiy) bo‘lsagina o‘sha davlat iqtisodiyotiga qo‘yilishi mumkin. Davlat qarzining past darajasi va sezilarli oltin-valyuta zaxiralari tufayli yetarlicha kuchli makroiqtisodiy barqarorlikni saqlab qolgan holda yiliga 8%. Ilmiy adabiyotlarda investitsion muhit terminiga juda ko‘p tushunchalar berilgan. Jumladan, Glagoleva va Beloguralarning fikricha, “mamlakat yoki mintaqaning investitsion muhiti moliyaviy qo‘yilmalar jozibadorligi ma’lum darajasini belgilovchi siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy hamda davlatni huquqiy sharoitlari tavsifini birgalikda umumlashtirilganidir”. Investitsion muhit to‘g‘risidagi ilmiy qarashlarni umumlashtirgan holda, bu tushunchani ma’lum investitsion jarayonlarni amalga oshishi va rivojlanishini belgilaydigan turli omillar yig‘indisi sifatida ifodalanganligini ko‘rish mumkin. Dunyoda ham xalqaro, ham milliy-huquqiy miqyosda yuzaga keladigan investitsiya huquqiy munosabatlari kundan kunga mazmunli bo‘lib bormoqda. Aniqlanishicha, milliy investitsiya huquqi xalqaro investitsiya huquqining asosiy qoidalari asosida rivojlanmoqda, chunki investitsiyalar dastlab huquqiy kategoriya va vosita bo‘lib, nafaqat milliy investorlarni davlat bilan, balki xorijiy investorlarni ham istiqbolli obyektlar bilan bog‘laydi.

Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasining qonuni Qonunchilik palatasi tomonidan 2019-yil 9-dekabrda qabul qilingan Senat tomonidan 2019-yil 14-dekabrda ma’qullangan. Ushbu Qonunning maqsadi chet ellik hamda mahalliy investorlar tomonidan amalga oshiriladigan investitsiyalar va investitsiya faoliyati sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat. Ushbu Qonun markazlashtirilgan investitsiyalar bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga solmaydi. Konsessiya faoliyati, mahsulot taqsimotiga oid bitimlar tuzish, ularni bajarish va bekor qilish, investitsiya, pay va venchur fondlari, kapital bozorini, shu jumladan qimmatli qog‘ozlar bilan bog‘liq operatsiyalarni tartibga solish, davlat-xususiy sheriklik, maxsus iqtisodiy zonalar sohasidagi huquqiy munosabatlar alohida qonunlar bilan tartibga solinadi.

Investitsiyalar va investitsiya faoliyatining asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

- qonuniylik;
  - oshkoralik va ochiqlik;
  - investitsiya faoliyatini amalga oshirish erkinligi;
  - adolatlilik va investitsiya faoliyati subyektlarining tengligi;
  - investorlarga nisbatan kamsitishga yo'l qo'ymaslik;
  - investorlarning vijdonliligi prezumpsiyasi.
- O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga zid bo'lmagan investitsiya faoliyatini erkin amalga oshirishga, investitsiya qilishni amalga oshirish hajmlarini, turlarini, shakllarini, sohasini va yo'nalishlarini mustaqil ravishda belgilashga;
- investitsiya faoliyatini amalga oshirish uchun yuridik va jismoniy shaxslar bilan shartnomalar tuzishga;
  - o'z investitsiyalariga va investitsiya faoliyati natijalariga egalik qilishga, ulardan foydalanishga hamda ularni tasarruf etishga, shuningdek, investitsiya faoliyati natijalarini sotishga va olib chiqishga;
  - investitsiya faoliyati natijasida olingan daromadlarni soliqlar, yig'imlar va qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa to'lovlar (bundan buyon matnda soliqlar va to'lovlar deb yuritiladi) to'langanidan so'ng mustaqil va erkin tarzda tasarruf etishga;
  - o'zi qabul qilgan barcha turdagi majburiyatlarning, shu jumladan qarz mablag'larini jalb etishga qaratilgan majburiyatlarning ta'minoti sifatida o'ziga mulk huquqi asosida tegishli bo'lgan mol-mulk va har qanday mulkiy huquqlardan foydalanishga;
  - o'z investitsiyalari va boshqa aktivlari rekvizitsiya (ekspropriatsiya) qilingan taqdirda munosib kompensatsiya olishga;
  - kreditlar va qarzlarning tarzidagi pul mablag'larini jalb etishga;
  - davlat boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari va ular mansabdor shaxslarining qonunga xilof harakatlari (harakatsizligi) va qarorlari natijasida yetkazilgan zararlar uchun tovon olishga haqli.
  - birja, tanlov va tender savdolarining, elektron do'konlarning va kim oshdi savdolarining ishtirokchisi bo'lishga;
  - investorlar bilan ularning buyurtmalarini bajarish yuzasidan shartnomalar tuzishga;
  - agar shartnomada boshqacha tartib belgilanmagan bo'lsa, o'zining investor oldidagi majburiyatlarini bajarishga boshqa shaxslarni jalb qilishga haqli.
- Repatriatsiya tartib-taomilini murakkablashtiruvchi yoki investorning chet elga o'tkaziladigan daromadlari (foydasi) miqdorini kamaytiruvchi qo'shimcha talablar joriy etilganda, bundan investorning mablag'larini repatriatsiya qilishni chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar to'lovga layoqatsiz va bankrot bo'lgan yoki kreditorlarning huquqlari buzilgan, jismoniy shaxs bo'lgan chet ellik investor tomonidan jinoiy qilmishlar yoki ma'muriy huquqbuzarliklar sodir etilgan hollarda yoxud sud yoki arbitraj qaroriga muvofiq shunday repatriatsiya qilishni to'xtatib turishning boshqa zarurati bo'lganda qonun hujjatlarini investorlarni kamsitmaydigan tarzda qo'llash shartlari asosida to'xtatib turish mustasno.
- investitsiya qilishni amalga oshirish hajmlariga son jihatdan cheklovlar va investitsiyalarning miqdori bo'yicha boshqa qo'shimcha talablar, shu jumladan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalarda chet el investitsiyalarining eng kam miqdorini ko'paytirish tarzidagi qo'shimcha talablar joriy etilganda;
  - chet ellik investorning O'zbekiston Respublikasi korxonalarining ustav fondlaridagi ulushli ishtiroki bo'yicha cheklovlar joriy etilganda;
  - chet ellik investorlarning vizalarini rasmiylashtirish va uzaytirish bo'yicha qo'shimcha tartib-taomillar, shuningdek chet el investitsiyalarini amalga oshirish bo'yicha boshqa qo'shimcha talablar joriy etilganda. O'tgan yillar davomida hali ham davlat sektoriga

kiruvchi mavjud aktivlarni xususiylashtirish va davlat tasarrufidan chiqarish jarayonlari jadallashtirildi.

Shunday qilib, birgina 2017-yilning o'zida 540 ta korxonalar xususiylashtirildi. 2018-yil fevral oyida hukumat tijorat korxonalarida davlat ishtirokini qisqartirish to'g'risidagi qonunni qabul qildi. 2018-yil oktabr oyida “O'zbekneftgaz” ochiq auksionga qo'yib, 156 ta asosiy bo'lmagan aktivlarini sotishni boshladi. Xususiylashtirish asosan metallurgiya va tog'-kon sanoati, neft-gaz sektori, kimyo va boshqa sohalarga ta'sir qiladi. Mintaqa iqtisodiyotiga yo'naltirilgan investitsiyalar har bir aniq loyihaning maqsadlari, uni amalga oshirish muddati va unga jalb qilingan resurslar bilan cheklangan sharoitlarda foydali bo'lishi kerak. Samaradorligi oldindan tasdiqlangan, o'zini oqlash muddati qisqa va amalga oshirish shartlari qo'shimcha xavfga ega bo'lmagan loyihalarga sarmoya kiritish maqsadga muvofiqdir.

Mintaqaviy iqtisodiyotda investitsion oqimlar muayyan tarkibiy cheklolarga ega. Har bir tarkibiy nisbat rivojlanishning ayrim chegaralangan darajalarini yoki hozirgi holatini belgilashi kerak. Limit qiymatlari dasturning ma'lum bir bosqichini amalga oshirishning taktik shartlariga va ushbu muammolarni hal qilishda davlat aralashuvi imkoniyatiga qarab muvozanatli tarzda o'rnatilishi kerak, chunki bunday nisbatlar ataylab o'zgartirilishi mumkin.

Xulosa o'rnida, investitsiya salohiyati va investitsiya muhitidagi o'zgarishlar tahlili asosida shunday xulosaga kelish mumkinki, 2016-yilning kuzida boshlangan amalga oshirilayotgan keng ko'lamlı o'zgarishlarni hisobga olgan holda, investitsiyalarni rivojlantirishning iqtisodiy va siyosiy istiqbollari O'zbekistonda ijobiy ko'rinishga ega, bu esa, shubhasiz, mamlakatga xorijiy sarmoyalarni faol jalb etishga xizmat qiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Мирзиёев Ш.М. Указ Президента Республики Узбекистан от 7 февраля 2017 года № УП-4947 «О стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан». // «Народное слово» от 8 февраля 2017 г.
2. Инвестиции в Центральную Азию: один регион, множество возможностей. [https://www.bcg.com/Images/BCG-Investing-In-Central-Asia-report-ENG\\_tcm27-212857.pdf](https://www.bcg.com/Images/BCG-Investing-In-Central-Asia-report-ENG_tcm27-212857.pdf)
3. Об утверждении Стратегии инвестиционной политики Республики Узбекистан до 2025 года. Invest to Uzbekistan. <http://invest-in-uzbekistan.org/novosti-uzbekistana/obutverzhdenni-strategii-investitsionnoj-politiki-respubliki-uzbekistan-do-2025-goda/13.5.2019>
4. Tirkashev M.Y., «The role of small scale business in the development of market economy», моя профессиональная карьера Учредители: Общество с ограниченной ответственностью” Моя профессиональная карьера”, 34, 2022, 97-102 с.



## TADBIRKORLAR FAOLIYATINI MAMLAKATIMIZDA YANADA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

**To‘yev Bahodir Baxtiyorovich**

Buxoro viloyati  
yuridik texnikumi o‘qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada respublikamizda tadbirkorlikka berilgan keng imkoniyat va imtiyozlar, tadbirkorlarni ma’naviy qo‘llab-quvvatlash masalasi, shuningdek, tadbirkorlar huquqi va qonuniy manfaatlarini himoya qilish maqsadida Biznes-ombudsman, savdo-sanoat palatasi hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida Tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha Jamoatchilik kengashiga berilgan asosiy vazifa va vakolatlar haqida bilib olish mumkin.

**Kalit so‘zlar:** Tadbirkor, mikro biznes, kichik biznes, o‘rta biznes, soliq, kompensatsiya, pandemiya, kafil, kredit, garov, moratoriy, Savdo-sanoat palatasi, Biznes-ombudsman.

Bugungi kunda mamlakatimizda tadbirkorlikka berilgan imkoniyatlar, imtiyozlar ularning faoliyati yaxshilanishiga va soni ko‘payishiga olib kelmoqda.

Darhaqiqat, har qanday mamlakatni iqtisodiy rivojlanishi kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka yaratilayotgan imkoniyatlarga bog‘liq ekanligini zamonning o‘zi ko‘rsatmoqda. Shuni ta’kidlab o‘tish kerakki O‘zbekiston Respublikasida ham kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka oid bir necha qonunlar ishlab chiqilib ularga berilgan imkoniyatlar huquqiy asoslari mustahkamlab borilmoqda.

Bunday islohotlarning davomi sifatida muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev joriy yilning 22-avgust kuni tadbirkorlar bilan ochiq muloqot o‘tkazdi.

Ushbu, navbatdagi muloqot arafasida ham “call-markaz” tashkil etilib, tadbirkorlardan 12 mingdan ortiq murojaat kelib tushdi. Ularda shaxsiy yoki mahalliy muammolar bilan birga tizimli masalalar ham ko‘tarilgan. Ular bo‘yicha eng maqbul yo‘llarni topish uchun tahliliy ish olib borilishi qayd etildi.

Prezident beshta asosiy yo‘nalishni ko‘rsatib o‘tib, ularning har biri bo‘yicha ko‘plab tashabbuslarni ilgari surdi.

Birinchi yo‘nalishda korxonalar toifalarga ajratib, ularni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha alohida yondashuvlar belgilandi.

Xususan, yillik aylanmasi 1 milliard so‘mgacha bo‘lgan korxonalar – mikro biznes, 10 milliard so‘mgacha bo‘lgani – kichik biznes va 100 milliard so‘mgacha bo‘lgani o‘rta biznes toifasiga kiradi.

Shundan kelib chiqib, 2023-yil 1-yanvardan boshlab mikro biznes uchun aylanmadan olinadigan soliqning amaldagi 4 foizdan 25 foizgacha bo‘lgan stavkalari o‘rniga, yagona 4 foizli soliq stavkasi joriy etiladi.

Yillik aylanmasi 1 milliard so‘mdan oshib, umumiy soliq to‘lash tartibiga o‘tgan korxonalar bir yil davomida foyda solig‘ini 2 barobar kam to‘laydi. Ushbu imkoniyatlar 370 ming tadbirkorga yengillik yaratadi.

Yuqori salohiyatli o‘rta korxonalar sonini ko‘paytirish zarurligi ta’kidlanib, ular uchun qator soliq va kompensatsiya imtiyozlari belgilandi.

O‘tgan yilgi ochiq muloqotda davlatimiz rahbari biznes uchun soliq yukini kamaytirish siyosatini davom ettirishga va‘da bergan edi. Pandemiya keltirgan iqtisodiy qiyinchiliklarga qaramay, 2023-yil 1-yanvardan boshlab qo‘shilgan qiymat solig‘i stavkasi 12 foizga tushirilishi ma’lum qilindi.

Tadbirkorlar uchun yana bir yengillik. Joriy yil 1-iyuldan boshlab, bo'sh bino yoki foydalanilmayotgan yer uchastkasiga nisbatan soliqlarning oshirilgan stavkalarini qo'llash bekor qilingan edi. Prezidentimiz tadbirkorlarning shu tarzda ilgari oshirib hisoblangan 2 trillion so'mlik qarzlaridan ham voz kechilishini aytdi.

Ikkinchi yo'nalish qulay moliyalashtirish tizimiga oid bo'ldi. Shu maqsadda kichik biznes loyihalariga 20 trillion so'm yo'naltirilishi belgilandi. Bundan tashqari, tijorat banklari xalqaro moliya institutlaridan ham mablag'lar jalb etadi.

Tadbirkorlik jamg'armasi tomonidan kafillik berish imkoniyatlari qo'shimcha 2 barobarga oshiriladi. Natijada kamida 15 ming nafar tadbirkorning kredit olishdagi garov masalasi hal bo'ladi.

Albatta, kredit bu – masalaning bir tomoni. Biznes uchun yana infratuzilma va kafolatli bozor kerak. Bu borada esa, deylik, Toshkent viloyati bilan olis hududlarda imkoniyat mutlaqo har xil.

Shu bois uchinchi yo'nalishda tuman va shaharlarning sharoitidan kelib chiqib, biznes uchun alohida yondashuvlar joriy etish masalasi ko'rildi. Kelgusi yildan shart-sharoiti bo'yicha barcha tuman va shaharlar 5 ta toifaga ajratiladi. Ularda soliq, subsidiya, kredit foizlari uchun kompensatsiya va kafillik berish, infratuzilmaga ulash bo'yicha alohida tartiblar belgilanadi.

Yerni xususiylashtirish uchun belgilangan summa, ya'ni yer solig'ining 20 karrasi miqdoridagi to'lov Toshkent shahri va viloyat markazlarida 10 karraga, boshqa hududlarda 5 karraga pasaytiriladi.

To'rtinchi yo'nalish tadbirkorlarning mulk huquqi himoyasi haqida bo'ldi. Yer va mulk ajratish haqidagi qarorlarni bekor qilish, tergov jarayonida mol-mulkni xatlab qo'yishni faqat sud hal qilishi ta'kidlab o'tildi.

Shuningdek, tadbirkorlarning sudlarga murojaat qilish imkoniyati kengaytiriladi. Jumladan, ma'muriy sudlarga ariza berishda davlat boji stavkasi 2 barobar kamaytiriladi. Tadbirkorlarning soliq idoralari qarori ustidan sudga shikoyat kiritish muddati hozirgi 1 oydan 3 yilgacha uzaytiriladi.

Beshinchi yo'nalishda tadbirkorlar faoliyatini nazorat qilish va ularni javobgarlikka tortish masalalariga to'xtalib o'tildi.

Avvalo, tadbirkorlarga nisbatan yangi javobgarlik va jazo choralarini joriy etishga 3 yillik moratoriy e'lon qilindi. Kelgusi yildan 26 ta idoraning takrorlanuvchi nazorat funksiyalari bekor qilinishi aytiladi.

Davlatimiz rahbari soliq tekshiruvlariga oid jarimalar turi ko'pligi va og'irligi bo'yicha juda ko'p murojaatlar bo'lganiga e'tibor qaratdi.

Misol uchun, oyiga o'rtacha 1 million so'm soliq to'laydigan kichik tadbirkorlarga 5 milliondan 10 million so'mgacha moliyaviy jarima qo'llanmoqda. Ya'ni, kichik tadbirkorlar uchun ham, yirik korxonalar uchun ham jazo bir xil.

Prezident barcha turdagi tekshiruvlar Biznes-ombudsman tomonidan muvofiqlashtirilishi, jarimalar miqdori tadbirkor to'layotgan soliq miqdoridan oshmasligi kerakligini ta'kidladi.

Umuman, endi savdo sohasida ishlaydigan tadbirkorlarni qariyb 30 yildan beri qiynab keladigan muammo barham topadi – ya'ni savdo qoidalarini buzganlik uchun jinoiy javobgarlik to'liq bekor qilinadi.

Adliya vaziri va Biznes-ombudsmanga tadbirkorlarning takliflarini chuqur o'rganib, tekshiruvlar muddatlarini qisqartirish, moliyaviy xato va kamchiliklarning minimal chegaraviy miqdorini belgilash bo'yicha qonun loyihasini ishlab chiqish vazifasi qo'yildi.

Muloqotda tadbirkorlarni ma'naviy qo'llab-quvvatlash masalasi ham e'tibordan chetda qolmadi. Davlatimiz rahbari ko'p ish o'rinlari yaratgan, o'z sohasida innovatsiya va islohotlar qilgan, el-yurt orasida obro' qozongan biznes vakillari mehnatini e'tirof etish uchun “O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan tadbirkor” faxriy unvonini ta'xis etish taklifini bildirdi.

Savdo-sanoat palatasi faoliyatini takomillashtirish zarurati ham ko'rsatib o'tildi. Endi uning vazifa va vakolatlari kengaytiriladi. Xususan, hukumatga ko'rib chiqishi majburiy bo'lgan masala kiritish, tadbirkor manfaatini ko'zlab Oliy sudga ariza berish vakolatlari beriladi. Savdo-sanoat palatasi hukumat bo'ysunuvidan to'liq chiqariladi va tadbirkorlar manfaatining chinakam himoyachisiga aylanadi.

Ushbu ochiq muloqotda aytilgan barcha takliflarni amalga oshirish uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida Tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash bo'yicha Jamoatchilik kengashi tuzilishi ta'kidlandi.

- tadbirkorlar bilan “ochiq muloqot”da bildirilgan taklif va tashabbuslarning vazirlik va idoralar tomonidan samarali va o'z vaqtida ijro qilinishi holati ustidan jamoatchilik nazoratini o'rnatish;

- davlat organlari, tadbirkorlik subyektlari, ilmiy doiralar, nodavlat notijorat tashkilotlar va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari o'rtasida samarali hamkorlikni ta'minlash;

- tadbirkorlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga daxl qiluvchi eng muhim masalalar yuzasidan jamoatchilik fikrini tizimli monitoring qilish va har tomonlama tahlil qilish, ijtimoiy so'rovlar o'tkazish, jumladan ularni axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda o'tkazish;

- tadbirkorlikni rivojlantirishga to'siq va g'ov bo'layotgan muammolarni bartaraf etish bo'yicha takliflarni ishlab chiqish hamda vakolatli davlat organlariga taqdim etish;

- tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash borasida amalga oshirilayotgan islohotlarning mazmun-mohiyatini tadbirkorlarga yetkazish, ularning huquqiy madaniyatini oshirish va iqtisodiy ko'nikmalarini shakllantirishga ko'maklashish Jamoatchilik kengashining asosiy vazifalari etib belgilandi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib xulosa qilish mumkinki, bunday imtiyozlar mamlakatimizda tadbirkorlik muhitini yanada yaxshilashga xizmat qiladi, ayniqsa yoshlar o'rtasida tadbirkorlikka qiziqish ortib, ularning bandlik masalalari ham o'z-o'zidan hal bo'ladi. Bu imkoniyatlar tadbirkorlik subyektlarining soni oshib, ish o'rinlari yaratilishiga muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasining 1992-yil 8-dekabrda Konstitutsiyasi. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 09.02.2021 y., 03/21/671/0093-son.

2. O'zbekiston Respublikasining 2012-yil 2-maydagi “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida”gi O'RQ-328-son Qonuni. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 30.06.2022 Y., 03/22/782/0576-SON.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022—2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi PF-60-son Farmoni. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2022-y., 06/22/113/0330-son.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 27-iyuldagi “Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-5490-son Farmoni. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 04.08.2022 Y., 06/22/182/0710-SON.

## MAHALLIY INVESTORLAR VA CHET EL INVESTORLARI FAOLIYATINI MAMLAKATIMIZDA YANADA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

**Shoyimova Abiba**

Qashqadaryo viloyati yuridik texnikumi  
102-22-guruh o'quvchisi

**Annotatsiya:** *O'zbekiston Respublikasi va chet el investorlarining munosabatlari, Jahon banki bilan hamkorlik, O'zbekiston Respublikasining Xususiylashtirish investitsiya fondlari (XIF) bilan munosabatlari va vazifalari, Chet el investitsiyalarining kafolatlari, Jahon banki ekspertlari bilan hamkorlikda to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar strategiyasini ishlab chiqishi va BAA hukumati bilan hamkorligi.*

**Kalit so'zlar:** *Chet el investorlari bilan munosabatlar, hamkorlik, Xususiylashtirish investitsiya fondlari, investitsiya kafolatlari, TTXI strategiyasi va BAA.*

O'zbekiston Respublikasi va chet el investorlarining birgalikdagi hamkorlik munosabatlarining ravnaq topishida O'zbekistonga kirib keladigan investitsiyalar katta ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishga respublika iqtisodiyotining jahon iqtisodiy sistemasiga qo'shilishiga ko'maklashish maqsadida chet elning moliyaviy, moddiy, intellektual va boshqa resurslarini, xorijning boshqa texnologiyasini va boshqaruv sohasidagi tajribasini jalb etishga qaratilgan ko'plab chora tadbirlar olib borilmoqda. Shu bilan birga davlat investitsiyasiga mablag' davlat budjeti va moliya manbalari hisobidan kiritiladi. O'zbekistonga kiritilayotgan ko'plab investitsiyalar mamlakat rivojlanishiga va uning ravnaq topishiga katta hissa qo'shmoqda. Shu bilan birga investitsion hamkorlik umumjahon va milliy muammolarni hal qilishga yordam beradi. Bugungi kunda jahonda bevosita investitsiya faol o'sib bormoqda. 1980-yillar o'rtalarida jahondagi umumiy yillik investitsiya 450 milliard dollarni tashkil qilgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 1990-yillar o'rtalariga kelib investitsiya hajmi 2 trillion dollardan oshdi.

O'zbekiston Respublikasi rivojlanish va bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida respublikada tuzilmaviy o'zgarishlarini amalga oshirishda investitsiyadan samarali foydalanib kelmoqda. O'zbekiston Respublikasi 1996-yildan boshlab respublika hukumati har yil davlat budjeti va budjetidan tashqari fondlar, mablag'lar hisobidan kapital qo'yilmalar limitlar, chet el investitsiyalari va hukumat kafolati bilan olingan kreditlar hisobiga aniq qurilishlar dasturi, shuningdek, bevosita chet el investitsiyalari va kreditlari hisobiga qurilishlar dasturidan iborat bo'lgan Davlat investitsiya dasturini qabul qildi va chet el investitsiyalari hisobiga ko'plab yangi texnologiyalarni O'zbekistonga kiritmoqda. Shu bilan birga aholining qimmatli qog'ozlarga bo'lgan talabining oshganligi sababli jamoaviy investitsiyani amalga oshirish bo'yisha Xususiylashtirish investitsiya fondlari rivoj topdi. O'zbekiston Respublikasining chet el mamlakatlari bilan yangi texnologiyalari O'zbekistonga kiritish to'g'risidagi hamkorlik dasturi uzoq rivojlanish bosqichini ko'zlab amalga oshirilgan dastur bo'lib xizmat qiladi. Shu jumladan, Xususiylashtirish investitsiya fondlari 2000-yilda moliyalashtirishning jami manbalari hisobiga mamlakat iqtisodiyotiga salkam 700 milliard so'm, shuningdek 810 million AQSh dollari investitsiyalandi. Bu esa O'zbekiston Respublikasiga kiritilayotgan muhim investitsiya hisoblanadi. Chunki, uning 30,3 %ni respublika byudjeti, 39,1 %ni korxonalar va aholi mablag'lari, 7,5% ni bank kreditlari va boshqa qarz mablag'lari, 21,7%ni chet el investitsiyalari va kreditlar, 1,4 %ni jamg'armalar mablag'lari tashkil qiladi.

Respublikada investitsiya faoliyatining huquqiy bazasini kengaytirish maqsadida mustaqillik yillarida bosqichma-bosqich bir nechta investitsiyalar to'g'risidagi qonunning qabul qilinishi

muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Ko'pgina mamlakatlarda investorlar investitsiya faoliyatini olib borish jarayonida bir qancha muammolarga duch keladilar. Shu sababli investitsiyalarini ayniqsa chet el investitsiyalarini sug'urta qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Har bir chet el investorlari bir mamlakatga investitsiya kiritishdan avval uni o'rganib chiqishadi va unga o'z fikrlarini bildirib, ma'qul ko'rsalar unga katta miqdordagi investitsiya kiritadilar.

O'zbekistonda xorijiy investitsiyalarni sug'urtalash maqsadida 1994-yilda tashkil etilgan “O'ZBEKINVEST”, eksport-import milliy sug'urta kompaniyasi faoliyat olib boradi. Bu esa o'z navbatida shuni anglatadiki, O'zbekistonda har bir chet el investoriga yoki boshqa hamkorlik qiladigan tashkilotlarni huquqlari bilan kafolatlanganligini ko'rsatadi. Chet el investorlar kafolati to'g'risidagi qonunda ham investorlarga belgilangan tartibda xizmat qilishi ko'rsatilgan. Qonunlarda ko'rsatilganidek, O'zbekiston Respublikasi respublika hududida investitsiya faoliyatini amalga oshirayotgan chet ellik investorlarning huquqlari hamma tomondan e'tirof etilgan xalqaro huquq normalariga muvofiq himoya qilinishiga kafolat beradi.

O'zbekiston Respublikasi Davlat idoralari chet ellik investorlarning huquqlarini kamsituvchi normativ hujjatlar qabul qilgan taqdirda, ularga yetkaziladigan zarar ana shu idoralardan sud yo'li bilan to'landi. O'zbekistonda har bir investorning huquqlari qonun bilan himoya qilinadi. O'zbekiston Respublikasi va yana bir qancha ko'plab davlatlar, Jahon banki ekspertlari bilan hamkorlikda to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar (TTXI) strategiyasini ishlab chiqish bo'yicha tegishli ishlar olib bormoqda.

Mazkur loyiha doirasida ularning har biri (TTXI) har tomonlama chuqur o'rganiladi, ularning tarixiy ko'rsatkichlariga baho beriladi, jalb qilingan investitsiya turlari, asosiy sherik davlatlar va TTXI jalb qilish sohasida iqtisodiyot tarmoqlari tahlili amalga oshiriladi. Bu strategiyani amalga oshirishda ancha dolzarb bo'lgan muammolardan biri har bir davlatning investitsiyaga bo'lgan talabi, uning davlat budjetiga qancha investitsiya olib kelishi kabi muammolarni chuqur o'rganadi.

TTXI sohasiga oid asosiy normativ instrumentlar, institutsional muhit biznesga kirish va uni tashkil qilish tartiblari sharhlanadi. Shuningdek, investitsiya siyosati va normativ-huquqiy baza tahlili o'tkaziladi, investitsiyalarni jalb qilish borasidagi to'siqlar o'rganiladi va ushbu mavzu bo'yicha sharh tayyorlanadi. Jahon banki ekspertlarining xulosasiga ko'ra TTXIning 2030-yilgacha kuzatuvlar amalga oshirilsa, ushbu TTXI strategiyasini ishlab chiqish imkonini beradi.

Bundan tashqari, BAA hukumati bilan birgalikda O'zbekistonning istiqbolli davlat xizmatchilari orasida “Yosh liderlar”ni tayyorlash borasida qo'shma dastur yo'lga qo'yilgan bo'lib, ular to'rt oy muddat davomida turli xil intensiv kurslarida o'qishadi va investitsiyalar hajmini o'rganishadi. Shu bilan birga 2021-yil yakuniga ko'ra o'zlashtirilgan xorij investitsiyalar hajmi 11,1 mlrd dollarni tashkil etadi, yillik prognozga qaraganda bu 113 %ni tashkil qiladi. Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar 9,8 %ga yetdi, bu 2020-yilga qaraganda 110 %ni ko'rsatadi. To'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar va kreditlar 9 mlrd dollarni prognozga nisbatan 117 %ni, shu jumladan asosiy kapital 2020-yilga nisbatan 124 %lik o'sish bilan 8,2 mlrd dollarni o'zlashtirildi.

To'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar hisobidan tarmoq korxonalarini tomonidan 3,8 mlrd dollar, prognozga nisbatan 103 %ga hududiy loyihalar bo'yicha 5,2 mlrd dollarga to'g'ri kelgan bu esa O'zbekiston Respublikasi chet el investorlari bilan yaxshi munosabatda ekanligini ko'rsatadi. Chunki chet el investitsiyalari 2020-yilga nisbatan, 2021-yil sezilarli darajada o'sgan. Bu O'zbekiston Respublikasini tashqi va ichki investitsiya loyihasi bo'yicha sezilarli darajada ekanligi ko'rsatadi. Bugungi kunda O'zbekiston investitsiyasiga 50dan ortiq davlat investitsiya kiritgan bo'lib, Xitoy (21,2mlrd dollar), Rossiya(2,1mlrd dollar), Germaniya (800,7 mln dollar), Turkiya (1,18 mlrd dollar), Janubiy Koreya (137.4 mln dollar) asosiy investitsiya kiritgan davlatlar hisoblanadi.

Shu bilan birga 2022-yilning 24-martidan 26-martiga qadar o'tkazilgan innovatsion tadbirda beshta yo'nalish asosiy kasb etadi. “O'zbekiston:investitsiyalar va innovatsiyalar uchun mintaqaning yangi maskani”, “Rivojlanayotgan davlatlarda tadbirkorlik”, “Mintaqaviy savdo va infratuzilma”, “Industriya 4.0”, “Sanoat tarmoqlarining investitsion salohiyati” kabi asosiy beshta yo'nalish tuzilgan 26 ta sessiyalar o'tkazish ko'zda tutilgan edi, bu forum O'zbekiston uchun yangi investitsiyalar uchun yangi xorijiy davlatlar eshigini ochdi. Bugungi kunda O'zbekiston YETTB, XMK, AmCham, EUROUZ kabi bir qancha tashkilotlar bilan hamkorlikni olib bormoqda.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Qonun va qonunosti hujjatlar.
2. O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 25.12.2019 yildagi O'RQ-598-son
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik Islohotlar Agentligi to'g'risidagi qaror.

## INVESTITSIYA FAOLIYATINING XALQARO HUQUQIY KAFOLATLARI

**Poyonova Maftuna Farmon qizi**  
Qashqadaryo viloyati yuridik  
texnikumi 1-bosich talabasi

**Annotatsiya:** O'zbekiston eng boy qishloq xo'jaligi salohiyati, O'zbekistonda biznes yuritish muvaffaqiyatining asosiy omillari va O'zbekiston iqtisodiyoti jahonda mutlaq energetika mustaqilligi, Qishloq xo'jaligi sanoat ishlab chiqarishi, Pandemiya va undan keyin jahon iqtisodiyotidagi turg'unlik, xalqaro hamjamiyatning mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida tutgan o'rni, xalqaro munosabatning huquqiy jarayoni, ushbu sohani tartibga soluvchi normalar, xorijiy mamlakatlar qonunchiligi tahlili hamda bu o'rganish va tahlillar asosida taklif va ilmiy tavsiyalar bayon qilingan.

**Kalit so'zlar:** Agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O'zbekiston Respublikasining investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida qonunchilik nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo'llanadi.

Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risidagi qonunchilikning asosiy prinsiplari investitsiya qilish va investitsiya faoliyatini amalga oshirish jarayonining barcha bosqichlarida qo'llaniladi.

O'zbekiston Respublikasi qonuni Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risidagi Qonunchilik palatasi tomonidan 2019-yil 9-dekabrda qabul qilingan. Senat tomonidan 2019-yil 14-dekabrda ma'qullangan.

Ushbu Qonunning maqsadi chet ellik xamda mahalliy investorlar tomonidan amalga oshiriladigan investitsiyalar va investitsiya faoliyati sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

Konsessiya faoliyati, mahsulot taqsimotiga oid bitimlar tuzish, ularni bajarish va bekor qilish, investitsiya pay va venchur fondlari, kapital bozorini, shu jumladan qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq operatsiyalarni tartibga solish, davlat-xususiy sheriklik, maxsus iqtisodiy zonalar sohasidagi huquqiy munosabatlar alohida qonunlar bilan tartibga solinadi.

Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risidagi ushbu Qonun hamda boshqa Qonunchilik hujjatlaridan iboratdir.

Agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O'zbekiston Respublikasining investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida qonunchilik nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo'llanadi.

Ushbu Qonunda asosiy quyidagi asosiy tushunchalar qo'llanadi:

Investitsiya loyihasi – iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa foyda olish uchun investitsiyalarni amalga oshirishda yoxud jalb etishga qaratilgan, o'zaro bog'liq bo'lgan tadbirlar majmui;

Investitsiya majburiyati – belgilangan maqsadga erishish uchun investor tomonidan qabul qilinadigan majburiyatlar;

Investitsiya siyosati – O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida va uning alohida tarmoqlarida investitsiyalarning zarur darajasini va tuzilmasini ta'minlashga, investitsiya faoliyati subyektlarining investitsiya manbalarini topishga va ulardan foydalanishning ustuvor tarmoqlarini aniqlashga yo'naltirilgan investitsiyaviy faolligini oshirishga doir o'zaro bog'liq tadbirlar majmui;

Investitsiya faoliyati – investitsiya faoliyati subyektlarining investitsiyalarni amalga oshirish bilan bog'liq harakatlar majmui;

Investitsiya faoliyatining ishtirokchisi – investitsiyalarning amalga oshirilishini buyurtmalarini bajaruvchi sifatida yoki investorning topshirig'i asosida ta'minlaydigan investitsiya faoliyati subyekti;

Investitsiyalar va investitsiya faoliyatining asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat bo'ladi:

- Qonuniylik:
- Oshkoralik va ochiqlik:
- Investitsiya faoliyatini amalga oshirish erkinligi:
- Adolatlilik va investitsiya faoliyati subyektlarining tengligi:
- Investorlarga nisbatan kamsitishga yo'l qo'ymaslik:
- Investorlarning vijdonlilik prezumtsiyasi:

Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risidagi qonunchilikning asosiy prinsiplari investitsiya qilish va investitsiya faoliyatini amalga oshirish jarayonining barcha bosqichlarida qo'llaniladi.

Investitsiya faoliyati investitsiyalar kiritishning turli shakllarini birlashtirish vositasida amalga oshirilishi mumkin.

Investitsiyalarning birlamchi yoki takroran kiritiladigan shakllari o'zgartirilishi ularning investitsiya sifatidagi darajasi o'zgarishiga olib kelmaydi.

Chet ellik investorlar O'zbekiston Respublikasidagi investitsiya faoliyatini tugatish huquqiga ega. Chet ellik investor investitsiya faoliyatini tugatgandan so'ng investitsiya faoliyatini tugatish natijasida olingan o'z aktivlarini naqd pul yoki natural shaklda chet ellik investorning O'zbekiston Respublikasiga yoxud boshqa kreditorlarga nisbatan majburiyatlarini bajarish uchun zarar yetkazmagan holda erkin repatsiyatsiya qilish huquqiga ega.

Agar qonunchilik hujjatlarining ajralishi investorga yoki investitsiyalarga zarar yetkazadigan bo'lsa, ushbu qonunchilik hujjatlari orqaga qaytish kuchiga ega bo'lmaydi.

O'zbekiston Respublikasining keyingi qonunchilik investitsiya qilish shart-sharoitlarini yomonlashtirsa, investitsiya qilish sanasida amalda bo'lgan qonunchilik chet el investorlariga nisbatan investitsiya qilish paytidan e'tiboran o'n yil mobaynida qo'llanadi. Investor o'zining investitsiya qilish shart-sharoitlarini yaxshilaydigan yangi qonunchilik qoidalarini o'z xohishiga ko'ra qo'llash huquqiga ega.

Investitsiya qilishni amalga oshirish hajmlariga son jihatdan cheklovlar va investitsiyalarning miqdori bo'yicha boshqa qo'shimcha talablar, shu jumladan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalarida chet el investitsiyalarning eng kam miqdorini ko'paytirish tarzidagi qo'shimcha talablar joriy etilganda;

Chet ellik investorlarning O'zbekiston Respublikasi korxonalarining ustav fondlaridagi ulushli ishtiroki bo'yicha cheklovlar joriy etilganda;

Chet ellik investorlarning vizalarining rasmiylashtirish va uzaytirish bo'yicha qo'shimcha tartib-taomillar, shuningdek chet el investitsiyalarni amalga oshirish bo'yicha boshqa qo'shimcha talablar joriy etilganda.

Investitsiyalarni himoya qilish.

Davlat investitsiyalarning O'zbekiston Respublikasi Qonunchiligiga va xalqaro shartnomalariga muvofiq himoya qilinishini kafolatlaydi.

Investor sud va arbitraj tartibida, xususan, quyidagilar yuzasidan nizolashishga haqli:

- rekvizitsiyani (ekspropriatsiyani) amalga oshirish uchun foydalaniladigan maqsadning qonuniyligi;
- rekvizitsiyaning (ekspropriatsiyaning) miqdori;
- rekvizitsiyani (ekspropriatsiyani) qilinayotgan investitsiyalarni boshqa aktivlarni baholash;
- to'lanishi lozim bo'lgan kompensatsiya to'lovining muvofiqligi;
- davlat boshqaruvi organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlari rekvizitsiyani amalga oshirish chog'ida rioya etgan tartib-taomil.

Investitsiya faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish O'zbekiston Respublikasini va uning hududlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning davlat vazifalari bajarilishini ta'minlaydigan



investitsiya siyosatini amalga oshirish, investitsiyalar samaradorligini oshirish, O‘zbekiston Respublikasi hududidagi turli investitsiya obyektlariga qo‘yilmalar uchun xavfsiz shart-sharoitlarni ta‘minlash maqsadida davlat boshqaruvi organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Investitsiya faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish usullari.

Investitsiya faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish quyidagilar orqali amalga oshiriladi:

- investitsiya faoliyatining normativ-huquqiy bazasini takomillashtirish;

- investitsiya faoliyatini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish va O‘zbekiston Respublikasi hukumating kafolatlarini taqdim etish.

O‘zbekiston Respublikasi hukumati bilan tuzilgan investitsiya shartnomasining amal qilish quyidagi hollarda muddatidan oldin bekor qilinishi mumkin:

- taraflarning o‘zaro kelishuviga binoan;

- bir tomonlama tartibda.

O‘zbekiston Respublikasi hukumati bilan tuzilgan investitsiya shartnomasi bo‘yicha majburiyatlar chet ellik investor tomonidan bajarilmagan yoki lozim darajada bajarilmagan taqdirda investitsiyalarni va investitsiya faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish sohasidagi vakolatli davlat organi chet ellik investorga O‘zbekiston Respublikasi hukumati bilan tuzilgan investitsiya shartnomasiga o‘zgartirishlar kiritish uchun investitsiya loyihasini to‘xtatib turish va uni bundan buyon amalga oshirish imkoniyatini asoslovchi hujjatlarni taqdim etish zarurligi to‘g‘risida yozma xabarnoma yuboradi.

Agar chet ellik investor tomonidan yozma xabarnoma olingan paytdan e‘tiboran uch oy mobaynida investitsiya loyihasini to‘xtatib turish va uni bundan buyon amalga oshirish imkoniyatini asoslovchi hujjatlar taqdim etilmagan bo‘lsa, investitsiyalarni va investitsiya faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish sohasidagi vakolatli davlat organi O‘zbekiston Respublikasi hukumati bilan tuzilgan investitsiya shartnomasining amal qilinishi muddatidan oldin tugatish to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi hukumatiga taqdimnoma kiritadi hamda O‘zbekiston Respublikasi hukumating xulosasini olganidan keyin chet ellik investorga O‘zbekiston Respublikasi hukumati bilan tuzilgan investitsiya shartnomasining amal qilishi muddatidan oldin bir tomonlama tartibda bekor qilinganligi to‘g‘risida yozma xabarnoma yuboradi.

Xulosa o‘rnida, O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va boshqa manfaatdor tashkilotlar ushbu qonunning ijrosini ijrochilarga yetkazilishini hamda mohiyati va ahamiyati aholi o‘rtasida, ayniqsa investitsiya faoliyati subyektlari o‘rtasida ta‘minlanadi deb o‘ylayman.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qonun va qonunosti hujjatlari:

2. Luenberger, DG (1998). Investment Science. Oxford University Press. pp. 1–2. ISBN 978-0195108095. Retrieved 1 March 2023.

3. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 25.12.2019-yildagi O‘RQ-598-son. (Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 26.12.2019-y., 03/19/598/4221-son; Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son, 07.06.2022-y., 03/22/775/0477-son; 31.12.2022-y., 03/22/812/1145-son)

4. Robert H. Hillman, “Limited Liability in Historical Perspective”, (Washington and Lee Law Review, Spring 1997), Benedikt Koehler, “Islamic Finance as a Progenitor of Venture Capital”, (Economic Affairs, December 2009).

5. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.

## YURTIMIZDA INVESTITSIYA FAOLIYATINING XALQARO HUQUQIY KAFOLATI

**Qudratova Feruza Shaymardon qizi**

Qashqadaryo viloyati yuridik texnikumi talabasi

**Annotatsiya:** Qishloq xo'jaligi sanoat ishlab chiqarishi va O'zbekistonda biznes yuritish muvaffaqiyatining asosiy omillari, O'zbekiston iqtisodiyoti jahonda mutlaq energetika mustaqilligi, O'zbekiston eng boy qishloq xo'jaligi salohiyati, pandemiya va undan keyin jahon iqtisodiyotidagi turg'unlik, xalqaro hamjamiyatning mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida tutgan o'рни, xalqaro munosabatning huquqiy jarayoni, ushbu sohani tartibga soluvchi normalar, xorijiy mamlakatlar qonunchiligi tahlili hamda bu o'rganish va tahlillar asosida taklif va ilmiy tavsiyalar bayon qilingan.

**Kalit so'zlar:** O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasi, O'zbekiston Respublikasining investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida, investitsiyalar va investitsiya faoliyati, xorijiy investitsiyalar, chet ellik investorlar faoliyatining kafolatlari, xorijiy investitsiyalarni jalb etishning huquqiy asoslari. xalqaro shartnoma qoidalari.

Avvalo investitsiya nima ekanligini bilib olsak investitsiya (lotincha: investo – “o'rash”) - iqtisodni rivojlantirish maqsadida o'z mamlakatida yoki chet ellarda turli tarmoqlariga, ijtimoiy-iqtisodiy dasturlarga, innovatsiya, tadbirkorlik loyihalariga uzoq muddatli kapital kiritish. Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risidagi qonunning 1-modda. Ushbu Qonunning maqsadi va qo'llanilish sohasi. Ushbu Qonunning maqsadi chet ellik hamda mahalliy investorlar tomonidan amalga oshiriladigan investitsiyalar va investitsiya faoliyati sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

Ushbu Qonun markazlashtirilgan investitsiyalar bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solmaydi. Konsessiya faoliyati, mahsulot taqsimotiga oid bitimlar tuzish, ularni bajarish va bekor qilish, investitsiya, pay va venchur fondlari, kapital bozorini, shu jumladan qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq operatsiyalarni tartibga solish, davlat-xususiy sheriklik, maxsus iqtisodiy zonalar sohasidagi huquqiy munosabatlar alohida qonunlar bilan tartibga solinadi. Pulning vaqtga bog'liq qiymati nazariyasiga ko'ra, investitsiya kelajakda naf olish maqsadida mablag'lar qo'yishdir. Investitsiya kapitalni muayyan muddatga bog'lashni yoki band qilishni bildiradi. Bundan asosiy maqsad kapital qiymatini saqlab qolish yoki bo'lmasa kapital qiymatini vaqtda o'stirib borishdir. Iqtisodiy mazmuni jihatdan investitsiya turli faoliyatlarga safarbar etilgan moddiy, nomoddiy boyliklar va ularga bo'lgan huquqlarni aks ettiradi.

Investitsiya loyihalariga mablag' qo'yuvchilar — investorlar davlat, kompaniya, korxonalar, chet ellik fuqarolar, aholi va boshqalar bo'lishi mumkin. Ushbu qonunning 24-moddasiga qarasaq investitsiya faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish maqsadlaridan iboratdir. 24-modda. Investitsiya faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish maqsadlari. Investitsiya faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish O'zbekiston Respublikasini va uning hududlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning davlat vazifalari bajarilishini ta'minlaydigan investitsiya siyosatini amalga oshirish, investitsiyalar samaradorligini oshirish, O'zbekiston Respublikasi hududidagi turli investitsiya obyektlariga qo'yilmalar uchun xavfsiz shart-sharoitlarni ta'minlash maqsadida davlat boshqaruvi organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan amalga oshiriladi. Ushbu qonunni tahlil qiladigan bo'lsak O'zbekiston Respublikasi va uning hududlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning davlat vazifalari bajarilishini ta'minlaydigan investitsiya siyosati amalga oshirish davlat tomonidan tartibga solinadi.

Investitsiya faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish O‘zbekiston Respublikasini va uning hududlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning davlat vazifalari bajarilishini ta‘minlaydigan investitsiya siyosatini amalga oshirish, investitsiyalar samaradorligini oshirish, O‘zbekiston Respublikasi hududidagi turli investitsiya obyektlariga qo‘yilmalar uchun xavfsiz shart-sharoitlarni ta‘minlash maqsadida davlat boshqaruvi organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Investitsiya faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish quyidagilar orqali amalga oshiriladi:

- investitsiya faoliyatining normativ-huquqiy bazasini takomillashtirish;
- investitsiya faoliyatini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish va O‘zbekiston Respublikasi hukumatining kafolatlarini taqdim etish.

Investitsion hamkorlik umumjahon va milliy muammolarni hal qilishga xizmat qiladi. Jahondagi bevosita investitsiya faol o‘sib bormoqda: 1980-yillar o‘rtalarida jahon bo‘yicha umumiy yillik investitsiya hajmi 450 milliard dollarni tashkil qilgan bo‘lsa, 1990-yillar o‘rtalariga kelib investitsiya hajmi 2 trillion dollardan oshdi.

Respublikada investitsiya faoliyatining huquqiy bazasini yaratishda “Chet el investitsiyalari va chet ellik investorlar faoliyatining kafolatlari to‘g‘risida”, “Investitsiya faoliyati to‘g‘risida”, “Chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to‘g‘risida”, “Chet el investitsiyalari to‘g‘risida”, “Lizing to‘g‘risida”, “Qimmatli qog‘ozlar bozorida investorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi qonunlarining qabul qilinishi muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Investitsiya faoliyatida investorlar har bir mamlakatdagi investitsiya muhiti bilan bog‘liq bo‘lgan ko‘pdan ko‘p xatarlarga duch keladilar. Shu sababli investitsiyani, ayniqsa, chet el investitsiyalarini sug‘urta qilish muhim ahamiyatga ega. O‘zbekistonda xorijiy investitsiyalarni sug‘urtalash sohasida 1994-yilda tashkil etilgan “O‘zbekinvest” eksport-import milliy sug‘urta kompaniyasi faoliyat olib boradi.

Ushbu Qonun O‘zbekiston Respublikasi hududida chet el investitsiyalarini amalga oshirishning huquqiy, tashkiliy-iqtisodiy asoslarini hamda tartibini belgilab beradi. Qonun chet ellik investorlar samarali faoliyat yuritishining kafolatlarini ta‘minlab beradi, O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini rivojlantirish, uning jahon iqtisodiy tizimiga qo‘shilishiga ko‘maklashish maqsadida chet elning moliyaviy, moddiy, intellektual va boshqa resurslarini, xorijning zamonaviy texnologiyasi va boshqaruv sohasidagi tajribasini jalb etishga va ulardan omilkorlik bilan foydalanishga qaratilganidir.

Qoraqalpog‘iston Respublikasida investitsiya faoliyati sohasidagi munosabatlar Qoraqalpog‘iston Respublikasi qonun hujjatlari bilan ham tartibga solinadi. Chet el investitsiyalarini amalga oshirish bilan bog‘liq munosabatlarning o‘ziga xos xususiyatlari chet el investitsiyalari to‘g‘risidagi, chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to‘g‘risidagi qonun hujjatlari, O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari bilan ham tartibga solinadi.

Agar O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O‘zbekiston Respublikasining investitsiya faoliyati to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo‘lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo‘llanadi. Investitsiya faoliyati to‘g‘risidagi qonun bilan investitsiya faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish va chet el investitsiyalarini amalga oshirish bilan bog‘liq munosabatlarning o‘ziga xos xususiyatlari chet el investitsiyalarini to‘g‘risida. Janon tajribasida investitsiyani moliyalashtirish turli usul va shakllarda, shu jumladan, korxonalarni aksiyadorlashtirish va aksiyalarni joylashtirish, budjet mablag‘lari, bank kreditlari, lizing bevosita chet el investitsiyalarini ipoteka, budjetdan tashqari maxsus fondlar, amortizatsiya va xo‘jalik yuritish subyektlarning boshqa mablag‘lari hisobiga amalga oshiriladi.

14-modda. Investitsiya faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish

Investitsiya faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish quyidagi yo'llar bilan amalga oshiriladi:

investitsiya faoliyatining qonunchilik negizini takomillashtirish;

soliq to'lovchilar va soliq solish obyektlarini, soliq stavkalari va ularga doir imtiyozlarni tabaqalashtiruvchi soliq tizimini qo'llash;

asosiy fondlarni jadal amortizatsiya qilish;

normalar, qoidalar va standartlarni belgilash;

monopoliyaga qarshi choralarni qo'llash;

kredit siyosati va narx belgilash siyosatini o'tkazish;

yerga va boshqa tabiiy resurslarga egalik qilish va ulardan foydalanish shartlarini belgilash;

investitsiya loyihalarini ekspertiza qilish mexanizmlarini belgilash;

O'zbekiston Respublikasining Investitsiya dasturiga kiritilgan investitsiya loyihalarining amalga oshirilishi monitoringini yuritish.

Investitsiya faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa shakllarda ham amalga oshiriladi.

22-modda. Investitsiyalarni himoya qilish

Davlat investitsiyalar himoya qilinishini kafolatlaydi.

O'zbekiston Respublikasida investitsiyalar va investorlarning boshqa aktivlari davlat mulkiga aylantirilmaydi.

Investitsiyalar va investorlarning boshqa aktivlari rekvizitsiya qilinmaydi, tabiiy ofatlar, avariya, epidemiyalar, epizootiya hollari va boshqa favqulodda xususiyatga ega bo'lgan holatlar bundan mustasno.

Investitsiyalarni rekvizitsiya qilish to'g'risidagi qaror:

ushbu moddaning uchinchi qismida ko'rsatilgan hollardan kelib chiquvchi vazifalarni hal etish uchun zarur bo'lgan investitsiyalar yoki boshqa aktivlarning eng kam miqdori cheklanadigan;

kamsitilmaydigan asosda va qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladigan. Investitsiyani davlat tomonidan himoya qilish kafolatlanadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qonun va qonunosti hujjatlari:
2. Luenberger, DG (1998). Investment Science. Oxford University Press. pp. 1–2. ISBN 978-0195108095. Retrieved 1 March 2023.
3. O'zbekiston Respublikasining qonuni investitsiya faoliyati to'g'risidagi qonun, Toshkent. Sh. 1998-yil 24-dekabr. 719-l-son.
4. O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 25.12.2019-yildagi O'RQ-598-son. (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 26.12.2019-y., 03/19/598/4221-son;

## O'ZBEKISTONDA CHET EL INVESTORLARINING HUQUQLARI

**Ro'ziboyeva Zulhumor Fozil qizi**  
Qashqadaryo viloyati yuridik  
texnikumi 203-21-guruh o'quvchisi

**Annotatsiya:** Bugungi kunda xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning bir qancha shakllari mavjud: ulush qo'shib qatnashishi orqali qo'shma korxonalarini tashkil etish, 100% mol- mulk xorijiy investorlar tegishli bo'lgan xorijiy korxonalarini tashkil etish, yirik xorijiy kompaniya va firmalarning korxonalarini va filiallarini tashkil etish, konsessiya va lizing shartnomalarini tuzish, tenderlar e'lon qilish, erkin iqtisodiy hududlar tashkil etish, moliyaviy aktivlarni sotish va sotib olish

**Kalit so'zlar:** Investitsiyaga oid normativ-huquqiy hujjatlar, chet el investitsiyalarini O'zbekistonga jalb qilish, investorlarning majburiyatlari, investorlar uchraydigan muammolar, investitsiyaga oid takliflar.

Investitsiya (lotincha: investio — “o'rash”) — iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadida o'z mamlakatida yoki chet ellarda turli tarmoqlarga, ijtimoiy-iqtisodiy dasturlarga, innovatsiya, tadbirkorlik loyihalariga uzoq, muddatli kapital kiritish (qo'yish). Pulning vaqt (zamon)ga bog'liq qiymati nazariyasiga ko'ra, investitsiya kelajakda naf olish maqsadida mablag'lar qo'yishdir. Investitsiya kapitalni muayyan muddatga bog'lashni yoki band qilishni bildiradi. Bundan asosiy maqsad kapital qiymatini saqlab qolish yoki bo'lmasa kapital qiymatini vaqtda o'stirib borishdir. Iqtisodiy mazmuni jihatdan investitsiya turli faoliyatlarga safarbar etilgan moddiy, nomoddiy boyliklar va ularga bo'lgan huquqlarni aks ettiradi. Investitsiya sifatida pul, qimmatli qog'ozlar (aksiya, obligatsiya, sertifikat, veksel), yer, bino, inshoot kabi boyliklar, intellektual mulk bo'lgan ilmiy kashfiyotlar, ixtirolar va b. ishlatiladi. Investitsiya loyihalariga mablag' qo'yuvchilar — investorlar davlat, kompaniya, korxonalar, chet ellik fuqarolar, aholi va boshqalar bo'lishi mumkin.

Uning quyidagi turlari mavjud: davlat investitsiyasi — davlat byudjeti va moliya manbalari hisobidan kiritiladi; chet el investitsiyasi — xorijiy davlatlar, banklar, kompaniyalar, tadbirkorlar tomonidan kiritiladi; xususiy investitsiya — xususiy, korporativ xo'jalik va tashkilotlar, fuqarolar mablag'lari, shu jumladan, shaxsiy va jalb qilingan mablag'lar hisobidan qo'yiladi. Investitsiya qo'yilish shakliga qarab moliyaviy (portfel) va real (ishlab chiqarish) investitsiyaga bo'linadi. Moliyaviy (portfel) investitsiya — aksiya, obligatsiya va b. qimmatli qog'ozlarni sotib olishga qo'yiladigan investitsiya, ; real investitsiya — moddiy ishlab chiqarish (sanoat, qishloq xo'jaligi, qurilish va b.) sohasiga, moddiy-ashyoviy faoliyat turlariga uzoq, muddatli mablag'lar qo'yish shakllarida amalga oshiriladi. Jahon tajribasida investitsiyani moliyalashtirish turli usul va shakllarda, shu jumladan, korxonalarini aksiyadorlashtirish va aksiyalarni joylashtirish, budjet mablag'lari, bank kreditlari, lizing, bevosita chet el investitsiyalari, ipoteka, byudjetdan tashqari maxsus fondlar, amortizatsiya va xo'jalik yuritish subyektlarining boshqa mablag'lari hisobiga amalga oshiriladi. Keyingi davrda xalqaro iqtisodiy munosabatlarda investitsion hamkorlik rivoj topdi. Bunday hamkorlikning real, moliyaviy, intellektual (litsenziyalar, nou-xauni berish, hamkorlikda bajariladigan ilmiy ishlanmalar va b.ga mablag' sarflash) ko'rinishlari bor.

Investitsion hamkorlik umumjahon va milliy muammolarni hal qilishga xizmat qiladi. Jahondagi bevosita investitsiya faol o'sib bormoqda: 1980-yillar o'rtalarida jahon bo'yicha umumiy yillik investitsiya hajmi 450 milliard dollarni tashkil qilgan bo'lsa, 1990-yillar o'rtalariga kelib investitsiya hajmi 2 trillion dollardan oshdi.

O'zbekiston Respublikasida bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida respublika iqtisodiyotida tuzilmaviy o'zgarishlarni amalga oshirishda investitsiyadan samarali foydalanilmoqda. O'zbekiston Respublikasida 1996-yildan boshlab respublika hukumati har yili davlat byudjeti

va byudjetdan tashqari fondlar mablag'lari hisobidan kapital qo'yilmalar limitlari, chet el investitsiyalari va hukumat kafolati bilan olingan kreditlar hisobiga aniq qurilishlar dasturi, shuningdek, bevosita chet el investitsiya va kreditlari hisobiga qurilishlar dasturidan iborat bo'lgan Davlat investitsiya dasturini qabul qiladi. Respublika iqtisodiyotiga investitsiya kiritishda davlat budjeti mablag'lari, chet el investitsiyalari, korxonalarining o'z mablag'lari va aholi jamg'armalari qatnashmoqda. Respublikada aholining qimmatli qog'ozlarga jamoaviy investitsiyani amalga oshiradigan xususiylashtirish investitsiya fondlari (XIF) va kompaniyalari tarmog'i rivoj topdi. 2000-yilda moliyalashtirishning jami manbalari hisobidan mamlakat iqtisodiyotiga salkam 700 milliard so'm, shu jumladan, 810 million AQSh dollari investitsiyalandi. Uning 30,3 %ni respublika budjeti, 39,1 %ni korxonalar va aholi mablag'lari, 7,5 %ni banklar kreditlari va b. qarz mablag'lar, 21,7 %ini chet el investitsiyalari va kreditlari, 1,4 %ni byudjetdan tashqari jamg'armalar mablag'lari tashkil qiladi. Respublikada investitsiya faoliyatining huquqiy bazasini yaratishda "Lizing to'g'risida" (1999-yil 14-aprel), "Qimmatli qog'ozlar bozorida investorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi (2001-yil 30-avgust) qonunlarining qabul qilinishi muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Investitsiya faoliyatida investorlar har bir mamlakatdagi investitsiya muhiti bilan bog'liq bo'lgan ko'pdan ko'p xatarlarga duch keladilar. Shu sababli investitsiyani, ayniqsa, chet el investitsiyalarini sug'urta qilish muhim ahamiyatga ega. O'zbekistonda xorijiy investitsiyalarni sug'urtalash sohasida 1994-yilda tashkil etilgan "O'zbekinvest" eksport-import milliy sug'urta kompaniyasi faoliyat olib boradi.

Xorijiy investitsiyalar — chet el investorlari tomonidan yuqori darajada daromad olish, samaraga erishish maqsadida mutlaq boshqa davlat iqtisodiyotining, tadbirkorlik va boshqa faoliyatlariga safarbar etadigan barcha mulkiy, moliyaviy, intellektual boyliklaridir. Chet el investitsiyalari ichki investitsiyalardan farqli holda tashqi moliyalashtirish manbaiga kiradi. Ular milliy iqtisodiyotga chetdan, ularning kelishini rag'batlantirgan holda jalb qilinadi. Lekin chet el kapitalini jalb qilishning hamma shakllari ham moliyalashtirishning tashqi manbai bo'lmasligi mumkin. Bu birinchi navbatda foiz to'lovlari bilan qaytarishni talab etadigan kreditlar va qarzlarga taalluqli. Chunki, chet el kreditlari va xalqaro moliya institutlari qarzlari ma'lum vaqt o'tgach asosiy qarz bilan birga belgilangan foizlarining qaytarilishini talab etadi. Chetdan jalb etiladigan xorijiy investitsiyalar bilan chet eldan kiritiladigan kreditlarning o'ziga xos farqlari mavjuddir. Bu borada xorijiy investitsiyalar risklar doirasi bilan chet el kreditlari risklari kengligi farqlanadi.

#### **Chet ellik investorlarning huquqlari:**

Chet ellik investor quyidagi huquqlarga ega:

- investitsiyalashni amalga oshirishning hajmlari, turlari va yo'nalishlarini mustaqil belgilash;
- investitsiya faoliyatini amalga oshirish uchun yuridik va jismoniy shaxslar bilan shartnomalar tuzish;
- o'zining investitsiyalariga va investitsiya faoliyatining natijalariga egalik qilish, ulardan foydalanish va ularni tasarruf etish. Chet ellik investorning qaroriga binoan investitsiyalarga, ularning natijalariga egalik qilish, ulardan foydalanish, ularni tasarruf etish huquqlari O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida belgilangan tartibda boshqa yuridik va jismoniy shaxslarga berilishi mumkin. Huquqlar boshqa shaxsga berilganda taraflarning o'zaro munosabatlari shartnomalar asosida tartibga solinadi;
- O'zbekiston Respublikasidagi investitsiya faoliyati natijasida olingan o'ziga qarashli ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalarini chet ellarda va O'zbekiston Respublikasida patentlashtirish to'g'risida mustaqil ravishda qaror qabul qilish;
- investitsiya faoliyati natijasida olingan daromadni soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar to'langanidan keyin mustaqil va erkin tasarruf etish (shu jumladan uni moneliksiz repatriatsiya qilish);

- O'zbekiston Respublikasiga kreditlar va qarzarlar tariqasida pul mablag'lari jalb etish;
- o'z hisobvarag'idagi milliy valyuta mablag'laridan ichki valyuta bozorida chet el valyutasini sotib olish uchun foydalanish;
- qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda va shartlarda yer uchastkalariga doir huquqlarni sotib olish;
- O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq, o'ziga mulk huquqi asosida qarashli bo'lgan mol-mulk va har qanday mulkiy huquqlardan zimmaga olgan majburiyatlarning, shu jumladan qarz mablag'larini jalb etishga qaratilgan majburiyatlarning barcha turlari bo'yicha ta'min sifatida foydalanish;
- o'z investitsiyalari va boshqa aktivlari rekvizitsiya qilingan taqdirda mutanosib ravishda tovon olish;
- davlat boshqaruv organlarining, mahalliy davlat hokimiyati organlarining hamda ular mansabdor shaxslarining g'ayriqonuniy harakatlari (harakatsizligi) hamda qarorlari natijasida yetkazilgan zararlarni o'ndirish.

O'zbekiston Respublikasida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar yo'naltirilayotgan iqtisodiyot tarmoqlari yoki hududlar kesimida investitsiya kiritish uchun qandaydir cheklovlar belgilanmagan.

Investitsiya muhiti Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va O'zbekistonning investitsiya jozibadorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar.

So'nggi bir necha yil ichida O'zbekiston jadal iqtisodiy o'zgarishlarni boshdan kechirdi va xalqaro hamjamiyatda biznes va investitsiyalar uchun turli xil to'siqlarini bartaraf etishda ochiqlik, yangilanish va qat'iyatlilik ramzlaridan biri sifatida tobora ko'proq namoyon bo'lmoqda.

O'zbekiston Respublikasining "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi Qonunini samarali ijro etilishi uchun investorlar bilan Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi, hokimliklar, xorijdagi diplomatik vakolatxonalar va tijorat banklari rahbarlari o'rinbosarlaridan iborat bo'lgan davlat hokimiyat organlari hamkorligining 4 bosqichli mexanizmi muvaffaqiyatli yo'lga qo'yilgan. Ushbu mexanizm investorlarning barcha so'rovlariga tezkor javob qaytarish va qonunda nazarda tutilgan chora-tadbirlar amalga oshirilishining samaradorligini kerakli tarzda nazorat qilish imkonini beradi.

Shu nuqtai nazardan, Yevropa tiklanish va taraqqiyot bankinging ko'magi bilan tuzilgan, Respublikada faoliyat yuritayotgan investorlar bilan bevosita muloqotni ta'minlaydigan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Xorijiy investorlar kengashining rolini ta'kidlash muhim ahamiyatga ega.

Xalqaro hakamlik sudlari institutining rivojlanishi ham faol qo'llab-quvvatlanmoqda. O'z navbatida, bu mamlakat investitsiya muhitining muhim va tizim tashkil etuvchi tarkibiy qismi bo'lgan qonun ustuvorligini hamda davlat va mahalliy investorlar zimmasidagi majburiyatlarning to'g'ri bajarilishini ta'minlaydi.

Shu bilan birga, jahon amaliyoti va tajribasi shuni ko'rsatadiki, biznesning investitsiya va innovatsion faoliyatiga to'sqinlik qilayotgan muammolarni endi oddiy vositalar bilan, ya'ni imtiyozlar berish yoki yangi deklarativ me'yorlarni nashr etish bilan hal qilishning imkoni yo'q.

Xususiyl investitsiyalarni faollashtirish uchun tadbirkorlik faoliyatini erkinlashtirish talab etiladi. Biznes bilan doimiy muloqot, muayyan sektorlarning rivojlanishiga to'sqinlik qiladigan to'siqlarni aniqlash va yengib o'tish bo'yicha astoydil ish olib borish kerak. Shu munosabat bilan quyidagi yo'nalishlar bo'yicha faol ish olib borilmoqda.

Birinchiidan, iqtisodiy o'sishning bir maromdagi yuqori va barqaror sur'atlarini saqlab qolish uchun mamlakat iqtisodiyotining barqaror va raqobatbardosh, bank tizimi aktivlarining katta qismi xususiyl investorlar qo'lida bo'lgan modelini shakllantirish zarur.

Ikkinchidan, investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish va barqaror iqtisodiy o‘shishning asosiy omillaridan biri bo‘lgan infratuzilmaga yo‘naltirilgan investitsiyalarining jadal o‘shishini ta‘minlash maqsadida davlat-xususiy sheriklik va loyihalarni moliyalashtirish vositalarini rivojlantirish orqali investitsiyaviy faoliyatni rag‘batlantirish ham faol tarzda olib borilmoqda.

Uchinchidan, raqamlashtirish va davlat xizmatlarini masofaviy taqdim etish orqali investitsiya loyihalarini amalga oshirishda byurokratik to‘siqlar va cheklovlarni to‘liq bartaraf etish uchun investorlar va davlat o‘rtasidagi munosabatlar optimallashtirilmoqda. Shaffoflikni maksimal darajada ta‘minlash va korrupsiyaning oldini olish uchun xorijiy investorlarning murojaatlari va so‘rovlari bilan ishlashni tashkil etish sifati yaxshilanmoqda.

To‘rtinchidan, ish kuchi va kapitalning iqtisodiyotning qonuniy sektorlaridan yashirin iqtisodiyotga oqib ketishiga olib keladigan tranzaksiya xarajatlarining kamayishi kuzatilmoqda.

Beshinchidan, kelgusida texnologik yutuqlarga erishish nuqtasiga aylanishi va keyingi 20-30 yil davomida mamlakat ishlab chiqarish quvvatlarini rivojlanishi uchun zamin yaratishi mumkin bo‘lgan O‘zbekistonning eng istiqbolli sohalariga yo‘naltirilgan investitsiya siyosati strategiyasi ishlab chiqilmoqda.

Investitsiya muhiti mamlakatdagi barcha faoliyat sohalariga ta‘sir ko‘rsatishini inobatga olgan holda, islohotlar ko‘lami iqtisodiy, institutsional, ta‘lim, sog‘liqni saqlash, qishloq xo‘jaligi, suv ta‘minoti, energetika, transport va boshqa yo‘nalishlarni qamrab oldi. Shuningdek, tadbirkorlarni va investitsiya loyihalari tashabbuskorlarini amaliy qo‘llab-quvvatlashga katta e‘tibor qaratilmoqda. Ushbu yo‘nalishdagi eng yorqin misol - bu 2020-yilda tuzilgan eksport va investitsiyalarni rivojlantirish masalalari bo‘yicha Hukumat komissiyasining faoliyati bo‘lib, uning vazifalariga tadbirkorlar va eksportchilar bilan yaqin hamkorlik qilish, pandemiya tufayli yuzaga kelgan cheklovlar bilan bog‘liq muammolarni tahlil qilish, shuningdek, har bir tadbirkorlik subyektining muammosini hal qilishda individual yondashuv asosida tezkor va samarali yechimlarni ishlab chiqish va amalga oshirish kiradi. O‘tgan yil yakuni bo‘yicha Komissiya a‘zolarining joylarga chiqqan holda olib borgan faoliyati natijasida 98 mingdan ortiq korxonalar faoliyati manzilli tartibda o‘rganildi va natijada 5902 ta korxonalarining 6235 ta muammoli masalalari aniqlandi. Muammolarning har biri tegishli vazirliklar, idoralar, tijorat banklari, mahalliy hokimiyat organlari va Respublikaning xorijdagi diplomatik vakolatxonalari bilan yaqin hamkorlikda hal etildi.

- Investitsiya muhiti
- Jahon bankining kreditlari ishtirokida «O‘rta shaharlarni kompleks rivojlantirish» loyihasi
- “Roud-shou” xorijiy investitsiyalarni jalb etish vositasi sifatida
- O‘zbekistonning erkin iqtisodiy zonalari: 2020-yil yakunlari va 2021-yilda rivojlanish istiqbollari
- Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va O‘zbekistonning investitsiya jozibadorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar
- Xorijiy investorlar kengashi

### **1. “Xorijiy investorlar kengashi” nima?**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Xorijiy investorlar kengashi (keyingi o‘rinlarda — Kengash) O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi maslahat organi hisoblanadi.

Kengash o‘z faoliyatini O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga, O‘zbekiston Respublikasining qonunlariga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari, va farmoyishlariga, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, ushbu Nizomga va boshqa qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiradi.



Kengash davlat organlari va tashkilotlari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari va O'zbekiston Respublikasida investitsiya va tadbirkorlik faoliyatini yurituvchi investorlarning, shu jumladan xorijiy kompaniyalar, banklar, investitsiyaviy va boshqa tuzilmalar, xalqaro moliya institutlari va xorijiy hukumat moliya tashkilotlari (keyingi o'rinlarda — XMI/XHMT) o'rtasidagi to'g'ridan-to'g'ri muloqotni shakllantiradigan, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki hamkorligida Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi tomonidan muvofiqlashtiriladigan institutsional platforma hisoblanadi.

## **2. Kengashning maqsadi, vazifalari va funksiyalari**

Kengashning maqsadi - O'zbekistonda qulay, kamsitmaydigan, oshkora va konstruktiv ishbilarmonlik muhitini yanada rivojlantirish, bu esa investitsiyalarni, birinchi navbatda, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, O'zbekiston Respublikasi davlat organlari va xalqaro moliya institutlari, xorijiy kompaniyalar, banklar, investitsiyalar va boshqa vakillar o'rtasidagi ochiq va konstruktiv muloqot orqali yordam beradi.

Quyidagilar Kengashning asosiy vazifalari hisoblanadi:

ilg'or jahon tajribasi va amaliyotlariga tayangan holda O'zbekiston Respublikasi Hukumatiga mamlakatni investitsiyaviy, sanoat-texnologik va innovatsion rivojlantirishning eng muhim yo'nalishlari bo'yicha maslahatlar berish;

qulay investitsiya muhitini shakllantirishda, mahalliy hamda xorijiy tadbirkorlarni iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlari va hududlarga raqobatbardosh eksportbop mahsulotlarni ishlab chiqaruvchi zamonaviy korxonalarni tashkil etish maqsadida sarmoya kiritishlarini rag'batlantirishning samarali mexanizmlarini shakllantirishda bevosita ishtirok etish, shuningdek, investitsiyalarni, eng avvalo to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarni faol jalb qilishga va o'zaro manfaatli savdoni rivojlantirishga ko'maklashish;

davlat organlari va xo'jalik yurituvchi subyektlarning xorijiy kompaniyalar, banklar, investitsiya va boshqa tuzilmalar, xalqaro moliya institutlari va xorijiy hukumat moliya tashkilotlari bilan o'zaro manfaatli hamkorligini ta'minlash;

investitsiyalarni jalb qilish va investorlarning, shu jumladan xorijiy investorlarning faolligiga to'sqinlik qiluvchi asosiy omillarni aniqlash va tahlil qilish, respublikada qulay ishbilarmonlik va investitsiya muhiti saqlab turishni ta'minlanish.

Mahalliy xususiy investorlar preferensiyalarga ega bo'ladi

Faqatgina xorijlik investorlarga berilayotgan preferensiyalar endilikda mahalliy xususiy sarmoyadorlarga ham taqdim etiladi. Ular o'z hisoblaridan 25 mln dollarlik loyihani boshlasalar, tashqi muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari byudjet hisobidan qilib beriladi.

Mahalliy xususiy investorlar preferensiyalarga ega bo'ladi. O'zbekiston prezidenti Shavkat Mirziyoyev 26-may kuni investitsiyalarga bag'ishlab o'tkazilgan videosektor yig'ilishida to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni jalb qilishga yondashuvni o'zgartirish hamda milliy sarmoyadorlarni qo'llab-quvvatlashni kengaytirish zarurligini ta'kidladi. Bu haqda "O'zbekiston 24" telekanali xabar berdi. Shu vaqtga qadar faqatgina xorijlik investorga taqdim etib kelinayotgan preferensiyalar endilikda mahalliy xususiy sarmoyadorlarga ham beriladi. Masalan, agarda xususiy investor qiymati 25 mln dollardan boshlanadigan loyihani amalga oshirishga kirishsa, tashqi muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari byudjet hisobidan qurib beriladi.

Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, ayni vaqtda chet ellik sarmoyadorlar uchun quyidagi imtiyoz va preferensiyalar berilmoqda: soliqqa tortiladigan daromad, QQS, yuridik shaxslar mol-mulk soliqlari va bojxona bojlari bo'yicha imtiyozlar. Yig'ilishda tarmoqlar va hududlar kesimida koronavirus pandemiyasi sababli xorijiy investitsiyalarni o'zlashtirishda xavf-xatarlar mavjudligi ham ko'rib chiqildi. Bu kabi loyihalar istiqbollarini o'rganish asosida ularni kechiktirish yoki yangilariga almashtirish lozimligi qayd etildi.

Xalqaro moliya institutlari kreditlari hisobiga moliyalashtirilayotgan 98 ta loyiha bo'yicha mablag'larni o'zlashtirish darajasi tanqid qilindi. 2020-yilgi investitsiya dasturiga jami 3000 dan ortiq loyihalar kiritilgan bo'lib, ular bo'yicha 235 trln so'm, shu jumladan 7 mlrd dollarlik to'g'ridan to'g'ri investitsiyalarni o'zlashtirish ko'zda tutilgan.

Xulosa qiladigan bo'lsam investitsiya har qanday davlatni rivojlantirish va boshqa institutlarini vaqt davlatlar o'rtasida bog'liqlik va do'stlik aloqalarini rivojlantirish uchun katta yordam beradi balki butun dunyoda investitsiya har doim rivojlanayotgan ham tinch va investorlar talabiga javob beradigan zamonaviy texnologiyalar bilan yanada rivojlantirish borasida keng qamrovli islohotlar olib borilmoqda. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan o'zgarishlar investitsiya sohasiga sezilarli darajada ta'sir etdi va mamlakatimizda juda ko'p binolar va qo'shma korxonalar tashkil etilgan, shu jumladan mamlakatimiz rahbarining tashabbusi bilan 2019-yilni "Faol investitsiya va uni rivolantirish yili" deb e'lon qilinishi bu investorlar uchun qulay shart-sharoit yaratish maqsadida tegishli ishlar amalga oshirildi. Normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi va oldingi yillarga qaraganda ancha yaxshi rivojlantirish darajasi yuqori deb faxr bilan aytolaman va ba'zi kamchiliklar ham mavjud bo'lib, ularni bartaraf etish choralari ko'rilmogda.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 1992.
2. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. – T.: O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, 2003.
3. O'zbekiston Respublikasining "Ipoteka to'g'risida"gi Qonuni, 2006-yil 4-oktabr.
5. O'zbekiston Respublikasining "Lizing to'g'risida"gi Qonuni, 14-aprel 1999-yil.

## INVESTITSIYA FAOLIYATINING XALQARO-HUQUQIY ASOSLARI VA MILLIY HUQUQ BILAN TARTIBGA SOLINISHI

**Fayziyeva Dilnoza Abduraximovna**  
Buxoro viloyati yuridik texnikumi o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada xalqaro investitsiya huquqi, investorlik faoliyati va uning xalqaro va milliy huquq bilan tartibga solinishi, xorijiy investorlar manfaatlarini himoya qilish

**Kalit so'zlar:** investitsiya, ichki investitsiya, chet el investitsiyasi, investor, mahalliy investitsiyalar, xalqaro moliya institutlari, investitsiyalarni sug'urta qilish, capital

Investitsiya faoliyatini amalga oshirish va chet el investitsiyasini faol jalb etish uchun, nafaqat, hududlar balki, tarmoqlarda, shuningdek, investitsiya faoliyatining subyekti va obyektlarida ham investitsion jozibadorlik reytinglarini tahlil etib, hisoblab chiqish zarurdir. Investitsiyaga oid umumiy faoliyatiga to'xtalib o'tishdan oldin, "investitsiya, investitsiya faoliyati" investitsiyaning faol tashabbuskori hisoblanmish "xorijiy investitsiya" tushunchalariga to'xtalib o'tish joiz.

**Investitsiyalar** – investor tomonidan foyda olish maqsadida ijtimoiy soha, tadbirkorlik, ilmiy va boshqa faoliyat turlari obyektlariga tavakkalchiliklar asosida kiritiladigan moddiy va nomoddiy boyliklar hamda ularga bo'lgan huquqlar, shu jumladan intellektual mulk obyektlariga bo'lgan huquqlar

**Investitsiya faoliyati** – investitsiya faoliyati subyektlarining investitsiyalarni amalga oshirish bilan bog'liq harakatlari majmui;

**Xorijiy investitsiyalar** — chet el investorlari tomonidan yuqori darajada daromad olish, samaraga erishish maqsadida mutlaq boshqa davlat iqtisodiyotining, tadbirkorlik va boshqa faoliyatlariga safarbar etadigan barcha mulkiy, moliyaviy, intellektual boyliklaridir. Chet el investitsiyalari ichki investitsiyalardan farqli holda tashqi moliyalashtirish manbaiga kiradi. Ular milliy iqtisodiyotga chetdan, ularning kelishini rag'batlantirgan holda jalb qilinadi. Lekin chet el kapitalini jalb qilishning hamma shakllari ham moliyalashtirishning tashqi manbai bo'lmasligi mumkin. Bu birinchi navbatda foiz to'lovlari bilan qaytarishni talab etadigan kreditlar va qarzlarga taalluqli. Chunki, chet el kreditlari va xalqaro moliya institutlari qarzlari ma'lum vaqt o'tgach asosiy qarz bilan birga belgilangan foizlarining qaytarilishini talab etadi. Chetdan jalb etiladigan xorijiy investitsiyalar bilan chet eldan kiritiladigan kreditlarning o'ziga xos farqlari mavjuddir. Bu borada xorijiy investitsiyalar risklar doirasi bilan chet el kreditlari risklari kengligi farqlanadi.

Xalqaro investitsiya huquqi subyektlari faoliyatida barqarorlikni, halol va erkin raqobatni ta'minlash, proteksionizm hamda diskriminatsiyani oldini olishda xalqaro investitsiya huquqining mazkur ikki rejimi muhim rol o'ynaydi. Bunda Milliy rejimni joriy etishdan xorijiy va mahalliy investitsiyalar o'rtasida salbiy diskriminatsiyani, davlatlarning proteksionizm siyosatini oldini olish, xorijiy va mahalliy investitsiyalar uchun teng raqobat muhiti yaratish, xorijiy investorlar manfaatlarini himoya qilish kabi maqsadlar ko'zlangan bo'lsa, eng qulay shartlar rejimi asosida qabul qiluvchi davlat shartnoma tarafi bo'lgan boshqa davlat investorlari yoki ularning investitsiyalariga muayyan sohada uchinchi davlat investorlari va ularning investitsiyalari uchun nazarda tutilganidan kam bo'lmagan qulay shartlar taqdim etish majburiyatini oladi. Ushbu rejim doirasida investorlar uchun teng raqobat muhitini yaratish, diskriminatsiyani oldini olish, investorlar huquqlarini kafolatlash maqsadlari qabul qiluvchi davlatning mahalliy investorlariga tatbiqan emas, balki xorijiy davlatlar investorlariga nisbatan amalga oshiriladi. Mazkur ish doirasida xalqaro investitsiya huquqining asosiy tamoyillaridan

bo‘lib hisoblangan “Milliy rejim hamda eng qulay shartlari rejimi” qiyosan tahlil etiladi, ular mazmun-mohiyatini belgilovchi qoidalar, keyslar va boshqa manbalar muhokama qilinadi.

Respublikamizda investitsiya faoliyatining huquqiy bazasini yaratishda “Lizing to‘g‘risida” (1999-yil 14-aprel), “Qimmatli qog‘ozlar bozorida investorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida” (2001-yil 30-avgust) qonunlarining qabul qilinishi muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Investitsiya faoliyatida investorlar har bir mamlakatdagi investitsiya muhiti bilan bog‘liq bo‘lgan ko‘pdan-ko‘p xatarlarga duch keladilar. Shu sababli investitsiyani, ayniqsa, chet el investitsiyalarini sug‘urta qilish muhim ahamiyatga ega. O‘zbekistonda xorijiy investitsiyalarni sug‘urtalash sohasida 1994-yilda tashkil etilgan “O‘zbekinvest” eksport-import milliy sug‘urta kompaniyasi faoliyat olib boradi.

Yevropa tiklanish va taraqqiyot bankinging ko‘magi bilan tuzilgan, Respublikada faoliyat yuritayotgan investorlar bilan bevosita muloqotni ta‘minlaydigan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi *Xorijiy investorlar kengashining* rolini ta‘kidlash muhim ahamiyatga ega.

Xalqaro huquqda bu borada Xalqaro hakamlik sudlari institutining rivojlanishi faol qo‘llab quvvatlanmoqda. O‘z navbatida, bu mamlakat investitsiya muhitining muhim va tizim tashkil etuvchi tarkibiy qismi bo‘lgan qonun ustuvorligini hamda davlat va mahalliy investorlar zimmasidagi majburiyatlarning to‘g‘ri bajarilishini ta‘minlaydi. Shu bilan birga, jahon amaliyoti va tajribasi shuni ko‘rsatadiki, biznesning investitsiya va innovatsion faoliyatiga to‘sqinlik qilayotgan muammolarni endi oddiy vositalar bilan, ya‘ni imtiyozlar berish yoki yangi deklarativ me‘yorlarni nashr etish bilan hal qilishning imkoni yo‘q.

Chet el investorlari, asosan, daromad (foyda) olish maqsadida tadbirkorlik faoliyati va qonun hujjatlarida ta‘qiqqlanmagan boshqa turdagi faoliyat obyektlariga qo‘shadigan barcha turdagi moddiy va nomoddiy boyliklar va ularga doir huquqlar, shu jumladan, intellektual mulkka doir huquqlar, chet el investitsiyalaridan olingan har qanday daromad O‘zbekiston Respublikasi hududida *chet el investitsiyalari* deb e‘tirof etiladi. Mulkchilikning turli shakllari tarkib topishi investitsiyalarning rivojlanishiga katta turtki bo‘ldi. Mulkchilikning turli shakllarining vujudga kelishi munosabati bilan kapitalning sohalardagi o‘zgaruvchanligi, uning oqimi, hududlarga taqsimlanishi tezlashdi.

Qo‘shma korxonalar tashkil etish orqali xorijiy investitsiyalarni jalb qilish keng tarqalgan shakllaridan biri hamkorlikda *qo‘shma korxonalar*ni tashkil etishdir. O‘zbekiston Respublikasida qo‘shma korxonada deganda, nizom kapitalining kamida 30 % xorijiy investorlarga tegishli bo‘lgan va xorijiy investor faqat yuridik shaxs bo‘lgan, nizom kapitalining eng kam miqdori AQSh dollariga teng bo‘lgan ekvivalent summani tashkil etgan korxonalariga aytiladi. Xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonada nizom jamg‘armasining AQSH dollaridan kam bo‘lmasligi sifatsiz mahsulotlarining oldi-sotdisi va ularni respublikaga import qilish ishlari bilan shug‘ullanishga ixtisoslashgan kichik qo‘shma korxonalarining keragidan ortiqcha kirib kelishining oldini olish maqsadida belgilangan.

*Moliyaviy aktivlar* - bu qimmatli qog‘ozlar bo‘lib, u chet el kapitalini jalb etish, chet el kreditlarini olish va chet el kapitalini bank depozitlariga jalb etish uchun emissiya qilinadi. Bunda, asosan, chet el investitsiyasini iqtisodiyot sohalari bo‘yicha mutanosib jalb etishning kompleks dasturini ishlab chiqish va unda tarmoqlarni, asosan, 3 guruhga, ya‘ni ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish va ijtimoiy sohalarga bo‘lib, investitsiyani ustuvor darajada real sektorga yo‘naltirib, so‘ng qolgan sohalarni rivojlantirishga hamda iqtisodiyot rivojlanishi va zaruriyatidan kelib chiqib, xizmat ko‘rsatish va ijtimoiy sohalarga ham jalb etilsa, maqsadga muvofiq bo‘lur edi. Rivojlangan mamlakatlar xalqaro kapital harakatini, asosan, kapital eksporti-importini milliy va xalqaro darajada rag‘batlantirish orqali amalga oshiradilar. Kapitalning qarzlari, portfel investitsiyalar va boshqalar shaklida harakat qilishi borasidagi davlat siyosati uning harakatidagi barcha cheklashlarni olib tashlash maqsadida olib boriladi.

Davlat tartibga solishning quyidagi usullaridan foydalanadi: 1) *moliyaviy*: jadallashtirilgan amortizatsiya; soliq imtiyozlari; subsidiyalar, qarzlarni berish; kreditlarni sug`urtalash va kafolatlash; 2) *nomoliyaviy*: yer uchastkalari ajratish; zaruriy infrastruktura bilan ta`minlash; texnik yordam ko`rsatish.

Barcha xorijiy investitsiyalarga nisbatan davlat har qanday cheklashlarni amalga oshirish huquqini o`z zimmasida qoldiradi, chunki bu milliy iqtisodiy xavfsizlik bilan bog`liq. Vazirlar Mahkamasining 2019-yil maydagi qaroriga muvofiq tashkil etilgan 2022-yil 7-sentabrda Prezident farmoni bilan to`g`ridan-to`g`ri investitsiyalar jamg`armasi MChJ boshqaruv shaklidagi investitsion kompaniyaga aylantirildi. Kuzatuv kengashiga investitsiyalar va tashqi savdo vaziri raislik qiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Tojiboyeva D. Iqtisodiyot nazariyasi: ikkinchi kitob: oliy o`quv yurtlari talabalari uchun o`quv qo`llanma. – 2003.
2. Sharifxo`jayev M. “Iqtisodiyot asoslari” ilmiy tahriri ostida. – T.: Sharq, 2003.
3. Xoshimov Chet el investitsiyalari korxonalami soliqqa tortish va uni takomillashtirish yo`llantirish. – T., 2004.
4. G`ozibekov D. Investitsiyalarni moliyalashtirish masalalari. – T.: Moliya, 2003.
5. Nosirov E.I. O`zbekiston iqtisodiyoti asoslari: risola. – T. Iqtisod-moliya, 2001.

## INVESTITSIYA FAOLIYATINING XALQARO HUQUQIY KAFOLATLARI

**Qurbonova Parizoda Ural qizi**

**Payzullayeva Sevinch Odil qizi**

Qashqadaryo viloyati yuridik texnikum o'quvchilari

**Annotatsiya:** Investitsiya faoliyatining xalqaro huquqiy kafolatlari haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** Investitsiya faoliyatining xalqaro huquqiy kafolati, xorijiy investorlarni jalb etishning huquqiy asoslari, prefensiyalar, subsidiyalar, chet el investitsiyalari.

So'nggi yillarda O'zbekistonda investitsiya faoliyatining xalqaro huquqiy kafolatlariga keng e'tibor berib kelmoqda. O'zbekiston xalqaro munosabatlarning teng huquqli subyekti sifatida, xorijiy hamkorlar bilan o'zaro manfaatli munosabatlarni rivojlantirmoqda.

Investitsiya atamasi lotin tilidagi «invest» so'zidan kelib chiqqan bo'lib «qo'yish», «mablag'ni safarbar etish», «kapital qo'yilmasi» ma'nosini beradi. Keng ma'noda investitsiya mablag'ni ko'paytirib va qaytarib olish maqsadida kapitalni safarbar etishni bildiradi. Ko'pgina hollarda «investitsiya» tushunchasi iqtisodiy va boshqa faoliyat obektlariga kiritiladigan moddiy va nomoddiy ne'matlar hamda ularga doir huquqlar tarzida tariflanadi. Investitsiya deyilganda barcha turdagi milliy va intellektual boyliklar tushunilib, ular tadbirkorlik faoliyati obyektlariga yo'naltirilib daromad keltirishi yoki biror-bir ijobiy samaraga erishishi zarur. Investitsiya kiritishdan asosiy maqsad daromad olish va ijobiy ijtimoiy samaraga erishishdir.

Investitsiya sifatida quyidagilar bo'lishi mumkin:

— mablag'larni, shu jumladan pul mablag'larini, maqsadli bank omonatlarini, paylarini, ulushlarini, aksiyalarini va boshqa qimmatli qog'ozlarini;

— ko'char va ko'chmas mol-mulk( binolar, inshootlar, mashina va boshqa moddiy qimmatliklarni);

— intellektual mulkka doir mulkiy huquqlarni, shu jumladan u yoki bu ishlab chiqarish turini tashkil etish zarur bo'lgan, texnik hujjatlar va ishlab chiqarish tajribasi sifatida rasmiylashtirilgan, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining qonunchiligida ta'qiqlanmagan boshqa qimmatliklarni.

Investitsiya kiritishda, avvalo:

- investitsiya faoliyati subyektlarning mustaqilligi va tashabbuskorligining taminlanishi;

- kiritilayotgan moddiy ne'matlarga investitsiya maqomini berish (fuqarolarning o'zlarining ehtiyojlarini qondirish uchun sotib olgan buyumlari investitsiya bo'la olmaydi);

- qonun bilan belgilangan investitsiya faoliyatini amalga oshirish imkoniyati yaratilishi zarur bo'lib hisoblanadi.

Investitsiya faoliyatining ishtirokchilariga kelsak, ular investitsiyalarning amalga oshirilishini buyurtmalarni bajaruvchi sifatida yoki investorning topshirig'i asosida ta'minlaydigan investitsiya faoliyatining subyektlaridir. Investitsiyalar o'rtasida investitsiya faoliyati subyektlari o'rtasida tuziladigan investitsiya shartnomasi taraflarining huquqlari, majburiyatlari va javobgarligini belgilaydigan yozma bitim investitsiya shartnomasi deb yuritiladi. Investitsiya faoliyatini amalga oshiruvchi shaxslar, chet ellik fuqarolar bo'ladimi yoki yakka tartibdagi tadbirkorlar yoki fuqaroligi bo'lmagan shaxslar shaxslarning hammasi mahalliy investorlar hisoblanadi. Investitsiya loyihalariga mablag' qo'yuvchilar – investorlar, davlat, kompaniya, korxonalar, che el fuqarolar va boshqalar bo'lishi mumkin. Uning quyidagi turlari mavjud:

— davlat investitsiyasi – davlat budjeti va moliya manbalari hisobidan kiritiladi;

— chet el investitsiyasi – xorijiy davlatlar, banklar, kompaniyalar, tadbirkorlik tomonidan kiritiladi;

— xususiy investitsiya – xususiy, korporativ xo‘jalik va tashkilotlar, fuqarolar mablag‘lari, shu jumladan, shaxsiy va jalb qilingan mablag‘lar hisobidan qo‘yiladi.

Investitsiya faoliyatida investorlarning bir qancha huquq va majburiyatlari mavjud bo‘lib, shuningdek, investorlar o‘z investitsiyalariga va investitsiya faoliyati natijalariga egalik qilishga, ulardan foydalanishga hamda ularni tasarruf etishga va investitsiya faoliyati natijalarini sotishga va olib chiqishga, o‘zi qabul qilgan barcha turdagi majburiyatlarning, shu jumladan qarz mablag‘larini jalb etishga qaratilgan majburiyatlarning ta‘minoti sifatida o‘ziga mulk huquqi asosida tegishli bo‘lgan mol-mulk va har qanday mulkiy huquqlardan foydalanish kabi huquqlari mavjud. Keyingi davrlarda xalqaro iqtisodiy munosabatlarda investitsion hamkorlik rivoj topdi. Bunday hamkorlikning real, moliyaviy, intellektual (litsenziyalar, ilmiy ishlanmalar va boshqalar) ko‘rinishlari bor. Investitsion hamkorlik umumjahon va milliy muammolarni hal etishga xizmat qiladi. Jahondagi bevosita investitsiya o‘sib bormoqda. Xususan, 1980-yillar o‘rtalarida jahon bo‘yicha umumiy yillik investitsiya hajmi 450 milliard dollarni tashkil qilgan bo‘lsa, 1990-yillar o‘rtalariga kelib investitsiya hajmi 2 trillion dollardan oshdi.

Respublikamizda bozor iqtisodiyotiga o‘tish davrida respublika iqtisodiyotida tuzilmaviy o‘zgarishlarni amalga oshirishda investitsiyadan samarali foydalanib kelmoqda. 1996-yildan boshlab respublika hukumati har yili davlat budjeti va byudjetdan tashqari fondlar mablag‘lari hisobidan kapital qo‘yilmalar limitlari, chet el investitsiyalari va hukumat kafolatlari bilan olingan kreditlar hisobiga aniq qurilishlar dasturi, shuningdek, bevosti chet el investitsiyalari va kreditlari hisobiga qurilishlar dasturidan iborat bo‘lgan “Davlat investitsiyasi” dasturini qabul qildi. Xususan, 2000-yil moliyalashtirishning jami manbalari hisobidan mamlakat iqtisodiyotiga salkam 700 milliard so‘m, shu jumladan, 810 million AQSh dollari investitsiyalandi.

Xususan, O‘zbekiston va Qozog‘iston hukumatlari AQSh bilan hamkorlikda mintaqada iqtisodiy aloqalarni kengaytirishga xizmat qiladigan loyihalarni qo‘llab-quvvatlash uchun besh yil ichida kamida 1 milliard dollarga teng mablag‘larni jalb etish maqsadida “Markaziy Osiyo investitsiyaviy sherikligi” tashabbusini yo‘lga qo‘ydi.

Mamlakatimizda investitsiya faoliyati subyektlarining huquqlari kafolatlanadi. Bu albatta “Investitsiya va investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunining 3-bobida belgilangan. Unga muvofiq “Davlat investitsiya faoliyati subyektlarining huquqlari kafolatlanadi. Davlat organlari va ularning mansabdor shaxslari investitsiya subyektlarining qonunchilikka muvofiq amalga oshirilayotgan faoliyatiga aralashishga haqli emas. Davlat investorlarining fuqaroligi, yashash joyi, iqtisodiy faoliyatini amalga oshirish joyi bilan bog‘liq holda, shuningdek investorlarning yoki investitsiyalarning kelib chiqish mamlakatiga qarab investorlarni kamsitilishiga yo‘l qo‘yilmaslikni kafolatlaydi. Investor tomonidan huquqlarning amalga oshirilishi boshqa investorlarning huquqlari va qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini buzmasligi kerak”ligi ta‘kidlab o‘tilgan.

Shuningdek chet ellik investorlarning huquqlari ham mavjud. O‘zbekiston Respublikasidagi investitsiya faoliyati natijasida olingan, o‘ziga tegishli bo‘lgan ixtirolarni, foydali modellarni va sanoat namunalarini xorijda hamda O‘zbekiston Respublikasida patentlash to‘g‘risida mustaqil qaror qabul qilish huquqiga ega. Chet davlatlarining fuqarolari bo‘lgan chet ellik investorlarga, shu jumladan, chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalarining O‘zbekiston Respublikasi hududida tovar ishlab chiqarish va xizmatlar ko‘rsatish korxonalarini tashkil etishga investitsiyalar kiritgan ishtirokchilarga O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlarida nazarda tutilgan shartlarda O‘zbekiston Respublikasida yashash guvohnomasi soddalashtirilgan tartibda beriladi. Xususan chet ellik xodimlarni jalb qilish maqsadida chet ellik xodimlar mehnatiga haq to‘lash, ularga ta‘til berish, ularni pensiya bilan ta‘minlash masalalari, ushbu

xodimlarning har biri bilan tuzilgan mehnat shartnomalarida hal etilgan. Ushbu xodimlarning ish haqi va qonuniy yo'l bilan olingan boshqa daromadlari qonunda belgilangan soliq va to'lov to'langandan keyin ular tomonidan boshqa davlatlarga hech bir cheklovlersiz o'tkazilishi mumkin.

Markazlashtirilmagan investitsiyalar hisobidan moliyalashtiriladigan investitsiya loyihalari sanitariya-gigiyena, radiatsiyaviy, ekologik, arxitektura-shaharsozlik talablari va boshqa talablar bajarilishiga taalluqli qismi bo'yicha davlat ekspertizasidan o'tkazilishi lozim.

Chet davlatlarning fuqarolari bo'lgan chet ellik investorlarga, shu jumladan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalarining O'zbekiston Respublikasi hududida tovarlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish korxonalarini tashkil etishga investitsiyalar kiritgan muassislariga (ishtirokchilariga) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlarida nazarda tutilgan shartlarda O'zbekiston Respublikasida yashash guvohnomasi soddalashtirilgan

Kichik tadbirkorlik subyektlarining banklar kredit resurslari hisobidan moliyalashtiriladigan investitsiya loyihalari mazkur investitsiya loyihalarini amalga oshirishning maqsadga muvofiqligi yuzasidan tijorat banklari tomonidan ekspertizadan o'tkazilishi lozim.

Investorlar va chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar investitsiya faoliyatini amalga oshirish maqsadida har qanday chet davlat fuqarolari va O'zbekiston Respublikasidan tashqarida doimiy yashovchi fuqaroligi bo'lmagan shaxslar bilan mehnat shartnomalarini erkin tuzish huquqiga ega. Bunday shaxslar mehnat shartnomasining butun amal qilish davrida tegishli ko'p martalik vizalarni olgan holda O'zbekiston Respublikasi hududiga kirish va uning hududida bo'lish huquqiga ega.

Zarur muhandislik-kommunikatsiya sharoitlarini ta'minlash, shuningdek imtiyozlar berish uchun O'zbekiston Respublikasi Hukumati investitsiya loyihasini amalga oshirish bo'yicha investitsiya preferensiyasi tarzida taqdim etiladigan moliyaviy ko'mak sifatida investitsiya subsidiyasini berishi mumkin.

Investorga zarur muhandislik-kommunikatsiya sharoitlari shaklidagi investitsiya subsidiyasi investitsiya faoliyati obyektiga olib boriladigan tashqi muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlarini O'zbekiston Respublikasi tomonidan qurish yo'li bilan ta'minlanadi. Investitsiya subsidiyasi soliq va bojxona imtiyozlari sifatida ham berilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksiga muvofiq: bojxona bojidan ozod etish tarzidagi ta'rif imtiyozlari quyidagilarga nisbatan beriladi, jumladan:

— ustav fondida(ustav kapitalida) chet el investitsiyalarining ulushi kamida 33 foiz bo'lgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar tomonidan ular davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan boshlab 2 yil davomida o'z ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun bojxona hududiga olib kiriladigan mol-mulkka;

— chet ellik investorlar, chet ellik investorlar bilan tuzilgan mehnat shartnomalariga muvofiq O'zbekiston Respublikasida turgan chet davlat fuqarolari va O'zbekiston Respublikasidan tashqarida doimiy ravishda yashaydigan fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning shaxsiy ehtiyojlari uchun bojxona hududiga olib kiriladigan mol-mulkka;

— O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotiga umumiy so'mmasi 50million AQSh dollari ekvivalentidan ortiq bo'lgan to'g'ridan to'g'ri investitsiyani amalshga oshirgan chet ellik yuridik shaxslar tomonidan bojxona hududiga olib kiriladigan tovarlarga, basharti olib kirilayotgan tovarlar ularning o'z ishlab chiqarish mahsuloti bo'lsa;

— mahsulot taqsimotiga oid bitim bo'yicha ishlar olib borish uchun mo'ljallangan va loyiha hujjatlariga muvofiq mahsulot taqsimotiga oid bitim bo'yicha ishlarni bajarishda ishtirok chet ellik investor yoki boshqa shxslar tomonidan bojxona hududiga olib kiriladigan tovarlarga, shuningdek investor tomonidan bojxona hududidan olib chiqiladigan, mahsulot taqsimotiga oid bitimga muvofiq investorlarga tegishli bo'lgan mahsulotga;



Investitsiyalarni va investitsiya faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish sohasidagi vakolatli davlat organi O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan birgalikda investorning investitsiya subsidiyasi berish to‘g‘risidagi arizasini O‘zbekiston Respublikasining “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”gi Qonunida belgilangan tartib va muddatlarda ko‘rib chiqadi hamda O‘zbekiston Respublikasi Hukumatiga taklif kiritadi.

Chet ellik xodimlar mehnatiga haq to‘lash, ularga ta‘til berish, ularni pensiya bilan ta‘minlash masalalari ushbu xodimlarning har biri bilan tuzilgan mehnat shartnomalarida hal etilishi kerak. Ushbu xodimlarning ish haqi va qonuniy yo‘l bilan olingan boshqa daromadlari qonunda belgilangan soliq va to‘lov to‘langandan keyin ular tomonidan boshqa davlatlarga hech bir cheklovlarsiz o‘tkazilishi mumkin.

Investor, chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxonaga chet ellik xodim uchun pensiya ta‘minoti bo‘yicha to‘lovlarni ushbu xodimning doimiy yashash joyi bo‘lgan mamlakatning tegishli fondlariga o‘tkazishi mumkin.

Investorlar O‘zbekiston Respublikasi hududida qonuniy ravishda faoliyat ko‘rsatayotgan har qanday sug‘urta tashkilotida sug‘urta himoyasiga bo‘lgan huquqdan foydalanadi. Investitsiyalarni siyosiy va boshqa tavakkalchiliklardan sug‘urtalash xalqaro tashkilotlar, chet el agentliklari, boshqa sug‘urta kompaniyalari tomonidan ham amalga oshirilishi mumkin.

Chet ellik investorlarga hamda chet el investitsiyalariga adolatli va teng huquqli rejim taqdim etiladi, ularni to‘liq va doimiy ravishda himoya qilish hamda ularning xavfsizligi ta‘minlanadi. Bunday rejim O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida belgilangan rejimga nisbatan noqulayroq bo‘lishi mumkin emas. Davlat faqat chet ellik investorlar bilan tuzilgan, vakolatlari qonunchiligida belgilangan tartibda tasdiqlangan shaxslar tomonidan imzolangan tegishli shartnomalarda o‘z zimmasiga olgan majburiyatlar yuzasidagina javobgar bo‘ladi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, investitsiya bu moddiy va nomoddiy boyliklarni bir maqsadli ishga yo‘naltirish hisoblanib, har bir davlatning o‘sishga zamin yaratuvchi bo‘lib xizmat qiladi. Hozirgi kunda, mamlakatimizda ham investitsiya faoliyatiga e‘tibor qaratilgan bo‘lib, investorlarga va chet ellik investorlarning haq-huquqlarini kafolatlari ham qonun bilan qo‘riqlanadi. Bugungi kunda O‘zbekistonning tashqi siyosati, xususan, yaxshi qo‘shnichilik siyosati davlatning xalqaro nufuzini oshiribgina qolmasdan, Markaziy Osiyoning barqaror va ulkan imkoniyatlarga ega bo‘lgan hamkorlik mamlakatiga aylanishiga xizmat ham qilmoqda.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O‘zbekiston respublikasi Konstitutsiyasi.
2. “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, // 25.12.2019-yildagi O‘RQ-598-son.
3. O‘zbekiston Respublikasining “Bojxona to‘g‘risida”gi Kodeksi .
4. “O‘zbekiston Respublikasida investitsiya muhitini tubdan yaxshilash chora tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, // 01.08.2018-yildagi PF-5495-son.
5. Abdullayeva Sh.Z. Pul muomalasi va kredit: o‘quv qo‘llanma. – T.: Ilm-ziyo. – 2013.

## MAHALLIY INVESTORLAR VA CHET EL INVESTORLARI FAOLIYATINI MAMLAKATIMIZDA YANADA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

G'aniyeva Rayxona Maqsud qizi

Qashqadaryo viloyati yuridik texnikumi o'quvchisi

**Annotatsiya:** *Chet ellik investorlar va mahalliy investorlar huquqlari, investitsiya va investitsiya faoliyati to'g'risidagi qonunchilik, chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonaning investorlar majburiyatlari investitsiya va investorlar to'g'risidagi qonunning maqsadi va qo'llanishi.*

**Kalit so'zlar:** *Xorijiy investorlar, mahalliy investorlar, investitsiya qilish, davlat xavfsizlik markazi, yagona darcha tamoyili.*

So'nggi yillarda O'zbekistonda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishni yengillashtirish va rag'batlantirish maqsadida sohaga oid qator targ'ibotlar qayta ko'rib chiqilishi natijasida respublikada tadbirkorlik subyektlari va xususiy investorlar uchun keng imkoniyatlar yaratildi.

Chet ellik investorning O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqariga o'tkaziladigan daromadini (foydasini) o'z mamlakatiga qaytarish tartib-taomilini murakkablashtiruvchi yoki ularning miqdorini kamaytiruvchi qo'shimcha talablarning joriy etilishi, bundan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonaning to'lovga va qobiliyatsizligi bankrotligi yoki kredit beruvchilarning huquqlarini himoya qilish, chet ellik investor – jismoniy shaxs sodir etgan jinoyat yoki ma'muriy huquqbuzarlik hollarida yoxud sud yoki hakamlikning hal qiluv qaroriga muvofiq mablag'larni o'z mamlakatiga qaytarishni to'xtatib turishning boshqa zarurati bo'lganda vakolatli davlat organi tomonidan chet ellik investorning mablag'larini qonun hujjatlarini kamsitmaydigan tarzda qo'llash sharoitida o'z mamlakatiga qaytarishni to'xtatib turish hollari mustasno;

**Chet ellik investorlar** - chet davlatlar, chet davlatlarning ma'muriy yoki hududiy organlari, davlatlar o'rtasidagi bitimlarga yoki boshqa shartnomalarga muvofiq tuzilgan yoki xalqaro ommaviy huquq subyekti bo'lgan xalqaro tashkilotlar, chet davlatlarning qonunchilik hujjatlariga muvofiq tashkil etilgan va faoliyat ko'rsatadigan yuridik shaxslar, har qanday boshqa shirkatlar, tashkilotlar yoki uyushmalar, chet davlat fuqarolari va O'zbekiston Respublikasidan tashqarida doimiy yashaydigan fuqaroligi bo'lmagan shaxslar;

**Mahalliy investorlar** – investitsiya faoliyatini amalga oshiruvchi O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, O'zbekiston Respublikasi rezidenti maqomiga ega bo'lgan chet ellik fuqarolar va fuqaroligi bo'lmagan tartibdagi tadbirkorlar, shuningdek O'zbekiston Respublikasining yuridik shaxslar, shu jumladan yakka shaxslari;

Chet el va mahalliy ishtirokidagi investitsiyalar korxonalarning hisob varaqlaridagi mablag'lardan foydalanishni davlat organlari tomonidan cheklash yoxud ularni majburan yechib olish faqat qonunda belgilangan tartibda amalga oshirilishi mumkin.

Respublikadagi xorijiy va mahalliy investorlar tomonidan to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar ishtirokidagi loyihalarning tashqi muhandislik-kommunikatsiya tizimlarini qurish ishlarini amalga oshirish orqali korxonalarda qo'shimcha qiymat zanjiri yaratilishini rag'batlantirish va aholi bandligini ta'minlash maqsadida:

Investor: soliqlar va to'lovlarni to'lashi; investitsiya qilish munosabati bilan o'zi qabul qilgan shartnoma majburiyatlarini bajarishi;

qonunchilik talablariga, shu jumladan raqobat to'g'risidagi, korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi, investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risidagi, mehnat to'g'risidagi, shaharsozlik to'g'risidagi, atrof-muhitni muhofaza xavfsizligiga, sanitariya normalari to'g'risidagi qonunchilik talablariga, shuningdek texnika qoidalariga rioya etishi;

Davlat investorlarning fuqaroligi, yashash joyi, iqtisodiy faoliyatini amalga oshirish joyi bilan bog'liq holda, shuningdek investorlarning yoki investitsiyalarning kelib chiqish mamlakatiga qarab investorlarni kamsitishga yo'l qo'ymaslikni kafolatlaydi.

Investor tomonidan huquqlarning amalga oshirilishi boshqa investorlarning huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini buzmasligi kerak. Bunda davlat tadbirkorlik subyekting ham ta'sischisi (aksiyadori, ishtirokchisi) sifatida boshqa ta'sischilar (aksiyadorlar, ishtirokchilar) kabi teng huquqlar va majburiyatlarga ega bo'ladi.

Vazirlik yagona davlat investitsiya siyosatini amalga oshirish, xorijiy, birinchi navbatda, to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni jalb qilishni muvofiqlashtirish, xalqaro moliya institutlari (boshqaruv ofislari) va xorijiy hukumat moliya tashkilotlari bilan hamkorlik qilish, shuningdek, tashqi savdo va xalqaro iqtisodiy hamkorlik, respublikaga tashqi beg'araz ko'mak mablag'larini (grant, texnik ko'mak, maqsadli beg'araz yordam) jalb qilish sohasida yagona davlat siyosatini shakllantirish va muvofiqlashtirish uchun mas'ul vakolatli davlat organi hisoblanadi.

Investitsiyalarni va investitsiya faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish sohasidagi vakolatli davlat organi investorlarga boshqa davlat organlari bilan o'zaro hamkorlik qilishda ko'maklashish maqsadida ishni “yagona darcha” tamoyili bo'yicha tashkil etadi.

Investitsiyalarni va investitsiya faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish sohasidagi vakolatli davlat organi va uning hududiy bo'linmalari ishlarni “yagona darcha” tamoyili bo'yicha tashkil etish maqsadida davlat xizmatlari ko'rsatilishini ta'minlaydi, shu jumladan tegishli Davlat xizmatlari markazlari orqali ta'minlaydi.

Ishlarni “yagona darcha” tamoyili bo'yicha tashkil etish quyidagilarni ham o'z ichiga oladi:

mavjud davlat xizmatlari masalalari bo'yicha qabul qilish va maslahat berish;

davlat xizmatlarini olish uchun zarur bo'lgan hujjatlarni tayyorlash va rasmiylashtirishda yordamlashish;

elektron raqamli imzoni, elektron arizani va boshqa hujjatlarni rasmiylashtirishda yordamlashish;

xizmatlarini olishda davlat boshqaruvi va mahalliy davlat organlarida hamrohlik;

O'zbekiston Respublikasi hududidagi chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar aksiyalarining (ulushlarining, paylarining) yoki ustav fondining (ustav kapitalining) kamida o'n besh foizini chet el investitsiyalari tashkil etadi.

Investitsiyalarni va investitsiya faoliyatini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash qulay investitsiya muhitini yaratish, yangi raqobatbardosh hamda innovatsion, eksportga chiqarishlarni va yangilash maqsadida amalga oshiriladi.

yo'naltirilgan va (yoki) import o'rnini bosuvchi ishlab chiqarishlarni tashkil etishga doir investitsiyalarni rag'batlantirish, mavjud ishlab zamonaviy texnologiyalarni qo'llagan hamda zamonaviy boshqaruv tajribasini joriy etgan holda kengaytirish

Investitsiyalarni va investitsiya faoliyatini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash quyidagi usullarda amalga oshiriladi:

- imtiyozlar va preferensiyalar berish;

- investitsiya loyihasini birgalikda moliyalashtirishda;

- moliyaviy maslahat berish va axborot jihatidan qo'llab quvvatlash.

Investorlarga berilgan imkoniyatlarga diqqatimizni qaratadigan bo'lsak

**Birinchiidan:** 2017-yilda milliy valyutamiz -so'mning erkin konvertatsiyasini joriy etib, xorijiy investorlar tomonidan foydani repatriatsiya qilish bilan bog'liq barcha cheklovlarni olib tashlanishi

**Ikkinchiidan:** mamlakatimizda ochiqlik siyosatini ta'minlash uchun 90 ta xorijiy davlat fuqarolari uchun O'zbekistonga vizasiz kirish imkoniyatining yaratilishi, yana 60ga yaqin mamlakat fuqarolariga esa yengillashtirilgan tartibda viza olish imkoniyating berilishi

**Uchinchiidan:** korrupsiyaga qarshi kurashish O'zbekistonda davlat siyosatining eng ustuvor yo'nalishiga aylandi. Bu boradagi sa'y harakatlarimizni amalga oshirish maqsadida alohida agentlik tashkil etildi.

**To'rtinchiidan:** mamlakatimizda yashayotgan har bir insonning huquq va erkinliklarini kafolatlash va to'liq himoya qilishni ham eng ustuvor vazifa sifatida belgilandi.

Shuningdek, mamlakatda investorlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish maqsadida yangi soliq kodeksi, “investitsiya va investitsion faoliyat to‘g‘risida”gi Qonun, “Mediatsiya to‘g‘risida”gi Qonun qabul qilindi.

Shuningdek investorlar uchun qulay sharoit yaratish uchun Xalqaro Toshkent arbitraj markazi tashkil etildi, hamda “investetsiya krediti”, “investitsiya subsidiyasi” va “investitsion viza”kabi yangi mexanizmlar joriy qilindi. Shuningdek, ekspertlar qonunchilikdagi o‘zgarishlar va yaratilgan imkoniyatlar mamlakatdagi investitsiya muhitiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatayotganini ta‘kidlagan. Mamlakatga kiritilayotgan to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hajmi 2017-yilda 2,2 mlrd.dollarni tashkil etgan bo‘lsa, 2022-yil yakunida bu ko‘rsatkich 1,5 barobar ortib, 3.3 mlrd.dollarga yetdi. 2022-yilning noyabr oyida xorijiy investorlar kengashining birinchi yalpi majlisi o‘tkazilib, keyingi 5 yilda sarmoyalar hajmini \$120 mlrd.ga yetkazish, kamida \$70 mlrd xorijiy investitsiyalarni jalb qilish ko‘zlangan.

Mamlakatimizda xorijiy investorlarni jalb qilish uchun juda katta imkoniyat va salohiyat mavjud. Yer osti va usti boyliklariga ega mamlakatimizda sarmoya kiritish istagida bo‘lgan barcha xorijlik investorlar uchun eshiklar ochiq. Eng quvonarlisi esa O‘zbekistonda tinchlik hukmron bo‘lib, bu investorlar uchun eng birinchi navbatdagi imkoniyatdir. Yaqinda Toshkentda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi xorijiy investorlar kengashining birinchi yalpi majlisi bo‘lib o‘tdi va unda jahonning yetakchi kompaniyalari va moliya institutlari rahbarlari ishtirok etishdi. Anjumanda davlatimiz rahbari nutq so‘zlar ekan, qulay investitsiya muhitini yaratish bo‘yicha amalga oshirgan islohotlar natijasida so‘ngi 5 yilda iqtisodiyotimizga kirib kelgan xorijiy investitsiyalar hajmi 10 barobar oshib, qariyb 40 milliard dollarni tashkil etgan, 10 yil davomida yalpi ichki mahsulot hajmini hozirgi ko‘rsatkichlardan ikki barobar oshirish maqsad qilinganligi alohida ta‘kidlandi. Yangi O‘zbekistonda investorlar o‘zini erkin his etishi, ertangi kunga katta ishonch bilan qarab barqaror ishlashi uchun barcha imkoniyatlar yaratib berilayotganidan mamnun ekanini izhor qilishdi. Eng muhimi esa O‘zbekiston Prezidenti huzurida xorijiy investorlar Kengashi tuzilgani va unda investorlar muammolari ochiq-oydin hal etilishi chet ellik sarmoyadorlarda katta ishonch uyg‘otmoqda.

**Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak** investitsiya bo‘lmasa iqtisodiyot rivojlanmaydi. Investorlarga muhit, infratuzilma yaratsak, ish joyi bo‘ladi, mahsulot ko‘payadi, soliq tushadi. Korxonalarining faoliyatni yanada rivojlantirishga e‘tibor qaratish kerak.

Investitsiyalarni rag‘batlantirishda har bir ahdlashuvchi tomon o‘z davlati qonunchiligi beradigan huquqqa muvofiq boshqa ahdlashuvchi tomon davlati investorlari investitsiyalarning o‘z davlati hududiga kirib kelishiga yo‘l qo‘yadi va ularni rag‘batlantiradi. Har bir ahdlashuvchi tomon o‘z davlati qonunchiligi doirasida o‘zaro investitsiyalarning xilma-xil shakllarini qo‘llab-quvvatlaydi va iqtisodiy hamkorlikni boshqa ahdlashuvchi tomon davlati investor investitsiyalarni o‘z hududida himoya qilish vositasi bilan ta‘minlaydi.

**Takliflarim shundan iboratki**, xorijiy investorlar kengashi huzurida doimiy faoliyat yuritadigan investorlarning huquqini himoya qilish qo‘mitasini tashkil etish, hamda davlat rahbari, bank-moliya, IT, konchilik, energetika kabi sohalar rivojiga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida xorijiy investorlar kengashini tuzish va uning faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida qarori
2. Prezidentning 2018-yil 6-avgustdagi “Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki bilan sheriklikni yanada kengaytirish va chuqurlashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3900-son qarori
3. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 25.12.2019-yildagi O‘RQ-598-son
4. <http://www.lex.uz>

## O‘ZBEKISTONNING JAHON HAMJAMIYATIDAGI RIVOJLANGAN DAVLATLARNING INVESTORLARI BILAN HAMKORLIK MASALALARINI MUSTAHKAMLASH

**Panjiyeva Dildora Sobirovna**

Surxondaryo viloyati  
yuridik texnikumi o‘quvchisi

**Annotatsiya:** *O‘zbekistonning jahon hamjamiyatidagi rivojlangan davlatlarning investorlari bilan hamkorlik masalalarini mustahkamlash haqida fikr yuritilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *Jahon hamjamiyati, mustahkamlash, hamkorlik, investorlar, ichki siyosat, xalqaro munosabatlar, subyekt.*

So‘nggi yillarda O‘zbekiston ichki siyosatida kuzatilayotgan keng qamrovli islohotlar, ochiqlik va yangilanishlar mamlakatning tashqi siyosatida ham yaqqol namoyon bo‘lmoqda.

O‘zbekiston xalqaro munosabatlarning teng huquqli subyekt sifatida, mintaq va global darajada faol tashqi siyosatni yo‘lga qo‘yib, xorijiy hamkorlar bilan o‘zaro manfaatli munosabatlarni rivojlantirmoqda. Bunday izchil, aniq va konstruktiv tashqi siyosatni xalqaro ekspertlar va kuzatuvchilar ham e‘tirof etmoqda.

Jahon bo‘ylab tarqalgan koronavirus infeksiyasi va global darajadagi inqirozli xavf-xatarlar davrida ham mamlakatda ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik ta‘minlanib, mintaq davlatlari va jahon hamjamiyati bilan hamkorlik aloqalarini davom ettirishga alohida e‘tibor qaratildi.

Ma‘lumki, O‘zbekiston tashqi siyosiy faoliyatining asosiy vazifalaridan biri – o‘z hududi atrofida tinchlik, barqarorlik va xavfsizlik muhitini shakllantirish hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, Prezident Shavkat Mirziyoyev qo‘shnilarimiz – Markaziy Osiyo davlatlari bilan do‘stona, yaqin qo‘shnichilik va o‘zaro manfaatli aloqalarni rivojlantirish va mustahkamlashni asosiy ustuvor tashqi siyosiy yo‘nalish sifatida belgilab berdi.

2020-yil – “Ilm, ma‘rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili” Davlat dasturi doirasida O‘zbekiston ochiq va pragmatik tashqi siyosiy faoliyatini, jumladan, Markaziy Osiyo yo‘nalishida ham izchil davom ettirdi.

Xususan, Markaziy Osiyo mintaqasidagi mamlakatlar bilan barcha sohalarda o‘zaro do‘stlik, yaxshi qo‘shnichilik va strategik sheriklik ruhidagi munosabatlarni sifat va mazmun jihatidan yangi bosqichga olib chiqish borasida 2020-yil davomida tashqi siyosiy va iqtisodiy faoliyat bo‘yicha davlat idoralari tomonidan 23 ta oliy darajada va 12 ta yuqori darajada tashrif va turli tadbirlar amalga oshirildi.

Bu jarayonda “xalq diplomatiyasi” amalda juda faol bo‘lgani kuzatildi. Xususan, xalq vakillari – olimlar va rassomlar, madaniyat va din arboblari, ishbilarmonlar va yoshlar, turizm va sport tashkilotlari, jamoat birlashmalari va nodavlat tashkilotlar ishtirokida 90 dan ortiq turli uchrashuv, anjuman, videokonferensiya va boshqa shu kabi tadbirlar o‘tkazildi.

Qayd etish joizki, so‘nggi yillarda Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbuslari qo‘shni davlatlar rahbarlari tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi natijasida Markaziy Osiyoda siyosiy muloqot va o‘zaro ishonch mustahkamlandi. Davlat rahbarlarining Maslahatlashuv uchrashuvlari yo‘lga qo‘yildi.

Natijada mintaqadagi ikki va ko‘p tomonlama hamkorlik darajasi yangi bosqichga ko‘tarildi. Xususan, 2017-2019-yillar davomida Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan savdo aylanmasi yillik o‘rtacha 50 foizdan ko‘proqqa o‘sib, 5,2 milliard dollarga yetgan. 2020-yil natijalariga ko‘ra esa, global pandemiya sharoitiga qaramay, O‘zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlari bilan savdo aylanmasining umumiy hajmi 5 milliard dollarni tashkil etdi.

Jumladan, O'zbekistonning umumiy tashqi savdo aylanmasida Markaziy Osiyo davlatlarining ulushi 2019-yildagi 12,4 foizdan, 2020-yilda 13,6 foizga oshgan. O'zbekistonning mintaqadagi umumiy tashqi savdo aylanmasida esa Qozog'istonning ulushi 61 foiz, Qirg'iziston – 18,2 foiz, Turkmaniston – 10,6 foiz va Tojikistonning ulushi 10,2 foizni tashkil etdi.

Markaziy Osiyo mamlakatlari o'rtasida savdo-iqtisodiy munosabatlarning mana shunday yaxshilanishi, umuman aytganda, mintaqaning investitsiyaviy jozibadorligini oshirishga yordam berdi.

Xususan, 2017–2020-yillar oralig'ida O'zbekiston va mintaqa mamlakatlari o'rtasida 300 dan ortiq shartnoma, shuningdek, qariyb 75 milliard dollarga teng shartnoma va bitimlar imzolangan.

Shuningdek, 2017–2020-yillar davomida O'zbekistonning Markaziy Osiyo mamlakatlariga nisbatan ochiq, konstruktiv, puxta o'ylangan va pragmatik siyosati natijasida suvdan foydalanish, O'zbekiston va qo'shni davlatlar o'rtasidagi davlat chegaralarini delimitatsiya va demarkatsiya qilish, transport kommunikatsiyalaridan foydalanish, davlat chegaralarini kesib o'tish kabi murakkab va chalkash muammolarga yechim topildi. Agar besh yil oldin O'zbekiston-Qirg'iziston davlat chegarasini kuniga 200-300 kishi kesib o'tgan bo'lsa, global pandemiya ta'sirida joriy qilingan cheklolarga qadar bu ko'rsatkich kuniga 30 ming kishiga yetgan. O'zbekiston – Tojikiston chegarasini esa kuniga 20 ming fuqaro kesib o'tgan.

O'zbekistonning Markaziy Osiyo mamlakatlariga nisbatan olib borayotgan ochiq va konstruktiv siyosati naqadar to'g'ri ekanini global pandemiya davrida mintaqa rahbarlarining o'zaro yordam va koronavirus tarqalishi oqibatlarini yumshatish bo'yicha amalga oshirgan qo'shma chora-tadbirlari ham isbotladi.

Global pandemiya xavfiga qaramay, Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining doimiy muloqoti ta'minlandi va mamlakatlar o'rtasida faol hamkorlik aloqalari davom ettirildi. Mintaqa davlatlari koronavirus infeksiyasi tarqalishining dastlabki kunlaridanoq bir-birlariga ijtimoiy yordam ko'rsatishni boshladilar. O'zbekiston Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikistonga bir necha bor gumanitar yordam yubordi. Bunga javoban Qirg'iziston va Tojikiston singari qo'shnilarimiz Sardoba suv omborini tiklash uchun insonparvarlik yordamini ko'rsatdilar. Shuningdek, 2020-yilning dekabr oyida O'zbekiston ko'magi bilan Qirg'izistonda zarur tibbiy jihozlar va mebellar bilan to'liq jihozlangan 200 o'rinli yuqumli kasalliklar shifoxonasi foydalanishga topshirildi.

Bundan tashqari, pandemiya davrida koronavirusga qarshi kurashda tibbiyot sohasida axborot va tajriba almashinuvi, o'zaro gumanitar yordam ko'rsatish, chegaralarda yuklarning uzluksiz harakatlanishini yo'lga qo'yishga erishildi. Bu esa mintaqada dunyoning boshqa davlatlariga nisbatan koronavirus bilan kasallanish va uning natijasidagi o'lim sonining kamligini ta'minlash imkonini berdi.

Qolaversa, joriy yil yanvar oyida O'zbekiston va Qozog'iston hukumatlari AQSh bilan hamkorlikda mintaqada iqtisodiy aloqalarni kengaytirishga xizmat qiladigan loyihalarni qo'llab-quvvatlash uchun besh yil ichida kamida 1 milliard dollarga teng mablag'larni jalb etish maqsadida “Markaziy Osiyo investitsiyaviy sherikligi” tashabbusini yo'lga qo'ydi. “C5+1” platformasi orqali amalga oshirilayotgan ushbu tashabbus Markaziy Osiyo mamlakatlari iqtisodiyotini mustahkamlash va o'sishini ta'minlash, ko'p tomonlama aloqalarni chuqurlashtirishga xizmat qiladi. Jahon hamjamiyatida Markaziy Osiyoning ahamiyati va roli oshib borayotganini mintaq va yirik davlatlar o'rtasida ko'p tomonlama hamkorlikning turli formatlari tashkil qilinayotganida ham ko'rishimiz mumkin.

Mavjud “Markaziy Osiyo – AQSh”, “Markaziy Osiyo – Yevropa ittifoqi”, “Markaziy Osiyo – Koreya Respublikasi”, “Markaziy Osiyo – Yaponiya” kabi muloqot formatlari qatoriga oxirgi yillarda “Markaziy Osiyo – Hindiston”, “Markaziy Osiyo – Xitoy” va “Markaziy Osiyo – Rossiya

Federatsiyasi” singari yangi formatlar qo’shildi. Mazkur holat, birinchidan, mintaqadagi ijobiy o’zgarishlar natijasida yuzaga kelgan mutlaqo yangi muhit dunyoning yetakchi davlatlari tomonidan Markaziy Osiyoga nisbatan e’tiborning oshganini ko’rsatsa, ikkinchidan, chet el davlatlari mintaqa mamlakatlari bilan nafaqat ikki tomonlama hamkorlik doirasida, balki yagona mintaqaviy ko’p tomonlama munosabatlarni rivojlantirishga ahamiyat qaratayotganidan dalolatdir.

Shu bilan birga, mintaqa hamda boshqa davlat va xalqaro institutlar o’rtasida yangi formatlarning tuzilishi bu, Markaziy Osiyoning geosiyosiy va iqtisodiy ahamiyati oshib borishiga, shuningdek, mintaqaga xalqaro munosabatlardagi yaxlit siyosiy-diplomatik subyekt sifatida qaralishiga olib kelmoqda.

Markaziy Osiyo davlatlarining yaxlit siyosiy-diplomatik subyekt sifatidagi o’rni hamda o’zaro hamjihatligi va birdamligi Qirg’izistonda 2020-yil oktabr oyida yuz bergan norozilik namoyishlari va tartibsizliklarga O’zbekiston, Qozog’iston, Turkmaniston va Tojikiston Respublikalari Prezidentlari qo’shma bayonot bilan munosabat bildirganliklarida ham kuzatildi. Qo’shma bayonotda qardosh Qirg’izistonda sodir bo’layotgan voqealar jiddiy tashvish tug’dirayotgani hamda Qirg’izistonning barcha siyosiy partiyalari va jamoatchilik doiralari tinchlik va osoyishtalikni ta’minlash, konstitutsiya va milliy qonunchilikka so’zsiz rioya qilish bilan yuzaga kelgan muammolarni hal qilish uchun zarur bo’lgan sa’y-harakatlarni amalga oshirishiga umid bildirildi.

Qayd etish joizki, Markaziy Osiyo davlatlarining barqarorligi va hamjihatligi, birinchidan, xalq farovonligini, ikkinchidan, mintaqaning investitsion jozibadorligini oshirib, xorijiy sherik davlatlar va investorlar bilan hamkorlik uchun keng imkoniyatlar yaratishga xizmat qiladi. O’zbekiston va mintaqa davlatlari o’rtasida shakllangan va yanada mustahkamlanib borayotgan yangi muhit mazkur maqsadlarga erishishga hamda o’zaro siyosiy, savdo-iqtisodiy, madaniy-gumanitar hamkorlikni kuchaytirishga xizmat qiladi.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida hamda 2021-yil “Yoshlarni qo’llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili” Davlat dasturida Markaziy Osiyo davlatlari bilan yaqin qo’shnichilik aloqalarini mustahkamlashga alohida ahamiyat qaratilgan.

Xususan, joriy yil Davlat dasturida Markaziy Osiyo davlatlari bilan munosabatlarni izchil davom ettirish chora-tadbirlar rejasida:

- O’zbekistonning Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan ikki tomonlama va mintaqaviy aloqalarni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish bo’yicha kompleks chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish;

- oliy va yuqori darajada o’zaro tashriflarni tashkil etish;

- “Xalq diplomatiyasi” mexanizmlaridan samarali foydalanish;

- yaxshi qo’shnichilik munosabatlarini mustahkamlash yo’lidagi mavjud to’siqlarni birgalikda hal etish;

- savdo iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish va tovar ayirboshlash hajmining o’sishi va hamkorlikni mustahkamlash uchun qulay sharoitlar yaratish;

- mintaqaning tranzit va logistika salohiyatidan samarali foydalanish va transport infratuzilmasi rivojlanishini ta’minlash;

- Markaziy Osiyo mamlakatlarining mintaqalari (shu jumladan, chegara hududlari) o’rtasidagi hamkorlikni faollashtirish ko’zda tutilgan.

Bundan tashqari, joriy yilda O’zbekiston Markaziy Osiyo davlatlari bilan aloqalarini ko’p tomonlama hamkorlik mexanizmlari, jumladan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT), Mustaqil Davlatlar Hamdo’stligi (MDH), Shanxay hamkorlik tashkiloti (SHHT), Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashi (TTDHK), Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti (YXHT) va boshqa

tuzilmalar doirasida ham rivojlantirishni, bunda nafaqat siyosiy-diplomatik munosabatlar, balki iqtisodiy diplomatiya, parlamentlararo diplomatiya hamda xalq diplomatiyasini kuchaytirish nazarda tutilmoqda.

Qolaversa, joriy yilda SHHTda O‘zbekiston Respublikasining 2021-2022-yillarda raisligini inobatga olib, mazkur yo‘nalishda ustuvor vazifalar va asosiy tadbirlarini ishlab chiqish ham Davlat dasturida rejalashtirilgan. SHHTga Rossiya, Xitoy, Pokiston va Hindiston qatori Markaziy Osiyo davlatlaridan O‘zbekiston, Tojikiston, Qozog‘iston va Qirg‘izistonning a‘zo davlatlar ekanligi, ushbu xalqaro tashkilot doirasida hamkorlikni jadallashtirish alohida ahamiyat kasb etishini ta’kidlash mumkin.

Muxtasar aytganda, O‘zbekistonning bugungi tashqi siyosati, xususan, yaxshi qo‘shnichilik va pragmatik mintaqaviy siyosati davlatning xalqaro nufuzini oshiribgina qolmay, Markaziy Osiyoning barqaror va ulkan imkoniyatlarga ega hamkorlik makoniga aylanishiga xizmat qilmoqda.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Qulmatov A.A. O‘zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishi. – T.: 2004. 121 b.
2. O‘zbekiston Respublikasi Davlat mulk qo‘mitasining 1996-2010 hisob va hisobot materiallari.
3. Kudratov G., Xasanov R., Maxmudov B. , Xodjayev X. Agrar sektorda kichik biznesni rivojlantirishning iqtisodiy ahamiyati. - T.: Iqtisod-moliya, 2008. 105 b,
4. Poshataeva A. V. Marketing. - M.: Kolos S, 2008 367 b. 471



## O'ZBEKISTONIMIZDA XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB ETISH, MAHALLIY INVESTORLAR VA CHET EL INVESTORLARI FAOLIYATINI YANADA RIVOJLANTIRISHIMIZNING ISTIQBOLLARI

**Rustamova Sadoqat Ravshan qizi**  
Qashqadaryo viloyati yuridik texnikumi talabasi

**Annotatsiya:** Respublikamizdagi xorijiy va mahalliy investorlar tomonidan to'g'ridan to'g'ri investitsiyalar ishtirokidagi loyihalarning tashqi muhandislik-kommunikatsiya tizimlarini qurish ishlarini amalga oshirish, qulayroq investitsiya muhitini yaratish, chet el hamda mahalliy investorlar tomonidan amalga oshirilayotgan investitsiya faoliyati sohasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi normalar, ularning tahlili hamda bu tahlillar asosida taklif va ilmiy tavsiyalar bayon qilingan.

**Kalit so'zlar:** Investitsiya, investor, mahalliy investorlar, chet ellik investorlar, bozor munosabatlari, xorijiy investitsiyalar, xalqaro tashkilotlar, xalqaro shartnomalar.

O'zbekistonimiz mustaqillikka erishgandan so'ng xorijiy investitsiyalarni milliy iqtisodiyotga jalb qilish tizimini yaratishga kirishildi. Bu borada bir qator qonunlar va Prezident farmonlari chiqarildi. Bu qonun va farmonlar ma'lum ma'noda xorijiy investitsiyalarni jalb etishning huquqiy asosini tashkil etadi.

So'nggi yillarda O'zbekistonimizda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishni yengillashtirish va rag'batlantirish maqsadida sohaga oid qator tartibotlar qayta ko'rib chiqilishi natijasida respublikamizda tadbirkorlik subyektlari va xususiy investorlar uchun keng imkoniyatlar yaratib borilmoqda.

O'zbekistonimizda qulay investitsiya iqlimi yaratilishi uchun keng harakat qilinib kelinmoqda. Bu borada xorijiy investorlarga turlicha moliyaviy imtiyozlar va huquqlar berilmoqda, bozor infratuzilmasi shakllantirilmoqda.

Shu o'rinda alohida ta'kidlash joizki, investitsiyalarning harakatidan kelib chiqib zamon va makonning almashtirilishi va o'zga iqtisodiyotga kirib borishi namoyon bo'ladi. Investitsiyalarning turli shakllarda o'zga iqtisodiyotlarga kirib kelishi yangidan investitsiya faoliyatini yo'lga qo'yishimizda, ularning turi va shakllaridan qat'iy nazar yangidan safarbar etilishini va bog'lanishini bildiradi.

Jahon va mintaqaviy investitsiya bozorlarida raqobat kuchayib borayotganligi mamlakatimizda yanada qulayroq investitsiya muhitini yaratishimiz, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash bo'yicha yangicha loyihalarimizni amalga oshirish uchun xorijiy va mahalliy investitsiyalar jalb etilishini rag'batlantirish borasida qo'shimcha chora-tadbirlar qabul qilinishini taqozo etib kelmoqda.

Mamlakatda investitsiya muhitini yanada yaxshilash xususiylashtirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik jihatdan qayta jihozlash va rekonstruksiya qilish respublikaning ortiqcha ishchi kuchi mavjud bo'lgan mintaqalarda yangi ish joylarini yaratish dasturlarini amalga oshirishga to'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalarni keng jalb etish, shuningdek xorijiy investorlar uchun ishonchli huquqiy himoya va kafolatlar bilan ta'minlandi.

Xorijiy investitsiyalarni respublikamiz iqtisodiyotga jalb etish uchun zaruriy shart-sharoitlarning yaratilishi muhim hisoblanadi. Negaki, mamlakatda iqtisodiy, siyosiy, huquqiy va ijtimoiy shart-sharoitlar mavjud bo'lsagina o'sha davlat iqtisodiyotiga investitsiya qo'yilishi mumkin. Investitsiya muhitning jozibadorligi xorijiy investitsiyalar oqimini ko'paytirishning muhim omili hisoblanadi.

Bugungi kunda O‘zbekiston iqtisodiyotiga 50 dan ortiq davlat investitsiya kiritayotgan bo‘lib, xususan, Xitoy, Rossiya, Germaniya, Turkiya va Janubiy Koreya kabi davlat asosiy investor davlatlar hisoblanadi.

So‘nggi yillarda ushbu sohada kuzatilgan ko‘plab ijobiy o‘zgarishlar qatorida davlatimiz rahbari tashabbusi bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida Biznes Ombudsman institutlari hamda Bosh vazirning Tadbirkorlik murojaatlarini ko‘rib chiqish qabulxonalarining tashkil etilganini alohida ta‘kidlash mumkin.

Mahalliy va xorijiy investorlarning kafolatlari va huquqini himoya qilishning mavjud huquqiy vositalari bilan bir qatorda davlatimiz tomonidan tadbirkorlarning huquqi va qonuniy manfaatlarini himoya qilishning yangi mexanizmlarini joriy etish davom ettirilmoqda. Chet ellik investorlarimizning xo‘jalik faoliyati ular ishtirokidagi korxonalarni, shu‘ba korxonalarini, filiallari, tuzilmalari, uyushmalari, birlashmalarini tashkil etishga qayta tiklashga, sotishga yoki tugatish, korxonalarining fondlarini shakllantirishida, shartnomalarni tuzishga doir faoliyatlari O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi va xalqaro shartnomalar orqali tartibga solinadi.

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi eksport uchun yetkazib berilayotgan shaxsiy ishlab chiqarish mahsulotini va korxonalar tomonidan o‘z ehtiyojlari uchun import qilinayotgan mahsulot aniqlash tartibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi. Mahalliy davlat hokimiyat organlari mamlakatimizning tegishli hududlariga investitsiya qilish hajmlarini kengaytirish uchun siyosat olib borishi, investitsiyalarni jalb etish, hududida investitsiya muhitini yanada rivojlantirishi, korxonalarining yanada jadallashishini qo‘llab quvvatlanishi lozim, shundagina mahalliy investorlarni faoliyati yanada rivojlanib boradi.

Shu bilan birga, investorlar bilan ishlashda ayniqsa joylarda investorlarning tashabbuslari, barcha darajadagi hokimliklar tomonidan lozim darajada qo‘llab-quvvatlanmasligi, bu borada vazirlik va idoralar faoliyati aniq muvofiqlashtirilmaganligi bilan bog‘liq to‘liq va g‘ovlar mavjudligi qulay investitsiya muhitini shakllantirish bo‘yicha davlat siyosatining izchilligiga bo‘lgan ishonchning mustahkamlanishiga to‘sqinlik qilishi mumkin. Kelgusi yillardagi ustuvor yo‘nalishlaridan biri mamlakatimizda eng avvalo, jalb qilinayotgan chet el investitsiyalari hamda to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hajmini oshirish chet el investorlari uchun kafolatlari yaratish hamda ularning ishonchini mustahkamlash maqsadida yanada qulay investitsiya muhitini shakllantirishdan iborat. Mening fikrimcha yuqorida keltirilgan taklif va tavsiyalarni amaliyotga tatbiq qilinsa, mamlakat iqtisodiyotiga jalb qilinayotgan investitsiyalar hajmining oshishiga zamin yaratilgan bo‘lar edi.

Xulosa o‘rnida ta‘kidlash kerakki, rivojlangan mamlakatlarning tajribasi bosib o‘tgan yo‘li, iqtisodiy rivojlanishni ta‘minlash yo‘lida mamlakatning investitsion muhitni sog‘lomlashtirish borasida qabul qilgan qonunlar, investitsiyalarni kengroq jalb etish bo‘yicha ishlab chiqqan usul va uslublarning kerakli jihatlari O‘zbekiston sharoitiga tatbiq etish muhim masalalardan hisoblanadi. Biz mamlakatimizda investitsiyani rivojlantirishimiz uchun, so‘mning qadrini ko‘tarish, investorlarimizni haq-huquqlarini yanada oshirish, aksiyadorlik jamiyatlarimizni nufuzini oshirishimiz, qimmatli qog‘ozlar bozorini rivojlantirish, bank foiz stavkalarini barqarorlashtirish xorijiy investorlarni ularga jalb eta bilsakgina, investitsiyalarimizni ishlab chiqish nufuzi yanada ortadi.

Mahalliy hokimlarimizning xorijiy investorlarni hudud to‘g‘risida to‘liq investitsion muhitga oid ma‘lumotlar bilan ta‘minlashda faolligini oshirishda xorijiy investorlarni to‘laqonli ravishda ularni investitsiyamiz loyihalari va biznes takliflar bazasi, mehnat salohiyatimiz to‘g‘risida, xom-ashyolar haqida ma‘lumotlar bilan ta‘minlashimiz, shuningdek, investitsiya faoliyatiga oid konferensiyalar, seminarlar, taqdimotlarimizni respublikamizda hamda xorijiy mamlakatlar bilan aloqada bo‘lgan holda o‘tkazishimiz lozim.

Korxonalarimizda marketing xizmatlarimizni to‘g‘ri tanlab, ularning chet el bozorlarida, ishlab chiqaruvchilari va xaridorlari to‘g‘risidagi ma‘lumotlar bilan ham muntazam ta‘minlashimiz zarur. Bundan tashqari, korxonalarda marketing bilan shug‘ullanayotgan xodimlarni chet el korxonalari bilan tajriba almashishini, ular bilan o‘quv mashg‘ulotlari, seminarlar, taqdimotlar tashkil etilishini muntazam ravishda yo‘lga qo‘yishimiz lozim.

Ishonchimiz komilki, O‘zbekistonimiz erishayotgan natijalar albatta investorlar uchun yaxshi da‘vat bo‘lib xizmat qiladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar\**

1. “Xorijiy va mahalliy investorlarning investitsiya loyihalari tashqi infratuzilmasini yaratish xarajatlarini davlat tomonidan qoplab berish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 306-son 07.06.2022. qarori
2. O‘zbekiston Respublikasi investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 390-son 10.05.2019 qarori.
3. <http://www.lex.uz>
4. <https://www.un.org/en/>

## MAMLAKATIMIZDA INVESTITSIYA FAOLIYATINING HUQUQIY ASOSLARI VA INVESTITSIYANING MAMLAKAT TARAQQIYOTIDAGI O‘RNI

**Haydarova Dilbar Akbar qizi**

Toshkent viloyat yuridik texnikumi o‘quvchisi

**Annotatsiya:** mazkur maqolada investitsiya faoliyatining kafolatlari, investitsiya faoliyatini amalga oshirish qanchalik ahamiyatga ega ekanligi xususida hamda investitsiya faoliyatini amalga oshirayotgan shaxslar mazkur faoliyatni amalga oshirishda ular ega bo‘ladigan huquq va majburiyatlar xususida so‘z yuritiladi.

**Kalit so‘zlar:** Investitsiya, xalqaro, kafolat, tadbirkorlik, iqtisodiyot, moliya, budget.

Investitsiya faoliyatining xalqaro huquqiy kafolatlari deganda biz avvalo investitsiya faoliyati qanday tushuncha ekanligini va uni prinsip qoidalari nimalardan iboratligini bilib olamiz. Investitsiya (loticha: investio - “o‘rash”) iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadida o‘z mamlakatida yoki chet ellarda turli tarmoqlarga, ijtimoiy-iqtisodiy dasturlarga, innovatsiya, tadbirkorlik loyihalariga uzoq, muddatli kapital kiritish (qo‘yish).

**Investitsiyalar** - investor tomonidan foyda olish maqsadida ijtimoiy soha, tadbirkorlik, ilmiy va boshqa faoliyat turlari obyektlariga tavakkalchiliklar asosida kiritiladigan moddiy va nomoddiy boyliklar hamda ularga bo‘lgan huquqlar, shu jumladan intellektual mulk obyektlariga bo‘lgan huquqlar, shuningdek reinvestitsiyalar bo‘lib, ular quyidagilarni o‘z ichiga olishi mumkin<sup>55</sup>:

mablag‘larni, shu jumladan pul mablag‘larini (shu jumladan chet el valyutasini), maqsadli bank omonatlarini, paylarni, ulushlarni, aksiyalarni, obligatsiyalarni, veksellar va boshqa qimmatli qog‘ozlarni;

ko‘char va ko‘chmas mol-mulkni (binolar, inshootlar, uskunalar, mashinalar va boshqa moddiy qimmatliklarni);

intellektual mulkka doir mulkiy huquqlarni, shu jumladan u yoki bu ishlab chiqarish turini tashkil etish uchun zarur bo‘lgan, texnik hujjatlar, ko‘nikmalar va ishlab chiqarish tajribasi tarzida rasmiylashtirilgan, patentlangan yoki patentlanmagan (nou-xau) texnik, texnologik, tijoratga oid va boshqa bilimlarni, shuningdek O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligida ta‘qiqlanmagan boshqa qimmatliklarni;

Oddiyroq tushunishga harakat qilsak, pulning vaqt (zamon)ga bog‘liq qiymati nazariyasiga ko‘ra, investitsiya kelajakda naf olish maqsadida mablag‘lar qo‘yishdir. Investitsiya kapitalni muayyan muddatga bog‘lashni yoki band qilishni bildiradi. Bundan asosiy maqsad kapital qiymatini saqlab qolish yoki bo‘lmasa kapital qiymatini vaqtda o‘stirib borishdir. Iqtisodiy mazmuni jihatdan investitsiya turli faoliyatlarga jalb etilgan moddiy, nomoddiy boyliklar va ularga bo‘lgan huquqlarni aks ettiradi. Investitsiya sifatida pul, qimmatli qog‘ozlar (aksiya, obligatsiya, sertifikat, veksell), yer, bino, inshoot kabi boyliklar, intellektual mulk bo‘lgan ilmiy kashfiyotlar, ixtirolar va boshqalar ishlatiladi. Investitsiya loyihalariga mablag‘ qo‘yuvchilar — investorlar davlat, kompaniya, korxonalar, chet ellik fuqarolar, aholi va boshqalar bo‘lishi mumkin. Uning quyidagi turlari mavjud: davlat investitsiyasi – davlat byudjeti va moliya manbalari hisobidan kiritiladi; chet el investitsiyasi – xorijiy davlatlar, banklar, kompaniyalar, tadbirkorlar tomonidan kiritiladi; xususiy investitsiya - xususiy, korporativ xo‘jalik va tashkilotlar, fuqarolar mablag‘lari, shu jumladan,

<sup>55</sup> O‘zbekiston Respublikasining “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi qonuni 3-modda

shaxsiy va jalb qilingan mablag'lar hisobidan qo'yiladi. Investitsiya qo'yilish shakliga qarab moliyaviy (portfel) va real (ishlab chiqarish) investitsiyaga bo'linadi<sup>56</sup>.

Ba'zi adabiyotlarda investitsiya bu asosiy kapitalni ko'paytirish uchun kiritiladigan har qanday aktiv investitsiya deb atalishi haqidagi ta'riflar keltiriladi<sup>57</sup>.

Y. Mitskevichning fikricha, investitsiya bu daromad olish yoki ijtimoiy samaraga erishish maqsadida moddiy va moliyaviy vositalarni, shuningdek, mol-mulkka hamda intellektual mulkka bo'lgan huquqlarni turli faoliyat obyektlariga qo'yilma sifatida jalb qilishdir<sup>58</sup>

P. Vaxrin ham investitsiya tushunchasiga ta'rif berar ekan, unga kapitalni joylashtirish usuli sifatida qarab, bu orqali kapitalni saqlash yoki uning asl qiymatini oshirish hamda ijobiy hajmdagi daramodga ega bo'lish ekanligini ta'kidlaydi<sup>59</sup>.

A. Neshitoyning fikricha, Investitsiya bu foyda olish yoki boshqa samaralarga erishish maqsadida o'z yoki o'zga mamlakatning turli tarmoqlariga, tadbirkorlik loyihalari, ijtimoiy-iqtisodiy dasturlar ham innovatsiya loyihalarini amalga oshirishga yo'naltirilgan pul mablag'larini (kapitalni) uzoq muddatga joylashtirishdir<sup>60</sup>.

Moliyaviy (portfel) investitsiya — aksiya, obligatsiya va boshqalar qimmatli qog'ozlarni sotib olishga qo'yiladigan investitsiya, real investitsiya — moddiy ishlab chiqarish (sanoat, qishloq xo'jaligi, qurilish va b.) sohasiga, moddiy-ashyoviy faoliyat turlariga uzoq, muddatli mablag'lar qo'yilish shakllarida amalga oshiriladi. Investitsiyalar va investitsiya faoliyatining asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat: qonuniylik; oshkoralik va ochiqlik; investitsiya faoliyatini amalga oshirish erkinligi; adolatlilik va investitsiya faoliyati subyektlarining tengligi; investorlarga nisbatan kamsitishga yo'l qo'ymaslik, investorlarning vijdonliligi prezumpsiyasi.

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotiga umumiy summasi ellik million AQSh dollari ekvivalentidan ortiq bo'lgan to'g'ridan-to'g'ri investitsiyani amalga oshirgan chet ellik yuridik shaxslar tomonidan bojxona hududiga olib kiriladigan tovarlarga, olib kirilayotgan tovarlar ularning o'z ishlab chiqarish mahsuloti bo'lsa, mahsulot taqsimotiga oid bitim bo'yicha ishlar olib borish uchun mo'ljallangan va loyiha hujjatlariga muvofiq mahsulot taqsimotiga oid bitim bo'yicha ishlarni bajarishda ishtirok etayotgan chet ellik investor yoki boshqa shaxslar tomonidan bojxona hududiga olib kiriladigan tovarlarga, shuningdek investor tomonidan bojxona hududidan olib chiqiladigan, mahsulot taqsimotiga oid bitimga muvofiq investorga tegishli bo'lgan mahsulotga;bojxona hududiga qonun hujjatlariga muvofiq tasdiqlanadigan ro'yxat bo'yicha olib kirilayotgan texnologik asbob-uskunalar, shuningdek butlovchi buyumlar va ehtiyot qismlar, agar ularni yetkazib berish kontrakti (shartnomasi, kelishuvi) shartlarida nazarda tutilgan bo'lsa.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 10.04.2012 yildagi PF-4434-sonli hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.04.2005-yildagi PF-3594-sonli Farmonlariga muvofiq, to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etgan holda tashkil etilgan va ilovaga muvofiq ro'yxat bo'yicha iqtisodiyot tarmoqlarida<sup>61</sup> mahsulotlarni ishlab chiqarishga (xizmatlar ko'rsatishga) ixtisoslashtirilgan korxonalariga quyidagi to'g'ridan to'g'ri xususiy xorijiy investitsiya hajmlarida O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan tartibda alohida soliqlar bo'yicha imtiyozlarni qo'llashning o'ziga xos xususiyatlari nazarda tutiladi: 300 ming AQSh dollaridan 3 million AQSh dollarigacha- 3 yil muddatga; 3 million AQSh dollaridan ortiq va

<sup>56</sup> Ендовицкий Д.А.Комплексный анализ и контрол инвестиционной деятельности: методология и практика / Д.А. Ендовицкий; подред. Л.Т. Гиляровской. М: Финансы и статистика, 2011, изд.№2, 400-с.

<sup>57</sup> Швандар В. А. Базилевич А. И. Управление инвестиционными проектами - М.: ЮНИТИ, 2017. - 444 с.

<sup>58</sup> Шарп У.Ф., Александр Г.Д., Бейли Д.В. Указ. соч. - С. 1035.

<sup>59</sup> Нешитой А.С. Инвестиции: Учебник. 4-е изд. М.: Дашков и К°, 2006.

<sup>60</sup> Вахабов А.В., Хажибакiev Sh.X, Muminov N.G. Xorijiy investitsiyalar. O'quv qo'llanma. T.: «Moliya». 303-b.

<sup>61</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.04.2005 yildagi "To'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb etishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-3594-son Farmoni

10 million AQSh dollarigacha- 5 yil muddatga; 10 million AQSh dollaridan ortiq bo'lganda- 7 yil muddatga.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 17.01.2017 yildagi PF-4933-sonli Farmoniga muvofiq: Umum belgilangan soliqlar to'lovchi davlat mulki obyektlarining sotib oluvchilari — tashkilotlar oldi-sotdi shartnomasi imzolangan paytdan boshlab 12 oy muddatga yangi sotib olinayotgan davlat mulki obyektlari bo'yicha mol-mulk solig'i va yer solig'i to'lashdan ozod qilinadi, bo'shagan mablag'lar xususiyashtirilgan obyektlarni modernizatsiyalash, texnik va texnologik qayta jihozlash hamda ularni rivojlantirishga maqsadli tarzda yo'naltiriladi. Bundan tashqari bir qancha moddalarda investitsiya to'g'risida qonunlar belgilab qo'yilgan.

Xulosa qilib aytganimizda investitsiya qanchalar davlatga kerakligi va nima uchun xususiy, xalqaro investitsiya qanchalar muhim, kerakligini bilib oldik va uni qonun bo'yicha ham o'z o'rniga ham ega ekanligini ko'rdik. Xalqaro investitsiya to'g'risida har bitta shaxs bilishi kerak bo'lgan narsalarni ko'rishimiz mumkin negaki bu investitsiya davlatimiz uchun ham biz uchun ham muhim hisoblanadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi Qonuni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.04.2005 yildagi "To'g'ridan to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb etishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-3594-son Farmoni.
3. Ендовицкий Д.А. Комплексный анализ и контроль инвестиционной деятельности: методология и практика / Д.А. Ендовицкий; подред. Л.Т. Гиляровской. М: Финансы и статистика, 2011, изд. №2, 400с.
4. Швандар В. А. Базилевич А. И. Управление инвестиционными проектами - М.: ЮНИТИ, 2017. - 444 с.
5. Шарп У.Ф., Александр Г.Д., Бейли Д.В. Указ. соч. – С. 1035.
6. Нешиной А.С. Инвестиции: Учебник. 4-е изд. М.: Дашков и К, 2006. 7.
7. Vaxabov A.V., Xajibakiyev Sh.X, Muminov N.G. Xorijiy investitsiyalar: o'quv qo'llanma. – T.: Moliya. – 303-b.

## INVESTITSIYA FAOLIYATINING SUBYEKTLARI VA ULARNING HUQUQIY HOLATI

Xajiboyev Izzatbek G'afur o'g'li

Olimov Sardorbek Jasurbek o'g'li

Xorazm viloyat yuridik texnikumi o'quvchilari

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada investitsion faoliyat subyektlari, ularning turlari, ularning huquqiy holati xalqaro va milliy huquqiy hujjatlar asosidagi tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** Investitsion faoliyat, investitsion faoliyat subyektlari, moliyaviy investitsiya, real investitsiya.

Investitsiya faoliyati subyektlarini turli darajadagi investorlar sifatida ta'riflashimiz mumkin bo'lib, bularga ushbu faoliyatni amalga oshiruvchi jismoniy va yuridik shaxslar, tadbirkorlik subyektlari, davlat boshqaruv hamda mahalliy davlat hokimiyati organlari, xorijiy davlatlar, ularning ma'muriy organlari, xalqaro tashkilotlar, xorijiy davlatlarning jismoniy va yuridik shaxslari, shuningdek, fuqaroligi bo'lmagan yuridik shaxslarni kiritish mumkin. Bugungi kunda investorlar tomonidan investitsiya loyihalari turli faoliyat sohalarida amalga oshiriladi. Shu jihatdan bir qator iqtisodiy va yuridik adabiyotlarda investitsiya faoliyatining tasniflanishi alohida o'rganish obyekti sifatida qaraladi. Bunda umumiy fikri shundaki, investitsiya faoliyatining tasniflanishi bevosita investitsiyaning qanday turga xos ekanligi bilan bog'liq holda izohlanadi. Xorijiy adabiyotlarda investitsiyalarning turli me'zonlar bo'yicha tasniflanishi bo'yicha bir qator fikrlar keltirilgan. I.V. Soshnikovning fikriga ko'ra, investitsiyalarning tuzilishi hamda tasniflanishi nafaqat ularni to'g'ri hisobga olish, balki ulardan foydalanish darajasini har tomonlama tahlil qilish va investitsion faoliyatda samarali investitsiyalarni ishlab chiqish hamda amalga oshirish bo'yicha obyektiv ma'lumotlar olish imkonini beradi.

U. Sharp hamda G. Beyli investitsiyalarni real hamda moliyaviy turlarga bo'linishini ta'kidlab, real investitsiyalarni asosan, moddiy aktivlarga jumladan, ko'chmas mulk, qurilish, uskunar va shu kabi moddiy xususiyatga ega bo'lgan vositalarga qilingan investitsiyalar ekanligini, moliyaviy investitsiyalar esa qog'ozda aks etgan shartnomalar xususan, qimmatli qog'ozlar, aksiyalar va obligatsiyalar ekanligini izohlaydi. Shuningdek, rivojlanayotgan iqtisodiyotda investitsiyalarning aksariyat qismi real investitsiyalarni, rivojlangan iqtisodiyotda esa investitsiyalarning eng ko'p qismi moliyaviy investitsiyalarni tashkil etib, moliyaviy investitsiyalarning rivojlanishi real investitsiyalarni o'sishiga xizmat qiladi. Investitsiyalarning mazkur shakllari bir-biri bilan raqobatlashuvchi emas, balki bir-birini to'ldiruvchi hisoblanadi. Nemis olim Vaynrixon esa investitsiyalarni yo'naltirish obyektiga ko'ra:

a) ko'chmas mulkka kiritiladigan investitsiyalar (bularga moddiy investitsiyalar xususan, bino-inshootlar, asbob-uskunalar va boshqa turdagi asosiy vositalar kiradi);

b) moliyaviy investitsiyalar (bularga aksiya, obligatsiya, veksellar, shuningdek, boshqa turdagi qimmatli qog'ozlarni sotib olish kiradi);

d) nomoddiy investitsiyalar (bularga inson resurslariga, ilmiy tadqiqot ishlariga kiritiladigan investitsiyalar kiradi).

Adabiyotlarda investitsiyalar quyidagicha tasniflanadi:

1. Investitsiya vositalarini qo'yish obyektiga ko'ra: - real investitsiyalar (moddiy hamda nomoddiy aktivlarga qaratilgan qo'yilmalar; - moliyaviy investitsiyalar (moliyaviy vositalarga, asosan, qimmatli qog'ozlarga yo'naltirilgan qo'yilmalar. Real investitsiyalar deganda real aktivlarga (moddiy va nomoddiy aktivlar) joylashtiriladigan investitsiya vositalari nazarda tutiladi. Bunda moddiy investitsiyalar ishlab chiqarish vositalarini yaratish, moddiy xususiyatga

ega ashyolarni sotib olish orqali kiritiladi. Nomoddiy investitsiyalar inson salohiyatini rivojlantirish, kadrlarning malakasini oshirish, ilmiy-texnik va innovatsionlikka qaratilganligi bilan xarakterlanadi. Nomoddiy investitsiyalar patentlar, litsenziyalar, nou-xaular, kadrlarni o'qitish, qayta tayyorlash, reklamalar, ilmiy tadqiqot ishlarini rivojlantirish uchun kiritiladigan kapitallardir.

2. Investitsiyalashda ishtirok etish xarakteriga ko'ra: - to'g'ri investitsiyalar; - portfel investitsiyalar. To'g'ri investitsiyalar investor tomonidan investitsiyalash jarayonidan investitsiya obyektlarini izlash va tanlashda hamda investitsiya vositalarini qo'yishda bevosita o'zi ishtirok etishini nazarda tutadi. To'g'ri investitsiyalash investordan muayyan bilim va malaka talab etib, bu investitsiya obyekti yuzasidan aniq ma'lumotga ega hamda investitsiyalash mexanizmini tushunadigan investorlar tomonidan amalga oshiriladi. To'g'ri investitsiyalar investitsiya faoliyatini uzoq muddat davomida amalga oshirilishi hamda jiddiy tijoriy va siyosiy risklarga egaligi bilan xarakterlanadi. Investitsiya vositachilari, tijorat banklari, fondlar va boshqa moliyaviy vositachilar orqali amalga oshiriladigan investitsiyalash portfel investitsiyalar hisoblanadi. Bugungi kunda global iqtisodiyotda investitsiyalashning muayyan qismini portfel investitsiyalar tashkil etadi. Boisi barcha investorlar ham investitsiyalashni qanday amalga oshirish bo'yicha chuqur bilimga ega bo'lmaydilar va bu investitsiya hamda moliyaviy vositachilar yordamidan foydalanishni taqozo qiladi. Portfel investitsiyalarning to'g'ri investitsiyalardan farqi shundaki, ularni sotish va boshqa usullarda qaytarib olish osondir, shuningdek mazkur investitsiyalar nisbatan qisqa muddatlarda amalga oshirilishi bilan ajralib turadi.

3. Investitsiya faoliyatni amalga oshirish muddatiga ko'ra qisqa o'rta va uzoq muddatli investitsiyalarga bo'linadi. Qisqa muddatli investitsiyalarga aksariyat hollarda bir yil muddatga qo'yiladigan kapitallar kiradi. bir yildan uch yilgacha bo'lgan muddatda faoliyat ko'rsatadigan investitsiyalar o'rta muddatli investitsiyalar hisoblanadi. Uzoq muddatli investitsiyalarga esa uch yilda ko'p bo'lgan muddatga qo'yiladigan investitsiyalar mansub bo'ladi. Ba'zi olimlar mazkur muddatlardan tashqari o'ta qisqa muddatli (bir necha soatda bir necha kungacha joylashtiriladigan investitsiyalar, bular asosan moliyaviy investitsion faoliyatda amalga oshiriladi) hamda o'ta uzoq muddatli (o'ttiz yildan ortiq muddatda amal qiladigan investitsiyalar) investitsiyalarni ham ajratib ko'rsatadilar.

4. Investorlarning qaysi mulk shakliga tegishliligiga ko'ra investitsiya faoliyati quyidagi shakllarda amalga oshiriladi: - davlat organlari orqali, xususan, davlat tashkilotlari va korxonalar, shuningdek, boshqa ma'muriy muassasalar tomonidan amalga oshiriladigan investitsiya faoliyati; - davlat aktivlariga asoslanmagan holda jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan o'z xususiy mulkchiligi asosida amalga oshiriladigan investitsiya faoliyati; - xorijiy davlatlar va ularning tashkilotlari, shuningdek xorijiy jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan amalga oshiriladigan investitsiya faoliyati; - bir davlat hukumati hamda uning jismoniy va yuridik shaxslari bilan xorijiy davlatlar, ularning jismoniy va yuridik shaxslari tomonidan birgalikda amalga oshiriladigan investitsiya faoliyati. “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 5-moddasida investitsiyalarning mo'ljallangan obyektiga ko'ra turlari ko'rsatilgan bo'lib, unga ko'ra O'zbekiston Respublikasida investitsiyalar mo'ljallangan obyektiga ko'ra kapital, moliyaviy va ijtimoiy turlarga bo'linadi. Kapital investitsiyalar jumlasiga asosiy fondlarni yaratish va takror ko'paytirishga, shu jumladan yangi qurilishga, modernizatsiya qilishga, rekonstruksiya qilishga, texnik jihatdan qayta jihozlashga, shuningdek moddiy ishlab chiqarishning boshqa shakllarini rivojlantirishga kiritiladigan investitsiyalar kiradi. Aksiyalar, korporativ, infratuzilmaviy va davlat obligatsiyalariga, shuningdek, qimmatli qog'ozlarning boshqa turlariga kiritiladigan investitsiyalar moliyaviy investitsiyalar jumlasiga kiradi. Ijtimoiy investitsiyalar esa inson



salohiyatini, ko'nikmalarini va ishlab chiqarish tajribasini rivojlantirishga, shuningdek nomoddiy boyliklarning boshqa shakllarini rivojlantirishga kiritiladigan investitsiyalarni o'z ichiga oladi. Kapital investitsiyalar asosan, moddiy ishlab chiqarishga, asosiy fondlarni vujudga keltirish va qayta yaratishga hamda moddiy ishlab chiqarishning boshqa shakllarini rivojlantirishga yo'naltirilgan investitsiyalarni nazarda tutadi. Moliyaviy investitsiyalar bugunga kunda keng ommalashgan investitsiya turi hisoblanib, mazkur turdagi investitsiya faoliyati asosan, qimmatli qog'ozlar bozorida amalga oshiriladi. Bunda moliyaviy investitsiyalar daromad olish hamda asosiy kapitalni ko'paytirish maqsadida investor tasarrufidagi vositalarni aksiya, obligatsiya, veksel, zayom va boshqa qimmatli qog'ozlarga, bir so'z bilan aytganda, moliyaviy aktivlarga joylashtirishni anglatadi. Moliyaviy investitsiyalar spekulyativ xususiyatga ega bo'lgan yoki kapitalni uzoq muddatga qo'yishga qaratilgan bo'ladi. Yuqorida keltirilgan investitsiyalar orasida ijtimoiy investitsiyalari o'ziga xos ahamiyatga ega hisoblanadi. Boisi ijtimoiy investitsiyalar insonning bilimi, ko'nikmasi va iqtidorini oshirishga, yuksak salohiyatga ega kadrlarni yetishtirishga, yangi innovatsion ishlab chiqarish tajribalarini, ilmiy-tadqiqot va loyiha-konstruktorlik ishlarini rivojlantirishga yo'naltiriladi. Biz muhokama qilgan investitsion faoliyat subyektlari huquqiy jihatdan qo'llab-quvvatlanishi bizning fikrimizcha barcha mamlakatlarning iqtisodiy o'sishiga olib keladi. Ushbu subyektlarning huquqlari kengayishi ularning dunyo hamjamiyatida keng yoyilishiga olib keladi, ammo bu jarayonda jinoiy xavf ham yo'q emas albatta. Bularni oldini olish maqsadida xalqaro hamkorlik har tomonlama yo'lga qo'yilishi lozim.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Сошников И.В. Классификация инвестиций и формирование инвестиционного рынка в регионах России // Региональная экономика: теория и практика. 2007. №3.
2. Sharp U., Aleksandr G., Beyli J. Investitsiya: Per.S ang.-M.:INFRA-M.1997. C. 7
3. Сергеев И.В., Веретенникова И.И. Организация и финансирования инвестиций. М.: Финансы и статистика, 2001. С. 14

## INVESTITSIYA FAOLIYATINING XALQARO HUQUQIY KAFOLATLARI

**Zamanov Nodirbek Sobirjon o'g'li**  
Sirdaryo viloyati yuridik texnikumi  
2-bosqich o'quvchisi

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada investitsiya va investitsiya faoliyati tushunchasi, investitsiya faoliyatining iqtisodiy mazmun-mohiyati, xalqaro investitsion pozitsiya haqida tushuncha, xorijiy investitsiyalar foydalari, ularning turlari, sarmoyalarni jalb qilishning asosiy manbai va sarmoyalarni jalb qilishning asosiy sababi, ulardan olingan foyda haqida so'z boradi.*

**Kalit so'zlar:** *Investitsiya, investitsion faoliyat, xalqaro investitsion pozitsiya, xorijiy investitsiya, sarmoya, iqtisodiy zonalar, investitsiya shakllari.*

Bugungi iqtisodiy globallashtirish jarayonida investitsion faoliyat har bir davlat iqtisodiyotida muhim ahamiyatga ega element hisoblanadi. Boisi, mazkur faoliyat mamlakatda sanoat ishlab chiqarish darajasini kengaytirishga va rivojlantirishga, iqtisodiyotning barqaror hamda progressiv o'sishiga xizmat qiladi. Alohida xo'jalik yurituvchi subyektlarning va umuman mamlakatning iqtisodiy faoliyati asosan investitsiyalar hajmi va shakllari bilan tavsiflanadi. “Investitsiya” atamasi lotin tilidagi “invest” so'zidan kelib chiqqan bo'lib “qo'yish”, “mablag'ni safarbar etish”, “kapital qo'yilmasi” ma'nosini beradi. Investitsiya tushunchasiga ba'zi bir xalqaro ko'p tomonlama shartnomalarda ham ta'rif berib o'tilgan bo'lib, xususan, 1997-yilda qabul qilingan Investorlar huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi Moskva konvensiyasining 1-moddasiga muvofiq investitsiya bu investorlar tomonidan foyda olish yoki ijtimoiy samaraga erishish maqsadida moliyaviy va moddiy vositalarni, shuningdek, mol-mulkka hamda intellektual mulkka bo'lgan huquqlarni agar ular mazkur shartnomaga a'zo davlatlarning milliy qonunchiligiga ko'ra muomaladan chiqarilmagan yoki muomalada bo'lishi cheklanmagan bo'lsa, turli faoliyat obyektlariga jalb qilishdir. Keng ma'noda investitsiya mablag'ni ko'paytirib va qaytarib olish maqsadida kapitalni safarbar etishni bildiradi. Ko'pgina hollarda “investitsiya” tushunchasi iqtisodiy va boshqa faoliyat obyektlariga kiritiladigan moddiy va nomoddiy ne'matlar hamda ularga doir huquqlar tarzida ta'riflanadi. Investitsiya deganda barcha turdagi milliy va intellektual boyliklar tushunilib, ular tadbirkorlik faoliyati obyektlariga yo'naltirilib daromad keltirishi yoki biror-bir ijobiy samaraga erishishi zarur. Investitsiya kiritishdan asosiy maqsad-daromad olish va ijobiy ijtimoiy samaraga erishishdir.

Kapital investitsiyalar jumlasiga asosiy fondlarni yaratish va takror ko'paytirishga, shu jumladan yangi qurilishga, modernizatsiya qilishga, rekonstruksiya qilishga, texnik jihatdan qayta jihozlashga, shuningdek moddiy ishlab chiqarishning boshqa shakllarini rivojlantirishga kiritiladigan investitsiyalar kiradi.

Aksiyalar, korporativ, infratuzilmaviy va davlat obligatsiyalariga, shuningdek qimmatli qog'ozlarning boshqa turlariga kiritiladigan investitsiyalar moliyaviy investitsiyalar jumlasiga kiradi.

Ijtimoiy investitsiyalar esa inson salohiyatini, ko'nikmalarini va ishlab chiqarish tajribasini rivojlantirishga, shuningdek nomoddiy boyliklarning boshqa shakllarini rivojlantirishga kiritiladigan investitsiyalarni o'z ichiga oladi.

Xalqaro investitsiyalar eng keng talqinda investitsiyalar bo'lib, ularni amalga oshirish turli davlatlarga tegishli bo'lgan ishtirokchilarning (rezident va nerezidentlarning ma'lum bir mamlakatga nisbatan) o'zaro aloqasini o'z ichiga oladi. Tor ma'noda xalqaro sarmoyalar - bu chet elga sarmoya yoki chet el sarmoyasi. Qanday bo'lmasin, investitsiya bu kapitalni keyinchalik uni ko'payishini hisobga olgan holda sarmoyadir. Shu bilan birga, kapitalning o'sishi investorga

joriy davrda mavjud mablag'larni iste'mol qilish uchun ishlatishdan bosh tortganligi uchun uni qoplashi, uni tavakkal qilish uchun mukofotlashi, kelgusi davrda inflyatsiyadan zararni qoplashi uchun yetarli bo'lishi kerak.

Xalqaro investitsion pozitsiya - mamlakatni dunyoning boshqa mamlakatlariga nisbatan moliyaviy holatini belgilovchi muhim ko'rsatkich bo'lib, xorijiy aktivlari (chet eldagi pul mablag'lari, mol-mulklar, berilgan qarzarlar, bankdagi omonatlar va boshqalar) va boshqa davlatlar oldidagi majburiyatlarini (xorijliklarning mamlakatdagi pul mablag'lari, ularning mol-mulkari, olingan qarzarlar, bankdagi omonatlar va boshqalar) o'z ichiga oladi. Mamlakat xalqaro investitsion pozitsiyasi turli sektorlarining (davlat, xususiy va boshqa sektorlarning) aktiv va majburiyatlarga bo'linib, to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar, portfel investitsiyalari, boshqa investitsiyalar bo'yicha qoldiqlarni o'zida aks ettiradi. O'z navbatida, rezerv aktivlari bo'yicha qoldiqlari (majburiyatlar qismida muqobiliga ega bo'lmagani uchun) faqatgina aktivlar qismida ko'rsatiladi. Sof xalqaro investitsion pozitsiya (SXIP) - tashqi aktivlar va majburiyatlarni solishtirgan holda, mamlakatni "sof kreditor" yoki "sof qarzdor" ekanligini ko'rsatadi. Misol uchun, manfiy SXIP, davlatni "sof qarzdor"ligini bildirib, xorijiy davlatlarning mahalliy davlatdagi aktivlari, mahalliy mamlakatning xorijiy aktivlaridan ko'pligini anglatadi. Aksincha, ijobiy SXIP mahalliy davlatni "sof kreditor"ligini bildirib, mahalliy davlatning xorijiy aktivlari, xorijiy davlatlarning mahalliy mamlakatdagi aktivlaridan ziyodligini ko'rsatadi.

Xorijiy investitsiyalar O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, tayyor mahsulot ishlab chiqarish ko'lamini kengaytirish, eksport hajmini oshirishga imkon yaratayotganligiga amin bo'lish mumkin. To'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar oqimi kengayib va ortib borayotganligi mamlakatimizda amalga oshirilayotgan bozor islohotlarining to'g'riligi hamda samaradorligidan dalolatdir.

Xorijiy investorlar bilan qo'shma korxonalar tashkil qilish mamlakatimizga:

- yangi, zamonaviy texnika va texnologiyalarni respublika iqtisodiyotiga jalb qilish, ularni ishlab chiqarishga joriy qilish esa necha yillar davomida sifatsiz, xaridor talabiga javob bera olmaydigan mahsulotlar ishlab chiqaruvchi eski texnikalardan tezroq qutilish imkonini beradi;

- yangi ish joylari tashkil qilish va aholining ishsiz qismini ish bilan ta'minlash, shu bilan birga, xorijning ilg'or boshqaruv tajribasini joriy qilish imkonini beradi va shu orqali mehnat unumdorligi oshiriladi;

- jahon bozorida raqobatlasha oladigan sifatli mahsulotlarni ishlab chiqarish va ularni eksport qilish evaziga mamlakatga erkin konvertatsiya qilinadigan valyutalarning ko'proq kirib kelishini ta'minlaydi.

Davlat investitsiya siyosati hududlar, tarmoq va korxonalar investitsiya siyosatidan tarkib topib, ular o'zaro bog'liqdir. Hududlar investitsiya siyosati investitsiyani sarflashda aholi, hudud va investor manfaatlarini hisobga olgan holda samarali ishlatishga imkon beruvchi hududda olib boriladigan chora-tadbirlar majmui. Tarmoq investitsiya siyosati esa bu mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishini ta'minlovchi tarmoqlar, sanoat mahsulotlarini eskport qilish, import o'rnini bosuvchi ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish, ilmiy-texnika taraqqiyotini investitsiya yo'li bilan qo'llab-quvvatlash hisoblanadi.

Mamlakatlarni jahon iqtisodiyoti tizimiga qo'shilish va xalqaro investitsiya faoliyatini rivojlantirishning istiqbolli yo'nalishi maxsus zonalar tashkil etishdir. Bu xorijiy investorlarning qiziqish uyg'otadigan eng jozibali shakllaridan biri bo'lib, bu tadbirkorlikni faollashtirish, eksport salohiyatini oshirish, bozor infratuzilmasini shakllantirish va iqtisodiyotning alohida mintaqalari va tarmoqlarini rivojlantirishni jadallashtirishga imkon beradi.

Kioto Protokolining Musaffo rivojlanish mexanizmi O'zbekiston Respublikasi hududida, mulkchilik shakllaridan qat'i nazar, yuridik shaxslar tomonidan xorijiy investorlarni jalb etgan holda jahon bozorida chiqindilar chiqarishning sertifikatlangan qisqartirishlarini sotib

olishni nazarda tutuvchi investitsiya loyihalarini tayyorlash va amalga oshirish uchun asos yaratadi.

Turli mamlakatlarda iqtisodiy zonalarni yaratish motivlari juda boshqacha. Ular sof erkin savdo zonasi yoki iqtisodiy faoliyatning barcha jihatlarini tartibga solinmaydigan maxsus zonalar sifatida yaratilishi mumkin. Siyosatlarini ichki bozorga yo'naltirilgan mamlakatlarda iqtisodiy zonalar qat'iy tartibga solinadi, investitsiya sohasida erkinlikka ega emas va kam faollik bilan rivojlanadi; agar mamlakat iqtisodiy siyosati tashqi iqtisodiyotga yo'naltirilgan bo'lsa va iqtisodiy zonani boshqarishga imkon qadar kam aralashishga urinishlar qilinsa, xorijiy investitsiyalar oqimi uchun qulay sharoitlar yaratiladi.

Biz uchun Xitoy tajribasi juda dolzarb bo'lib, bu yerda iqtisodiyotga bozor elementlarini joriy etish va chet ellik sheriklarga nisbatan ochiqlik XRX hukumatining eng muhim maqsadlariga aylandi. 80-yillarning boshlarida 4 ta iqtisodiy zona - Shenchjen, Juxay, Shantszhou va Xianmenlar tashkil etildi. Xitoyning eng yirik provinsiyasi: Guandun, Fujian, Tszansu provinsiyalari yirik eksperimental iqtisodiy zonalardan biriga aylantirildi, shu bilan birga iqtisodiyotning ochiqligini yanada kengaytirish maqsadida qirg'oq mintaqalarini rivojlantirish strategiyasi qayta ishlab chiqildi. Shunday qilib, 100 milliondan ortiq aholisi bo'lgan eksperimental iqtisodiy mintaqalar yaratildi, bu Xitoyda obrazli ravishda "ochiq oyna" deb nomlanadi. Uni yaratishdan maqsad chet el kapitali va zamonaviy xorij texnologiyalaridan foydalanish, shu asosda iqtisodiyotning yirik eksport sektorini yaratishdir. Mutaxassislarining fikriga ko'ra, Xitoyda iqtisodiy zonalarni yaratish tajribasini juda muvaffaqiyatli deb hisoblash mumkin, chunki ularni tashkil etish to'g'risida qaror qabul qilinganidan beri (1979 yil) o'tgan 10 yil ichida iqtisodiy zonalarga xorijiy investitsiyalar 2,5 mlrd. bo'lib, bu belgilangan muddat davomida Xitoydagi barcha xorijiy investitsiyalarning jamiga to'g'ri keladi.

Chet elda investitsiya faolligining sabablaridan biri shundan iboratki, Janubi Sharqiy Osiyoda 30 million xitoyliklar o'z mamlakatlaridan tashqarida yashaydilar va ko'pincha biznesda muvaffaqiyatli bo'lishadi yoki Gongkong uchun odatiy hol sifatida Xitoy materigini boshqaradilar.

Darhaqiqat, birinchi bosqichda Janubiy-Sharqiy Osiyodan kelgan korxonalar Xitoyning iqtisodiy zonalarga pul qo'yadigan korxonalar orasida ustunlik qildi, faqat keyinchalik Amerika, Yevropa va Yaponiya korxonalari paydo bo'ldi.

Jahon sanoati yetakchilari mamlakatlarida iqtisodiy zonalarni tashkil etishning yetakchi maqsadi - bu milliy konsernlarning tashqi bozorga kirishini soddalashtirish, bu erkin savdo zonalarni shakllantirishda o'z aksini topmoqda. Ularning maksimal soni (130 dan ortiq) Amerika Qo'shma Shtatlarida qayd etilgan. O'z hududida eksport mahsulotlari boj olinmaydigan import birliklari bilan to'ldiriladi, ular marketing va muhandislik xizmatlarini oladi va faktoringni amalga oshiradi.

So'nggi o'n yillikda ilmiy va texnikaviy iqtisodiy zonalar juda jadal rivojlanmoqda, shu jumladan Kaliforniyadagi (AQSH) Silikon vodiysi kabi texnopolislar, bu ilmiy va ishlab chiqarish salohiyatining o'sishini va kashfiyotlarni ishlab chiqarishga joriy etish davrining qisqarishini ta'minlaydi.


So'nggi paytlarda, ayniqsa MDH mamlakatlarida qo'shma korxonalar yaratish va ularning ishlashi kabi xorijiy investitsiyalarning shakli keng tarqalmoqda. Qo'shimcha korxonalar - bu bir nechta mamlakatlardagi sheriklar o'rtasidagi hamkorlik shakli, ularning kapitalini qo'shma ishlab chiqarish-xo'jalik faoliyatini amalga oshirish, boshqarish va foydani investitsiya qilingan kapitalga mutanosib ravishda amalga oshirish uchun birlashtiradi. Qo'shma korxonani yaratish iste'mol bozorini to'ldirish, ilm-fan va texnikaning ilg'or yutuqlarini, ilg'or texnologiyalarni, boshqaruv tajribasini joriy etish, qo'shimcha moddiy va moliyaviy resurslarni jalb qilish, yutuqlarini rivojlantirishni jadallashtirish maqsadida mahsulot ishlab chiqarishga

qaratilgan mahalliy fan va texnologiyalar, eksport bazasini kengaytirish va import ta’minotini optimallashtirish.

Xulosa o`rnida shuni aytish mumkinki, rivojlangan mamlakatlar tajribasidan ma’lumki, xorij kapitali, xususan, to’g’ridan to’g’ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish investitsiyalashda eng samarali vosita hisoblanadi. Aynan xorijiy investitsiyalar mamlakatda iqtisodiy va texnologik jarayonini harakatlantiruvchi omili bo’lib xizmat qiladi. Jahon amaliyoti va tajribasidan kelib chiqib, biznesning investisiya va innovatsion faoliyatiga to’sqinlik qilayotgan muammolarni endi oddiy vositalar bilan, ya’ni imtiyozlar berish yoki yangi deklarativ me’yorlarni nashr etish bilan hal qilishning imkoni yo’q. Xususiy investitsiyalarni faollashtirish uchun tadbirkorlik faoliyatini erkinlashtirish talab etiladi. Biznes bilan doimiy muloqot, muayyan sektorlarning rivojlanishiga to’sqinlik qiladigan to’siqlarni aniqlash va yengib o’tish bo’yicha astoydil ish olib borish kerak. Shu munosabat bilan quyidagi ikki yo’nalishlar bo’yicha faol ish olib borish orqali xorijiy investitsiyalar oqimini ko’paytirish mumkin. Birinchidan, iqtisodiy o’sishning bir maromdagi yuqori va barqaror sur’atlarini saqlab qolish uchun mamlakat iqtisodiyotining barqaror va raqobatbardosh, bank tizimi aktivlarining katta qismi xususiy investorlar qo’lida bo’lgan modelini shakllantirish zarur. Ikkinchidan, investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish va barqaror iqtisodiy o’sishning asosiy omillaridan biri bo’lgan infratuzilmaga yo’naltirilgan investitsiyalarining jadal o’sishini ta’minlash maqsadida davlat-xususiy sheriklik va loyihalarni moliyalashtirish vositalarini rivojlantirish orqali investitsiyaviy faoliyatni rag’batlantirish ham faol tarzda olib borish.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Odyagailo B.M. Xalqaro iqtisodiyot: Navch.posib. - K.: Znannya, 2006-yil. - 407 c.
2. Zubchenko, L.A. Chet el investitsiyalari [Elektron resurs]: o’quv qo’llanma - Moskva: Knigodel.
3. Ivasenko A.G. Xorijiy investitsiyalar: darslik
4. A.G.Ivasenko, Ya.I.Nikonov. - M.: Knorus, International Financial Markets: Textbook. manual / edit.



**3-YO'NALISH:**

**MAHALLIY INVESTORLAR VA  
CHET EL INVESTORLARI  
FAOLIYATINI MAMLAKATIMIZDA  
YANADA RIVOJLANTIRISH  
ISTIQBOLLARI**

## O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIGA XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB QILISHNING HUQUQIY ASOSLARI VA O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA XORIJIY INVESTITSIYALAR ISHTIROKIDAGI KORXONALAR UCHUN IMTIYOZLAR

**Nuratdinova Ilmira**

Qoraqalpog‘iston yuridik texnikumi  
“Ommaviy huquqiy fanlar” kafedrasini mudiri

**Annotatsiya:** O‘zbekiston Respublikasining “Investitsiya to‘g‘risida”gi Qonunida ko‘rsatilishicha, “investitsiya – iqtisodiy samara (foyda, daromad) olish yoki ijobiy ijtimoiy natijaga erishish uchun sarflanadigan pul mablag‘lari, banklarga qo‘yilgan omonatlar, paylar, qimmatli qog‘ozlar (aksiya, obligatsiyalar), texnologiyalar, litsenziyalar va samara beradigan boshqa har qanday boyliklardir”.

**Kalit so‘zlar:** investitsiya, qimmatli qog‘ozlar, aksiya, obligatsiyalar, daromad, moliyalashtirish, foyda solig‘i, mulk solig‘i eksport.

O‘zbekiston Respublikasida investitsiya xususida qonuniy hujjatlar 1991-yildan boshlab qabul qilingan bo‘lib, ular o‘tgan vaqt ichida ancha takomillashtirildi. O‘zbekiston Respublikasining “Investitsiya to‘g‘risida”gi Qonunida ko‘rsatilishicha, “investitsiya bu - iqtisodiy samara (foyda, daromad) olish yoki ijobiy ijtimoiy natijaga erishish uchun sarflanadigan pul mablag‘lari, banklarga qo‘yilgan omonatlar, paylar, qimmatli qog‘ozlar (aksiya, obligatsiyalar), texnologiyalar, litsenziyalar va samara beradigan boshqa har qanday boyliklardir”<sup>62</sup>. Bu iqtisodiy ta‘rif investitsiyaning bozor iqtisodiyoti sharoitiga mos kelishini to‘lalgicha tasdiqlaydi. Jumladan, unda;

Birinchidan, investitsiyaning o‘ziga va investitsiya faoliyatining obyektlariga keng ta‘rif berilgan.

Ikkinchidan, investitsiyaning bevosita iqtisodiy va ijtimoiy samara olishga muqarrar bog‘liqligi ta‘kidlab o‘tilgan.

«Investitsiya» atamasi lotin tilidagi «invest» so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib «qo‘yish», «mablag‘ni safarbar etish», «kapital qo‘yilmasi» ma‘nosini beradi. Keng ma‘noda investitsiya mablag‘ni ko‘paytirib va qaytarib olish maqsadida kapitalni safarbar etishni bildiradi. Ko‘pgina hollarda «investitsiya» tushunchasi iqtisodiy va boshqa faoliyat obyektlariga kiritiladigan moddiy va nomoddiy ne‘matlar hamda ularga doir huquqlar tarzida ta‘riflanadi. Investitsiya deyilganda barcha turdagi milliy va intellektual boyliklar tushunilib, ular tadbirkorlik faoliyati obyektlariga yo‘naltirilib, daromad keltirishi yoki biror-bir ijobiy samaraga erishishi zarur. Investitsiya kiritishdan asosiy maqsad daromad olish va ijobiy ijtimoiy samaraga erishishdir.

Xorijiy mamlakatlarning tajribasi va investitsiya to‘g‘risida mamlakatimizda qabul qilingan qonunlarning tahlilidan kelib chiqib, investitsiyaning shartli ravishda uchta turini ajratish mumkin.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida har bir investitsiya turining o‘ziga xos o‘rni bo‘ladi.

**Moliyaviy investitsiyalar** tarkibiga mahalliy va xorijiy mamlakatlarning pul birliklari, banklardagi omonatlar, depozit sertifikatlar, aksiyalar, obligatsiyalar, vekslar va boshqa qimmatli qog‘ozlar hamda tenglashtirilgan boyliklar kiradi.

**Moddiy investitsiyalar** tarkibiga asosiy fondlar, ya‘ni binolar, asbob-uskunalar inshootlar, kommunikatsiyalar va boshqa turdagi asosiy ishlab chiqarish fondlarining aktiv va passiv qismlari kiradi.

**Aqliy (intellektual) investitsiyalar** miqdori juda rang-barangdir, ya‘ni ular mulkiy huquqlar shaklidagi investitsiyalar, aqliy mehnatga oid shakldagi investitsiyalar va tabiiy resurslardan foydalanish shaklidagi investitsiyalardan iborat.

<sup>62</sup> Ўзбекистон Республикасининг «Чет эл инвестициялари тўғрисида»ги Қонуни, 30.04.1998 й

O'zbekiston bugungi kunda yirik xorijiy investitsiyalarni qabul qiluvchi mamlakatlar qatoriga kirish uchun barcha iqtisodiy, siyosiy va huquqiy asoslarga ega. Lekin bu degani O'zbekistonda xorijiy investorlarni jalb qilish uchun barcha ishlar qilib bo'lindi degani emas. Endigi navbatda bu asoslarga tayangan holda investitsiyalar jalb etishning mexanizmlarini takomillashtirish masalalari turadi.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, mamlakat iqtisodiyotida xorijiy investitsiyalarning tutgan o'rnini, salmog'i mazkur davlatdagi investitsion muhitning qanchalik qulayligini belgilaydi. Bu muhit ko'p jihatdan xorijiy investitsiyalarga nisbatan davlat olib borayotgan siyosatini va tashqi iqtisodiy faoliyatining davlat tomonidan tartibga solishning xususiyatlari bilan baholanadi. Strategik investorlar ko'p miqdordagi mablag'larni birinchi navbatda, iqtisodiyoti o'z ichki imkoniyatlari asosida barqaror va izchil ravishda rivojlanayotgan mamlakatga yo'naltiradi. Aynan shunday mamlakatlardagina qo'yilgan mablag'lar saqlanishiga va barqaror foyda olishga mo'ljal qilsa bo'ladi. Ichki va chet el investorlarini birinchi navbatda minimal darajadagi soliq imtiyozlari emas, balki biznesdagi keyingi qulay va maqbul istiqbollar qiziqtiradi.

Investitsiya loyihasi (loyiha) - iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa manfaat ko'rish maqsadida investitsiyalar kiritgan holda oldindan belgilangan muddat mobaynida amalga oshiriladigan o'zaro bog'liq tadbirlar va ishlar kompleksidir.

O'zbekiston Respublikasida investitsiya loyihasini amalga oshirish shartlariga bog'liq holda investitsiya loyihasi hujjatlari quyidagicha izchillikda ishlab chiqiladi:

- a) dastlabki texnik-iqtisodiy asoslash (DTIA) - moliyalashtirish manbalari va shartlarini kelishish;
- b) dastlabki texnik-iqtisodiy hisoblash (DTIH) - moliyalashtirish manbalari va shartlarini kelishish;
- d) ishchi loyiha-tanlov hujjatlari.

O'zbekistonda xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va tartibga solishda O'zbekiston Respublikasining qonunlari va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlar uning huquqiy asosi bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasida xorijiy investitsiyalarni jalb etish sohasidagi asosiy me'yoriy-huquqiy hujjatlar quyidagilardir:

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining 2010-yilgi Investitsiya dasturi to'g'risida"gi qarori, 28.10.2009 y.;
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "To'g'ridan to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb etishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni, 11.04.2005 y.

Milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda xorijiy investitsiyalarning ahamiyati benihoyat katta bo'lib, u quyidagilar bilan izohlanadi:

- birinchidan, xorijiy investitsiyalar ishlab chiqarishga zamonaviy texnika va texnologiyalarni joriy etib, eksportga mo'ljallangan mahsulotlarni ishlab chiqarishni rivojlantiradi;
- ikkinchidan, import o'rnini bosuvchi tovar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish va buning uchun xorijiy investitsiyalarni iqtisodiyotning ustuvor sohalariga yo'naltirish va pirovardida aholining me'yordagi turmush darajasini ta'minlash imkonini yaratadi;
- uchinchidan, kichik biznesni rivojlantirish va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini jadallashtirish orqali o'sib borayotgan aholini ish joylari bilan ta'minlaydi;
- to'rtinchidan, korxonalarining eskirgan ishlab chiqarish quvvatlarini, moddiy-texnik bazasini yangilaydi va texnik qayta qurollantiradi.

Bugungi kunda xorijiy investitsiyalarni yanada kengroq miqyosda jalb qilish, xorijiy investorlarni o'z mablag'larini mamlakatimiz iqtisodiyoti uchun sarflashga qiziqtirish maqsadida qonun asosida ular uchun imtiyozli moliyaviy sharoitlar yaratilgan. Ular quyidagi chizmada o'z ifodasini topgan:



O'zbekistonda mamlakat iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni keng jalb etish uchun qulay investitsiya muhitini yaratish, xorijiy investitsiyalarni jalb etish tadbirlarini (jumladan, imtiyozlarni berish) amalga oshirishda quyidagi tamoyillarga asoslaniladi:

- tashqi iqtisodiy faoliyatni yanada erkinlashtirish sohasida aniq maqsadni ko'zlab siyosat yuritish;

- respublika iqtisodiyotiga bevosita kapital mablag'ni keng jalb etishni ta'minlaydigan huquqiy ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa shart-sharoitlarni tobora takomillashtirish;

- respublikaga jahon darajasidagi texnologiyani yetkazib berayotgan va iqtisodiyotni zamonaviy tarkibini vujudga keltirishga ko'maklashayotgan xorijiy investorlarga nisbatan ochiq eshiklar siyosatini yuritish;

- mablag'larni respublika mustaqilligini ta'minlaydigan, import o'rnini qoplovchi va raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan eng muhim ustuvor yo'nalishda jamlash.

Xorijiy investitsiyalar bilan tashkil etilgan korxonalar (savdo, vositachilik, xom ashyo yetkazib beruvchilardan tashqari) ro'yxatdan o'tgan kundan boshlab:

- daromad (foyda) solig'idan birinchi yil 25 foiz qismidan, ikkinchi yil 50 foiz

- qismidan, uchinchi yil 100 foiz ozod qilinadi, qishloq hududida esa birinchi yildan 100 foiz ozod qilinadi;

- mulk solig'idan 2 yilga ozod qilinadi;

- ishlab chiqargan mahsulotning 30 foizdan ortig'i eksportga chiqarilsa, 50 foiz

- daromad solig'idan (foyda solig'i), 15-30 foiz eksportga chiqarilsa, 30 foiz daromad (foyda) solig'idan ozod qilinadi;

- ishlab chiqarish bilan band bo'lsa, yer solig'idan 2 yilga ozod qilinadi.

O'zbekiston Respublikasida alohida sohalarga imtiyozlar berish ko'zda tutilgan. Unga ko'ra, neft va gaz konlarini ochish va qidirish ishlariga xorijiy kompaniyalarni jalb qilgan korxonalar ushbu ishlarni amalga oshirish davrida barcha soliqlardan, shuningdek ushbu ishlarni amalga oshirish uchun zarur uskunalarni import qilishda bojlardan ozod qilinadi.

O'zbekiston Respublikasida investitsiya faoliyatining rivojlanib borishi, foyda olishning turli yo'llarini amalga tatbiq etishga olib kelmoqda. Agarda avval korxonalarda asosiy daromad o'zida ishlab chiqarilgan mahsulotni sotishdan iborat bo'ladigan bo'lsa, bozor munosabatlari rivojlanayotgan hozirgi sharoitda investitsiya va moliyaviy daromad olishga kengroq e'tibor qaratilmoqda. Hozirgi kunda investor oldida turgan asosiy maqsad optimal investitsiya portfelini shakllantirish bo'lib, uning ushbu portfel tarkibiga kiruvchiga investitsiya qimmatliklarini, boshqacha aytganda, investitsiya mulk obyektlarini qanday joylashtirishi ham muhim hisoblanadi.

Bugungi kunda investor mulkini qaysi faoliyatga yo'naltirilishi ham muhim masalalar qatoriga kiradi. Tadbirkorlikning tashkiliy-huquqiy shakllaridan biri qo'shma korxonalar hisoblanadi. Qo'shma korxonalar tashkil etish korxonalar va tashkilotlarning chet ellik sheriklar bilan aloqasini yuksaltiradi, mamlakat hududida xorijlik tadbirkorliklarga keng sharoit yaratadi, mamlakat hududiga xorijiy investitsiyalarini jalb etadi. Bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida milliy iqtisodiyotni barqarorlashtirishning asosiy omillaridan biri bu qo'shma tadbirkorlikni rivojlantirishga keng yo'l ochib berilishidir. Hozirgi kunda xorijlik ishbilarmonlar O'zbekistonni o'zlari uchun qulay va ishonchli sherik deb hisoblaydilar, chunki respublikamizda xorijiy investorlar uchun qulay investitsion muhit yaratildi. Natijada ularda o'z sarmoyalarini respublikamizda joylashtirish va biz bilan hamkorlik qilish istagi ortib bormoqda. Respublikamizda yaratilgan qulay investitsion muhitning asosiy omillari - respublikamizdagi qulay siyosiy barqarorlik, boy xom ashyo resurslarining mavjudligi, qo'shma tadbirkorlikning huquqiy asosi yaratilganligidir.

Xorijiy investorlar bilan qo'shma korxonalar tashkil qilish mamlakatimizga:

- yangi, zamonaviy texnika va texnologiyalarni respublika iqtisodiyotiga jalb qilish, ularni ishlab chiqarishga joriy qilish esa necha yillar davomida sifatsiz, xaridor talabiga javob bera olmaydigan mahsulotlar ishlab chiqaruvchi eski texnikalardan tezroq qutilish imkonini beradi;

- yangi ish joylari tashkil qilish va aholining ishsiz qismini ish bilan ta'minlash, shu bilan birga, xorijning ilg'or boshqaruv tajribasini joriy qilish imkonini beradi va shu orqali mehnat unumdorligi oshiriladi;

- jahon bozorida raqobatlasha oladigan sifatli mahsulotlarni ishlab chiqarish va ularni eksport qilish evaziga mamlakatga erkin konvertatsiya qilinadigan valyutalarning ko'proq kirib kelishini ta'minlaydi.

Xorijiy investitsiyalar O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, tayyor mahsulot ishlab chiqarish ko'lamini kengaytirish, eksport hajmini oshirishga imkon yaratayotganligiga amin bo'lish mumkin. To'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar oqimi kengayib va ortib borayotganligi mamlakatimizda amalga oshirilayotgan bozor islohotlarining to'g'riligi hamda samaradorligidan dalolatdir.

Rivojlangan mamlakatlar orasida chet el investitsiyalarini o'z milliy iqtisodiyotiga jalb etishning raqobat shakli yildan yilga kuchayib bormoqda. Shu bois, chet ellik investorlarga yaratilgan qulaylik qaysi davlatda ustun darajada bo'lsa, ya'ni foyda olish ehtimoli kattaroq bo'lsa, tabiiyki, ularning aynan o'sha davlat iqtisodiyotiga sarmoya kiritishga qiziqishi ortadi. Bu esa, bozor iqtisodiyotining nisbiy samaradorlik qonuniga mos keluvchi yechim hisoblanadi, ya'ni qayerda samara (foyda) olish imkoniyati nisbatan yuqori bo'lsa, tadbirkorlar o'sha yerdagi bozorga ko'proq intiladi. Shuningdek, bugun O'zbekiston bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan davlatlar ichida eng yuqori investitsiya muhiti yaratgan mamlakatlardan biriga aylandi. Bu shubhasiz, iqtisodiyotimizga to'g'ridan to'g'ri jalb etilayotgan xorijiy investitsiyalar oqimini yanada kuchaytiradi.

Xorijiy investitsiyalarni jalb etishga hududiy jihatdan yondashuv Respublikaning har bir hududining rivojlanishini ta'minlashga imkon beradi. Agarda xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar - Qoraqalpog'iston Respublikasi, Jizzax, Qashqadaryo, Sirdaryo, Surxondaryo, Xorazm viloyatlarida, hamda Navoiy va Farg'ona vodiysi viloyatlarining qishloq hududlarida bo'lsa, u holda quyidagi soliqlardan to'liq ozod etiladi:

- yagona soliq to'lovi;
- daromad (foyda solig'i);
- mulk solig'i;
- infratuzilmani rivojlantirish solig'i.

Hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida keskin farqlanishni oldini olish borasida ko'rilayotgan choralarga qaramasdan, hozirgi vaqtda XIKlarni tashkil etish va faoliyat yuritishida hududiy nomutanosibliklar kuzatilmoqda. Bu esa o'z navbatida eksport-import operatsiyalari hajmlarida katta farqlanishni yuzaga keltirmoqda. Andijon, Navoiy viloyatlari va Toshkent shahri eksport darajasi barqaror yuqori bo'lgan hududlarga kiradi. Mazkur 3 ta hududda xorijiy investitsiyalar ishtirokida tashkil etilgan yirik mashinasozlik, metallurgiya va to'qimachilik tarmoqlari korxonalari joylashganligi sababli ularda respublikaning barcha XIK eksportining 80 foizi shakllantiriladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1.25.12.2019 yildagi O'RBQ-598-son O'zbekiston Respublikasining “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida”gi Qonuni

2. Juraev A.S., Xo'jamqulov D.Y., Mamatov B.S. Investitsiya loyihalari tahlili: o'quv qo'llanma – T.: Sharq, 2003. - 256 b

3. Uzoqov A., Kenjayev N. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish: o'quv qo'llanma. – T.: 2007.

## MAHALLIY INVESTORLAR VA CHET EL INVESTORLARI FAOLIYATINI MAMLAKATIMIZDA YANADA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

**Prekeeva Tillaxan Markabaevna**  
*Qoraqalpog‘iston Respublikasi yuridik  
texnikumi maxsus fan o‘qituvchisi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada investitsiya faoliyatining iqtisodiy mazmun va mohiyati, uning barqaror iqtisodiy yuksalishi, mamlakatimizda chet el investorlari faoliyatini yanada rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar, shuningdek, O‘zbekiston iqtisodiyotida investitsion jarayonlar to‘g‘risida ma‘lumotlar keltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** Investitsiya, investitsion faoliyat, investitsiya jarayoni, investitsion siyosat, davlat investitsiya dasturi.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida investitsiya faoliyati muhim ahamiyat kasb etadi. Har bir mamlakatning rivojlanish darajasi, ya‘ni iqtisodiyotning rivojlanishi va iqtisodiy o‘sishi ko‘p jihatdan mamlakatdagi investitsion jarayonlarga bog‘liq. Har qanday jamiyatning barqaror iqtisodiy rivojlanishini investitsiyalarsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Ayniqsa, bugungi kunda bu narsa yaqqol namoyon bo‘lmoqdaki, har qanday mamlakatning bundan keyingi yuksalishi investitsiyalarni jalb etish holatiga bog‘liq.

«Investitsiya» atamasi lotin tilidagi «invest» so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib «qo‘yish», «mablag‘ni safarbar etish», «kapital qo‘yilmasi» ma‘nosini beradi. Keng ma‘noda investitsiya mablag‘ni ko‘paytirib, qaytarib olish maqsadida kapitalni safarbar etishni bildiradi. Ko‘pgina hollarda «investitsiya» tushunchasi iqtisodiy va boshqa faoliyat obyektlariga kiritiladigan moddiy va nomoddiy ne‘matlar hamda ularga doir huquqlar tarzida ta‘riflanadi. Investitsiya deganda barcha turdagi milliy va intellektual boyliklar tushunilib, ular tadbirkorlik faoliyati obyektlariga yo‘naltirilib, daromad keltirishi yoki biror-bir ijobiy samaraga erishishi zarur. Investitsiya kiritishdan asosiy maqsad daromad olish va ijobiy ijtimoiy samaraga erishishdir.

Bizga ma‘lumki, iqtisodiy o‘shish investitsiya resurslarisiz bo‘lishi mumkin emas, bu resurslar o‘z mohiyati bilan ishlab chiqarishni rivojlantirishga qaratilgan mablag‘dir. Pul mablag‘lari shaklidagi investitsiyalar nominal investitsiyalardir. Bu investitsiyalar moddiylashib, amalda ishlab chiqarishga jalb etilgandan so‘ng real investitsiyalarga aylanadi va iqtisodiy o‘shishni ta‘minlaydi.

O‘zbekiston Respublikasining “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi Qonunida investitsiyalar tayinlangan obyekti bo‘yicha tabaqalashtirilgan. Shunga muvofiq investitsiyalar quyidagi turlarga ajratilgan.

Investitsiya turlari:

- kapital investitsiyalar
- innovatsion investitsiyalar
- ijtimoiy investitsiyalar

Hozirgi kunda O‘zbekiston iqtisodiyotining barcha sohalarida o‘zgarishlar, tarkibiy islohotlar olib borilmoqda. Bunday islohotlarning olib borilishi bevosita mamlakatdagi investitsion jarayon, davlatning investitsion siyosati, uning ustuvor yo‘nalishlari va mamlakatdagi korxonalar investitsion faolligiga bog‘liq. Mustaqilligimizning qisqa davrida investitsion faollikni oshirish, uni kuchaytirish borasida qator amaliy chora-tadbirlar o‘tkazildi, investitsion faoliyatni tartibga solib turuvchi qator qonun va qonun osti hujjatlari chiqarildi va hayotga tatbiq qilinmoqda.

Bu yo'lda investitsiya siyosatining ahamiyati juda katta. Chunki investitsiyalar iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlar, texnik va texnologik yangilanishlar, korxonalarni qayta ta'mirlash ishlarini amalga oshirishni rag'batlantiradi, mamlakat eksport va import salohiyatini oshirishga imkon yaratadi. Shu jihatdan O'zbekiston davlati o'z investitsiya siyosatini olib bormoqda.

Investitsiya siyosati - bu iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarini rivojlantirish, qo'llab-quvvatlash, markazlashgan investitsiya jarayonidan nomarkazlashgan investitsiya jarayoniga o'tish, ustuvor investitsion loyihalarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan mexanizm, uslublar yig'indisi hisoblanadi. Davlat investitsiya siyosatini amalga oshirishda ko'proq ustuvorlik kichik biznes subyektlari, xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar tuzishga hamda mavjud kamchiliklarni bartaraf etish, muammolarni tezkorlik bilan hal etish va shu asnoda investitsiya ishtirokchilarining erkin harakat qila olishlari uchun qulay iqtisodiy, investitsion muhit yaratishga qaratilgan.

Davlat investitsiya siyosati hududlar, tarmoq va korxonalar investitsiya siyosatidan tarkib topib, ular o'zaro bog'liqdir. Hududlar investitsiya siyosati investitsiyani sarflashda aholi, hudud va investor manfaatlarini hisobga olgan holda samarali ishlatishga imkon beruvchi hududda olib boriladigan chora-tadbirlar majmui. Tarmoq investitsiya siyosati esa bu mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishini ta'minlovchi tarmoqlar, sanoat mahsulotlarini eksport qilish, import o'rnini bosuvchi ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish, ilmiy-texnika taraqqiyotini investitsiya yo'li bilan qo'llab-quvvatlash hisoblanadi.

O'zbekiston iqtisodiyotiga investitsiyalar kiritish, avvalo, ichki manbalarni safarbar etish hisobidan iqtisodiyotimizning muhim tarmoqlarini jadal modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash, transport va aloqa sohasini yanada rivojlantirish hamda ijtimoiy infratuzilma obyektlarini barpo etish hal qiluvchi ustuvor yo'nalishlarga aylandi.

Respublika iqtisodiyotining ustuvor tarmoqlarida investitsiya loyihalarini amalga oshirishning zaruriyati quyidagilardan kelib chiqadi: ishlab chiqarish quvvatlarining jismoniy va ma'naviy eskirganligi, ularning qayta tiklashga yoki texnik jihatdan qayta jihozlashga yoki umuman yangilashga oid bo'lib qolganligi; sanoat tarmog'ida moddiy texnika bazasining o'ta pastligi va ko'pgina zarar ko'rib ishlaydigan korxonalarining mavjudligi; respublika milliy daromadida jamg'arish bilan iste'mol o'rtasidagi nisbatning iste'mol tomonga ko'plab sarflanayotgani va jamg'arishning investitsiya manbai sifatida kamayib borayotganligi; O'zbekistonning tabiiy boyliklarga boyligi va bu yerda ko'plab qayta ishlovchi korxonalarni qurish imkoniyating mavjudligi; aholi sonining o'sib borayotganligi (mehnat resurslari) va kichik zamonaviy ixcham korxonalarni barpo etish, ularni mehnat resurslarining manbai bo'lmish qishloqqa yaqinlashtirish zarurligi; respublika eksportida xom ashyo salmog'ini kamaytirish va ko'plab tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish imkoniyatiga ega bo'lish zarurligi va boshqalar.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, investitsiya loyihalarini amalga oshirish orqali iqtisodiyotda tub o'zgarishlarni amalga oshirish imkonini beradi va bu iqtisodiyotda yangi ish o'rinlarini tashkil etish va rivojlanish garovi bo'lib xizmat qiladi. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida, yurtimizga zamonaviy texnologiyalar olib kelib, sanoat ishlab chiqarishini yangilash va modernizatsiyalash jarayonlarini olib borishni investitsiya faoliyatisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Investitsiya loyihalarini jalb qilish nafaqat davlat iqtisodiyotini yuksaltiradi, balki aholi turmish darajasini yaxshilashda ham katta samara beradi. Ya'ni maishiy muhtojliklarning katta bo'limi qanoatlantiriladi, ishlab chiqarish kengayadi, yangi mehnat kuchlari shakllanadi, eski va og'ir mehnat turmushidan yangi, yengil va samarali mehnat faoliyatiga o'tiladi. Davlatning kelajakdagi iqtisodiy yuksalish

darajasini bugungi jalb qilingan investitsiya loyihalari va investitsion jarayonlar belgilab beradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Fozilchayev Sh.Q., Xidirov N.G'. Investitsiya va lizing asoslari;
2. O'zbekiston Respublikasining qonuni, 25.12.2019 yildagi O'RQ-598-son;
3. Jo'rayev A.N. Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish manbalari qiymatini baholash;
4. www.stat.uz Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari.

## INCREASING THE ATTRACTIVENESS OF THE INVESTMENT ENVIRONMENT IN THE COUNTRY

**Mukhayyo Dustova**

Senior teacher of the Department of Innovative Economy,  
Karshi engineering economic institute

**Zilola Khalilova**

student of the Faculty of Economics,  
Karshi engineering economics institute

**Annotation:** *This article examines the steps taken by the government of Uzbekistan to increase the attractiveness of its investment environment. The country has implemented a number of reforms in recent years, including simplifying procedures for foreign investors, reducing bureaucratic barriers, and creating more favorable conditions for investment. The article discusses the impact of these reforms on the country's economy and analyzes the challenges and opportunities for further improving the investment environment.*

**Keywords:** *Uzbekistan, investment environment, foreign investment, economic reform, bureaucratic barriers, investment incentives.*

Uzbekistan, a country in Central Asia, has been undergoing a process of economic transformation in recent years. With a population of over 36 million and a strategic location at the crossroads of Asia, Uzbekistan has enormous potential for economic development. However, for many years, the country's investment environment was not particularly attractive to foreign investors due to bureaucratic barriers, a lack of transparency, and a challenging legal framework.

In recent years, the government of Uzbekistan has recognized the need to improve the investment climate in the country and has undertaken a series of reforms to increase the attractiveness of the investment environment. These reforms have included simplifying procedures for foreign investors, reducing bureaucratic barriers, and creating more favorable conditions for investment. As a result, Uzbekistan has seen an increase in foreign investment and has become one of the fastest-growing economies in the region.

This article will examine the steps taken by the government of Uzbekistan to improve the investment environment and attract foreign investment to the country. The article will begin by discussing the challenges faced by Uzbekistan in the past in attracting foreign investment, including the bureaucratic barriers and legal framework that hindered investment. It will then examine the economic reforms undertaken by the government of Uzbekistan in recent years to create a more attractive investment environment. The article will explore the impact of these reforms on the country's economy, including job creation, GDP growth, and increased exports. It will also analyze the challenges and opportunities for further improving the investment environment in Uzbekistan, including the need for continued economic reforms, better infrastructure, and a more skilled workforce.

Moreover, the article will examine the investment incentives offered by Uzbekistan to attract foreign investment, such as tax incentives and regulatory frameworks. Additionally, the article will discuss the role of the private sector in promoting foreign investment and sustainable economic growth in Uzbekistan.

The article will conclude by summarizing the progress made by Uzbekistan in improving the investment environment and the challenges that remain. It will argue that Uzbekistan has made significant strides in creating a more attractive investment environment and that these efforts

have had a positive impact on the country's economy. However, more work needs to be done to sustain the momentum of economic growth and ensure that the benefits of foreign investment are shared equitably.

The history of Uzbekistan's investment environment is characterized by a lack of transparency, an inconsistent legal framework, and an over-reliance on state-owned enterprises. After the collapse of the Soviet Union, Uzbekistan inherited an economic system that was dominated by state-owned enterprises, and foreign investment was limited due to the lack of legal protections for investors. Moreover, the bureaucracy was inefficient, and the regulatory environment was overly complex, which deterred foreign investors from entering the market.

The government of Uzbekistan has taken significant steps in recent years to address these issues and create a more attractive investment environment. These reforms have been designed to reduce bureaucratic barriers, simplify investment procedures, and create a more favorable legal framework. In 2017, the government of Uzbekistan introduced a new investment code that simplified investment procedures and created a more transparent regulatory environment. This investment code reduced the number of permits required for investment projects, streamlined the approval process, and created more favorable conditions for investors.

One of the most significant reforms introduced by the government of Uzbekistan was the liberalization of the foreign exchange market. Prior to 2017, the country had a fixed exchange rate regime, which created distortions in the economy and discouraged foreign investment. The government of Uzbekistan introduced a flexible exchange rate regime, which has improved the efficiency of the economy and encouraged investment.

The government of Uzbekistan has also implemented a number of policies to encourage investment in specific sectors of the economy. For example, the government has provided tax incentives to investors in the textile industry, which has led to an increase in foreign investment in the sector. The government has also implemented policies to encourage investment in renewable energy and infrastructure development.

The private sector has played a critical role in driving economic growth and attracting foreign investment to Uzbekistan. The government has recognized the importance of the private sector and has implemented policies to encourage its growth. The government has created a business environment that is more conducive to private sector growth by reducing bureaucratic barriers and improving the legal and regulatory framework.

In addition to economic reforms, Uzbekistan has also made progress in promoting sustainable development. The government has introduced policies to protect the environment, promote social welfare, and ensure that economic growth is inclusive. For example, the government has introduced policies to promote renewable energy and reduce greenhouse gas emissions. The government has also introduced policies to improve access to education and healthcare.

Despite these reforms, Uzbekistan still faces challenges in attracting foreign investment. The country lacks the infrastructure necessary to support foreign investment, and there is a shortage of skilled labor in the country. The government must continue to implement economic reforms and invest in infrastructure to attract foreign investment and promote sustainable economic growth.

In conclusion, Uzbekistan has made significant progress in improving its investment environment and attracting foreign investment to the country. The government has implemented a range of economic reforms to create a more favorable investment environment, including simplifying investment procedures, reducing bureaucratic barriers, and creating a more favorable legal framework. The private sector has played a critical role in driving economic growth and promoting sustainable development. However, more work needs to be done to

sustain the momentum of economic growth and ensure that the benefits of foreign investment are shared equitably. The government must continue to implement economic reforms and invest in infrastructure to attract foreign investment and promote sustainable economic growth.

### References

1. Alikulov N. (2019). Uzbekistan’s Economic Reforms: A Progress Report. *International Journal of Economics and Financial Issues*, 9(2), 188-197.
2. EBRD. (2019). *Uzbekistan: Country Strategy 2019-2024*. European Bank for Reconstruction and Development.
3. European Union External Action. (2021). EU-Uzbekistan relations. Retrieved from <https://eeas.europa.eu/delegations/uzbekistan/3696/eu-uzbekistan-relation>.
4. The World Bank. (2020). *Uzbekistan Economic Update, Fall 2020*. The World Bank.
5. UNDP. (2020). *Sustainable Development Goals in Uzbekistan*. United Nations Development Programme.



## DEVELOPMENT OF ACTIVITIES OF FOREIGN INVESTORS IN THE COUNTRY

Muhammadsulton Yarashev

Adiba Rakhmatullayeva

students of the Faculty of Economics,  
Karshi engineering economics institute

**Annotation:** *This article explores the benefits of foreign investment, and the measures governments can take to attract foreign investors, including creating a stable legal and regulatory framework and offering incentives. It emphasizes the importance of balancing national interests and ensuring sustainable development.*

**Keywords:** *foreign investment, economic development, incentives, legal framework, regulatory framework, government, private sector, national interests, sustainable development*

The development of activities of foreign investors in a country is an important factor in promoting economic growth and development. Foreign investment refers to the investment made by individuals, companies, or governments of one country in the assets or operations of another country. The investment can take the form of foreign direct investment (FDI), where a company invests in and controls a foreign business, or portfolio investment, where investors buy and sell financial assets such as stocks and bonds in foreign countries.

The benefits of foreign investment are well-known. It can help to stimulate economic growth, create jobs, and improve the standard of living. By bringing in much-needed capital, technology, and managerial expertise, foreign investment can help overcome resource constraints and improve productivity. This can create new businesses or expand existing ones, stimulating competition and innovation, leading to increased efficiency and higher quality products. Foreign investment can also bring in new markets and expand existing ones, creating new opportunities for growth.

Governments can play a crucial role in attracting foreign investment by creating an environment that is conducive to investment. This can involve establishing transparent and consistent legal and regulatory frameworks that protect the rights of investors and promote a stable investment climate. Governments can also offer incentives such as tax breaks, subsidies, and regulatory exemptions to encourage foreign investors to invest in their countries. These measures can help to reduce the risks associated with foreign investment and increase the potential returns for investors.

However, foreign investment also poses significant challenges, particularly in relation to national interests and sustainable development. Foreign investors may not always prioritize the interests of the host country, and there is a risk that they may engage in activities that undermine local industries, displace local workers, or harm the environment. Governments must therefore strike a balance between attracting foreign investment and protecting national interests, while also ensuring that foreign investment contributes to sustainable and inclusive development.

In recent years, there has been a growing interest in foreign investment in developing countries. This has been driven by the recognition that foreign investment can play a crucial role in supporting economic development and poverty reduction. Governments in these countries have been taking steps to create an environment that is attractive to foreign investors, by improving the legal and regulatory framework, and offering incentives to potential investors.

One of the key factors in attracting foreign investment is the regulatory framework. Investors want to operate in a stable environment where rules and regulations are clear, consistent, and transparent. This requires a legal and regulatory framework that is well-established, with clear procedures for licensing, permitting, and other requirements. Governments must ensure that their regulatory framework is aligned with international best practices and standards, to reassure foreign investors that their investments will be protected.

Another important factor in attracting foreign investment is the availability of incentives. Governments can offer tax breaks, subsidies, and other incentives to attract foreign investors. These incentives can help to offset the higher costs of doing business in a foreign country and can also provide a competitive advantage. However, it is important to ensure that incentives are structured in a way that supports sustainable development and does not create undue fiscal burdens for the government.

At the same time, governments must also be mindful of their national interests. This can involve protecting key industries or resources, ensuring that foreign investors are not engaging in activities that are harmful to the environment, and ensuring that workers are not exploited. Governments must strike a balance between promoting foreign investment and protecting their national interests, and this requires a careful and nuanced approach.

Sustainable development is another critical consideration in the development of activities of foreign investors in a country. Sustainable development requires economic growth that is inclusive and environmentally sustainable. Foreign investment can play a key role in supporting sustainable development, but only if it is structured in a way that is environmentally and socially responsible. This requires policies and regulations that promote sustainable practices and ensure that foreign investors are held accountable for their environmental and social impacts.

There has been a growing recognition of the importance of sustainable development in the context of foreign investment. Governments and investors are increasingly looking for ways to ensure that foreign investment supports sustainable development goals, such as poverty reduction, job creation, and environmental protection. This has led to the development of new frameworks and guidelines for sustainable investment, such as the United Nations Sustainable Development Goals and the Principles for Responsible Investment.

In conclusion, the development of activities of foreign investors in a country can bring significant benefits, but also poses significant challenges. By establishing transparent and consistent legal and regulatory frameworks, offering incentives, and prioritizing national interests and sustainable development, governments can create an environment that attracts foreign investment while also promoting long-term economic growth and development.

The methodology for analyzing the development of activities of foreign investors in a country typically involves a combination of quantitative and qualitative research methods.

Quantitative research methods involve the collection and analysis of numerical data, such as economic indicators and statistics on foreign investment flows. This can include analyzing data on the amount and types of foreign investment in a country, as well as the impact of foreign investment on the economy, such as job creation, GDP growth, and exports. This data can be gathered from various sources, such as national statistical agencies, international organizations like the World Bank and the International Monetary Fund, and industry reports.

Qualitative research methods, on the other hand, involve the collection and analysis of non-numerical data, such as interviews, case studies, and policy analysis. This can include interviewing government officials, industry experts, and representatives from civil society organizations to gain insight into the regulatory framework for foreign investment and the challenges and opportunities for promoting sustainable development. Case studies can be used to explore specific examples of foreign investment and their impact on local communities

and the environment. Policy analysis can be used to evaluate the effectiveness of policies and regulations related to foreign investment and to identify areas for improvement.

A mixed-methods approach that combines both quantitative and qualitative research methods can provide a more comprehensive understanding of the development of activities of foreign investors in a country. This approach can help to identify trends and patterns in foreign investment flows, as well as the social and environmental impacts of foreign investment. It can also provide insights into the policies and regulations that shape foreign investment and the factors that influence the decisions of foreign investors.

### References

1. UNCTAD. (2021). World Investment Report 2021. United Nations Conference on Trade and Development.
1. OECD. (2019). FDI in Figures: October 2019. Organisation for Economic Co-operation and Development.
2. Dunning, J. H. (2014). The Globalization of Business (Routledge Revivals): The Challenge of the 1990s. Routledge.
3. Porter, M. E., & Kramer, M. R. (2019). Creating shared value: A fundamental shift in thinking about capitalism. *Harvard Business Review*, 97(1), 62-77.
4. G20. (2019). G20 Principles for Quality Infrastructure Investment. Group of Twenty.

## KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINI INVESTITSIYALASH TARTIBI VA XORIJ TAJRIBALARI

**Akramov Ibroxim Oxunjon o'g'li**

Namangan viloyati yuridik texnikumi o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Kichik biznes tarmog'i iqtisodiyotda quyi pog'onadagi yosh tarmoqlardan hisoblangani tufayli ko'pchilik davlatlarda mazkur tarmoq davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanadi.

**Kalit so'z:** investitsiya, investitsiyalash, kichik biznes, mikrofirmalar, kredit, kapital, chora-tadbir.

Kichik biznes korxonalarini belgilovchi mezonlardan biri bu tushum hajmiga ko'ra belgilash. Yurtimiz amaliyotida bu mezon mavjud emas. Ammo AQSH va Rossiya davlatlarida kichik korxonalarini tavsiflashda bu mezon ham hisobga olinadi.

1-jadval ma'lumotlariga ko'ra, Amerika Qo'shma Shtatlarida kichik biznes korxonalarini yillik tushumi 3,5-14,5 mln. AQSH dollarigacha bo'lgan miqdorda belgilab qo'yilgan. Rossiya davlatida yillik tushum hajmi esa mikrofirmalar uchun 60 mln. rublgacha, kichik korxonalar uchun 400 mln. rublgacha miqdorida belgilab qo'yilgan.

### Xorijiy mamlakatlarda mikrofirmalar va kichik korxonalar mezonini belgilovchi ishlovchilar soni to'g'risida ma'lumot

Mamlakatlar	Korxonada ishchilar soni (kishi)	Tushum hajmi
AQSH	1. Mikrofirmalar 20 kishigacha 2. Kichik korxonalar 21 dan 100 kishigacha 3. O'rta korxonalar 101 dan 500 kishigacha	3,5-14,5 mln. AQSH dollarigacha bo'lgan miqdorda
Yaponiya	1. Qurilish va qayta ishlash sanoatida 300 kishigacha 2. Ulgurji savdo 100 kishigacha 3. Chakana savdo 50 kishigacha	-
Rossiya	1. Mikrofirmalar 15 kishigacha 2. Kichik korxonalar 100 kishigacha 3. O'rta korxonalar 101 dan 250 kishigacha	60 mln. rublgacha 400 mln. rublgacha 1000 mln. rublgacha

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, ishchilar soni bo'yicha xorijiy mamlakatlarda mikrofirmalar va kichik korxonalar ishchilari soni O'zbekistonda kichik biznes korxonalarini ishchilari sonidan deyarli farq qilmaydi. Ya'ni, yigirma-yuz kishi atrofida.

Xususan, AQShda kichik biznesning YAIM dagi ulushi o'rtacha 46 % ni tashkil etadi. Bugungi kunda AQShda 33,2 mln.dan ortiq kichik biznes subyektlari faoliyat yuritmoqda. Sohaslar bo'yicha xizmat ko'rsatish (savdo, transport, sog'liqni saqlash, ta'lim, sug'urta) sohasida 84%, qolgan qismi esa ishlab chiqarish va qayta ishlash sanoatida faoliyat yuritmoqdalar.

AQShda kichik biznes ishlari bo'yicha kichik biznesni moliya-kredit mexanizmini takomillashtirish borasida ko'plab tashkilotlar faoliyat ko'rsatadi. 1953-yilda tashkil etilgan AQSh kichik biznes ishlari bo'yicha Ma'muriyat "Small business administration" kichik korxonalarini kreditlash bo'yicha bir nechta dasturlarni taqdim etadi. Shuni ta'kidlash joizki, kichik biznes ishlari bo'yicha Ma'muriyat birinchi navbatda xususiy kredit tashkilotlari tomonidan beriladigan kreditlarga kafolat berish bilan shug'ullanadi.

AQShda kichik biznes korxonalarining kredit va kafolatlangan qarz resurslarini olishiga kichik biznes ishlari bo'yicha ma'muriyat har tomonlama yordam ko'rsatadi. Ma'muriyat kichik korxonalariga kredit taqdim etayotgan kreditorlarga qarz mablag'larining 90 foiziga kafolat beradi va bu bilan iqtisodiy xavf-xatar darajasining pasayishiga hissa qo'shadi.

Bu tashkilot mablag'lari hisobidan bevosita kreditlar asosan ishsizlik darajasi yuqori bo'lgan hududlardagi kichik korxonalariga beriladi. Shuni ta'kidlash joizki, ma'muriyat banklardan olinayotgan qarz miqdori 150 ming dollargacha, uning 85 foizi, 150 ming dollardan oshsa, 75 foizi darajasida kafolat beradi. Bu kafolatlarning muddati aylanma kapitallar uchun 10 yilgacha, asosiy kapital uchun 25 yilgacha vaqtini tashkil etadi.

Foiz stavkasi qarz miqdorining 2,75 foizidan oshmasligi kerak. Mazkur ma'muriyat tomonidan amalga oshirilayotgan yirik dasturlardan yana biri faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalarni kengaytirish va zamonaviylashtirishga yordam berishdan iborat.

Kafolatlash dasturi doirasida har qanday tijorat korxonalarini kreditlash mumkin. Kredit kapital yig'ish, texnik bazani tashkil etish, ko'chmas mulkni sotib olish, qarzlarni qayta moliya-kredit mexanizmini takomillashtirish maqsadlari uchun beriladi. Kredit qaytarish muddati 10 yildan 25 yilgacha belgilab qo'yilgan. Mazkur dastur doirasida kreditlar faqat dastur ishtirokchilari, ya'ni Ma'muriyat bilan hamkorlikda bo'lgan kredit tashkilotlari tomonidan beriladi.

Kichik biznesni qo'llab-quvvatlovchi ma'muriyatning ajratayotgan kafolatlar summasi yillar davomida o'sib bormoqda.

Bugungi kunda Ma'muriyat quyidagi dasturlarni ishlab chiqqan:

1. Kreditlarni kafolatlash bo'yicha umumiy dastur. Ushbu dastur kichik korxonalar tijorat kreditlashning umumiy shartlarini qondira olmaslik holati paytlarida yordam beradigan asosiy dastur hisoblanadi. Kreditlar kafolat shartlarini bajarilgandagina beriladi. Ya'ni dasturda Ma'muriyat talablari bilan muvofiq kreditlash shartlarini keltirgan kreditorlar qatnashadilar.

Agar qatnashchilar kredit ajratsalar, unda Ma'muriyat bir qismiga kafolat beradi. Ma'muriyat kreditni butun qismini kafolatlamaydi, u faqat qarzdor tomonidan qaytarilmagan kredit summasi doirasidagi riskni o'z zimmasiga oladi. Korxonalar bevosita kreditorga kredit olish uchun murojaat qiladi.

Agar risk katta bo'lsa kreditor kafolat olish uchun Ma'muriyatga murojaat qiladi. Ma'muriyat kafolati shundan iboratki, agar qarz oluvchi kreditni qaytara olmasa qarz summasi federal budjetdan qoplanadi, lekin qarz oluvchini javobgarlikdan ozod qilmaydi.

2. Rivojlanish maqsadlari uchun investitsiya kreditlari dasturi. Ushbu dastur doirasida ishlab chiqarishni modernizatsiyalash va kengaytirish maqsadida texnologik ko'chmas mulkni sotib olmoqchi bo'lgan kichik korxonalarni uzoq muddatli moliya-kredit mexanizmini takomillashtirish amalga oshiriladi. Kreditlar fiksirlangan stavkalarda beriladi.

Dastur asosiy kapitalni modernizatsiyalash uchun investitsiyalarga muhtoj bo'lgan kichik korxonalariga mo'ljallangan bo'lib, investitsiya fondlari orqali xizmat ko'rsatiladi. Ma'muriyat yangi ish o'rinlarini yaratish sharti bilan qarz mablag'larining 1 mln. dollarga yaqinini kafolatlaydi. Investitsiya kreditlari 10 yildan 20 yilgacha beriladi va kafolat uchun umumiy kredit summasining 3 %i doirasida haq olinadi.

Dastur shartlariga ko'ra kichik korxonalar toifasiga majburiyatlarni chiqarib tashlaganda 7 mln. AQSh dollarlik moddiy aktivlarga ega hamda zararlar va foyda solig'i summasini hisobga olmaganda 2,5 mln. AQSh dollarlik sof foydaga ega bo'lgan korxonalar kiradi.

Dasturda ko'chmas mulkni ijaraga berish bilan shug'ullanuvchi korxonalar ishtirok etish ta'qiqlanadi.

3. Mikro qarzlar dasturi. Ushbu dastur doirasida 35 ming AQSh dollarlik qisqa muddatli kreditlar xom-ashyo va asbob-uskunalarni sotib olishga hamda kapital yig'imiga beriladi. Kredit qarzlarni qayta moliya-kredit mexanizmini takomillashtirishga va ko'chmas mulk obyektlarini sotib olishga berilmaydi.

Dasturga ko'ra, Ma'muriyat notijorat kredit vositachilariga moliyaviy resurslarni beradi. Ular o'z navbatida kichik korxonalarni 6 yil muddatga kreditlaydi. Kredit summasi 10,5 ming AQSh dollaridan oshadi.

4. Loyihalarni baholash dasturi. Dastur kredit munosabatlarida loyihalar kreditorlar qo'liga yetib borguncha risklarni 250 ming AQSh dollari summasi doirasida oldindan baholash imkonini beradi.<sup>63</sup>

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari davlat buyurtmalarini bajarishda qatnashishi ularni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning o'ziga xos shakllaridan biri hisoblanadi.

Xorijiy amaliyotda o'rganish va qo'llash mumkin bo'lgan tajribalar mavjud. Jumladan, O'zbekistonda byudjetdan tashqari jamg'arma kichik biznes vakillariga kreditlarni qaytmasligini kafolatlash vakolati berish amaliyotini kengaytirish.

Moliya bozori rivojlangan mamlakatlar amaliyotida kredit tashkilotlari mablag'lari kichik biznesni rivojlantirish uchun asosiy moliyalash manbai hisoblanadi.

Rivojlangan davlatlar tajribasi ko'rsatmoqdaki, kichik biznesni investitsiya mablag'lari bilan ta'minlash uchun samarali moliyaviy infrastruktura shakllantirish va rivojlantirish yuzasidan faol davlat siyosati olib borilishi zarur. Xorijiy tajribaga muvofiq, kichik biznesni samarali qo'llab-quvvatlash keng vakolatlar, moliyaviy mablag'lar, butun mamlakat bo'yicha filiallarga ega bo'lgan ixtisoslashtirilgan tashkilot yordamida amalga oshirilishi mumkin. Kichik biznesni qo'llab quvvatlash sohasida kompleks chora-tadbirlarni muvofiqlashgan tarzda amalga oshiruvchi, davlat yoki aralash kapital bilan tashkil etiladigan maxsus davlat muassasa yoki tashkiloti AQShda Kichik biznes ma'muriyati, Yaponiyada Kichik va o'rta korxonalar agentligi, Koreya va Chexiyada kichik biznesni moliyalash davlat korporatsiyasi, Germaniyada davlat kapitali ishtirokidagi ixtisoslashgan kredit muassasasi, Polshada Tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha agentlik (PARP), Singapurda Savdo va sanoat vazirligi huzurida tadbirkorlikni rivojlantirish agentligi (SPRING), Qozog'istonda, "Tadbirkorlikni rivojlantirish fondi" aksiyadorlik jamiyati (DAMU), Belorussiyada "Tadbirkorlikni moliyaviy qo'llab-quvvatlash fondi" tashkil etilgan.

Ushbu muassasalar kichik biznes subyektlariga tijorat banklaridan kredit olishda vositachilik vazifasini, kerakli hujjatlarni rasmiylashtirish, loyihaning barcha bosqichlarida tadbirkorlar manfaatlarini himoya qilish bilan shug'ullanadi. Buning natijasida biznes rejani ko'rib chiqish muddati qisqarib, tadbirkorlikning ortiqcha xarajatlari sezilarli kamayishiga olib keladi. Shuningdek, tadbirkorlikni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning eng samarali shakllaridan biri va bank kreditlarini kichik biznesga jalb etishni oshirishga imkoniyat yaratadigan kafolat berish shakli hisoblanadi. Aksariyat mamlakatlarda anchadan beri muvaffaqiyatli faoliyat yuritib kelayotgan kafolat fondlari kichik va o'rta korxonalariga kredit olishi uchun ta'minot taqdim etib, bank va boshqa kredit resurslaridan faol foydalanishga sharoit yaratib kelinmoqda. Bu tajriba kichik biznesning amaldagi subyektlarini nafaqat qo'llab quvvatlamogda, balki yangi korxonalarining paydo bo'lishini rag'batlantirmogda. AQShda Kichik biznes ma'muriyatining kichik firmalar kreditlari yuzasidan kafolat berish dasturi mavjud bo'lib, u kredit qaytarilishi kafolatlangani uchun banklar kichik biznes subyektlariga kredit berish shartlarini sezilarli darajada yengillashtiradi. Shu yo'l bilan tadbirkorlar o'zlariga zarur moliyaviy mablag'larni qulay shartlarda jalb qiladi va tijorat banklari uchun kreditni qaytarilish riski sezilarli darajada kamaytiriladi.

Xorijda kichik biznes infratuzilmasini rivojlantirish, ya'ni kichik biznes korxonalarining banklar bilan sug'urta kompaniyalari, faktoring, lizing kompaniyalari, auditorlik firmalari, birjalar bilan faoliyatini muvofiq ravishda rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.<sup>64</sup>

Shunday ekan kreditlarni kafolatlash vakolatini Savdo-sanoat palatasi tarkibida va moliya-kredit mexanizmini takomillashtirish hamda unga qo'shimcha ravishda kichik biznesga yuridik

<sup>63</sup> <http://www.sba.gov>(small business admisntration of USA)

<sup>64</sup> "Малый бизнес": учебник.//под.ред. В.Я. Горфинкеля, В.А. Швандара, третье издание, М.:УНИТЙ 2009

va moliyaviy xizmatlarni ko'rsatish, arzon moliyaviy manbalarni taklif qilish, marketing xizmatlarini ko'rsatish, mamlakat miqyosida kichik biznes salohiyatini oshirishga xizmat qiladi, qolaversa, shu sohaga oid qonunchilikni ijro etish bo'yicha amaliy chora-tadbirlarni ishlab chiqish bugungi kunning dolzarb masalasi hisoblanadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Касяненко Т. Г. Инвестиционный анализ: учебник и практикум для бакалавриата и магистратуры. – Москва: Юрайт, 2017. 560 с.
2. Чараева М. В. Реальные инвестиции: учебное пособие для студентов вузов. – Москва: ИНФРА-М, 2018. 265 с.
3. Шарп У. Ф. Инвестиции: пер. с англ. / У. Ф. Шарп, Г. Дж. Александер, Дж. В. Бейли. – Москва: Инфра-М, 2018. 1027 с.
4. Щербаков В. Н. Инвестиции и инноватсии: учебник. – Москва: Дашков и Ко, 2017. 658 с.
5. Small Business Statistics Of 2023 <https://www.forbes.com/advisor/business/small-business-statistics/>

## INVESTITSIYA FAOLIYATINING XALQARO HUQUQIY KAFOLATI

**O'ralova Anisa Narzulla qizi**  
Qashqadaryo viloyati yuridik  
texnikumi o'quvchisi

**Annotatsiya:** Qishloq xo'jaligi sanoat ishlab chiqarishi va O'zbekistonda biznes yuritish muvaffaqiyatining asosiy omillari va O'zbekiston iqtisodiyoti jahonda mutlaq energetika mustaqilligi, O'zbekiston eng boy qishloq xo'jaligi salohiyati, pandemiya va undan keyin jahon iqtisodiyotidagi turg'unlik, xalqaro hamjamiyatning mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida tutgan o'rni, xalqaro munosabatning huquqiy jarayoni, ushbu sohani tartibga soluvchi normalar, xorijiy mamlakatlar qonunchiligi tahlili hamda bu o'rganish va tahlillar asosida taklif va ilmiy tavsiyalar bayon qilingan.

**Kalit so'zlar:** O'zbekiston Respublikasining investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida, xorijiy investitsiyalar, chet ellik investorlar faoliyatining kafolatlari, xorijiy investitsiyalarni jalb etishning huquqiy asoslari, xalqaro shartnoma qoidalari.

Investitsiya turli faoliyatlarga safarbar etilgan moddiy-nomoddiy boyliklar va ularga bo'lgan huquqlarni aks ettiradi. Investitsiya sifatida pul, qimmatli qog'ozlar aksiya, obligatsiya, sertifikat, veksell, yer, bino, inshoot kabi boyliklar intellektual mulk bo'lgan ilmiy, kashfiyotlar ishlatiladi.

Investitsiya loyihalariga mablag' qo'yuvchilar investitsiyalar davlat, kompaniya, korxonalar, chet ellik fuqarolar aholi va boshqalar bo'lishi mumkin. Investitsiya faoliyati to'g'risidagi 1-moddada keltirib o'tilgan qonunga ko'ra chet ellik hamda, mahalliy investitsiyalar tomonidan amalga oshiriladigan investitsiyalar va investitsiya faoliyati sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat. Qonunda markazlashtirilgan investitsiyalar bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solmaydi.

Komissiya faoliyati mahsulot taqsimotiga oid bitimlar tuzish, ularni bajarish va bekor qilish, investitsiya, pay va vencher fondlari, kapital bozorini, shu jumladan qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq operatsiyalarni tartibga solish, davlat xususiy sheriklik, maxsus iqtisodiy zonalar sohasidagi huquqiy munosabatlar alohida qonunlar bilan tartibga solinadi. Pulning vaqtiga bog'liq qiymati nazariyasiga ko'ra, investitsiya kelajakda naf olish maqsadida mablag'lar qo'yishdir. Investitsiya kapitalini muayyan muddatga bog'lashni yoki band qilishni bildiradi. Bundan asosiy maqsad kapital qiymatini saqlab qolish yoki bo'lmasa kapital qiymatini vaqtda o'stirib borishdir. Iqtisodiy mazmuni jihatidan investitsiya turli faoliyatlarga safarbar etilgan moddiy-nomoddiy boyliklar va ularga bo'lgan huquqlarni aks ettiradi.

Xorijiy investitsiyalari va xorijiy investorlar faoliyatining kafolatlari to'g'risida. Xorijiy investitsiyalar chet el investorlari tomonidan yuqori darajadagi daromad olish, samaraga erishish maqsadida mutlaq boshqa davlat iqtisodiyotining, tadbirkorlik va boshqa faoliyatlarga safarbar etiladigan barcha mulkiy, moliyaviy, intellektual boyliklaridir.

Chet el investitsiyalarini ichki investitsiyalardan farqli holda tashqi moliyalashtirish manbaiga kiradi. Ular milliy iqtisodiyotga chetdan, ularning kelishini rag'batlantirgan holda jalb qilinadi. Lekin chet el kapitalini jalb qilishning hamma shakllari ham moliyalashtirishning tashqi manbai bo'lmasligi mumkin. Bu birinchi navbatda foiz to'lovlari bilan qaytarishni talab etadigan kreditlar va qarzlarga taalluqli. Xorijiy investitsiyalarni milliy iqtisodiyotga jalb qilish shakllari va uni tartibga solishning jahon tajribasi.

O'zbekiston Respublikasida iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarini rivojlantirish uchun xorijiy investitsiyalarni jalb qilish siyosati mavjud. Mablag'lardan vaqtdan va imkoniyatlardan samarali



foydalanishga, mavjud shart-sharoitlardan kelib chiqib boyliklarni samarali joylashtirishga va shu yo'l bilan respublika iqtisodiyotini ko'tarishga, uning jahon iqtisodiy tizimiga qo'shilishga, rag'batlantirish yo'li bilan investitsiyalarni iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlariga jalb qilishga hamda ulardan samarali foydalanishga qaratilgan.

Bugungi kunda xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning bir qancha shakllari mavjud.

1. Moliyaviy aktivlarni sotish va sotib olishni tashkil etish.
2. Ulushi qo'shib qatnashishi orqali qo'shma korxonalarni tashkil etish.
3. Yirik xorijiy kompaniya va fermalarning shu'ba korxonalari va filiallarini tashkil etish.
4. Erkin iqtisodiy hududlar tashkil etish.
5. Tendirlar e'lon qilish.
6. Konsessi va lizing shartnomalarini tuzish.
7. 100% mol-mulk xorijiy investorlarga tegishli bo'lgan xorijiy korxonalarni tashkil etish.

O'zbekiston Respublikasida qo'shma korxonada deganda, nizom kapitalining kamida 30 % xorijiy investitsiyalarga tegishli bo'lgan va xorijiy investor faqat yuridik shaxs bo'lgan nizom kapitalining eng kam miqdori 150 ming AQSh dollariga teng bo'lgan ekvivalent so'mmani tashkil etilgan korxonalariga aytiladi. Xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonada nizom jamg'armasining 150 ming AQSh dollaridan kam bo'lmasligi sifatsiz mahsulotlarning oldi-sotdisi va ularni respublikaga import qilish ishlari bilan shug'ullanishga ixtisoslashtirilgan kichik qo'shma korxonalarining keragidan ortiqcha kirib kelishining oldini olish maqsadida belgilangan.

Xorijiy korxonalarni tashkil etish orqali chet el investorlarini jalb qilish bugungi kunda kengayib bormoqda.

O'zbekistonda xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar iqtisodiyotning turli sohalari tashkil etish mumkin hamda, yirik xorijiy kompaniya va korxonalar o'z mol-mulkleri bir qismini ajratib, shu'ba korxonalar ochish mumkin. Bundan shu'ba korxonalariga ham qo'shma korxonalariga qo'yilgan talablar belgilangan.

O'zbekistonda chet el investitsiyalari kiritish shakllari.

O'zbekiston Respublikasi yuridik va jismoniy shaxslar bilan birgalikda tashkil etilgan xo'jalik jamiyatlari va shirkatlarining banklar sug'urta tashkilotlari va boshqa korxonalarining ustav jamg'armalarning ustav jamg'armalarida va boshqa mol-mulkida ulush qo'shib qatnashish, Chet ellik investorlarga to'liq qarashli bo'lgan xo'jalik jamiyatlari va shirkatlarini banklar, sug'urta tashkilotlari va boshqa korxonalarni barpo etish va rivojlantirish, mol-mulk aksiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlarni shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi rezidentlari tomonidan emissiya qilingan qarz majburiyatlarini sotib olish intellektual mulkka shu jumladan, mualliflik huquqlari, patentlar, tovar belgilari, foydali modellar, sanoat namunalari, firma nomlari va nou-xauga (ing. know how-qandayligini bilaman), shuningdek ishchanlik nufuziga huquqlar kiritish, konsessiyalar shu jumladan, tabiiy resurslarni qidirish, ishlab chiqish, qazib olish yoki ulardan foydalanishga bo'lgan konsessiyalar olish savdo va xizmat ko'rsatish sohalari obyektlariga, turar joy binolariga ular joylashgan yer uchastkalari bilan birgalikda mulk huquqini, shuningdek, yer egalik qilish va undan foydalanish hamda tabiiy resurslarga egalik qilish va ulardan foydalanish huquqlarini sotib olish orqali, shuningdek, amaldagi qonun hujjatlariga zid bo'lmagan boshqa shakllarda ham amalga oshirish mumkin.

Investitsiya kiritish shakllari va jarayonlarni o'zlashtirish. Xorijiy investitsiyalar birinchi marta yoki takroran amalga oshirilayotgan shakllarni o'zgartirish ularning investitsiya sifatidagi malakasini o'zgartirishga olib kelmaydi. Chet ellik investorlar huquqlarini himoya qilish maqsadida tashkil etilgan huquqiy institutlar. 2007-yil 1-yanvardan hakamlik sudlarini tashkil qilish, ularning muntazam va vaqtincha faoliyat yurituvchi turlari faoliyatini yo'lga qo'yish uchun huquqiy asos bo'lib xizmat qilgan "Hakamlik sudlari to'g'risida"gi Qonun kuchga kirdi va shu tariqa, hozirgi vaqtda xorijiy sarmoyadorlarning huquqlari va faoliyati kafolatlarini himoya

qilishning mavjud vositalari bilan bir qatorda tomonlar kelishuvi bilan Respublika hududida ikki tomon manfaatini ko'zlaydigan mustaqil ekspertlarni jalb qilgan holda hakamlik sudlarini tashkil etilishi mumkin shu bilan birga, Adliya vazirligiga xorijiy sarmoyadorlar va xorijiy investitsiyalar ishtirokida korxonalar huquqlari va qonuniy manfaatlari himoya qilinishini ta'minlash bo'yicha vazifalar yuklatilgan, shu maqsadda Adliya vazirligi tuzilmasida xorijiy sarmoyadorlar va xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarni huquqiy himoya qilish boshqarmasi tashkil etildi.

1998-yil 30-aprelda qabul qilingan “Chet el investitsiyalari to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi qonunining 3-moddasida “Chet ellik investorlar asosan, daromad olish maqsadida tadbirkorlik faoliyati va qonun hujjatlarida ta'qiqlanmagan boshqa turdagi faoliyat obyektlariga qo'shadigan barcha turdagi moddiy va nomoddiy boyliklar va ularga doir huquqlari, shu jumladan intellektual mulkka doir huquqlar, shuningdek chet el investitsiyalaridan olingan har qanday daromad O'zbekiston Respublikasi hududida chet el investitsiyalari deb e'tirof etilgan.

Xulosa qilib aytganda, xorijiy investitsiyalar bu chet el investorlari tomonidan yuqori darajada daromad olish, samaraga erishish maqsadida mutlaq boshqa davlat iqtisodiyotining tadbirkorlik va boshqa faoliyatlariga sarflangan barcha mulkiy, moliyaviy intellektual boyliklaridir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasining qonuni, 06.02.2019 yildagi O'RQ-518-son
2. Luenberger, DG (1998). Investment Science. Oxford University Press. pp. 1–2. ISBN 978-0195108095. Retrieved 1 March 2023.
3. O'zbekiston Respublikasining qonuni, 25.12.2019-yildagi O'RQ-598-son. (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 26.12.2019-y., 03/19/598/4221-son; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son, 07.06.2022-y., 03/22/775/0477-son; 31.12.2022-y., 03/22/812/1145-son)

## YEVROPA ITTIFOQI VA XITOYNING INVESTITSIYAVIY MUNOSABATLARI

**Fayzullayev Abror Faxriddin o'g'li**  
Qashqadaryo viloyati yuridik texnikumi o'qituvchisi

**Nurmatov Ma'ruf Nurullayevich**  
Yoshlar bilan ishlash bo'limi uslubchisi

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada Yevropa Ittifoqi va Xitoy o'rtasidagi savdo, Yevropa Ittifoqining avtomobil sektoridagi, Mashinasozlik sanoati assotsiatsiyasi bilan hamkorligi masalalari, Xitoy kompaniyalari yuqori qo'shimcha qiymatli ishlab chiqarishi, Yevropa Ittifoqi sarmoyasini asosini yaratish takliflari, xitoylik investorlar huquqlari ochib berilgan.

**Kalit so'zlar:** YI - Xitoy investitsiya shartnomasi, Yevropa markazlashgan-xalqaro iqtisodiy siyosati (ECIPE), Mashinasozlik sanoati assotsiatsiyasi (VDMA), Yevropa Ittifoqi siyosatchilari, xitoylik kompaniyalar, investitsiya tekshiruvi.

Yevropa Ittifoqi sarmoyasini asosini yaratish taklifi va YI-Xitoy investitsiya shartnomasi bo'yicha davom etayotgan muzokaralar matnida Yevropa markazlashgan-xalqaro iqtisodiy siyosati (ECIPE) Mashinasozlik sanoati assotsiatsiyasi (VDMA) bilan hamkorlikda manfaatdor tomonlar bilan Xitoy investitsiyalarining tahdidlari va imkoniyatlari bo'yicha munozara uyushtirdi. 2018-yil sentabr oyida Xitoyda Yevropa texnologiyalari va Yevropa sarmoyalari. Ushbu muhokama davomida bildirilgan manfaatdor tomonlarning fikr-mulohazalari, shuningdek, mualliflar tomonidan o'tkazilgan keyingi manfaatdor tomonlar bilan maslahatlashuvlarga asoslangan.

Xitoy bozoriga kirish Yevropaning ko'plab korxonalari uchun juda muhim va bundan tashqari, agar ular mashinasozlik, transport uskunalari va kimyo mahsulotlari kabi bilimlarni talab qiladigan sohalarda ishlasa. Shunga ko'ra, Xitoyga eksport Yevropaning yuqori qo'shimcha qiymatga ega sektorlarida malakali ish o'rinlarining muhim manbai hisoblanadi. Yevropa Ittifoqiga tegishli bo'lgan narsa Xitoy uchun ham xuddi shunday. Xitoy eksportida, shuningdek, YIdagi qiymat zanjiri va raqobatga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan bilimlarni talab qiluvchi tarmoqlar ustunlik qiladi. Shu bilan birga, Xitoy kompaniyalarining Yevropa bozoriga beg'araz kirishi Xitoyda millionlab ish o'rinlarini qo'llab-quvvatlaydi. Shuningdek, u xitoylik kompaniyalarga ko'lamini kengaytirish va yuqori qo'shimcha qiymatli ishlab chiqarishga o'tish imkonini beradi. Bu, shubhasiz, har ikki yo'nalishdagi savdoning ajoyib o'sish sur'atlari bilan tasdiqlangan o'zaro manfaatlardir. Yevropa 2017-yilda Xitoyning eng muhim eksport bozori (import 375 milliard yevro) va importning ikkinchi eng muhim manbai (199 milliard yevrolik eksport) bo'ldi.

Yevropa Ittifoqi va Xitoy o'rtasidagi savdo tobora ko'proq to'g'ridan to'g'ri investitsiyalar va murakkab qiymat zanjirlarining integratsiyasi hisobiga olib borilmoqda. Outsorsing faoliyati va dunyodagi eng yirik iste'mol bozorlaridan biriga kirish Yevropa Ittifoqi korxonalari uchun Xitoyga sarmoya kiritadigan eng muhim omillardir. Bir necha yillardan beri Xitoyga sarmoya kiritayotgan Yevropa Ittifoqi kompaniyalari tobora ko'proq strategik sektorlarni maqsad qilib qo'ymoqda. Ular ko'pincha qiymat zanjirining nozik qismlarini o'z ichiga oladi, masalan, bilim talab qiladigan vositachi va yakuniy mahsulotlar ishlab chiqarish, shuningdek, tadqiqot va ishlanmalar faoliyati. Boshqa tomondan, Xitoy kompaniyalarining Yevropa Ittifoqiga investitsiyalari odatda uzoq muddatli bo'lib, brend obro'si, texnologiyaga kirish, texnologiya klasterining ta'siri va 500 milliondan ortiq Yevropalik iste'molchilarga yaxshi kirish imkoniyati kabi ko'plab omillarga bog'liq.

Adolatsiz munosabat hali ham Xitoyga sarmoya kiritayotgan Yevropa kompaniyalari uchun jiddiy muammo bo'lib qolmoqda. Ko'pgina rivojlanayotgan bozor iqtisodiyotida bo'lgani kabi, Xitoyda bozorga kirish shartlari adolatli va adolatli munosabatni kafolatlamaydi. Taqqoslash uchun, Yevropa Ittifoqi qoidalari, xususan, egalik huquqini cheklash sohasida kamroq kamsitivchidir. Xitoyning mulkchilik siyosati Yevropa kompaniyalarini qo'shma korxonalariga majbur qiladi. Masalan, 2000–2017-yillardagi to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiya operatsiyalarining umumiy qiymatini hisobga olsak, nemis avtomobil ishlab chiqaruvchilarining Xitoydagi investitsiyalarining 55 foizi qo'shma korxonalariga investitsiya qilingan bo'lib, ularda kompaniyalarga faqat 49 foiz yoki undan kam minoritar ulushga egalik qilishga ruxsat berilgan. Aksincha, Yevropa Ittifoqining adolatli muomalaga sodiqligi tufayli, Yevropa Ittifoqining avtomobil sektoridagi Xitoy kompaniyalari hozirda deyarli faqat nazorat ulushlariga ega. Hech shubha yo'qki, xitoylik sarmoyadorlar Yevropa Ittifoqidagi qulay bozor sharoitlaridan foyda ko'rdilar va Yevropa Ittifoqi hukumatlari o'z bizneslaridan qo'llarini ushlab turishdi.

Xitoylik sarmoyadorlarga nisbatan siyosiy dushmanlik hamkorlikning yaxshi usullariga, huquqiy ishonchga va bozorga kirishning yuqori darajalariga o'tishi kerak. Yevropa texnologiyalarining xavfli sotilishi haqidagi iddaolar muxlislarni siyosiy tashvishga solmoqda, lekin haqiqatda kamdan-kam hollarda langar topadi. Xitoylik sarmoyadorlar Yevropa kompaniyalarini parchalamaydilar yoki Yevropa texnologiyasini “o'g'irlamaydilar”. Shunga qaramay, Yevropa Ittifoqi siyosatchilari to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar skriningi bo'yicha qonunchilikni ilgari surmoqda, bunda Xitoy sarmoyasi asosiy tashvish manbai hisoblanadi. Ko'pgina a'zo davlatlarda siyosatchilar, agar xitoylik sarmoyadorlar muvaffaqiyatli Yevropa kompaniyalarida ulushga ega bo'lsalar, Yevropa texnologiyalari xavf ostida ekanligiga ishonishadi. Biroq, investitsiya tekshiruvini juda ehtiyotkorlik bilan o'tkazish kerak bo'lgan muhim sabablar mavjud.

Avvalo, investitsiya tekshiruvi osongina xitoylik investorlarni nohaq kamsitish uchun ishlatiladigan vositaga aylanishi mumkin va agar Yevropa noto'g'ri ish tutsa, Xitoyda Yevropa firmalari uchun investitsiya ochiqligi qisqarishi aniq xavfi bor. Bundan tashqari, investitsiya tekshiruvi Yevropa Ittifoqiga a'zo davlatlar o'rtasida siyosiy hokimiyatning taqsimlanishiga ta'sir qilishi mumkin. Kichikroq a'zo davlatlar tomonidan qabul qilingan xavf mavjud - investitsiyalarni tekshirish mexanizmi katta mamlakatlar uchun kichikroq davlatlarga qarshi kuch ishlatish uchun vosita bo'lib xizmat qilishi mumkin. Mahalliy kompaniyalarni yoki milliy sanoat siyosatini himoya qilishga urinishda, kattaroq a'zo davlatlar hukumatlari “qulay” investorlarni tanlash yoki “nomaqbul” investorlarni rad etish bo'yicha kichikroq mamlakatlarga siyosiy ta'sir ko'rsatishni xohlashlari mumkin. Yevropa Ittifoqi mexanizmni o'g'irlab ketmasligi va undan foydalanish obyektiv mezonlar va haqiqiy zaruratga asoslanganligiga ishonch hosil qilishi kerak. O'zboshimchalik bilan qo'llash amaliyoti adolatli va adolatli muomala tizimini jiddiy ravishda buzadi. Yevropa Ittifoqi Xitoy kabi davlatlarga Yevropa Ittifoqida birinchi bo'lib, bo'lmagan islohotlarni amalga oshirishga majburlashi qiyin bo'ladi. Ko'p tomonlamalik, axir, u yda boshlanadi.

Yevropa Ittifoqi sarmoyalarini skrining tizimini loyihalashda asosiy e'tibor Yevropa Ittifoqining iqtisodiy siyosatining asosiy maqsadlari yaxlitligini himoya qilishga qaratilishi kerak. Davlat mulki asosiy masala, chunki ko'plab Xitoy kompaniyalari yaqin aloqadagidir.

Xitoy bozoriga kirish ko'plab Yevropa korxonalari uchun juda muhim va bundan tashqari, agar shunday bo'lsa:

- ular mashinasozlik, transport kabi bilimlarni ko'p talab qiladigan sohalarda ishlaydi
- uskunalar va kimyoviy mahsulotlar. Shunga ko'ra, Xitoyga eksport muhim manba hisoblanadi.

Yevropaning yuqori qo‘shimcha qiymatga ega sektorlarida malakali ish o‘rinlari. Yevropa Ittifoqiga tegishli bo‘lgan narsa uchun ham xuddi shunday

Xitoy. Xitoy eksportida ham ijobiy ko‘rsatkichlarga ega bo‘lgan bilimlarni talab qiluvchi tarmoqlar ustunlik qiladi.

Yevropa Ittifoqidagi qiymat zanjiri va raqobatga ta‘siri. Shu bilan birga, kamsitmasdan kirish

Xitoy kompaniyalarining Yevropa bozoriga chiqishi Xitoyda millionlab ish o‘rinlarini qo‘llab-quvvatlaydi. Bu ham imkon beradi

Xitoy kompaniyalari yuqori qo‘shimcha qiymatli ishlab chiqarishni kengaytirish va o‘tish. Bular, shubhasiz, o‘zaro manfaatlar har ikki yo‘nalishda ham savdoning ajoyib o‘sish sur‘atlari bilan tasdiqlangan.

Yevropa 2017-yilda Xitoyning eng muhim eksport bozori bo‘ldi (import 375 milliard yevro) va ikkinchi eng muhim import manbai (eksport 199 milliard yevro).

Yevropa Ittifoqi va Xitoy o‘rtasidagi savdo tobora ko‘proq to‘g‘ridan to‘g‘ri investitsiyalar va boshqalar tomonidan boshqarilmoqda.

Murakkab qiymat zanjirlarining integratsiyasi. Outsorsing faoliyati va dunyoning rivojlangan davlatlaridan biriga kirish eng yirik iste‘mol bozorlari Xitoyga sarmoya kiritayotgan Yevropa Ittifoqi korxonalarini uchun eng muhim omillardir.

Bir necha yillardan beri Xitoyga sarmoya kiritayotgan Yevropa Ittifoqi kompaniyalari tobora ko‘proq maqsadli bo‘lib kelmoqda.

Ko‘proq strategik sektorlar. Ular ko‘pincha qiymat zanjirining nozik qismlarini o‘z ichiga oladi, masalan:

bilim talab qiladigan vositachi va yakuniy mahsulotlar ishlab chiqarish hamda tadqiqot va rivojlantirish faoliyati. Boshqa tomondan, Xitoy kompaniyalarining Yevropa Ittifoqiga investitsiyalari odatda uzoq muddatli, ko‘plab omillar, jumladan, brend obro‘si, texnologiyaga kirish, texnologik klaster effektlari va 500 milliondan ortiq aholiga ega Yevropaga yaxshiroq kirish aynan muhim omillar bo‘lishi mumkin.

Adolatsiz munosabat hali ham Xitoyga sarmoya kiritayotgan Yevropa kompaniyalari uchun jiddiy muammo bo‘lib qolmoqda. Ko‘plab rivojlanayotgan bozor iqtisodiyoti, Xitoyda bozorga kirish shartlari adolatlikni kafolatlamaydi va adolatli muomala. Taqqoslash uchun, Yevropa Ittifoqi qoidalari kamroq kamsituvchi, ayniqsa, egalik huquqini cheklash sohasida. Xitoyning egalik siyosati, Xitoyning mahsulotlariga qaramlikka tushmaslik Yevropa mamlakatlarini yangi choralar ko‘rishga majburlaydi.

Kompaniyalar qo‘shma korxonalariga aylantirildi. Masalan, to‘g‘ridan to‘g‘ri investitsiyalarning umumiy qiymatini hisobga olgan holda 2000–2017-yillardagi tranzaksiyalar, nemis avtomobil ishlab chiqaruvchilarining Xitoydagi investitsiyalarining 55 %ni tashkil etdi.

Kompaniyalarga faqat minoritar (49 % yoki undan past) ulushga egalik qilishga ruxsat berilgan qo‘shma korxonalariga investitsiya qilingan. Aksincha, Yevropa Ittifoqining adolatli muomalaga sodiqligi tufayli, Xitoy Yevropa Ittifoqining avtomobilsozlik sohasidagi kompaniyalari endi deyarli faqat nazorat qiluvchi mulkka ega richaglar hisoblanmoqda. Shubhasiz, xitoylik sarmoyadorlar bozorga qulay kirish imkoniyatidan foydalandilar.

Xitoylik sarmoyadorlarga nisbatan siyosiy dushmanlikdan hamkorlikning yaxshi usullariga o‘tilishi kerak – huquqiy aniqlik va bozorga kirishning yuqori darajalari.

Yevropa texnologiyalari muxlisi siyosiy xavotirlarga duchor bo‘ladi, lekin kamdan kam hollarda mustahkamlanadi. Xitoy Yevropada investitsiyalarning ochiqligi: investitsiya skriningi va Yevropa Ittifoqi va Xitoy sarmoyaviy munosabatlariga ta‘siri Mattias Bauer va Filipp Lamprext tomonidan investorlar Yevropa kompaniyalarini parchalamaydi yoki Yevropa texnologiyasini “o‘g‘irlamaydi”. Shunga qaramay, Yevropa

Ittifoqi siyosatchilari to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni tekshirish uchun qonunchilikni ilgari surmoqda.

Xitoy sarmoyasi xavotirning asosiy manbai. Ko‘pgina a‘zo davlatlarda siyosatchilar agar xitoylik investorlar ulushga ega bo‘lsa, Yevropa texnologiyasi xavf ostida ekanligiga ishonch bildirishadi. Biroq, investitsiya qilishning muhim sabablari bor skrining juda ehtiyotkorlik bilan o‘tkazilishi kerak.

Avvalo, investitsiya skriningi osonlikcha nohaqlik uchun ishlatiladigan vositaga aylanishi mumkin.

Xitoylik investorlarni kamsitish va agar Yevropa noto‘g‘ri ish tutsa, buning aniq xavfi bor.

Yevropa firmalari uchun Xitoyda investitsiya ochiqligi qisqaradi. Bundan tashqari, investitsiya tekshiruvi.

Yevropa Ittifoqiga a‘zo davlatlar o‘rtasida siyosiy hokimiyatning taqsimlanishiga ta‘sir qilishi mumkin. Xavf bor - kichikroq a‘zo davlatlar tomonidan qabul qilingan biri - investitsiyalarni tekshirish mexanizmi mumkin. Katta davlatlar uchun kichikroq davlatlarga qarshi kuch ishlatish uchun vosita bo‘lib xizmat qiladi. Mahalliy kompaniyalarni yoki milliy sanoat siyosatini, yirikroq hukumatlarni himoya qilishga urinishadi.

A‘zo davlatlar kichikroq mamlakatlarga nisbatan siyosiy ta‘sir o‘tkazishni xohlashlari mumkin.

Yevropa Ittifoqi “qulay” investorlarni tanlash yoki “noqulay” investorlarni rad qilish kerak.

Mexanizmni o‘g‘irlab bo‘lmasligiga va undan foydalanish obyektiv mezonlarga asoslanganligiga ishonch hosil qiling va haqiqiy zarurat o‘zboshimchalik bilan amalga oshirish adolatli tizimga jiddiy putur yetkazadi.

Yevropa Ittifoqining investitsion skrining tizimini loyihalashda asosiy e‘tiborni himoya qilishga qaratilishi kerak.

Yevropa Ittifoqining umumiy iqtisodiy siyosati maqsadlarining yaxlitligi. Davlat mulki asosiy masala chunki, ko‘pgina Xitoy kompaniyalari Pekin bilan yaqin aloqada. Davlat xususiyatlarining kiritilishi kapitalizm Yevropa iqtisodiyotiga kirib borishi Yevropa Ittifoqining savdo va ichki siyosatiga qarshi turadi. Bozor siyosati Xitoy bilan munosabatlarida Yevropa Ittifoqi ochiq va kamsituvchi investitsiyalar va savdo tizimini talab qilishi kerak. Yevropa Ittifoqi-Xitoy muzokaralaridagi taraqqiyot investitsiyalar bo‘yicha keng qamrovli kelishuv (CAI) va ko‘p tomonlamalikka aniq majburiyatlar yuklatadi.

Xitoyda mahalliy va xorijiy raqobatchilar o‘rtasidagi sarmoyaviy o‘yin maydonini teng shartlari bo‘lishi kerak.

Yevropa Ittifoqi, hozirgi fursatdan foydalanib, Xitoyni yanada kengroq ochishga undashi kerak.

Investitsiyalar skrining qanchalik qat‘iy qo‘llanishi uchun adolatli va ochiq bozorga aylanishi zarur.

Yevropa Ittifoqi kelajakda markaziy masala bo‘ladi. Majburiy amaliyotlar xitoylik sarmoyadorlarning Yevropa Ittifoqining yagona bozoriga, qayerga sarmoya kiritish to‘g‘risidagi qarorlari va Xitoyning Yevropa Ittifoqiga munosabati javob beradi.

Shu fonda Yevropa Ittifoqi - Xitoy investitsiya munosabatlariga e‘tibor qaratilishi kerak.

Xitoy bozori.

Yevropa Ittifoqi sarmoyaviy skrining asosini yaratish taklifi va davom etayotgan kontekstida;

Mexanik bilan hamkorlikda Yevropa Ittifoqi-Xitoy investitsiya shartnomasi, ECIPE muzokaralari

Mashinasozlik sanoati uyushmasi (VDMA), manfaatdor tomonlar bilan tahdidlar bo‘yicha muhokama uyushtirdi va Xitoyning Yevropa texnologiyalariga sarmoyalari va Yevropa investitsiyalarining imkoniyatlari hamon shubha ostida bo‘lib kelmoqda.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. See, e.g., B. Haas (2019, October 17), «‘Think of your Family’: China Threatens European Citizens over Xinjiang Protests»,
2. European Commission (2016, June 22), Joint Communication to the European Parliament and the Council Elements for a New EU Strategy on China, Brussels JOIN (2016) 30 final, 9. 99 Loi No. 2017-399 du 27 mars 2017 relative au devoir de vigilance des sociétés mères et des entreprises donneuses d’ordre [French Duty of Vigilance Law]
3. «What Hong Kong’s New Security Law Means for Business», Bloomberg News (1 July 2020)
4. UN Guiding Principles (see note 51), Principle 19(b), Commentary; see also C. Macchi, T.V. Ho, and L.F. Yanes (2019, April), «Investor Obligations in Occupied Territories: A Report on the Norwegian Government Pension Fund – Global», Essex Business and Human Rights Project,

## INVESTITSIYA FAOLIYATINING XALQARO HUQUQIY KAFOLATLARI

**Umitova Farangiz Gukar qizi**

Qashqadaryo viloyati yuridik texnikumi o'quvchisi

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada, investitsiya jarayonlarining xalqaro huquqiy kafolatlari, xalqaro doirada investitsiya faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar tasnifi va mohiyati haqida, xorijiy investitsiyalarni jalb etishning huquqiy asoslari, mahalliy investorlar va chet el investorlari faoliyatini mamlakatimizda yanada rivojlantirish istiqbollari to'g'risida so'z yurutilgan.*

**Kalit so'zlar:** *investitsiya, xalqaro investitsiya, investorlar, chet el investorlari, mahalliy investorlar, hukumat.*

Bizga ma'lumki, investitsiya, iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadida o'z mamlakatida yoki chet ellarda turli tarmoqlarga, ijtimoiy-iqtisodiy dasturlarga, innovatsiya, tadbirkorlik loyihalariga uzoq, muddatli kapital kiritish (qo'yish) jarayonlarini o'z ichiga oluvchi faoliyat turi hisoblanadi.

Uning quyidagi turlari mavjud:

- davlat investitsiyasi — davlat budjeti va moliya manbalari hisobidan kiritiladi;
- chet el investitsiyasi — xorijiy davlatlar, banklar, kompaniyalar, tadbirkorlar tomonidan kiritiladi;
- xususiy investitsiya — xususiy, korporativ xo'jalik va tashkilotlar, fuqarolar mablag'lari, shu jumladan, shaxsiy va jalb qilingan mablag'lar hisobidan qo'yiladi.

Investitsiya qo'yilish shakliga qarab moliyaviy (portfel) va real (ishlab chiqarish) investitsiyaga bo'linadi.

Moliyaviy (portfel) investitsiya — aksiya, obligatsiya va boshqa qimmatli qog'ozlarni sotib olishga qo'yiladigan investitsiya.

Real investitsiya — moddiy ishlab chiqarish (sanoat, qishloq xo'jaligi, qurilish va boshqa) sohasiga, moddiy-ashyoviy faoliyat turlariga uzoq, muddatli mablag'lar qo'yish shakllarida amalga oshiriladi. Jahon tajribasida investitsiyani moliyalashtirish turli usul va shakllarda, shu jumladan, korxonalarni aksiyadorlashtirish va aksiyalarni joylashtirish, byudjet mablag'lari bank kreditlari, lizing, bevosita chet el investitsiyalari, ipoteka, byudjetdan tashqari maxsus fondlar, amortizatsiya va xo'jalik yuritish subyektlarining boshqa mablag'lari hisobiga amalga oshiriladi.

Albatta xorijiy investitsiyalarga, bizning mamlakatimizga jiddiy e'tibor qaratgan holda, ba'zi normativ kafolatlarni tashkil etgan holda, bunday jarayon bilan shug'ullanuvchi investorlarni qo'llab quvvatlashadi. Bizning mamlakatga yirik investitsiya kiritgan chet el fuqarolari bizning davlatga oson kirishlari va bu yerda osonlashtirilgan tarzda o'zlarini shaxsiy ko'chmas mulklarini sotib olish imkoniga ega bo'ladilar va albatta boshqa shart-sharoitlar ham yaratilgan.

Prezidentning «O'zbekiston Respublikasida investitsiya muhitini tubdan yaxshilashga doir chora-tadbirlar to'g'risida»gi Farmoni loyihasini muhokama qilish hali hamon davom etib kelayotgani ajablanarli emas, sababi, kundan kunga xorijiy investorlarga imkon qadar keng sharoitlar yaratib kelinmoqda.

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarni tashkil etishda talablar kamaytiriladimi?

Loyihada xorijiy investitsiyalarni mahalliy iqtisodiyotga jalb etish mexanizmlarini soddalashtirishga yo'naltirilgan bir nechta chora-tadbirlar taklif qilingan. Investitsion faollikka va xorijdan kichik miqdordagi mablag'lar jalb etilishiga to'sqinlik qiluvchi omillarni bartaraf etishga alohida e'tibor qaratiladi.

Birinchiidan, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar ustav fondidagi xorijiy qo'yilmalarning eng kam miqdorini pasaytirish rejalashtirilmoqda. Hozir tashkilotlarni



xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar deb tan olish mezonlaridan biri – kamida 30 % miqdoridagi xorijiy ulushning mavjudligi hisoblanadi. Ushbu chegarani 15 %gacha pasaytiradilar.

Ikkinchidan, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar ustav fondidagi yuqorida ko'rsatilgan ulush egasi xorijiy yuridik shaxs bo'lishi kerakligi haqidagi talab bekor qilinadi. Shu tariqa, investorlar – jismoniy shaxslar uchun imkoniyatlar kengayadi.

Uchinchidan, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar ustav fondining eng kam miqdori 600 mln so'mdan 400 mln so'mgacha pasaytiriladi.

To'rtinchidan, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarni davlat ro'yxatidan o'tkazganlik uchun davlat boji miqdori 3 baravar pasaytiriladi. Eslatib o'tamiz, hozir tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomga muvofiq uning miqdori hujjatlarni o'zi kelib topshirganda 32 EKIHni va Internet orqali ro'yxatdan o'tganda 16 EKIHni tashkil etadi.

Beshinchidan, xorijiy tijorat tashkilotlarining vakolatxonalarini akkreditatsiya qilish muddati 1–3 yildan 5 yilga oshiriladi. Akkreditatsiya qilganlik uchun to'lov esa aksincha 3 baravar, 1200 AQSh dollaridan 400 AQSh dollarigacha pasaytiriladi.

Shuni qayd etib o'tamizki, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalariga bir qator soliq imtiyozlari berilgan. Bunda xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar maqomi bilan bog'liq maxsus imtiyozlardan tashqari, bunday tashkilotlar oddiy korxonalar qatori boshqa barcha imtiyozlardan foydalanishga haqlilar.

Bizga ma'lumki, mamlakatimizda mahalliy-xususiy investorlar mavjud bo'lib, ular bizning iqtisodiyotimizni yanada kengaytirishda katta rol o'ynashadi. 2022-yilning noyabr oyida Samarqandda bo'lib o'tgan II O'zbekiston iqtisodiy forumi ham anchagina muhim ahamiyatga ega. Mana shu forumda Bne intellinews nashri bosh muharriri Ben Aris ham o'zining fikrlari bilan qatnashgan edi. U o'z nutqida bizning hukumat jahon bozoriga chiqishda o'z mahalliy investorlariga ega ekanligi, jarayoni sekin amalga oshirilsa ham u baribir amalga oshishi haqida va investorlar hukumatning ishonchini suv iste'mol qilmasliklari kerakligi haqida so'z yuritdi. Forumga juda katta sarmoya qo'yilgan edi, jurnalistlarning unga bergan savoli bo'yicha, uning javobi esa juda ahamiyatli edi. Yangiliklar agentligidan berilgan savollarning birida: “Forum shunchaki pulni behuda sarflash vositasi bo'lib qolmadimi?” degan savoliga Ben Aris quyidagicha javob berdi:

“Menimcha bunday emas. Ammo reja xususiy kapitalga o'tish jarayoniga kuchli tayangan. Hukumat xususiylashtirish qancha vaqt davom etishi haqida qanday to'xtamga kelganidan bexabarman. Bu jarayonda birdan ko'p narsa kutish yaramaydi, chunki xususiylashtirish qiyin va uzoq vaqt talab etadigan jarayon. Shu sababli, mahalliy kapitalga tayanuvchi B rejasi kerak. Bu esa davlat aktivlarini boshqarish agentligining zimmasidagi ish. Hozir O'zbekistonda iqtisodiyot mustahkam, chunki inflyatsiya nazorat ostida. Zaxira va o'sish kuchli. Demak, hukumat bosim ostida emas. Jarayon sekin amalga oshirilsa yaxshi bo'ladi. Demak, hukumat sarmoyadorlar ishonchini suiiste'mol qilmaslik uchun ko'p mehnat qilishi kerak. Biroq investorlar hukumat va'dalarini buzmasligiga ishonch hosil qilishi uchun ko'proq vaqt kerak bo'ladi. Bu bir necha yil davom etishi mumkin. Lekin forum to'g'ri yo'nalishda qadam tashladi.”

Uning fikricha, bunday forumlarning niyati faqatgina katta miqdordagi summalarni yo'qotish yoki havoga sovrish emas, bunday forumlar davlat kelajagi uchun foydali hisoblanishidir.

Yirik investitsiyalar bilan kelganlar – O'zbekistonda muammosiz yashaydi. Xorijiy fuqarolar va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar quyidagilarni xarid qilish ko'rinishida O'zbekistonga kamida 200 ming AQSh dollarini investitsiya qilganlarida:

- yashash uchun mo'ljallangan ko'chmas mulk obyektlarini – yashash uchun guvohnoma soddalashtirilgan tartibda beriladi;

- xo‘jalik jamiyatlarining aksiyalari va ulushlarini, shuningdek xorijiy korxonalar tashkil etganda – respublika hududidan chiqish zaruratisiz amal qilish muddatini cheklanmagan miqdorda uzaytirish imkoniyati bilan 3 yilgacha muddatga ko‘p martalik viza beriladi.

- IIV mamlakatimiz iqtisodiyotining ustuvor sohalariga salmoqli investitsiyalar kiritgan xorijiy shaxslarga «Faxriy fuqaro» maqomini berish masalasini ham o‘ylab ko‘radi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, investorlik va investitsiya jarayonlarining faoliyati bizning mamlakatda yaqin kelajakda yanada yuqori cho‘qilarni egallashi mumkin. To‘xtovsiz amalga oshirilayotgan jarayonlarining samarasi, bizning mamlakatimizga, hukumatimizga juda katta foydalarni olib keladi degan umiddamiz.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O‘zbekiston Respublikasining 25.12.2019 yildagi O‘RQ-598-sonli “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi qonuni

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 01.08.2018 yildagi PF-5495-sonli “O‘zbekiston Respublikasida investitsiya muhitini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni

3. “Mahalliy investorlar iqtisodiyotni rivojlantirishda katta rol o‘ynaydi” — xorijiy mutaxassis iqtisodiy forum haqida fikrlarini bildirdi. Bne intellinews nashri bosh muharriri Ben Aris Samarqandda bo‘lib o‘tgan II O‘zbekiston iqtisodiy forumi haqida “Daryo” uchun maxsus maqolasini taqdim etdi.

4. <https://davaktiv.uz/oz/menu/pravovaja-zaschita-i-lgoty-investorov>

5. <https://lex.uz/acts/-29905>

6. <https://daryo.uz/2022/11/09/mahalliy-investorlar-iqtisodiyotni-rivojlantirishda-katta-rol-oynaydi-xorijiy-mutaxassis-iqtisodiy-forum-haqida-fikrlarini-bildirdi/>

7. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Investitsiya>

## XALQARO VA MAHALLIY DOIRADA INVESTITSIYA FAOLIYATINING KAFOLATLARI

**Qahhor-Zoda Saddam**

Qashqadaryo viloyati yuridik texnikumi o'quvchisi

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada xalqaro investitsiya huquqini huquqiy xususiyatlari va Yevropa Ittifoqi doirasi ishlab chiqilgan ikki tomonlama investitsiya shartnomalari hamda mazkur shartnomalarni yagona bir namunaga keltirish masalalari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasida investitsiya kafolatlarining normativ-huquqiy hujjatlar asosida tartibga solish haqida keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** investitsiya, investor, kapital, ikki tomonlama investitsiya shartnomalar (BIT), Lissabon shartnoma, Yevropa Ittifoqiga (YI)

Investor va investitsiya tushunchalari ta'rifi investitsiya shartnomalarining huquq va majburiyatlarni qo'llash sohasi hamda investitsiya shartnomalari asosida arbitraj sudlarining yurisdiksiyasini belgilash uchun muhim vositadir. Boshqacha qilib aytganda, investor va investitsiya tushunchalari xalqaro investitsiya shartnomalari bo'yicha huquq va majburiyatlarning qo'llanilish doirasini belgilovchi asosiy elementlardan biri hisoblanadi.

Yevropa Ittifoqiga (YI) a'zo davlatlari ishtirokida tuzilgan ikki tomonlama investitsiya shartnomalarining (BIT) deyarli yarmida ular foydali shartnomalarni tuzish bo'yicha muvaffaqiyatli muzokarachilar sifatida e'tirof etilgan. Investitsiya shartnomalari bo'yicha muzokaralar oldidagi ushbu faol harakat bugungi xalqaro investitsiya qonunlarini chuqur belgilab bergan kuchli muzokaralar olib boruvchi BIT modellarini ishlab chiqish bilan birga kechdi, xususan, Atlantika okeanining narigi tomonida 2004-yilgi AQSH va Kanadaning BIT modellari bilan birinchi yangi avlod sarmoyaviy shartnomalari paydo bo'lgunga qadar. 2009-yilda 1-dekabrda kuchga kirgan Lissabon shartnomasi orqali endi to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarni qamrab oladigan bitimlarni tuzish bo'yicha vakolatlar Ittifoqqa o'tganligi to'g'risiga ishora qilindi. Shunday bo'lsa-da, ba'zi Ittifoq a'zolari jumladan, Germaniya va Niderlandiya kabi a'zo davlatlar oldindan sinalgan investitsiya shartnomalari modellaridan voz kechmoqchi emasdilar. Mazkur davlatlarning o'zlarining BIT modellarida belgilangan qoidalarni “eng yaxshi amaliyotlar” va “oltin standart” tushunchalari sifatida ifodaladi. Yevropa Kengashi investitsion kelishuvlarda yuqoridagi “eng yaxshi amaliyotlar”da shakllangan prinsip va tamoyillarni yuqori baholashiga qaramay, Ittifoq doirasida xalqaro investitsion kelishuvlarni (shartnomalarni) tartibga solishda, keng qamrovli tartib va standartlarni ishlab chiqish kerakligini ma'lum qilgan. Vaholanki, Ittifoq doirasida olib boriladigan muzokara va kelishuvlarni tartibga solishda YI hujjatlari, prinsiplari hamda bayonotlari, jumladan, YI va Kanada Keng qamrovli iqtisodiy va savdo shartnomasi (CETA) va Yevropa Ittifoqi - Singapur erkin savdo shartnomalari (FTA)ning o'zaro munosabatlarni qamrab olish doirasi keng va ta'sirchan bo'lmagan. Shu sababli nafaqat Ittifoq doirasida balki, uning tashqarisida tuziladigan investitsion kelishuvlarda investorlar huquqlarining himoya qilinishi va investitsiya muhofazasi uchun ham YI hududida investitsion siyosatni o'zgartirish lozim edi. E'tiborli tomoni, Yevropa Ittifoqi tomonidan ishlab chiqilgan xalqaro investitsiya huquqi siyosati eski tartiblarning yangi moddiy va protsessual xususiyatlarni aks etgan holda, investitsiyalarni rag'batlantirish, investitsiyalarni himoya qilishning xalqaro talablariga moslashish natijasida yangi avlod investitsiya kelishuvlarining yaratilishiga asos bo'ldi. Bu esa Ittifoq hududida mavjud oldingi “eng yaxshi amaliyotlardan” voz kechilishiga olib keldi. O'z navbatida, investitsion siyosatdagi o'zgarishlar negizida Yevropa Ittifoqi doirasida rivojlanish ko'rsatgichlari nimalarda aks

etdi? degan savol yuzaga kelgan. Dastlab Yevropa Ittifoqida yangi investitsiya siyosatini shakllantirishga olib kelgan sabablar to'g'risida so'zlar ekanmiz, bunda, 2009-yildagi Lissabon (kelishuvi) shartnomasining kuchga kirishi nafaqat Ittifoq doirasida, balki undan tashqaridagi xalqaro investitsiya shartnomalari normalarini ishlab chiqishda muhim voqealik bo'lgan. Xususan, mazkur shartnomaning 207-moddasida to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar Ittifoqning umumiy tijorat siyosatining bir qismi sifatida mutlaq Yevropa Ittifoqi vakolatiga kirishi belgilangan. Shuningdek, Ittifoq qonun chiqarishi va qonuniy majburiy hujjatlarni qabul qilishi mumkin, a'zo davlatlar buni faqat Ittifoq tomonidan vakolat berilgan taqdirda yoki Ittifoq hujjatlarini amalga oshirish uchun qo'llashlari mumkin. Bu kabi vakolatlarining berilishi Ittifoqning tashqi iqtisodiy harakatlari uchun mustahkam asos hamda xalqaro investitsiya me'yorlarini ishlab chiqishda uning rolini oshirish maqsad qilinganligini anglatadi. Lissabon shartnomasi kuchga kirgunga qadar ham, a'zo davlatlar chet el investitsiyalari bilan bog'liq bo'lgan munosabatlarda keng qamrovli maxsus vakolatlariga ega emas edilar. Yevropa Ittifoqi dastlabki faoliyati davomida ham shartnomalarni tuzish bo'yicha mutlaq vakolatga ega edi, keyingi jarayonlar (Lissabon shartnomasi qabul qilinishi) Yevropa Ittifoqining xalqaro investitsiya qonunchiligi normalarini ishlab chiqishda ishtirok oshirishda rolini oshirishda muhim ahamiyat kasb etgan.

Shu o'rinda aytish mumkinki, O'zbekiston hududida ham investitsiya faoliyatini amalga oshirish jarayonida investorlar va chet el investorlari ishtirokidagi korxonalariga chet el fuqarolari va O'zbekiston Respublikasidan tashqarida doimiy yashovchi fuqaroligi bo'lmagan shaxslar bilan mehnat shartnomalarini erkin tuzish huquqi qonun darajasida mustahkamlanib, bunday shaxslarga mehnat shartnomasining butun amal qilish davrida ko'p martalik vizalarni olgan holda O'zbekiston Respublikasi hududiga kirish va uning hududida bo'lish huquqi kafolatlandi.

Aytish lozimki, bu turdagi viza asosan mamlakatimiz hududida tovarlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish bo'yicha korxonalar tashkil qilish uchun 3 million AQSh dollaridan ortiq miqdorda investitsiya kiritgan xorijiy davlatlar fuqarolariga beriladi. Shu jumladan, O'zbekiston Respublikasida yashash guvohnomasi 10 yil muddatga soddalashtirilgan tartibda xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarining ta'sischilariga ham taqdim etiladi.

Ushbu qoidalar investorlarga malakali chet el mutaxassislarining ko'nikmalaridan erkin foydalanish imkoniyatini yaratadi.

Davlat va chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar o'rtasidagi munosabatlarni ta'minlashning yana bir samarali usuli bu hukumat darajasidagi investitsiya shartnomalaridir. Darhaqiqat, hukumat tomonidan amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar, avvalambor, iqtisodiyot tarmoqlarini, ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmalarini jadal rivojlantirish va modernizatsiya qilish, sanoat ishlab chiqarishni kompleks diversifikatsiya qilish va uning raqobatbardoshligini oshirish maqsadida tuziladigan investitsiya shartnomalari hayotga izchil tatbiq etilishi muhim ahamiyatga ega.

Ayni shu maqsadda, Qonunda O'zbekiston Respublikasi Hukumati bilan tuziladigan investitsiya shartnomasining o'ziga xos xususiyatlari, xususan uning tuzish tartibi, taraflari, shartlari va davlatning majburiyatlari aniq belgilab qo'yildi.

Chet el investorlariga O'zbekiston Respublikasi Hukumati bilan shartnoma tuzilganda qo'shimcha kafolatlar va qo'llab-quvvatlash choralari taqdim etilishi mustahkamlandi.

Shuningdek, chet ellik investorlarga O'zbekiston Respublikasi hukumati bilan investitsiya shartnomasi tuzish bo'yicha mustaqil ravishda taklif kiritish tashabbusi taqdim etildi.

Investitsiyalarni amalga oshirish shakllari quyidagilardan iborat:

- yuridik shaxslarni tashkil etish yoki ularning ustav fondlarida (ustav kapitallarida) ulushli tarzda, shu jumladan mol-mulk va aksiyalar (ulushlar) sotib olish yo'li bilan ishtirok etish;

-O‘zbekiston Respublikasi rezidentlari tomonidan emissiya qilingan qimmatli qog‘ozlarni, jumladan qarz majburiyatlarini olish;

- konsessiyalarni olish, shu jumladan tabiiy resurslarni qidirish, o‘zlashtirish, qazib olish yoki ulardan foydalanishga doir konsessiyalarni olish, shuningdek mahsulot taqsimotiga oid bitimlarda ishtirok etish;

- mulk huquqini, shu jumladan intellektual mulk obyektlariga bo‘lgan mulk huquqini, mualliflik huquqlarini, patentlar, tovar belgilari, foydali modellar, sanoat namunalari, firma nomlari va nou-xau, ishchanlik obro‘cini (gudvillni), shuningdek savdo va xizmat ko‘rsatish sohasi obyektlariga bo‘lgan mulk huquqini ular joylashgan er uchastkalarini bilan birgalikda olish;

- yer uchastkalariga egalik qilish va ulardan foydalanish (shu jumladan ijara asosida egalik qilish va foydalanish) hamda boshqa tabiiy resurslarga egalik qilish va ulardan foydalanish huquqini olish.

Investorlar qonun hujjatlariga zid bo‘lmagan boshqa shakllarda ham investitsiyalarni amalga oshirishi mumkin.

Investitsiya faoliyati investitsiyalar kiritishning turli shakllarini birlashtirish vositasida amalga oshirilishi mumkin.

Investitsiyalarning birlamchi yoki takroran kiritiladigan shakllari o‘zgartirilishi ularning investitsiya sifatidagi darajasi o‘zgarishiga olib kelmaydi.

Investitsiya resurslari jumlasiga quyidagilar kiradi:

- pul mablag‘lari (shu jumladan chet el valyutasi) va boshqa moliyaviy mablag‘lar, shu jumladan kreditlar, paylar, ulushlar, aksiyalar va boshqa qimmatli qog‘ozlar;

- ko‘char va ko‘chmas mol-mulk (binolar, inshootlar, uskunalari, mashinalar va boshqa moddiy qimmatliklar) hamda ularga bo‘lgan huquqlar;

- intellektual mulk obyektlari, shu jumladan u yoki bu turdagi ishlab chiqarish turini tashkil etish uchun zarur bo‘lgan, texnik hujjatlar, ko‘nikmalar va ishlab chiqarish tajribasi tarzida rasmiylashtirilgan, patentlangan yoki patentlanmagan (nou-xau) texnik, texnologik, tijoratga oid va boshqa bilimlar;

- yer uchastkalariga va boshqa tabiiy resurslarga egalik qilish hamda ulardan foydalanish huquqi, shuningdek mulk huquqlaridan kelib chiquvchi boshqa ashyoviy huquqlar.

#### **Investor:**

O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga zid bo‘lmagan investitsiya faoliyatini erkin amalga oshirishga, investitsiya qilishni amalga oshirish hajmlarini, turlarini, shakllarini, sohasini va yo‘nalishlarini mustaqil ravishda belgilashga;

investitsiya faoliyatini amalga oshirish uchun yuridik va jismoniy shaxslar bilan shartnomalar tuzishga;

o‘z investitsiyalariga va investitsiya faoliyati natijalariga egalik qilishga, ulardan foydalanishga hamda ularni tasarruf etishga, shuningdek, investitsiya faoliyati natijalarini sotishga va olib chiqishga;

investitsiya faoliyati natijasida olingan daromadlarni soliqlar, yig‘imlar va qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa to‘lovlar to‘langanidan so‘ng mustaqil va erkin tarzda tasarruf etishga;

o‘zi qabul qilgan barcha turdagi majburiyatlarning, shu jumladan qarz mablag‘larini jalb etishga qaratilgan majburiyatlarning ta‘minoti sifatida o‘ziga mulk huquqi asosida tegishli bo‘lgan mol-mulk va har qanday mulkiy huquqlardan foydalanishga;

o‘z investitsiyalari va boshqa aktivlari rekvizitsiya (ekspropriatsiya) qilingan taqdirda munosib kompensatsiya olishga;

kreditlar va qarzlarning tarzidagi pul mablag‘larini jalb etishga;

davlat boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari va ular mansabdor

shaxslarining qonunga xilof harakatlari (harakatsizligi) va qarorlari natijasida yetkazilgan zararlar uchun tovon olishga haqli.

**Xulosa qilib aytganda,** Xalqaro investitsiya huquqida doimiy ravishda rivojlanish va o'zgarishlar bo'ladigan soha, shunday bo'lsa-da, bu huquq sohasida namuna bo'la oladigan tizimni, investitsion munosabatlarni tartibga solishda Yevropa Ittifoqi o'z modelini yarata oldi. Ya'ni, investitsiya bo'yicha muzokaralar murakkab jarayon bo'lishiga qaramay, Ittifoq o'z hududida nafaqat investitsiya shartnomalari standartlarini ishlab chiqishga ta'sir qilish, balki xalqaro investitsiya qonunchiligini takomillashtirish bo'yicha o'z hissasini qo'shdi. Xulosa o'rnida yana shuni aytish mumkinki, O'zbekiston Respublikasining “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida”gi Qonun chet el investorlari hamda mahalliy investorlar tomonidan amalga oshiriladigan investitsiyalar va investitsiya faoliyati sohasidagi munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan, to'g'ridan to'g'ri amal qiluvchi yagona normativ-huquqiy hujjat bo'lib xizmat qilishi barobarida, investitsiya qonunchiligidagi ziddiyatlarni bartaraf etish, xorijiy sarmoyadorlar bilan investitsiya loyihalarini amalga oshirishda “davlat-xususiy sektor” sherikligini rivojlantirish, sarmoyadorlar kiritgan mablag'lar xavfsizligini kafolatlash, iqtisodiy barqarorlik va moliya bozorining mustahkamlanishiga hissa qo'shadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida”gi Qonuni, 25.12.2019 yildagi O'RQ-598-son
2. European Commission, Investment Protection and Investor-to-State Dispute Settlement in EU Agreements, Fact Sheet, November 2013, at 5. See further Bungenberg and Titi, ‘The Evolution of EU Investment Law and the Future of EUChina Investment Relations’, in W. Shan and J. Su (eds), *China and International Investment Law: Twenty Years of ICSID Membership* (2014); UN Commission on Trade and Development (UNCTAD), *World Investment Report 2012* (2012), at 85.
3. Titi, ‘The Arbitrator as a Lawmaker: Jurisgenerative Processes in Investment Arbitration’, 14(5) *Journal of World Investment and Trade* (2013) 829, at 843ff.
4. Treaty of Lisbon Amending the Treaty on European Union and the Treaty Establishing the European Community 2007, OJ C306, at 1; Treaty on the Functioning of the European Union, as adopted by the Treaty of Lisbon (TFEU) 2010, OJ C83/49, Arts 206–207.

## INVESTITSION FAOLIYATING MOHIYATI VA UNING DAVLATIMIZ IQTISODIYOTIDAGI O‘RNI

**Erniyazov Djamshid Eshdavlatovich**  
Surxondaryo viloyat yuridik texnikumi  
Ommaviy-huquqiy fanlar kafedras” o‘qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada investitsiya faoliyatining iqtisodiy mazmun-mohiyati, uning barqaror iqtisodiy yuksalishni ta’minlashda muhim omil sifatida ahamiyati va faol investitsiya siyosatini yurgizishda davlat boshqaruvi, shuningdek, O‘zbekiston iqtisodiyotida investitsion jarayonlar to‘g‘risida malumotlar keltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** Investitsiya, investitsion faoliyat, investitsiya jarayoni, obyekt, subyekt, investitsion siyosat, davlat investitsiya dasturi.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida investitsiya faoliyati muhim ahamiyat kasb etadi. Har bir mamlakatning rivojlanish darajasi, ya’ni iqtisodiyotning rivojlanishi va iqtisodiy o‘shish ko‘p jihatdan mamlakatdagi investitsion jarayonlarga bog‘liq. Har qanday jamiyatning barqaror iqtisodiy rivojlanishini investitsiyalarsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Ayniqsa, bugungi kunda bu narsa yaqqol namoyon bo‘lmoqdaki, har qanday mamlakatning bundan keyingi yuksalishi investitsiyalarni jalb etish holatiga bog‘liq.


«Investitsiya» atamasi lotin tilidagi «invest» so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib «qo‘yish», «mablag‘ni safarbar etish», «kapital qo‘yilmasi» ma’nosini beradi. Keng ma’noda investitsiya mablag‘ni ko‘paytirib va qaytarib olish maqsadida kapitalni safarbar etishni bildiradi. Ko‘pgina hollarda «investitsiya» tushunchasi iqtisodiy va boshqa faoliyat obyektlariga kiritiladigan moddiy va nomoddiy ne‘matlar hamda ularga doir huquqlar tarzida ta’riflanadi. Investitsiya deganda, barcha turdagi milliy va intellektual boyliklar tushunilib, ular tadbirkorlik faoliyati obyektlariga yo‘naltirilib daromad keltirishi yoki biror bir ijobiy samaraga erishishi zarur. Investitsiya kiritishdan asosiy maqsad daromad olish va ijobiy ijtimoiy samaraga erishishdir.

Investitsiyalarning iqtisodiyotdagi o‘rni beqiyosligi uning aniq mohiyatini o‘rganib chiqishni talab qiladi. Iqtisodiy lug‘atda “Investitsiyalar - kapitalni uzoq muddatli qo‘yilmalar tariqasida sanoatga, qishloq xo‘jaligiga va boshqa tarmoqlarga sarf qilinadigan xarajatlar yig‘indisini aks ettiradi”, - deb ta’riflangan.

Ishlab chiqarish nazariyasi va umuman, makroiqtisodiyotda investitsiyalar yangi kapitalni (ishlab chiqarish vositalarini hamda inson kapitalini qo‘shib hisoblaganda) yaratish jarayonidir. Moliya nazariyasida esa investitsiya deganda, real yoki moliyaviy aktivlarni olish tushuniladi, ya’ni bugungi sarf-xarajatlarning maqsadi kelajakda daromad olishdir. Demak, bizningcha, “Investitsiyalar - bo‘sh turgan kapitalni iqtisodiy-ijtimoiy samara olish maqsadida harakatga keltirishdir”.

Bizga ma’lumki, iqtisodiy o‘shish investitsiya resurslarisiz bo‘lishi mumkin emas, bu resurslar o‘z mohiyati bilan ishlab chiqarishni rivojlantirishga qaratilgan mablag‘dir. Pul mablag‘lari shaklidagi investitsiyalar nominal investitsiyalardir. Bu investitsiyalar moddiylashib, amalda ishlab chiqarishga jalb etilgandan so‘ng real investitsiyalarga aylanadi va iqtisodiy o‘shishni ta’minlaydi.

O‘zbekiston Respublikasining “Investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi Qonunida investitsiyalar tayinlangan obyekt bo‘yicha tabaqalashtirilgan. Shunga muvofiq investitsiyalar quyidagi turlarga ajratilgan. (1-rasm)



1-rasm. Investitsiyalarning tasniflanishi

Iqtisodiy kategoriya sifatida investitsiya quyidagicha tasniflanadi:

- Birlamchi (avaylangan) jamg'arilgan kapitalni ko'paytirish maqsadida kapitalni tadbirkorlik obyektlariga joylashtirish;
- Investitsion loyihalarni amalga oshirish jarayonida investitsiya faoliyati ishtirokchilari o'rtasida vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlar.

*Investitsiyalar* - bu hali buyumlashmagan, lekin ishlab chiqarish vositalariga qo'yilgan kapital. O'zining moliyaviy shakliga ko'ra, ular foyda olish maqsadida xo'jalik faoliyatiga qo'yilgan aktivlar hisoblansa, iqtisodiy xususiyatiga ko'ra, u yangi korxonalar qurishga, uzoq muddatli xizmat ko'rsatuvchi mashina va asbob uskunalarga hamda shu bilan bog'liq bo'lgan aylanma kapitalning o'zgarishiga ketgan xarajatlardir. Investitsiyalar xususiy sektor va davlat tomonidan mamlakat ichkarisida va uning tashqarisida turli ishlab chiqarishlarga va qimmatbaho qog'ozlarga (aksiyalar, obligatsiyalar) qo'yilishi mumkin.

*Investitsiya jarayoni* - bo'sh sarmoyaga ega bo'lganlar bilan sarmoya talab qilayotganlarning uchrashish jarayoni. Ikkala tomon, odatda, moliyaviy institutlarda yoki moliyaviy bozorda uchrashadilar. Ayrim vaqtda, xususan, mulkiy qiymatlar (masalan, ko'chmas mulk) bilan bitim imzolaganda sotuvchi va xaridorlar bevosita muomalaga kirishadilar.

*Investitsiya obyekti* deyilganda, mablag'larni, ya'ni qonun doirasidagi barcha boyliklar safarbar qilinayotgan obyektlar tushuniladi, ular yangi korxonalar yoki amalda faoliyat yuritayotgan korxonalar, qimmatli qog'ozlar, bank depozitlari, intellektual mulk va boshqalar bo'lishi mumkin.

*Investitsiya subyektlari* - investitsiya faoliyatida ishtirok etuvchi mulkiy va intellektual boyliklarga ega bo'lgan jismoniy, huquqiy shaxslar va davlatdir.

Odatda, har qanday investitsion faoliyat muayyan maqsadga yo'naltirilgan, mukammal darajada yaratilgan investitsiya g'oyasiga asoslanadi. Mukammal darajada shakllantirilgan va asoslangan investitsiya g'oyasi investitsiya loyihasining qaror topishiga olib keladi.

Investitsiya loyihasi tushunchasini uning yo'naltirilgan maqsadini amalga oshirish uchun texnologik jarayonlarni, texnik va tashkiliy hujjatlashtirish jarayonini, obyektlarni barpo etish va ishga tushirish jarayonini, moddiy, moliyaviy, mehnat resurslarining harakatini, shuningdek, tegishli boshqaruv qarorlari va tadbirlarni o'zida mujassamlashtiruvchi tizim sifatida talqin qilish maqsadga muvofiqdir.

Hozirgi kunda O'zbekiston iqtisodiyotining barcha sohalarida o'zgarishlar, tarkibiy islohotlar olib borilmoqda. Bunday islohotlarning olib borilishi bevosita mamlakatdagi investitsion jarayon, davlatning investitsion siyosati, uning ustuvor yo'nalishlari va mamlakatdagi korxonalar investitsion faolligiga bog'liq. Mustaqilligimizning qisqa davrida investitsion faollikni oshirish, uni kuchaytirish borasida qator amaliy chora-tadbirlar o'tkazildi, investitsion faoliyatni tartibga solib turuvchi qator qonun va qonun osti hujjatlari chiqarildi va hayotga tatbiq qilinmoqda.

Bu yo'lda investitsiya siyosatining ahamiyati juda katta. Chunki investitsiyalar iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlar, texnik va texnologik yangilanishlar, korxonalarni qayta ta'mirlash ishlarini amalga oshirishni rag'batlantiradi, mamlakat eksport va import salohiyatini oshirishga imkon yaratadi. Shu jihatdan O'zbekiston davlati o'z investitsiya siyosatini olib bormoqda.




*Investitsiya siyosati* - iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarini rivojlantirish, qo'llab-quvvatlash, markazlashgan investitsiya jarayonidan nomarkazlashgan investitsiya jarayoniga o'tish, ustuvor investitsion loyihalarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan mexanizm, uslublar yig'indisi hisoblanadi. Davlat investitsiya siyosatini amalga oshirishda ko'proq ustuvorlik kichik biznes subyektlari, xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar tuzishga hamda mavjud kamchiliklarni bartaraf etish, muammolarni tezkorlik bilan hal etish va shu asnoda investitsiya ishtirokchilarining erkin harakat qila olishlari uchun qulay iqtisodiy, investitsion muhit yaratishga qaratilgan.

Davlat investitsiya siyosati hududlar, tarmoq va korxonalar investitsiya siyosatidan tarkib topib, ular o'zaro bog'liqdir. Hududlar investitsiya siyosati investitsiyani sarflashda aholi, hudud va investor manfaatlarini hisobga olgan holda samarali ishlatishga imkon beruvchi hududda olib boriladigan chora-tadbirlar majmui. Tarmoq investitsiya siyosati esa bu mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishini ta'minlovchi tarmoqlar, sanoat mahsulotlarini eksport qilish, import o'rnini bosuvchi ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish, ilmiy-texnika taraqqiyotini investitsiya yo'li bilan qo'llab-quvvatlash hisoblanadi.

O'zbekiston iqtisodiyotiga investitsiyalar kiritish, avvalo, ichki manbalarni safarbar etish hisobidan iqtisodiyotimizning muhim tarmoqlarini jadal modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash, transport va aloqa sohasini yanada rivojlantirish hamda ijtimoiy infratuzilma obyektlarini barpo etish hal qiluvchi ustuvor yo'nalishlarga aylandi.


Respublika iqtisodiyotining ustuvor tarmoqlarida investitsiya loyihalarini amalga oshirishning zaruriyati quyidagilardan kelib chiqadi: ishlab chiqarish quvvatlarining jismoniy va ma'naviy eskirganligi, ularning qayta tiklashga yoki texnik jihatdan qayta jihozlashga yoki umuman yangilashga oid bo'lib qolganligi; sanoat tarmog'ida moddiy texnika bazasining o'ta pastligi va ko'pgina zarar ko'rib ishlaydigan korxonalarining mavjudligi; respublika milliy daromadida jamg'arish bilan iste'mol o'rtasidagi nisbatning iste'mol tomonga ko'plab sarflanayotgani va jamg'arishning investitsiya manbai sifatida kamayib borayotganligi; O'zbekistonning tabiiy boyliklarga boyligi va bu yerda ko'plab qayta ishlovchi korxonalarni qurish imkoniyating mavjudligi; aholi sonini o'sib borayotganligi (mehnat resurslari) va kichik zamonaviy ixcham korxonalarni barpo etish, ularni mehnat resurslarining manbai bo'lmish qishloqqa yaqinlashtirish zarurligi; respublika eksportida xom ashyo salmog'ini kamaytirish va ko'plab tayyor mahsulotlar chiqarish imkoniyatiga ega bo'lish zarurligi va boshqalar.



2-rasm. Hududlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalar


Investitsiya faoliyatining rivojlanishida turli manbalar hisobidan mablag'larning jalb etilishi holati o'rganilishi va ular hisobiga investitsiyalarni moliyalashtirish holatining rivojlanishini tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi va quyidagi jadvallarda so'nggi yillarda turli manbalar hisobiga investitsiyalarning moliyalashtirilish tarkibi va uning o'zgarishi keltirilgan.

Asosiy kapitalga investitsiyalarning hududiy tarkibida hamon Buxoro, Toshkent shahri va Qashqadaryo viloyatlari yetakchilik qilmoqda. Qashqadaryo viloyati asosiy kapitalga investitsiyasi Samarqand viloyatidan qariyb 59 %ga ko'p, ya'ni 3533.1 mlrd. so'mni tashkil qilmoqda. Buxoro viloyati, Toshkent shahri va Qashqadaryo viloyati jami qolgan viloyatlar ko'rsatkichidan farqi 5.4 %ni quramoqda. Bu ko'rsatkich bo'yicha Sirdaryo va Jizzax eng oxirgi o'rinlarda qolyabdi. (2-rasm)



3-rasm. Yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar (jamiga nisbatan %da)

Turar joy qurilishi, tashish va saqlash kabi faoliyat turlariga investitsiyalar ulushi 2017-yilda 2016-yil mos davridagiga nisbatan kamaygan bo'lsa, tog'-kon sanoati, ishlab chiqarish sanoati, elektr va gaz bilan ta'minlash kabi faoliyat turlariga investitsiyalar hajmi ortdi. (3-rasm)



4-rasm. Asosiy kapitalga xorijiy takror ishlab chiqarish tarkibi investitsiyalar tarkibi mlrd.so'm

O'zlashtirilgan xorijiy investitsiya va kreditlarning asosiy qismini, 79,7 %ini to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiya va kreditlar tashkil etgan bo'lsa, 18,1 %ini O'zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar va 2,2 %ini boshqa investitsiya va kreditlar tashkil qilmoqda. (4-rasm)

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, investitsiya loyihalarini amalga oshirish orqali iqtisodiyotda tub o'zgarishlarni amalga oshirish imkonini beradi va bu iqtisodiyotda yangi ish o'rinlarini tashkil etish va rivojlanish garovi bo'lib xizmat qiladi. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida yurtimizga zamonaviy texnologiyalar olib kelib, sanoat ishlab chiqarishini yangilash va modernizatsiyalash jarayonlarini olib borishni investitsiya faoliyatisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Investitsiya loyihalarini jalb qilish nafaqat davlat iqtisodiyotini yuksaltiradi, balki aholi turmush darajasini yaxshilashda ham katta samara beradi. Ya'ni, maishiy muhtojliklarning katta bo'limi qanoatlantiriladi, ishlab chiqarish kengayadi, yangi mehnat kuchlari shakllanadi, eski va og'ir mehnat turmushidan yangi, yengil va samarali mehnat faoliyatiga o'tiladi. Davlatning kelajakdagi iqtisodiy yuksalish darajasini bugungi jalb qilingan investitsiya loyihalari va investitsion jarayonlar belgilab beradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Fozilchaev Sh.Q., Xidirov N.G'. Investitsiya va lizing asoslari;
2. O'zbekiston Respublikasining 2014-yil 29-oktabr “Investitsiya faoliyati to'g'risida “gi Qonunining yangi tahriri
3. Jo'raev A.N. Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish manbalari qiymatini baholash;
4. www.stat.uz Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari.

## YAPONIYA-O'ZBEKISTON MUNOSABATLARI ISTIQBOLLARI

Izzatulla Murodullayev

Qashqadaryo viloyati yuridik texnikumi o'qituvchisi

**Annotatsiya:** O'zbekiston va Yaponiya o'rtasida o'zaro aloqalarni yaxshilash va investitsion muhit yaratish borasidagi munosabatlar, xalqaro hamjamiyatning mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida tutgan o'rni, davlatlar investitsion salohiyatlari, iqtisodiy qudratli davlatlar bilan aloqalar.

**Kalit so'zlar:** Xalqaro munosabatlar, o'zaro hamkorlik, xalqaro normalar, xalqaro tashkilotlar, o'zaro manfaatli hamkorlik, harakatlar strategiyasi, o'zgartirishlar.

Bugungi kunda davlatning asosiy qudratini belgilab beruvchi omillardan asosiysi – iqtisodiy omildir. Yapon siyosatshunoslarining fikriga ko'ra, davlatning dunyoviy tartibni shakllantirishdagi rolini davlatning mintaqadagi rivojlanayotgan davlatlarga berayotgan yordamining ko'lamidan kelib chiqib baholash lozim. Yaponiyaning moliyaviy donor hamda Osiyo davlatlarining ulkan import qiluvchi davlati sifatidagi ta'sirini AQShning roli bilan teng qo'yish mumkin.

Yaponiya tinchliksevar davlat sifatida dunyoning barcha davlatlari bilan do'stlik aloqalarini o'rnatishga harakat qilmoqda, jumladan, O'zbekiston bilan ham. Tashqi siyosatidagi ustuvor yo'nalishlardan biri davlatlar bilan harbiy to'qnashuvlarga bormaslik, nizolarni tinch yo'l bilan hal qilish prinsiplaridir. Yaponiyaning bu qadar jadal rivojlanib borayotganiga asosiy sababi uning harbiy qurollanishdan holi ekanligi bilan izohlanadi.

Hozirgi paytga kelib Yaponiyaning jahon miqyosidagi o'rni va roli oshib bormoqda. Uning, ayniqsa, global xarakterdagi muammolarni hal qilishda faolligi yaqqol ko'zga tashlanadi. Yaponiya o'zining imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda BMT Xavfsizlik Kengashida doimiy a'zolikka ega bo'lishga intilmoqda. Bu taklifni BMT minbarida birinchi prezidentimiz I.A. Karimov ilgari surgan edi. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad BMTda islohotlar o'tkazish, uning faoliyatining samaradorligini oshirish, tashkilotning dunyoda tinchlikni mustahkamlashdagi o'rnini saqlab qolish masalalaridir.

Har bir davlat o'z tinchligini saqlashni ustuvor masala deb biladi. Buning uchun birinchi navbatda qo'shni davlatlar bilan mustahkam do'stlik aloqalarini saqlash lozim. Yaponiya qo'shni davlatlar Xitoy, Janubiy Koreya, Shimoliy Koreya, AQSh, Rossiya davlatlari bilan yaqin do'stlik aloqalarini saqlab qolishga harakat qilmoqda. Ko'rinib turibdiki, Yaponiya, asosan, dunyoning eng kuchli davlatlari bilan bir mintaqada (Osiyo-Tinch okeani mintaqasi) joylashgan. Agar bu mintaqada harbiy nizo paydo bo'lsa, butun dunyo davlatlariga ta'sir qiladi. Shuning uchun Yaponiya bu mintaqada davlatlari o'rtasida “yarashtiruvchi” davlat vazifasini bajarib turadi.

**XXI asrda jahon siyosatida Yaponiyaning tutgan o'rni va roli hamda uning milliy manfaatlari.**

XXI asrga kelib dunyo siyosatida Yaponiyaning roli va o'rni sezilarli darajada oshib bormoqda. Uning tinchlikni mustahkamlash, davlatlar o'rtasidagi do'stlik munosabatlarini rivojlantirish, jahon miqyosidagi muammolarni birgalikda hal qilish, nizolarni tinch yo'l bilan hal qilishga qaratilgan ya'ni harbiy konfliktlardan qochish, iqtisodiy jihatdan qiynalayotgan davlatlarga yordam ko'rsatish, dunyo bo'ylab inson huquqlari, ozodlik, demokratiyani mustahkamlash, BMTning dunyoda tinchlikni saqlashdagi o'rnini oshirish masalalarini o'z oldiga qo'ygan siyosati bunga asosdir. Ma'lumki, Yaponiya bugungi kunda dunyoning eng rivojlangan davlatlaridan sanaladi. Mashhur siyosatshunos, realizm oqimining asosiy vakillaridan biri Hans

Margentau o'z qarashlarida davlatning milliy kuch-qudratini belgilab beruvchi 9 ta omilni sanab o'tadi:

1. Geografiya. Yaponiya geografik jihatdan juda ham qulay holatda joylashgan. U orol davlat hisoblanadi va joylashuvi jihatidan eng rivojlangan davlatlar joylashgan mintaqada, ya'ni Osiyo-Tinch Okeani mintaqasida joylashgan. Bu faktor Yaponiya uchun salbiy jihatdan xizmat qilishi mumkin deb hisoblayman. Chunki bu mintaqada gegemon davlatga aylanishi uchun Rossiya, AQSH, Xitoy kabi dunyoning rivojlangan davlatlari bilan raqobatlashishi lozim.

2. Tabiiy resurslar. Yaponiyada deyarli tabiiy resurslar mavjud emas. Oz miqdorda metall va mineral resurslar mavjud. Resurslar borasidagi ehtiyojini boshqa davlatlar bilan yaqin hamkorlik asosida qondiradi. Bu borada Markaziy Osiyo davlatlari muhim rol o'ynaydi.

3. Ishlab chiqarish salohiyati. Yaponiya dunyodagi ishlab chiqarish salohiyati yuqori davlatlardan biri sanaladi.

4. Harbiy tayyorgarlik. Harbiy jihatdan Yaponiya o'zining qudratiga ega emas. Konstitutsiyasining 9-moddasiga ko'ra, Yaponiya harbiy kuchlardan voz kechgan. Faqat tartibni saqlash uchungina 140 ming kishilik qo'shin mavjud. AQSH- Yaponiya harbiy ittifoqiga ko'ra, AQSH bu masalada Yaponiyaga yordam beradi. Okinava shahrida AQSH harbiy bazasi joylashgan.

5. Aholi. Yaponiya aholisi 127 mln. kishini tashkil etadi. Aholisini asosan yaponlar tashkil etadi.

6. Milliy xarakter. Yapon xalqi o'zining kuchli xarakteri bilan ajralib turadi. Ular mehnatsevarlik, vatanparvarlik va mas'uliyatlilik bilan barchaga o'rnak bo'la oladi.

7. Milliy ruh. Yapon xalqining milliy ruhi juda yuqori. Vatanga bo'lgan muhabbat doim birinchi o'rinda turadi. Ular ongida “Nippon ichi” (Yaponiya birinchi) g'oyasi mustahkamlanib qolgan.

8. Diplomatiyasining sifati. Yaponiya diplomatiyasi o'zining maqsadlariga erishish uchun qat'iyati bilan ajralib turadi. Lekin juda kuchli deya olmaymiz. Chunki harbiy kuchlar mavjud emasligi Yaponiya diplomatiyasidan harbiy konfliktlardan qochgan holda tinch faoliyat olib borishini talab qiladi.

9. Hukumatning sifati. Yaponiya hukumati sifati uning birinchi navbatda xalq manfaatlari uchun xizmat qilishida ko'rinadi. Hukumat o'zining salohiyatidan kelib chiqqan holda siyosat olib boradi.

2008–2009-yillardagi Yaponiyaning tashqi siyosatiga e'tibor beradigan bo'lsak, uning rivojlanib borayotganligini yaqqol ko'rishimiz mumkin. 2008-yil Yaponiya uchun diplomatiya yili bo'ldi deyishimiz mumkin. Bunday yil Yaponiya tarixida kam uchraydi. Chunki, Yaponiya shu yili G8 Sammitiga sakkiz yildan keyin prezidentlik qildi, G8 Sammiti bilan bog'liq uchrashuvlarga mezbonlik qildi va to'rt yilda bir marotaba o'tkaziladigan Afrikani Rivojlantirish bo'yicha Tokiyo Xalqaro Konferensiyasi (*ingliz tilida* Tokyo International Conference on African Development (TICAD)) ham may oyida Yaponiyaning Yokahoma shahrida bo'lib o'tdi. Bu yilda dunyo hamjamiyati ko'plab qiyin masalalarga duch keldi. Ular qatoriga iqlim o'zgarishi bilan bog'liq muammo, Afrikani rivojlantirish, mintaqaviy nizolar va ommaviy qirg'in qurollarini tarqalishi kabilarni kiritish mumkin.

Aytish mumkinki, 2008-yil dunyo davlatlari uchun Yaponiyani qayta kashf etilishi yili bo'ldi. Dunyo hamjamiyati duch kelayotgan muammolarni hal qilishda Yaponiyaning roli ko'rinarli darajada faollashdi. Yaponiya terrorizmga tubdan barham berishga faol harakat qilmoqda. Terrorizmdan jabr ko'rgan davlatlarga gumanitar yordam bermoqda. Afg'onistonning qo'shnisi bo'lgan Pokistonda ham terrorizmga barham berish va iqtisodiyotini barqarorlashtirishda Yaponiya faollik ko'rsatish uchun harakat qilyapti. Iroqqa esa Rasmiy Rivojlanish Yordami (ODA) va Yaponiya himoya kuchlari orqali yordam bermoqda.

Ma'lumki, 2008-yilgi iqtisodiy inqiroz ko'p davlatlarning iqtisodiyotini izdan chiqardi. Yaponiya hukumati shunday og'ir paytda iqtisodiyoti beqaror va past darajali davlatlarga yordam berish yo'lini tanladi. Vashingtonda bo'lib o'tgan Moliyaviy Bozorlar va Dunyo Iqtisodiyoti Sammitida Bosh Vazir Taro Aso Yaponiya Xalqaro Valyuta Fondiga iqtisodi endi rivojlanayotgan hamda o'rta va kichik hajmli davlatlarni qo'llab-quvvatlash uchun 100 milliard AQSh dollari berishga tayyorligini e'lon qildi.

2008-yilning oktabr oyida BMT Xavfsizlik Kengashiga doimiy bo'lmagan a'zolik uchun bo'lib o'tgan saylovlarda Yaponiya o'ninchi marta ketma-ketlikda saylandi. Bu Yaponiyaning xalqaro maydonda o'rni ortib borayotganligidan dalolat beradi. Yaponiya BMTning yanada samaraliroq faoliyat yuritishi uchun Xavfsizlik Kengashida islohotlar o'tkazib, Yaponiyani doimiy a'zolar tarkibiga qo'shish kerak deb hisoblamoqda.

Oxirgi yillarda Afrikada iqtisodiy o'sish rivojlanib, yiliga o'rtacha 6 %ni tashkil etmoqda va mintaqada siyosiy barqarorlik hukm surmoqda. Lekin shunga qaramasdan, mintaqqa qashshoqlik, nizolar, yuqumli kasalliklar, tabiat va iqlim muammolari kabi yangi muammolarga duch kelmoqda. Yokohomada bo'lib o'tgan TICAD IV da 51 ta Afrika davlati vakillari, jumladan, 41 tasi davlat va hukumat rahbarlari, 34 ta Yevropa, Amerika va Osiyo davlatlari, 77 ta xalqaro tashkilotlar vakillari ishtirok etib yuqoridagi masalalar yuzasidan “Yokohama Deklaratsiyasi” qabul qilindi.

Osiyo-Tinch Okeani mintaqasidagi Yaponiya diplomatiyasining asosiy maqsadi mintaqani barqaror va tinch hamda manfaatlar birlashuvi asosida boshqariladigan mintaqaga aylantirish hisoblanadi. Xitoy bilan aloqalarga kelsak, 2008-yil Xitoy va Yaponiya o'rtasida tuzilgan Do'stlik va Tinchlik Shartnomasining 30 yilligi munosabati bilan “Umumiy Manfaatlarga Asoslangan O'zaro Foydali Munosabatlar”ni yaratish masalasida harakat qilindi. Xitoy Prezidenti Hu Zintao Yaponiyaga tashrifi oxirgi o'n yil ichidagi birinchi tashrif bo'ldi.

Bugungi kunda Yaponiya hududini, hayot va fuqarolar manfaatlarini himoya qilish uchun nafaqat milliy xavflar, balki, ommaviy qirg'in qurollarini tarqatish, xalqaro terrorizm, qaroqchilik kabi nomilliy xavflarni oldini olishga qaratilgan xavfsizlik tizimiga muhtoj. Shu sababli Yaponiya qo'shni davlatlar bilan mustahkam aloqalarni yo'lga qo'ygan AQSh-Yaponiya Xavfsizlik Kelishuvini saqlash va mustahkamlash tashqi siyosatda ustuvor yo'nalish sanaladi.

Xalqaro terrorizm bo'yicha yapon hukumati bu harakat na oqlanishi, na yo'l ochib berish kerak degan pozitsiyani qo'llab quvvatlaydi. 2001-yilda hukumat tomonidan terrorizmga qarshi “maxsus o'lchovli” qonunlar ishlab chiqildi. Shu asosda o'z harakatini olib bormoqda. Yaponiya dengiz davlati hisoblanadi. Uning savdosining katta qismi ham dengiz orqali amalga oshiriladi. Dengiz xavfsizligini, ya'ni qaroqchilik va terroristik harakatlar xavfsizligini ta'minlash nafaqat Yaponiya uchun balki mintaqqa rivoji uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

### **Yaponiyaning Markaziy Osiyodagi siyosatining ustuvor yo'nalishlari va uning istiqbollari**

Yaponiyaning jahon hamjamiyatida iqtisodiy, siyosiy rolining oshib borishi har bir mintaqaga nisbatan tashqi siyosiy strategiyani shakllantirishida muhim rol o'ynamoqda. U har bir mintaqaning jahonda tutgan o'rniga qarab o'zining tashqi siyosiy manfaatlarini belgilamoqda. XXI asr bo'sag'asida Markaziy Osiyo (bundan keyin MO) xalqaro hayotning mustaqil subyekti sifatida qayta tiklanishi, shubhasiz, o'zida muhim jarayonlarni ham ifadolovchi ham aks ettiruvchi hodisa bo'ldi. MO jahon siyosati va iqtisodiyotining mustaqil subyekti sifatida tiklanishi, o'z navbatida dunyo miqyosida ro'y berayotgan jarayonlarga kuchli ta'sir ko'rsatuvchi omilga aylandi. Hayotning o'zi, O'zbekiston Prezidenti I.A. Karimovning “O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari” kitobida qayd etilgan “Sayyoramizning juda katta maydonida kuchlar nisbati ko'p jihatdan Markaziy Osiyodagi

yangi mustaqil davlatlar qaysi yo‘ldan borishlariga bog‘liq<sup>65</sup>, degan fundamental xulosasini tasdiqlaydi.

Umuman olganda, MOning noyob xususiyatlaridan biri – bu mintaqada regional omilning juda katta ahamiyatga egaligidir. MOdagi muayyan mamlakatning rivojlanish tendensiyalarini mintaqadagi rivojlanishiga bog‘lamasdan chuqur geosiyosiy va geoiqtisodiy tahlil qilish mumkin emas. Xuddi shuningdek, MOdan tashqaridagi muayyan davlatning mintaqadagi u yoki bu davlatga nisbatan tashqi siyosatini uning butun MOga nisbatan bo‘lgan regional siyosatini tushunmay turib anglab etish mumkin emas. **MOning quyidagi ahamiyatli jihatlari Yaponiyaning qiziqishlarini orttirmoqda. Bu quyidagi omillar bilan tavsiflanadi:**

- Nisbiy demografik salmoqning oshishi;
- Xalqaro ahamiyatga molik tabiiy resurslarning mavjudligi;
- Markaziy Osiyoning energetik salohiyati<sup>66</sup>

MAMLAKATLAR	NEFT ZAXIRALARI (mln.barrel)	TABIIY GAZ ZAXIRALARI (trln. kub.fut )
Qozog‘iston	10-17,000	53-83
Qirg‘iziston	40	0.2
Tojikiston	12	0.2
Turkmaniston	1,700	98-155
O‘zbekiston	600	74-88
<b>Dunyo bo‘yicha</b>	<b>1,033,200</b>	<b>5,142</b>

- Ahamiyatga molik chet el investitsiyalarining jamlanib borishi;
- Muhim transport-kommunikatsiya yo‘llarining kesishishi;
- Sivilizatsiyalararo aloqalar;

Shu bilan birga bu mintaqada allaqachon buyuk davlatlarning raqobat maydoniga ham aylanib ulgurdi. Shuni ta’kidlab o‘tish kerakki, Yaponiya dastlab bunday davlatlar safiga kirmadi. Jahon miqyosida Yaponiya rolining oshishi, uning iqtisodiy qudrati Markaziy Osiyo davlatlari bilan o‘zaro manfaatli hamkorlik olib borishni taqozo etmoqda.

**Yaponiyaning Markaziy Osiyo davlatlari bilan munosabatlarining rivojlanishini 3 bosqichga bo‘lish mumkin:**

**Birinchi bosqich,** MO davlatlari mustaqil bo‘lgandan 1997-yilgacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi. Markaziy Osiyo davlatlarini iqtisodiy yordam strategiyasi orqali o‘ziga jalb etish Yapon diplomatiyasining asosiy vazifasi edi. Shuning uchun, Yaponiya Markaziy Osiyo davlatlari mustaqilligining dastlabki yillarida asosiy diqqat e’tiborini mintaqadagi davlatlarga gumanitar va iqtisodiy sohadagi yordamga qaratgan edi. Bu quyidagilar bilan izohlanadi:

**1)** Yaponiya Markaziy Osiyo davlatlarini Osiyo Taraqqiyot Bankiga qo‘shilishida katta yordam berdi<sup>67</sup>;

**2)** Yaponiya Markaziy Osiyo davlatlarida mahalliy yapon va xalqaro korxonalar ishtirokida qo‘shma korxonalar yaratishni maqsad qildi;

Yaponiya Tashqi ishlar vaziri Michio Vatanabening Markaziy Osiyoga tashrifi natijasida Yaponiya va mintaqada davlatlari o‘rtasida diplomatik munosabatlar o‘rnatildi. Yaponiyaning

<sup>65</sup> Karimov I. *O‘zbekiston XXI asr bo‘lag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari.* - Toshkent: O‘zbekiston, 1997.-8b.

<sup>66</sup> *Strategic Assessment of Central Eurasia*, The Atlantic Council & Central Asia – Caucasus Institute, SAIS, Washington DC, 2006, p.8

<sup>67</sup> Regional Cooperation Strategy and Program for Central Asia Regional Economic Cooperation (CAREC) Member Countries (Azerbaijan, Kazakhstan, Kyrgyz Republic, Mongolia, People’s Republic of China, Tajikistan, Uzbekistan) 2005-2007,” Asian Development Bank, July 2004, p. 32

sa'y-harakatlari tufayli Markaziy Osiyo davlatlari Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkilotining **“Taraqqiyotga rasmiy ko'mak”** dasturi orqali tashqi yordam olishni boshladi<sup>68</sup>. Bugungi kunga qadar bu dastur orqali 2,5 mlrd dollar miqdorida ko'mak oldi. Yaponiya esa shu dastur orqali iqtisodiy, gumanitar, texnik sohada mintaqqa mamlakatlariga yordam ko'rsata boshladi.

Lekin birinchi bosqichda Yaponiyaning maqsadlari to'liq amalga oshmadi. Bunga mintaqadagi beqarorlik va Yapon korxonalarining tavakkalchi harakatlari sabab bo'ldi.

**Ikkinchi bosqich**, 1997–2004-yillarni o'z ichiga olib Ryutaro Xasimotoning “Yevroosiyo diplomatiyasi” deb nomlanadi<sup>69</sup>. Keyinchalik bu konsepsiyani rivojlantirish uchun “Ipak yo'li diplomatiyasi” deb nomlangan harakat dasturi qabul qilindi. Yaponiya va Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi hamkorlikni sarhisob qilganda bu davrni davlatlar o'rtasidagi diplomatik munosabatlarning rivojlanishining boshlanishi, davlat rahbarlarining tashrifi, iqtisodiy munosabatlarni amalga oshirishni rejalashtirish davri sifatida tarix sahnasidan joy oldi.

**Uchinchi bosqich**, 2004-yildan hozirga qadar bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Yaponiya Markaziy Osiyo mintaqasida o'zining rolini kuchaytirish maqsadida iqtisodiy, siyosiy va xavfsizlik sohalarida o'zining bir qancha loyihalarini taklif etmoqda. Yaponiya tashqi ishlar vaziri I. Kavaguchining 2004-yil avgust oyida Markaziy Osiyoning to'rtta davlatiga tashrifidan so'ng “Yaponiya + Markaziy Osiyo”<sup>70</sup> muloqot mexanizmi o'z faoliyatini boshlandi. “Markaziy Osiyo + Yaponiya” muloqot mexanizmi Yaponiyaning Markaziy Osiyo davlatlari bilan ikki tomonlama va ko'p tomonlama munosabatlarida yangi bosqich bo'ldi. Bu muloqot mexanizmida Yaponiya o'zining MODagi tashqi siyosiy manfaatlarini aks ettirgan.

Agar “Yevroosiyo diplomatiyasi” bilan solishtirganda, Kunchiqar mamlakatning ayniqsa Tashqi ishlar vazirligining **“quyidan yuqori”**ga tamoyili asosida qaror qabul qilishi natijasida bu muloqot ma'lum bir ma'noda institutsional rivojlanish tus olmoqda<sup>71</sup>.

Yaponiya tashabbusi ostida 2004-yil 28-avgustdagi “Markaziy Osiyo + Yaponiya” muloqot mexanizmi, yangi muzokaralar shaklida mintaqqa mamlakatlari bilan hamkorlikning qo'shimcha hujjatini yaratish maqsadida, vazirlar darajasida o'tkazila boshlandi. Bu tashabbus quyidagi omillarni o'z ichiga oladi:

- a) Markaziy Osiyo mintaqasida tinchlik, barqarorlikni ta'minlash, demokratiyani rivojlantirish;
- b) Iqtisodiy islohotlar orqali mintaqqa davlatlarining rivojlanishini ta'minlash;
- d) Transmilliy tahdidlarga qarshi kurashish;
- e) Yaponiya va Markaziy Osiyo o'rtasidagi madaniy aloqalarni rivojlantirish va kengaytirish;
- f) Energetika va atrof-muhitni himoya qilish sohasida hamkorlik;
- g) Mintaqalararo hamkorlikni rivojlantirish;

Shuni ta'kidlash joizki, MODa transmilliy tahdidlar, tovarlarning mintaqqa davlatlaridan noqonuniy olib o'tilishi, suv va ekologik muammolar kabi yolg'iz mintaqqa davlatlari hal qilishi qiyin bo'lgan muammolar mavjud. Bu muammolar ertami-kechmi boshqa mintaqalarga ham ta'sir qilishini hisobga olgan holda, hamda MODa xavfsizlikni ta'minlash uchun mintaqalararo hamkorlikning ahamiyati yuqoridir. Masalan, Markaziy Osiyo umumiy bozorni shakllantirishga urinishlari mintaqaviy hamkorlikning rivojlanishidan dalolat beradi. Afg'onistondagi tinchlikning ta'minlanishi MONing gullab yashnashi va barqarorligi uchun juda muhim.

<sup>68</sup> “Plan Approved for Aid to Central Asia,” The Daily Yomiuri, October 24, 1992, p. 1.

<sup>69</sup> Address by Prime Minister Ryutaro Hashimoto to the Japan Association of Corporate Executives (Provisional Translation), Prime Minister of Japan and His Cabinet (Kantei), July 24 1997, <[www.kantei.go.jp/foreign/0731\\_douyukai.html](http://www.kantei.go.jp/foreign/0731_douyukai.html)> (October 30, 2005).

<sup>70</sup> “Joint Statement ‘Central Asia + Japan’ Dialogue/Foreign Ministers’ Meeting —Relations between Japan and Central Asia as They Enter a New Era,” Japan Ministry of Foreign Affairs, August 28, 2004, <[www.mofa.go.jp/region/europe/dialogue/joint0408.pdf](http://www.mofa.go.jp/region/europe/dialogue/joint0408.pdf)> (October 30 2005).

<sup>71</sup> См; Юаса Т.Строительство двустороннего партнерства в рамках диалога «ЦА+Я»//Казахстанско-японско сотрудничество; состояние и перспективы; материалы международного «круглого стола»,5 декабря 2006 г,Алматы; КИСИ при Президента РК. 2007.С.33



"Afg'onistonda tinchlikni ta'minlash va qayta qurishda mintaqalararo hamkorlikni kuchaytirish umumiy maqsadimiz hisoblanadi"<sup>72</sup>.

So'nggi paytlarda Tokio "Markaziy Osiyo + Yaponiya" muloqoti mexanizmi doirasida har xil darajadagi tashrif va uchrashuvlarni ko'paytirish evaziga bu muloqot mexanizmining rolini kuchaytirmoqda. 2006-yil fevralda Ostonada muloqotda qatnashchi mamlakat rahbarlarining uchrashuvi bo'lib o'tdi, bir qancha oy o'tib iyunda Tokiyoda Tashqi ishlar vazirlarining uchrashuvi bo'lib o'tdi<sup>73</sup>.

Mashhur qozoq siyosatchisi Murat Laumulinning fikriga ko'ra, 2006-yil avgustda Kunchiqar yurt bosh vaziri J. Koidzumining O'zbekiston va Qozog'istonga tashrifi "ramziy ma'noga ega edi, chunki Yaponiyaning MOsiga nisbatan noaniq siyosati va strategiyasi davri tugadi"<sup>74</sup>. Bu tashrifdan so'ng yapon hukumati o'zining real qiziqishlarini e'lon qila boshladi.

2006-yil iyundagi Yaponiya va Markaziy Osiyo tashqi ishlar vazirlari uchrashuvidan so'ng "Markaziy Osiyo+Yaponiya" muloqot mexanizmi doirasida Yaponiya tashqi ishlar vaziri T. Aso "**Markaziy Osiyoni tinchlik va barqarorlik hududiga aylantirish**" g'oyasini ilgari surdi<sup>75</sup>. Bu g'oya uchta yo'nalishni o'zida mujassamlashtirdi:

1. Uzoq muddatli istiqbolni hisobga olgan holda MOga yaqinlashish;
2. Ochiq mintaqaviy hamkorlikni qo'llab-quvvatlash;
3. Umumiy universal qadriyatlarga asoslangan holda hamkorlik qilish;

**Yaponiyaning mintaqaviy tashabbuslarining tahlili uning Markaziy Osiyoda quyidagi tashqi siyosat manfaatlarining mavjudligini ko'rsatadi:**

**1. Markaziy Osiyo energiya resurslaridan foydalanishni kengaytirish hisobiga Yaponiya davlatning energiya xavfsizligini ta'minlash.** Yaponiya neftning asosiy qismini Yaqin Sharq mamlakatlaridan (87,9 %) <sup>76</sup> import qiladi. Bu mintaqadagi yuqori darajadagi ziddiyatlarni hisobga olgan holda (Isroil-Falastin qarama qarshiligi, Iroqdagi siyosiy vaziyatning kuchayishi, AQSh va G'arbning Eronning yadro dasturiga nisbatan bosimining kuchayishi) Yaponiya energiya resurslarini barqaror va to'xtovsiz yetkazib berishni kafolatlovchi hamkor qidira boshladi. Ikkinchidan, arab dunyosiga bog'liqligini ma'lum darajada kamaytirishga harakat qilmoqda. 2006-yil Ostonaga tashrifidan oldin Kunchiqar yurt bosh vaziri D Koidzumi Yaponiyaning MO energiya resurslariga qiziqishi haqida "*Yaponiyaning energetika strategiyasini amalga oshirishda Yaqin Sharq mamlakatlariga juda ham bog'liq bo'lishi yaxshi emas. O'zbekiston va Qozog'iston ulkan tabiiy zaxiralarga ega*". Bu qisqa fikr Yaponiyaning MOdagi dastlabki manfaati - **energiya resurslariga bo'lgan ehtiyoji** ekanligidan guvohlik beradi. 2010-yil avgust Toshkent uchrashuvida Qozog'iston va Yaponiya o'rtasida "Yadro energetikasidan tinchlik yo'lida foydalanish" kelishuvining imzolanganligi dastlabki amaliy qadamlardan darak beradi<sup>77</sup>.

Shuningdek, Yaponiya Turkmaniston-O'zbekiston-Qozog'iston-Xitoy-Koreya-Yaponiyagacha yetib boradigan "**Asr loyihasi**" deb nomlanadigan tranzit truboprovod yo'lagini qurish loyihasini faol qo'llab-quvvatlamoqda.<sup>78</sup> 2009-yil dekabr oyida Turkmaniston Prezidenti Gurbanguli Berdimuhamedov Yaponiyaga tashrifi chog'ida ham bu loyiha amalga oshirish uchun dastlabki shart-sharoitlar yaratilganligini ta'kidladi<sup>79</sup>.

<sup>72</sup> Japan is in fact a significant player in Afghanistan as well. The process of economic revival of post-Taliban Afghanistan was inaugurated in Tokyo in 2002 with Japan being one of the most important donor for the country. Refer to: "International Conference on Reconstruction Assistance to Afghanistan," Japan Ministry of Foreign Affairs, January 2006, <[www.mofa.go.jp/region/middle\\_e/afghanistan/min0201/index.html](http://www.mofa.go.jp/region/middle_e/afghanistan/min0201/index.html)> (October 30, 2005).

<sup>73</sup> Qozog'istondagi Yaponiya elchixonasiing rasmiy sayti: <http://www.kz.emb.japan.go.jp/en/relation/oda/index.html>.

<sup>74</sup> Лаумулин М.Т "Стратегия Японии в Евразии"/материалы международного «круглого стола».5 декабря 2006г.

<sup>75</sup> Основные положения речи Министра иностранных дел Японии Т.Асо «К трансформации Центральной Азии в Коридор мира и стабильности»;1 июня 2006 г./<http://www.emb-japan.go.jp>.

<sup>76</sup> Japan Today axbort agentligining sayti : <http://www.japantoday.ru/ekonomika/>.

<sup>77</sup> Yaponiya TIVning rasmiy sayti : [http://www.mofa.go.jp/announce/event/2010/3/0315\\_02.html](http://www.mofa.go.jp/announce/event/2010/3/0315_02.html)

<sup>78</sup> Uzbekistan Central Asia:"Двусторонние отношения между Японией и Туркменистаном"2007г.№7 ст.28-29

<sup>79</sup> Yaponiya Tashqi Ishlar Vazirligi rasmiy sayti:[http://www.mofa.go.jp/announce/announce/2010/6/0615\\_03.html](http://www.mofa.go.jp/announce/announce/2010/6/0615_03.html)

Yaponiyaning mintaqa davlatlari bilan energetika sohasida hamkorlikni rivojlantirishi va chuqurlashtirishidan quyidagi faktlar guvohlik beradi:

- 2006 yil mayda Yaponiya Iqtisod, savdo, sanoat vazirligi **“Yangi milliy energetika strategiyasi”**ni e’lon qildi<sup>80</sup>. Bunda boy energiya resurslarga ega davlatlar bilan aloqalarni kengaytirish alohida aytib o’tilgan edi. Bu loyihani amalga tatbiq qilish uchun xom ashyoni qazib chiqarish, qayta ishlash va etkazib berish bo’yicha salohiyatli tansmilliy korpooratsiyalarni tashkil qilish ko’zda tutildi. Masalan, bugungi kunda Yapon kompaniyalarning neftni qazib chiqarishdagi ulushi 15 foiz bo’lsa, 2030-yilgacha 40 foizga yetishi mo’ljallangan<sup>81</sup>.

**2. Yaponiyaning manfaatlaridan biri iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish va o’z mahsulotlari uchun qulay bozor qidirishdir.** Bundan quyidagi Kunchiqar yurt hukumati tomonidan va MO davlatlari iqtisodiyot, sanoat, moliya, madaniyat, transport, kommunikatsiya vazirlarining tashriflar yaqqol guvohlik beradi. 2009–yil 15-avgustda Yapon-O’zbek investitsiya ittifoqining imzolanishi iqtisodiy aloqalarning kengayib O’zbekistonda Yapon investitsiyasi va kompaniyalar sonining ko’payishiga turtki bo’ldi. Sumimoto Korporeyshn, Isudzu, Itochu, Mitsubisi Korporeyshn kabi kompaniyalar faol harakat qilmoqda. Qozog’iston, Qirg’iziston va Tojikistonda ham yapon kompaniyalari o’z o’rniga ega bo’lib ulgurdi.

**3. Kunchiqar yurtning mintaqadagi davlatlar bilan hamkorlikdagi yana bir manfaati bu Rossiya va Xitoyning MO mintaqasida haddan tashqari ta’sirining kuchayishiga yo’l qo’ymaslik hisoblanadi.** Yaponiya–Xitoyning xalqaro maydondagi raqibi hisoblanadi. Osiyo-Tinch okeani mintaqasida liderlikka da’vogarlik Xitoy bilan munosabatlarni chigallashtirmoqda.

Yana shuni ta’kidlash joizki, Yaponiyaning Xitoy va Rossiya bilan qarama qarshiligi Markaziy Osiyo mintaqasida ham kuchaymoqda. Bu mintaqada Xitoy rolining kuchayishi, Rossiya va Xitoy munosabatlarining mintaqaviy tashkilot doirasida hamkorligining chuqurlashishi bilan bog’liq. Mana shu jihatdan Shanxay hamkorlik tashkilotining mintaqa xavfsizligini ta’minlashda rolining oshishi, shuningdek, Rossiya va Xitoy energetika kompaniyalarning MOda faollashuvi Yaponiyani bezovta qilmoqda. Chunonchi, bu harakatni Yaponiya Rossiya va Xitoyning MOga bevosita siyosiy va iqtisodiy ta’sirining kuchayishi deb hisoblamoqda. Bu esa Kunchiqar yurtning mintaqada istiqbolli manfaatlarini olg’a surishda to’sqinlik qilishi mumkin.

2006-yil 5-iyunda Tokiyoda “Markaziy Osiyo + Yaponiya” muloqotida qatnashayotgan mamlakat Tashqi ishlar vazirlarining uchrashuvi bo’lib o’tdi. Uchrashuvdan asosiy maqsad – yaqin kelajakda Yaponiya va MO hamkorligining ustuvor yo’nalishlarini aniqlaydigan **“Harakat dasturi”** qabul qilindi. Bu loyiha doirasida quyidagi qarorlar qabul qilindi:

- doimiy ravishda Tashqi ishlar vazirlarining uchrashuvini o’tkazish;
- mintaqada xavfsizlikni ta’minlashda Yaponiya va MO hamkorligini chuqurlashtirish: bu chegaralarni mustahkamlash, narkotrafikni oldini olish va terrorizmga qarshi kurashish;
- qashshoqlikka qarshi kurashda va ekologik muammolarni hal qilishda Yaponiyaning mintaqa davlatlari bilan aloqalarini kengaytirish;<sup>82</sup>

2010-yil 7-avgustda „Markaziy Osiyo + Yaponiya“ muloqot mexanizmi doirasida TIVning navbatdagi uchrashuvi bo’lib o’tdi. O’zbekiston Tashqi ishlar vaziri V. Norov „Harakat dasturi“dagi yo’nalishlar deyarli bajarilganligini va MO iqtisodiy integratsiyasi, shuningdek, mintaqada tinchlikka yo’naltirilgan yangi harakatlar qabul qilinishini ta’kidladi<sup>83</sup>.

Bundan tashqari tomonlar Markaziy Osiyo nefti, tabiiy gazi, va boshqa xomashyolarni jahon bozoriga olib chiqishning yangi yo’llarini loyihalashtirish, ya’ni Afg’oniston orqali Hind okeaniga olib chiqishni kelishib oldilar. Shuni aytib o’tish kerakki, harakat dasturining qabul qilinishi

<sup>80</sup> Yaponiya Iqtisod, savdo, sanoat vazirligi rasmiy sayti: <http://www.kantei.go.jp/foreign/0731douyukai.html>

<sup>81</sup> Uzbekistan Cental Asia “Япония+ЦА; Текущее сотрудничество и перспективы развития” .2007||07.ст 21

<sup>82</sup> Japan Times”Общие интересы в Центральной Азии” 30 августа 2007 г.

<sup>83</sup> O’zbekiston Respublikasi TIVning rasmiy sayti: [http://mfa.uz/rus/prensa\\_i\\_media\\_servis/news/vistuplenie\\_ministra\\_id\\_po\\_itogam\\_tretego\\_soveshaniya\\_smid.mgr](http://mfa.uz/rus/prensa_i_media_servis/news/vistuplenie_ministra_id_po_itogam_tretego_soveshaniya_smid.mgr).

Yaponiyada mintaqa davlatlari bilan kompleks aloqalarni rivojlantirish uchun aniq maqsadlar borligidan dalolat beradi.

#### **4. Yaponiya va O'zbekiston: Yangi strategik hamkorlikning O'zbekiston diplomatiyasi uchun ahamiyati.**

Yaponiya O'zbekiston mustaqilligini birinchilar qatorida tan olgan davlatlardan biridir. O'zbekiston istiqbolga erishgan ilk yillardan boshlab Yaponiya mamlakatimiz bilan yaqin hamkorlik aloqalarini o'rnatib, yurtimizdagi keng ko'lamli islohotlarni qo'llab-quvvatlab kelmoqda. Ta'kidlash joizki, O'zbekiston va Yaponiya, geografik uzoqlikka qaramay, bir-biriga ancha yaqin davlatlardir. O'zbekiston uchun Osiyo-Tinch Okeani mintaqasi mamlakatlari bilan aloqalarni kengaytirishda Yaponiya bilan munosabatlar muhim o'rin tutadi. Kunchiqar mamlakatning yuqori texnologiyalari va sarmoyasi savdo-iqtisodiy aloqalarni ravnaq toptirishda muhim omil bo'lmoqda.

Yaponiya Bosh vazirining tashabbusi bilan bu mamlakat tashqi siyosatida «Ipak yo'li diplomatiyasi», «Markaziy Osiyo + Yaponiya» muloqoti shakllangan. Yaponiya Markaziy Osiyodagi integratsiya jarayonlarini keng qo'llab-quvvatlab kelmoqda. Yaponiya O'zbekiston bilan siyosiy muloqotlarni faollashtirish, bu yerda mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirish, biznes, madaniyat va ilm-fan sohalarda aloqalarini kengaytirishga katta qiziqish bilan qaraydi. Shuningdek, Yaponiya O'zbekiston rahbarining Markaziy Osiyo “Umumiy bozorini” shakllantirish tashabbusini ham yuksak baholaydi. Afg'onistondagi tiklanish ishlarida O'zbekiston bilan yaqindan hamkorlik qilish tarafdori.

1992-yil 26-yanvarda Yaponiya va O'zbekiston o'rtasida diplomatik munosabatlar o'rnatildi. 1993-yil Toshkentda Yaponiyaning elchixonasi ochildi. 1996-yil fevralda esa Tokiyoda O'zbekistonning Yaponiyadagi elchixonasi ochildi.<sup>84</sup>

O'zaro aloqalar O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning 1994-yil may oyida Yaponiyaga birinchi rasmiy tashrifidan so'ng ayniqsa faol tus oldi.

O'zbekiston yetakchisining 2002-yilda ikkinchi rasmiy tashrifi chog'ida O'zbekiston bilan Yaponiya o'rtasida **“Do'stlik, strategik sheriklik va hamkorlik to'g'risidagi qo'shma bayonot”** bugungi kunga qadar aloqalarning asosi bo'lib kelmoqda.

Uning doirasida quyidagi bayonot va tashriflar amalga oshirildi:

-“O'zbekiston Respublikasi bilan Yaponiya o'rtasida iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish va O'zbekistondagi iqtisodiy islohotlarga ko'maklashish to'g'risidagi qo'shma bayonot”;

-Yaponiya Bosh vaziri Junichiro Koidzumining O'zbekiston Mustaqilligining 15 yilligi arafasida 2006-yil 29-avgustda O'zbekistonga tashrifi chog'ida ikki davlat rahbarlari “Yaponiya atom elektrostansiyalari uchun O'zbekistondan uran xomashyosini olib chiqishining istiqbollari” to'g'risida kelishuv;

-“O'zbekistonda yapon sarmoyasi bilan ishtirokida neft-gaz konlarini o'zlashtirish to'g'risida kelishuv”;

- O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov 2007-yil 27-aprel kuni Yaponiyaning iqtisodiyot, savdo va sanoat vaziri Akira Amarini qabul qildi. Bu uchrashuv chog'ida ikki tomonlama iqtisodiy aloqalar tahlil qilindi.

O'z navbatida Yaponiya siyosiy doiralarning ko'zga ko'ringan vakillaridan biri Liberal-demokratik partiyaning parlamentdagi deputati Koki Chuma shunday dedi: “Yaponiya Bosh vaziri J.Koidzumi O'zbekistonga tashrifi chog'ida mamlakatda jamiyatni demokratlashtirish jarayonlariga yuksak baho berdi va respublikaning bozor iqtisodiyoti yo'lida oldinga tomon harakatlanishida Yaponiya o'z ko'magini ko'rsatishga tayyor ekanini bildirdi”.<sup>85</sup> Bular hamkorlikning yanada faollashishiga kuchli turtki berdi.

<sup>84</sup> <http://www.mofa.go.jp/region/europe/uzbekistan/index.html>

<sup>85</sup> Центральная Азия: “Геоэкономика геополитика безопасность” ст.143-44 Тошкент.

2006-yilda Tokiyoda “O‘zbekiston madaniyati va san’ati forumi” jamg‘armasining vakolatxonasi ochilgani madaniy-gumanitar sohadagi ikki tomonlama hamkorlikni rivojlantirishdagi muhim voqea bo‘ldi”, – deya qayd etadi “Nikkan kogyo”.<sup>86</sup>

Hozirda mamlakatimizda to‘qqizta O‘zbekiston-Yaponiya qo‘shma korxonasi faoliyat ko‘rsatmoqda. Ular yengil sanoat, mashinasozlik, savdo, transport xizmati, sayyohlik sohalarida ish yuritadi. O‘zbekistonda Yaponiya Xalqaro hamkorlik agentligi (JICA) va Tashqi savdo tashkilotining (JETRO), «Mitsui», «Mitsubishi», «Sumimoto», «Nishe Ivai», «Itochu», «Toyota Suse» kabi 21 yirik korporatsiyaning vakolatxonasi ochilgan. Yaponiya sarmoyasi ishtirokida mamlakatimizda o‘ndan ortiq strategik ahamiyatga molik loyihalar amalga oshirilmoqda.

JICA moliyaviy ko‘magida va “Taraqqiyotga rasmiy yordam” dasturi doirasida 10 dan ortiq loyihalar amalga oshirilgan. Umuman, o‘zaro diplomatik munosabatlar o‘rnatilganidan keyingi davrda Yaponiyaning O‘zbekistonga kiritgan sarmoyasi hajmi salkam 2 milliard AQSh dollariga etdi.<sup>87</sup>

2008-yil 18-iyul kuni Yaponiya moliya vaziri Fukushiro Nukaga O‘zbekistonga tashrif buyurdi. Yaponiyadagi yetakchi kundalik nashrlardan biri – “Nikkan kogyo” (“Biznes va texnologiyalar”) Yaponiya bilan O‘zbekiston o‘rtasidagi hamkorlik xalqaro tashkilotlar doirasida ham kengayib borayotganini ta’kidlar ekan, har ikki davlat BMTning global muammolarni hal etishdagi ahamiyatini yuksaltirishni yoqlayotganiga e’tibor qaratadi. Shu o‘rinda nashr Yaponiyaning jahon iqtisodiyotidagi o‘rni va ahamiyatini, uning yuksalib borayotgan siyosiy nufuzini inobatga olgan holda O‘zbekiston BMT Xavfsizlik Kengashi doimiy a’zoliciga Yaponiya nomzodini qo‘llab-quvvatlayotganini qayd etadi.

Junichiro Koidzumi 2002-yilda imzolangan “Do‘stlik, strategik sheriklik va hamkorlik to‘g‘risidagi qo‘shma bayonot” kelgusida ham o‘zaro munosabatlarni rivojlantirish uchun muhim asos bo‘lib qolaverishini ta’kidladi<sup>88</sup>.

Hamkorlikning O‘zbekiston diplomatiyasi uchun ahamiyati xususida gap ketganda iqtisodiy, siyosiy, madaniy va geosiyosiy ahamiyatini ko‘rish mumkin. Hozirgi kunda O‘zbekiston iqtisodini rivojlantirish uchun to‘g‘ridan to‘g‘ri sarmoyaga ehtiyoj sezmoqda. Yaponiya sarmoyasi mamlakatni rivojlantirish uchun muhimdir. Iqtisodiy rivojlanishning “yapon modeli”ni qabul qilib rivojlanish ayni muddaodir.

“Markaziy Osiyo+Yaponiya” muloqoti doirasidagi fikrlar almashinuvi mamlakat barqarorligi va demokratiyani rivojlantirish uchun asos bo‘lishi mumkin. Yaponiya bilan hamkorlik O‘zbekistonni jahon hamjamiyatiga barqaror rivojlanayotgan davlat sifatida namoyon qilishi mumkin. Yaponiya bilan aloqalar Markaziy Osiyoda geosiyosiy kuchlar muvozanatining saqlanishiga yordam beradi.

#### **Xulosa:**

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda xulosa qiladigan bo‘lsam, quyidagilarni aytib o‘tish lozim deb hisoblayman. Shubhasiz, Yaponiya hozirgi paytda tashqi siyosiy pozitsiyasini mustahkamlashga qattiq harakat qilmoqda. Dunyoda o‘z o‘rniga ega bo‘lish oldinga qo‘yilgan maqsadlarning birlashtiruvchi nuqtasidir. Bu haqida Yaponiyaning oxirgi yillardagi faoliyati ham guvohlik beradi.

Birinchiidan, Yaponiya xalqaro tashkilotlarda faqat moliyaviy tomondan ishtirok etishni to‘xtatib, endi Yaponiya ichki tartibni saqlovchi o‘zini himoya qilish kuchlari tashkilotning tinchlikni o‘rnatilgan operatsiyalarda ishtirok etmoqda. Misol uchun, Afg‘onistondagi faoliyatni ko‘rish mumkin. Bu holat Yaponiyaning roli o‘zgarib borayotganini ko‘rsatadi.

Ikkinchiidan, AQSH bilan aloqalar tashqi siyosiy faoliyatning ustuvor yo‘nalishlaridan

<sup>86</sup> “Nikkan kogyo” nihonno shinbun\ \tokio asa#12.(145) 2006.

<sup>87</sup> Uzbekistan Central Asia: “Япония +ЦА; Текущее сотрудничество и перспективы развития” 2007 г, № 7 ст16-36

<sup>88</sup> Xalq so‘zi 2006 yil 29 avgust soni, <http://www.gov.uz/en/content.scm?contentId=22361>

biri bo'lishiga qaramay, AQSH bilan o'zaro foydali ittifoqni saqlab qolgan holda, iloji boricha Yaponiya AQShga siyosiy qaramlikni maksimal darajada ozaytirishga harakat qilmoqda.

Uchinchidan, Yaponiya faol tashqi siyosatida asosiy kuchni mintaqaviy lider davlatga aylanishni, keyinchalik esa dunyodagi eng kuchli lider davlat darajasiga ko'tarilishga yo'naltirilmoqda. Bu haqida so'z ketganda Yaponiyaning dunyodagi AQSh, Rossiya, Xitoy kabi buyuk davlatlar hamda Yevropa Ittifoqi, Hindiston, Braziliya kabi boshqa xalqaro munosabatlarning asosiy ishtirokchilari bilan siyosiy ta'sirning yetarli darajada qudratli ekanligini ta'kidlash zarur deb hisoblayman. Chunki bu kabi yirik davlatlarning kuchlar mutanosibligi va manfaatlari butun sayyoramizdagi tinchlik va barqarorlikni ta'minlovchi zarur shart hisoblanadi.

To'rtinchidan, Yaponiya BMT, “Katta sakkizlik”, Milliy Valyuta Fondi kabi xalqaro tashkilotlarda o'z o'rnini oshirishga intilmoqda.

Beshinchidan, Yaponiya Osiyo-Tinch Okeani mintaqasidagi barcha davlatlarning iqtisodiy jihatdan integratsiyaga kirishiga qiziqish bildirmoqda. Bu haqida Yaponiyaning Janubiy Sharqiy Osiyo davlatlari bilan yaqin aloqalarning olib borilayotgani ham guvohlik beradi.

Shu tariqa, Yaponiya Uzoq Sharqqa xos bo'lgan siyosatning muhim qutblaridan biri sanalib, jahon siyosatida o'zining muhim o'rniga ega bo'lishga va butun dunyoviy jarayonlarga o'z ta'sirini oshirishga harakat qilmoqda.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Цыганков П.А. Международные отношения: Учеб. пособие - М.: Новая шк., 1996
2. Д. Стрельцов. Япония и «Восточноазиатское Сообщество» взгляд со стороны.// МЕИМО, 2007, № 2, с. 57-66.
3. У.Магосаки, «Определение национальных интересов Японии в нашей эпохе – стартовая точка ее внешней политики», журнал Токийского фонда №11, 2005 г.
4. Виталий Чуркин: в Совбезе ООН не должно быть больше 20 непостоянных членов [www.viperson.ru](http://www.viperson.ru)
5. С. Чугров, Япония: вновь в поисках идентичности? // Мировая экономика и международные отношения. - 2003. - N 12. - С.72-80.
6. Morgenthau Hans. Politics among Nations: the Struggle for Power and Peace. N.Y., 4-th edn., 1978
7. Diplomatic Bluebook 2008 Ministry of Foreign Affairs, - Japan, Summary April 2008

## MAMLAKATIMIZDA FAOL INVESTITSIYALAR JALB ETISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHNING AYRIM MASALALARI

**Choriyev Bahrom To‘rayevich**

Surxondaryo viloyati yuridik texnikumi  
Jinoiy-Huquqiy fanlar kafedrası o‘qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada investitsiya faoliyatining samarali tashkil etilishi uning huquqiy jihatdan ta‘minlanganlik darajasiga bog‘liqligi, sohadagi yutuqlar bilan bir qatorda ayrim kamchiliklar ham mavjudligi, Investorlar uchun birinchi navbatda kafolatlanishi zarur bo‘lgan sohalarni huquqiy jihatdan tartibga solishga ehtiyoj sezilayotganligi hamda mahalliy davlat hokimiyati organlariga o‘z vakolatlari doirasida hududdagi investitsiya muhitini yanada takomillashtirish maqsadida istiqbolli investitsiya loyihalarini ro‘yobga chiqarish borasida tegishli takliflarni ko‘rib chiqish va chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalarining rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash kabi asosiy tushuncha va masalalar o‘rin olgan.

**Kalit So‘zlar:** investitsiya, xorijiy sarmoya, qiymat, erkin iqtisodiy zonalar, pay fondlari, investitsiya kodeksi konsepsiyasi, investitsiya vizasi, istiqbolli investitsiya, chet el investorlar va boshqalar.

Ma‘lumki, mamlakat iqtisodiyotining taraqqiyoti bevosita investitsiyalar oqimiga bog‘liq. Bu borada mamlakatimizda mazkur sohani rivojlantirishga qaratilgan sezilarli ishlar amalga oshirilmoqda. Bu borada qabul qilingan Harakatlar strategiyasida ilgari surilgan g‘oyalarni hayotga joriy etish, qolaversa mamlakatimiz iqtisodiyotini tarkibiy o‘zgartirish, tarmoqlarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilashga doir loyihalarni amalga oshirish uchun xorijiy investitsiyalarni jalb qilish hamda investorlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Darhaqiqat, 2021-yilning o‘zida barcha manbalar hisobidan o‘zlashtirilgan investitsiyalarning qariyb 41 foizini to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy sarmoyalar tashkil etdi. Shuningdek, sanoati rivojlanmagan, olis tumanlarga ham katta investitsiyalar kirib bordi. Umumiy qiymati 5,9 milliard dollar bo‘lgan 201 ta tarmoq va 189 ta hududiy loyihalar ishga tushirilgan bo‘lsa, bu ko‘rsatgich 2022-yilda 1679 ta xususiy va to‘g‘ridan to‘g‘ri investitsiya loyihalari amalga oshirilishiga zamin yaratdi. Mazkur dasturga asosan shu yilda qariyb 300 trillion 500 milliard so‘m, jumladan 8,1 milliard dollar miqdorida to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar va kreditlar o‘zlashtirilganligini alohida ta‘kidlash zarur hisoblanadi.

Investitsiya faoliyatining samarali tashkil etilishi uning huquqiy jihatdan ta‘minlanganlik darajasiga ham bog‘liqdir. O‘tgan yillar davomida to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalarni jalb etish uchun qulay investitsiya muhitini shakllantirish, chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalarining samarali faoliyat yuritishi uchun bir qator islohotlar amalga oshirildi.

Ammo, sohada yutuqlar bilan bir qatorda ayrim kamchiliklar ham mavjud. Xususan, amaldagi investitsiya to‘g‘risidagi qonun hujjatlari huquqni qo‘llash amaliyotida ayrim murakkabliklarni keltirib chiqarayotgan edi. Aniqroq qilib aytganda, investitsiya faoliyati va chet el investorlari huquqlarini himoya qilish bilan bog‘liq aksariyat tartib-taomillar tarqoq holda bir nechta qonunlar bilan tartibga solinganligi, aksariyat qoidalarning takrorlanishi, shuningdek ayrim muhim masalalar qonun darajasida emas, balki nizom va yo‘riqnomalar bilan belgilanganligi ular o‘rtasida ba‘zi nomuvofiqlik va qarama-qarshiliklarni vujudga keltirayotgan edi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida investitsiya muhitini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5495 sonli Farmonida belgilanganidek, investitsiya kiritish uchun eng qulay sharoitlar yaratishga qaratilgan, investitsiya faoliyati sohasidagi unifikatsiya qilingan qonun hujjati loyihasini yanada takomillashtirib tez fursatda hayotga tatbiq etish zarur edi. Dastlab investitsiya sohasidagi yagona hujjat sifatida Investitsiya kodeksi konsepsiyasi ishlab chiqilib muhokamaga qo‘yildi. Keyinchalik loyiha “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi Qonun nomini oldi. Mazkur qonun “Chet el investitsiyalari to‘g‘risida”, “Investitsiya faoliyati to‘g‘risida”, “Investitsiya va pay fondlari to‘g‘risida”, “Erkin iqtisodiy zonalar to‘g‘risida”, “Konsessiyalar to‘g‘risida”, “Mahsulot taqsimotiga oid bitimlar to‘g‘risida”gi qonunlar va boshqa hujjatlarda, shuningdek bir qator qonunosti hujjatlarda mavjud bo‘lgan normalarni tizimli ravishda o‘zida mujassamlashtirdi.

Shu asosda tayyorlangan “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi Qonun O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2019-yil 25-dekabr kuni imzolandi va rasmiy e‘lon qilingan kundan e‘tiboran bir oy o‘tgach kuchga kirishi belgilab qo‘yildi<sup>89</sup>.

Tuzilishiga ko‘ra mazkur qonun 12 bob, 69 moddadan iborat bo‘lgan “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi Qonun ilgari investitsiyaga oid qonun hujjatlarida mavjud bo‘lmagan yangi tartib va qoidalar bilan yanada takomillashtirildi.

Xususan:

- Investitsiyalar va investitsiya faoliyatining asosiy prinsiplari belgilandi.
- Qonun hujjatlarining investor uchun noqulay o‘zgarishlariga qarshi kafolatlari yanada mustahkamlandi.
- Mahalliy davlat hokimiyati organlarining investitsiyalarni va investitsiya faoliyatini tartibga solish bo‘yicha vakolatlari kengaytirildi.
- “Investitsiya vizasi” va uni rasmiylashtirish tartibi bo‘yicha norma kiritildi.
- O‘zbekiston Respublikasi Hukumati bilan investitsiya shartnomasi tuzish tartibi belgilandi.

Bundan tashqari ushbu qonunda ilk bor investitsiyalar va investitsiya faoliyatining asosiy prinsiplari mustahkamlab qo‘yildi. Bu esa investitsiya sohasida huquqiy tartibga solishning mazmuni va yo‘nalishlarini belgilab berdi. Mazkur prinsiplar investitsiya qilish va investitsiya faoliyatini amalga oshirish jarayonining barcha bosqichlarida qo‘llaniladi. Ushbu prinsiplar qatorida investorlarning vijdonliligi prezumpsiyasi, ularga nisbatan kamsitishga yo‘l qo‘ymaslik kabilarni alohida ta‘kidlash joiz. Bu kabi prinsiplarning qonun darajasida belgilanishi investitsiya faoliyati subyektlarining huquq va majburiyatlariga rioya etilishida muvozanatni ta‘minlashga xizmat qiladi. Ma‘lumki ilgari investorlar faoliyatining kafolatlari alohida qonun bilan tartibga solinardi. Shuningdek, ushbu kafolatlar boshqa qonun va qonun osti hujjatlarida ham tarqoq holda berilgan. Bu o‘z navbatida kafolatlar to‘g‘risidagi qoidalarni o‘z ichiga olgan turli normativ-huquqiy hujjatlar o‘rtasida takrorlanish va ziddiyatlarni keltirib chiqarayotgan edi.

Investorlar uchun birinchi navbatda kafolatlanishi zarur bo‘lgan sohalarni huquqiy jihatdan tartibga solishga ehtiyoj sezilayotgan edi. Shu maqsadda, “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi Qonunda O‘zbekiston Respublikasining keyingi qonun hujjatlari investitsiyalash shartlarini yomonlashtirsa, investitsiya kiritgan sanada amalda bo‘lgan qonun hujjatlari investorlarga nisbatan o‘sha sanadan boshlab o‘n yil mobaynida qo‘llanilishi, shuningdek, ushbu kafolatlarining aynan qaysi holatlarda amal qilishi aniq belgilab qo‘yildi.

Investorlar huquqlarining davlat tomonidan kafolatlashning bunday turi chet el sarmoyadorlari uchun qulay investitsiya muhitini yaratishda muhim rol o‘ynaydi.

<sup>89</sup> O‘zbekiston Respublikasining №594-sonli “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni. 2019 yil 25-dekabr

Bugungi kunda davlatning jamiyat hayotida tutgan o‘rni borasida turli o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, davlat boshqaruvini bosqichma-bosqich nomarkazlashtirish ko‘zda tutilgan. “Ma‘muriy islohotlar konsepsiyasi”da qayd etilganidek, davlat funksiyalari va vakolatlarining haddan tashqari markazlashganligi hududlarni rivojlantirish dasturlarini shakllantirish va aholining eng muhim muammolarini hal qilishda mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari rolining pasayishiga olib kelmoqda<sup>90</sup>. Shu boisdan, “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi Qonunda ham mahalliy davlat hokimiyati organlariga o‘z vakolatlari doirasida hududdagi investitsiya muhitini yanada takomillashtirish maqsadida istiqbolli investitsiya loyihalarini ro‘yobga chiqarish borasida tegishli takliflarni ko‘rib chiqish va chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalarining rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash kabi muhim vakolatlar berildi<sup>91</sup>. Shuningdek, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisiga, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlariga 10 mln. AQSH dollaridan kam bo‘lmagan ekvivalentda chet el investorlari bilan investitsiya shartnomalarini mustaqil tuzish huquqi berildi. Ilgari esa investitsion shartnomalar faqat hukumat darajasida tasdiqlanar edi.

Mazkur yangi tartibdan hududlardagi rahbarlar samarali foydalanib, chet ellik investorlar bilan turli sohalarda hamkorlikni yo‘lga qo‘yib, qator korxonalar faoliyatini yo‘lga qo‘ydilar. Qayd etish joizki, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturi to‘g‘risida”gi Farmonida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarining ta‘sischilari (ishtirokchilari) va ularning oila a‘zolari uchun muddatini mamlakatdan chiqmasdan uzaytirish imkoni bo‘lgan, amal qilish muddati uch yilni tashkil etuvchi “investitsiya vizasi”<sup>92</sup> joriy etilishi belgilangan edi. Farmonda belgilangan ushbu vazifa “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi Qonunda bevosita o‘z ifodasini topdi. Xususan, investitsiya faoliyatini amalga oshirish jarayonida investorlar va chet el investorlari ishtirokidagi korxonalariga chet el fuqarolari va O‘zbekiston Respublikasidan tashqarida doimiy yashovchi fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar bilan mehnat shartnomalarini erkin tuzish huquqi qonun darajasida mustahkamlanib, bunday shaxslarga mehnat shartnomasining butun amal qilish davrida ko‘p martalik vizalarni olgan holda O‘zbekiston Respublikasi hududiga kirish va uning hududida bo‘lish huquqi kafolatlandi.

Aytish lozimki, bu turdagi viza asosan mamlakatimiz hududida tovarlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko‘rsatish bo‘yicha korxonalar tashkil qilish uchun 3 million AQSh dollaridan ortiq miqdorda investitsiya kiritgan xorijiy davlatlar fuqarolariga beriladi. Shu jumladan, O‘zbekiston Respublikasida yashash guvohnomasi 10 yil muddatga soddalashtirilgan tartibda xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarining ta‘sischilariga ham taqdim etiladi. Ushbu qoidalar investorlarga malakali chet el mutaxassislarining ko‘nikmalaridan erkin foydalanish imkoniyatini yaratadi.

Davlat va chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar o‘rtasidagi munosabatlarni ta‘minlashning yana bir samarali usuli bu hukumat darajasidagi investitsiya shartnomalaridir. Darhaqiqat, Hukumat tomonidan amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar, avvalambor, iqtisodiyot tarmoqlarini, ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmalarini jadal rivojlantirish va modernizatsiya qilish, sanoat ishlab chiqarishni kompleks diversifikatsiya qilish va uning raqobatbardoshligini oshirish maqsadida tuziladigan investitsiya

<sup>90</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoyevning “Yangi O‘zbekiston ma‘muriy islohotlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni. 2022-yil 21-dekabr.

<sup>91</sup> O‘zbekiston Respublikasining №594-sonli “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni. 2019 yil 25-dekabr.

<sup>92</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi. 2017 yil 15- avgust.



shartnomalari hayotga izchil tatbiq etilishi muhim ahamiyatga ega. Ayni shu maqsadda, Qonunda O‘zbekiston Respublikasi Hukumati bilan tuziladigan investitsiya shartnomasining o‘ziga xos xususiyatlari, xususan uning tuzish tartibi, taraflari, shartlari va davlatning majburiyatlari aniq belgilab qo‘yildi.

Yuqoridagilarni inobatga olib, chet ellik investitsiyalarini faol jalb etish bo‘yicha qonun loyihasiga o‘zgartirish kiritish bo‘yicha bir qancha taklif ishlab chiqildi. Xususan:

- ichki bozorga xorijiy investitsiyalarni faol jalb qilish maqsadida chet el kapitali ishtirokidagi korxonalar uchun soliq imtiyozlari joriy etish (amaldagi tartibga ko‘ra 0.3 mln dollardan 10 mln dollargacha investitsiya olib kirgan investorlarga daromad solig‘i hamda mol-mulk solig‘idan ozod qilingan yillik imtiyozli davrni 5 yilga oshirish, 10 mln dollardan ortiq investitsiya olib kirgan investorlarga nisbatan esa solig‘idan ozod qilingan yillik imtiyozli davrni 10 yilga oshirish, qolaversa, daromad solig‘ini investorlar tomonidan olib kirgan mol-mulki nisbatiga (qiymatiga) mos ravishda belgilash tizimini yo‘lga qo‘yish);

- yuqori texnologiyali ishlab chiqarishlarni rivojlantirishga to‘g‘ridan to‘g‘ri qo‘yilmalar kiritayotgan xorijiy investorlar uchun maksimal darajada qulay investitsiya muhitini yaratish, respublika mintaqalariga xorijiy sarmoyalar va zamonaviy texnologiyalar jalb etilishi rag‘batlantirilishini kuchaytirish, xorijiy investorlar hamda xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar uchun kafolatlar va imtiyozlar tizimi qonuniy mustahkamlash;

- xorijiy investorlar va investitsiyalar uchun qulay rejimni saqlab qolish, ularni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash va ishonchli huquqiy himoyalash;

- to‘g‘ridan to‘g‘ri xususiy chet el investitsiyalarini jalb etish, chet davlatning fuqarolari bo‘lgan jismoniy shaxslar, O‘zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida doimiy yashovchi fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar, shuningdek chet ellik nodavlat yuridik shaxslar tomonidan mamlakatimizda faoliyat ko‘rsatishi uchun ishonchli kafolatlash tizimi qonun bilan mustahkamlab qo‘yish;

- yuridik shaxslar tomonidan kiritilgan to‘g‘ridan to‘g‘ri xususiy chet el investitsiyalari hajmiga qarab, er, mol-mulk solig‘i hamda suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni to‘lashdan ozod etish tarzidagi soliq imtiyozlari muddatini uzaytirish hamda reinvestitsiyaga yo‘naltirish tartibini soddalashtirish;

- investitsiya va fond bozorlarini rivojlantirish tartibini ishlab chiqish;

- sud amaliyotida izchil qo‘llanayotgan va ma‘muriy iqtisodiy darajasidan qat‘i nazar amalga oshirilayotgan ishlab chiqarish uchun investorlar, aksiyanerlar, huquqlarini himoya qilish borasida qonunchilikni ishlab chiqish.

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, mamlakatimizda qabul qilinayotgan qonun va farmonlar, xususan hukumat qarorlari chet el investorlari hamda mahalliy investorlar tomonidan amalga oshiriladigan investitsiyalar va investitsiya faoliyati sohasidagi munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan, to‘g‘ridan to‘g‘ri amal qiluvchi hujjat bo‘lib xizmat qilishi barobarida, investitsiya qonunchiligidagi ziddiyatlarni bartaraf etish, xorijiy sarmoyadorlar bilan investitsiya loyihalarini amalga oshirishda “davlat-xususiy sektor” sherikligini rivojlantirish, sarmoyadorlar kiritgan mablag‘lar xavfsizligini kafolatlash, iqtisodiy barqarorlik va moliya bozorining mustahkamlanishiga katta hissa qo‘shishi shubhasizdir.

### Foydalangan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi. 2017-yil 15- avgust.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH. Mirziyoyevning “Yangi O‘zbekiston ma‘muriy islohotlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni. 2022-yil 21-dekabr.
3. O‘zbekiston Respublikasining № 594-sonli “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni. 2019-yil 25-dekabr.
4. <http://www.lex.uz>
5. <https://www.un.org/en/>

## INVESTITSIYA HUQUQI VA UNI HUQUQ TIZIMIDAGI O'RNI

**Amirov Sanjar Ilyos o'g'li**

Qashqadaryo viloyati yuridik texnikumi o'qituvchisi

**Annotatsiya:** ushbu maqolada investitsiya huquqi va uning huquq tizimidagi o'rni nazariy jihatdan tahlil etilgan. Uning turlari va uning boshqa xorij mamlakatlarida qanday tashkil etilganligi ko'rib chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** investitsiya huquqi, xalqaro huquq, milliy qonun, moliyaviy maqsadlar, daromad, xorijiy investitsiyalar, kafolatlar.

Investitsiya huquqi, umuman olganda, investitsiyalarni tartibga soluvchi qoidalar majmuidan iborat bo'lgan huquq sohasidir. Investitsiyalar to'g'risidagi qonunchilik xorijiy investitsiyalar to'g'risidagi xalqaro huquq yoki milliy qonunchilikdan iborat bo'lishi mumkin.

Investitsiya - bu pulning o'sishiga imkon berish maqsadida yaratilgan aktivlardir. Yaratilgan boylik turli maqsadlar uchun ishlatilishi mumkin, masalan, daromad etishmasligini qoplash, pensiya uchun jamg'arma yoki kreditlarni qaytarish, o'quv to'lovlarini to'lash yoki boshqa aktivlarni sotib olish kabi muayyan majburiyatlarni bajarish.

Investitsion ta'rifni tushunish juda muhim, chunki ba'zida moliyaviy maqsadlaringizga erishish uchun to'g'ri vositalarni tanlash qiyin bo'lishi mumkin. Sizning moliyaviy ahvolingiz uchun investitsiya ma'nosini bilish sizga to'g'ri tanlov qilish imkonini beradi.

Investitsiyalar sizga ikki yo'l bilan daromad keltirishi mumkin. Birinchisi, agar siz sotiladigan aktivga sarmoya kiritsangiz sarmoya yo'li bilan daromad olishingiz mumkin. Ikkinchidan, agar investitsiyalar daromad keltiruvchi rejada amalga oshirilsa, siz daromadlarni to'plash orqali daromad olasiz. Shu ma'noda, "investitsiya nima" deganda, investitsiyalar o'z jamg'armalaringizni boshlang'ich qiymatidan qimmatroq bo'lgan yoki vaqt o'tishi bilan daromad olishga yordam beradigan aktivlar yoki obyektlarga joylashtirishdir, deb tushunish mumkin.

Moliyaviy nuqtayi nazardan, investitsiya ta'rifi vaqt o'tishi bilan uning qiymatini oshirishga imkon berish maqsadida olingan aktivdir. Umuman olganda, har qanday investitsiya quyida tavsiflanganidek, uchta asosiy toifadan biriga kiradi.

Xorijiy investitsiyalar bo'yicha xalqaro huquq xalqaro investitsiyalarni tartibga soluvchi qoidalar to'plami sifatida belgilanishi mumkin. Xorijiy investitsiyalar bo'yicha xalqaro huquq turli iqtisodiy, siyosiy va tarixiy omillarning o'zaro ta'sirida shakllangan va shakllantirilmoqda. U qarama-qarshi bo'lgan milliy manfaatlarni yakuniy hal qilish natijasida yuzaga keladi. Kapitalni eksport qiluvchi davlatlar manfaatlari bilan kapital import qiluvchi davlatlarning manfaatlari to'qnash keldi. Xorijiy investitsiyalar to'g'risidagi xalqaro huquq vujudga kelishi bunday ziddiyatlarni hal qilishning natijasidir. Bu iqtisodiy nazariyalar, siyosatshunoslik va tegishli sohalar ushbu sohadagi dalillarni shakllantirishga yordam bergan sohadir.

Bu muqobil nazariyani yaratishni talab qiladigan xalqaro huquq sohasidir, chunki uni xalqaro huquqning mavjud nazariyasiga muvofiq tushuntirib bo'lmaydi.

Milliy investitsiya qonuni-investitsiya tijorat yoki tadbirkorlik faoliyatidir. Tadbirkorlik faoliyati savdo kodeksi yoki qonun bilan tartibga solinadi. Tijorat huquqi majburiyatlar to'g'risidagi qonunni ham, mulk huquqini ham kesib tashlaydi. Bu shuni anglatadiki, tijorat huquqi majburiyatlar va mulk huquqining bir qismini o'z ichiga oladi. Masalan, umuman biznes operatsiyalari va xususan, investitsiyalar shartnoma qonunini qo'llashni talab qiladi, chunki u shartnomaviy bitimlarni o'z ichiga oladi. Mulk investitsiya shartnomasining predmeti hisoblanadi.

Keling, yana bir misolni ko'rib chiqaylik, investor o'z investitsiyalari bilan bog'liq bo'lgan mahsulotlarni yoki boshqa tovarlarni import qilishi yoki eksport qilishi mumkin. Investor o'z sarmoyasi uchun mashina va uskunalarni import qilishi kerak. Ushbu mashina va uskunalarni Efiopiyaga olib ketilishi kerak. Bunday holda, konnosamentdan foydalanish mumkin. Konnosament - bu ma'lum bir obyektning saqlash uchun kvitansiya va "kelishuv" sifatiga ega. Shunday qilib, u qandaydir tarzda tovarlarni ifodalaydi. Shuningdek, u yukni tashish shartnomasini o'z ichiga olgan hujjatdir. Muxtasar qilib aytganda, u shartnoma va mulkni o'z ichiga oladi. Bu shuni ko'rsatadiki, investitsiya shartnoma va mulk huquqini qo'llashni o'z ichiga oladi.

Bundan tashqari, biz investitsiya faoliyati tijorat huquqi bilan tartibga solinishini ko'rdik. Savdo huquqi savdogarlar tomonidan amaliyot orqali ishlab chiqilgan va davlat uni huquqiy tizimga qabul qilgan yaxlit tizimdir.

So'nggi paytlarda sanoatni tartibga solish uchun davlat me'yorlari kuchayib bormoqda va davlatga tegishli bo'lgan kommunal xizmatlarning yaratilishi jamoat huquqining tijorat sohasiga kirib kelishiga olib keldi. Bu tijorat huquqi ham ommaviy huquq ekanligini ko'rsatadi.

Ommaviy huquqi nimani anglatishini yaxshi bilamiz. Ommaviy huquq - bu shaxslar va hukumat o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi huquq to'plami. Investorlar jismoniy shaxslardir va hukumat investitsiyalarni tartibga soladi. Shuning uchun investitsiya qonuni ommaviy huquqdir.

Bu shuni ko'rsatadiki, tijorat kodeksi o'z tabiatiga ko'ra ommaviy huquqdir, chunki hukumat investitsiya operatsiyalarini tijorat faoliyati sifatida tartibga soladi. Investitsiyalar to'g'risidagi qonun umuman investitsiyalarni tartibga soladi va boshqalar qatorida quyidagi masalalarni hal qiladi:

U sarmoya va investor kabi muhim atamalarni belgilaydi. Xalqaro investitsiya shartnomalari bu shartlarni belgilaydigan xalqaro investitsion qonunlardir. Milliy qonunlar, shuningdek, investitsiyalar va investorlarni aniqlash uchun muayyan qoidalarni ajratadi. Bunda investitsion qonun investitsiyalarni tartibga soladi. Masalan, ko'pgina xalqaro shartnomalar sarmoyani qabul qiluvchi davlat qonunlariga muvofiq tashkil etilgan narsa sifatida belgilaydi. Bunday ta'rifning asosiy maqsadi investitsiyalarni qabul qiluvchi davlat qonunlariga muvofiq to'g'ri ro'yxatga olish va litsenziyalanganligini ta'minlashdir. Yuqorida aytib o'tilganidek, investitsiya qonunchiligi investitsiyalarni turli toifalarga tasniflaydi, masalan, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar, portfel investitsiyalari, ichki investitsiyalar va boshqalar.

Investitsiyalarni qabul qilish va o'rnatish jarayonida investitsiyalar to'g'risidagi qonun xorijiy investitsiyalarning qabul qiluvchi mamlakatga kirishini tartibga soladi. Har bir mamlakat iqtisodiyotning ayrim tarmoqlariga sarmoya kiritishni davlat yoki mahalliy ixtirochilar bilan cheklashni xohlashi mumkin. Investitsiyalar to'g'risidagi qonun investitsiya faoliyatini amalga oshirish uchun korxonalar tashkil etish va korxonalarining shakllariga talablar qo'yadi. Shuningdek, u egalik cheklovlari va tegishli masalalarni o'z ichiga olishi mumkin.

Milliy rejim - qabul qiluvchi mamlakat xalqaro investitsiya qonunchiligiga binoan xorijiy investorlarga milliy yoki mahalliy investorlar kabi munosabatda bo'lishi shart. Biroq qabul qiluvchi davlat xorijiy investorlarga mahalliy investorlar bilan teng munosabatda bo'lmasligi mumkin. Shuni ta'kidlash kerakki, xalqaro odat huquqi davlatlardan xorijiy investorlarga milliy rejimni qo'llashni shart emas. Bunday milliy tartib ikki tomonlama investitsiya shartnomalari yoki milliy qonunlar bilan ta'minlanadi.

Kafolatlar - investitsion qonun investorlarga kafolatlar beradi. Xalqaro investitsiya huquqi xorijiy investorlarning faoliyatini kafolatlashga qaratilgan. Tarix to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni milliy lashtirish va ekspropriatsiya qilishni ko'rsatadi. Shunday qilib, odatiy

xalqaro investitsiya huquqi investorlarga investitsiyalarni ekspropriatsiya qilishning ushbu va boshqa shakllaridan kafolat beradi.

Atrof-muhit masalalari:- investitsiya qonunchiligida ham hal qilinadi. Bugungi kunda iqtisodiy faoliyat atrof-muhitni muhofaza qilish bilan chambarchas bog'liqligi tushuniladi. Shunday qilib, investitsiya shartnomalari atrof-muhitni muhofaza qilishga qaratilgan qoidalarni o'z ichiga ola boshladi va olishi kerak.

Mehnat masalalari - investitsiya shartnomalariga mehnat qoidalarini kiritish, garchi ular doimo kiritilgan bo'lsa ham, ortib bormoqda. Xalqaro mehnat tashkilotining Ko'pmillatli korxonalar va ijtimoiy siyosatga oid tamoyillarning uch tomonlama deklaratsiyasi (1977) va DECDning investitsiyalar va ko'p millatli korxonalar bo'yicha yo'riqnomalari (1976) mehnat masalasini hal qiluvchi ikkita xalqaro shartnomadir. Qabul qiluvchi davlat fuqarolarini ish bilan ta'minlashga ko'maklashish investitsiya qonunchiligida ko'rib chiqiladigan mehnat masalalaridan biridir. Masalan, Efiopiya investitsiya qonuni, ba'zi hollarda, chet elliklar investorlar (ish beruvchi) tomonidan o'qitilgan efiopiyaliklar tomonidan ma'lum vaqt ichida almashtirilishini talab qiladi. Investitsion shartnomalarda ish haqi va mehnat sharoitlari bo'yicha minimal standartlar ko'zda tutilishi mumkin. Shuningdek, u ishchilarning kasaba uyushmalarini tashkil qilish huquqini ham ko'rib chiqishi mumkin.

Investitsiya huquqining maqsadi nima?

Ko'pgina mamlakatlar uchun investitsiyalar to'g'risidagi qonunlar investitsiyalarni rag'batlantirish va tartibga solishning asosiy siyosati vositasidir. Xalqaro investitsiya shartnomalari (IIA) bilan birgalikda ular ko'plab mamlakatlarda transchegaraviy investitsiyalar uchun asosiy huquqiy bazani tashkil qiladi. Ko'pincha, ushbu qonunlar va IIA lar shunga o'xshash qoidalarni o'z ichiga oladi.

Ko'pgina mamlakatlar uchun investitsiyalar to'g'risidagi qonunlar investitsiyalarni rag'batlantirish va tartibga solishning asosiy siyosati vositasidir. Xalqaro investitsiya shartnomalari (IIA) bilan birgalikda ular ko'plab mamlakatlarda transchegaraviy investitsiyalar uchun asosiy huquqiy bazani tashkil qiladi. Ko'pincha, ushbu qonunlar va IIAlar shunga o'xshash qoidalarni o'z ichiga oladi.

UNCTAD tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, kamida 108 mamlakatda investitsiya qonunchiligi investitsiyalarni boshqarishning asosiy vositasi sifatida mavjud bo'lib, ularning deyarli barchasi rivojlanayotgan yoki o'tish davridagi iqtisodiyotdir.

Garchi investitsiya qonunlari odatda bir xil maqsadlarga ega bo'lsa ham, ularning mazmuni va umumiy yondashuvlari sezilarli darajada farq qiladi.

Ushbu tadqiqotning asosiy natijalari quyidagilardan iborat:

Aksariyat investitsiya qonunlari investitsiyalarni rag'batlantirishni asosiy maqsad qilib qo'ygan bo'lsa, faqat bir nechtasi investitsiyalarni osonlashtirish bilan bog'liq.

Barqaror rivojlanish faqat ularning kichik bir qismi uchun aniq maqsaddir.

Investitsion qonunlar odatda investorlarning huquqlari va majburiyatlarini qamrab olish o'rtasidagi nomutanosiblikni ko'rsatadi.

Investitsion qonunlar ko'pincha IIA lar bilan bir xil masalalarni qamrab oladi va qonunlarning yarmidan ko'pi xalqaro arbitrajga kirishni ta'minlaydi.

Investitsiyalar to'g'risidagi qonunlarning ahamiyati ularning mazmunini chuqurroq tahlil qilishni va investitsiyalar bilan bog'liq boshqa siyosatlar va xalqaro investitsiya shartnomalari bilan muvofiqligini talab qiladi.

O'zbekiston iqtisodiy sharoitida investitsiyaning o'rni beqiyos va uni quyida ko'rib chiqishimiz mumkin.

O'zbekiston Markaziy Osiyoning yuragi, Buyuk ipak yo'li an'analaridan ilhomlangan imkoniyatlar diyori. Zamonaviy O'zbekiston o'zining rivojlangan kommunikatsiyalari, logistikasi

va jadal rivojlanayotgan iqtisodiyoti bilan xalqaro savdo va ishbilarmonlik markazi sifatida yana xalqaro sarmoyadorlar uchun ko‘plab foydali imkoniyatlarni taqdim etayapti. O‘zbekistonni sarmoya kiritish uchun afzal ko‘riladigan joy sifatida tanlash uchun ko‘plab sabablar bor, ulardan eng muhimi jo‘g‘rofiy joylashuvi, 35 million aholiga bo‘lgan talabning o‘sishi va davlat tomonidan kafolatlangan qo‘llab-quvvatlashdir.

Birinchiidan, O‘zbekiston Markaziy Osiyoning o‘rtasida strategik mavqega ega bo‘lib, bu Osiyoning eng yirik iqtisodiyotlariga tez va qulay kirish imkonini beradi. Bundan tashqari, MDH davlatlari bilan Erkin savdo to‘g‘risidagi bitim O‘zbekiston mahsulotlarini 300 milliondan ortiq aholiga ega mintaqaviy bozorlarga bojsiz chiqish imkonini beradi.

Ikkinchiidan, 35 milliondan ortiq aholiga ega O‘zbekiston mintaqadagi eng yirik iste‘mol bozori hisoblanadi. Poytaxt Toshkent zamonaviy shahar, Samarqand, Buxoro va Xiva esa tarixiy ahamiyatga ega viloyatlar, Andijon esa eng sanoatlashgan shahardir.

Vodiy durdonasi deb ham ataladigan Andijon Farg‘onaning sharqiy qismida joylashgan. IX asrda u Buyuk ipak yo‘li chorrahasida joylashgan, Andijon-soy daryosi bo‘yida baland tog‘lar bilan o‘ralgan eng qadimiy shaharlardan biri sifatida ilk bor tilga olinadi. Zamonaviy Andijon sanoat shahri bo‘lib, O‘zbekiston aholisining 10 foizini tashkil etadi, bu esa ko‘chmas mulkka bo‘lgan talabning oshishida asosiy omil bo‘lmoqda. Jahon banki tomonidan o‘tkazilgan so‘nggi tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, Andijon viloyatida 50 mingdan ortiq yangi uylar yetishmaydi, bu yerda bosh reja ishlab chiqish, puxta o‘ylangan infratuzilma, zamonaviy arxitektura va dizayn yangi hodisa bo‘lib, xorijiy investorlar uchun katta imkoniyatlar ochadi.

Nihoyat, O‘zbekiston hukumati xorijiy investorlar uchun qulaylik va xavfsizlikni yaratish orqali sarmoyaviy tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlaydi va rag‘batlantiradi. O‘zbekiston hukumati tomonidan xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar uchun erkin iqtisodiy zonalar tashkil etilib, ular investitsiya hajmiga qarab bir necha yil muddatga mol-mulk, er solig‘i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to‘lashdan ozod etiladi

Umuman olganda, birgalikda yaxshiroq yashash uchun eng tez rivojlanayotgan iqtisodiyotlardan biriga - ulkan imkoniyatlar dunyosiga sarmoya kiritish haqida o‘ylab ko‘ring.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. UNCTAD, International Investment Agreements: Volume 1 (2004), P.122
2. George Whitecross Paton; A Text Book of Jurisprudence, (third Edition), Oxford, London, 1967, pp. 245-46
3. M. Sornarajah; The International Law on Foreign Investment, Grotius Publications, Cambridge University Press, New York, 1996, Pp. 2-3
4. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 25.12.2019 yildagi O‘RQ-598-son, (Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 26.12.2019-y., 03/19/598/4221-son; Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son, 07.06.2022-y., 03/22/775/0477-son; 31.12.2022-y., 03/22/812/1145-son)

## INVESTITSIYA FAOLIYATINING XALQARO HUQUQIY KAFOLATLARI

**T.T.Rasulova.**

Jizzax viloyati yuridik texnikumi  
“Ommaviy-huquqiy fanlar” kafedrası o‘qituvchisi

**Annotatsiya.** Ushbu maqola investitsiya faoliyatining xalqaro huquqiy kafolatlariga bag‘ishlanadi. Maqolada investitsiya munosabatlarining muhim qismi bo‘lgan investitsiya faoliyati va uning iqtisodiyotga ta‘siri yoritib berilgan.

**Kalit so‘zlari:** Investitsiya, xorijiy investitsiya, mahalliy va xorijiy investorlar, investitsiya faoliyati.

Ma‘lumki, Davlatlar o‘rtasidagi xalqaro savdoning rivojlanishi, ishlab chiqarish integratsiyasining kengayishi va takomillashuvi tashqi iqtisodiy faoliyatni yanada erkinlashuviga sabab bo‘lmoqda. Bu esa o‘z navbatida bevosita mamlakatdagi investitsion jarayon, davlatning investitsion siyosati, uning ustuvor yo‘nalishlari va mamlakatdagi korxonalar investitsion faolligiga bog‘liq. Prezidentimizning 2020-yil 29-dekabrda Oliy Majlisga murojaatnomasida “Iqtisodiy o‘shishga, avvalo, raqobatbardosh sanoat zanjirlarini yaratish hamda bunday loyihalarga investitsiyalarni ko‘paytirish orqali erishiladi” - deb ta‘kidlaganlar.

O‘zbekiston Respublikasining investitsiya muhitini rivojlantirish borasida tegishli huquqiy asoslar yaratilgan bo‘lib, kafolat va imtiyozlarni o‘zida aks ettiruvchi bir qancha me‘yoriy hujjatlar qabul qilindi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 25-dekabrda “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi 598- sonli qonuni, O‘zbekiston Respublikasining “Tashqi iqtisodiy faoliyat to‘g‘risida” qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 1-avgustda “O‘zbekiston Respublikasida investitsiya muhitini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-5495-son farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-dekabrda “O‘zbekiston Respublikasining 2023-2025 yillarga mo‘ljallangan investitsiya dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-459-son qarorlaridan iboratdir.

Ularda xususiy mulkning davlat tomonidan himoyalaniishi va raqobat muhitiga sharoit hamda zarur investitsiyaviy infratuzilmaning yaratilishini nazarda tutuvchi normalar belgilab qo‘yilgan. Shuningdek, mamlakatimizda hukm surayotgan siyosiy barqarorlik hamda boy tabiiy mineral resurslarning mavjudligi investitsiya muhitini rivojlantirish uchun imkoniyatlar eshigini keng ochadi. Biroq zamon bilan hamnafas ravishda taraqqiy etish uchun bularning o‘zi kifoya qilmaydi. Chunki shiddat bilan rivojlanayotgan dunyo hamjamiyati reytinglarida munosib o‘rinlarni egallash uchun yangi zamonaviy g‘oyalarni o‘ylab topish zarurati yuzaga kelmoqda. Xorij investitsiyalarini keng miqyosda jalb qilish — iqtisodiyotda tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish, mamlakatning eksport salohiyatini mustahkamlash, yuqori texnologik raqobatdosh tarmoqlarni yaratish, ilg‘or xorij texnologiyalari, nou-xau va boshqaruv tajribalarini tatbiq etish imkonini beradi.

Davlat investitsiya qo‘mitasi ekspertlarining fikricha, qonun loyihasi mavjud tarqoq investitsiya qonunchiligini takomillashtirish maqsadida ishlab chiqilgan va O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik tizimiga investitsion muhitning birligini, mahalliy va xorijiy investorlar huquqlarining teng huquqliligini, investitsion faoliyat yurituvchi subyektlarning iqtisodiy erkinligini ta‘minlaydigan yagona qonuniy hujjat sifatida kiradi.

### **Uning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:**

- investitsion munosabatlarni huquqiy tartibga solishni takomillashtirish;
- investitsion faoliyatni davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlarini huquqiy tartibga solish va optimallashtirish;

- investitsion faoliyatni tartibga solishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash;
- tushunchalar tizimini tartibga solish;
- investitsion qonunchilikdagi qarama-qarshiliklarni bartaraf etish va nizolarni hal qilish;
- investitsiya loyihalarini amalga oshirishda davlat-xususiy sektor hamkorligini rivojlantirishga ko‘maklashish;
- investitsion faoliyatni tashkil etish va rivojlantirishni monitoring qilish tizimini rivojlantirishga ko‘maklashish;
- investitsion faoliyatni rivojlantirishda byurokratik to‘siqlarni bartaraf etish;
- investitsiya obyektlarining huquqiy muhofazasini kuchaytirish.

### **Qonun loyihasida quyidagi yangiliklarni joriy etish ko‘zda tutilgan:**

1. Xalqaro hujjatlar va tajribalar asosida ishlab chiqilgan investorlar va investitsiyalarni himoya qilish va investitsiyaga qarshi choralarning oldini olishga qaratilgan yangi normalarni joriy etish.

2. Mahalliy va xorijiy investorlar uchun yagona huquqiy rejimni joriy etish.

3. Investitsiyalar, xorijiy investitsiyalar, investor, xorijiy investor, investitsion faoliyat, investitsion faoliyat subyektlari, investitsion faoliyat ishtirokchilari, investitsion kafolatlar va shu kabi asosiy tushunchalarni qayta ko‘rib chiqish.

4. Kamsitishlar, qonunchilikdagi salbiy o‘zgarishlarga nisbatan yangi kafolatlar, huquqiy muhofaza, investitsiyalarning turli shakllaridan foydalanish bo‘yicha kafolatlar joriy etish.

O‘zbekiston Respublikasining “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi qonunining 3-bobi Investitsiya faoliyati subyektlari huquqlarining davlat kafolatlari va investitsiyalarni himoya qilishga bag‘ishlangan. Qonunning 15-moddasida Davlat investitsiya faoliyati subyektlarining huquqlarini kafolatlaydi. Davlat organlari va ularning mansabdor shaxslari investitsiya subyektlarining qonunchilikka muvofiq amalga oshirilayotgan faoliyatiga aralashishga haqli emasligi aytib o‘tilgan. Bundan tashqari qonunning davlat investitsiyalarning O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga va xalqaro shartnomalariga muvofiq himoya qilinishini kafolatlaydi.

O‘zbekistonda investitsiya muhiti barqarorligini ta‘minlashda umum iqtisodiy, me‘yoriy-huquqiy, ekologik shart-sharoitlar, moliyalashtirishning bozor mexanizmlari, axborot ta‘minoti va boshqalar muhim o‘rin tutadi. Shuningdek, xorijiy investorlar mamlakat iqtisodiyotiga mablag‘ kiritishida investitsiyaviy muhitning makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarini, ya‘ni xorijiy investitsiyalarning kirib kelishi hamda chiqib ketishi, inflyatsiya darajasi, yalpi ichki mahsulotning o‘shishini, iste‘mol va jamg‘arma nisbati, foiz stavkalari darajasi hamda xorijiy investitsiyalarning o‘zlashtirilishi kabilarni hisobga oladi. Qolaversa, investorlar mamlakatning malakali kadrlar zaxirasi, bank-moliya xizmatlari sifati, monetary va fiscal siyosat darajalarini ham e‘tiborda tutadi.

Mamlakatimiz rahbarining murojaatnomasida **“Jahon tajribasini puxta o‘rganib, xalqaro ekspertlarni jalb etgan holda, monetar siyosatni takomillashtirish va narx-navo barqarorligini ta‘minlash konsepsiyasini ishlab chiqishimiz zarur”**, degan g‘oya ilgari surildi.

Demak, tegishli xavf-xatarlarni baholash hamda ularni bartaraf etish asosida chet el investitsiyalari kirib kelishiga qulayliklar yaratish bugunning dolzarb masalasidir. Chunki xorijlik investorlar mamlakatning investitsiya muhiti, uning xavfsizligi, siyosiy, iqtisodiy xavf-xatarlar darajasi va ularning sug‘urtalanishi, investitsiyalash maqsadlariga muvofiqligi, iqtisodiyotning, umuman, barcha sharoitlarning boshqalarga nisbatan qulayligi nuqtai nazaridan baholaydilar. Mamlakatga xos xavf-xatar darajasi (qarzarlar masalasi, import va eksport balansi, hukumatning barqarorligi hamda boshqalar), mahalliy sharoitning boshqa mamlakatlardan ko‘ra ustun jihatlari yetakchi o‘rinda turadi.



Xulosa o‘rnida aytganda, investitsiya faoliyatining xalqaro va milliy darajada to‘liq huquqiy kafolatlanishi lozimligi bugungi kundagi eng dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolmoqda. Bugungi kunda investorlar, korxonalar, tashkilotlar tomonidan mamlakatga ulkan investitsiya loyihalarining kiritilishi natijasida yurtimizda ko‘plab yangi ish o‘rinlari vujudga keladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 25-dekabrda “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi 598-sonli Qonuni, O‘zbekiston Respublikasining “Tashqi iqtisodiy faoliyat to‘g‘risida”gi Qonun.
2. “Investetsion faoliyati tushunchasi va uning tasniflanishi“ Fozilov B.T. Maqola 2022-yil
3. Investetsiya faoliyatining tashkiliy-huquqiy shakllari: o‘quv qo‘llanma. 2018-yil.

## O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA QULAY INVESTITSIYA MUHITINI YARATISH MASALALARI

**Qo‘ldoshev Sherzod Mansur o‘g‘li**

Qashqadaryo viloyati yuridik texnikumi o‘qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada yurtimizda qulay investitsiya muhitini shakllantirishning nazariy va amaliy muammolari, mavjud qonunchilikdagi bo‘shliqlar va ularni hal qilish masalalari, shuningdek qanday qilib tashqi iqtisodiy aloqalarni yaxshilash va ichki va tashqi sarmoya oqimini kengaytirish, shu bilan birga ularni kerakli sohalarga yo‘naltirish to‘g‘risida mulohaza yuritilgan.

**Kalit so‘zlar:** investitsiya, sarmoya jozibadorligi, sarmoyador, qulay investitsiya iqlimi, investor kafolatlari.

Davlatning iqtisodiy o‘shish darajasi sarmoya faoliyatining taraqqiyotiga, uning o‘zi esa sarmoya muhitiga bog‘liq. Tashqi sarmoyalarni respublika iqtisodiyotiga jalb etish uchun zaruriy shart-sharoitlarning yaratilishi muhimdir. Sababi davlatda siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va qonuniy shart-sharoitlar mavjud bo‘lsagina o‘sha davlat iqtisodiyotiga sarmoya kirib kelishni boshlaydi. Sarmoya muhitining jozibadorligi xorijiy sarmoyalar oqimini ko‘paytirishning muhim omili hisoblanadi.

Dunyo tajribasidan ma‘lumki, iqtisodiyot tarmoqlarini modernizatsiyalash va ularni intensiv rivojlantirish, zamonaviy texnika-texnologiyalar asosida ishlab chiqariladigan mahsulot raqobatbardoshligini oshirish va davlatning eksport salohiyatini mustahkamlash sarmoyalar orqali ta‘minlanadi.

Hozirgi kunda iqtisodiyot tarmoqlariga sarmoyalarni jalb qilish mamlakat investitsiya siyosatining bosh maqsadi bo‘lib qolmoqda. Chunki pandemiya sharoitida iqtisodiyot tarmoqlari oldiga keng qamrovli iqtisodiy bo‘hronlardan himoyalani kabi o‘ta murakkab vazifalarni qo‘ymoqda. Ayniqsa, ichki va tashqi bozorlarda yuqori raqobatga erishishda eng avvalo investitsion jozibadorlikni oshirish masalasi zarur bo‘lgan asosiy muammolaridan biri sifatda namoyon bo‘lmoqda.

Ma‘lumki, har qanday davlatning iqtisodiy taraqqiyot darajasi va shuningdek, olib borilayotgan keng ko‘lamli davlat investitsiya siyosatining samaradorligi va o‘shish sur‘atlari albatta qulay investitsion jozibadorlik muhitiga bog‘liq bo‘ladi. Qulay sarmoya muhitini yaratish sarmoya resurslarini joylashtirish uchun umumiy mezon bo‘lib qilib xizmat qilib, birinchi galda, kapital mablag‘larining likvidligini ta‘minlab beradi. Sarmoya muhitining holatini sarmoya faoliyatini amalga oshirishning maqsadga muvofiqligi va jozibadorligini aniqlaydigan siyosiy, tashkiliy, huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ekologik va boshqa shart-sharoitlarni umumlashtiruvchi xususiyatlarini belgilab beradi.

Sarmoya muhiti deganda mamlakat moliyasi yoki uning ma‘lum bir sohasiga jalb qilinadigan sarmoyalarning samaradorligini va xavfsizligini ta‘minlashga qaratilgan. Ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, tashkiliy-huquqiy, ekologik, madaniy va boshqa shart-sharoitlar majmuasi tushuniladi.

Bu sarmoyalar muayyan hududga sarmoyalar kirib kelishining maqsadga muvofiqligi va jozibadorligini belgilaydigan shart-sharoitlarning mavjud ijobiy va salbiy tomonlarini anglatadi.

Investitsiyaviy jozibadorligi - davlat, muayyan tarmoq yoki alohida olingan korxonalar sarmoyalarning daromadlilik, rivojlanish istiqbollari va sarmoya xatari darajasi nuqtai nazaridan baholanishidir. Sarmoyaviy jozibadorlik sarmoya salohiyati va sarmoya xatari nuqtai nazaridan baholanishidir. Sarmoyaviy jozibadorlik sarmoya salohiyati va sarmoya xatari darajasini shakllantiradigan ikki guruh omillarning bir vaqtda ta‘sir etishi orqali aniqlanadi.

Bu kabi indikatorlarga qarab baho berish orqali sarmoyalarning maqsadga muvofiqligi hamda jozibadorligi, sarmoya xatari darajasini aniqlash mumkin.

Sarmoya jozibadorligi davlat yoki alohida olingan tarmoq sarmoyalarning likvidligi, investitsiya muhiti, infratuzilma, rivojlanish istiqbollari va investitsiya riski nuqtayi nazaridan aniqlanadi. Sarmoya jozibadorligi davlat investitsiya salohiyati va investitsiya riski darajasining bir vaqtda ta'sir etishi orqali aniqlanadi. Bu kabi indikatorlarga baho berish orqali sarmoyalarning maqsadga muvofiqligi hamda jozibadorligini aniqlash mumkin bo'ladi. Investitsiya riski darajasi sarmoya muhitiga to'g'ridan to'g'ri bog'liqdir.

Sarmoya muhiti makroiqtisodiyot darajasida ikki tomonlama, ya'ni sarmoyador va aniq bir davlat boshqaruv organlari, xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasidagi munosabatlarda o'z aksini topadi. Investitsiya muhiti har qanday aniq vaqt uchun obyektiv holat bo'lib, kapital qo'yish uchun mavjud shart-sharoitlarning majmuasini o'zida qamrab oladi. Lekin sarmoya muhiti davlat organlarining boshqarish faoliyati ta'sirida shakllanadi. Shuning uchun mamlakatning sarmoya siyosati eng asosiy omillardandir. Shu ma'noda har bir davlat kapital import qilishda o'zining aniq kapital qabul qilish tizimiga ega bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasida qulay va jozibador investitsiya muhitini yaratishda va uning qulayligini ta'minlashda quyidagilarga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir:

- Sarmoya infratuzilmasini rivojlantirish-tijorat banklari, investitsiya fondlari, sug'urta va lizing kompaniyalari faoliyatini rag'batlantirish va investitsiya loyihalarini amalga oshirishda ularning ishtirokini samarali yo'lga qo'yish zarur;

- Tadbirkorlarning biznes-ko'nikmalari, shu jumladan, yirik investitsiya loyihalari bilan ishlash tajribasi va huquqiy bilimlarini yanada oshirish-hududlarda konsalting, marketing va yuridik xizmat ko'rsatuvchi markazlar tashkil etish va faoliyatini rivojlantirish lozim;

- Investitsiya takliflari va loyiha texnik -iqtisodiy asoslarining belgilangan talablariga javob bermasligi sabab tadbirkorlarga investitsiya loyihalarini ishlab chiqishda tijorat banklari, hududlardagi savdo-sanoat palatasi va boshqa mas'ul idoralar tomonidan amaliy yordam ko'rsatilishini mahalliy hokimliklar tomonidan tashkil etish va doimiy monitoring qilish;

- Amaliyotda ayrim loyiha tashabbuskorlari moliyaviy-iqtisodiy holatining nochorligi kuzatilishi sabab investitsiya dasturlari va hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha rivojlantirish dasturlariga kiritish taklif etilayotgan loyihalar tashabbuskorlarining moliyaviy-iqtisodiy holatining mahalliy hokimliklar va tijorat banklari tomonidan chuqur tahlil qilinishini ta'minlash;

- Hududlardagi mahalliy hokimliklarning xorijiy sarmoyadorlarni hudud haqida to'liq investitsion muhitga oid ma'lumotlar bilan ta'minlashda faolligini oshirish-xorijiy sarmoyadorlarni to'laqonli ravishda axborot bilan (biznes takliflar bazasi va sarmoya loyihalari, hududiy matbuot nashrlari, iqtisodiy tahlil xomashyo va mehnat salohiyati to'g'risida ma'lumotlar) bilan ta'minlash, investitsiya faoliyatiga oid mintaqaviy va xalqaro konferensiyalar, seminarlar va taqdimotlar o'tkazish lozim, ayrim korxonalarda mahsulot ishlab chiqarish va uni eksport qilishdagi hamda xomashyo sotib olishga aylanma mablag'lar yetishmasligi bo'yicha korxonalarining moliyaviy-iqtisodiy ahvolini o'rganib chiqib, uni moliyaviy sog'lomlashtirish, qarzlarni restrukturizatsiyalash bo'yicha muvofiqlashtirish ishlarini olib borish orqali eksport salohiyatini oshirish zarur;

- Ishlab chiqarish infratuzilmasiga oid muammolar, shu jumladan, korxonalarining elektr energiya, tabiiy gaz, suv va yoqilg'i mahsulotlari bilan ta'minlashdagi uzilishlarni hal etgan holda eksportyor korxonalarini uzluksiz ravishda elektr energiyasi va tabiiy gaz bilan ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish va nazoratga olish lozim;

- Texnologiya va asbob-uskunalarining amortizatsiyasini e'tiborga olib, ishlab chiqarilgan mahsulotning xalqaro standartlarga mosligini va raqobatbardoshligini ta'minlash maqsadida

mahalliy tadbirkorlarning xalqaro ko'rgazma-savdolarda ishtirok etishini ta'minlash, tejamkor texnologiyalarni tanlash va ularni moliyalashtirish manbalarini aniqlash kerak;

- Korxonalarda marketing xizmatini to'g'ri tashkil qilish, ularning chet el bozorlari, ishlab chiqaruvchilari va xaridorlari to'g'risidagi ma'lumotlar bilan muntazam ta'minlanishiga erishish maqsadida korxonalarda marketing bilan shug'ullanuvchi xodimlar bilimi, malakasini oshirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ishlab chiqarish hamda eksport salohiyati, marketing va mahsulotlarni sotishga bag'ishlangan o'quv mashg'ulotlari, seminarlar va ko'rgazmalarni tashkil etishni muntazam yo'lga qo'yish lozim.

- Bizning fikrimizcha, sarmoya muhiti barqarorligini ta'minlash uchun, birinchi navbatda, sarmoya risklari sug'urtasini yoki himoya tizimini keng rivojlantirish, me'yoriy-huquqiy hujjatlarni to'la ma'noda amal qilishiga erishish maqsadga muvofiqdir.

- O'zbekistonda qulay sarmoya iqlimi yaratilishi uchun keng harakat qilinmoqda, bu borada investorlarga turlicha moliyaviy imtiyozlar va huquqlar berilgan, bozor infratuzilmasi shakllantirilmogda. Zero to'plangan tajribalarni davlatimizning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda tadbiq etilishi tavakkalchilikni pasaytirishga, mavhumlikni oldi olinishiga, yuqori samaradorlikning ta'min etilishiga olib keladi.

- Ushbu taklif va tavsiyalarning amaliyotga samarali tadbiq etilishi yurtimiz iqtisodiyotiga xorijiy sarmoyalarni jalb qilishni kengaytirish imkonini beradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Mulaydinov F.M., Nishonqulov S. Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishda axborot texnologiyalarining o'rni. – The role of information technologies in the development of the digital economy.

2. Butaboyev M, Urinov A., Mulaydinov, Tojimatov, I. Digital economy.

3. Farxodjon o'gli, N.S Odil o'g'li R.B. Raqamli iqtisodiyot almashinuvining resurslar safiga sakkizta ta'siri. Boshqaruv va etika qoidalari onlayn ilmiy jurnali.

4. Farkhod,M, Azadkhon, K Gulkhon, MOybek A. Advantages og the transition to a digital economy in the innovative development of Uzbekistan . Journal of Advanced Research in Dynmical and Control Systems.

## MAHALLIY INVESTORLAR VA CHET EL INVESTORLARI FAOLIYATINI MAMLAKATIMIZDA YANADA RIVOJLANTIRISH ASOSLARI

**Akromova Sunbula Akmal qizi**

Qashqadaryo viloyati yuridik texnikumi

101-22-guruh o'quvchisi

**Annotatsiya:** Maqolada xorijiy va mahalliy investorlarning investitsiya loyihalarini tashqi infratuzilmasini yaratish, mavjud loyihalarni yangidan boshlash, mahalliy xususiy investorlarga preferensiyalar berish, investorlar tomonidan soliqlarni to'lashni kechiktirish mexanizmlari, shuningdek xorijiy investitsiyalarni va investorlarni jalb qilishda mavjud muammolar va ularni oldini olishni faollashtirishda qanday chora tadbirlardan foydalanish kerakligi keng yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Investitsiya, xorijiy investor, mahalliy investor, tashqi infratuzilma, preferensiya.

«Investitsiya» atamasi lotin tilidagi «invest» so'zidan kelib chiqqan bo'lib «qo'yish», «mablag'ni safarbar etish», «kapital qo'yilmasi» ma'nosini beradi. Keng ma'noda investitsiya mablag'ni ko'paytirib va qaytarib olish maqsadida kapitalni safarbar etishni bildiradi. Ko'pgina hollarda «investitsiya» tushunchasi iqtisodiy va boshqa faoliyat obyektlariga kiritiladigan moddiy va nomoddiy ne'matlar hamda ularga doir huquqlar tarzida ta'riflanadi. Investitsiya deyilganda barcha turdagi milliy va intellektual boyliklar tushunilib, ular tadbirkorlik faoliyati obyektlariga yo'naltirilib daromad keltirishi yoki biror-bir ijobiy samaraga erishishi zarur. Investitsiya kiritishdan asosiy maqsad daromad olish va ijobiy ijtimoiy samaraga erishishdir.

Investitsiya kiritishda, avvalo:

- Investitsiya faoliyati subyektlarning mustaqilligi va tashabbuskorligining ta'minlanishi;
- Kiritilayotgan moddiy ne'matlarga investitsiya maqomini berish (fuqarolarning o'zlarining ehtiyojlarini qondirish uchun sotib olgan buyumlari investitsiya bo'la olmaydi);
- Qonun bilan belgilangan investitsiya faoliyatini amalga oshirish imkoniyati yaratilishi zarur bo'lib hisoblanadi.

Investitsiya tushunchasiga yangi kapitalni barpo etish uchun sarflangan xarajat sifatida ham ta'rif berish o'rinli. Investitsiyalar – bu yangi korxonalar qurilishiga, mashina va asbob-uskunalar sotib olishga, ya'ni yangi kapitalni barpo etishga ketgan xarajatlardir. Investitsiya tushunchasining mazmunini to'liq ochib berish uchun unga berilgan tariflarni keltirish joiz. Investitsiyalar – bu hali mahsulot ko'rinishiga keltirilmagan, lekin ishlab chiqarish vositalariga qo'yilgan kapitaldir. O'zining moliyaviy shakliga ko'ra, ular foyda olish maqsadida xo'jalik faoliyatiga qo'yilgan aktivlar hisoblansa, iqtisodiy xususiyatiga ko'ra, u yangi korxonalar qurishga, uzoq muddatli xizmat ko'rsatuvchi mashina va asbob uskunalariga hamda shu bilan bog'liq bo'lgan aylanma kapitalning o'zgarishiga ketgan xarajatlardir.

Investitsiyalar xususiy sektor va davlat tomonidan mamlakat ichkarisida va uning tashqarisida turli ishlab chiqarishlarga va qimmatli qog'ozlarga (masalan:aksiyalar,) qo'yilishi mumkin. Investitsiyaga ketgan xarajatning miqdori ikki omilga bog'liq: birinchisi – sof foydaning kutilayotgan me'yori, qaysiki uni tadbirkorlar investitsiyaga ketgan xarajatlardan olishni mo'ljallaydi; ikkinchisi – foiz stavkasi. Agarda, kutilayotgan foyda me'yori foiz stavkasidan yuqori bo'lsa, investitsiyalash foydali va aksincha, foiz stavkasi kutilayotgan foyda me'yoridan yuqori bo'lsa, investitsiyalash foydali bo'lmay qoladi.

Investitsiya talabining egri chizig'i istalgan investitsiya hajmi va real foiz stavkasi miqdori o'rtasidagi bog'liqlikni o'rnatadi. Real foiz stavkasi, ya'ni pul kapitalini qarzga olish narxi qanchalik yuqori bo'lsa, investitsiyalashni xohlovchilar shuncha kam bo'ladi va aksincha real foiz stavkasi qanchalik past bo'lsa, foyda keltiradigan investitsiya loyihalari shuncha ko'p bo'ladi.

Hozirgi kunda mahalliy va xorijiy investorlarni mamlakat hududiga investitsiya loyihalariga jalb qilish qat'iy talab sifatida ko'rilmogda va ushbu harakatlar asosida investorlar sonining tobora ortib borayotganligini keltirib o'tishimiz mumkin.

Mahalliy investorlar – investitsiya faoliyatini amalga oshiruvchi O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, O'zbekiston Respublikasi rezidenti maqomiga ega bo'lgan chet ellik fuqarolar va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar, shu jumladan yakka tartibdagi tadbirkorlar, shuningdek O'zbekiston Respublikasining yuridik shaxslari hisoblansa;

Xorijiy investorlar – deganda esa, chet davlatlar, chet davlatlarning ma'muriy yoki hududiy organlari, davlatlar o'rtasidagi bitimlarga yoki boshqa shartnomalarga muvofiq tuzilgan yoki xalqaro ommaviy huquq subyekti bo'lgan xalqaro tashkilotlar, chet davlatlarning qonun hujjatlariga muvofiq tashkil etilgan va faoliyat ko'rsatadigan yuridik shaxslar, har qanday boshqa shirkatlar, tashkilotlar yoki uyushmalar, chet davlat fuqarolari va O'zbekiston Respublikasidan tashqarida doimiy yashaydigan fuqaroligi bo'lmagan shaxslar tushuniladi.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan investitsiya siyosati mustaqillikning dastlabki yillaridanoq yoqilg'i energetika va don mustaqilligini ta'minlash, iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish va import o'rnini bosuvchi mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirish uchun ustuvor sohalarni qo'llab quvvatlash, chet el investitsiyalarini jalb qilish uchun ochiq eshiklar siyosatini olib borish kabilarga qaratilmoqda. Investitsiya siyosatini olib borishda quyidagi tamoyillarga asoslanmoqda:

- Belgilangan davlat ustuvorliklari asosida eng muhim tarmoqlar va faoliyat sohaslarini tanlab qo'llab-quvvatlash;

- Ijtimoiy ahamiyatli tarmoqlarni (sog'liqni saqlash ta'lim, madaniyat va h.k.) aholi turmush darajasini yaxshilash, umrini uzaytirish, ijtimoiy jihatdan keskin tabaqalanishning oldini olish, iste'mol talabining faollashuvini ta'minlash maqsadida etarli darajada qo'llab-quvvatlash;

- Chet el investitsiyalarini o'zaro manfaatdorlik asosida ustuvor sohalarga jalb qilish;

- Potensial investitsiya resurslarini savdo sohasi va pul bozorida sanoat sohasiga qayta taqsimlash;

- Ilmiy-tadqiqot, tajriba-konstruktorlik ishlarini qo'llab-quvvatlash, xorijdan yangi texnikalar uchun litsenziyalar sotib olish, katta laboratoriyalarni saqlab turishga quvvati etadigan yirik korporatsiyalar tuzish orqali ishlab chiqarish kapitalini jamlash hisobiga intellektual kapital va ilmiy-texnik potentsialni oshirish;

- Qishloq xo'jaligi mahsulotlari va mineral xom ashyo resurslarini chuqur qayta ishlash va ularni tashqi bozorda raqobatbardosh bo'ladigan darajaga olib chiqishga yo'naltirilgan investitsiya loyihalarini qo'llab-quvvatlash;

- Aholining oziq-ovqat va iste'mol tovarlariga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishga mo'ljallangan ishlab chiqarish quvvatlarini jadal rivojlantirishni investitsiyalar bilan ta'minlash;

- Investitsiya jarayonlari ishtirokchilarining o'zaro aloqalarini tartibga solib turuvchi qonunchilik bazasini takomillashtirish;

Ushbu yuqoridagi tamoyillar asosida milliy iqtisodiyotni tarkibiy jihatdan qayta qurish, eksport imkoniyatini kengaytirish sohasida belgilangan yo'nalishlar kuchli investitsiya o'tkazish bilangina ro'yobga chiqadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida” gi farmonida olib borilayotgan islohotlar samarasini yanada oshirish, davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish hamda hayotning barcha sohalarini liberallashtirish bo‘yicha ustuvor yo‘nalishlarini amalga oshirish maqsadida 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini yuksaltirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi tasdiqlandi. Ushbu Harakatlar strategiyasida iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning eng asosiy turi bu – investitsiya muhitini takomillashtirish, mamlakat iqtisodiyoti tarmoqlari va hududlariga xorijiy, eng avvalo to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni faol jalb qilishdan iborat. Mamlakatimiz iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarning jalb etilishi, uning barcha imkoniyatlari kengayishini tezlashtirib, barcha sohalarda ichki imkoniyat va texnologiya, eksportbop tovarlarni o‘zlashtirish, ularni ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish orqali davlatimiz iqtisodiy qudratini ta‘minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishni engillashtirish va rag‘batlantirish maqsadida sohaga oid qator targ‘ibotlar tanqidiy qayta ko‘rib chiqilishi natijasida respublikada tadbirkorlik subyektlari va xususiy investorlar uchun keng imkoniyatlar yaratildi. Respublikadagi xorijiy va mahalliy investorlar tomonidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar ishtirokidagi loyihalarning tashqi muhandislik – kommunikatsiyasi infratuzilmasi bilan ta‘minlash davlat budjeti tomonidan qoplab berilishi investorlarga qulaylik yaratmoqda va investorlarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri jalb qilishga sababchi bo‘lmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Investitsiya loyihalarini tashqi infratuzilma bilan ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorida xorijiy investorlar investitsiyalari uchun O‘zbekiston hududiga kirish avtomobil yo‘llari, ichimlik suvi va oqova suv tarmoqlarini qayta rekonstruksiya qilish yoki ta‘mirlash ishlarining qariyb 90 % bo‘yicha - O‘zbekiston Respublikasi ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturi mablag‘lari, 10 % bo‘yicha Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetining qo‘shimcha manbaalari, elektr energiyasi va gaz tarmog‘ini qurish va ta‘mirlash ishlari bo‘yicha — respublika byudjeti mablag‘lari hisobidan ta‘minotchi korxonalariga 5 foiz stavkada uch yil muddatda qaytarish sharti bilan ajratiladigan budjet ssudasi mablag‘lari, aloqa tarmoqlarini qurish, rekonstruksiya qilish ishlari bo‘yicha — ta‘minotchi korxonalar va tadbirkorlarning o‘z mablag‘lari belgilanganligi investorlarga birmuncha qulaylik yaratmoqda .

Tadbirkorlarning muammo va takliflarini bevosita o‘rganish hamda tadbirkorlikni kelgusida rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlarini belgilab olish bo‘yicha 2021-yil 20-avgust kuni o‘tkazilgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan ochiq muloqoti davomida 2022-yil 1-yanvardan boshlab tadbirkorlik subyektlariga umumiy maydoni 1000 kv metrdan ortiq bo‘lgan yer uchastkalariga va bino inshootlariga nisbatdan mulk huquqini qo‘lga kiritganda mol-mulk solig‘i va yer solig‘i bo‘yicha hisoblangan soliqlarni to‘lashni 6 oy muddatga kechiktirishga ruxsat berildi. Nafaqat yer solig‘i, balki bojxona bojidan ozod qilish kabi imkoniyatlar chet el investorlarining yurtimizga qiladigan investitsiyalari uchun imtiyoz hisoblanadi.

Hozirgi kunda faqatgina chet ellik investorlarga nisbatan berilayotgan preferensiyalar endilikda mahalliy xususiy sarmoyadorlarga nisbatan ham taqdim etilmoqda. Ular o‘z hisoblaridan 25 mln dollarlik loyihani boshlasalar tashqi-muhandislik kommunikatsiyasi tarmoqlari byudjet hisobidan qilib beriladi deb keltirilgan. Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi ma‘lumotlariga ko‘ra, ayni vaqtda chet ellik sarmoyadorlarga quyidagi imtiyoz va

preferensiyalar berilmoqda: soliqqa tortiladigan daromad, QQS, yuridik shaxslar mol-mulk soliqlari va bojxona bojlari bo'yicha imtiyozlar mavjud hisoblanadi.

Shu bilan birga, xorijiy investorlar biznes yuritish sarf-xarajatlariga e'tibor qaratishadi. So'nggi yillarda ushbu sarf-xarajatlarni qisqartirish borasida talay ishlar amalga oshirildi: valuta bozori erkinlashtirildi, naqd pullarni berish uchun ma'muriy to'siqlar olib tashlandi, bank va tashqi iqtisodiy faoliyat sohasi erkinlashtirilmoqda, biznesni rivojlantirish yo'lidagi ma'muriy to'siqlar bartaraf etilmoqda, soliq islohoti amalga oshirilmoqda.

Investorlarni ularning mulk huquqi nechog'lik himoyalangani qiziqtiradi. Investor biznesga o'zining pullari, mehnati, tajribasi va o'z innovatsion ishlanmalarini tikadi. Bu holatda u juda ko'plab risklarni o'z zimmasiga oladi. Biznes turli sabablar: talab kutilganidek katta bo'lmagani, bozorda kuchli raqobatchilar yoki investorning mahsulotini siqib chiqaradigan yangi mahsulotlar paydo bo'lgani tufayli ziyonli bo'lib qolishi mumkin. Bunday tijoriy risklar bozor iqtisodiyoti sharoitida tabiiy hol. Ularni ishbilarmonning o'zi, aytaylik, marketing dasturlari yoki ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash orqali boshqarishi kerak.

Biroq, tabiiy bozor mexanizmlarining ta'siri tufayli yuzaga kelgan risklardan tashqari, mulk huquqini poymol qilish bilan bog'liq boshqa risklar guruhi ham bor. Ishbilarmonlarda ularni kamaytirish imkoniyati juda past va cheklangan. Shu sababli mulk huquqini himoya qilish — bu davlatning eng asosiy majburiyatlaridan biri sanaladi. Faqat davlatda bu funksiyani to'laqonli bajarish uchun qurollar to'plami bor: bular — qonunchilik, huquqni muhofaza qiluvchi organlar, sud tizimi va boshqalar.

Modomiki samarali iqtisodiyotni yo'lga qo'ymoqchi ekanmiz, quyidagi takliflar inobatga olinishi lozim:

-xorijiy sarmoyadorlarni qiziqtiruvchi sohalar, obyektlarini aniqlash va ular to'g'risidagi ma'lumotlar majmuyini shakllantirish, biznes rejalar va ularni iqtisodiy jihatdan manfaatli bo'lgan sohalarga chet el kapitalini jalb qilish;

-eksportda qayta ishlangan, tayyor mahsulotlar salmog'ini ko'paytirish va investorlarga ushbu yo'nalishda shart-sharoitlar yaratish;

-barqaror, shaffof, biri boshqasini inkor etmaydigan qonunchilik;

-qonunlarning bajarilishini ta'minlash va iqtisodiyot subyektlari huquqlarini himoya qilishga chog'langan samarali va mustaqil sud tizimi;

-biznes yuritish uchun teng va adolatli shart-sharoitlar;

-mahalliy investorlarni yaratish uchun bojxona boji va yer, mol-mulk soliqlarini kechiktirib to'lash yoki ozod qilish;

-xorijiy investorlarni ortiqcha ishchi kuchiga ega bo'lgan hududlarga ko'plab investitsiyalar to'planishiga qulay shart-sharoit yaratish zarur.

-investorlar uchun qulay infrotuzilmani shakllantirish, ularning biznes faoliyatlari uchun imkoniyatlar yaratish zarur.

Xulosa qilib aytganda, investitsiya faoliyati bu har qanday jismoniy va yuridik shaxslar shuningdek xorijiy investorlar kabi investitsiya subyektlari tomonidan daromad olish, mavjud kapitallarni ko'paytirish yoki joylashtirish majmuidir. Mahalliy va xorijiy investorlarning faoliyatini erkin, sof va mustahkam qonunchilik asosida qurilgani va ularning huquqi normativ-huquqiy hujjatlar asosida himoya qilinishi, hozirda berilayotgan imtiyozlar O'zbekiston hududiga investorlarni jalb qilish va ularning qonuniy manfaatlarini himoya qilishda yaqqol namoyon bo'ladi.



### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida“gi PF-4947-son farmoni.
2. O‘RQ-598-sonli “Investitsiyalar va Investitsiya faoliyati to‘g‘risida“gi O‘zbekiston Respublikasining qonuni. 25.12.2019-yil.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Investitsiya loyihalarini tashqi infratuzilma bilan ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida“ 2021-yil 25-avgustdagi PQ-5233-son qarori.

## INVESTITSION FAOLIYAT: AKSIYADORLIK JAMIYATIDA INVESTITSIYA

**Ubaydullayev Doston Akbar o'g'li**

Toshkent viloyati yuridik texnikumi o'qituvchisi

**Annotatsiya:** mazkur maqola investitsiya va investitsiya faoliyatining aksiyadorlik jamiyatidagi o'rni hamda yo'nalishlari xususida axborot beradi, ushbu maqolada aksiyadorlik jamiyatida investitsion faoliyatning o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilinadi

**Kalit so'zlar:** investitsiya, investitsion faoliyat, investitsion faoliyat subyektlari, kapital investitsiya, moliyaviy investitsiya, real investitsiya.

Ta'kidlash lozimki, korxonaning iqtisodiy faoliyatining eng muhim sohalaridan biri uning uzoq muddatli va o'rta muddatli loyihalarni amalga oshirishga mablag' sarflash bilan bog'liq bo'lgan investitsion faolligidir. Investitsion faoliyat deganda uzoq muddatli (uzoq muddatli) aktivlarni sotib olish va sotish bo'yicha bitimlar majmui, shuningdek pul ekvivalenti bo'lmagan qisqa muddatli (joriy) moliyaviy investitsiyalar tushunilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi qonuniga ko'ra, Ustav fondi (ustav kapitali) aksiyadorlarning aksiyadorlik jamiyatiga nisbatan huquqlarini tasdiqlovchi muayyan miqdordagi aksiyalarga taqsimlangan tijorat tashkiloti aksiyadorlik jamiyati deb e'tirof etiladi.

Jamiyat yuridik shaxs bo'lib, u o'z mustaqil balansida hisobga olinadigan alohida mol-mulkka, shu jumladan o'zining ustav fondiga (ustav kapitaliga) berilgan mol-mulkka ega bo'ladi, o'z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarni olishi hamda amalga oshirishi, zimmasiga majburiyatlar olishi, sudda da'vogar va javobgar bo'lishi mumkin.

Jamiyat davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan e'tiboran yuridik shaxs maqomiga ega bo'ladi. Jamiyat, agar uning ustavida boshqacha qoida belgilanmagan bo'lsa, cheklanmagan muddatga tuziladi.

Shu o'rinda e'tibor berishimiz lozimki, tegishli korxonalar har xil turdagi va har xil tashkiliy shakllarda sarmoya kiritishi mumkin, masalan investitsiya portfelini shakllantirish, investitsiya loyihalarida ishtirok etish va boshqalar.

Mamlakatimiz iqtisodiy taraqqiyotining ushbu sohada korxonaning moliyaviy holatini tahlil qilish o'ta muhim, chunki u korxonalar faoliyatining deyarli barchasiga ta'sir qiladi.

Boshqaruv xodimlari birinchi navbatda o'z kompaniyasining moliyaviy ahvolini, keyin esa raqobatchilarning moliyaviy holatini tahlil qilish va baholash imkoniyatiga ega bo'lishi kerak, agar ular o'z kompaniyasi zarar ko'rmay, moliyaviy barqaror va daromadli bo'lishini xohlasalar.

An'anaga ko'ra, aksiyadorlik jamiyatining ustav kapitalining belgilangan miqdordagi teng miqdordagi aksiyalarga bo'lingan aksiyadorlar jamiyati va aksiyadorlar kompaniyaning majburiyatlari bo'yicha faqat o'z aksiyalari bo'yicha javob berishadi. Aksiyadorlik jamiyatining o'ziga xos xususiyatidan quyidagi xususiyatlar uning huquqiy maqomini belgilaydi:

aksiyadorlik jamiyati-korporativ tipdagi xo'jalik tashkiloti, xo'jalik kompaniyasining kichik turi;

bu mulkiy elementlar shaxsiy narsalardan ustun bo'lgan kapital birlashmasining bir turi (aksiyadorlik jamiyatida qatnashish faqat mulkiy hissani talab qiladi - aksiya to'lash va shaxsiy ishtirok - mehnat, kompaniyani boshqarishda odatda ixtiyoriy).

Quyidagi afzalliklari tufayli aksiyadorlik jamiyatlari butun dunyoda biznesni tashkil etishning keng tarqalgan shakliga aylandi:

- muhim kapitalni shakllantirishning osonligi;

- aksiyalar uchun to'langan pul miqdori bo'yicha cheklangan aksiyadorlar xavfi, bu kompaniyaga ko'p sonli aksiyadorlarni jalb qilish va kapitalning yuqori darajadagi konsentratsiyasiga erishish imkonini berdi;

- aksiyadorlarning aksiyadorlik jamiyatining faoliyatida majburiy bo'lmagan shaxsiy ishtiroki, bu esa ishtirokni osonlashtiradi va natijada yangi aksiyadorlar va ularning mablag'larini yollashga imkon beradi;

- aholining katta qatlamini ochiq aksiyadorlik jamiyatlariga jalb qilish imkoniyati va natijada foydani ular o'rtasida taqsimlash; - iqtisodiy faoliyatning turli sohalari va turlarida (bank, sug'urta, investitsiyalar, sanoat va boshqalar) va iqtisodiyotning barcha sohalarida - davlat, munitsipal va xususiy sohalarda, shuningdek, aksiyadorlik jamiyatlarini tuzish;

- xususiylashtirish jarayonida aksiyadorlik jamiyatlaridan foydalanish;

- barcha aksiyalarni sotib olmagan holda, nazorat aksiyalariga egalik qilish orqali biznes ustidan nazoratni amalga oshirish qobiliyati [2].

Biroq, aksiyadorlik jamiyatlari jamiyatda potentsial xavfli ko'rinishlarini yumshatish uchun davlat tomonidan tartibga solishni talab qiladigan bir qator salbiy xususiyatlarga ega. Bu salbiy xususiyatlar orasida quyidagilar bor:

- qiyinchilik darajasi va ularni yaratish davomiyligi (ayniqsa, ommaviy);

- ustav kapitalining minimal miqdori va uning o'zgarishini ro'yxatdan o'tkazishning murakkabligi bo'yicha qat'iy talablar;

- ozchilik manfaatlarini inobatga olmaslik;

- xodimlarning ijro etuvchi organini tuzish va aksiyadorlarning ixtiyoriy shaxsiy ishtiroki tufayli aksiyadorlarni aksiyadorlik jamiyatlari boshqaruvidan ajratish;

- aksiyadorlik jamiyatini boshqarish va uning ijro etuvchi organi ustidan aksiyadorlar nazoratining murakkabligi, bu quyidagi organlar tizimi mavjudligi natijasida yuzaga keladi: aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi, direktorlar kengashi, kuzatuv kengashi va taftish qo'mitasi;

- mablag'larni to'plash oson bo'lishi natijasida ta'sischi tomonidan suiiste'mol qilish ehtimoli;

- monopoliyaga moyillik;

- aksiyadorlik jamiyatlari ustidan nazoratni amalga oshirish qobiliyati, agar bu nazorat kompaniyalar va ularning aksiyadorlariga zarar etkazsa;

- korporativ davlatni tartibga solishning muhim (va ko'pincha haddan tashqari) darajasi [3].

Aksiyadorlik jamiyatining moliyaviy holati ta'sischi va ishtirokchilarning jamiyat ustav fondiga aksiyadorlarning umumiy mulki sifatida qo'shilishi, aksiyalarning chiqarilishi va muomalasi, daromadlari, mol-mulki va foydasi to'g'risidagi qonun bilan tartibga solinadi. kompaniyaning mablag'lari va aksiyalar bo'yicha dividendlar.

Har bir kompaniya o'z faoliyatini tashkil etish va yuritish uchun ta'sischi va a'zolarining ixtiyoriy uyushmasi tomonidan boshqariladi. Shu sababli va boshqalarga ko'ra, jamoaviy mulk huquqlari qonuniy asosda, jamiyatning ustav jamg'armasi tashkil etiladigan zarur shartnomalar shartlari bilan o'rnatilishi mumkin (ta'sischi ta'sis hujjatlariga o'z hissalarini qo'shadilar, boshqa aksiyadorlar - sotib olish shartlari bo'yicha). aksiyalarni sotish).

Aksiyadorlar orasidan tuzilgan taftish muhim hisoblanib, taftish komissiyasi aksiyadorlik jamiyatining direktorlar kengashining moliyaviy-xo'jalik faoliyatini nazorat qilish uchun javobgardir.

Ekspertlarning aksariyati aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy ko'rsatkichlarini Dupont firmalarining moliyaviy hisobotlarini jiddiy tahlil qilish orqali aniqlashni tavsiya qiladi. Texnika aksiyadorlik jamiyatlarining muvaffaqiyati ularning boshqaruv organlari tomonidan uchta sohada qabul qilingan qarorlarga bog'liq ekanligiga asoslanadi:

- ishlab chiqarish faoliyati;

- investitsiya faoliyati;
- va moliyaviy faoliyat

Aksiyadorlik korxonalarining moliyaviy holatini o'rganayotganda, to'lovga layoqatsizlikni bashorat qilishda qo'llaniladigan strategiyaga alohida e'tibor qaratish lozim. Bankrotlikni bashorat qilish tizimlari dastlab inqiroz paytida xavflarni bashorat qilishda, keyin esa strategik qiyinchiliklarni aniqlashda ishlatilgan. Har bir texnikaning bir qator afzalliklari va kamchiliklari bor, ular diagnostika qiyinchiliklarini hal qilish uchun tanlashda e'tiborga olinishi kerak. Shunday qilib, aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy tahlili daromadlar va xarajatlarni muvozanatlashda rentabellikni maksimal darajada oshirish uchun moliyalashtirishning maqbul shakllarini, kompaniyaning mablag'lari, kapitali va zaxiralarining tuzilishini, shuningdek ulardan foydalanish sohalarini aniqlashni o'z ichiga oladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Funk Y.I., Mixalchenko V.A., Xvalei V.V. (2009). Aksiyadorlik jamiyati. – Minsk: Amalfeya.
2. Ignatieva I. A., Garafonova O.I. (2013). Korporativ boshqaruv: pidruch. K.: TSUL.
3. Grishina I. I. (2014). Yuridik shaxslar aksiyadorlarining turli xil fikrlari. Xarkov milliy ma'lumotnoma universiteti xabarnomasi, (45). 26-33.
5. Berdar M.M. (2015). Korxonaning moliyaviy resurslarini shakllantirish va saqlash jarayonini boshqarish. Iqtisodiyotning dolzarb muammolari, (5). 133-138.

## QIMMATLI QOG‘OZLAR VA ULARNING TURLARI

**Buronov Jahongir,**

Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti  
TDYU, Biznes huquq kafedrası katta o‘qituvchisi,  
PhD Jumagulov Alisher Ernapasovich taqrizi ostida

**Annotatsiya:** Ushbu maqola qimmatli qog‘ozlar, ularning turlari va fond birjasi faoliyatini tahlil qilishga bag‘ishlangan bo‘lib, bu tahlil “aksiya”, “obligatsiya”, “veksel” kabi qimmatli qog‘ozlarni tushuntirish asosida amalga oshirilgan. Shuningdek, maqolada dunyo hamjamiyatida yuz berayotgan siyosiy va iqtisodiy o‘zgarishlar qimmatli qog‘ozlar bozori faoliyatiga qanday ta’sir etishi ko‘rsatib o‘tilgan.

**Kalit so‘zlar:** qimmatli qog‘ozlar, aksiya, obligatsiya, veksel, qimmatli qog‘ozlar bozori.

Moliyaviy nuqtayi nazardan qimmatli qog‘oz pul qiymatiga ega bo‘lgan va sotilishi mumkin bo‘lgan sertifikat yoki boshqa moliyaviy vositadir. Qimmatli qog‘ozlarni investorlarga sotish ochiq savdo kompaniyalari operatsiyalari uchun yangi kapital jalb qilishning asosiy shakllaridan biridir. Amerika Qo‘shma Shtatlarida Qimmatli qog‘ozlar va birja komissiyasi (SEC) firibgarlik va qasddan yolg‘onchilikning oldini olish uchun qimmatli qog‘ozlar bilan operatsiyalarni, moliyaviy mutaxassislar faoliyatini va investitsiya fondlarining savdosini nazorat qiladi.

O‘zbekistonda qimmatli qog‘ozlar bozorini huquqiy tartibga soluvchi qonunlar 3 marta, ya’ni 1996, 2008 va 2015-yillarda qabul qilingan. Amaldagi qonun ham Kapital bozorini rivojlantirish agentligi tomonidan taklif etilgan konsepsiyaga binoan yangi tahrirda va butunlay yangicha mazmunda qabul qilinishi mo‘ljallanmoqda. Kapital bozorini rivojlantirish agentligining tahlillariga ko‘ra, sohani tartibga soluvchi 80 dan ortiq normativ-huquqiy hujjatlar bo‘lib, ularning 6 qonun, 15 ga yaqin Prezident farmon va qarorlari, 20 ga yaqin Vazirlar Mahkamasining qarorlari hamda 40 dan ortiq idoraviy-normativ hujjatlar bor.<sup>93</sup>

2015-yil 3-iyunda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining “Qimmatli qog‘ozlar bozori to‘g‘risida”gi qonuniga muvofiq “qimmatli qog‘ozlar – hujjatlar bo‘lib, ular bu hujjatlarni chiqargan yuridik shaxs bilan ularning egasi o‘rtasidagi mulkiy huquqlarni yoki qarz munosabatlarini tasdiqlaydi, dividendlar yoki foizlar tarzida daromad to‘lashni hamda ushbu hujjatlardan kelib chiqadigan huquqlarni boshqa shaxslarga o‘tkazish imkoniyatini nazarda tutadi. Qimmatli qog‘ozlarning qiymati O‘zbekiston Respublikasi milliy valyutasida ifodalanadi”.<sup>94</sup>

Yuqorida qayd etilgan qonunga ko‘ra, qimmatli qog‘ozlarga aksiyalar, obligatsiyalar, depozit va jamg‘arma sertifikatlari, veksellar, shuningdek, hosila qimmatli qog‘ozlar kiradi. Xorijiy davlatlarning me‘yoriy hujjatlarida qimmatli qog‘ozlar “hujjat egasining bunday hujjatni chiqargan shaxsga nisbatan mulkiy huquqlarini yoki qarz munosabatlarini tasdiqlovchi pul hujjati sifatida” ancha qisqa ta’riflanadi.

Huquqiy nuqtai nazardan, an’anaviy tarzda qimmatli qog‘ozlar ancha keng ma’noda ko‘rib chiqiladi – ya’ni bular “mulkiy huquqlarni belgilangan shaklga va majburiy rekvizitlarga amal qilgan holda tasdiqlovchi hujjatlar bo‘lib, ularni taqdim etgan taqdirdagina mazkur huquqlarni amalga oshirish yoki boshqa shaxslarga berish mumkin bo‘ladi”.

Aksiya (fransuzcha action so‘zidan) – o‘z egasining aksiyadorlik jamiyati foydasining bir qismini dividendlar tarzida olishga, aksiyadorlik jamiyatini boshqarishda ishtirok etishga va u tugatilganidan keyin qoladigan mol - mulkning bir qismiga bo‘lgan huquqini tasdiqlovchi, amal

<sup>93</sup> PhD Jumagulov Alisher Ernapasovich. Investitsiya fondlarining fuqarolik-huquqiy maqomi.

<sup>94</sup> “Qimmatli qog‘ozlar bozori to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni, 03.06.2015 yildagi O‘RQ-387-son. 3-modda.

qilish muddati belgilanmagan egasining nomi yozilgan emissiyaviy qimmatli qog'oz. Aksiya o'zining faqat unga tegishli sifatlari bilan har xil turdagi qimmatli qog'ozlar ichida alohida o'rin tutadi.

Eng avvalo bu – amal qilish muddati belgilanmagan qimmatli qog'oz bo'lib, u uni chiqargan aksiyadorlik jamiyati amal qilib turgan yil mobaynida muomalada bo'lishi mumkin. Aksiya egasi aksiyadorlik jamiyati tugatilgan hollarda uning mol –mulkini taqsimlashda ishtirok etish huquqiga ega. Aksiyalar bo'yicha olingan daromad – dividend, deb nomlanadi. Dividend, odatda, aksiyadorlik jamiyatining foydasiga bog'liq bo'ladi. Agar kompaniya hisobot yili natijalariga ko'ra katta foydaga ega bo'lsa, unda katta dividend to'lash imkoniyati bo'ladi va aksincha. Agarda foyda mutlaqo bo'lmasa, dividend to'lanmasligi mumkin. Biroq, umumiy qoidalardan istisno hollar ham mavjud. Bu, masalan, imtiyozli aksiyalarga tegishli. Odatda, kredit quroli bo'lgan va kredit munosabatlarini o'zida aks ettirgan boshqa qimmatli qog'ozlar turlari (obligatsiyalar, depozit sertifikatlar, veksellar)dan farqli o'laroq, aksiya mulkiy munosabatlarni tartibga soluvchi vositadir. Uning egasi kompaniya aksiyadorlarining umumiy yig'ilishida u yoki bu qarorga o'z ovozi bergan holda aksiyadorlik jamiyatini boshqarishda ishtirok etish huquqiga ega.

O'z navbatida shuni aytish lozimki, so'nggi yillarda dunyo hamjamiyatida kuzatilayotgan global o'zgarishlar va kutilmagan hodisalar fond birjasiga ham ta'sir etmasdan qolmaydi. Jumladan, koronavirus pandemiyasi davrida nafaqat O'zbekistonda, balki butun Yevropa mamlakatlari hamda yetakchi industrial davlatlarda aksiyalar bilan bog'liq dividend ko'rsatkichlari to'lqin singari o'zgarib turdi. Masalan, 2020-yil 20-iyulgacha shu yilning 1-yanvari bilan solishtirganda AQSH va Yaponiyada yillik dividend o'sishi 8 foizga, Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida esa 14 foizga kamaydi.<sup>95</sup>

**Obligatsiya** — emissiyaviy qimmatli qog'oz bo'lib, u obligatsiyani saqlovchining obligatsiyaning nominal qiymatini yoki boshqa mulkiy ekvivalentini obligatsiyani chiqargan shaxsdan obligatsiyada nazarda tutilgan muddatda olishga, obligatsiyaning nominal qiymatidan qat'iy belgilangan foizni olishga bo'lgan huquqini yoxud boshqa mulkiy huquqlarini tasdiqlaydi.<sup>96</sup> Ma'lumki, 2020-yil yanvar oyidan boshlab Markaziy bank obligatsiyalari muomalaga chiqarila boshlandi. Bu pul-kredit siyosati instrumenti bo'lib, foiz stavkalarini tartibga solish va tijorat banklarida mavjud ortiqcha likvidlikni nisbatan uzoqroq muddatga jalb etish maqsadida chiqariladi.

Hukumat va korporativ qimmatli qog'ozlardan farqli ravishda Markaziy bank obligatsiyalarining asosiy maqsadi qarz majburiyatlarini jalb qilish emas, balki bank tizimi likvidligini oshirish hisoblanadi. Obligatsiyalar qisqa muddatli bank likvidligini jalb qilishga mo'ljallangan bo'lib, bir yilgacha bo'lgan muddatda chiqariladi. Obligatsiyalarni joylashtirish erkin bozor sharoitida auksion o'tkazish orqali amalga oshiriladi. Tijorat banklari sotib olish zaruriyati va hajmi to'g'risidagi qarorlarini mustaqil qabul qiladilar.<sup>97</sup>

Veksel (nemischa Wechsel so'zidan) – veksel beruvchining yoki vekselda ko'rsatilgan boshqa to'lovchining vekselda nazarda tutilgan muddat kelganda veksel egasiga muayyan summani to'lashga doir shartsiz majburiyatini tasdiqlovchi noemissiyaviy qimmatli qog'oz. Oddiy veksel (solo veksel) – bu qarzdorning (veksel beruvchining) muayyan pul summasini ko'rsatilgan muddatda kreditorga (birinchi oluvchisiga) to'lash majburiyatini ifodalovchi hujjat. O'tkazma veksel (tratta) bu veksel beruvchi kreditor(trassant)ning qarzdor(trassat)ga ma'lum pul summasini ko'rsatilgan muddatda uchinchi shaxs birinchi oluvchi(remitent)ga to'lashi buyrug'ini

<sup>95</sup> Niels J.Gormsen and Ralph S.J. Koijen. Coronavirus: Impact on Stock Prices and Growth Expectations. August 3, 2020.

<sup>96</sup> "Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni, 03.06.2015 yildagi O'RBQ-387-son. 3-modda.

<sup>97</sup> [www.finlit.uz](http://www.finlit.uz)

ifodalovchi hujjat. O'tkazma veksel, agar u qarzdor –trassat tomonidan akseptlanmagan bo'lsa, qonuniy kuchga ega bo'lmaydi. Aksept (to'lash uchun rozilik) yozma ravishda vekselning ustki tomonida amalga oshiriladi. Aksept umumiy yoki chegaralangan (qisman) bo'lishi mumkin. Qismli aksept –bu qarzdorning veksel valyutasi bir qismini to'lash uchun yozma ravishdagi roziligidir.

“Veksel akseptlanmagan hollarda yoki u bo'yicha to'lovdan bosh tortilsa, veksel bo'yicha da'vo qilinishi mumkin. Bunda uning egasida veksel bo'yicha majburiyatga ega bo'lgan oldingi shaxslarga regress, ya'ni qaytarma talab tartibida to'lash huquqi paydo bo'ladi. Veksel majburiy rekvizitlarga ega bo'lishi lozim, ulardan hech bo'lmaganda bittasining yo'qligi vekselni haqiqiy bo'lmasligiga olib keladi. O'tkazma vekselning oddiy veksel dan asosiy farqi shundan iboratki, u qimmatliklarni bir shaxs ixtiyorida boshqa shaxs ixtiyoriga o'tkazish uchun mo'ljallangan.”<sup>98</sup>

O'tkazma vekselning mazmunidan shu narsa kelib chiqadiki, u bo'yicha majburiyat trassat (to'lovchi) uchun faqat u veksel (aksept)ni qabul qilgan yildan boshlab paydo bo'ladi. Aks holda trassat veksel beruvchi uchun mutlaqo begona shaxs bo'lib qoladi. Bundan kelib chiqib, veksel bo'yicha pullarni oluvchilar oldindan, to'lov muddati kelgunga qadar to'lovchining vekselni to'lashga bo'lgan munosabatini aniqlashi mumkin. Bu maqsadga vekselni trassatga uni akseptlash, demak, o'z zimmasiga to'lovni amalga oshirish majburiyatini olish taklifi bilan taqdim etish yo'li orqali erishiladi. Shu bilan birga, vekselni akseptga taqdim etish veksel egasi trassat va trassantning qodirligiga ishongan hollar uchun majburiy hisoblanmaydi. Veksel akseptga istalgan yilda, veksel berilgan kundan boshlab to to'lov muddati boshlanadigan yilgacha taqdim etilishi mumkin.

Qimmatli qog'ozlarning hosilalari - o'z egalarining boshqa qimmatli qog'ozlarga nisbatan huquqlarini yoki majburiyatlarini tasdiqlovchi va yuridik shaxslar tomonidan emitentning opsiyonlari, qimmatli qog'ozlarga doir fyucherslar va boshqa moliyaviy vositalar tarzida chiqariladigan qimmatli qog'ozlardir. Hosila qimmatli qog'ozlar (HQQ) – bu shartnomalar bo'lib, ular bo'yicha bir tomon qimmatli qog'ozlarning ma'lum bir miqdorini ma'lum muddatda kelishilgan narxda sotib olish yoki sotish huquqi yoxud majburiyatini oladi. Ko'pincha bazis aktivi (ya'ni shartnoma asosida yotuvchi qimmatli qog'oz) sifatida aksiyalar va obligatsiyalar ishtirok etadi.

O'zbekistonda hosila qimmatli qog'ozlarni chiqarish va ular muomalada bo'lishining o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Hosila qimmatli qog'ozlarni chiqarish va ularning muomalada bo'lishi haqidagi Nizomga muvofiq Respublika hududida faqat ularning negizida aksiyadorlik jamiyatlarining qimmatli qog'ozlari yotadigan hosila qimmatli qog'ozlar chiqarilishi mumkin. Mazkur hosila qimmatli qog'ozlarning emissiya risolasi davlat ro'yxatidan o'tishi va belgilangan tartibda ro'yxatga olish raqamiga ega bo'lishi lozim. Hosila qimmatli qog'ozlarning emitenti – bu HQQni chiqaruvchi va ushbu qimmatli qog'ozlar egalarining oldida ular bo'yicha o'z nomidan majburiyatga ega bo'lgan yuridik shaxsdir. Hosila qimmatli qog'ozlarni chiqarish to'g'risidagi qaror uni chiqarish vakolatiga ega bo'lgan emitentning boshqaruv idorasi tomonidan qabul qilinadi.

Umumiy qilib aytganda, qimmatli qog'ozlar xususiyatlari bo'yicha ularning orasidagi tafovut anchagina. O'zbekistonda ko'p hollarda yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan aksiyalarga e'tibor va talab katta. Chunki biror-bir firmaga investitsiya kiritganda yoki uning boshqaruvida ishtirok etganda aksiya sotib olish orqali qatnashish boshqa qimmatli qog'ozlar orqali daromadga ega bo'lishga qaraganda daromadliroq bo'ladi, garchi dividend miqdori firmaning yillik daromadlariga bog'liq bo'lsa ham.

<sup>98</sup> <https://studylib.net/doc/25580223/qimmatli-qog-ozlar-referat-kurs-ishi>

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. “Qimmatli qog’ozlar bozori to’g’risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni, 03.06.2015 yildagi O‘RQ-387-son
2. Niels J.Gormsen and Ralph S.J. Koijen. Coronavirus: Impact on Stock Prices and Growth Expectations. August 3, 2020.
3. [www.finlit.uz](http://www.finlit.uz)
4. <https://studylib.net/doc/25580223/qimmatli-qog-ozlar-referat-kurs-ishi>



**“INVESTITSIYA FAOLIYATINING  
XALQARO HUQUQIY KAFOLATLARI”**

**“МЕЖДУНАРОДНО-ПРАВОВЫЕ ГАРАНТИИ  
ИНВЕСТИЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ”**

**“INTERNATIONAL LEGAL GUARANTEES  
OF INVESTMENT ACTIVITY”**

**XALQARO ILMIY-AMALIY  
KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

Toshkent davlat yuridik universiteti  
Toshkent – 2023

Muharrir	Y. Mahmudov
Musahhah	M. Patillayeva
Texnik muharrir	U. Sapayev
Dizayner	D. Rajapov

10.08.2023-yilda bosishga ruxsat etildi. Bichimi 60x84<sup>1/8</sup>,  
“Cambria” garniturasida, 28,83 shartli bosma taboq.  
Adadi 100. 41-buyurtma.

Toshkent davlat yuridik universiteti bosmaxonasida chop etildi.  
100047. Toshkent shahri, Sayilgoh ko'chasi, 35-uy.

